

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
A K A D E M I YA

H. ODILQORIYEV, N. AZIZOV, X. MADIRIMOV

# DAVLAT VA HUQUQ TARIXI

*O‘zbekiston Respublikasi IIV tomonidan Vazirlik oliy ta’lim  
muassasalari uchun darslik sifatida foydalanishga ruxsat etilgan*

Toshkent 2012

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining  
Tahririyat-noshirlik hay’atida maqullangan*

Taqrizchilar:

yuridik fanlar doktori, professor **J. TOSHQULOV;**

tarix fanlar nomzodi, dotsent **D. RAZZOQOV**

**O-42 Davlat va huquq tarixi:** IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik // H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 345 b.

Darslik davlat va huquq tarixi sohasidagi hozirgi zamon ilmiy konsepsiyalarini inobatga olgan holda tayyorlangan bo‘lib, uning mavzulari Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi asosida yoritilgan. Unda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar davlatchilik va huquq tarixida katta iz qoldirgan davlat tuzilmalari, huquq manbalari tahlil etilgan. Mamlakatda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati, demokratik davlatchilik va huquqiy tizim xususiyatlariga oid xulosalar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, davlat va huquqning jamiyatni modernizatsiyalash davridagi roli bayon etilgan.

Yuridik oliy ta’lim muassasalarining talabalari, o‘qituvchilari, mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrlar hamda davlat va huquq tarixi masalalariga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

**BBK 67.(5U)ya73**

---

## KIRISH

Davlat va huquq ijtimoiy hodisalar bo'lib, jamiyatning muhim, ajralmas tarkibiy qismini tashkil qiladi. Jamiyat tarixi va unga mos holda davlat va huquq tarixi uzluksiz rivojlanish jarayonidan iborat.

Davlat va huquq tarixini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega masalalardan biridir. O'zbekiston Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ushbu masalaning naqadar dolzarb ekanligiga e'tiborni qaratib shunday deydi: «Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. Nega deganda, O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo'layotgan, kerak bo'lsa, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor. Bunday g'alamlarning orasida qanday qilib bo'lsa ham bizni yana sobiq SSSRga qaytarish niyatida yurganlar yo'q, deysizmi? O'zbek tarixchilarining asosiy vazifasi mana shu da'voning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir»<sup>1</sup>.

Tarix o'tmishning yig'ilgan tajribalarini saqlovchi, uni avlodlarga asrab yetkazib keluvchidir. Hozirgi zamonning har bir yirik masalasi hayotning qaysi sohasida bo'lmasin, jumladan, davlat va huquqiy tajribalarni hisobga olmasdan, chuqur o'rganmasdan hamda unumli foydalanmasdan, samarali hal etilishi mumkin emas. Binobarin, davlatimiz rahbari I.A. Karimov ta'kidlaganidek: «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi... Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir»<sup>2</sup>.

Ma'lumki, O'zbekiston 1991-yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, «o'zbek modeli» deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Ushbu modelning ma'no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan holi etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. – Т., 1999. – Б. 139.

<sup>2</sup> О'sha manba. – Б. 137.

tashabbuskori bo'lishi ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q», «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» va shu kabi boshqa asarlari davlat va huquq tarixini o'rganishda, davlatchilik taraqqiyotiga xolisona baho berishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari avvalo inson, fuqaro sifatida o'z mamlakatining tarixi, milliy davlatchilik tarixi, huquqiy taraqqiyot bosqichlari va tajribalarini mukammal bilishi zarur. Qolaversa, har bir huquqshunos davlat va yuridik muassasalar, huquqiy institutlar murakkab tizimining vujudga kelishi va taraqqiy etishi jarayonini mukammal bilishi muhimdir.

---

## ***I BOB. DAVLAT VA HUQUQ TARIXI FANINING PREDMETI, METODI VA VAZIFALARI***

### **1-§. Davlat va huquq tarixi fanining predmeti, metodlari va vazifalari**

Davlat va huquq tarixi fani tarixiy-yuridik fan hisoblanadi. U alohida fan sifatida XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida shakllangan. Ilk davrlarda asosan Butundunyo huquqi tarixi, Butundunyo davlati va huquqi tarixi deb yuritilgan. Ushbu o'quv kursi doirasida dastlab Rim huquqining tarixi o'rganilgan. Uning alohida fan sifatida rivojlanishida G'arbiy Yevropa davlatlaridan Germaniya, Fransiya, Angliya va Rossiya olimlarining hissasi katta.

Davlat va huquq tarixi fanini bilish, xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston hududida o'tmishda mavjud bo'lib, davlatchilik va huquqiy taraqqiyotda chuqur iz qoldirgan davlat va huquq institutlarini o'rganish, shuningdek, o'zbek davlatchiligi asoslari, rivojlanish jarayonlari va yutuqlarining mohiyatini chuqur anglab yetish hozirgi kunda oldimizga qo'yilayotgan murakkab vazifalarni hal qilishda qo'l keladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – O'zbekiston va jahonning boshqa qator mamlakatlari davlat va huquqiy taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari, mohiyati, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarni uzviy shakllantirishdan iborat.

Fanning bosh vazifasi – davlat va huquq rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, o'zbek milliy davlatchiligining alohida siyosiy va huquqiy tizimlariga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Umuman olganda, davlat va huquq tarixi fanining vazifalari davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bog'liq eng muhim ma'lumotlarni tahlil etish, tarixiy jarayonning asosiy qonuniyatlarini chuqur anglab yetish, tarixiy tajribalarni ijodiy yondashuv asosida idrok etishga qaratilgan.

Davlat va huquq tarixi fani tarix fanidan farq qilgan holda jamiyatni to'la va butunligicha o'rganmaydi, balki davlat va yuridik muassasalar murakkab tizimining tarixiy rivojlanish jarayonini hamda huquq, uning alohida sohalari va institutlarining kelib chiqishi, rivojlanish jarayonini hamda mazmunini o'rganadi.

Davlat va huquq tarixi fanining predmeti – muayyan tarixiy sharoitda davlat va huquqiy institutlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayoni hamda uning tarixiy-nazariy qonuniyatlaridan iborat.

O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan davlat tuzilmalari va huquq tizimlarini o‘rganish, ota-bobolarimizning ilg‘or va dono fikrlari, tajribalari hozirgi davr davlatchiligi haqidagi qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston davlati hozirgi hududiy va davlat ko‘rinishi olguncha bir necha ming yillik taraqqiyot davrini bosib o‘tdi. Shu davr oralig‘ida markazi O‘zbekiston hududida joylashgan, chegaralari Yevropa, Hindiston, Xitoyga borib taqaladigan buyuk imperiyalar (Parfiya, Xorazmshohlar davlati, Temur saltanati) vujudga keldi. Shu bilan birga, ushbu hudud qayta-qayta boshqa kuchli imperiyalar uchun tobe mamlakat ham bo‘lib keldi. Lekin shunisi aniqki, O‘zbekistonda davlatchilik ming yillar davomida shakllanib kelgan. Hozirgi mustaqil O‘zbekiston davlati tarixan mustahkam davlatchilik poydevorlari ustida qurilgan.

Har qanday fanning asosiy vazifasi o‘rganilayotgan narsa va hodisalarning taraqqiyot qonunlarini ochib berishdan iborat. Bu borada har bir fan o‘z tadqiqot uslublariga ega. Har bir fan nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar yig‘indisi sifatida tadqiqot jarayonida turli metodlardan foydalanadi.

Davlat va huquqning murakkab, xilma-xil, rang-barang hodisalarning haqiqiy mazmunini, yuridik tabiatini, mohiyatini, rivojlanish qonunlarini bilishning aniq uslublari bo‘lib, ular ilmiy tadqiqot va izlanishning yo‘nalishini ifodalaydi. Bu o‘rinda, birinchi navbatda, muayyan-tarixiy, davlat-huquqiy hodisalarni, keng ma’noda esa tarixiy-huquqiy fanning poydevori hisoblangan tarixiy faktlarni bilish vositalari, uslublari nazarda tutiladi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida bilishning aniq shakli va usullaridan foydalanish orqali ilmiy bilimlar vujudga keladi va rivojlantiriladi. Ta’lim tizimida ilmiy tadqiqot jarayonida kelib chiqqan muammo yoki masalaning qo‘yilishi va hal qilinishida maxsus uslublardan foydalaniladi.

Fanning metodlari tizimida xususiy, umumiy ilmiy va eng umumiy metodlar mavjud. Ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq.

Dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo‘lib, u barcha fanlar uchun, jumladan tarixiy-huquqiy fanlar uchun ham metodologik ahamiyat kasb etadi. Dialektik usul xususiy fanlar erishgan yutuqlardan foydalanib, ularning usullari bilan birgalikda rivojlanadi, ular bir-birini to‘ldiradi va boyitadi. Davlat va huquq tarixini o‘rganishdagi

bunday usul davlat va huquq kabi ijtimoiy hodisalarning mohiyatini jamiyat moddiy shart-sharoitlari, iqtisodiy negiz bilan bog‘lab o‘rganishni ta‘minlaydi.

Dialektik usul – davlat va huquq doimo rivojlanadi, o‘zgaradi, bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tadi, deb qaraydi. Dialektika hodisalarni rivojlanishda, boshqa hodisalar bilan aloqadorlikda, bir-biri bilan bog‘liq holda, harakatda, miqdoriy va sifat o‘zgarishida, deb o‘rganadi. Binobarin, ularni tushunish uchun mazkur hodisalarni vujudga keltirgan sharoitni, mavjud bo‘lgan va yashayotgan davrni bilish kerak.

Umumiy ilmiy metodlardan biri bo‘lgan tahlil (analiz) usuli orqali o‘rganilayotgan narsa va hodisalar mayda bo‘laklarga, ya‘ni elementlarga ajratilib, ular o‘rtasidagi bog‘lanish, o‘zaro munosabati va ta‘siri o‘rganiladi.

Sintez o‘z navbatida analiz usulining natijalariga tayanib, davlat va huquqning butun sifatini, mavjud bo‘lgan davlat va huquq tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlari asnosida muayyan jihatlarni ochib beradi. Sintez analiz natijasida fikran bo‘lingan elementlarni qaytadan tiklash, ularni birlashtirish, yaxlitlikni tafakkur darajasida vujudga keltirish usulidir.

Qiyosiy usul orqali davlat va huquqning avvalgi bosqichlardagi va hozirgi rivojlanishidagi xususiyatlarning o‘xshashligi hamda o‘zaro farqlari mukammal ko‘rib chiqiladi.

Tarixiylik usuli davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanib borishi vaqtini, davrini aniqlashtirish usulidir. Har bir davlat va huquqiy hodisa tarixiy nuqtai nazardan, aniq tajribaga bog‘lab o‘rganilishi zarur. Davlat va huquq tarixini yoritish uning taraqqiyotidagi asosiy tarixiy bosqichlar, ularning sababiy bog‘liqliklarini ko‘rsatishni talab qiladi.

Mantiqiylik usuli fan predmetini mushohada yordamida nazariy shaklda tadqiq qilish usuli hisoblanadi. U tadqiqot obyekting eng muhim aloqalarini bilishga imkon beradi. Davlat va huquqning tarixan obyektiv mavjudligini, ularning o‘zaro aloqalarining turli-tumanligini aks ettirish vazifasini bajaradi. Qarama-qarshi fikrlar va xulosalarni bartaraf etishga ko‘maklashadi.

Umumiy ilmiy usullardan biri tizimli tahlil usulidir. U murakkab obyektlarni ilmiy bilishda qo‘llaniladi. Davlat va huquq o‘z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridanoq ancha murakkab ijtimoiy qurilmalar bo‘lganligi bois, tarixiy-huquqiy izlanishlarda ularni tizimli yondashuv usuli bilan tahlil qilish samarali hisoblanadi. Tizimli tahlil usuli muayyan tarzda o‘zaro bog‘langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan unsurlar majmuini yaratishni ta‘minlaydi. Mazkur usul asosida



o'rganilayotgan obyektning boshqa obyekt bilan umumiy bog'lanishi va o'zaro munosabatlari ochiladi. Bu uslub yordamida davlat va huquqning o'zaro bog'liq murakkab butun tuzilishidan alohida, o'ziga xos, takrorlanmas, shuningdek, umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan tarkibiy qismlarini ajratib olish mumkin bo'ladi.

Davlat va huquq tarixi fanini o'rganishda juda muhim bo'lgan xususiy ilmiy metodlar ham mavjud. Ular muayyan-tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik metodlardir.

Davlat va huquq tarixi fani davriy va hududiy jihatdan umumlashtirish va tizimlashtirishga asoslanib, xronologik izchillikda quyidagi davrlarga ajratib o'rganiladi:

- Qadimgi dunyo mamlakatlari davlati va huquqi tarixi;
- O'rta asrlar davlati va huquqi tarixi;
- Yangi davrda davlat va huquq tarixi;
- Eng yangi davrda davlat va huquq tarixi.

Davrlarga bo'lish shartli qabul qilingan bo'lib, u davlat va huquq tarixining rivojlanish bosqichlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan hodisalariga tayanadi. Davrlarga bo'lib o'rganish fanni mukammal o'rganishga, chuqurroq qabul qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixining davrlarga bo'linishi ham shartli bo'lib, uni quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

- Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olingunga qadar O'zbekiston hududida davlat va huquq tarixi;
- Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olingan davrda O'zbekiston hududida davlat va huquq tarixi;
- mo'g'ullar hukmronligi davrida O'zbekiston hududida davlat va huquq tarixi;
- Temur saltanatining davlati va huquqi tarixi;
- ko'chmanchi o'zbeklar davlati hamda o'zbek xonliklarining davlati va huquqi tarixi;
- Chor Rossiyasi hukmronligi davrida O'zbekiston hududida davlat va huquq tarixi;
- Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston hududida davlat va huquq tarixi;
- Mustaqil O'zbekiston davlati va huquqi tarixi (hozirgi davrga qadar).

Fanda davlat va huquq masalalari quyidagi tizimga asoslanib o'rganiladi:

- o'rganilayotgan davlatning tashkil topishi;
- jamiyatning ijtimoiy tuzumi;



- davlat tuzumi – davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy organlari tizimi;
- huquqning asosiy tavsifi – huquq tizimi, uning xususiyatlari, huquq manbalari, sohalari, institutlari va normalari.

## **2-§. Davlat va huquq tarixi fanining ijtimoiy va yuridik fanlar bilan aloqadorligi**

Davlat va huquq tarixi fanida davlat va huquq tuzilmalari yaxlit holda o'rganiladi. Davlat va huquq tarixi bir-biri bilan uzviy bog'liq va o'zaro aloqadordir. Shu nuqtai nazardan davlat va huquq tarixi fani yuridik fanlarning muhim po'ydevori bo'lib hisoblanadi.

Davlat va huquq tarixi keng tarixiy va daliliy materiallarga asoslanib, bu materiallarni umumlashtirib va sintez qilib, muayyan hududda davlat va huquqning vujudga kelishini, ularning mohiyati, mazmuni va shakllarini, davlat va huquqning turli rivojlanish bosqichidagi o'ziga xos tomonlarini; huquqiy manbalarning paydo bo'lishi, tuzilishi, amal qilishi, qo'llanilishi, ularda mustahkamlangan huquq sohalari va institutlarining mohiyati va shu singari xususiyatlarni ochib beradi.

Davlat va huquq tarixi fani o'rganadigan masalalar yuridik fanlar tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Yuqorida keltirilgan holatlar davlat va huquq nazariyasi fani uchun ham taalluqlidir. Shu jihatdan davlat va huquq tarixi fani davlat va huquq nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, davlat va huquq nazariyasi ham davlat va huquqning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Lekin davlat va huquq nazariyasi mantiqiy uslub yordamida tarixiy jarayonni abstrakt shaklda, har qanday tasodiflardan holi tarzda aks ettiradi. U o'zining umumiy huquqiy tushunchalari va kategoriyalari tizimini ishlab chiqadi. Bunday ilmiy kategoriya va tushunchalardan boshqa yuridik fanlar qatori davlat va huquq tarixi fani ham keng foydalanadi.

Davlat va huquq tarixi davlat va huquq nazariyasidan farqli ravishda, davlat-huquqiy institutlar va hodisalarni xronologik izchillikda ma'lum tarixiy muhitda rivojlanishining muhim jarayonlarni o'rganadi. Davlat-huquqiy jarayonlarni makon va zamonda belgilangan tarzda tekshiradi va muayyan tarixiy qonuniyatlarni aniqlaydi. Davlat va huquq nazariyasi tarixiy-huquqiy izlanishlarning ilmiy natijalariga tayanib, davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi va harakat qilishining eng umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va izohlaydi.

Davlat va huquq tarixi fani xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi fani bilan ham chambarchas bog'liq. Ularning har ikkisi ham tarixiy-huquqiy fan oldida turgan vazifalarni birgalikda hal etadi, lekin o'rganadigan masalalari doirasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Davlat va huquq tarixi o'z predmeti doirasida xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixini ham o'rganadi.

Davlat va huquq tarixi, shuningdek, umumiy tarix, falsafa, iqtisod nazariyasi, mantiq kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqin aloqadorlikda ish ko'radi.

Falsafa insonlarni tabiat va jamiyatga qarashlar tizimi bilan qurollantiradi. U tabiat, jamiyat va tafakkurdagi hodisa va jarayonlar rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini ochadi. Bu fan ularning rivojlanishidagi eng umumiy qonuniyatlarni tushuntiradi. Falsafaning ijtimoiy ongning materiyaga va borliqqa munosabati, bazis va ustqurmaning bir-biriga munosabati, ustqurmaning faol, ko'makchilik roli to'g'risidagi va boshqa xulosalari davlat va huquq tarixiga bevosita taalluqlidir. Falsafa davlat va huquqni umumiy tarzda, ijtimoiy kategoriya sifatida ko'rib chiqadi.

Davlat va huquq tarixi fani, o'z navbatida, jamiyat iqtisodiy qonunlarining amal qilishini hamda moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganuvchi iqtisod nazariyasi bilan ham yaqindan aloqadordir. Moddiy hayot sharoitlari davlat va huquqni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyatning moddiy negizini o'rgansa, davlat va huquq tarixi fani iqtisodiy bazisdan kelib chiqadigan davlat va huquqni o'rganadi.

Davlat va huquq tarixi mantiq fani bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki, davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi, ularning bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishi singari qonuniyatlar mantiq qoidalariga bo'ysunadi.

Shu o'rinda davlat va huquq tarixi fanining arxeologiya va semantika fanlari bilan bo'lgan aloqasini ham alohida ko'rsatib o'tish lozim. Davlat va huquq tarixi mazkur fanlar bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar natijasida yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi va ularni tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qiladi.

O'zbek milliy davlatchiligini barpo etish va mustahkamlash, huquqiy demokratik, insonparvar jamiyat barpo etish, xalqning o'zini o'zi boshqarishga o'tish milliy davlatchilik va huquq tarixini o'rganish bilan chambarchas bog'liq.

Ijtimoiy va yuridik fanlar bilan chambarchas aloqador bo'lgan davlat va huquq tarixi fani Butun dunyo mamlakatlari davlati va huquqi tarixi, jumladan O'zbekistonda qadim zamonlardan mavjud bo'lib kelgan davlatlarning tashkil topishi va taraqqiy etishi, ijtimoiy-siyosiy tuzumining o'ziga xos xususiyatlari, boshqaruv tizimlari va an'analari, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari, huquq tizimi va manbalarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Davlat va huquq tarixi fani o'tmishda jahonda, shuningdek O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlat tuzilmalari va huquqiy institutlar haqida zaruriy bilimlarni hosil etish orqali huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda yuksaltirishga bevosita xizmat qiladi.

---

## **II BOB. O‘ZBEKISTON HUDUDIDA QADIMGI DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI VA HUQUQIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI**

### **1-§. Eramizga qadar O‘zbekiston hududida davlat va huquq**

Davlat va huquq tarixi fanining asosiy vazifalaridan biri – bu mustaqil davlatchilik sharoitida O‘zbekiston hududida davlat va huquqning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixini chuqur ilmiy va xolisona o‘rganish, tarixiy taraqqiyotning siyosiy-huquqiy yutuqlaridan mustaqil o‘zbek davlatchiligi va uning huquqiy tizimini takomillashtirishda foydalanish, qolaversa, boy va betakror tariximizni jahon jamoatchiligiga namoyish etishdir.

Ushbu mavzu O‘zbekiston hududida davlatchilik va huquq tarixining ilk, o‘z navbatida, murakkab davriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu zaminda siyosiy-huquqiy institutlarning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va sabablari, ilk davlat tuzilmalari, ularning siyosiy tuzumi, huquq manbalari, tarmoqlari va institutlari, O‘rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishiga qadar bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalarga asosiy e‘tibor qaratiladi.

O‘zbek davlatchiligining tarixi xususida so‘z borganda, fanda u joylashgan muayyan hudud, ya‘ni «O‘rta Osiyo» va «Movarounnahr» tushunchalariga murojaat etish lozim bo‘ladi. O‘rta Osiyo – g‘arbdan Kaspiy dengizi, janub va sharqdan Eron, Afg‘oniston va Xitoy Xalq Respublikasi, shimoldan (45°/32' kenglik) shimoliy chegara bilan chegaralanuvchi ulkan hududda joylashgan bo‘lib, jami 1 mln. 984 ming kv.km.ni tashkil etadi. O‘rta Osiyo Qadimgi g‘arb va Qadimgi sharqni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.

O‘zbekistonda davlat va huquqning rivojlanishi o‘zining bir necha ming yillik tarixiga ega. Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida mamlakatimiz hududida ko‘plab davlatlarni qamrab olgan imperiyalar, tarqoqlik tufayli vujudga kelgan kichik-kichik davlatlar mavjud bo‘lgan.

Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida hozirgi Markaziy Osiyo hududida 20 ga yaqin qabilalar bo‘lib, ular bir necha qabilalar ittifoqiga birlashgan. Ular orasida bir necha sak qabilalarini birlashtiruvchi massagetlar ittifoqi boshqa qabilalar ittifoqi-dan alohida ajralib turgan. Binobarin, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek

xalqining ildizlari ana shu massagetlarga borib taqaladi. Massaget qabilalari ittifoqiga quyidagi elatlar kirgan: qadimgi Sirdaryo havzasida, Amudaryoning sharqiy o‘zanlari bo‘yida va Qoraqumda yashovchi apasiaklar, Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan daxato‘ralar, taxminan Zarafshonning quyi qismi va Amudaryoning o‘rta oqimida yashagan derbiklar, Nurota tog‘larida o‘rnashgan sakavaraklar, Sirdaryoning o‘rta oqimidan Tyanshangacha cho‘zilgan usunlar ham antik davrlarda xorazmiylar tarkibiga kirgan.

Qabilaga birlashgan urug‘ a‘zolari umumiy mehnat bilan shug‘ullanganligi, mulkdan teng foydalanilgani, erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqli bo‘lganligi, urushlarda erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlar ham ishtirok etganligi, har bir qabilaning o‘z boshlig‘i bo‘lganligi, ayrim qabilalarning boshliqlari ayollar bo‘lganligi, qabilaning umumiy manfaati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar qabila a‘zolari yig‘ilishida muhokama qilinib hal etilganligi, har bir qabila, urug‘ning o‘z urf-odatlarini, qoidalarini bo‘lib, ularga qat’iy rioya qilinganligi haqida ayrim ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan<sup>1</sup>.

Qadimgi xalqlarda davlatni boshqarish, sudlov ishlarini amalga oshirish, xalq bilan davlat boshlig‘i o‘rtasidagi munosabatlar haqida «Shajarayi turk» asarining muallifi Abulg‘ozi Bahodirxon quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: «Qadimgi xalq bu zamonning xalqidan yaxshi edi. Agar el va xalq yig‘ilib kishi ultura bilur bo‘lsa va yo gunohkor so‘ray bilar bo‘lsa va yo bir ish boshqarmoq qo‘lindan kelur bo‘lsa, ne uchun bir mardga podshoh ot quyub evining to‘rinda o‘lturib, barcha xalq ixtiyorlarini aning qo‘lina bera tururlar»<sup>2</sup>.

Hozirgi kun ilm-fanida Markaziy Osiyoda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi hududida qachon va qanday omillar ta’sirida davlat va huquq paydo bo‘lgan degan savolga aniq javob yo‘q. Bu to‘g‘rida ba’zi taxminlar mavjud, xolos.

Hozirgi tarix fanida O‘zbekiston hududida miloddan avvalgi birinchi ming yillikda davlat birlashmalari bo‘lganligi, ular tashqi dushmanlarga qarshi urushlar olib borganligi, qo‘shni mamlakatlar bilan bordi-keldi qilganligi, iqtisodiy, madaniy va savdo aloqalari o‘rnatganligi ma’lum. Lekin bu davlat birlashmalarining tuzumi, boshqarish shakli, davlat organlari, mansabdor shaxslari, ularning vakolatlari, qonunlari, ularni

---

<sup>1</sup> Qarang: Qadimgi tarixchilar Ўрта Осиё хакида / Масъул мухаррир О. Абдуллаев. – Т., 2008. – Б. 6–51.

<sup>2</sup> *Абулғозий Баҳодирхон*. Шажарайи турк. –Т., 1992. – Б. 126.

buzganlik uchun javobgarlik turlari haqida aniq va to'la ma'lumot yo'q. Hozirgi kunda «Avesto»dan ushbu savollarga qisman javob topish mumkin. Bu o'rinda shuni qayd qilish kerakki, «Avesto» miloddan avvalgi VII asrdan keyingi davrga taalluqli manbadir.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu davrda hozirgi Markaziy Osiyo hududida uchta yirik davlat birlashmasi mavjud bo'lgan. Ular Katta Xorazm – Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy yerlar, Murg'ab vohasi va Parfiya hududlari, Baqtriya – hozirgi Surxondaryo va Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari hamda Shimoliy Afg'oniston hududlari, So'g'diyona – Zarafshon daryosidan suv ichgan yerlar va Qashqa vohasi hududlaridir.

Miloddan avvalgi XIII asrdan VIII asrgacha bo'lgan davr Xorazmda davlatchilik kurtaklarining vujudga kelishi va davlat shakllanishi davri bo'lgan. Miloddan avvalgi VIII asrdan VI asrgacha bo'lgan davrda Xorazm hukmdorlari o'lka atrofiga ko'pgina hududlar va xalqlarni birlashtirish, tarixda «Katta Xorazm» deb ataluvchi harbiy-demokratik tamoyillarga asoslangan konfederatsiyani barpo etishga muvaffaq bo'lganlar. Bu davlat Eron Ahamoniylari istilosigacha faoliyat ko'rsatgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda O'rta Osiyo hududi Ossuriya davlati tarkibiga kirgan.

Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalarida Eronda kuchli Ahamoniylar davlati tashkil topadi. Markaziy Osiyo xalqlarining miloddan avvalgi VI asr o'rtalaridan IV asrning ikkinchi choragigacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti va huquqiy tizimi ushbu makonda hukmronlik qilgan Ahamoniylar sulolasi tomonidan tashkil etilgan davlat va qonunchilik tizimi bilan chambarchas bog'liq. Ahamoniylar podsholari Markaziy Osiyo yerlariga uyushtirilgan ketma-ket hujumlar tufayli bu hududda o'z hukmronligini o'rnatadi. Ularning hukmronlik davri ikki asrdan ortiqroq vaqt davom etadi.

Ahamoniylar davlati yagona ma'muriy tizimga, kuchli armiyaga, yagona pul birligiga ega qudratli markazlashgan davlat bo'lib, ma'muriy-hududiy jihatdan boj to'laydigan satraplik (xshatrapa)larga bo'lingan.

Manbalarda keltirilishicha, satrapliklar soni va hududi turli davrlarda turlicha bo'lgan. Jumladan, So'g'diyona, Baqtriya va Xorazm alohida satrapliklarni tashkil qilgan. Tarixchi Gerodotning yozishicha, «O'rta Osiyo to'rt satraplikka bo'lingandi. Kaspiy dengizi qirg'og'i bo'ylab yashovchi qabilalar XI satraplik tarkibiga kirib, 300 talant (talant – 30 kg atrofida (yoki ziyod) kumush) to'lashgan. Xorazm, So'g'diyona va Parfiya XVI satraplikni tashkil etib, 300 talant to'lagan. Baqtriya XII –



satraplikni tashkil qilgan va 360 talant to‘lagan. Nihoyat, saklar XV satraplikka kirib, 250 talant to‘lashgan»<sup>1</sup>.

Ahamoniylar davlati boshqaruv shakliga ko‘ra zo‘rlikka asoslangan, tuzilishi markazlashgan unitar (oddiy) shaklda edi. Butun hokimiyat podshoh qo‘lida to‘plangan bo‘lib, u davlatni kuchli markaziy davlat apparatiga tayangan holda boshqarar edi. Davlat apparatida podshohdan keyin ikkinchi o‘rinda hazarapat (ming boshliq) turgan. U barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining nazorati hamda markaziy devon boshqaruvini yuritgan. Podshohning shaxsiy qo‘riqchilariga boshchilik qilgan hamda podshohga kelgan shikoyat va arizalar haqida ma‘lumot berib borgan. Markaziy devonga kotiblar, taftishchilar, podshohga ma‘lumot yig‘ib keluvchilar, aloqa xizmati xodimlari va boshqalar bo‘ysungan. Davlat boshqaruvidagi asosiy mansablarga, odatda, eronlik asilzodalar tayinlangan.

Satrapliklarda butun hokimiyat Eron podshosi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va vazifasidan bo‘shatiladigan satraplar qo‘lida to‘plangan. Satraplik lavozimiga dastlab harbiy bo‘lmagan kishilar, keyinchalik harbiylar tayinlanadigan bo‘lgan. Satraplar ma‘muriy boshqaruv va sud hokimiyatiga boshchilik qilgan. Xo‘jalik ishlarini amalga oshirish, soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida undirish, mansabdor shaxslar faoliyati, satraplik hududidagi yo‘llarda xavfsizlikni ta‘minlash ustidan nazoratni amalga oshirgan. Satraplar kumush va mis tangalar chiqarish huquqiga ega edilar. Satrap qoshida boshqaruv idorasi tashkil etilgan bo‘lib, unda idora boshlig‘i, xazinachi, soliq yig‘uvchilar, sud tergovchilari, kotiblar, jarchilar faoliyat yuritgan. Satrapliklarda ko‘p sonli harbiy qo‘shin saqlangan bo‘lib, ularga bevosita podshohga bo‘ysunuvchi lashkar-boshilar qo‘mondonlik qilgan. Doro I (miloddan avvalgi 522–486-y.) vafotidan so‘ng fuqarolik va harbiy hokimiyatning alohida olib borilishi tartibiga barham berilgan.

Ahamoniylar davlatining turli mintaqalarida turli huquq tizimi va institutlari amal qilgan. Doro I hukmronligi davrida yagona huquq tizimini tashkil qilish maqsadida qonunlar qabul qilinganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. Biroq Ahamoniylar davlatining qonunlari bizgacha yetib kelmagan.

Miloddan avvalgi 358-yilda Ahamoniylar hukmdori Artakserks IIIning davlatning ilgarigi hududini tiklashga qaratilgan harakatlari

---

<sup>1</sup> Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида / Масъул муҳаррир О. Абдуллаев. – Т., 2008. – Б. 69–71.



samara bermaydi. Miloddan avvalgi 337-yilda uning o'rnini o'g'li Arsēs egallaydi. Saroy zadogonlari taxtga Doro III ni o'tqazishadi. Siyosiy beqarorlik markaziy hokimiyatning zaiflashuviga olib keladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining Ahamoniylar hukmronligiga qarshi olib borgan kurashi tufayli Miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmidan boshlab xorazmliklar, keyinchalik sak qabilalari mustaqillikka erishadi. Miloddan avvalgi IV asrning oxirgi choragida makedoniyaliklar bilan Ahamoniylar o'rtasidagi kurash<sup>1</sup> makedoniyaliklar g'alabasi bilan (Kilikiya, Suriya, Misr, Bobil, Persopol, Pasargad davlatlari ham) tugaydi. Natijada o'z mustaqilligini saqlab qolgan Xorazm davlatidan tashqari butun O'rta Osiyo hududida Makedoniyaliklar hukmronligi o'rnatiladi.

Aynan shu davrga kelib Baqtriya hokimi Bess o'zini «Osiyo podshosi» deb e'lon qilib, Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona va Parfiyani o'z ichiga olgan yagona davlatni tashkil etishga harakat qiladi. Ammo bunga yunon-maqduniya qo'shini imkon bermaydi. Iskandar Maqduniy qo'shinlari avval Navatakni ishg'ol qilib, so'ngra Maroqandni ham bosib oladi. Maqduniyaliklar Markaziy Osiyoda bosqinchilik yurishlarini uch yil davom ettiradilar. Natijada uning ko'p qismi Iskandar imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi. Faqat Xorazm hukmdori Farazman-ning Iskandar Maqduniy bilan ittifoq tuzishi natijasida u o'z mustaqilligini saqlab qoladi<sup>2</sup>.

Makedoniyaliklar hukmronligi davrida satrapliklar saqlanib qoladi. Satraplar dastlab eronliklardan tayinlangan bo'lsa, keyinchalik makedoniyaliklardan tayinlanadigan bo'ldi. Satraplar qoshida harbiy va moliyaviy ishlarni boshqaruvchi mansab ta'sis etiladi. Satraplar tanga chiqarish va yollanma qo'shin saqlash huquqidan mahrum etiladi. Mahalliy boshqaruv murosa yo'li bilan olib boriladi.

Iskandar Maqduniy vafotidan so'ng (miloddan avvalgi 323-yil) O'rta Osiyo hududi Salavqiylar davlati (Bobil, Baqtriya, So'g'diyona) tarkibiga kiritiladi. Salavqiylar davlatida hokimiyat uchun olib borilgan urushlar tufayli Miloddan avvalgi III asr o'rtalariga kelib mustaqil Grek-Baqtriya podsholigi tashkil topadi. Uning tarkibiga Baqtriya, So'g'diyona,

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Ikki davlat o'rtasidagi ilk to'qnashuv Gellespont qirg'og'ida bo'lib o'tadi.

<sup>2</sup> *Izoh:* Miloddan avvalgi 329-yilda Xorazm podshosi Farazman (Xvorazman) 1500 otliq askari bilan Aleksandr Maqduniy huzuriga kelib, Samarqandda u bilan do'stlik ittifoqini tuzadi.

Marg'iyona va Parkana (Farg'ona) kirgan. Keyinchalik uning tarkibidan parfiyaliklar ajralib chiqib, Parfyanlar podsholigini tashkil qilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ma'lum bir iz qoldirgan davlatlardan biri ***Qang' davlatidir***. So'nggi ma'lumotlarning guvohlik berishicha, ushbu davlat miloddan avvalgi III asrning boshlarida paydo bo'lgan. Bu jarayonda yunon-maqduniyaliklar hukmronligiga qarshi olib borilgan kurashlar va ichki nizolar alohida rol o'ynagan. Qang' davlatining hududi dastlab Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar (Toshkent vohasi hamda unga tutash tog' va cho'l hududlari)dan iborat edi. Miloddan avvalgi II asrning boshlariga kelib, Qang' davlatining yerlari birmuncha kengayib, sharqda Farg'ona vodiysi (Dovon), shimoliy sharqda Usun daryosi, g'arbda Sirdaryoning quyi oqimigacha borgan. Bu katta hudud Toshkent vohasini, Talas vodiysini va qisman Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olgan. Miloddan avvalgi II–I asrlarda qang'liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni hamda Xorazmni ham o'ziga bo'ysundirgan.

Qang' davlati boshlig'i xoqon bo'lib, butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. Xoqon huzurida oqsoqollar kengashi bo'lib, u maslahat organi vazifasini o'tagan. Qang' davlatining butun hududi beshta mulkka (Susey, Fumu, Yunis, Giye, Yuyegyan)ga bo'lingan bo'lib, ular noiblar tomonidan boshqarilgan. Mulklar o'z navbatida viloyatlarga bo'lingan. Ular jabg'u (jobu, yobu)lar tomonidan boshqarilgan. Ijtimoiy-siyosiy tuzumda ko'chmanchi zodagonlarning mavqei yuqori bo'lgan.

Miloddan avvalgi III asr o'rtalariga kelib mustaqil ***Grek-Baqtriya*** podsholigi tashkil topgan. Uning tarkibiga Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona, Parkana (Farg'ona) kirgan. Grek-Baqtriya davridagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqida manbalarda batafsil ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Jumladan, jamiyatda quldorlar, erkin jamoatchi dehqonlar, qaram kishilarning turli tabaqalari hamda qullar bo'lganligi, shaharlar sonining o'sib borganligi, siyosiy va iqtisodiy markazlar kengayib, hunarmandchilik rivojlanganligi haqida ma'lumotlarga mavjud.

Grek-Baqtriya podsholigining davlat apparati unchalik katta, murakkab va markazlashgan emas edi. Butun hokimiyat podsho qo'lida to'plangan bo'lib, ko'pchilik hollarda uning o'g'li ham podsho hisoblangan. Butun mamlakat satrapliklarga bo'lingan edi.

«Milinda-Panxa» (II asr) asarida ko'rsatilishicha Grek-Baqtriya davlatining Hindiston qismida yuqori harbiy boshliq, birinchi vazir, bosh sudya, xazina boshlig'i, tantanali soyabon va qilichni ko'tarib yuruvchilar haqida ma'lumot bor. Mazkur asarda «qishloq hokimi»ning vakolatlari

haqida ma'siy va iqtisodiy markazlarning kengayishi, hunarmandchilikning jadal rivojlanganligi, qishloq hokimi qishloq ahlini jarchilar orqali o'z huzuriga chaqirib turishi va uning chaqirig'iga xonadon egasi yoki oila boshlig'i yetib kelishi shartligi, cho'rilar, qullar, xizmatkorlar, dehqonlar kelmasligi haqida ma'lumotlar bor.

Parfyanlar podsholigining mustaqil davlat sifatida tashkil topishi va rivojlanishida Arshakiylar sulolasi vakillari hal qiluvchi rol o'ynagan. Ushbu podsholikda o'rnatilgan tartibga ko'ra, davlat boshlig'i albatta arshakiylar xonadonidan bo'lishi shart hisoblangan. Shu bilan birga davlat boshqaruvida ikki kengash: qabila zodagonlari va kohinlar kengashlarining o'rne katta bo'lgan. Chunonchi, yangi hukmdor xuddi shu ikki kengash ishtirokida saylangan. Albatta, bunda marhum hukmdorning vasiyati e'tiborga olingan. Boshqacha aytganda, taxtga vorislik bir sulola ichida kechsada, ammo muayyan tartib bo'lmagan, ya'ni o'tgan hukmdor o'rnini uning o'g'li yo ukasi, yo bo'lmasa Arshakiylar sulolasining biron-bir namoyandasi egallashi mumkin bo'lgan. Aftidan, bu masalada kengashlarning mavqei kuchli bo'lib kelgan. Buni shundan ham bilib olish mumkinki, tarixiy hujjatlarga ko'ra mazkur ikki kengash oliy hukmdorni taxtdan chetlatishga qodir hisoblangan. Arshakiylar saltanatni mulklarga (satrapiyalarga) bo'lib idora etganlar. Shu bilan birga, barcha mulklar mavqei bir xilda bo'lmaganini ta'kidlash lozim. Chunonchi, Girkaniya, Seyiston (Sakiston) yarim mustaqil mulk sifatida o'z pullarini zarb etib kelganlar.

Miloddan avvalgi II asrga kelib Markaziy Osiyo xalqlari tarixida siyosiy beqarorlik davri boshlanadi. Bu asrda Grek-Baqtriya podsholidan So'g'diyona ajralib chiqdi. Marg'iyona parfyanlar tomonidan bosib olindi. Keyinchalik O'rta Osiyo hududida Xorazm davlati bilan chegaradosh bo'lgan Toxariston davlati tashkil topdi. Bu davlat ham keyinchalik kichik-kichik podsholiklarga bo'linib ketdi. O'sha vaqtlarda Xorazm davlati takribiga Xorazm, So'g'diyona va Choch (Toshkent) kirardi.

***Toxariston davlati*** tuzilishi va uni boshqarish shakli va ushbu davlatning markaziy va mahalliy organlari haqidagi ma'lumotlar bizgacha to'lig'icha yetib kelmaganligi sababli Azamat Ziyoning bu haqdagi fikr-mulohazalari bilan cheklanishimizga to'g'ri keladi. U shunday deb yozadi: «Toxariston boshqaruvi masalasiga kelsak, shimoldan kirib kelgan toharlar (yuechjilar) hamda mahalliy mavqedor doiralar faoliyati beshta siyosiy xonadon nomi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tmoq kerak». Xitoylik mualliflarning fikricha, ular quyidagilardan iborat

bo'lgan: «Xyumi, Shuanmi, Guyshuan (Kushon), Xeytun, Gaofu. Ularning har biri ustidan turuvchi sardor yabg'u (jabg'u) unvoniga ega bo'lib, har bir yabg'u o'z qarorgohida o'tirgan. Masalan, Hyumi sardori (hokimi) Homo shahrida, Shuanmi hokimi Shuanmida, Guyshuan hokimi Xotzoda, Xeytun hokimi Gaofuda turgan. Aftidan, biron-bir xonadon ikkinchisining ustidan hukmronlik qilish imkoniga ega bo'lmagan. Chjan Syanning «Daxya (Baqtriya) aslida oliy hukmdorga ega emas, har bir shaharning o'z hokimi bor» qabilidagi guvohliklari shu xulosaga olib keladi. Fikrimizcha, Xitoy manabalarida tilga olingan «har bir shahar» mavjud besh siyosiy sulola boshliqlarining qarorgohlarini anglatishi kerak. Shu bilan birga, bu besh mulk (sulola) yuechjilarga qaram, yuechjilarning poytaxti esa Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan kabi ta'kidlarni ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Fikrimizcha, yuechjilar (toxarlar) keyingi davrdagi eftaliylar, chingiziylarga o'xshab o'lkani chetdan turib boshqarganlar. Buni tasdiqlovchi ma'lumotlarni xitoy manbalarida ham uchratish mumkin. Jumladan, katta yuechji aslida ko'chmanchi davlat. Aholi mol-holi bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradi, urf-odatlarini xunlarnikiga o'xshash bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Xitoy manbalarida *Parkana davlati* haqida bir qator qiziq ma'lumotlar uchraydi. Miloddan avvalgi II asrning 20-yillarida Farg'ona, So'g'diyona, Baqtriyada safarda bo'lgan xitoylik elchi Chjan Syanning guvohlik berishicha, Farg'onaning aholisi bir necha yuz ming kishidan iborat bo'lib, harbiy qo'shini soni 60 mingdan iborat bo'lgan. Farg'ona boshqaruv tizimida hukmdor, uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi faoliyat ko'rsatganligi xitoy manbalaridan ma'lum. Yordamchilar asosan oliy hukmdorning qarindoshlari orasidan tayinlangan bo'lishi kerak. Ammo, oqsoqollar kengashi mamlakat ijtimoiy, siyosiy va tashqi munosabatlarida faol ishtirok etish bilan bir qatorda oliy hukmdor faoliyati bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish qudratiga ham ega bo'lgan. Urush ochish, sulh tuzish, yangi hukmdorni tayinlash, uni taxtdan mahrum etish kabi tadbirlarda oqsoqollar kengashi yetakchi o'rin tutganligini ko'rsatuvchi guvohliklar talaygina. Masalan, xitoyliklarning Farg'onaga tajovuzlari chog'ida oqsoqollar kengashi o'zaro sulh tuzish tarafdori bo'lib chiqadi va bunga erishadi ham. YO bo'lmasa, xitoyliklar bosqini bilan bog'liq voqealar sababchisi deb topilgan Mug'uy oqsoqollar kengashi hukmi bilan qatl qilingan.

Miloddan avvalgi 263-yilda Salavqiylar davlatida hokimiyat uchun olib borilgan urushlar tufayli hozirgi Turkmaniston respublikasi hududida



**Parfiya podsholigi** tashkil topdi. Keyinchalik Parfiya jahondagi eng qudratli davlatlardan biriga aylanadi. Uning ijtimoiy tuzumi zodagon jangchilar, yengil qurollangan suvoriylar; erkin jamoachi dehqonlar va qullardan iborat bo'lgan. Davlat boshlig'i podshoh bo'lib, uning hokimiyati ikkita kengash bilan cheklangan edi. Birinchi kengash urug' zadogonlari, ikkinchisi kohinlar kengashi. Bu ikki kengash birgalikda avvalgi davlat boshlig'ining merosxo'r haqidagi vasiyatini hisobga olgan holda yangi podshohni saylagan. Parfiya davlati bir necha kichik podsholiklarga bo'lingan bo'lib, ularning hukmdorlari o'zlarining tangalarini zarb etish huquqidan foydalangan. Bu kichik podsholiklar satrapliklarga, ular gipaxariylarga, ular esa statmilarga bo'lingan. Bir guruh satraplarga marzpanlar boshchilik qilgan.

Har bir qishloq alohida qal'ani tashkil qilib, dizpat nomi bilan yuritilgan qal'a boshlig'i tomonidan boshqarilgan. Dizpatlar satrapga bo'ysungan. Otliq qo'shin boshlig'i Tiridat. Bir necha xazinachilar bo'lgan. Soliqlarni yig'ish, yig'ilgan mahsulotlarni saqlash bilan shug'ullanuvchi, mirza, muhrdor, hisobchi kabi mansabdor shaxslar faoliyat ko'rsatgan. Mahalliy ma'murlarning asosiy vazifasi soliqlarni yig'ish, xalqni mavjud tartiblarga itoatda tutib turish bo'lgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda yirik shaharlarda o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lgan, shaharlarning tanga pullari bo'lgan.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxiri va milodning birinchi ming yilligi boshlarida Osiyoda katta mavqega ega bo'lgan davlatlardan biri – **Xunlar davlatidir**. Uyg'urlar va boshqa turkiy xalqlarning ajdodlari bo'lmish xunlar miloddan burungi 209-yilgacha 500 yil hukm surgan qudratli Xun Tangriqutligi (imperiyasi)ni vujudga keltirdilar.

Mazkur imperiyaning hududi kunchiqarda ulug' okean qirg'oqlarigacha borib tutashgan, shimolda Lena daryosi, Boyko'l (Baykal ko'li), Yansi daryosining o'rta iqlimlarigacha, janubda Xitoy devorigacha, g'arbi janubda Hindiston (Sind)ning shimoligacha, yaksartlar, abinlar, assionlar va boshqa qabilalar istiqomat qiluvchi Sirdaryoning shimoliy va shimoliy sharqiy qismlari, g'arbda Kaspiy dengizining sohillarigacha cho'zilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xunlar qo'shni davlatlarga tez-tez hujumlar uyushtirib turganlar. Bu hujumlar ko'pchilik hollarda ularga muvaffaqiyat keltirgan. Lekin ko'p o'tmay, xunlar o'rtasida nizo vujudga kelib, janubiy xunlar (Oq xunlar) va shimoliy xunlar (Ko'k xunlar)ga bo'linish yuz bergan. Ana shunday urushlardan birida Kushonlar–Oq xunlar Ko'k xunnlardan yengilib Qoshg'ardan siqib

chiqariladi va Farg‘ona orqali Baqtriyaga o‘tib, uni bosib oladilar. Xunnu qabilalarining bir qismi miloddan avvalgi III–II asrlarda Sibirda qo‘nim topgan. Miloddan avvalgi II asrda Xunnular Markaziy Osiyodan Ural oldi rayonlariga ko‘chib o‘tgan. Ularning mahalliy sarmatlar bilan qo‘shilib-chatishib ketishlari natijasida xunn qabilalari (Gunlar) paydo bo‘lgan. Xun qabila ittifoqining bir qismi Yettisuv va Sirdaryo bo‘ylaridagi poyonsiz cho‘llarga ko‘chib o‘tadilar va bu yerli sak, massaget qabilalari bilan aralashib ketadilar.

Xunnlar davlati tepasida shanyuy (ulug‘ azim) turgan. Shanyuy lavozimini xunnlar qabilasiga kiruvchi 24 ta urug‘ boshliqlaridan eng ulug‘i egallagan. U katta vakolatlarga ega bo‘lsa-da, uning hokimiyati mutlaq emas edi. Shanyuy hokimiyati har biri 2 mingdan 10 mingga otliq qo‘shinga ega bo‘lgan urug‘ boshliqlari tomonidan cheklangan edi. Dastlabki davrlarda Shanyuy urug‘ boshliqlari tomonidan saylangan, keyinchalik esa saylov o‘rnini taxtga o‘tqazish marosimi egallagan. Xunnlar davlatining so‘nggi davriga kelib davlat boshlig‘ining hokimiyati vasiyat asosida meros tariqasida otadan o‘g‘ilga o‘tadigan bo‘lgan. Davlat boshlig‘i – shanyuy harbiy, diplomatik va diniy sohalarga boshchilik qilgan. Qonunchilik hokimiyati ham uning qo‘lida bo‘lgan.

Xunnlar qabilasidagi urug‘lardan Xuyan, Lan va Syuybu urug‘lari asilzoda urug‘lar hisoblanib, davlat idoralaridagi yuqori mansablarga ularning vakillari tayinlangan. Masalan, sudya lavozimiga Syuybu urug‘i vakili tayinlangan. Boshqa urug‘lar asilzoda urug‘lar foydalangan imtiyozlardan mahrum etilgan bo‘lsalarda, biroq ular o‘zlarining ichki ishlari borasida mustaqil bo‘lganlar. Ularning o‘z hukmdorlari bo‘lib, ularning hokimiyati meros tariqasida o‘g‘illariga o‘tgan.

Xunnlar davlatining markaziy boshqaruv devonida asosiy vazifalar shahzodalar, xizmatchi asilzodalar va urug‘ zodagonlari o‘rtasida taqsimlangan.

Qadimgi davr davlatchiligi va huquq tarixini o‘rganishda diniy, tarixiy, huquqiy hujjatlarning ahamiyati beqiyosdir.

Ahamoniylar davlatining turli mintaqalarida huquq tizimi va institutlari har xil bo‘lgan. Doro davrida yagona huquq tizimini tashkil qilish maqsadida qonunlar qabul qilinganligi haqida ma’lumotlar bor. Lekin bu qonunlar bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra, Ahamoniylar davlatida podshohning fikri, xulosasi, qarori hal qiluvchi rol o‘ynagan. Uning qarori qat’iy bo‘lib, o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan. Lekin podshoh davlatni boshqarishda forslarning an’analari hurmat qilish, yettita asilzodalar urug‘larining vakillari bilan maslahatlashib ish ko‘rishi lozim edi.

Doro I ayrim ishlarni shaxsan o'zi ko'rib hal qilgan alohida ishlarni ko'rish uchun sudyalari tayinlagan. Oddiy jinoyatlar podshoh tomonidan tayinlanadigan sudyalari tomonidan ko'rilgan. Sudyalik lavozimi meros tariqasida farzandga o'tgan. Podshohga, uning oila a'zolariga qarshi qaratilgan jinoyatlar eng og'ir jinoyatlar hisoblanib, o'lim jazosi bilan jazolangan. Ko'pchilik hollarda butun oila a'zolari o'limga hukm qilingan. Boshqa jinoyatlar birinchi marta sodir etilganda o'lim jazosi qo'llanilmagan, faqat bir necha jinoyatlarni sodir qilganligi uchun o'lim jazosi qo'llanilgan.

Qadimgi davr huquq manbalaridan biri «Avesto»dir. Miloddan avvalgi IX asrlarda mazdaparastlik va bu dinning muqaddas kitobi «Avesto» yuzaga keldi. Tadqiqotlarga ko'ra, «Avesto» taxminan Miloddan avvalgi IX asrdan IV asrgacha tuzilgan. Bu nodir kitob shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosdir. «Avesto» kitobi ayni zamonda bu o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Avesto 21 kitob (nasx)dan, gatlar (eng qadimgi qismlar), yashtlar, urf-odat hamda marosimlar bayoni iborat. Uning matni o'n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Bu nusxa to Iskandar zamonasiga qadar Istahr shahrida saqlangan. Iskandar bu yurtni bosib olgach, uni yo'q qilib yuborgan.

Avesto 348 bobdan iborat bo'lgan, unda 345700 so'z bo'lgan. Avestoning Vendidot<sup>1</sup> kitobida huquqiy qoidalar o'z aksini topgan. U qadimiy mug'larning odat va an'analari, rasm-rusumlari, axloq-odob, madaniyat va maorifini, qonunlarini o'z ichiga olgan.

Avestoda jinoyat, oila-nikoh, fuqarolik, harbiy, sud huquqi normalari mavjud. Vandidodda mehnat, yaratuvchilik, saxiylik, ezgulik, poklik, yaxshi niyat va yaxshi so'z ulug'lanadi. Uning 13, 14-boblarida suvning qadriga yetish, undan unumli foydalanish haqida, har kuni ekinni ikki marta sug'orish mumkinligi, har kishi «bir belkurak» kenglikda va chuqurlikda ariqqa sig'adigan suv olishga haqli ekanligi, suvni taqsimlash bilan kohinlar shug'ullanishi, suvni ifloslantirmaslik, yerga ishlov berish, bug'doy, giyoh va mevali daraxt ekish to'g'risidagi normalar bor. Bu normalarni buzganlik uchun majburiy mehnatga jalb qilish jazosi belgilangan.

---

<sup>1</sup> *Izoh:* «Viydayevaodatem» yoki «vaydaivodata» – «devlarni uzoqlashtiruvchi qonun» yoxud «Devlarga qarshi nizom (qonun)» degan ma'nolarni anglatadi.



Tozalikka rioya qilmaganlarga nisbatan qattiq jazo belgilangan. O'lgan odamni yoki itni yerga ko'mib 6 oygacha qazib olmasa besh yuz qamchin «aspahih-ashatra», besh yuz qamchi «saravushu-charana» bilan jazolangan. Agar bir yilgacha qazib olmasa, 2000 darra urish bilan jazolangan. Kim o'likni yoqsa o'lim jazosiga hukm qilingan.

Oila-nikoh borasida oilani mustahkamlash va bola tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor berilgan. Er-xotinning bir-biriga xiyonat qilganligi, nikohsiz er-xotinlik munosabatida bo'lganlik uchun tan jazosi belgilangan.

Qadimgi davrlarda mansabdorlik jinoyatlari – mansabni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, adolatsiz hukm chiqarish, xudolarga va kohinlarga qarshi, shaxsga qarshi (odam o'ldirish, tan jarohati yetkazish, urish, zahar va nasha tayyorlash), mulkiy (o'g'irlik, mulklarni yoqib yuborish, chegara belgilarini yo'q qilish) uchun ham jazo borligi haqida ma'lumotlar bor. Jinoyatchilarga nisbatan o'lim jazosi, tan jazosi, mol-mulkni musodara qilish, pul jarimasi, qamoq jazosi qo'llanilgan. Dalil sifatida sudda aybdorning o'z aybini bo'yniga olish, guvohlarning ko'rsatmalari, qasam ichish kabilar tan olingan. Sud jarayonida olov, qizdirilgan temirni bosish, eritilgan qo'rg'oshinni ko'krakka quyish kabi turli qiynoqlar qo'llanilgan.

Shunday qilib, Avesto va uning huquqiy qismi bo'lgan Vandidod jamiyatni pok saqlash, ezgulikni ulug'lash, yomon illatlarni bartaraf etish, xalqni farovon va yaxshi turmush kechirishini ta'minlashga xizmat qilgan.

## **2-§. Eramizning boshlaridan VII asrga qadar bo'lgan davrda O'zbekiston hududida davlat va huquq**

Tarixda *Kushon podsholigi* nomi bilan o'chmas iz qoldirgan yirik davlatning paydo bo'lishi Xitoy manbalarida yuechjilar nomi bilan yuritilgan massaget qabilalari bilan bog'liq. Miloddan avvalgi ikkinchi asr o'rtalarida inqirozga yuz tutgan Yunon-Baqtriya davlatining kuchsizligidan foydalangan yuechjilar miloddan avvalgi 140-yilda So'g'd yerlari orqali Baqtriyaga hujum qiladilar va Shimoliy Baqtriyani ishg'ol qiladilar. Ular ushbu hududda bir asr mobaynida yashaganlar. Yuechjilar beshta qabiladan iborat bo'lib, ular orasida Guyshuan (Kushon) qabilasi o'z mavqei bilan boshqalardan ajralib turgan. Milodning birinchi asri boshlarida kushon qabilasi mavqei yanada kuchayib, boshqa qabilalar ustidan o'z hukmronligini o'rnatgan. Shu vaqtdan e'tiboran Kushon podsholigi tashkil topgan.

Eramizning birinchi asri birinchi choragiga kelib mavjud podsholiklar orasida Kushon podsholigi alohida o‘rin tuta boshlaydi. Keyinchalik bu podsholik qariyb butun O‘rta Osiyoni o‘z ichiga olgan yirik imperiyaga aylandi. Uning tarkibiga Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Hindistonning shimoliy qismi kirgan. Shuningdek, So‘g‘diyona orqali Farg‘ona, Sharqiy Turkiston ham Kushonlar saltanatiga bo‘ysungan. Kushonlar shimolda Shosh, sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Eron, janubda Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan ulkan hududni birlashtirishga erishganlar. Uning poytaxti dastlab (So‘g‘diyona) Kattaqo‘rg‘onda bo‘lgan, keyinchalik poytaxt Hindistonga ko‘chirilgan. Kushon podsholigida sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, fan va madaniyat, qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalar rivojlanganligi haqida ko‘pgina ma‘lumotlar bizgacha yetib kelgan. Afsuski, bizgacha bu davlatning boshqarish tizimi, ichki ma‘muriy tuzilishi, huquq manbalari haqidagi ma‘lumotlar to‘liq yetib kelmagan. Ba‘zi bir manbalarda Kushon davlatida kuchli markaziy davlat apparati tashkil etilganligi, uning tepasida podsho turgani, ma‘muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga bo‘linganligi, pul va din sohalarida islohotlar o‘tkazilganligi haqidagi ma‘lumotlar uchraydi.

Tarixchi olim Azamat Ziyoning yozishicha, «Saltanatga asos solinganidan so‘ng mintaqa uchun an‘anaviy satrapiyalar tizimidan keng foydalana boshlangan. Satraplar oliy hukmdor tomonidan uning ishonchini qozongan, chamasi o‘z doirasi namoyandalari orasidan tanlangan. Shu bilan birga, satraplik lavozimiga harbiy yurishlarda jonbozlik ko‘rsatgan lashkarboshilar ham lozim topilgan. Umuman olganda esa satraplar baqtriyaliklar orasidan bo‘lishi shart bo‘lgan»<sup>1</sup>.

Shuningdek, adabiyotlarda Kushon podsholigining asosiy tayanchi harbiy qo‘shin bo‘lib, lashkarlarning umumiy soni 150–200 ming atrofida bo‘lgani, qo‘shin otliq va piyodalardan tashkil topgani haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Ayrim manbalarda qayd qilinishicha, davlat boshlig‘i mamlakatni boshqarishda ko‘p tarmoqli davlat apparatiga tayangan davlat organlarida turli unvonlar va darajalarga ega mansabdorlar xizmat qilgan, «buyuk satrap», «oddiy satrap», «chegara boshliqlari» kabi unvonlar bo‘lgan, shaharlar podshohning noiblari tomonidan boshqarilgan.

---

<sup>1</sup> *Азамат Зиев. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар).* –Т., 2000. – Б. 67.

Kushon podsholigi, Rim imperiyasi va Sosoniylar davlati o'rtasidagi munosabatlarning beqarorligi kuchlar nisbatining Sosoniylar foydasiga hal bo'lishiga olib keldi. IV asrning 70–80-yillarida Kushon podsholigining g'arbiy qismi Sosoniylar tomonidan bosib olinadi va Shimoliy Hindistondagi Kushan Gupta davlati tarkibiga qo'shib olindi. O'rta Osiyo hududida kichik-kichik davlatlar tashkil topdi. Bular Panjakentdan Karmanagacha bo'lgan hududdagi So'g'd davlati, Zarafshon vodiysining g'arbidagi Buxoro boshchiligidagi shahar davlatlar ittifoqi, Samarqand yaqinidagi Maymurg', Ishtixon va Kushaniya davlatlari, Farg'onadagi shahar-davlatlar ittifoqi edi. Bu davlatlarda butun hokimiyatni o'z qo'lida to'plagan podsho boshchilik qilgan. Podshohning shaxsi ilohiylashtirilgan bo'lib, hokimiyat unga xudo tomonidan ato etilgan degan tasavvur keng tarqalgan. Podshoh huzurida oqsoqollar kengashi bo'lgan. Shahar-davlatlari boshliqlari o'z tanga pulini zarb etish huquqiga ega bo'lgan. Shahar davlatlar otliq qo'shin va qullardan tashkil topgan qurolli bo'linmalarga ega bo'lgan.

Aytish kerakki, Kushon podsholigi O'rta Osiyo xalqlari tarixida o'chmas iz qoldirgan davlatlardan biri bo'lib, tarixning ochilmagan bu qirrasini o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Gap shundaki, qariyb 400 yil umr ko'rgan, ulkan hududda o'z hukmronligini o'rnatgan Kushon podsholigi o'z davri uchun mukammal, kuchli markazlashgan davlat organlari tizimi, huquq manbalariga ega bo'lishi ehtimoldan holi emas. Chunki ulkan hududni boshqarish, o'sha davrdagi murakkab jarayonlardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tegishli siyosiy-huquqiy institutlarsiz amri mahol edi.

IV asrning oxiri va V asr boshlarida orol bo'yida istiqomat qiluvchi ko'chmanchi massagetlar o'zlarining *Eftalitlar davlati* nomi bilan tarixga kirgan davlatini tashkil qiladi. V asrning o'rtalariga kelib butun O'rta Osiyoda eftalitlar hukmronligi o'rnatiladi. Keyinchalik O'rta Osiyoni, Sharqiy Eron viloyatlarini, Hindistonning shimoliy qismini va Sharqiy Turkistonni birlashtiruvchi yirik davlatni barpo etishga muvaffaq bo'ladilar.

Eftalitlar davlatining tuzilishi, markaziy va mahalliy davlat organlari, sudi va harbiy qo'shini haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Ixtiyorimizda bo'lgan manbalardagi ayrim ma'lumotlarga tayangan holda eftalitlar davlat tuzumi va huquqi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Vizantiyalik tarixchi Prokopiyning (VI asr) yozishicha, «Eftalitlarni bir shoh boshqargan, ular qonuniy davlatga ega bo'lganlar va o'zlari bilan qo'shnilar o'rtasida romeylar (vizantiyaliklar)

va Forslarda mavjud bo'lgan adolatdan zarracha kam bo'lmagan adolatga amal qilganlar»<sup>1</sup>. Xitoy manbalarida qayd qilinishicha, Eftalitlar davlatida taxt otadan bolaga o'tmagan, shu suloladan kim davlat boshlig'i lavozimiga loyiq topilsa, o'sha kishi taxtni egallagan. Aynan kimning ushbu lavozimga loyiqligini aniqlash vakolatiga maxsus kengash ega bo'lgan.

Prokopiyning guvohlik berishicha, eftalitlar davlatni qonunlar asosida boshqarganlar. Ba'zi manbalarda qayd qilinishicha, eftalitlar davlatida podsho hokimiyati unchalik kuchli bo'lmasdan, mahalliy hokimlarning mavqei yuqori bo'lgan. Joylarda hokimiyat yirik yer egalari qo'lida bo'lib, ular katta mulkka, qal'a va harbiy qo'shinga ega edi.

Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida shaharlarning o'rni katta bo'lgan. Vizantiya hukmdori Yustin II ning «Eftalitlar shaharda yashaydilar yoki qishloqdami» degan savoliga ashinaliylarning elchisi «A'lo hazrat, ular shaharlik sulolalardan»<sup>2</sup>, degan javobi fikrimiz dalilidir. Eftalitlar davlatida yirik shaharlar hokimlar tomonidan boshqarilgan. Ushbu hokimlar ham o'z harbiy kuchlariga, o'z tangalarini zarb qilish huquqiga ega bo'lganlar. Ichki savdo munosabatlarida tangalar ayirboshlash vositasi vazifasini bajargan.

Eftalitlar kuchli harbiy qo'shinga ega bo'lishgan, qo'shinning asosiy qismini otliq lashkar tashkil qilgan. Ayrim manbalarda yozilishicha, eftaliylar davlatida jinoyat sodir qilganlik uchun qattiq jazo choralari qo'llanilgan. Masalan, o'g'irlik uchun bo'ynini kesib qatl etish yoki o'g'irlab ketgan mulkni o'n barobar miqdorida undirib berish jazosi qo'llanilgan.

Asta-sekinlik bilan markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi, mahalliy hokimlarning mustaqillikka intilishining kuchayishi va ular o'rtasidagi raqobat VI asrning o'rtalariga kelib Eftalitlar davlatining yemirila boshlashiga olib keldi.

VI asr o'rtalariga kelib Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabila va xalqlarni birlashtiruvchi, katta davlat – ***Turk hoqonligi*** tashkil topadi. Hozirgi O'zbekiston hududi Turk hoqonligi tomonidan bosib olinadi. Keyinchalik hoqonlik hududi Xitoy va Mo'g'ilistonning bir qismi hisobiga yanada kengaytirildi.

---

<sup>1</sup> *Азамат Зие*. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). –Т., 2000. – Б. 76.

<sup>2</sup> О'sha manba. – Б. 77.

VI asrning oxirgi choragida Turk xoqonligi davlatga asos solgan sulola namoyandalari o'rtasidagi (asoschilar va davlat hududining kengayishida ulkan hissa qo'shgan Ashina sulolasi namoyandalari – Bo'min (Tuman), uning kichik o'g'li Mug'anxon) kurash natijasida poytaxti Mongoliyada bo'lgan Sharqiy Turk xoqonligi va markazi Yettisuvda bo'lgan G'arbiy Turk xoqonligiga bo'linadi. O'zbekiston hududi G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan.

Turk xoqonligida hokimiyat tepasida urug', qabila boshliqlari qurultoyida saylanadigan xoqon turgan. Uning huzurida qabila, urug' boshliqlaridan iborat kengash bo'lib, unda davlat ahamiyatiga molik masalalar muhokama qilinib tegishli qarorlar qabul qilingan. Bundan tashqari, davlat hayotida xoqon maslahatchilari, o'lkalar hokimi, davlat arboblarning roli katta bo'lgan. O'lkalarda hokimiyat hokimlar qo'lida to'plangan. Hokimlik lavozimini o'lkalardagi hukmron sulolalar vakillari egallagan. Hokimlarning bir necha muovinklari bo'lgan. Har bir hokim huzurida hisob-kitob ishlarini olib boruvchilar, soliq yig'uvchilar, qo'riqchilar va boshqalardan iborat apparat bo'lgan. Xoqon va alohida o'lkalarning hokimlari otliqlar va piyodalardan iborat shaxsiy gvardiyasiga ega bo'lganlar. Turk xoqonligi davlati O'rta Osiyo hududlarining arablar tomonidan bosib olinishi bilan tugatildi.

Xoqon hokimiyati meros tariqasida o'tgan. Xitoy manbalariga ko'ra, ota doimo o'z o'g'liga taxtni meros tariqasida qoldiravermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlariga qoldirishi lozim bo'lgan. Bundan tashqari, shunday hollar bo'lganki, taxt sohibini ulus oqsoqollari tayinlagan. Manbalarda xoqon tayinlashning alohida tartibi bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Xitoy manbalarida yozilishicha, yirik amaldorlar taxt vorisini kigizga o'tqazib, quyosh harakati asosida, ya'ni sharqdan g'arbga tomon to'qqiz marta doira bo'ylab aylantirganlar. To'qqiz soni turkiy tilli xalqlarda aziz hisoblanadi. Har bir aylanishda marosimda ishtirok etuvchilar xoqonga ta'zim qilganlar va bu bilan o'z itoatkorliklarini anglatganlar. Shundan so'ng uni otga mindirib bo'yni uzra ipak mato qattiq siqqanlar darhol bo'shatib, undan necha yil hukmdor bo'lishi haqida so'raganlar. U necha yil xon bo'lishini aytgan, shu muddat tugagandan keyin taxtdan ketgan.

Tarixiy manbalarda Turk xoqonligining markaziy va mahalliy davlat organlarida xizmat qilgan ba'zi mansabdorlar to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, davlat boshqaruvida xoqondan keyin turuvchi mansabdor shaxs «Yabg'u» (Bahodir) bo'lgan (masalan, Istami yabg'u). Ammo yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmagan. Taxt vorisi «tegin»



(shahzoda) deb atalgan. «Tudun» unvoni hukmdorning joylardagi noiblariga berilgan. Ular mahalliy hokimlar siyosatini, boj, soliq ishlarini nazorat qilganlar.

Xitoy manbalarida Sharqiy turk xoqonligining quyidagi mansabdor shaxslari haqida ma'lumotlar keltiriladi: oliy martabalar orasida eng ulug'i shexu (jabg'u), keyin dele, uchinchisi esa silifa, to'rtinchisi tumafa, (qolgan) kichikroq darajadagi mansablarda 20 kishi band. Ularning mansablari merosiydir... Qo'riqchilarni esa fuli (bo'ri) deb ataydilar.

Turk xoqonligida, keyinchalik G'arbiy Turk xoqonligida markaziy davlat hokimiyat va boshqaruv organlari ulkan hududda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, davlat soliq siyosatini amalga oshirish, mamlakatni tashqi dushmanlardan mudofaa qilish, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish, mahalliy davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish kabi vazifalarni bajarganlar.

Eramizning boshlaridan VII asrga qadar bo'lgan davrda, ya'ni arablar hukmronligi o'rnatilgan davrga qadar O'zbekiston hududida amal qilgan huquq manbalariga oid ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan tarixiy huquqiy manbalar bizgacha juda kam yetib kelgan yoki deyarli yetib kelmagan. Xususan, 1932–1933-yillarda Mug' tog'idan topilgan So'g'd hujjatlari mavjud bo'lib, u O'zbekiston hududida amal qilgan 80 ta muhim tarixiy huquqiy hujjatlardan hisoblanadi. Ular orasida oila, nikoh, mulk huquqi, ijaraga berish, meros qoldirish bilan bog'liq hujjatlar bor. Masalan, yerni sotish to'g'risidagi hujjatda shartnoma obyekti qayerda joylashgani, miqdori, oluvchi va sotuvchilar nomi, yerni sotib olgan shaxslarning yerdan foydalanish huquqi, shartnoma tuzishda ishtirok etgan shaxslar ko'rsatilgan.

Tegirmonni ijaraga berish haqidagi shartnomada uning joylashgan joyi, uni aylantiruvchi ariqlar, asbob-anjomlari, ijara muddati, sharti, ijaraga beruvchi va oluvchi, ularning huquq va majburiyatlari, shartnomani buzganlik uchun javobgarlik, shartnoma tuzish vaqtida qatnashgan guvohlar haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

Hujjatlar orasida nikoh tuzish shartnomasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar qadim va ilk o'rta asrlardagi O'zbekiston xalqlarining oila-nikoh va shu bilan bog'liq mulkchilik va boshqa ijtimoiy munosabatlari haqida hikoya qiluvchi muhim yodgorlikdir. Har ikki hujjat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birida turk zodagoni Uttakinning so'g'd ayoli bo'lmish Dug'dg'unchaga uylanishi rasmiylashtirilsa, ikkinchisida kuyov Uttakinning Dug'dg'unchani turmushga berayotgan homiy otaxoni

Navekat shahrining (Yettisuv viloyatidagi qadimgi shahar) hokimi Cher oldidagi majburiyatlari bayon etilgan.

Har ikkala hujjatning ilk o'rta asr yuridik hujjati sifatidagi xususiyatlari mavjud deyish mumkin. Masalan, nikoh bitimi matnida: hujjat sanasi, kirish formulasi, ahdlashuvchi tomonlarning nomma-nom ta'kidlanishi; er-xotin bo'lgach Uttakin va Dug'dg'unchaning birga yashashini ta'minlovchi shartlar bayoni, erga yuklangan majburiyatlar, xotin zimmasidagi vazifalar, erning o'z majburiyatlarini bajargani chog'ida xotin oldidagi javobgarligi; er tomonidan nikoh buzilgan holda xotinning mulkiy ta'minoti va erning boshqaga uylanish huquqi, nikoh xotin tomonidan buzilgan taqdirda erning mulkiy ta'minoti va xotinning boshqa er qilish huquqi; nikoh buzilgach xotin va uning bolalari erning sodir qilishi mumkin bo'lgan jinoyati uchun, uning qullik va boshqa ijtimoiy tobe ahvolga tushib qolishi uchun javobgarlikdan ozod qilinishi; xotinning aybi bilan nikoh buzilsa er va uning bolalari xuddi shu kabi javobgarlik hamda tovonlardan ozod bo'lishi; nikoh buzilgandan so'ng har ikki tomon o'zaro bir-birining taqdiri uchun javobgar emasligi haqida yana bir maxsus ta'kid; oxirgi badda esa hujjatning qayerda tuzilgani, mansabdor shaxs, guvohlar va kotibning nomi aks etgan.

Kuyovning majburiyatlari to'g'risidagi ikkinchi hujjatda ham xuddi shu kabi qator bandlar ko'zda tutilgan: hujjat sanasi, kuyovning rasmiy majburiyatlari; turmushga uzatilayotgan qizning homiy otasi oldida kuyovning majburiyatlarini ifodalovchi bandlar; xotinni sotmaslik, boshqa yo'l bilan uni qullik holatiga tushirmaslik, zodagonlik martabasidan mahrum etmaslik, agar xotin, kim tomonidan bo'lmasin, tahqirlangan taqdirda ham uni homiy otaxoniga qaytarish; er yoki xotin tomonidan nikoh buzilgan taqdirda xotinni homiy otaxoniga qaytarish. Agar xotin o'z homiy otaxoniga qaytarilmagan taqdirda ham kuyov to'lashi lozim bo'lgan tovonni, homiy otaxonning kuyov yoki uning vakilidan mazkur tovonni undirib olish huquqi; butun xonadon, jamoaning, hatto xonadon mehmonlarining ham kuyov majburiyatlari bajarilishi ustidan nazorat qilish vazifalari; hujjatning tuzilgan joyi, mansabdor shaxs, guvohlar ro'yxati va kotibning nomi – bular barchasi har ikkala hujjatning uzoq va chuqur an'anaga ega bo'lgan yuridik ish hujjatlarining o'rta asrlardagi mukammal namunasi ekanidan dalolat beradi.

O'zbekiston hududida huquq tarixini o'rganishda muhim manbalardan yana bir turkumi – turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatları va qoidalari aks ettirilgan turli yodnomalar hisoblanadi. Ularda



turkiylarning yurtni boshqarish, vorislik, taxtni egallash, mansab darajalari, xalq oldida xonlar va beklarning majburiyatlari, xoqonlarning huquqiy vakolat doiralari, adolat yuzasidan ish ko'rishlari lozimligi, askarlik xizmati tartib-qoidolari, oila huquqi, uning axloqiy mezonlari, ayollar huquqini himoya qilish kabi holatlar o'z aksini topgan.

Shunday qilib, O'zbekiston hududida qadimgi huquqiy manbalar o'zining uzoq o'tmishiga ega bo'lib, ular orqali o'sha davr ijtimoiy munosabatlari huquqiy tartibga solingan.

---

### **III BOB. QADIMGI SHARQ, YUNONISTON VA RIM DAVLATI VA HUQUQI**

#### **1-§. Qadimgi Misr va Bobilning davlati va huquqi**

Taxminan miloddan avvalgi VIII–III minginchi yillarda, ya'ni neolit inqilobi davriga kelib jamiyatda o'zlashtiriluvchi xo'jalik (termachilik, ovchilik, baliqchilik)dan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilishi bilan jamoa-urug'chilik tashkilotlari tashkil topadi.

Davlat va huquq tarixidan oldingi davrning muhim bosqichi – bu jamoa tepasida turuvchi murakkab tuzilmalarning va ularga mos bo'lgan ijtimoiy-me'yoriy tartibga solish mexanizmlarining tashkil topishi bilan bir qatorda, o'z mazmuniga ko'ra davlatdan oldingi jamiyatni boshqarishning tamomila yangi asoslarining shakllanishi bo'lgan.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim turlari bilan bir qatorda boshqaruvchilik faoliyatining ham ajralib chiqishi va sekin-asta ixtisoslashib – doimiy kasbga aylanib borishi sodir bo'lgan. Jamiyat a'zolarining boshqaruvchi va boshqariluvchi guruhlariga bo'linishi davlatning tashkil topishidagi oxirgi bosqich hisoblanadi.

Dastlabki davlat tashkilotlari shahar-davlatlar nomini olgan. Bunday davlatlar Qadimgi Sharqda miloddan avvalgi IV–III ming yilliklardayoq tashkil topgan edi.

Antik dunyoda esa sivilizatsiya va davlatchilikka o'tish birmuncha keyinroq sodir bo'lgan. Yevropaning ko'pgina xalqlarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va davlatning tashkil topish jarayoni o'rta asrlarda nihoyasiga yetgan. Afrika, Polineziya va yer yuzining boshqa ba'zi joylarida to XIX–XX asrlargacha davlatdan oldingi oila-urug' munosabatlari mavjud bo'lgan va bu yerlarda davlatning tashkil topishi tabiiy rivojlanish natijasida emas, balki Yevropa mamlakatlari mustamlakachiligi oqibatida yuz bergan.

Ilk davlat va huquqning vujudga kelishidan oldin «Qadimgi Sharq» tushunchasiga to'xtalib o'tish lozim. Qadimgi zamonda yunon-rimliklar dunyosidan sharqda va janubi-sharqda joylashgan mamlakatlarning jamini «qadimgi sharq»<sup>1</sup> deb ataymiz. Sharq haqida gapirar ekanmiz,

---

<sup>1</sup> *Izoh:* «Qadimgi Sharq» tushunchasi fanda janubiy-g'arbiy, janubiy va sharqiy Osiyo, shuningdek, shimoliy va shimoliy-sharqiy Afrika mamlakatlari yig'indisini anglatish uchun an'anaviy tarzda ishlatiladi.

Yevropa bilan bog‘liq bo‘lgan janubiy Osiyo hamda qisman Shimoliy Afrika mamlakatlari va xalqlarini, shuningdek Hindiston va Xitoyni nazarda tutamiz. Kishilik jamiyati rivojlanishidagi eng muhim ijtimoiy va siyosiy institutlar, davlat, huquq, jahon dini ilk bor Sharqda vujudga kelgan. Eng qadimgi yozuv tizimlari ham dastlab sharqda paydo bo‘lgan.

Sharqdagi asosiy mamlakatlar (ikki daryo oralig‘i, Misr, Hindiston, Xitoy), keyinchalik esa boshqa mamlakatlar ham o‘zlarining geografik qulay joyda joylashganliklaridan juda barvaqt foydalana boshlaganlar. Ularning barvaqt rivojlanishi qulay muhitda joylashganligi bilan bog‘liqdir. Tabiiy sharoitlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tashkilotlar taraqqiyotini tezlashtirgan. Yunon-rim dunyosi esa sharq xalqlari yutuqlaridan foydalanib ilgarilab ketadi.

Sharq va G‘arbning taraqqiyot yo‘li bir-biridan farq qiladi. Sharqda xususiy mulkchilik munosabatlari, bozorga asoslangan xususiy tovar ishlab chiqarish munosabatlari muhim o‘rin egallagan. G‘arbda esa xususiy mulkchilik hukmronlik qilgan.

Qadimgi Sharq va antik dunyo davlatlarining o‘ziga xos xususiyatlari ularning mohiyatini to‘g‘ri va to‘liq anglashga yordam beradi.

Sharq davlatlarining kelib chiqishi va rivojlanishidagi o‘ziga xos jihatlar ularning ijtimoiy, siyosiy tuzumi va huquq tizimida namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat:

- shahar-davlatlar faqat mehnat taqsimotining kuchayishi, qullar va quldorlar sinfining shakllanishi natijasida emas, balki murakkab boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxslarning shakllanishi natijasida tashkil topgan;

- sharq davlatlarida hududni dehqonchilikka moslashtirish borasida jamoa mulkchiligi saqlanib qolgan. Yerlarning asosiy egasi davlat hisoblangan. Natijada, ilohiylashtirilgan podsho ta’sirida podsho-cherkov xo‘jaligi tashkil topgan;

- quldorchilik yengil darajada bo‘lib, qullar xo‘jayinidan tashqari davlat tomonidan nazorat etilgan va himoyalangan (masalan, Misrda qullar jinoyati uchun davlat organlari tomonidan jazolangan, xo‘jayinining shafqatsizligi uchun shikoyat qilish huquqiga ega bo‘lishgan, Hindistonda qullarning toifasi inobatga olingan);

- mamlakatlardagi ijtimoiy tuzum tabaqalarga ajralgan. Biroq aniq ijtimoiy-sinfiy chegaralar bo‘lmagan;

- sharq jamiyatlarining an’anaviyligi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-siyosiy tuzumi va huquqiy tizimi vorislik tariqasida o‘tib kelganligi;

– sharq davlatlari o‘zining davlat tuzumi bilan ham antik dunyo davlatlaridan farq qilgan. Davlat boshlig‘i – ham davlat, ham din boshlig‘i sifatida qaralgan. Barcha mansablar tayinlash yoki meros tariqasida o‘tgan bo‘lsa, antik dunyo davlatlarida ko‘pgina organlar saylov asosida shakllantirilgan;

– sharq mamlakatlari o‘zining huquq tizimi bo‘yicha ham antik dunyo davlatlaridan farq qiladi. Avvalo, sharq mamlakatlari huquqi bu – dastlabki huquq tizimlaridir. Ularda ibtidoiy jamoa tuzumining qoldiqlari saqlangan. Jumladan, jazo tizimida jamoaviy javobgarlik, jazo tayinlashda «talioniya» – «ko‘zga-ko‘z», «tishga-tish» tamoyili va sud yuritish ishlarida «ordaliya» sinab ko‘rish mavjud bo‘lgan. Bundan tashqari, huquq tarmoqlarga bo‘linmagan. Antik davlatlarda esa aksincha, aynan Rim huquqi sohalarga ajratilib mukammal ishlab chiqilgan va ko‘plab davlatlarning huquqiga juda katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Shunday qilib, qadimgi Misrda ilk davlat Nil daryosini jilovlash va yangi yerlarni o‘zlashtirish, kanal va suv inshootlarini qurishni boshqarish, dehqonchilik va chorvachilik ishini yo‘lga qo‘yish, urug‘ va qabilalararo ishlarni tartibga solish, jamoani, mamlakatni qo‘shni qabilalar hujumidan himoya qilish zaruriyati natijasida asta-sekinlik bilan vujudga kelgan.

Dunyoda birinchi sinfiy jamiyat va davlat Misrda tashkil topgan. Misrda davlat Afrikaning shimoli-sharqida vujudga kelgan. Nil daryosining boshlaridan to O‘rta dengizgacha bo‘lgan vodiy davlatning asosiy qismini tashkil qilgan. Sharq tomondan arab qirlari (Nil daryosi va Qizil dengiz o‘rtasidagi) va g‘arbdagi Liviya yassi tog‘liklarining bir qismi ham uning tarkibiga kirgan.

Aholisi qadimgi misrliklar va boshqa o‘lkalardan ko‘chib kelgan xalqlardan iborat bo‘lgan.

Miloddan avvalgi V va IV ming yilliklarda dehqonchilik va hunarmandchilik sohasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiy etgan. Natijada ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, davlatning tashkil topishi uchun zarur shart-sharoitlar vujudga kelgan. Urug‘doshlik aloqalari o‘rnida qishloq (qo‘shnichilik) jamoasi tarkib topgan. Xususiy mulkchilik rivojlanib borgan. Oqibatda, jamiyatda mulkiy tabaqalanish vujudga kelgan.

Ijtimoiy munosabatlardagi mazkur siljishlar muqarrar ravishda qabilachilik tuzumidan davlat tuzumiga o‘tishga olib kelgan. Dastlab bir necha davlatchalar tashkil topgan. Ularni mahalliy xalq «sepat», yunonliklar esa «nom» deb ataganlar. Ular manbalarda viloyatlarga

tenglashtiriladi. Nomlar qishloq jamoalarining birgalikda ish yuritish uchun birlashishi natijasida vujudga kelgan. Ma'lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi IV ming yillik boshlarida Misrda 42 ta kichik davlatlar bo'lgan. Har bir nomning o'z hokimi bo'lib, u yunon tilida «nomarx» deyilgan. Nomarx dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa sug'orish ishlarini, shuningdek harbiy va diniy ishlarni boshqargan.

Umumiy manfaatlar uyg'unligi Misr miqyosida umumlashtirish zarurati mayda davlatlarning birlashishiga yordam bergan. Tabiiyki, bu birlashish boshchilik qilishga qaratilgan urushlar jarayonida yuzaga kelgan.

Dastlab ikkita katta davlat, janubda Yuqori Misr, shimolda Quyi Misr tashkil topgan. Har birining o'z podshosi bo'lgan. Miloddan avvalgi taxminan 3000-yilda Yuqori Misr podshosi Menes (Mina) Quyi Misrni o'ziga bo'ysundirgan. Poytaxti Abidos (qisqa muddatdan so'ng Memfis shahri, keyinchalik Fiva) bo'lgan yagona Misr podsholigiga asos solingan.

Fanda *Qadimgi Misr davlati* tarixini quyidagi beshta yirik davrga bo'lish qabul qilingan:

- ilk podsholik davri (miloddan avvalgi 3100–2800-y.);
- Qadimgi (Qo'hna) podsholik davri (miloddan avvalgi 2800–2250-y.);
- O'rta podsholik davri (miloddan avvalgi 2250–1750-y.);
- Yangi podsholik davri (miloddan avvalgi 1584–1071-y.);
- So'nggi podsholik davri (miloddan avvalgi XI–VI asrlar).

Ilk podsholik davrida qadimiy qabilaviy ittifoq shaklidagi davlat bo'lgan. Qadimgi podsholik davrida markazlashgan kuchli davlat tashkil topgan. Qadimgi, o'rta va yangi podsholiklari oralig'idagi davrlar Misrning xo'jalik va siyosiy inqiroz davri bo'lgan.

Miloddan avvalgi XXIII asrdan XXI asrgacha Misr bir nechta mustaqil davlatlarga ajralgan. Nomlar vorislik qiluvchi yirik zodagonlar qo'lidagi yarim qaram viloyatlarga aylangan. Bu esa mutlaq hokimiyatni chegaralagan.

Miloddan avvalgi XVIII asrda ozod dehqonlar va qullar tomonidan juda katta norozilik qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Natijada Misr giksoslar (Osiyoning ko'chmanchi qabilalari) tomonidan osonlik bilan bosib olinadi. Ularning hukmronligi 100 yil davom etadi. So'ngra Misr o'z mustaqilligini, giksoslar ta'siridagi hududlarni ham qo'lga kiritadi.

Natijada yangi podsholik davrida birinchi jahon imperiyasiga aylangan. So'nggi podsholik (Liviya-Sais) davriga kelib inqirozga yuz

tutgan. Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda (miloddan avvalgi 663-yilgacha) Efmopiya va osur podsholarining hukmronligi oʻrnatiladi. Miloddan avvalgi 525-yilda Ahamoniylar Eron tomonidan bosib olingan. Miloddan avvalgi 332-yildan yunon mustamlakasiga aylangan. Iskandar vafotidan soʻng bu yerda yunon-makedoniyaliklar sulolasi qaror topib, Misr ellinizm davriga qadam qoʻygan. Miloddan avvalgi I asrda Misr Rim imperiyasi taʼsiriga tushib qolgan.

Jamiyatning ijtimoiy pogʻonalari podsho hokimiyatining tayanchi boʻlgan kohinlar, zamindor va harbiy zodagonlar, shaharliklar jamoalari, mayda mulkdorlar («najis» – misr tilida «kichkina» maʼnosini anglatadi), erkin kishilar (meret), podsho xizmatchisi deb ataluvchi yarim erkin kishilar, hunarmandlar, savdogarlar, podsho qullari («xemu-nesut» – podsho qullari) va qullardan iborat boʻlgan. Cherkov xoʻjaligi ommani firʼavnlarga itoatda boʻlishga undashligi sababli soliq va ishlab berish majburiyatlaridan ozod etilgan. Quldorchilik munosabatlari asrlar davomida kuchaya borgan. Shunday boʻlsa-da, qullar oʻz oilasi va mulkiga egalik qilishi, xoʻjayini ustidan ibodatxonaga shikoyat qilishi mumkin boʻlgan.

Davlatning hokimiyati tepasida podsho turgan. Qadimgi podsholik davriga kelib oliy hokimiyat meros tariqasida oʻtgan. Hokimiyat haqidagi diniy taʼlimotga koʻra, yangi firʼavn-xudoni yaratish uchun firʼavnlarning ilohiyligi yetarli hisoblanmagan. Ilohiylik darajasiga koʻpincha nomarxlar va kohinlar ham firʼavn mansabini egallashi mumkin boʻlgan.

Podsho shaxsi ilohiylashtirilgan. Natijada podsho soʻzi oʻrnida majoziy maʼnoda «firʼavn – ulugʻ uy» iborasi ishlatilgan. Oddiy fuqaro podsho oldida hukmdorning oyogʻi ostidagi tuproqni oʻpishga, nufuzli shaxslar esa oyogʻini yopishga haqli boʻlgan. Firʼavn qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatiga egalik qilgan. Barcha davlat ishlari uning buyrugʻi bilan amalga oshirilgan. U oʻz qoʻriqchilariga ega boʻlgan. Misr tarixida taxminan XXVI sulola hukmronlik qilgan.

Uning hokimiyati hukmron tabaqalar, yaʼni yirik zodagonlar, harbiylar va kohinlar tomonidan nazorat etilgan. Shuningdek, diniy va axloqiy meʼyorlar bilan ham ushlab turilgan.

Saroyda koʻp sonli amaldorlar faoliyat koʻrsatgan. Davlat boshqaruvida podshodan keyingi birinchi oʻrinda turuvchi oliy mansabdor shaxs «vazir – jati» hisoblangan. Dastlab u poytaxt kohini, saroy boshqaruvi va devonxona boshligʻi vazifasini bajargan. Uning vakolatlari asta-sekin kengaya borgan. Xususan, yer-suv taʼminotini, davlat idoralari, qoʻshin va sud organlarining boshqaruvi va nazoratini amalga oshirgan.



Yuqori mansabdor shaxslar, harbiy boshliqlar, xazinani saqlovchilar, ish boshqaruvchilar, oliy kohinlar, odatda, podsho xonadonidan bo'lishgan<sup>1</sup>.

Qadimgi podsholik davriga kelib harbiy, ijtimoiy ishlar, moliya-soliq va sud idoralari shakllangan. Yangi podsholik davrida markaziy boshqaruvda «Bosh xazinachi», «Butun podsholik ishlari boshlig'i» lavozimlari joriy etilgan. Ko'p sonli mirzalar buyruqlarni yozish bilan shug'ullanib, xazina hisobini, dehqonlar va hunarmandlar ustidan nazoratni yuritgan.

Keyingi davrlarda bosqinchilik siyosati natijasida davlat boshqaruvi harbiy xususiyat kasb eta boshlagan. Xo'jalik boshqaruvida harbiy boshliqlarning roli kuchaygan.

Oliy sud instansiyasi «Oltita buyuk uylar» deb atalib, poytaxtda joylashgan. Oliy sud hokimiyati fir'avnga tegishli bo'lgan. U davlatga qarshi jinoyatlar bo'yicha maxsus sudyalarni tayinlagan. Qadimgi jamoa sudlarining o'rnini podsho sudi vakillari egallagan.

Joylarda hokimiyat nomarxlar tomonidan an'anaviy tarzda boshqarilgan. Ular viloyatning xo'jalik boshqaruviga oid buyruqlar chiqargan va umumiy kuzatuvni olib borgan. Nomarxlarning atrofida cherkov kohinlari, turli darajadagi amaldorlar faoliyat yuritgan. Ko'p joylarda ularning hokimiyati meros tariqasida otadan o'g'ilga o'tgan.

Yangi podsholik davrida Yuqori va Quyi Misr fir'avn tayinlaydigan alohida noiblar tomonidan boshqarilgan. Bu mamlakatni yanada markazlashtirgan. Shahar va qal'alar fir'avn tomonidan tayinlanadigan boshliqlar tomonidan idora qilingan. Dehqonlar jamoalari oqsoqol – kserp tomonidan idora etilgan.

Dastlabki davrlarda doimiy qo'shin shakllana boshlagan. Keyingi davrlarga kelib maxsus va yollanma dehqonlar qo'shinidan tashkil topgan.

*Qadimgi Misr huquqining asosiy belgilari.* Barcha qadimgi davlatlardagi kabi Qadimgi Misrda ham huquqning dastlabki manbai odat bo'lgan.

Davlat tashkil topishi bilan yozma qonunchilik paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi grek yozuvchisi Diador va Gerodotning xabar berishicha, ilk qonun birinchi podsho Menes tomonidan, ikkinchi qonun esa Sazixis tomonidan qabul qilingan. Miloddan avvalgi XIII asrga kelib

---

<sup>1</sup> Qarang: *Муҳамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи* (Қадимги дунё давлати ва ҳуқуқи тарихи). – Т., 1999. – Б. 53–54.



yozma qonunchilik ancha taraqqiy etgan. Ayniqsa Ramzes II podsholigi davrida jamiyat va davlatni mustahkamlashga qaratilgan ko'plab qonunlar chiqarilgan.

Miloddan avvalgi VIII asrda Bokxorisning 8 ta kitobi (qirq noma)dan iborat katta kodeksi paydo bo'lgan. Ular qarzdorni qarz uchun qulga aylantirishni taqiqlash, yerni sotish va garovga qo'yish shartnomalarini tuzishni belgilagan. Natijada huquqni qo'llash kohinlardan tashqari fuqarolar tomonidan ham amalga oshirilgan.

Miloddan avvalgi VI asrda podsho Amasis mahalliy hokimiyat faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar chiqargan.

Manbalarda keltirilishicha, «sud zali qonunlari», «vazirga yo'riq-noma» kabi huquqiy hujjatlar ham mavjud bo'lgan. Misrliklarning muqaddas kitobi «Murdalar kitobi» bo'lgan.

Huquq manbalari sirasiga odat huquqi, qonunlarni, oliy mansabdor shaxslar farmoyishlarini, podsho va jatining sud ishlari bo'yicha chiqargan qarorlarini ham kiritish mumkin.

Qadimgi Misr huquqida mulk huquqi, majburiyat huquqi, oila huquqi, meros va jinoyat huquqi nisbatan ajralib chiqqan sohalar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sud jarayoni ham alohida o'rganishga molik.

Mulk huquqi predmeti sifatida yer va mehnat qurollari, harakatdagi ashyolar hisoblanadi. Butun yerlar rasman podsho mulki hisoblansa-da, yerga egalikning bir qancha huquqiy shakllari mavjud bo'lgan. Podsho tomonidan hadya, mukofot yoki majburiyat asosida berilishi natijasida xususiy yerlar shakllangan. So'nggi davrlarga kelib ibodatxona yerlari mustaqil boshqarilgan.

Ibodatxona yerlarida foiz hisobiga ishlovchi dehqonlar yerlaridan davlat xazinasiga renta solig'i olingan. Soliqni to'lay olmagan dehqonlar dastlabki davrlarda yerdan haydab yuborilgan. Miloddan avvalgi XIV asrga kelib bu holat taqiqlanib, turli tan jazolari (qamchi bilan savalash) berilishi nazarda tutilgan.

Majburiyatlar asosan shartnomalardan kelib chiqqan. Shartnomalar dastlab kohinlar va mansabdor shaxslar oldida og'zaki qasam ichish orqali tuzilgan. Miloddan avvalgi VIII asrda, Bokxoris davrida shartnomalar diniy tartibdan xolos etilgan. Shartnomalarning haqiqiyliги uchtagacha dalolatnoma, ya'ni bitim tuzish orqali mustahkamlangan. Ularning obyekti yer, urug' va boshqa vositalar bo'lgan.

Shartnomalarning keng tarqalgan turlari oldi-sotdi, qarz, mulkni ijaraga berish, oddiy shirkat shartnomalari (birgalikdagi faoliyat

to'g'risidagi), yuk tashish va omonat saqlash shartnomalari hisoblanadi. Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, Qadimgi Misrda asosiy o'lchov qiymati, ayriboshlash vositasi dastlab don, so'ngra oltin va keyinchalik Osiyo kumushi hisoblangan.

Oilada ko'pgina materiariat qoldiqlari saqlanib qolgan. Masalan, aka-singil, opa-ukalar o'rtasidagi nikoh keng tarqalgan. Onaning otasi va akasi katta hurmatga ega bo'lgan. Ayollar juda yuqori mavqega ega bo'lgan. Keyinchalik oilada erning huquqlari mustahkamlanib, xotin u bilan teng huquqli hisoblanmay qo'yilgan. Ko'p xotinlilikka ruxsat berilgan.

Nikoh shartnoma asosida tuzilgan. Nikoh va ajralish bilan bog'liq xarajatlar erning hisobidan qoplangan. Er oilasining butun mulkini xotinga o'tkazish to'g'risidagi shartnoma vazir tomonidan tasdiqlanishi shart bo'lgan. Ajralish xotinning xohishi bilan bo'lsa, u erdan ma'lum miqdorda mablag' olgan.

Farzandlar ota mulkiga meros huquqiga ega bo'lib, ular o'rtasida teng taqsimlangan. Agar er-xotin ajralishsa, erning mulki farzandlar o'rtasida taqsimlanishi uchun katta o'g'liga o'tgan. Katta o'g'il imtiyozga ega bo'lgan.

Misr huquqida vasiyat ham amal qilgan. Meros vasiyat asosida alohida shaxslarga ham qoldirilishi mumkin bo'lgan. Vasiyat asosida merosxo'rlar zimmasiga qurbonliklar qilish yuklatilishi mumkin bo'lgan.

Misr huquqida jinoyat deb tan olinadigan xatti-harakatlarning ancha keng doirasi ma'lum. Ularni ijtimoiy tuzumga, davlatga, diniy qoidalarni buzishga va shaxsga qarshi jinoyatlarga ajratish mumkin. Ijtimoiy tuzum, davlat, din va shaxs hayotiga qarshi jinoyatlarga eng og'ir jazolar tayinlangan.

Davlatga qarshi jinoyatlarga aybdor butun oilasi bilan javobgar bo'lgan. Bu jinoyatlar quyidagilar hisoblangan: davlatga xiyonat qilish, qo'zg'olon ko'tarish, fitna uyushtirish. Diniy qoidalarga qarshi jinoyatlar afsungarlik, qo'shiq yaratish, muqaddas hisoblangan hayvonlarni o'ldirish kabilar bo'lgan.

Jazolar tizimi juda og'irligi bilan ajralib turadi. Jazoning asosiy maqsadi qo'rqitish bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, davlat tashkil topishi bilan qonli o'ch olish odati, xun olishlar bekor bo'lgan.

Jazolar tizimida o'lim va tan jazosi eng ko'p tarqalgan. Shuningdek, qamchi bilan urish, surgun qilish, majburiy ishlarga jo'natish, turmada saqlash, jarima va obro'sizlantirish jazolari ham qo'llanilgan. Odatda,

jinoyatni sodir etishdagi asosiy tana a'zosi kesib tashlangan. Masalan, davlat sirini oshkor etganning tili kesilgan.

Mansabdor shaxslarni o'zini o'zi o'ldirishga ruxsat berilgan. Ibodatxona mulki o'g'irlansa tan jazosi bilan birga zararni 100 baravargacha qoplash shart bo'lgan. Shuningdek, aybdor qulga, erkin kishilar qaram ishchiga aylantirilishi mumkin bo'lgan.

Quyida ayrim jinoyat turlari va ularga nisbatan qo'llanilgan jazolar haqida misol keltirib o'tamiz. Qabrni buzib o'g'irlik sodir etsa, aybdorning quloqlari va burni kesilgan hamda qoziqqa o'tqizilgan. Eriga xiyonat etish og'ir jinoyat hisoblanib, xiyonatkor xotinning burni kesilib, sherigiga kastratsiya jazosi berilgan.

Jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritish bir xil bo'lgan. Ishlar jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha qo'zg'atilgan. Prokurorlik vazifasi jabrlanuvining o'ziga berilgan bo'lib, jazo turi va miqdorini ko'rsatib bergan. Ko'rsatmalar qasam ichish yo'li bilan mustahkamlangan. Sudya kimning foydasiga ishni hal qilsa, indamay turib haqiqat timsoli – xudo Maatning tasvirini uning labiga tekkizgan.

***Qadimgi Bobil davlati.*** Mesopotamiyaning janubiy qismi (Ikkidaryo oralig'i)da, ya'ni fors qo'ltig'ining Dajla va Frot daryolari oralig'ida ham dastlabki taraqqiyot ekin maydonlari o'zlashtirish va suvdan samarali foydalanish yo'lida ro'y bergan. Pirovard natijada Dajla va Frot daryolari vodiysi serhosil mamlakatga aylangan. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning rivojlana borishi aholining tez o'sishiga olib kelgan. Katta qishloqlar paydo bo'lgan. Ulardan ba'zilar kattalashib, devorlar bilan o'ralgan shaharlarga aylangan. Shu tariqa miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiri – II ming yillikning boshlarida birinchi shahar-davlatlar vujudga kela boshlagan. Miloddan avvalgi III ming yillikning ikkinchi choragida Uruq, Kish, Ur, Lagash kabi davlatchalar aholisi ancha ko'paygan.

Ibtidoiy jamoadan qishloq jamoasiga o'tishda quldorchilik tuzumi shakllana boshladi. Ibodatxona yerlarining jamoa yerlaridan ajralib chiqishi natijasida podsho-cherkov yerlari tashkil topgan. Qishloq jamoa boshqaruvidan shaharlarda ma'muriy apparat o'sib chiqqan. U ijtimoiy soha vazifalarining murakkablashishi bilan yer, xo'jalik va jamoat ishlarining hisobini yuritgan. Shu bilan u boshqa qishloq jamoalariga nisbatan xilma-xil boshqaruvchilik vazifalarini amalga oshiruvchi shahar-davlatlar apparati bo'lib qolgan.

Shahar-davlatlar dastlab janubiy qismdagi shumerlar va akkad (semit, somiy)lar qabilaviy guruhlarida vujudga kelgan. Kelib joylashgan turli

qabilalar guruhlari batamom qo‘shilib ketgan. Shumer sivilizatsiyasining birinchi markazi Uruq bo‘lgan, akkad-semitlarning shaharlari ichida eng qadimiysi esa Akkad bo‘lgan.

Ikkidaryo oralig‘ining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga atrofidagi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning ham ta’siri kuzatilgan. Ikkidaryo oralig‘ida mamlakatda o‘z ta’sirini o‘rnatish uchun shahar-davlatlar o‘rtasida urushlar boshlanib ketgan.

Miloddan avvalgi XXVIII–XXVII asrlarda Kish shahar-davlati yuksalib, uning hukmdori birinchi bo‘lib «lugal» (katta odam, xo‘jayin) degan unvon oladi. XXVII asrda Uruq hokimi Gilgamish Kish qo‘shinini yengib, Lagash, Nippur va boshqa shahar-davlatlarni bo‘ysundirgan. Keyingi davrlarda hokimiyat qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan. Miloddan avvalgi XIV asrning oxirida Akkad davlatining asoschisi Sargon I tomonidan Fors qo‘ltig‘idagi Elam, butun Mesopotamiya va Old Osiyoni o‘z ichiga olgan janubi-g‘arbiy Osiyodagi eng yirik dastlabki markazlashgan akkad-shumer davlati barpo etilgan. U 120 yil yashagan (mil. avv. 2200-yilgacha).

Miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri – II ming yillikning boshlarida ikkidaryo oralig‘ida siyosiy tarqoqlik hukm suradi. Oralig‘ davrda Ur shahri tomonidan yana birlashtiriladi. Urning III sulolasi davrida Ur-Nammu Qonunnomasi qabul qilingan.

Bu vaqtda Bobil kabi mustaqil davlatlar faoliyat ko‘rsatgan. O‘zaro urushlarda Bobil g‘olib chiqib amoriylar sulolasiga asos solingan. Qadimgi Bobil<sup>1</sup> Ikkidaryo oralig‘i tarixida chuqur iz qoldirgan.

Bobil podsholigining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ravnaq topgan vaqti podsho Xammurapi davriga (mil. avv. 1792–1750-y.) to‘g‘ri keladi. U hududi jihatdan vodiyning katta qismini o‘z ichiga olgan keng hududda joylashgan. Biroq mustahkam bo‘lmagan. Xammurapi vafotidan so‘ng siyosiy inqiroz davri kuzatiladi. 1595-yilda xettlar va kassitlar tomonidan tugatiladi. Miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalarida (miloddan avvalgi 1518–1204-y.) kassitlar sulolasi qaror topadi.

Bobilning yangidan yuksalishi miloddan avvalgi VII–VI asrlarga to‘g‘ri keladi. Miloddan avvalgi 626–539-yilgacha qudratli davlat bo‘lib hukm suradi. So‘ngra davlat kuchsizlinishi natijasida eroniylar shohi Kayxusrav tomonidan butun Mesopotamiya bosib olingan va yangi Bobil

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Akkadcha «babilon» – Bobili – Xudo дарвозаси. Podsholigi 300 yil (miloddan avvalgi 1894–1595-yillar) hukm surib, Ikkidaryo oralig‘ida chuqur iz qoldirgan.

podsholigi tugatilgan. Bobil miloddan avvalgi VI–IV asrlarda eronliklarga, IV asrning 30-yillaridan boshlab yunon-makedoniyaliklarga, so‘ng salavkiylarga tobe bo‘lib qolgan.

Jamiyatda har bir kishining aniq o‘rni belgilangan. Butun aholi avvalo erkin kishilar va qullar (vardum)ga bo‘lingan. Quldorchilik munosabatlari qonun (Ur-Nammu va Xammurapi qonunlari) bilan belgilangan. Qullar podsho qullari, ibodatxona qullari va xususiy egalikdagi toifalarga bo‘lingan. Erkin kishi va cho‘ri, qul va erkin ayol oila qurishi mumkin bo‘lib, tug‘ilgan bolalar erkin hisoblangan. Qarzdor uch yilgacha qulga aylantirilishi mumkin.

Erkin aholi o‘z navbatida to‘la huquqli va to‘la huquqli bo‘lmagan fuqarolarga ajratilgan. To‘la huquqli fuqarolar (avilum – odam, er kishi) aholining asosiy ommasini va qo‘shinning asosiy qismini tashkil etgan.

Ijtimoiy tuzumda harbiylar, «mushkenular (bo‘ysundirilganlar, akkad tilida «mayda kishilar»)), saroy xizmatchilari (kohinlar), davlat manfaati uchun moliyaviy-savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi (tamkar)lar, hunarmand (mutaxassis)lar ham alohida toifalarni tashkil etgan. Mushkenular avilumga nisbatan quyi pog‘onada turgan. Manbalarda keltirilishicha, ular bosib olingan davlatlar aholisi bo‘lishi mumkin.

Qadimgi Bobil podsholigi markazlashgan davlat bo‘lgan. Podsho qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatiga egalik qilgan. U xudoning noibi va xizmatchisi hisoblangan. Uning hokimiyati kuchli ruhoniylar va boy shaharlar tomonidan cheklangan. Uchta muqaddas shahar – Nippur, Sippar va Bobil imtiyozli yorliqlarga ega bo‘lishgan. Ularning fuqarolariga nisbatan podsho huquqlari chegaralangan. Biroq Xammurapi qonunlari podsho hokimiyatiga nisbatan cheklovlar ko‘zda tutilmagan.

Davlat apparati podsho tomonidan boshqarilgan. Ular o‘zlariga ma‘qul va qulay boshqaruv mexanizmini tashkil etganlar. Bunga esa barcha, hatto eng kichik ishlarga shaxsan e‘tibor berish yo‘li bilan erishganlar. Barcha boshqaruv ishlari saroyda to‘planib, saroy boshqaruv tizimi amal qilgan.

Bizgacha Xammurapining 60 ga yaqin buyruq-farmoyishlari yetib kelgan. Bu davrda savdogar-tamkarlar podsho ayg‘oqchilariga aylantirilgan.

Davlatda podshodan keyin nubanda (vazir) turgan. U aholining majburiyati bilan bog‘liq deyarli barcha tashkiliy ishlar (qurilish, urush, dehqonchilik)ni yuritgan.

Podsho huzurida yana bir boshqa hukmdor – isakku (noib), ya‘ni ko‘p shaharlar hokimi paydo bo‘lgan. Shu bilan birga, oliy va markaziy



mansabdor shaxslardan yana saroybon, bosh harbiy boshliq kabilar bo'lgan. Saroy boshqaruvida xazinachi, saroy dasturxonchisi, mirzalar ham faoliyat olib borgan. Shuningdek, ma'lum darajada ishtirok etadigan turli darajadagi kohinlar, agentlar, sudyalar, omborxona qo'riqchilari, kuzatuvchi va boshqalar ham mavjud bo'lgan.

Davlat boshqaruvi organlari tizimida markaziy va mahalliy boshqaruv organlariga ajratilgan.

Mamlakat hududi viloyatlarga bo'lingan. Ilgari viloyat – shahar-davlatlar tepasida patesilar turgan. Podsholar keyingi davrlarda ularning o'rnida o'zlariga bo'ysunuvchi – shakkanaqu deb ataluvchi kohin-noiblarni tayinlaganlar. Ular o'z hududida soliq yig'ish, tartibni saqlash va xalq lashkarini chaqirishga mas'ul bo'lgan. Alohida shaharlar hokimlari – rabianumlar bo'lishgan. Joylarda jamoaning o'zini o'zi boshqarish organlari saqlanib qolgan. Jamoa hududi kichik hududiy birlik – qishloqni tashkil etgan. Oqsoqollar joylarda ma'muriy, moliyaviy va sud hokimiyatini amalga oshirganlar.

Xammurapi davriga qadar ibodatxona va jamoa sudlari sud tizimida asosiy o'rin tutgan. Ularda ibodatxona kengashlari, jamoa majlislari yoki jamoa sudlari hay'atlari maydonga chiqqan.

Sud tizimida oliy sudya (podsholik sudlari) ancha erta shakllangan. Keyinchalik u asosiy o'rin egallaydi. Ular barcha katta shaharlarda joriy etilgan. Asosan podsho odamlari va mulkiga tegishli ishlarni ko'rib hal etishgan. Podsho oliy sudya bo'lib, hukm qilinganlarni afv etish huquqiga ega bo'lgan. Umumiy nazoratni u olib borgan. Deyarli hamma yerda podsho noiblari jinoyatchilarni sudga chaqirish, qamoqqa olish va qidirish kabi ishlarini amalga oshirishlari mumkin bo'lgan.

Dastlabki davrlarda lashkarlar erkin jamoachi dehqonlardan iborat bo'lgan. Ular urush vaqtlarida qurol-yarog'i bilan kelishgan. Bu tartib keyingi davrlarda ham saqlangan. Jahon tarixida birinchi marta akkad podshosi Sargon (mil. avv. 2316–2261-y.) 5400 ta professional jangchi (redum, bairum)dan iborat doimiy armiya tuzgan. U ichki va tashqi xavfsizlikni saqlashga jalb etilgan. Qo'shin bilan bog'liq masalalar ham Xammurapi qonunlarilarida o'z aksini topgan. Jangchining xizmati abadiy hisoblangan. Odatda, jangchidan keyin o'g'li uning o'rniga xizmatga jalb etib kelingan. Harbiy boshliqlar (dekum va lubuttum) qo'shindan o'zboshimcha harakat qila olmagan. Qo'shin kamonchilar, og'ir qurollangan piyodalar, aravali jangchilardan tuzilgan. Harbiylar muntazam taqdirlangan, majburiyatlar va soliqlardan ozod etilgan. Professional jangchilar mirshablik vazifalarini ham bajarganlar.

*Qadimgi Mesopatamiyada huquqning asosiy belgilari.* Ikkidaryo oralig‘i davlatlarida huquqning eng qadimgi manbai Misrda bo‘lgani kabi odat huquqi bo‘lgan. Davlatchilik natijasida odob-ahloq qoidalari majburiy mazmun kasb eta boshlagan. Yozma qonunchilikda ibtidoiy jamoa tuzumining belgilari saqlangan.

Huquq manbai – qonun juda erta paydo bo‘lgan. Podsholar qonunlarining paydo bo‘lishi davlatlarning tashkil topishi va rivojlalishining uzluksiz shart-sharoitlari, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumni yaxshilash jarayonlari bilan bog‘liqdir.

Tarixiy-huquqiy hujjatlardan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- miloddan avvalgi XXIV asrga taalluqli Lagash podshosi Uruinimgin islohoti hujjatlari;

- miloddan avvalgi XXII asrga oid Ur sulolasi asoschisi podsho Ur-Nammu qonunlari;

- miloddan avvalgi III ming yillikdagi Isina podshosi Lipid-Ishtar qonunlari;

- miloddan avvalgi II ming yillik boshidagi Eshkunna podsholigi Bilalam qonunlari;

- miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalaridagi O‘rta asr osur qonunlari.

Bularning ichida ayniqsa Mesopatamiyaning eng muhim hujjati, podsho Xammurapi qonunlari qadimgi davr huquqiy qarashlari va huquq tizimining juda katta yodgorligidir.

Xammurapini qonunlari 1901–1092-yillarda fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qadimgi Elam poytaxti Suz shahrini qazish chog‘ida topilgan. Bu qonunlar mixxat yozuvida qora bazalt tosh ustuni sathiga o‘yib yozilgan<sup>1</sup>.

Ushbu qonunlar 282 ta moddadan iborat bo‘lib, Shumer va Akkad huquqining tajribasi va ko‘pgina namunalarini mujassamlashtirgan. Qonunlar to‘plami 3 qismga bo‘linadi: 1) kirish; 2) asosiy qism; 3) xulosa.

Kirish qismida qonunlarni o‘rnatishdan asosiy maqsad mamlakatda adolat o‘rnatishdir, deb ko‘rsatilgan.

Qonunda podsho o‘zining xalq oldidagi xizmatlarini keltiradi. Bu qonunlarni kelgusida bajaradigan podsholarni hurmatlash, ularni

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Xammurapi qonunlarining asl nusxasi Parij (Luvr)da saqlanadi.

bajarmagan yoki bekor qilmoqchi bo'lgan podsholarni la'natlash lozimligi to'g'risida gapiriladi.

Qonunnomaning asosiy qismida sud va sud jarayoni (1–5-moddalar), mulk huquqining buzilishi va unga qo'llaniladigan jazolar (6–120-moddalar), nikoh, oila va meros huquqi (127–195-moddalar), jinoyat huquqi (shaxs hayoti va sog'ligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik, 196–214-moddalar), mehnat va mehnat qurollari (215–282-moddalar) hamda boshqa munosabatlar to'g'risidagi me'yorlar belgilangan.

Kodeksni tuzishda qadimgi odat huquqi, shumer qonunlari va yangi qonunlar asos qilib olingan. Xammurapi qonunlari boshqa sharq qonunnomalaridan farq qilib, o'zida diniy va nasihatgo'ylik elementlarini saqlamaydi. Shunday bo'lsa-da, unda talion tamoyili va ordaliya kabi urug'doshlik tuzumi belgilari saqlangan.

Hozirgi davr huquqshunosligida Mesopotamiya huquqini o'rganish uchun asosiy manba tariqasida Xammurapi qonunlariga murojaat etiladi.

*Xammurapi qonunlarida huquq sohalari va institutlari.* Xammurapi qonunlarida yerga egalikning podsho, ibodatxona, jamoa va xususiy yer egaligi kabi shakllari bo'lgan. Amaldorlar va harbiylarga berilgan mulk – ilku mulk deb atalgan. Keyingi davrlarda ham jamoa mulkchiligi saqlanib qolgan.

Qonunlarda shartnomalardan va zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bir-biridan ajratib qo'yilgan. Bu davrda shartnoma huquqi keng rivojlangan. Shartnomalarning oldi-sotdi, ijara, ayriboshlash, qarz, yuk tashish, topshiriq, shirkat (ko'pchilik), hadya va boshqa turlari ko'pgina me'yorlar bilan tartibga solingan.

Nikoh yozma tuziladigan shartnomalar asosida rasmiylashtirilgan. Agar kishi xotin olsa va yozma shartnoma tuzmasa, bu ayol unga xotin emas (128-modda). Shartnoma er va xotinning oilasi o'rtasida ham tuzilgan. Qullar va erkin kishilar oila qurishi mumkin bo'lib, tug'ilgan bolalar erkin hisoblangan. Nikoh shartnomasi tuzilishidan avval kuyov bo'lajak qaynonasiga qalin puli – «tixatum», kelinning oila a'zolariga to'y sovg'alari – «biblum», kelinning otasi qiziga sep-sidirg'a – «sheriktum» berishi lozim bo'lgan. Bir nikohlik amal qilgan bo'lib, er asosli tarzda ikkinchi nikohga kirishi mumkin edi. Farzand ota-onasini so'ksa tili, ursa barmoqlari kesilgan.

Merosga dastlabki vaqtlarda eng avval o'g'illar, o'g'illar bo'lmasa qizlar, keyinchalik qizlar ham o'g'illar bilan teng meros huquqiga ega bo'lganlar. Agar o'g'il vafot etgan bo'lsa, nevaralar merosxo'r bo'lgan. Farzandlar va nevaralar bo'lmasa aka-ukalar, ular ham bo'lmasa amakilar

merosxo‘r sifatida maydonga chiqqanlar. Meros bolalar o‘rtasida teng taqsimlangan. Asrab olingan farzand ham teng ulush olgan. Er xotiniga sovg‘a – nudunnum bergan va u saqlanib qolgan.

Xammurapi qonunlarida ibtidoiy jamoa tuzumiga xos bo‘lgan qonli qasos olish odati haqida hech narsa eslanmaydi. U o‘z o‘rnini davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan jazolarga va jinoyatchining jablanuvchiga yoki uning qarindoshlariga to‘laydigan haqlariga bo‘shatib bergan. Biroq ibtidoiy jamoa tuzumiga xos bo‘lgan boshqa qoldiqlar saqlangan. Jumladan, avilumlarga nisbatan talion tamoyili; aybdor noma‘lum bo‘lsa, butun jamoaning javobgarligi, ota-ona uchun farzandlarning javobgarligi, aybdorning o‘z hududidan haydab yuborilishi va h.k. Jazo tizimi ayblanuvi va jabrlanuvchining ijtimoiy mavqeiga qarab turlicha qo‘llanilgan. Jazolar birinchi navbatda Bobildagi quldorlik tuzumini ushlab turishga qaratilgan. Jinoiy jazolar turlariga qo‘shimcha sifatida sharmanda qilish, muayyan faoliyat yuritish huquqidan mahrum qilish va mansabidan bo‘shatish jazolarini ham aytish mumkin.

Xammurapi qonunlarining umumiy mazmuniga qarab to‘rtta turdagi: shaxsga qarshi, mulkka qarshi, oilaga qarshi va sudga qarshi jinoyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Qasddan odam o‘ldirish uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan (erini o‘ldirgan xotin qoziqqa o‘tqizilgan, 153-modda). Ehtiyotsizlik oqibatida odam o‘limiga sabab bo‘lish uchun o‘lim jazosi belgilangan. Masalan, uy imorat buzilib uy egasining o‘g‘li o‘lsa, quruvchining o‘g‘li ham o‘ldirilgan (230-modda).

Shaxs sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarga ijtimoiy ahvoli jabrlanuvchi bilan bir xil bo‘lgan ayblanuvchilar talion tamoyili bo‘yicha jazolangan. Agar ayblanuvchi yuqori mavqega ega bo‘lsa, jarima to‘lagan.

Shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida yosh bolalarni o‘g‘rilash jinoyati ham ko‘rsatilib o‘tilgan. Albatta, bunda maqsad qul qilib sotish bo‘lgan. Agar avilumning yosh o‘g‘li o‘g‘irlansa, o‘limga mahkum etilgan (14-modda).

Mulkka qarshi jinoyatlarga juda og‘ir jazolar nazarda tutilgan. Saroy va ibodatxona mulkini o‘g‘irlaganlik uchun ayrim hollarda o‘lim jazosi, boshqa hollarda 30 baravar miqdorida jarima nazarda tutilgan. Agar aybdor uni to‘lay olmasa, o‘limga mahkum etilgan. Yong‘in paytida o‘g‘rilik qilgan jinoyatchi o‘tga tashlangan. Qulga nisbatan mulk huquqi qattiq himoya qilingan. Sharq davlatlarining barchasi qullarga tegishli tamg‘a bosgan. Uni kesish, kuydirish o‘lim jazosi bilan taqiqlangan.

Oilaga qarshi jinoyatlarga xotinning erga xiyonat qilishi, yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqada bo'lish va beva xotinning sud ruxsatisiz ikkinchi nikohga kirishi kabilar kirgan. Bunday jinoyatlarga suvga tashlash (sinov sifatida ham), yoqib yuborish, haydab yuborish jazolari tayinlangan. Oilada ota-onalar va farzandlarni bir-biridan himoyalashni nazarda tutgan.

Xammurappi qonunlariga muvofiq, sudya ilgariqi qarorini o'zgartirsa, lavozimidan chetlashtirilgan va da'voning 12 baravari miqdorida jarima to'lagan. Tayyorlanilayotgan jinoyat haqida xabar bermaslik, yolg'on guvohlik berish va tuhmat qilish uchun jinoiy jazolar belgilangan.

Sud ishlarini yuritishda tomonlarining ko'rsatmalarini suv bilan sinash usuli amalda bo'lgan. Sud qaydnomalari loytaxtachalarga yozilgan. Ularda tomonlarning ko'rsatmalari, qasamlari, guvohlarning ismlari va sud hukmining mazmuni yozib qo'yilgan. Qoida bo'yicha tomonlar bir ishni ikkinchi marta qo'zg'atishlari mumkin bo'lmagan.

## **2-§. Qadimgi Xitoy va Hindiston davlati va huquqi**

***Qadimgi Hindiston davlati.*** Bundan 4000 yil ilgari Hind havzasida vujudga kelgan Xarappa va Mohenjo-Daro (hozirgi nomlari, ularning qadimgi nomlari yetib kelmagan) qadimgi sivilizatsiyaning katta shaharlari hisoblangan. Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi III ming yilliklarda bu yerda shaharlar hunarmandchilik markazlari sifatida maydonga chiqqan, dehqonchilik va savdoning rivojlanishi, mulkiy tabaqalashuv kuchaygan.

Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida ilk hind shahar-davlatlari va madaniyati tushkunlik davrini boshidan kechirgan. Uning markazlari inqirozga yuz tutgan. Bu jarayon shimoliy-g'arbdan hind-ariy qabilalarining kirib kelishi bilan nihoyasiga yetgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalaridan I ming yillikning birinchi yarmigacha bo'lgan davr tarixshunoslikda veda<sup>1</sup> davri deb yuritiladi va Hindiston tarixining aynan shu bosqichida sinfiy jamiyat va davlatning tashkil topishi yuz bergan. Ishlab chiqarish sohasidagi ulkan yutuqlar jamiyatning tabaqalashuviga olib kelgan.

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Vedalar – gimnlar, qo'shiqlar, afsunkor va diniy duolardan iborat katta to'plam. Bunday to'plamlardan 4 tasi: Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarveveda saqlanib qolgan. Eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi II ming yillikka mansubdir.



Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi bilan qabilaning saylab qo'yiladigan harbiy boshlig'i – roja barcha boshqaruv organlarini o'ziga bo'ysundirib, mansabning meros tariqasida o'tishiga erishadi. Rojaning saylanishiga ta'sir ko'rsatgan xalq majlislarining roli ham rojalar hukmronligi kuchayishi bilan kamaya boshlagan. Ular rojalarning yaqinlaridan iborat zodagonlar majlisi bo'lib qolgan.

Qabilaviy boshqaruv organlari asta-sekin davlat organlariga aylantirilgan. Davlat boshqaruvining yuqori lavozimlariga katta zodagonlar tayinlangan. Zodagonlar orasida podsholik kohini – puroxita, munajjim va roja maslahatchisi ham bo'lgan. Qabilaning ko'ngilli qo'shini harbiy boshliq (senani, senapati) boshchiligidagi doimiy qo'shinga o'sib chiqqan. Shu tariqa urug'-qabila tuzumi o'rnini davlatchilik tuzumi egallagan.

Ta'kidlash kerakki, Qadimgi Hindistonda ilk davlat birlashmalari miloddan avvalgi I ming yillikda sodda qabilaviy davlatchalar shaklida tashkil topgan. Taxminan miloddan avvalgi IX–VIII asrlarda ancha yirik davlatlar tashkil topa boshlagan. Miloddan avvalgi VI asrgacha shimoliy Hindistonda juda ko'p podsholiklar mavjud bo'lgan. Masalan, Gang havzasining o'zida 16 ta mayda davlat bo'lib, ulardan biri – Magadxa shu davrning eng yirik va kuchli davlati bo'lgan. Ayniqsa, miloddan avvalgi VI–III asrlarda Mauriylar sulolasi davrida bu davlat deyarli butun Hindiston hududini birlashtirib, juda qudratli davlatga aylanadi. Uning asoschisi grek-makedon bosqinchilariga qarshi kurashda xalq harakatlariga boshchilik qilgan mashhur hind arbobi Chandragupta (mil. avv. 321–298-y.)dir.

Mauriylar sulolasi hukmronligi alohida bosqich sifatida qoraladi. Bu davrda ko'pgina davlat institutlariga asos solingan. Shunday bo'lsa-da, u turli davrlarda turli xalqlar va qabilalarning yig'indisidan iborat bo'lib kelgan. Natijada, kuchli qo'shin va mustahkam boshqaruv apparati bo'lishiga qaramay, davlat birligini saqlay olishmagan. Keyingi davrni qadimgi Hindiston tarixida ancha beqaror davr deyish mumkin.

Miloddan avvalgi II asrda Hindiston bir qancha mayda davlatlarga bo'linib ketadi. Miloddan avvalgi 190-yillarda uni Yunon-Baqtriya podsholaridan Demetriy qo'shinlari, 100-yillarda saklar (skiflar) bosib oladi. Shimoliy Hindistonda Hind-Skif davlati vujudga keladi.

Yangi era arafasida Shimoliy-G'arbiy Hindistonga Parfiya qo'shinlari bostirib kirgan. Keyinchalik bu yerni Kushonlar bosib olgan. Kushonlar davrida Hindiston kuchli davlatga aylanadi. Kushonlar milodning III asrigacha hukmronlik qilganlar.

III asrdan boshlab Gang vohasidagi Magadxa davlati yana kuchayadi. Uning asoschisi Gupta bo‘lib, sulola ham shu nom bilan atalgan. Magadxa davlati Guptaning nabirasi Chandragupta I davrida (320–335-y.) Osiyodagi eng qudratli davlat bo‘lib, uning vafotidan keyin parchalanib ketgan.

V asr oxirida Hindistonga shimoli-g‘arbdan kidariylar, so‘ng eftalitlar bostirib kirgan.

VI asrga kelib Hindistonda guptalar tuzgan davlat yana mayda davlatlarga bo‘linib ketadi. Shu tariqa Hindistonning qadimgi tarixi o‘z nihoyasiga yetadi.

Qadimgi hind jamiyatining ijtimoiy tabaqalanishi sinflar (quldorlar va qullar) shakllanishiga emas, balki alohida toifalar – varna<sup>1</sup>larning vujudga kelishiga bog‘liq. Qadimgi Hindistonda quyidagi varnalar mavjud bo‘lgan: braxmanlar, kshatriylar, vayshiylar, shudralar<sup>2</sup>. Ulardan braxmanlar va kshatriylar hukmron mavqeni egallaganlar. Vayshiylar va shudralar imtiyozsiz varnalar hisoblanadi. Jamiyatda eng xo‘rlangan kishilar – chandallar deb yuritilgan. Undan tashqari shudralardan juda kam farq qiluvchi qullar – dasalar ham mavjud bo‘lgan.

Har bir varnaning yashash tarzini belgilovchi o‘z qonuni – dxarmasi o‘rnatilgan. Bir varnadan ikkinchisiga o‘tish taqiqlangan. Jinoiy jazo yuqori varna vakillariga ancha yengillik bergan.

Milodning I asrlarida feodal munosabatlar tashkil topa boshlaydi. Bu davrda varnalarning kasta (tabaqa)larga aylanish jarayoni vujudga kelgan. Kastalar ijtimoiy guruhlariga – tabaqalarga aylangan. Qullar manfaati davlat tomonidan qonun yo‘li bilan himoyalangan.

Davlat tuzumida ilk shahar-davlatlarning hukmdorlari – rojalar yer, din, soliq, harbiy boshqaruv va tashqi xavfsizlik ishlari bilan shug‘ullanganlar. Dastlabki davrlarda saylangan rajalar, vaqt o‘tishi bilan barcha podsholiklarda meros tariqa o‘tuvchi hokimiyatga egalik qilganlar.

Podsho saylovchi oqsoqollar kengashi monarx huzuridagi maslahatchi organ – *parishadga* aylanib borgan.

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Ularni ko‘pincha portugalliklar iborasi bilan «kasta» deb ataydilar. Lekin, bu nom hindlarning «jati»siga to‘g‘ri keladi. «Jati» yanada ko‘proq parchalangan biqiq guruhlarni, o‘zlariga biror kasbni tanlab olganlarning shunday guruhlarini bildiradi.

<sup>2</sup> *Izoh:* Braxmanlar – din homiylari, kohinlar (Oliy xudo – Braxman); kshatriylar – harbiylar, hukmdorlar; vayshiylar – dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar; shudralar – xizmatchilar, kambag‘allashgan dehqonlar hamda ozodlikka chiqarilgan qullar.

Davlat boshlig'i knazliklar doirasida – roja, umummiqyosda esa podsho hisoblangan. Taxt meros tariqasida o'tgan. Podsho hayotligidayoq merosxo'r tayinlangan. Mauriylar davrida podshoga «chakravartina» – yagona hukmdor deb qarash rasmiylashgan.

Podsho davlat boshqaruv tizimining cho'qqisida turgan. Moliya va sud ma'muriyatiga boshchilik qilib, eng oliy sudya hisoblangan. Davlat amaldorlarini lavozimga tayinlagan va lavozimidan ozod etgan. Podsho hokimiyati jamoaning o'zini o'zi boshqarish organlariga qadar bo'lib, despotik xarakterda bo'lmagan. Manu qonunlariga ko'ra, uning asosiy majburiyati fuqarolarni qo'riqlash va obodonlashtirish bo'lgan.

Podsholar qonun (edikt) chiqarish vakolatiga ham ega bo'lgan. Miloddan avvalgi III asrda Mauriylardan Ashoka (mil. avv. 293–268-y.) davriga kelib hukumat farmonlari vedalar qatori huquq manbalari qatoridan o'rin olgan.

Podsho maslahatchilari (mantrinalar, maxamatralar) alohida mavqega ega bo'lib, ulardan iborat tartibda parishad tuzilgan. Parishadning tarkibi aniq o'rnatilmagan, a'zolari asosan harbiy va diniy zodagonlardan iborat bo'lgan. U ikkinchi darajali ishlar yuzasidangina mustaqil qarorlar qabul qilgan. Mauriylar sulolasi davrida u butun boshqaruv tizimini tekshirish va podsho buyruqlarini bajarish funksiyalarini egallagan. Podsho u bilan hisoblashishi lozim bo'lgan.

Parishaddan tashqari maxfiy kengash ham mavjud bo'lib, u ishonchli kishilardan iborat tarkibda tuzilgan. Favqulodda holatlarda va kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni hal etishda ikkala kengash a'zolari birgalikda yig'ilishi mumkin edi.

Mamlakat boshqaruvida barcha sohalarni boshqaruvchi amaldorlar tayinlana boshlagan. Mansablar asosan tayinlash va meros bo'yicha egallangan. Mansabdor shaxslar faoliyati podshoning maxsus ayg'oqchilari tomonidan tekshirish va nazorat etish maqsadida kuzatib borilgan.

Podsho va saroy xo'jaligi maxsus guruh tomonidan yuritilgan. Iqtisodiy soha adxyakshalar tomonidan tartibga solingan.

Mauriylar imperiyasining ma'muriy hududiy tuzilishi va mahalliy boshqaruv tizimi haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, yirik davlatning faqat bir qismigina bevosita podsho va saroy boshqaruvida bo'lgan. Davlat hududi asosiy va oddiy provinsiya (janapad)lar, viloyat (pradesh)lar va okrug (axala)larga bo'lingan. Asosiy provinsiyalar to'rtta bo'lib, shahzodalar tomonidan boshqarilgan. Provinsiyalar ma'lum mustaqillikka ega bo'lishgan. Asosiy provinsiyalarda mahalliy amaldorlar shahzodalar

tomonidan taftishchilarni jo‘natish orqali tekshirib turilgan. Hukmdorning vazifalariga hududini himoya qilish, tartibni saqlash, soliqlarni yig‘ish, qurilish ishlarini ta‘minlash kabilar kirgan.

Janapadlar tepasida yirik davlat amaldorlari – rajuklar turgan. Kichikroq hudud – okruglarga okrug boshliqlari rahbarlik qilgan. Okrug boshlig‘ining zimmasiga qishloq ma‘muriyati ustidan nazorat qilish majburiyati yuklangan. U shahardan daromad olgan.

Qishloq viloyatlarining 4 ta turi mavjud bo‘lib, ular 800, 400, 200 va 100 ta qishloqni o‘z ichiga olgan. Okrugning asosiy shaharlarida devonxonalar bo‘lib, u yerdan butun okrugga farmoyishlar jo‘natilgan.

Eng quyi ma‘muriy birlik – qishloq-jamoa (gana)lar oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Jamoaning muhim masalalari jamoa yig‘inlari orqali hal etilgan.

Qadimgi Hindistonning sud tizimida podsholik va ichki jamoa sudlari faoliyat ko‘rsatgan. Oliy sud instansiyasi podsho yoki u vakolat bergan 3 sudyadan iborat maxsus sud hay‘ati (sabxa) tomonidan amalga oshirilgan. Podsho oliy sudya sifatida har yili amnistiya e‘lon qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Barcha ma‘muriy hududiy birliklarda 3 sudyadan iborat sud hay‘atlari tuzilgan. Bundan tashqari jinoyat ishlarini maxsus sudyalari ko‘rib hal etgan. Bugungi kundagi singari ichki ishlar idoralarining funksiyalari shahar hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilgan. Ko‘pgina ishlar norasmiy kastali sudlarda ko‘rib hal qilingan.

Davlatning rivojlanishida qo‘shin katta rol o‘ynagan. Qo‘shin doimiy jangchilar, yollanganlar va alohida birlashmalardan iborat tartibda to‘ldirilgan. Qo‘shin jamoat tartibini saqlash funksiyasini ham bajargan. U davlatning butunligini himoya qilishga doimo hushyor turishi lozim bo‘lgan. Shuning uchun harbiy bo‘linmalar qishloqlarga joylashtirilgan. Olingan o‘ljalarning asosiy qismi jangchilar o‘rtasida taqsimlangan.

*Qadimgi Hindiston huquqining asosiy belgilari.* Qadimgi Hindiston davlati va huquqi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari avvalo huquq manbalarida o‘z aksini topgan. Qadimgi Hindistonning huquq manbalari sifatida vedalarni, dxarmashastralari, artxashastralarni, Manu qonunlarini va podsholar ediktlarini ko‘rsatish kerak.

Qadimgi Hindiston huquqi manbalari vedalar, dxarmashastra (diniy-huquqiy, axloqiy yo‘l-yo‘riqlar), artxashastralari (siyosat va huquq haqidagi asarlar) hisoblanadi.

Artxashastra o‘ziga xos yozma yodgorlik bo‘lib, uni Iskandar Maqduniyning zamondoshi mashhur mansabdor shaxs jamlagan. Davlatni

idora qilish to'g'risidagi bu ajoyib asarda mamlakatning markazlashtirilgan va byurokratlashtirilgan davrining sharoitini aks ettiradigan bir qancha muhim maslahatlar va yo'l-yo'riqlar, farmoyishlar mavjud.

Dxarmashastralar dastlab braxmanlar tomonidan shogirdlari uchun qo'llanma sifatida tuzilgan. Keyinchalik u artxashastralardan ham muhim huquq manbaiga aylangan. Eng qadimgi dxarmashastralar bo'lmish Gautama, Baudxayana, Apastamba va Vasishtxa «dxarmasutralar» (sutratizma) degan nom bilan yuritilgan. Ular taxminan miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmida va yangi era oralig'ida paydo bo'lgan. Ana shu dxarmashastra asosida miloddan avvalgi II asr va milodning II asrida vujudga kelgan Manu qonunlari<sup>1</sup> qadimgi hind qonunchiligida alohida o'rin tutadi. U braxmanizm maktablaridan biri tomonidan tuzilgan bo'lib, diniy kuch berish maqsadida afsonaviy podsho Manu nomi bilan atalgan.

Manu qonunlari tuzilishiga ko'ra 12 ta bob, 2685 ta modddan iborat. Undagi me'yorlar 2 misrali she'riy shaklda yozilgan. U mazmuniga ko'ra diniy, axloqiy va huquqiy me'yorlar yig'indisidan iborat. Huquqiy me'yorlar ko'proq IV, VII, VIII va X boblarda belgilangan.

Huquq manbalari ichida odat huquqi ham muhim o'rin tutgan. Hatto dxarmashastralarda urf-odatlariga ko'plab havolalar uchraydi.

Bundan tashqari, hind huquqi rivojlanishining turli bosqichlarida podsholarning ediktlari – amr-buyruqlari ham huquqning muhim manbaini tashkil etgan. Ularning sudlar uchun qonuniy-majburiy kuchi artxashastralarda mustahkamlangan.

Qadimgi Hindiston huquq tizimi va institutlarini o'rganish borasida Manu qonunlariga murojaat etish lozim bo'ladi.

Mazkur huquqda mulk, mulkka egalik qilish shakllari, mulkiy huquqning tugash hollari belgilab qo'yilgan. Mulkning asosiy turi yer bo'lib, harakatdagi mulklar ham himoya qilingan. Mulkka egalik qilishda ayollar, bolalar hamda qullarning huquqi cheklab qo'yilgan.

Fuqarolik huquqining majburiyatlarga oid munosabatlari Manu qonunlarida ancha batafsil ishlab chiqilgan. Qonunlarda asosan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar haqida gapiriladi.

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Bu qonunlarning paydo bo'lish vaqti hali to'liq aniqlanmagan. Ko'pgina olimlar ularni miloddan avvalgi II asr va milodning II asri oralig'ida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Huquqshunos olim H. Muhamedov ushbu fikr haqiqatga yaqinligi ta'kidlaydi.



Shartnomalarning qarz, oldi-sotdi, saqlab turish, ijara va boshqa turlari mavjud bo'lgan. Shartnomalar uchun umumiy tamoyillar o'rnatilgan. Shuningdek, shartnomalar yozma shaklda tuzilib, unda tuzilgan vaqti va joyi, tomonlarning turar joyi, urug' va kastaga mansubligi aniq ko'rsatilishi lozim bo'lgan. Aks holda ular haqiqiy hisoblanmagan. Ularning bajarilishi tomonlar va davlat tomonidan tartibga solingan. Qonunlarda shartnomalarning amal qilish muddatlari va bajarilish vositalari ko'rsatilgan. Oldi-sotdi shartnomalarini tuzishda guvohlar talab qilingan. Ayollarning, oilaning moddiy qaram a'zolarining huquqiy layoqati cheklab qo'yilgan.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha zarar to'la qoplangan va ustiga podsho foydasiga teng miqdorda jarima to'langan.

*Nikoh-oila munosabatlari.* Manu qonunlaridagi me'yorlar oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga ham qaratilgan. Ota xotini va farzandlari ustidan to'la hukmron bo'lgan. Nikoh mulkiy bitim hisoblangan. Uning natijasida xotin sotib olingan va urning mulkiga aylangan. Erkaklar 24 yoshdan ayollar 8 yoshdan nikohga kirishi mumkinligi belgilangan. Ayollar mustaqil bo'lishga layoqatli emas, deb qaralgan. Ayollar o'z erlarini yomon bo'lsa ham xudo deb hisoblashi qattiq talab qilingan. Er bir nechta xotin olishi va ajrashishi mumkin bo'lgan. Ayollarga esa bu taqiqlangan.

Meros barcha o'g'illar o'rtasida teng taqsimlangan. Qizlar merosdan chetlashtirilgan, aka-ukalar o'z ulushlaridan  $\frac{1}{4}$  qismini ularga sep-sidirg'a sifatida ajratishi lozim bo'lgan. Vasiyat bo'yicha me'yorlar belgilanmagan.

Qadimgi hind jinoyat huquqida ibtidoiy jamoa tuzumiga xos ordaliya, jamoaviy javobgarlik saqlangan. Talion prinsipi qo'llanilmagan. Jinoyatlar subyektiv tomoni, ijtimoiy xavfliligi va takroriy sodir etilishiga qarab turlarga ajratilgan. Jinoyatlar orasida davlatga, shaxsga, mulkka va oilaga qarshi jinoyatlarga alohida e'tibor berilib, ularga og'ir jazo tayinlangan.

Huquq, din va axloqning chambarchas bog'liqligi natijasida jinoyat va gunoh o'rtasida aniq farq bo'lmagan. Jazo tayinlashda ishtirokchilik va varnaga mansublik inobatga olingan. Zaruriy mudofaa holatida jinoyat sodir etilsa, oqibatidan qat'i nazar javobgarlik belgilanmagan. Yuqori varnaga mansub kishi aybdor bo'lsa, odatda, jarima jazosi tayinlangan.

Davlatga qarshi jinoyatlarga – o'z mamlakatini yoki qishlog'ini qattiq ovoz chiqarib so'kkanlik uchun eng yuqori jarima belgilangan.

Manu qonunlari shaxsga qarshi har qanday zo'rlikni qoralagan. Quyi varnadagi shaxs yuqori varna vakilining sog'lig'iga ziyon yetkazsa, shu a'zosi kastratsiya qilingan. O'lim kelib chiqsa, u ham qatl etilgan.

Manu qonunlarida mulkiy jinoyatlarga katta o'rin ajratilgan. Unda o'g'rilikka alohida e'tibor berilgan. Mulkni yashirinchalik egallash, oshkora (talonchilik) va zo'rlik yo'li bilan egallash (bosqinchilik)dan aniq ajratilgan. O'g'rilikni ko'rib bu haqda xabar bermagan shaxs ham javobgarlikka tortilgan.

Qonunlarga binoan jazolarning xilma-xil turlari qo'llanilgan. Ularga oddiy va murakkab turdagi o'lim jazosi, barmoqlarni, oyoqlarni, jinsiy va tanadagi boshqa a'zolari kesish kabi tan jazosi turlari qo'llanilgan. Ulardan tashqari jarima, haydab yuborish, qamoq kabi jazolar belgilangan. Mamlakatdan, kastadan, oiladan haydab yuborish kabi jazolar hamda sharmanda qiluvchi jazolardan – tamg'a bosish, sochini olib tashlash singari jazolar ham amal qilgan.

Huquq manbalarida sud ishlarini yuritish haqida batafsil bayon etilgan. Fuqarolik va jinoyat ishlari bir xil tartibda yuritilgan. Sud ma'muriyatdan ajratilmagan. Sud ishlari tomonlarning arizasi asosida qo'zg'atilgan. Manu qonunlarida da'volarning 18 ta turi ko'rsatilgan. Tergov sud majlisidagina amalga oshirilgan. Protsessual huquqda alohida hollarda, tomonlarning roziligi bilan muhim dalillar bo'lmaganda va guvohlar bo'lmasa, ordaliyadan foydalanilgan. Uning 5 ta sinash usuli tarozi, olov, suv, zahar va qasam ichish bilan amalga oshirilgan.

Sudda ashyoviy dalillarga ham e'tibor berilgan. Adolatli podsho o'g'rilangan narsani topmay turib o'g'rini qatl etmasligi Manu qonunlarining IX bobi 270-moddasida ta'kidlangan.

***Qadimgi Xitoyning davlat tuzumi.*** Xitoy Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng qadimgi davlatlardan biridir. Arxeologik qazilmalarning tasdiqlashicha, Xitoyning ko'p joylarida neolit davriga mansub manzilgohlar bo'lganligi aniqlangan. Eng qadimgi Xitoyda ko'p sonli qabilalar yashagan. Qabila oqsoqolining hokimiyati otadan o'g'ilga emas, otadan ukaga o'tgan.

Eng qadimgi Xitoy qabilalaridan miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Xeanxe (Sariq daryo) qirg'oqlariga shimoldan ko'chib kelgan Shan qabilasi ayniqsa kuchayib ketgan. Bu qabila boshqa qabilalarni bo'ysundirib, Xuanxe daryosi havzasining ko'p qismini egallab olgan. Shunday qilib, Xitoyga janubi-sharqdan, ayniqsa shimoldan xilma-xil urug'lar va qabilalar kirib joylashgan.

Aholi daryo bo'yidagi kichik-kichik qishloqlarda yashagan. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi aholi orasida mulkiy tengsizlik va tabaqalanishga olib kelgan. Bu hol Sharqiy Xitoyda dastlabki davlatlarning vujudga kelishi uchun imkoniyat yaratgan.

Qadimgi Xitoy davlati tarixi quyidagi to'rt davrga bo'lib o'rganiladi:

– Qadimgi Xitoy davlatining tashkil topishi – Shan (In) davlati (mil. avv. XVIII–XII asrlar);

– Chjou davlati (mil. avv. XI–III asrlar);

– Sin podsholigi (mil. avv. 221–207-y.);

– Xan podsholigi (mil. avv. 206-yildan milodning 220-yiligacha).

So'nggi davr Qadimgi Xitoyning quldorlik davlatining feodal davlatga o'sib o'tishi bilan xarakterlanadi.

Qadimgi Xitoyda shahar tipidagi sivilizatsiyaning dastlabki o'choqlari miloddan avvalgi II ming yillikda Xuanxe daryosi havzasida tashkil topa boshlagan. Bu vaqtga kelib In qabilalarida urug' aristokratiyasining boshqaruvchi tabaqasi ajralib chiqqan.

Xitoy manbalarida aytilishicha, Qadimgi Xitoyda davlat miloddan avvalgi XVIII asrda Sya qabilasining Shan qabilasi tomonidan bosib olinishi natijasida tashkil topgan. O'sha vaqtda shan qabilasi boshlig'i Chen Tan ismli shaxs davlatga asos soladi. Shu bois u hukmdor qabilaning nomi bilan Shan davlati deb atalgan. Shan sulolasi qulaganidan so'ng In degan nom yuritilgan. Chen Tan Xitoyning birinchi podshosi (podsho – van) bo'lgan.

Dastlabki davlatning tashkil topishi avvalo ishlab chiqarish, yer va suvni boshqarish va ulardan foydalanish, hududlarni himoya qilish zaruratidan kelib chiqqan. Qolaversa, ibtidoiy tuzum organlari katta hududni boshqarish uchun yaramay qolgan. Shu maqsadda maxsus davlat apparati tashkil etilgan. Bu butun ilohiylashtirilgan van, butun jamoaga qarama-qarshi turuvchi boshqa kishilardan iborat ma'muriy apparatning tashkil etilishida namoyon bo'lgan.

Shunday qilib, davlat ichki taraqqiyot mahsuli sifatida xo'jalik va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi oqibatida mulkiy tengsizlik va tabaqalanishning paydo bo'lishi va urug'doshlik tuzumining yemirilishi natijasida tashkil topgan.

Xitoyda davlatning tashkil topish xususiyati shundaki, ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish jarayoni bir xalqning boshqasi tomonidan bo'ysundirilishi ta'sirida tezlashgan.

Shan (In) davlati miloddan avvalgi XII asrda ichki ziddiyatlar sababli inqirozga uchraydi. Uning tarkibidagi Chjou qabilasi boshchiligida Shan davlati o'rnida Chjou davlati tashkil topgan.

Chjou podsholigi Xitoy tarixida quyidagi 3 davrga bo'linadi:

- G'arbiy Chjou (mil. avv. 1122–742-y.);
- Sharqiy Chjou (mil. avv. 770–403-y.);
- urushqoq podsholiklar davri (mil. avv. 403–221-y.).

Miloddan avvalgi IX asrda ichki va tashqi omillar sababli g'arbiy Chjou davlati yemiriladi. Mamlakat bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketadi. Miloddan avvalgi 770-yilda podsholik poytaxti Xoadan Loyanga ko'chiriladi. Shundan keyin Sharqiy Chjou podsholigi davri boshlangan.

Sharqiy Chjou podsholigi davri iqtisodiy va siyosiy hayotdagi yirik o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Miloddan avvalgi VII–IV asrlardagi urushqoq podsholiklar yoki besh hokim davrida Si, Szin, U, Chu va Yuz kabi mayda podsholiklar o'rtasida o'zaro urushlar davom etgan. So'ngra konfutsiylik dini targ'ibotchilari va xalqning birlashish zarurati tufayli 7 ta yirik Xitoy podshohliklari atrofida turli mintaq va xalqlarning yaqinlashuvi yuz beradi.

Miloddan avvalgi IV asrda kuchayib ketgan Sin podsholigi miloddan avvalgi 221-yilda mamlakatni birlashtirib, yagona Sin podsholigiga asos soladi. Bu davrda mukammal qonunchilik tizimi joriy etiladi. Davlatni markazlashtirishga qaratilgan islohotlar o'tkaziladi. Podsho In Chjen davrida (mil. avv. 241–210-y.) sharqiy, shimoliy va janubiy hududlar hisobiga yirik imperiyaga asos solinadi.

Miloddan avvalgi 209-yilda ijtimoiy ahvolning yomonlashishi sababli butun mamlakatda xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Unga Lyu Ban ismli qishloq oqsoqoli boshchilik qiladi. Sin davlati halokatga uchraydi. Miloddan avvalgi 202-yilga kelib Lyu Ban tarafdorlari g'olib chiqib, u o'zini yangi Xan sulolasining podshosi deb e'lon qiladi. Shu tariqa Sin podsholigi tugatilib, o'rnida Xan podsholigi paydo bo'lgan.

Xan podsholigi davrida podsholar Chun va Man tomonidan mehnatkashlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan ma'muriy, yer, soliq va pul islohotlari amalga oshiriladi.

Milodiy II asrning ikkinchi yarmiga kelib Xitoyda siyosiy va ijtimoiy hayotda og'ir vaziyat vujudga keladi. 220-yilda Xan podsholigi Vey, Shu va U kabi davlatlarga bo'linib ketadi. Bu Xitoy tarixida *Uch podsholik davri* deb ataladi. Shu bilan qadimgi Xitoy tarixi o'z nihoyasiga yetgan.

Shan (In) podsholigining ijtimoiy tuzumi dunyoviy aristokratlar, kohinlar, bo'ysundirilgan qabilalarning aristokratlari, erkin jamoachi dehqon (nunfu)lar va qullardan iborat bo'lgan. Barcha yerlar jamoa va xususiy yerlarga bo'lingan. Jamoa davlatda juda katta rol o'ynagan. Qullarning manbai urush, qarz, o'lpon va jinoiy javobgarlik hisoblanadi. Ulardan xo'jalikning turli sohalarida foydalanilgan. Keyingi davrlarda savdogarlar, harbiylar, quldor hamda xizmatchi zodagonlarning mavqei osha boshlaydi. So'nggi davrda ijtimoiy tuzumda jiddiy o'zgarish kuzatilmaydi.

Davlat tuzumida dastlabki davrlarda urug'-qabila harbiy demokratiyasi saqlangan. Lekin, vaqt o'tgan sari butun hokimiyat podsho qo'lida to'plangan. Ularning hokimiyati ilohiylashtirilgan. Podsho birinchi va eng yirik quldor, oliy harbiy boshliq, eng oliy sudya va eng katta ruhoniylar hisoblangan. Davlat apparatiga u boshchilik qilgan. Barcha mansabdor shaxslar oliy dunyoviy, harbiy va diniy amaldorlarga bo'lingan. Yuqori davlat lavozimlariga uning yaqinlari va qarindoshlaridan tayinlangan. Quyi mansablar esa kasb bo'yicha amaldorlarga berilgan.

*Chjou podsholigi davriga* kelib oliy hokimiyat meros tariqasida naslnaslga o'tgan. Rivoyatlarga qaraganda, miloddan avvalgi 115–1079 yillarda podsho Chen davlat idoralari tizimida islohotlar o'tkazadi. Saroy boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan. Saroyda mirza, podsholik arxivi boshlig'i, mamlakatda marosimlar o'tkazilishini kuzatib boruvchi va boshqa amaldor (dufu)lar faoliyat ko'rsatgan. Davlat apparatiga oliy amaldor (syau) boshchilik qila boshlagan. Podshoning asosiy maslahatchi (gun)lari 3 ta bo'lib, ular «buyuk murabbiy», «buyuk ustoz», «buyuk homiy» bo'lgan. Syau aynan shular orasidan saylangan. Oliy kohin va buyuk folbin mansablari mavjud bo'lgan.

Sin podsholigi davrida podsho Sao-gun (mil. avv. 361–338-y.) vaqtida davlatning nufuzli amaldori Shan Yan tomonidan bir qancha siyosiy-ma'muriy, yer, agrar, moliya va harbiy islohotlar o'tkazilgan.

Davlat boshlig'i imperator (xuandi) bo'lgan. Qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyati uning qo'lida to'plangan. Davlat apparatida o'n minglab amaldorlar xizmat qilgan. Boshqaruv tepasida o'ng va so'l vazir (chensyan)lar turgan. Ularning o'rinbosarlari kotiblar hisoblangan. Oliy mansabdor shaxslardan saroy qo'riqlash xizmatining boshlig'i, imperator avlodlarining marosimlarini o'tkazishni yurituvchi va tashqi munosabatlarni yurituvchi chinovniklar faoliyat ko'rsatgan. Davlat apparati faoliyatida imperator maslahatchilari katta rol o'ynagan.



Xan podsholigi davrida mamlakatni boshqarish 5 ta mahkama o'rtasida taqsimlangan. Imperator huzurida oliy maslahatchi organ – imperatorlik kengashi tuzilgan.

Butun yerlar davlat mulki sifatida ko'rilgan va podshoning ixtiyorida bo'lgan. Markazlashgan davlat tashkil etilmagan. Van faqat poytaxt viloyatini bevosita boshqargan. Mamlakatning boshqa hududlarini vorislik huquqiga ega knazlar – chjuxoular idora etgan.

Chjou davlati davrida asosiy ma'muriy birliklar nisbatan mustaqil knazliklar hisoblanadi. Knazlik hududida quyidagicha bo'lingan. Syan tepasida Sin turgan. Syan 5 ta chjouga, chjou 5 ta danga, dan 5 ta szu (urug' jamoasi)ga, szu 4 ta li (qishloq)ga, li 5 ta lin (jamoaga), lin 5 ta oilaga bo'lingan.

Sin podsholigi vaqtiga kelib imperiya hududi 36 ta viloyatga bo'lingan. Viloyatlar o'z navbatida uyezdlarga, uyezdlar – volostlarga, volostlar esa – tin (eng quyi ma'muriy birlik)larga bo'lingan. Har viloyat tepasida 2 tadan boshqaruvchi: harbiy va fuqarolik hokimiyati vakillari turgan.

Xan podsholigi davrida mamlakat hududi 13 ta yirik okrugga bo'lingan. Okruglarga mahalliy ma'muriyat ustidan nazoratni amalga oshiruvchi okrug taftishchisi – podshoning noiblari boshchilik qilgan. Viloyatlar va uyezdlar markazdan tayinlangan 3 ta amaldor – hukmdor va uning fuqarolik va harbiy ishlar bo'yicha yordamchilari tomonidan boshqarilgan. Umuman mahalliy ma'muriyat faoliyati markazdagi nazoratchilar tomonidan nazorat qilingan. Keyingi davrlarda mahalliy boshqaruv tizimida jiddiy o'zgarish kuzatilmagan.

Qo'shin asosan urush vaqtlarida yig'iladigan xalq lashkarlaridan va uncha katta bo'lmagan doimiy xizmatdagi otadlardan iborat bo'lgan. Qo'shinning asosini jangovar arava, otliq qo'shin va piyodalar tashkil etgan. Jangovar aravada kamonboz va nayzabardorlarni haydovchi olib yurgan. Keyingi davrlarda qullar ham armiyaga jalb etilgan.

*Qadimgi Xitoyda huquqning asosiy belgilari.* Qadimgi Xitoyda yozma qonunlarning paydo bo'lishi odat huquqlarining tugatilishiga olib kelmagan. Davlat rivojlanishining barcha bosqichlarida odat huquqi muhim o'rin tutib ijtimoiy munosabatlarning ko'p qismini, jumladan yer munosabatlarini tartibga solgan.

Qadimgi Xitoy huquqiy tizimi konfutsiylik va legizm falsafiy ta'limotlari ta'sirida shakllanadi. Unda konfutsiylikning axloqiy-siyosiy, diniy aqidalari va legizmning siyosiy-huquqiy konsepsiyasi hal qiluvchi omil bo'lgan.

Qadimgi Xitoy huquqi dastlabki davrda odob-axloq me'yorlar (li) va diniy qoidalaridan ajratilmagan. Miloddan avvalgi IV asrda Konfutsiylik ta'limoti yuksak odob-axloqni yoqlab, qonunchilik shakliga adolat tartibi kabi mezonlarni ilgari surgan.

Miloddan avvalgi V asr III asr boshlarida legistlar ta'limoti asosida muntazam jazo kompleksiga ega bo'lgan davlatning yozma qonunchiligi shakllanadi.

Miloddan avvalgi III asr va milodning III asrida ortodoksial konfutsiylik ta'limoti maydonga chiqadi. U konfutsiylik va legizmning qo'shilishi natijasida tug'iladi. Bu davrda axloq va huquq uyg'unlashtiriladi. Boshqacha aytganda, axloqni huquq qattiq qonun (fa) yo'li bilan mustahkamlaydi. Natijada odob-axloq me'yorlari majburiy va rasmiy xarakterga ega bo'ladi. Yozma huquq konfutsiylikning muqaddas asarlaridan ko'chirilgan.

Qadimgi Xitoyning huquq manbalari sifatida ilk yozma qonunlar miloddan avvalgi. II ming yillikdayoq paydo bo'lgan. Podsholar chiqargan qonun va farmoyishlarning ko'payib borishi va ularda ziddiyatlarning kelib chiqishi huquqni kodifikatsiya qilish zaruratini keltirib chiqargan.

Miloddan avvalgi X asrda Chjou davlatida van – Mu tomonidan 3000 ta moddaga ega Jinoyat kodeksi – jazolar haqidagi qonunnoma ishlab chiqilgan. Unda avvalo, odat huquqi mustahkamlangan. Og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar va jinoyatlar turlari ko'rsatilgan.

Yozma qonunlarning ancha keng tarqalishi miloddan avvalgi VI–V asrlarga to'g'ri keladi. Qonunchilik faoliyati, ayniqsa miloddan avvalgi V–III asrlarda juda tez rivojlangan. Asosiy maqsad siyosiy barqarorlikka erishish hisoblangan.

Ilk muhim yozma qonunlar qatoriga miloddan avvalgi 536-yilgi «Qonunlar sharhi» nomli hamda miloddan avvalgi V–IV asrlardagi «Vey podsholigi qonunlari kitobi» nomli qonunlar to'plamini kiritish mumkin. Ularning har ikkalasi jinoyatlar tarkibini izohlagan va ularga jazo belgilashga mo'ljallangan.

Miloddan avvalgi III–II asrlarda qadimgi qonunlarni bayon qilish, yozish, sharhlash va qayta tiklash bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilgan. Bu vaqtga kelib «Vey podsholigi qonunlari kitobi» harbiy, moliyaviy va davlat ot-ulovi to'g'risidagi me'yorlarga bag'ishlangan boblar bilan to'ldirilgan.

Xitoy an'anaviy huquqida xususiy huquq mustaqil ravishda rivojlanmagan. Miloddan avvalgi IV–III asrlarga kelib yer huquqi

shakllana boshlagan. Mulk huquqining predmeti asosan yer va qullar bo'lgan.

Majburiyatlarning shartnomalardan kelib chiqadigan turlari keng tarqalgan. Shartnomalarning ayirboshlash, oldi-sotdi, hadya, qarz, ijara, shaxsiy ijara shartnomalari amal qilgan. Ularning shartlari asosan odat huquqi bilan tartibga solingan.

Nikoh-oila munosabatlarida katta oilalar mustahkamligi bilan ajralib turgan. Oila tepasida oiladagi yoshi eng ulug' erkak turgan. Unga oilaning barcha a'zolari bo'ysungan. Nikoh-oila munosabatlari konfutsiylik ta'limoti asosiga qurilgan. Nikoh tuzish uchun qator shartlar belgilangan bo'lib, xususi bitim sifatida rasmiylashtirilgan. Uning buzilishi moddiy va jinoiy javobgarliklarni keltirib chiqargan. Nikoh yoshi erkaklar uchun 16–30, ayollar uchun 14–20 yosh qilib belgilangan. Xotin tug'masa ikkinchi darajali xotin olish mumkin bo'lgan. Jinoyat sodir etgan shaxslar bilan nikohga kirish taqiqlangan. Yuqori tabaqa vakili past tabaqadagi kishi bilan, erkin kishi qul bilan nikoh qursa jinoiy javobgarlikka tortilgan. Arzimagan sabablar (er-xotinlik burchini buzish) ham nikoh buzilishiga olib kelgan. To XIX asrgacha ota-ona, buva-buvi tomonidan o'g'il, nabira kelin urib o'ldirilsa, javobgarlik kelib chiqmagan. Motom tutmaslik oilaviy jinoyat hisoblangan.

Meros huquqida avvalo farzandlar, nabiralar, ular bo'lmasa boshqa qarindoshlar qonuniy merosxo'rlar sifatida chiqqanlar. Oilada katta o'g'il meros olishda katta imtiyozga ega bo'lgan. Ota o'lganidan so'ng oila mulki unga o'tgan va u oila boshlig'iga aylanib, boshqa oila a'zolari ustidan hukmronlik qila boshlagan.

Jinoyat huquqining rivojlanishi Qadimgi Xitoyda huquqning rivojlanishini belgilab kelgan. Huquqbuzar shaxsga «pastkash inson» sifatida qaralib, dunyoni buzib yuboradi deb, hisoblangan. Ibtidoiy jamoa tuzumiga xos talion tamoyili (bao) uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan.

Jazo choralarini belgilashda jinoiy harakatning og'irligiga emas, balki jinoiy irodaga, ya'ni jinoyatchining ma'naviy holati hisobga olingan. Ko'pincha suiqasdga tugallangan jinoyat deb qaralgan. Yangi era boshlarida jazoning individualligi prinsipi ilgari surilgan. Jinoyatni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar inobatga olingan.

Ma'lumotlarga qaraganda miloddan avvalgi I ming yillikda Mu kodeksida 3000 ta jinoyat turi mavjud bo'lgan. Bular orasida davlatga, dinga, shaxsga, mulkka va harbiy tuzumga qarshi jinoyatlarni alohida og'ir jinoyat tarzida ko'rsatish mumkin. Jinoyat haqida xabar bermaslik ham jinoyat hisoblangan. Ichkilikbozlik uchun o'lim jazosi qo'llanilgan.

Jinoyat qonunlari jazolarning juda qattiqligi bilan xarakterlanadi. Undan asosiy maqsad qo'rqitish bo'lgan. Jazolar turlarining xilma-xil ko'rinishlari bo'lgan. Ular bir-biridan juda kam farq qilgan. Jazo turini almashtirish va qo'shimcha jazo tayinlash amal qilgan. Jazo yoshdan qat'i nazar bir xil qo'llanilgan hollar uchragan.

Jazolarning aynan tayoq bilan urish, quloq yoki burnini (isin) kesish, olovda kuydirish, mayda bo'laklarga bo'lish, belidan ikkiga bo'lish, oyoq (feysin) yoki qo'llarni uzish, boshini kesish (danisin), tiriklayin ko'mish, ko'zini o'yish, yuzga tamg'a bosish (mosin), chujin – (kastratsiya) va ayollarni qulga aylantirish, badarg'a qilish, mansabdan bo'shatish va jarima kabi turlari amal qilgan. Davlatga qarshi va siyosiy jinoyatlar uchun aybdor bilan uning kelgusi uch avlod qarindosh urug'lari ham javobgar hisoblangan (qulga aylantirilgan va qatl etilgan).

Sud va sud jarayoni xususida aytish mumkinki, sud hokimiyati ma'muriy hokimiyatdan ajratilmagan. Oliy sud hokimiyati imperatorga tegishli bo'lgan. Sud funksiyalari adliya boshlig'i, harbiy boshliqlar, viloyat boshqaruvchilari – prefektlar tomonidan amalga oshirilgan.

Adliya boshlig'i sud va uning qarorlarining adolatliligini nazorat etgan. Prefektlar o'z hududida shubha tug'diradigan hollardan tashqari barcha ishlar yuzasidan mustaqil jazo tayinlagan. Huquq-tartibotni saqlash joylarda maxsus kuchga ega politsiyachilar tomonidan amalga oshirilgan. Davlat sudi bilan bir qatorda, oilada oila boshlig'ining sud hokimiyati ham mavjud bo'lgan. Qadimgi vaqtlardanoq tergov ishlari linshilar tomonidan olib borilgan. Dastlabki qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilgan. Tergov natijalari haqida xulosa, ayblov dalolatnomasi tuzilgan. Hukm 3 oy ichida qayta ko'rilishi mumkin bo'lgan. Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili harakatda bo'lgan. Sudda ish yuzasidan analogiya (qiyoslash) bo'yicha qarorlar chiqarish keng qo'llanilgan.

Muayyan davr davlati va huquqini o'rganishda, avvalo, uning ijtimoiy tuzumiga e'tibor qaratiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, ijtimoiy tuzumning har bir toifasi alohida huquqiy himoyadan foydalangan va jamiyatda alohida o'rin egallagan.

Davlat markazlashgan sari kuchayishda davom etgan. Shu bilan birga, amaldorlarga yerlarning mukofot tarzida berilishi, soliq va majburiyatlardan ozod qilinishi kabi imtiyozlar davlat inqirozini keltirib chiqargan.

### 3-§. Qadimgi Yunon va Rim siyosiy tuzumining shakllanishi

Ma'lumki, insoniyat sivilizatsiyasi tarixi va unga xos davlat va huquq tarixi Qadimgi Sharqdan boshlanadi. Undan kelib chiqqan sivilizatsiyaning yangi va yuqori darajasi O'rta yer dengizida Yevropaning janubida tashkil topgan antik jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq.

Tarix fanida «Antik dunyo»<sup>1</sup> iborasi, odatda, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim, shuningdek, ellinistik davlatlar tarixiga nisbatan ishlatiladi.

Qadimgi Yunoniston – Bolqon yarim oroli, Egey va O'rta yer dengizlaridagi bir qancha orollarni o'z ichiga olgan mamlakat. U tabiiy jihatdan 3 qismga: Shimoliy Yunoniston, O'rta Yunoniston va Janubiy Yunoniston (Peloponnes)ga bo'linadi. Maydonining 2/3 qismi tog'liklardan iborat. Yunoniston tarixi Qadimgi Sharq mamlakatlari tarixi bilan bir vaqtda va u bilan o'zaro aloqador holda rivojlangan.

Qadimgi Yunoniston tarixi quyidagi besh davrga bo'lib o'rganiladi:

- *egey yoki krit-miken davri* (mil. avv. III–II minginchi-y.). Ilk davlatlarning paydo bo'lishi davri;

- *Gomer davri* (miloddan avvalgi XI–IX asrlar). Doriylar mustamlakasi davrida ibtidoiy munosabatlarga qaytish va undan keyin umumyunon rivojlanish davri;

- *arxaik davr* (miloddan avvalgi VIII–VI asrlar). Polis shaklidagi sinfiy jamiyat va davlatning tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetgan;

- *klassik davr* (miloddan avvalgi V–IV asrlar). Antik polislarda quldorlik munosabatlarining eng yuqori darajada rivoj topishi;

- *ellinizm davri* (miloddan avvalgi IV asrning II yarmi va I asrning o'rtalari). Eron davlatining yunon-makedoniya istilosiga uchraganidan so'ng Yaqin Sharq yerlarida quldorlik jamiyatining yanada rivojlanishi davri. U g'arb tomonidan Rim, sharqiy qismi Parfiya tomonidan bosib olinishi bilan tamomlanadi.

So'nggi arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi III ming yillikdayoq Bolqon yarim orolining janubida va uning atrofidagi orollarda ibtidoiy jamoa munosabatlari buzila boshlagan.

Antik sivilizatsiya o'zining eng yuksak cho'qqisiga miloddan avvalgi I ming yillikda va yangi era boshlarida erishgan. Ayni shu vaqtda yunonlar va rimliklar insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, jumladan

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Antik so'zi lotincha «antiguitas» – qadimgi, eski so'zidan olingan.



siyosiy-huquqiy sohalarda ham katta yutuqlarga erishganlar. Shu munosabat bilan antik davlatchilik alohida o‘rin tutadi.

Yunon-rim dunyosida dastlabki shahar-davlatlar O‘rta yer dengizi bo‘g‘ozida miloddan avvalgi III–II ming yilliklardayoq sharq dunyosining muhim ta’siri ostida tashkil topgan<sup>1</sup>.

Qadimgi Yunonistonda davlatning tashkil topishi jarayoni qabilalarning ko‘chib o‘tishi va aralashuvi munosabati bilan to‘lqinsimon, uzilib-uzilib sodir bo‘lgan. Bunda ichki va tashqi omillar qo‘shilib birdek ta’sir ko‘rsatgan. Antik dunyo davlatchiligi tashkil topishi jarayonining xususiyatlarini ko‘p jihatdan tabiiy-geografik omillar belgilab bergan. Masalan, birgalikdagi sug‘orish ishlari va jamoa yer egaligi kam bo‘lgan. Hunarmandchilik esa mehnat unumdorligini oshiruvchi sifatida keng tarqalgan. Dengiz savdosi ayniqsa keng taraqqiy etgan. Tabiiy sharoitlar boshqa jihatdan ham Yunonistonda davlat hokimiyatini tashkil etishga ta’sir ko‘rsatgan. Yunonlarning ko‘pchilik qismi yashagan dengiz qirg‘oqlarini kesib o‘tgan tog‘ tizmalari va ko‘rfazlari mamlakatning siyosiy birlashtirilishiga to‘siq bo‘lgan. Shunday qilib, tabiiy to‘siqlarning o‘zi bu yerda ko‘p sonli, uncha katta bo‘lmagan va bir-biridan ancha ajralib qolgan shahar-davlatlar – polislarning tashkil topishiga sharoit yaratgan.

Polis tizimi nafaqat Yunonistonga, balki butun antik dunyoga xos bo‘lgan davlatchilikning muhim va xarakterli belgisi hisoblanadi. Polislarning ichki ehtiyoji ularning dengiz savdosi orqali o‘zaro aloqaga kirishiga va polislarning tizimining vujudga kelishiga, O‘rta yer dengizi siyosiy madaniyati, sivilizatsiyasini tashkil etishlariga olib kelgan.

Qadimgi yunonlarda shahar-davlatlarning ichki tuzilishi xilma-xil bo‘lgan. Ularning boshqaruv shakli turlicha bo‘lgan. Jamiyatda klassik quldorlik va antik demokratiya gullab-yashnagan. Polislarda dastlab yagona podsho – tiran (basiley, reks va h.k.)lar tomonidan idora etilgan. So‘ngra podsho va aristokratiya hukmron bo‘lgan. Tiraniya davrida ham tiran o‘z hokimiyatini saqlash maqsadida polis aholisiga tayangan. Keyinchalik monarxiyalar tugatilib, respublika tuzumi va polislarning mustahkam tizimi yaratilgan.

Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlari va II ming yillikdan to doriy qabilalari bosqiniga qadar Miken, Pilos, Tirinf, Krit nomli yirik davlatlar faoliyat ko‘rsatgan.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳукуқи тарихи.* 1-қисм. – Т., 1999. – Б. 186.

Miloddan avvalgi XIII–XII asrlarda doriy qabilalari Bolqon yarim orolining shimolidagi yerlardan janub tomon siljib, Oʻrta va Janubiy Yunonistonga bostirib kiradilar. Natijada mavjud davlatlar tor-mor etiladi. Bu yerdagi aholi qaytadan ibtidoiy munosabatlar girdobiga tushadi.

Gomer davrida shahar-davlat – viloyatlar boshqaruvi qabilaviy boshqaruv shaklida harbiy demokratiya sharoitida faoliyat koʻrsatadi. Qabila (filo) boshliqlari – basiley (filobasiley)lar boʻlgan. Hokimiyat doimiy organ oqsoqollar kengashi – bule ixtiyorida boʻlgan. Ijtimoiy hayotda xalq yigʻinlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Doriylar istilosi natijasida yuz bergan uzilishdan soʻng Yunonistonda yangidan kichik-kichik quldorlik davlatlari tashkil topa boshlagan. Boʻlinib ketgan mayda viloyatlardan birinchi shahar-davlat – polislar tashkil topgan. Miloddan avvalgi XI–VIII asrlarda yunonlar dunyosida Afina, Sparta, Korinf, Megara, Agros, Fiva, Siklon va boshqa juda koʻp kichik-kichik shahar-davlatlar bor edi.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda bir necha yuz qadimgi yunon polislari ichida harbiy jihatdan ancha yirik va kuchli Afina va Sparta shahar-davlatlari birinchi oʻringa chiqqan. Aynan ular Yunoniston tarixida muhim rol oʻynagan.

Afinada xususiy mulkchilik, quldorlik, savdo-sotiq ancha rivojlanib, antik demokratiyaning eng yuqori choʻqqisiga chiqqan.

Sparta esa unga qarama-qarshi oʻlaroq, aristokratik harbiy-lager davlat boʻlgan. Boshqacha aytganda, Afina – quldorlik demokratiyasining, Sparta esa – quldorlik aristokratiyasining namunasi boʻlgan. Ular oʻrtasida Yunonistonda hukmronlikni qoʻlga olish uchun kurash boshlanib, butun yunon dunyosi polis tizimining zaiflashishiga olib kelgan.

Afina davlati tarixi miloddan avvalgi VII–VI asrlarda tashkil topishidan boshlanadi. U miloddan avvalgi V–IV asrlar oʻta rivojlanadi. Afinaning halokatga uchrashining sababi faqat qulchilik tuzumi boʻlmay, balki davlatning ichki polis tizimi zaifligida boʻlgan. Miloddan avvalgi V asrning oxirlariga kelib Afinada mulkiy tengsizlik kuchayadi. Miloddan avvalgi 431-yilda boshlangan Peloponnes urushi natijasida Afina ittifoqqa kirgan davlatlar va Sparta tomonidan magʻlubiyatga uchraydi. Miloddan avvalgi 336-yilda Afina va butun Yunoniston Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tarkibiga qoʻshib olingan. Keyinchalik ham butun Yunoniston uning avlodlari davlati tarkibida boʻlgan. Miloddan avvalgi II asrda rim legionlari Afinaga bostirib kirgan va natijada Afina butun Yunoniston singari Rim davlatining provinsiya (viloyat)laridan biriga aylangan.

*Sparta davlatining paydo bo'lishi.* Qadimgi Yunoniston tarixiga katta ta'sir o'tkazgan yana biri Spartadir. Sparta davlati Peloponnesning janubida joylashgan bo'lib, uning poytaxti Sparta deb ataladi. Uning tashkil topishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Spartada miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda davlatning vujudga kelishi asosida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishining umumiy qonuniyatlari yotadi. Biroq davlatning shakllanishi jarayoni bilan birga urug'doshlik tashkilotining ko'pgina qoldiqlari saqlanib qolishda davom etgan.

Ilgari axayya qabilalari tomonidan bosib olingan Peloponnes yarim orolidagi kichkinagina Lakonika viloyatiga miloddan avvalgi XII asrda doriy qabilalari bostirib kirgan. Qattiq urushlardan so'ng axayyaliklar va doriylar o'zaro ittifoq tuzib, Sparta jamoasini tashkil etganlar. O'zlarini spartaliklar deb ataganlar. Ularga axayyaliklar va doriylardan bo'lgan ikki podsho boshchilik qilgan.

Kichkina Lakonika (300 kv. km.) yangi jamoaga torlik qilishi natijasida qo'shni Messiniyani egallash uchun urush boshlangan. 100-yilga cho'zilgan bu urush natijasida Sparta g'alabaga erishgan. Bosib olingan yerlar qabilalarning umumiy mulki bo'lib, aholisi qullar – ilotlarga aylantirilgan. Quldorlar-hukmdorlar hamda qullar va to'la huquqli bo'lmagan fuqarolar tabaqasi tashkil etilgan.

Spartaliklarda bu vaqtda ikki urug'-qabila sardori (podshosi), oqsoqollar kengashi va xalq yig'ini mavjud bo'lgan. Bosib olingan aholi ularga nisbatan 20 baravar ko'p bo'lgan. Natijada yangi mustahkam siyosiy hokimiyat tashkil etish zarurati tug'ilgan. Shu tariqa aytish mumkinki, Sparta davlatining tashkil topish jarayoni o'zga xalqlar yerlarini bosib olish natijasida ancha tezlashgan.

Spartada hukmron sinfning qudratli harbiy tashkilotga aylangan yaxlit ijtimoiy tuzilishi uning yunon davlatlari ichida tez yuksalishiga ko'maklashgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib, u deyarli butun Peloponnes ustidan o'z gegemonligini o'rnatgan.

Miloddan avvalgi. V asrning oxirgi choragi va IV asr boshlariga kelib iqtisodiyotning yuksalishi, mulkiy tabaqalanishning kuchayishi natijasida siyosiy huquqsiz fuqarolar sonining oshishi va boshqa omillar hisobiga Sparta jamoasining birligiga putur yetgan. Harbiy qudrati pasaygan. Miloddan avvalgi IV asrda Yunoniston Makedoniya tomonidan bosib olinishi natijasida Messeniyaning qo'ldan ketishi Sparta davlatining iqtisodiy asosini yemirgan.

Miloddan avvalgi III asrda butun aholi ijtimoiy hayotini yaxshilash, harbiy qudratni tiklash, to'la huquqli bo'lmagan fuqarolarga huquqlar

berish yoʻli bilan eski tartiblarni qaytadan oʻrnatishga boʻlgan urinish amalga oshmaydi. Quldorlik jamiyatining rivojlanishi ijtimoiy va siyosiy tartiblarni halokatga olib kelgan. Ichki kurashlar taʼsirida kuchsizlanib qolgan Sparta boshqa yunon davlatlari kabi miloddan avvalgi II asr oʻrtasida Rim davlati hokimiyati ostiga tushib qolgan.

*Qadimgi Rim davlatining tashkil topishi va rivojlanishi.* Antik dunyodagi eng qudratli, yirik davlat – Italiyada tarkib topgan Rim respublikasi edi. U Oʻrta yer dengiz davlatlari ichida eng kuchlisi boʻlgan. Keyinchalik miloddan avvalgi I asr va milodning II asrida Rim quldorlari butun Shimoliy Afrikani, Yevropaning ancha qismini va Old Osiyo mamlakatlarini oʻz hukmronligi ostiga olgan va qariyb besh yuz yil hukm surgan gʻoyat katta davlatga aylangan.

Qadimgi Rim davlati tarixini quyidagi davrlarga boʻlib oʻrganamiz:

- Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va quldorlik davlatining tashkil topishi davri. Bu miloddan avvalgi 753-yilda Rim shahriga asos solinishidan to miloddan avvalgi 509-yilda oxirgi Rim podshosi Tarkvinii Superbning Rim aholisi tomonidan haydab yuborilishigacha boʻlgan vaqtga toʻgʻri keladi;

- Respublika davri. Miloddan avvalgi 509–27-yillar. Bu davrning oʻzi ham 2 bosqichga boʻlinadi: ilk respublika (mil. avv. V–III asrlar) va kechki respublika (mil. avv. III–I asrlar);

- Monarxiya davri. Miloddan avvalgi 27-yildan milodning 476-yiligacha. Bu davr ham 2 bosqichga: prinsipat (mil. avv. 27-yildan to milodning 284-yillarigacha) va dominat, yaʼni mutlaq yakka hokimlik (milodning 284–476-yillari)ga boʻlinadi.

Bundan keyingi davr Rim quldorlik davlatining inqirozi davri boʻlib, milodning 476-yilida Gʻarbiy Rimni franklar qabilalari bosib olganlar Rim Sharqiy Rim esa Vizantiya nomi bilan 1453-yilda usmonli turklar Konstantinopolni bosib olgunlariga qadar yashaydi.

Miloddan avvalgi I asrga kelib Rimda ham polis tizimi tugagan. Qullar qoʻzgʻoloni natijasida miloddan avvalgi I asrda yirik davlatchilikka asoslangan imperiya vujudga kelgan. Lekin, uzoq vaqtlargacha polis tizimining taʼsiri sezilib turgan. Keyingi davrlarda ham respublika polis institutlari byurokratik monarxiya tashkil etishga taʼsir koʻrsatgan. Keyingi Rim imperatorlari hokimiyatining mustahkamlanishi va xristianlikning qabul qilinishi natijasida polis tartiblari batamom tugatilgan.

*Antik dunyo davlatlarida huquqing umumiy va oʻziga xos xususiyatlari.* Antik davrda huquq birdaniga shakllanmagan. U ishlab chiqilishi

bo'yicha ilk bosqichlarda sharq mamlakatlari huquqiy tizimiga o'xshash bo'lgan. Antik yunoniston va Rimda huquqning rivojlanishi alohida polislar doirasida amalga oshirilgan. Shahar-davlatlarda demokratik institutlarning rivojlanishi huquqning diniy-mifologik jihatlardan xolos bo'lishi natijasida tug'ilgan. Yozilmagan odatlar o'rniga yozma qonunchilik kelgan. Huquq, shunday qilib, antik dunyoda polis hayotini tartibga soluvchi nufuzli va majburiy me'yorlar majmuiga aylangan.

Yunonistonda qonunlar huquq ijodkorligining asosiy shakli sifatida e'tirof etilgan. Rimda qonunlar huquqning muhim manbai sifatida o'rnatilgan va odat huquqi kodifikatsiya qilingan. Yunon an'alariga asosan huquqning qadimiy kodifikatsiyalari Zalevka tomonidan Lokrada (Italiya), Xaronda tomonidan Katon (Sitsiliya) va boshqa yunon shahar-davlatlarida o'tkazilgan. Shunga o'xshash huquqiy to'plamlardan biri – Drakont qonunlari miloddan avvalgi VII asrning oxirida Afinada tuzilgan.

Afinada xalq majlislari tomonidan yangi demokratik qonunlarning qabul qilinishi tartibi miloddan avvalgi VI asrda Solon va Klisfen islohotlari bilan joriy qilingan. Rimda esa an'anaviy huquqiy odatlar qayta ishlanib, XII jadval qonunlarida yozib qo'yilgan. Bu qonunlarda shuningdek, xalq majlislarining qarorlari qonun hisoblanadi, degan qoida nazarda tutilgan.

Yunon shahar-davlatlarida fuqarolar yoshliklaridanoq qonunlarga va polisda o'rnatilgan tartiblarga bo'ysunish va ularga hurmat ruhida tarbiyalangan. Afinada demokratik tizim o'rnatilgan bo'lsa-da, u qullar va chet elliklar uchun emas edi. Huquqqa sig'inish va qonunlarni hurmat qilish nisbatan ko'proq darajada Rim jamiyatida vudjudga kelgan. Qonunlarga so'zsiz amal qilish yuridik majburiyat emas, balki sharaflilik hisoblangan.

Yunonistonda Suqrot, Rimda esa mashhur yurist Sitsiron o'z siyosiy-huquqiy ta'limotlarini yaratganlar. Shu tariqa huquqiy davlat g'oyasining ilk shakllanishi yuz bergan.

Klassik Rim huquqi antik va butun qadimgi dunyo huquqi tarixidagi eng yuksak cho'qqidir. Antik dunyoning eng buyuk yutuqlaridan biri – Rim xususiy huquqidir. Bu shakli, mazmuni, mantiqiy asoslanganligi, qat'iy va aniq bayon qilinganligi uchun uni keyingi davrlarda retsepsiya qilinishiga (andoza qilib olinishiga) sabab bo'lgan. Rim huquqi bilan birga rim yurisprudensiyasi ham rivojlangan. Rim yurisprudensiyasi asosida yuridik kasb tug'ilgan. Unga mos ravishda esa maxsus huquqiy ta'limga asos solingan.



**Afina davlati.** Afinaning tashkil topishi miloddan avvalgi II ming yillikda 4 ta qabilaning birlashuviga (sinoyikizm) borib taqaladi. Tesey ana shu qabilalarni yagona afina xalqi qilib birlashtiradi. So'ngra umumiy markaziy boshqaruv uchun oqsoqollar kengashi tuzilgan.

Ijtimoiy tuzumda dastlabki islohotlar natijasida erkin kishilar uch toifaga bo'lingan: *yevpatridlar* – nasl-nasabi olijanob bo'lgan aristokratlar, aslzodalar; *geomorlar* – dehqonlar; *demiurglar* – hunarmandlar.

Davlat boshlig'i – basiley (bazilevs) mansabi saqlangan. miloddan avvalgi IX–VIII asrlarda yevpatridlardan saylab qo'yiladigan arxontlik mansabi joriy qilingan. Arxontlar (boshliq yoki el og'asi) 9 kishidan iborat bo'lib, dastlab umrbod muddatga, so'ngra 10 yil va keyinchalik 1 yil muddatga saylangan. Ularga basileyning asosiy funksiyalari o'tgan. Ular ichida birinchi arxont juda katta vakolatlarga ega bo'lgan.

So'ngra oqsoqollar kengashi o'rnida yangi boshqaruv organi – areopag tashkil etilgan. Uning a'zolari yevpatridlardan iborat bo'lib, tarkibiga sobiq arxontlar kirgan. Areopagning vakolatlariga arxontlarni saylash va nazorat qilish, oliy sud hokimiyatini amalga oshirish kirgan.

Miloddan avvalgi VII asrda mamlakat hududi aholining qaysi qabilaga mansubligidan qat'i nazar hududiy okruglar – navkrariylarga bo'lingan (48 ta).

Ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi natijasida demos – xalq talabi bilan miloddan avvalgi 621-yilda Drakont qonunlari e'lon qilingan. Unda og'zaki huquq yozib qo'yilgan. Xun olish cheklanib, xususiy mulkning himoya qilinishi va sud ishlarining aniqlanishi progressiv hodisa sifatida belgilangan.

Xalqning urug' zodagonlariga qarshi kurashi davomida miloddan avvalgi 594-yilda yevpatridlar vakili Salon birinchi arxont qilib saylangan va iqtisodiy-siyosiy islohotlar o'tkazgan. Siyosiy islohotlar pirovardida fuqarolar mulkiy senziga qarab to'rt turga bo'lingan. Bu toifalar qo'shinga ham alohida tatbiq etilgan.

Salon Areopagning vakolatlaridan xalq yig'inlarida muhokama qilinadigan ishlarni tayyorlash funksiyasini olib, uni zaiflashtiradi. Bu ishlarni tayyorlash uchun yangi davlat organi – *bule* (to'rt yuzlar kengashi)ni tuzgan. Unga eski 4 urug'dosh qabilalar yig'inlarida 100 kishidan saylangan. Islohotlar natijasida xalq yig'in (ekkleziya)larining roli osha boshlaydi. Yuqoridagilardan tashqari har qanday afina fuqarosi qatnashishi mumkin bo'lgan yangi oliy hakamlar sudi – gelieya ta'sis etilgan.

Umuman olganda, Salon islohotlari kompromiss (kelishuvchanlik) xarakterga ega bo'lib, keyingi taraqqiyot uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Miloddan avvalgi 560-yilda kambag'al dehqonlar (diakriylar) tepasida turgan Pisistrat davlat to'ntarishi o'tkazib tiran bo'lib qolgan. U Salon islohotlarini davom ettirib, yevpatridlarning yerlarini musodara qilgan. U shuningdek, dehqonlarga kredit bergan, sayyor sudlar lavozimini ta'sis etgan va davlat hisobiga 1/10 daromad solig'ini joriy etgan.

Afina hokimiyati tepasiga miloddan avvalgi 510–509-yillarda Klisfen kelgach, miloddan avvalgi 509-yilda bir qancha islohotlar o'tkazgan. Uning islohotlari urug'chilik tuzumini tamomila tugatgan va Afina quldorlik demokratiyasi tizimini shakllantirgan. Uning asosiy tadbirlari ma'muriy-hududiy islohot bo'lgan. 4 qabila bo'linishi bekor qilinib, hududiy belgilariga qarab ma'muriy-hududiy birlik sifatida 10 ta fila tashkil etilgan. O'z navbatida bir fila uchta trititiyga bo'lingan. Butun Attika hududi eng quyi ma'muriy birlik – yuzta demga bo'lingan. Har bir filaning tarkibiga 10 ta dem kirgan. Filalar soni o'zgarishi natijasida to'rt yuzlar kengashi har bir filadan 50 kishidan iborat holda besh yuzlar kengashiga o'zgartirilgan.

Klisfenning so'ngi tadbiri – o'nli strateglar hay'atini ta'sis etishdan iborat bo'lgan. Unga har bir filadan bitta vakil kirgan. Ular xalq yig'inlarida bir yil muddatga ovoz berish yo'li bilan saylangan. Strateglar xalq lashkariga galma-gal qo'mondonlik qilganlar.

Islohotlar vositasida asta-sekin siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi maxsus va doimiy harakatdagi apparat vujudga kelgan. Siyosiy hokimiyat davlat hokimiyati shaklida amalga oshirila boshlangan, uni amalga oshiruvchi apparat esa davlat apparatiga aylangan. Afinada davlatning kelib chiqishi demos g'alabasi bilan tugagan. Natijada Afinada demokratik respublika shaklidagi quldorlik davlati vujudga kelgan.

Miloddan avvalgi V–IV asrlar Afina davlatining rivojlangan davri bo'lib hisoblanadi. Miloddan avvalgi V asrning birinchi yarmida Afina yunon dunyosining eng ilg'or davlatlaridan biriga aylangan. Miloddan avvalgi 478-yilda Eronga qarshi urushda Spartadan so'ng 140–160 ta yunon davlatlaridan iborat dengiz ittifoqiga u boshchilik qiladi. Asta-sekin dengiz ittifoqi Afina dengiz davlatiga aylangan. Ittifoqchi davlatlar Afina davlati organlari va mansabdor shaxslari tomonidan boshqarilgan.

Bu davrlarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarida o'zgarishlar amalga oshgan. Fuqarolarning siyosiy huquqlari

kengaygan. Bular Basileylar Efialt va Perikl islohotlarida o'z ifodasini topgan. Bunda Efialt tomonidan areopagning vakolatlari mutloq qisqartirilib, xalq majlisi, 500 lar kengashi va gelieyaning vakolatlari kengaygan. Demokratiyaning ravnaq topishi Perikl nomi bilan uzviy bog'liq. Uning davrida Salonning senzga oid islohotlari o'z ahamiyatini yo'qotgan. Chunki endi davlat mansablariga barcha to'la huquqli fuqarolar ega bo'lishlari mumkin edi. Negaki, imperiya boshqaruvi va uni ushlab turishga barcha fuqarolar jalb etilgan. Kambag'allar ko'chirilib, yerlarga ega bo'lganlar. U kambag'al fuqarolarni ish bilan band etishga harakat qilgan. Davlat mansablarini bajarganlik uchun haq tayinlagan.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda ijtimoiy tuzum borasida antik qullik shakli ancha rivojlangan. Qullarga oddiy mehnat quroli sifatida qarash mavjud bo'lgan. Bu davrda quldorlik son jihatdan ham, sifat jihatdan ham o'sgan.

Afina davlati mohiyatiga ko'ra erkin fuqarolar manfaatlarining himoya qilinishini va ko'p sonli qullarning tutqunlikda ushlab turishni ta'minlaydigan siyosiy tashkilot hisoblangan. Boshqaruv shakli bo'yicha demokratik respublika bo'lib, afina fuqarolari siyosiy hayotda faol qatnashishi mumkin bo'lgan. Bu holat miloddan avvalgi 330 yillargacha davom etgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Afina davlatining asosiy organlari: xalq yig'ini, Besh yuzlar kengashi va gelieya hisoblangan. Ular mansabdor shaxslar faoliyatini yo'naltirib turganlar va nazorat etganlar.

Xalq yig'ini – ekklesiya davlat hokimiyatining oliy organi bo'lib, u dastlab yiliga 10 marta, keyinchalik 40 marta chaqirilgan. Favqulodda holatlarda ham chaqirilishi mumkin bo'lgan. Unda 20 yoshga to'lgan to'la huquqli afinalik fuqarolar ishtirok etishgan. Eng muhim masalalarni hal etish uchun 6000 kishi, ya'ni butun to'la huquqli afinaliklarning 1/5 qismi ishtirok etishi talab qilingan. Istalgan kishi unda o'z fikrini bildirishi, hatto qonun loyihalarini kiritishi mumkin bo'lgan. Qaror ochiq – qo'l ko'tarish va yopiq – qutiga narsa tashlash yo'li bilan chiqarilgan.

Demokratik muassasalardan yana biri besh yuzlar kengashi – *Bule* bo'lgan. Uning a'zolari qur'a tashlash yo'li bilan 30 yoshga to'lgan afina fuqarolari orasidan saylangan. U oliy hokimiyat va ma'muriy organ bo'lib, xalq majlislariga masalalar loyihasini tayyorlagan va muhokama qilgan. Uning qarorlarini ijro etgan. Moliyaviy boshqaruvni olib borib, davlatning daromad manbalari ustidan nazorat qilgan. Shuningdek, tashqi davlat bilan diplomatik munosabatlarni ham o'rnatgan. U ish yuritish uchun 10 ta komissiya (pritaniiy)ga ajralgan. Kengash raisi har

yig'ilishdan oldin saylangan va u xalq yig'iniga ham boshchilik qilgan. Xizmat muddati tugashi bilan a'zolari hisobot bergan va javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan.

Oliy sud organi, ya'ni hakamlar sudi – gelieya yirik demokratik muassasa bo'lgan. U davlatga qarshi va mansabdor jinoyatlari bo'yicha birinchi instansiya, boshqa ishlar uchun apellatsiya instansiyasi hisoblangan. U xalq yig'inida qabul qilingan qonun loyihalarini rad etishi mumkin bo'lgan.

Qonun chiqarish jarayoniga ko'ra qonun loyihasi xalq kengashiga kiritilgan, so'ng loyiha Besh yuzlar kengashida ko'rib, bu haqda unga xulosa berilgan, keyin xalq yig'ini loyihani qabul qilgan va natijada u gelieya tomonidan rad etilmasa kuchga kiritilgan.

Birinchi arxont – arxont-eponim hisoblangan. Keyinchalik u oilaviy ishlar va merosga taalluqli ishlar bo'yicha sud funksiyalarini saqlab qoladi. Ikkinchi arxont – arxont basiley bo'lib, diniy ishlarni yuritgan va sudda jinoiy ishlarni ko'rgan. Uchinchi arxont – arxont-polimarx bo'lib, u endilikda ilgari harbiy qo'mondonlik funksiyalarini yo'qotib, faqat meteklar va boshqa chet elliklar (ksenlar) bilan bog'liq asosiy ishlar bilan shug'ullangan. Boshqa oltitasi arxont-fesmofetlar deb atalib, gelieyaga taalluqli ishlarni tayyorlaganlar va afina sudlarida adolatli sud qilishga rahbarlik qilganlar.

Afina davlatida ko'plab boshqaruv lavozimlari kollegial bo'lgan. Hammasi bo'lib 700 ga yaqin maxsus mansabdor shaxslar bo'lib, ular tegishlicha turli vazifalarni bajarganlar. Fila va demlarda ham o'z mansabdor shaxslari faoliyat yuritgan.

Afinada oliy sud organi Gelieyadan tashqari Areopag ham ba'zi sud funksiyalarini saqlab qolgan. Eng og'ir jinoyatlar bo'yicha Xalq yig'ini ham birinchi instansiya sudi sifatida maydonga chiqishi mumkin bo'lgan. Perikl zamonidan boshlab sayyor sudlar ham tashkil etilgan.

Areopag arxont-basiley raisligida qasddan odam o'ldirish jinoyatlari bo'yicha ishlarni ko'rib hal etgan. Xalq yig'inining topshirig'i bo'yicha davlatga qarshi jinoyat ishlarini tergov qilishi mumkin edi. Qolgan turdagi jinoiy va fuqaroviy ishlar turli maxsus hay'atlar tomonidan ko'rib hal etilgan.

Qo'shin asosan 18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan erkin fuqarolardan xalq lashkarida iborat bo'lgan. Safarbarlik yoshi xalq yig'ini tomonidan belgilangan. Tinchlik vaqtlarida afina fuqarolari 18 yoshdan 20 yoshgacha harbiy ta'lim o'tganlar va qo'riqlash xizmatiga jalb etib turilganlar. Urush vaqtlarida har bir fila ma'lum sondagi piyoda, otliq, yengil

qurollangan va og'ir qurollangan askarlar berishi lozim bo'lgan. Miloddan avvalgi V asrning ikkinchi yarmidan doimiy yollanma maxsus chegara qo'shinlari, miloddan avvalgi IV asrga kelib qo'shin va flotda yollanma harbiy xizmatchilar paydo bo'lgan.

Afina davlatida politsiya funksiyalarini maxsus xizmatchilari – toksoqlar bajargan. Ular asosan qullardan iborat bo'lib, jami 200 ga yaqin bo'lgan.

***Sparta davlati.*** Sparta davlatining siyosiy tuzumi Lakonika viloyatiga miloddan avvalgi XII asrda doriy qabilalari bostirib kirishi va axayyaliklar bilan doriylar ittifoqi, ya'ni Sparta jamoasining tashkil etilishidan boshlanadi.

Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda Sparta jamoasi tomonidan Messiniya bosib olinishi natijasida yangi shakldagi mukammal davlat apparati vujudga keldi. Davlatning shakllanishi jarayonida urug'doshlik tuzumi ham saqlandi.

Spartaning bu davrdagi ijtimoiy va siyosiy tuzumi afsonaviy qonunshunos Likurg tomonidan yozilgan «retra»larda mustahkamlangan. Likurg tarixiy shaxs sifatida mavjud bo'lmagan, uning islohot o'tkazgan vaqti ham aniq o'rnatilmagan. «Retra»larni ko'pchilik miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda paydo bo'lgan deb hisoblaydi. «Likurg tuzumi» esa miloddan avvalgi VII asrning oxiri – VI asrning boshida batamom tashkil topgan deydi. Retralar spartaliklarning birligini ta'minlash va ularning birgalikdagi hukmron tashkilotini yaratish vazifalarini hal etishga qaratilgan.

Ijtimoiy tuzumda ibtidoiy jamoa munosabatlarining muhim qoldiqlari saqlanib qolgan o'ziga xos sinfiy quldorlik jamiyati tashkil topgan. Mahalliy aholining hayoti qulchalik ham qadrlanmagan, chunki ularning soni o'sib ketmasligi muhim bo'lgan. Spartaliklar to'la huquqli fuqarolarni tashkil etgan. Ular «tenglar jamoasi» deb yuritilgan va hukmron sinfning harbiylashtirilgan birlashmasi bo'lgan. Butun yerlarda faqat spartaliklarga birlashtirilgan ilotlar ishlagan. Butun yerlar taxminan 9000 ta teng, bo'linmas va ajralmas chek (ulush, kler)larga ajratilgan. Ularni sotish, hadya qilish yoki vasiyat qilish mumkin emasdi.

Spartaliklar beshta qishloq birlashmasidan iborat bo'lib, harbiy lagerni eslatadigan shaharlarda yashaganlar. Ularning turmush tarzi juda qattiq tartibga solingan. Butun hayotlari sof harbiycha tarzda o'tgan. Harbiy majburiyat ularning asosiy majburiyati, harbiy ishlar esa munosib mashg'uloti hisoblangan. Kuchli va mustahkam jangchilar tarbiyalab yetishtirish uchun maxsus tarbiya tizimi mavjud edi.



Yangi tugʻilgan har bir chaqaloq Sparta oliy mahkamasi – gerusiyaga, yaʼni oqsoqollar kengashiga olib borilgan. Shundan soʻng maxsus komissiyada chaqaloqning tirik qolishi yoki oʻldirish kerakligi hal qilingan. Oʻgʻil bolalar juda qattiqqoʻllik bilan chidamli, kuchli va sogʻlom qilib boʻlgʻusi jangchi sifatida tarbiyalangan. Ular 7 yoshgacha onasi qoʻlida tarbiyalangan. 7 yoshdan 18 yoshgacha maktabda yashagan va harbiy taʼlim-tarbiya olgan. 18–20 yoshdan 60 yoshgacha harbiy xizmat oʻtalgan. Qizlarni tarbiyalashga gʻoyatda eʼtibor berilib, katta hurmatga sazovor boʻlganlar. Faqat sogʻlom onadan sogʻlom bola tugʻiladi, deb hisoblaganlar. Ular uy-roʻzgʻor ishlarini qilmasdan, bolalik chogʻidan sport bilan shugʻullanganlar, bilim olganlar.

Spartaliklarning tenglar jamoasidan umumiy tushki ovqat, yaʼni fiditiyadan natura haq toʻlay olmagan kambagʻallar chiqarilgan. Tenglar jamoasi, yaʼni fiditiya aʼzolidan chiqqanlar esa siyosiy huquqlarini yoʻqotgan. Taqsimlangan ulush yerlar katta oʻgʻilga meros boʻlib oʻtishi natijasida oʻz yeri boʻlmaganlar – qashshoqlar (gipomeyon)lar darajasiga oʻtgan va ular ham siyosiy huquqlarini yoʻqotganlar. Natijada spartaliklar soni qisqarib borgan va miloddan avvalgi IV asrning oxiriga kelib ularning soni 9000 dan 4000 ga tushib qolgan.

Ilotlar – Messiniyaning qulga aylantirilgan aholisi boʻlib, davlat mulki hisoblangan. Ular amalda oʻz xoʻjaliklarini, oilasi va tomorqasini mustaqil yuritganlar. Hosilning bir qismini tasarruf etganlar. Ularning hayoti qaram dehqonlar holatiga yaqin boʻlgan. Ilotlar mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etgan. Z.M.Chernilovskiy maʼlumotlariga qaraganda Spartada 200 000 dan ortiq ilotlar mavjud boʻlgan<sup>1</sup>.

Ijtimoiy tuzumda bundan tashqari Peloponnes hududidagi togʻli joylarda yashovchi qabilalar – periyek (qoʻshni)lar ham mavjud boʻlgan. Ular siyosiy huquqsiz boʻlib, Spartaning mansabdor shaxslari – garmostlar tomonidan nazorat etilgan.

Boshqarish shakliga koʻra aristokratik davlati boshqaruvchi ikkita podsho keng vakolatlarga ega boʻlmagan va aslida arxagetlar deb atalgan. Ular urush vaqtlarida qoʻshinga qoʻmondonlik qilganlar. Ular eforlar, yaʼni – barcha muassasalar ustidan nazorat qiluvchi oliy mansabdor shaxslar chaqirsa, ular huzuriga borishga majbur boʻlishgan. Asosan kohinlik vazifasini bajarib kelganlar. Ularning hokimiyati meros tariqasida oʻtgan.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Черниловский З.М. Всеобщая история государства и права.* – М., 1996. – С. 73.

Davlat tuzumida xalq yig'ini – apella mavjud bo'lib, unda 30 yoshga to'lgan spartalik erkaklar ishtirok etganlar. Unda urush va sulh masalalari muhokama qilingan, qonun qabul qilingan, mansabdor shaxslar saylangan, boshqa davlatlar bilan ittifoq tuzilgan, arxaget mansabining meros bo'lib o'tishi haqidagi va urushlar vaqtidan arxagetlardan qaysi biri qo'shinga qo'mondonlik qilishi masalalari hal etilgan va h.k. U oqsoqollar roziligi bilan arxagetlar tomonidan odatda har oyda chaqirilgan. Xalq yig'ini davlat hayotida uncha katta o'rin tutmagan. Miloddan avvalgi IV asrga kelib uning ahamiyati juda pasayib ketgan.

Davlatda kuchli boshqaruv organi gerusiya – oqsoqollar kengashi bo'lgan. Gerusiya – «geront» – oqsoqol so'zidan olingan. Unga 60 yoshga kirgan 28 kishi va 30 yoshga kirgan ikki podsho kirgan. Gerontlar umrbod majlis qilganlar. Bir o'rin bo'shasa, o'rniga yangisi saylangan. Nomzodlar xalq yig'inida taklif etilgan.

Gerusiya xalq yig'inida ko'rilishi lozim bo'lgan masalalarni oldindan ko'rib chiqqan, tashqi munosabatlarni olib borgan. Vaqt o'tishi bilan uning vakolatlari kengayib borgan. Agar ular xalq yig'ini qaroridan norozi bo'lsa tark etgan, natijada yig'in tarqalib ketgan. Bundan tashqari, u davlatga qarshi jinoyatlarni ko'rib chiqqan, arxagetlarga qarshi sud jarayonlarini olib borgan.

Barcha muassasalar ustidan nazoratni oliy mansabdor shaxslar – eforlar olib borgan. Bu mansab miloddan avvalgi VIII asrlarda urug' boshliqlari va urug' aristokratiyasi o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida paydo bo'lgan. Dastlab ular arxagetlar yordamchisi bo'lib, mulkiy nizolar bo'yicha sud ishlarini yuritganlar. Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalariga kelib eforlarning vakolatlari juda oshgan. Jumladan, u Gerusiya va xalq yig'inini chaqirish huquqiga, gerusiya bilan kelishib xalq yig'ini qarorini bekor qilish huquqiga ega bo'lgan. Butun ichki va tashqi masalalarni hal etgan, barcha aholi, mansabdor shaxslar, podsholar va davlat muassasalari, xalq yig'ini faoliyati ustidan nazoratni olib borishgan. Har yili besh nafar efor saylab qo'yilgan, ular yangi saylangan eforlarga hisob bergan.

Spartada armiya juda yaxshi tashkil etilgan. Yuqorida aytilganidek, spartalik erkaklarning hammasi harbiy xizmatga majbur edi. Bu armiya miloddan avvalgi VI–V asrlarda Yunonistonda eng yaxshi tashkil etilgan, intizomli va kuchli armiya bo'lgan. Qo'shin oldida yengil qurollangan ilotlar, og'ir qurollangan periyeklar, ulardan keyin yosh spartaliklar, oxirida 60 yoshgacha bo'lgan kishilar jangga kirgan. Qo'shinlar 12 ta harbiy qism (lox)ga bo'lingan. Ular tepasida loxaglar turgan.

Qo'mondonlikni podsholar amalga oshirib, polimarxlar ularga yordam berganlar. Qo'shin tarkibida «300 ta suvoriy»dan iborat otliq askarlar bo'lib, urush vaqtlarida podsholarni qo'riqlaydigan, tinchlik vaqtida mamlakat xavfsizligini ta'minlaydigan o'ziga xos otliq gvardiyani tashkil etganlar.

**Rim davlati.** *Qadimgi Rim davlatining tashkil topishi.* Miloddan avvalgi 753-yilda Rim shahriga asos solingan vaqtda (Romul va Rem tomonidan) Tibr daryosi bo'ylaridagi qabilalarda ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi jarayoni yuz berayotgan edi. Bu yer uchta qabila: qadimgi lotin, sabin va etrusklarning xuddi Afinadagi sinoykizmga o'xshab urushlar yo'li bilan birlashtirilishi natijasida Rim jamoasi tashkil topgan. Qadimgi rim urug'lari a'zolari patritsiylar deb atalgan.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi mulkiy tabaqalanishga va xususiy mulkning paydo bo'lishiga olib kelgan. Turli manbalar asosida qulchilik kelib chiqqan. Kambag'allashgan jamoachilar, kelgindilar va ozodlikka chiqqan qullardan – kliyentlar guruhi paydo bo'lgan. Qulay shart-sharoitlar natijasida Rimga ko'chib kelganlar plebeylar deb atalgan. Ular o'rtasida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy farqlar mavjud bo'lgan.

Rim jamoasi tepasida senat tomonidan saylab qo'yiladigan reks (ryex – podsho) turgan. Uning vakolatlari cheklangan bo'lib, asosan harbiy, diniy va sud vakolatlariga ega bo'lgan. Reks senatga raislik qilgan, fuqarolar lashkari – legionga boshchilik qilgan. Umummajburiy qarorlar chiqargan.

Rim jamoasining muhim boshqaruv organi urug'larning oqsoqollari kengashi – senat bo'lgan. U sud vazifasini ham bajargan. Har bir urug' boshlig'i senatga a'zo bo'lib kirgan. Rim jamoasi 300 ta urug'dan iborat bo'lganligi uchun senat ham 300 ta senatoridan tashkil topgan.

Jamoaning muhim masalalari xalq yig'inida ko'rilgan. Biroq uning qarorlari senat va reks tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lgan. U muhim hukumat organi ham hisoblanadi.

Rim jamoasining tashkil etilishi izchilligi va mukammalligi bilan ajralib turgan. Qabilalar – tribalar deb atalib, urug'lar birlashmalari – kuriyalardan tashkil topgan. Tribada 10 kuriya bo'lgan, har bir kuriyaga 10 ta urug' kirgan. Shunday qilib, aholisi 3 ta qabila 300 ta urug'dan iborat edi. Xalq yig'ini ham aynan kuriyalar bo'yicha chaqirilgan va qaror qilgan. Rim jamoasi boshqa xalqlar uchun yopiq bo'lgan.

Plebeylar va patritsiylar o'rtasida ijtimoiy tengsizlik natijasida yuzaga kelgan urush miloddan avvalgi VI asrda plebeylarning g'alabasi bilan tugaydi. Oqibatda ijtimoiy jamoa tuzumi yemirilib, davlatning

tashkil topish jarayoni yuz beradi. Plebeylar g'alabasi va qadimgi Rimda davlatning tashkil topishi miloddan avvalgi VI asrda reks Serviy Tulliy tomonidan o'tkazilgan islohotlar bilan mustahkamlanadi.

Bu islohotlar Rimning ijtimoiy tuzumi asosiga mulkiy va hududiy tamoyillarni qo'ygan. Ular yangi davlat organlarini shakllantirish yo'lidan borgan. Islohotlar natijasida aholi mulkiga ko'ra ma'lum qo'shin beruvchi 6 ta sinfga ajratiladi. Buning natijasida senturiyalar majlisi (senturiya - yuzlik) deb ataluvchi xalq majlisi vujudga kelgan. Erkin aholi hududiy belgilariga qarab bo'linishida 4 ta shahar va 17 ta qishloq tashkil etilgan.

Ayni bu davrda XII jadval qonunlari qabul qilinganligini unutmash kerak. Bu davrda shuningdek, qator podshohlar va oliy mansabdor shaxslar tomonidan plebeylar huquq holatini yaxshilashga qaratilgan joriy qonunlar ham amalga kiritilgan.

Miloddan avvalgi 509-yilda oxirgi (yettinchi) reks Tarkvinij Superb haydab yuborilgandan so'ng Rimda respublika tuzumi o'rnatilgan. Bu davrda Rim ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, hududiy va harbiy jihatdan ancha mustahkamlanadi. Chegaralari kengayib, u dunyodagi eng qudratli davlatga aylanadi. Miloddan avvalgi III asrga kelib qishloq jamoalari 31 ta yetgan.

Respublika davrida davlat hokimiyati sodda shaklda tashkil etilgan. Keng hududlar ustidan markaziy boshqaruvni amalga oshiruvchi oliy organlar tizimida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmagan. Bu esa boshqaruv samarasini kamaytirib, vaqt o'tishi bilan respublika tuzumining qulashi sabablaridan biri bo'lib qolgan.

Rim respublikasida aristokratik va demokratik boshqaruv belgilari qo'shib ketgan. Bu oliy organlar – xalq majlislari, senat va magistraturaning vakolatlari va o'zaro munosabatlarida ham o'z aksini topgan. Davlat chegaralarining kengayishi va erkin kishilar sonining oshishi munosabati bilan majlislar tarkibida o'zgarishlar kuzatilgan.

Rim respublikasida xalq majlislarining quyidagi uch turi: senturiyalar, tribalar va kuriyalar komitsiyalari (kengashlari) mavjud bo'lgan. Senturiyalar davlat boshqaruvida katta o'rin tutgan. Senturiyalar komitsiyasi (majlisi) vakolatlariga quyidagilar kirgan: respublikaning oliy mansabdor shaxslari (konsullar, pretorlar, senzorlar)ni saylash, urush e'lon qilish, sulh tuzish va o'lim jazosiga hukm qilinganlar shikoyatlarini ko'rib chiqish masalalarini hal qilish kabilar kirgan.

Triba xalq majlislari triba aholisidan iborat bo'lib, ularning vakolatlari quyidagicha bo'lgan: quyi mansabdor shaxslar (kvestor, edillar va boshq.)ni saylaganlar, jarimaga undirish haqidagi hukmlar

ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rganlar. Miloddan avvalgi III asrga kelib, ular qonun chiqarish vakolatini ham qo'lga kiritadilar. Kuriyalar kengashi bu davrlarda o'z ahamiyatini yo'qotgan va asosan vasiyat qilish, o'g'il qilib olish kabi masalalarni hal qilgan.

Davlat mexanizmida senat muhim o'rin tutgan. U respublikaning oliy davlat organi hisoblangan. Senatorlar saylanmagan. Ularning soni dastlab 300 ta, miloddan avvalgi I asrda 600 ta, keyinchalik esa 900 taga ko'paytirilgan. Rasman senat maslahatchi organ bo'lib, uning qarorlari senatus-konsult deb atalgan. Lekin senatning vakolatlari juda keng bo'lgan. Xalq majlislarining qarorlarini tasdiqlagan va faoliyatini nazorat etgan. Uning vakolatlariga davlat xazinasini va harbiy hayotni boshqarish, davlat mulkini idora qilish, soliqlarni joriy etish, diniy marosimlar bo'yicha qarorlar qabul qilish ham kirgan. Senatning tashqi siyosiy vakolatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Magistraturalar deb davlat mansabdorlariga aytilgan. Ularga nisbatan saylab qo'yishlik, muddatlilik, kollegiallik, haq to'lamaslik va javobgarlik tamoyillari amalda bo'lgan. Hamma mansabdorlar senturiyalar yoki tribalar majlislari tomonidan bir yilga saylangan. Magistrarning hokimiyati oliy va umumiyga bo'lingan. Oliy hokimiyat faqat diktatorga, konsullarga va pretorlarga berilgan. Mansabdor shaxslar o'z vakolatlari doirasida farmoyishlar berib, bajarilishini nazorat etganlar.

Magistrlik odatiy va odatdan tashqari (favqulodda) magistrlikka bo'lingan. Oddiy-odatiy-doimiy magistraturalarga konsullar, pretorlar, senzorlar, kvestorlar, edillar va boshqa mansablar kirgan.

Konsullar ikki nafar (biri patritsiylardan, biri albatta plebeylardan) bo'lib, oliy magistratlar bo'lgan va butun magistratura tizimiga boshchilik qilgan. Ular har yili senturiya kengashlarida saylangan. Harbiy va fuqarolik hokimiyati ular qo'lida bo'lgan.

Pretorlar lavozimi miloddan avvalgi IV asrda konsullarning yordamchilari sifatida paydo bo'lgan. Konsullar yo'q vaqtida Rim shahrini boshqargan, sud ishlarini yuritishga rahbarlik qilganlar. Shuningdek, viloyatlarni boshqarganlar, senat topshirig'i bilan legionlarga qo'mondonlik qilganlar va umummajburiy qarorlar qabul qilib, huquqning yangi me'yorlarini chiqara olganlar. Ular dastlab 1 ta, keyin 2 ta saylanadigan bo'lgan. Biri rim fuqarolari va yana biri chet elliklar ishlarini ko'rganlar. Asta-sekin ularning soni 8 taga yetgan.

Senzorlar – rim fuqarolarining ro'yxatini tuzish, ularni mulkiy ahvoliga qarab darajalarga ajratish hamda senatorlar ro'yxatini tuzish uchun senturiya komitsiyalari tomonidan 5 yilda 1 marta 2 tadan



saylangan. Ular vakolatiga axloqi kuzatib turish va tegishlixa ediktlar chiqarish ham kirgan.

Kvestorlar – kichik magistratlarga mansub bo‘lib, ular triba komit-siyalarida saylangan. Vaqt o‘tishi bilan ular senat roziligi ostida moliyaviy xarajatlarni yurita boshlaganlar, xazinachilik vazifasini bajarishgan, davlat arxivini qo‘riqlashgan, viloyat hokimlariga yordamchi bo‘lganlar va harbiy xazinaga mudirlik qilganlar. Shuningdek, ba’zi jinoiy ishlar bo‘yicha tergov olib borganlar. Respublikaning oxiriga kelib ularning soni 20 taga yetgan.

Edillar ham ikkita bo‘lishgan. Ular kichik magistratlardan bo‘lib, shaharda jamoat tartibini, bozorda savdoni va obodonchilikni kuzatganlar, shaxsni oziq-ovqat bilan uzliksiz ta‘minlashga javob berganlar, bayramlar va xalq tomoshalarini tashkil etganlar.

«Yigirma oltita erkaklar» kollegiyalari 26 kishidan tashkil topib, beshta kollegiyadan iborat bo‘lgan. Ular qamoqxonalar, pul zarb etish, yo‘llarni tozalash masalalarini va ba’zi sud ishlarini yuritganlar.

Har bir magistrat ixtiyorida o‘z mahkamasi, unda ko‘pdan-ko‘p xattotlar, jarchilar va boshqa xizmatchilar bo‘lgan.

Odatdan tashqari magistratlardan Diktator – senatning taklifi bilan konsullarning biridan tayinlangan. Ba’zi hollarda senturiyalar kengashi bevosita diktator tayinlashga haqli bo‘lgan. Diktator cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lib, barcha magistratlar unga bo‘ysungan. Harbiy va fuqarolik hokimiyati 6 oy mobaynida diktator qo‘lida bo‘lgan. Veto huquqi unga ta’sir etmagan va uning faoliyatidan shikoyat qilish mumkin bo‘lmagan.

Odatdan tashqari favqulodda magistratlar qatoriga detsemvirlar komissiyasini ham kiritish mumkin. Bu komissiya plebeylarning teng huquqlar uchun navbatdagi kurashlardan biri ko‘tarilgan davrda mil.avv. 450 – 451-yillardagi XII jadval qonunlarini tayyorlash uchun tashkil etilgan edi.

Rim respublikasi tarixida armiya juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Armiya o‘ta intizomli va yaxshi qurollangan edi. Armiyaning bosh ko‘tarishi natijasida miloddan avvalgi 88-yilda Sulla davrida mavjud hokimiyat ag‘darib tashlanadi.

Binobarin, miloddan avvalgi II–I asrlarda quldorlik munosabatlari rivojlanishi natijasida sinfiy va ijtimoiy ziddiyatlar yanada keskinlashadi. Bu davrda aka-uka Tiberiy va Gay Grakslar (tribunlar) tomonidan triba majlislari orqali zodagonlar siyosiy nufuzini zaiflashtiruvchi, kambag‘al va yersiz dehqonlarni mulk egasiga aylantirishga qaratilgan qonunlar amalga kiritilgan.

Siyosiy vaziyat keskinlashuvi natijasida davlat muassasalarini yangi tarixiy sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan harakatlar qilingan. Bunday harakatlardan eng muhimi Sulla diktaturasi davrida (mil. avv. 82–79-y.) amalga oshirilgan edi.

Sulla diktaturasidan keyin qisqa vaqt o'tgach YU. Sezar diktaturasi o'rnatilib, u miloddan avvalgi 45-yilda imperator unvonini olgan. Miloddan avvalgi 27-yilda Rim davlatining imperiya davri boshlanadi.

Imperiya davrida imperator hokimiyatining kuchayib borishi ko'zga tashlangan. Boshqaruv imperator boshchiligidagi amaldorlardan iborat byurokratik va harbiy apparat ixtiyoriga o'tgan.

Milodning 476-yilida esa german qabilalari G'arbiy Rim imperiyasini bosib olishi natijasida bu davlat tugatilgan.

#### **4-§.Qadimgi Yunoniston va Rim huquqining rivojlanish xususiyatlari**

*Afina va Spartada huquqning asosiy belgilari.* Afina va Spartaning huquq tizimi o'xshash bo'lib, ularda huquqning qadimgi manbai odat hisoblangan. Ayniqsa, Spartada yozilmagan odat huquqi muhim o'rin tutgan. Spartada yozma qonunchilikning shakllanishi ilotlar va spartaliklarning huquqiy holatini mustahkamlash bilan bog'liq holda shakllandi. Bu afsonaviy qonun ijodkori Likurg nomi bilan bog'liq. Uning qonunchiligi «Retra» deb atalgan hujjatlarda keltirilgan. O'sha davrning tarixchisi Ksenofont ma'lumotlariga qaraganda, Likurg spartaliklarning savdo bilan shug'ullanishlarini taqiqlash to'g'risida qonunlar chiqargan.

Afinada miloddan avvalgi 611-yilda arxont Drakont davrida birinchi yozma qonunchilik tarkib topgan. Ular bizgacha yetib kelmagan, u o'zining qattiq jazo tizimi bilan mashhur bo'lgan. Miloddan avvalgi VI asrda Solon davrida ham ko'plab qonunlar qabul qilingan. U o'z qonunlarini 16 yog'och taxtaga yozib qo'ydirgan. Ammo bu ham bizgacha yetib kelmagan. Miloddan avvalgi V–IV asrlarda qonunchilik faoliyati kengayib, xalq majlisining umumiy ahamiyatga ega qarorlari qonun kuchiga ega bo'lgan.

Spartada uzoq vaqtlargacha jamoa yer egaligi saqlangan. Miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmida uy va yer bilan bog'liq hadya, vasiyatga oid shaxsiy mulk huquqlari joriy etilgan. Afinada esa xususiy mulkchilik rivojlangan. Ular turli da'volar bilan himoya qilingan. Lekin, mulk huquqi shakllanmagan. Fuqarolik huquqi yerga, qulga, ish hayvonlariga nisbatan xususiy mulkchilikning rivojlanganligi bilan

xarakterlanadi. Shuningdek, davlat mulkchiligi ham mavjud bo'lib, uning obyekti turli ashyolar bo'lgan.

Spartada majburiyat huquqi uncha rivojlanmagan, Afinada esa majburiyatlar keng tarqalgan. Ularning shartnomalardan va deliktlar (beruxsat harakat natijasida zarar yetkazish)dan kelib chiqadigan turlari ajratib ko'rsatilgan. Jumladan, zakalat, garov, kafillik, oldi-sotdi, ijara, ssuda, shaxsiy ijara, pudrat, qarz, omonat, sherikchilik, topshiriq, vositachilik kabi shartnomalar amal qilgan. Ko'chmas mulklar yozma shartnoma predmeti bo'lishi mumkin edi.

Afinada nikohga kirish majburiy, ajralish erkaklar uchun erkin bo'lgan. Bir nikohlik oila amalda bo'lgan. Afinada nikoh tuzishning ikki shakli ajratilgan: kuyovning kelin otasi yoki homiysi bilan tuzadigan oddiy shartnomasi va mansabdor shaxslar yoki sud oldida nikoh tuzish. Ikkinchi turi merosxo'rlar yoki olib saqlangan farzandlarga nisbatan amal qilgan. Ota oilada juda katta hokimiyatga ega bo'lgan. Bolalar ota-onasini hurmat qilish, ularni qariganda boqishga majbur bo'lgan.

Spartada ayollar jamiyat va oilada katta mavqega ega bo'lishgan. Nikoh asosan juft (monogomiya) shaklida bo'lgan. Lekin, guruhiiy oila qoldiqlari ham saqlangan. Masalan, aka-ukalar bitta xotinga ega bo'lishgan.

Afinada meros qonuniy va vasiyat bo'yicha qoldirilishi mumkin bo'lgan. O'g'illar bo'lsa qizlar merosxo'r bo'la olmagan. Meros o'g'illar o'rtasida teng taqsimlangan. Agar merosxo'rlar bo'lmasa avval ota tomon qarindoshlar, so'ngra ona tomon qarindoshlar merosga taklif etilgan. Solon davridan boshlab vasiyat bo'yicha meros paydo bo'lgan. Buning uchun o'g'li bo'lmagan vasiyat qoldiruvchi sog'lom bo'lishi va mustaqil hal etishi shart bo'lgan.

Afina huquqida jinoyat va jazo ibtidoiy jamoa tuzumining ko'pgina qoldiqlarini saqlab qolgan. Jinoyat faqat jabrlanuvchini qiziqtirgan. Ayblov jabrlanuvchi tomonidan qo'zg'atilgan va qo'llangan. Aybdor jarima to'lagan yoki jazolangan. Jinoyatlar xususiy da'vo tartibida ko'rilgan. Jinoyat huquqida faqat davlatga qarshi, dinga qarshi, oilaga qarshi, shaxsga va mulkka qarshi jinoyatlar turlari uchun javobgarliklar o'rnatilgan. Jazolarning o'lim, mol-mulkni musodara etib mamlakatdan haydash, tan jazolari, sharmanda qilish, siyosiy huquqlardan mahrum qilish va boshqa turlari amal qilgan. Jinoyat jamoat joyida sodir etilsa aybdor aniq jazolangan, kechasi sodir etilsa o'ldirilgan. Ehtiyot chorasi sifatida ozodlikdan mahrum etish chorasi qo'llanilgan. Spartada ham shu turdagi jinoyatlar va jazolar tizimi mavjud bo'lgan.

Afinada sud ishlarini faqat to'la huquqli fuqarolar tashabbusi bilan boshlangan. Ba'zi kishilar maxsus xabar beruvchilar – sikofontlar vazifasini o'taganlar va ayblovni qo'llaganlar. Alohida sud organlari – maxsus mansabdor shaxslar faoliyat ko'rsatgan. Sud jarayoni muayyan tartibga bo'ysungan. Sud majlisi sudyalarning yashirin ovoz berish yo'li orqali chiqarilgan qarorlari bilan tugagan.

Sud qarorlari va hukmlari ustidan gelieyaga apellatsiya tartibida shikoyat qilish mumkin edi. Gelieyaga, hatto xalq yig'inida ko'rilgan sud ishlari yuzasidan chiqarilgan qarorlar ustidan ham apelyatsion shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan. Gelieyaning qarori qat'iy bo'lib, shikoyatga o'rin bo'lmagan.

*Rim huquqi.* Rim huquqi, avvalo, juda xilma-xil hayotiy munosabatlarni va vaziyatlarni keng darajada keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Unda ayniqsa xususiy mulk bilan bog'liq masalalar puxtalik bilan ishlab chiqilgan. Rim huquqining tarixini quyidagi davrlarga bo'linishi maqsadga muvofiqdir:

– *eng qadimgi davri* (mil. avv. VI asr–III asrning o'rtasi). Bu davrda polischa diniy xarakterdagi huquq amal qilgan. Rimning tub fuqarolari huquqi paydo bo'lgan. Odat huquqi uning manbai bo'lgan. Miloddan avvalgi 451–450-yillarda huquq manbai sifatida XII jadval qonunlari vujudga kelgan;

– *klassik davri* (mil. avv. III asr o'rtasi – milodning III asri oxiri). Mazkur davrda rim huquqi mukammal dunyoviy yuridik tizimga aylanadi. Pretor huquqi – xalqlar huquq ham vujudga keladi. M.a. huquqning bunday ikkiga bo'linishi imperator Karalla edikti (farmoni) bilan bekor qilingan;

– *postklassik, yangi klassik davri* (IV–VI asrlar). Bu vaqtda rim huquqi quldorlik jamiyati va davlatining yemirilishi bilan harakatdan to'xtaydi. Unda yuz bergan o'zgarishlar asosan uning tizimlashtirilishi va vujudga kelayotgan yangi feodal munosabatlarga asta-sekin moslashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda qonun chiqarish hokimiyati to'la imperatorlar qo'lga o'tib, rim huquqining to'plamlari tuziladi va kodifikatsiya qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish lozimki, Rim huquqining alohida jihatlari, sohalari va institutlari bilan bog'liq masalalar eng qadimgi, klassik va postklassik davrlarga ajratilgan holda o'rganiladi.

*Rim huquqi manbalarining rivojlanishi.* Qadimgi davrda rim huquqiy an'analarning vujudga kelishida kohinlar juda katta mavqega ega edilar.

Rim huquqi ularning alohida toifasi – pontifiklar tomonidan tuzilgan va sharhlangan. Ular butun yuridik faoliyat nazorat qilgan.

Rimda huquqning eng qadimgi manbai huquqiy odatlar (*mores majorum*) bo'lgan. An'anaga ko'ra huquqning boshqa manbai Rim podsholarining qonunlari (*leges regiae*) hisoblangan. XII jadval qonunlari dastlab 10 ta jadval asosida tuzilgan. Ikkinchi maxsus komissiya tomonidan esa dastlabki ikkita jadval bilan to'ldirilgan. U birinchi rim yozma qonunlari bo'lib, *krivit – tub* Rim fuqarolari uchun mo'ljallangan. 12 ta mis lavhalarga yozilib, hamma ko'rishi uchun Rim siyosiy hayotining markazi – forumga osib qo'yilgan. Uni bilish hamma uchun majburiy bo'lgan.

XII jadval qonunlarining asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning mazmuni XVI–XVII asrlarda huquqshunoslarning asarlari asosida tiklangan. Hozirgacha ham uning matni to'liq bo'lmasdan qolgan. Hatto ayrim mualliflar (YE. Pais, E. Lamber, R. Shuls va boshqalar)ning ishlarida uning mavjudligi ham shubha ostiga olinadi.

Eng qadimgi davrda senat qarorlari (*senatus – konsultlar*), ayrim hollarda magistratlarning qarorlari ham huquqiy kuchga ega bo'lgan. Miloddan avvalgi III asr va milodning III asrida XII jadval qonunlari rasman amalda bo'lgan. IV asrga kelib huquqning ancha muhim manbai pretorlarning ediktlari bo'lib qolgan. Pretor huquqi o'zgaruvchan va moslashuvchan bo'lishi bilan birga, meros tariqasida o'tishi hamda barqarorligi bilan ajralib turgan.

Imperiya o'rnatilishi bilan imperatorlar qonunlari (konstitutsiyalari) asosiy huquq manbai bo'lib qolgan. Ular quyidagi ko'rinishda bo'lgan: ediktlar, reskriptlar (imperator maslahatlari), dekretlar (imperatorning sud ishlari qarorlari), mandatlar (hokimlarga jo'natilgan yo'l-yo'riqlar, qo'llanmalar).

Klassik va postklassik davrlarning huquq manbalari ichida taniqli huquqshunoslarning fikrlari, asarlari (*degistalar*), o'quv maqsadlarida bayon qilinuvchi institutsiyalari (*darslik*), shuningdek ularning berilgan savollarga javoblari – konsultatsiyalari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, shu davrda imperatorlar ediktlarini tizimlashtirilgan kodekslar ham tuzilgan. Ular mashhur yuristlar yoki ularning jamoasi tomonidan yaratilib, ularning yoki imperatorlarning nomi bilan atalgan hamda huquq manbai tarzida tayanilgan. Masalan, 529 va 534-yillarda Yustinian kodeksi ikki marta nashr qilingan. U 12 kitobdan iborat bo'lib, o'z ichiga imperatorlar konstitutsiya (qonun – *novella*)larini olgan qonunlar to'plami hisoblangan. Unga kiritilmagani o'z kuchini yo'qotgan.



Imperator Yustinian 150000 ga yaqin misrali degistlar hamda mukammal institutsiyalarni ham tizimlashtirishni tashkil qilgan. Aynan Yustinian kodifikatsiyasi rim huquqining butun o'tgan tarixini bir joyga to'plovchi manba bo'lib, uning ko'p asrlardan buyon rivojlanishiga o'ziga xos tarzda chegara qo'ygan. U o'z asosi bilan rim huquqining manbai hisoblanadi.

*Eng qadimgi davrda Rim huquqi.* Miloddan avvalgi III asrning o'rtalariga qadar *kvirit* – tub aholi uchun fuqarolik huquqi tanho hukmron huquqiy tizim bo'lib kelgan. Shu davrlardayoq mansipatsiya – ashyolarga bo'lgan huquq ashyolar turlariga ko'ra ajralib turgan. Servitut – odatlar yoki qonunda mustahkamlangan va qattiq cheklab qo'yilgan begona ashyolardan foydalanish huquqi shakllangan. Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar amal qilgan. Shuningdek, delikt (xususiy va ommaviy – davlat foydasiga) – huquqbuzarlik natijasida kelib chiqadigan majburiyatlar ham mavjud bo'lgan.

XII jadval qonunlariga asosan qadimgi rim huquqi patriarxal oilani mustahkamlaydi. Oilada erting xotin va bolalari ustidan to'la va kuchli hokimiyati o'rnatilgan. Nikoh yoshi ayollar uchun 12 yosh bo'lgan, erkaklar uchun ko'rik-tekshiruv yo'li bilan o'rnatilgan. Turli toifadagi shaxslarning nikohga kirishi taqiqlangan. Nikoh turli shakllarda tuzilishi mumkin bo'lgan. Jumladan, bir yil birga yashash bilan yoki diniy marosimlar yo'li bilan soxta sotib olish ko'rinishida tuzilgan.

Yosh bolalar va erga chiqmagan ayollar ustidan homiylik, aqldan ozganlar va isrofgarlar ustidan vasiylik o'rnatilishi mumkin bo'lgan.

Meros huquqida umumiy qoidaga ko'ra meros o'lgan kishining bolalari yoki nabiralari yoxud yaqin tug'ishgan agnatlarga o'tgan. Vasiyat bo'yicha meros qoldirish ham juda erta shakllangan.

Legasaksion (harakat, imo-ishora va so'zlar) jarayon. Ko'p sud ishlari xususiy (fuqarolik) tartibida ko'rilgan. Eng qadimgi davrdan boshlab sud tizimi va jarayonini tashkil etishning ikkita bosqichi amalda bo'lgan. Birinchi bosqichda ish magistratlar tomonidan ko'rilgan. Unda tomonlar kelishsa ish tugagan. Ikkinchi bosqich esa tomonlar o'rnatilgan tartibga rioya qilsa, pretor tomonidan tayinlangan sudya yoki sudyalar hay'ati tomonidan olib borilgan. Sudlarning qarori qat'iy bo'lgan va shikoyatga yo'l qo'yilmagan.

Jinoyat ishlarida ish yurituvchi magistrat vahshiyona tartibdan foydalangan. Butun protsess davomida u ayblovni qo'llab, so'roq qilgan. Agar konsul o'lim jazosi haqida hukm chiqarsa, buni xalq majlisi ma'qullagandan so'nggina ijro etish mumkin edi.

*Klassik va postklassik davrlarda rim huquqi.* Klassik davrda xalqlar huquqi va xususiy huquqqa bo'linish ishlab chiqilgan. Xalqlar huquqi

hokimiyat, bo'ysunish xarakterida, xususiy huquq rasman tenglik xarakterida bo'lgan.

Mulkiy munosabatlarni tartibga solish rim xususiy huquqida markaziy o'rin egallaydi. Ashyolar xarakteriga ko'ra turlarga ajratilgan. Bu davrda mulk huquqiga ega bo'lish usullariga katta e'tibor berilgan. Xalqlar huquqi va xususiy huquqda ham uning turlari batafsil ishlab chiqilgan.

Xususiy mulkni himoya qilinishi uchun mulkdan foydalanishga to'sqinlik uchun progibator, begona mulkka asossiz qilingan da'voga qarshi negator da'volardan ham foydalanilgan. Xususiy mulk egasi vindikatsion da'vo natijasida o'z mulkini isbotlasa, u egasiga qaytarilgan. Mulkdan foydalanish, unga egalik qilish va uni oddiy ushlab turish bir-biridan farqlangan.

Klassik davrda garov huquqi ham keng rivojlangan. Qarz summasidan qat'i nazar u qaytarilmasa, garovdagi ashyo umrbod kreditorda qolgan. Imperatorlik davrida yunon huquqining ta'siri ostida impoteka degan garov shakli ham rivojlangan. Bunda garov qo'yilgan ashyo (odatda yer) qarzdorning o'zida qolgan, kreditor esa ashyo huquqiga – qarzdor tomonidan garovga qo'yilgan yerning sotilishiga yo'l qo'ymaslik va majburiyatlar bajarilmagan holda talab qilib olish huquqiga ega bo'lgan.

Majburiyat huquqi instituti tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan klassik davrda ancha taraqqiy etgan. Ayniqsa, shartnoma (kontrakt) va bitim (pakt)lar ancha batafsil va aniq ishlab chiqilgan. Shartnomalar verbal (og'zaki), literal (yozma), real (ashyo zarur) va konsensual (bitim) kabi guruhlariga ajratilgan.

Klassik davrda er hokimiyatisiz nikohning yangi shakli keng tarqala boshlangan. Ayol ko'pgina huquqlarga (qarindoshlari bilan aloqa qilish va h.k.), mulkiy mustaqillikka va bolalariga nisbatan ba'zi huquqlarga ega bo'lgan. Oilaviy munosabatlar kuchsizlangan. Postklassik davrda ayollarning muomala layoqati amalda erkaklarning muomala layoqati bilan tenglashtirilgan.

Oilada kuchli ota hokimiyatining yumshatilishi meros huquqida ham ba'zi o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Merosxo'rlar doirasi kengayib, ular qatoriga xotining qarindoshlari ham kirgan.

Fuqarolik jarayoni shakllaridagi o'zgarishlar natijasida fuqarolik ishlari endi boshidan oxirigacha bitta magistrat tomonidan ko'riladigan bo'lgan. Fuqarolik ishlarini ko'rish uchun boj olish tartibi joriy etilgan. Tomonlarning bayonotlari sud qaydnomalariga yozib borilgan, bu yozma sud ishlarini yuritishga asos solgan. Magistrat chiqargan sud qarori ustidan apellatsiya bosqichi joriy etilgan. Biroq oliy apellatsiyaga bergan shaxslar ishda ikkinchi marta ham yutqazsa, juda katta jarima to'lagan.

Bu davrda rim jinoyat huquqi butun imperiya hududi va aholiga taalluqli bo'lgan. Xususiy delikt (huquqbuzarlik) ham jinoiy jazolanadigan bo'lgan. Bu davrda juda ko'p yangi jinoyatlar paydo bo'lgan. Jumladan, davlat asoslariga xavfli tajovuz sifatida ko'riladigan jinoyatlar. Doimiy armiya o'sishi bilan harbiy jinoyatlar ham o'sgan. Imperiya davrida tan jarohati yetkazish jinoyatlari uchun javobgarlik belgilangan. Oila va axloq sohasiga taalluqli jinoyatlar doirasi ham kengaygan.

Shuningdek, jazolarning turlari ham birdaniga o'sgan, jazoni qo'llashning yangi usullari amal qilgan. Agar jazo dastlabki vaqtlarda yetkazilgan zararni undirish tamoyili asosiga qurilgan bo'lsa, dominat davrida esa u borgan sari ko'proq qo'rqitish maqsadini ko'zlagan. Bu davrda sudyalarda sud tizimi va jarayonining qayta tuzilishi munosabati bilan katta imkoniyatlarga ega bo'lgan.

Sudda jinoyat ishlari yopiq holda ko'rib chiqilgan. Jinoyat jarayoni shafqatsiz xarakter kasb etgan. Sudya ham ayblov ham sudlov funksiyasini amalga oshirgan. ayblanuvchi huquq yordam huquqidan mahrum etilgan. Respublika davridagi mavjud kafolatlar ham yo'qotilgan. Uchta instansiyaga yo'l qo'yilmagan.

Klassik davrning Rim jinoyat huquqida yuridik texnika sohasida ba'zi ilg'or natijalar ko'zga tashlanadi. Masalan, ayb, ishtirokchilik, suiqasd va boshqa tushunchalar ishlab chiqilgan. Ular keyinchalik G'arbiy Yevropaning o'rta asrlardagi jinoyat huquqi rivojlanishiga ma'lum ta'sir o'tkazgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, antik dunyo davlatlarining monarxik xususiyatlari, ularda yirik davlat-ehrom xo'jaligining hamda jamoa yerlarining mavjudligi ularning tipik Sharq monarxiya davlatlariga o'xshashligidan dalolat beradi. Yunonistonning tabiiy sharoitlari bu yerda davlat hokimiyatining tashkil etilishiga boshqa jihatdan ham ta'sir etgan.

Polis tuzumi faqat Yunonistongagina emas, balki butun antik dunyoga xos bo'lgan davlatchilikning muhim va o'ziga xos belgisi hisoblanadi. O'z navbatida huquq ham alohida polislar doirasida taraqqiy etgan va alohida shahar-davlatlar demokratik institutlar taraqqiyot darajasi huquqda ham o'z aksini topgan. Darhaqiqat, rim huquqi antik dunyoda klassik quldorlik tuzumi eng avjiga chiqqan bir sharoitda vujudga kelgan.

Barcha qadimgi sharq mamlakatlarida jinoiy jazo aybdorning ijtimoiy mavqeiga qarab turlicha qo'llanilgan. Dastlabki davrlarda hatto Rimda ham jinoyat huquqi hukmron tabaqalar manfaatiga xizmat qilgan.

---

#### IV BOB. ARAB XALIFALIGINING DAVLATI VA HUQUQI

##### 1-§. Arab xalifaligining oliy, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari

VI–VII asrlarda Arabiston yarim orolida yashayotgan arab qabilalari ijtimoiy hayotida urug‘doshlik tuzumi amal qilgan. Diniy e‘tiqodi bo‘yicha ular orasida ko‘pxudolik keng tarqalgan bo‘lib, qabila va urug‘lar orasida tarqoqlik mavjud edi. VII asrda urug‘-qabila tuzumining yemirilishi yuz beradi. Urug‘-qabila munosabatlarining yemirilishi ayniqsa Xijozda keng quloq yoydi. Bu yerda nafaqat chorvachilik bilan, balki dehqonchilik bilan ham mashg‘ul bo‘lgan yarim o‘troq aholi birlasha boshladi. Bu mintaqada yirik savdo-hunarmandchilik shaharlari Makka va Yasrib joylashgan bo‘lib, undan janubdan shimol tomonga juda katta karvon yo‘li o‘tgan. Shaharlarda savdogarlar yuqori mavqega ega bo‘lgan. Qabilaviy tuzum zaiflashib, qabilalar o‘rtasida harbiy yurishlar davom etgan. Shunday qilib, chuqur ildiz otgan ijtimoiy-iqtisodiy tanazzul sharoitida yangi tabaqalashgan jamiyat vujudga keldi. Boshqa xalqlar tarixida bo‘lganidek yangi tuzum uchun olib borilayotgan ommaviy harakatlar mafkurasi diniy ko‘rinishda namoyon bo‘ldi.

Bu harakatga tarixiy shaxs, din va davlat asoschisi Muhammad sallolohu alayhi vassallam (570–632-y.) rahbarlik qildi. Buning natijasida VII asrda juda ulkan davlat – **Arab xalifaligi tashkil topdi**. Bu yangi dinning barcha qoida va tartiblariga rioya qilgan shaxslargina Muhammadning ummati deb tan olingan. Tez orada urug‘-qabila va nufuzli savdogarlar vakillari islomni qabul qilib, musulmonchilikka kira boshladilar.

Arablarining yangi yerlarga bo‘lgan harakatlarining asosiy sababi ularning o‘z yerlarida zich joylashganligidir. Ishlab chiqarish kuchlarining past darajada taraqqiy topganligi va ko‘chmanchi qabilalar sonining o‘sib borishi natijasida yaylovlar va suvning tanqisligi muammosi yuzaga keldi. Arab qo‘shiniga mahalliy aholi jiddiy qarshilik ko‘rsatmadi, chunki ko‘p halqlar boshqa davlatlarning hukmronligi ostida edi. Natijada yangi bosib olingan yerlarni o‘z ichiga oluvchi Arab xalifaligi nomi bilan qudratli davlat vujudga keldi.

Arablar hukmronligi o‘rnatilgach, o‘lkada musulmon dini va uning asosida shakllangan islom huquqi qaror topdi. Unga ko‘ra, barcha

musulmonlar muqaddas ilohiy qonun – Olloh tomonidan nozil qilingan Qur’onda yozilgan, rasullulloh hadislarida ifodalangan, fiqhda sharhlangan asosda yashashi lozim edi.

Arablar bosqini arafasida G’arbiy Turk hoqonligi tarkibida, ya’ni hozirgi O‘zbekiston doirasida diniy tarqoqlik – politeizm mavjud edi. Bu yerda xristianlik, manixeylik, buddaviylik, zardushtiylik dinlari hukmronlik qilardi. Turk xalqlari orasida ko‘proq tabiat va ota-onalar ruhiga sig‘inish hamda buddizm keng tarqalgan. Yana shunisi e’tiborli ediki, agar kichkina Arabiston yarim oroli insoniyatning uchta dini – nasroniylik, iudaizm va musulmon dinlarining vatani bo‘lsa, Markaziy Osiyo esa zardushtiylik va buddaviylik dinlarining markazi bo‘lgan. Shuning uchun ham bu joyda islom dinini keng yoyish, uning mavqeini mustahkamlash lozim edi.

Zardushtiylik, buddaviylik va shomonizm kabi dinlar ta’sirida bo‘lgan turklar arablarga qarshi boshqa xalqlar bilan birga kurash olib bordi. Arablar bilan birga ularning madaniyati, tili va musulmon huquqshunosligi ham o‘lkaga kirib keldi. U barcha diniy-huquqiy tizimlarni siqib chiqardi.

VII asrning 20–30-yillariga kelib musulmonlarning islomiy jamiyati to‘la shakllanib bo‘ldi va islom lashkarlari tashkil etildi. Islom dinini keng yoyish maqsadida qo‘shni hududlarga yurishlar amalga oshirildi.

Muhammad vafotidan keyin musulmonlarga boshchilik qilish maqsadida urug‘-qabila va nufuzli savdogarlar orasidan musulmon xalifalari – arab harbiy jamoasining boshliqlari saylandi. Ularning qarorgohi Madina shahri bo‘lgan.

Davlat dastlabki to‘rt xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) davridayoq (632–661-y.) islom dinini yoyish shiori ostida Osiyoning qo‘shni davlatlarini bosib ola boshladi. VII–VIII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika hamda boshqa mintaqalardan tashkil topgan katta hudud egallandi. Xalifalik chegaralari G‘arbda Atlantika okeanigacha, sharqda Xitoy va Janubiy Hindistongacha borib yetib, tarixda eng katta hududga ega buyuk imperiyaga aylandi. Ular dastlab VII asr o‘rtalarida Vizantiya (Suriya, Falastin, Mesopatamiya va Misr) hamda Eronni egallashadi. 651-yilda Xuroson hududlarini egallashga o‘tadilar.

Xalifani «amir al mo‘minin» – musulmonlar amiri hamda sultoni, Xalifaga bo‘ysundirilgan hududlar hukmdorlarini esa «mulk ul atrof» – o‘lkalarning podsholari deb atay boshladilar.

Xalifalar qarorgohi Umaviylar sulolasi hukmronligi davrida (661–750-y.) Damashq (Suriya)da bo‘lgan. Abbosiylar sulolasi davrida (750–1055-y.) poytaxt Bog‘dod (Mesopatamiya) shahri bo‘lgan.



Xuroson arab xalifaligi tarkibiga kirgan sharqiy noiblikka aylanib, uning markazi avval Marv shahri, keyinchalik Balxga ko'chirildi. Hozirgi O'zbekiston yerlarini bosib olish Xuroson noiblari tomonidan ummaviylar sulolasidan bo'lgan xalifa Muoviya I (661–680-y.) davridan boshlandi. Ana shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar tarixchi X. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida, A.R. Beruniy va boshqa tarixchilar asarlarida atroflicha yoritilgan. Arablar Xurosonni, ikki daryo oralig'ini bosib olishda tayanch nuqtasiga aylantirdilar. «Movarounnahr» – «daryo orti» atamasi shu davrdan boshlanib, bizning davrimizgacha yetib keldi.

Arab bosqinchiligiga qarshi O'rta Osiyo podsholarining diplomatik uchrashuvlari ham o'tkazilgan. Biroq boy o'lka boshliqlarining birlashgan holda kurashi amalga oshirilmaydi.

Ubaydulloh ibn Ziyod 673-yilda Xuroson amiri etib tayinlangach, Jayhunddan o'tib, Buxoro yerlariga bostirib kirdi va Boyqand hamda Romitanni egalladi. Undan keyin 676-yilda Sayid ibn Usmon Xuroson amiri etib tayinlandi. U Samaraqandgacha bostirib keldi, o'sha vaqtda bu yerda podsho Tarxun edi. Undan keyin Muslim ibn Ziyod (681–684-y.) Xuroson amiri qilib tayinlangan.

705-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson amiri etib tayinlanguniga qadar, arablar bosqinchiligi ko'proq talonchilik tusidagi sinov yurishlari bo'lgan. Qutayba davridan boshlab esa arablar uzil-kesil istilo qilish, islom dinini yoyish siyosatini olib bordi va Movarounnahrning bosib olinishi bilan yakunlanadi. Qutayba ibn Muslim 705–708-yillar oralig'ida Buxoroni tamomila buysundiradi. O'zining lashkarboshisi Vazir ibn Ayyubni Buxoro amiri qilib tayinladi. 706-yillardayoq Qutayba Zarafshon vodiysiga qo'shin tortadi. 712-yilda Samarqand va Xorazmni qo'lga oladi. 716-yilda Shosh, Farg'ona va Qashg'arga yurish qiladi.

Arablashtirish siyosati amalga oshiriladi. Bosib olingan yerlar arab zodagonlari o'rtasida taqsimlanadi. Dastlabki davrlarda aholi imtiyozlar berish (728-yilgi farmon – xiroj va juzya solig'idan ozod etish), ishontirish yo'li bilan, vaqt o'tishi bilan majburiy ravishda islomga kiritildi. Oqibatda, O'zbekiston hududida musulmon huquqining to'la joriy etilishiga erishildi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mamlakatni dehqonlar va qullarning kuchli qo'zg'olonlari larzaga sola boshlaydi. Bu asta-sekin bosib olingan mamlakatlar – Eron, Kavkaz orti va O'rta Osiyoda xalq ommasining milliy ozodlik harakatlariga aylanib ketdi.

VIII asrning oxiriga kelib Arab davlati taraqqiyotida tarqoqlikka, ajralib chiqishga qaratilgan g'oya shakllanadi. Shu bilan birga xalq qo'zg'olonlari ham uning birligiga ta'sir qildi. Natijada, xalifalik alohida mustaqil davlatlarga parchalanib ketishi yuz berdi.

756-yilda Qurdoba amirligi (929-yildan xalifalik), IX asr boshlarida Marokash bilan Tunis ajralib chiqdi. IX asr o'rtalarida Misr (969-yildan Qohira xalifaligi) mustaqillikka erishadi. IX va X asrlarda Eron (sharqiy qism – Xuroson, g'arbiy) ajralib chiqadi. Movarounnahrda Somoniylar davlati tuziladi. Frotida Movsul sultonligi tashkil topgan. X asr o'rtalarida G'aznaviylar davlati vujudga kelgan. Mazkur yirik davlatlardan tashqari o'nga yaqin kichik amirliklar shaklidagi davlatlar ham vujudga keladi. X asrning o'rtalariga kelib xalifa hokimiyati Arabiston va Mesopotamiyaning Bog'dod atrofidagi bir qismida saqlanib qoladi.

Xalifalikning qolgan yerlari 945-yilda Eron shialari tomonidan bosib olinib, uzoq vaqtgacha boshqariladi. 1055-yilda Bog'dodni saljuqiy turklar egallaydi. Shundan keyin xalifalar faqat diniy hokimiyatga boshchilik qiladi. Xalifalar Bog'dodda mo'g'ullar istilosi, ya'ni 1258-yilgacha yashab keladi. Keyingi davrlarda xalifalar qarorgohi 969-yilda Alining avlodlari – Fotimiylar tomonidan mustaqil xalifalik sifatida e'lon qilingan Qohira (Misr)da faoliyat ko'rsatadi. XVI asrda xalifalikning g'arbiy qismi (Arabiston yarim oroli ham) turk sultonlari tomonidan egallanadi. Turk sultonlari o'zini xalifa deb e'lon qilsa-da, shu davrdan e'tiboran xalifalik barham topadi.

Xalifalik shakllanishi jarayonida Arabistonda ibtidoiy jamoa tuzumi yemirildi. Qadimgi madaniyat o'lkalaridan hisoblangan Mesopatamiya, Suriya va Misr yerlarida feodal jamiyat shakllanayotgan edi. Xalifalik hududida feodalizm taraqqiyoti bir xilda bo'lmagan. Bu bosib olingunga qadar bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan bevosita bog'liq edi. Agar Suriya, Iroq, Misrda feodalizm keng quloch yoygan bo'lsa, Arabistonning ko'pchilik qismida hali urug'chilik tuzumi qoldiqlari saqlanib qolgan.

Arab xalifaligining ijtimoiy tuzumi muslimlar, zimmiylar, shaharliklar, savdogarlar, feodallar, dehqonlar, hunarmandlar, qullardan iborat bo'lgan. Feodallar orasida aslzoda musulmon zodagonlari, ya'ni Muhammad payg'ambar xonadoniga mansub shaxslar hamda uning izdoshlari nufuzli obro'ga ega edilar. IX asrga kelib uning sahobalari, qarindosh-urug'lari bir necha ming kishini tashkil etgan.

Yerga egalik munosabatlarida davlat mulkchilik shakli hukmron bo'lib, barcha yerlar xalifaning mulki hisoblangan. Katta yer maydonlari

alohida shaxslarga yoki jamoalarga foydalanish uchun berilgan. Bunday tartib G'arbiy Yevropada feodal tarqoqlik davrida nomigagina mavjud bo'lgan bo'lsa, Sharqda uzoq vaqt davomida o'zining amaliy ifodasini topgan. Unumdor yerlar va suv ta'minoti markazdan tartibga solingani sababli davlat mulkchiligi uzoq vaqt barqaror bo'lgan.

Xususiy yerlar toifasiga zodagonlarning yirik mulk yerlari, o'rta hol va mayda feodallarning yerlari ham kirgan. Feodallarga davlat oldidagi xizmatlari uchun beriladigan (iqta – benefitsiyani eslatadi) yerlari miqdori ko'payib borgan. Yer egalari davlat boshlig'idan maosh, tuhfarlar va nafaqalar olib turgan.

Dehqonlarni ekspluatatsiya qilish tarzi asosan xalifa foydasiga soliq undirish vositasida amalga oshirilgan. Soliqlar daromad bilan muvofiq bo'lgan. Ba'zan xalifalar o'z yaqinlariga mamlakatning ma'lum mintaqalaridan o'z foydalariga soliq undirish huquqini ham bergan.

Dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholi ko'pgina etnik guruhlariga ajralib ketdilar. Tub arablar yangi joylarda mas'ul harbiy lashkarlar himoyasida o'rnatilib oldilar. Ular ba'zi soliqlardan ozod bo'lib, alohida ustunlik va imtiyozga ega edi.

Xalifalikda shahar aholisi alohida o'rin egallaganlar. Ularning orasida shahar aholisining katta imtiyozga ega bo'lgan tabaqasi badavlat savdogarlar, hunarmandlar, mayda tijoratchilar hisoblangan. Shaharlar mamlakatning alohida mintaqalari o'rtasidagi barqaror iqtisodiy siyosatini yuritishda markaziy hokimiyatni qo'llab quvvatlardi.

Xalifalikning davlat apparati markazlashtirilgan bo'lgan. Sababi mamlakatdagi yer maydonlarining ko'p qismi davlat boshlig'ining qo'lida edi. Bog'dod xalifaligi davriga kelib mamlakatda feodalizm to'la qaror topgan. Iqtisodiy jihatdan muhim hisoblangan mintaqalarda sug'oriladigan yerlardan foydalanilgan. Bu esa suvning markazdan taqsimlanishini taqozo qilgan.

Oliy hokimiyat ruhoniylar imomat va dunyoviy amirlikdan iborat bo'lib xalifaga bo'ysungan. Birinchi xalifalarni musulmon zodagonlari o'z oralaridan saylaganlar. Bu davrda davlat harbiy-demokratik markazlashgan teokratik respublika shaklida bo'lgan.

Xalifa saroyida sharq desptiyyasining ko'p asrlik an'analarini o'zida aks ettirgan mumtoz va muhtasham taomillar hukm sura boshladi. Xalifa hokimiyati (diniy – imomat va dunyoviy – amirlik) cheklanmagan. Aslida esa saroy to'ntarishlarini amalga oshiruvchi yirik feodallar bilan hisoblashishga majbur bo'lgan.

Damashq (Ummaviylar) xalifaligi davrida hokimiyat nasldan-naslga meros bo'lib o'tadigan sharq despotik monarxiyasiga aylangan. Bu sulolaga Muoviya (Suriya noibi – Usmonning yaqin qarindoshi) asos solgan. Bu sulola vakillari o'zining doimiy gvardiyasi – 160 000 nafarga yaqin qo'shinga ega bo'lgan. U katta siyosiy ahamiyat kasb etgan va harbiy ishga yoshligidan o'rgatilgan oq tanli qullardan tuzilgan.

Yuqori mansabdor shaxslar xalifa tomonidan tayinlangan va bevosita uning oldida hisobot bergan. Xalifa huzurida vazir – bosh maslahatchi va yuqori mansabdor shaxs maqomiga ega bo'lgan. Ular davlat boshqaruvidagi mansabdor shaxslar ichida eng ulug'i hisoblangan. Islom huquqiga muvofiq vazirlar ikki xil bo'lgan. Ulardan biri keng hokimiyat vakolatlariga ega bo'lsa, ikkinchisiga cheklangan vakolatlar berilgan, ya'ni faqat xalifa buyruqlarini bajargan. Zodagonlar himoyasiga tayanib vazirlar asta-sekin bevosita boshqaruvni o'z qo'llariga oldilar va shuning bilan birga xalifalarning mavjud hokimiyatini ma'lum darajada cheklab qo'ydilar.

Abbosiylar davrida Eronning kuchli ta'sirida buyuk vazir – xalifaning birinchi vaziri unvoni ta'sis etiladi. Bu lavozimga odatda eronliklar tayinlangan va mazkur martaba meros tariqasida o'tgan.

Saroyda muhim mansabdor shaxslar qatoriga xalifaning shaxsiy qo'riqchisi, mirshablar boshlig'i hamda mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qiluvchi maxsus amaldor kirgan.

Xalifalikning boshqaruv organlari Ummaviylar sulolasi davrida ancha murakkablashgan. Egallangan mamlakatlar ustidan harbiy va moliya sohaları ustidan nazorat qilish uchun oliy boshqaruv organlari ta'sis etilgan. Xo'jalikning ko'pgina sohalarini boshqarishda ham aynan Eron va Mesopatamiya an'alaridan foydalanilgan.

Markaziy boshqaruvni maxsus hukumat idoralari – devonlar amalga oshirardi. Bular orasida doimiy ravishda soni o'sib borgan quyidagi devonlarni qayd etib o'tish mumkin:

- devon ul-jund (harbiy ishlar devoni) – qo'shinni qurol-aslaha va jihozlar bilan ta'minlagan. U xalq lashkari va yollanma askarlar ro'yxatini tuzuvchi amaldorlar hamda harbiy xizmatlar uchun belgilangan maosh hamda yer taqsimotini yuritgan va nazarot qilgan;

- devon ul-xaraj (markaziy moliya devoni) – turli soliqlar va pul, hamda natural holda xazinaga tushadigan to'lovlar hisobini yuritish bilan shug'ullangan;

- devon ul-barid (yo'l va pochta xizmati devoni). U pochta va davlat yuklarini yetkazib berish, yo'llar, karvon-saroylar, sardoba va quduqlar

qurilishi hamda ta'mirlanishini, shuningdek ishlashini nazorat etish bilan shug'ullangan. Bu boshqarma markazdan joylarga va aksincha, ma'lumotlar yetkazib turishning eng tezkor va yagona tashkiloti hisoblangan. Pochta muassasasi aholi va mahalliy hokimiyatning siyosiy kayfiyati va faoliyati ustidan yashirincha nazorat olib borgan. Bu uning ahamiyatini oshirgan. Shuning uchun ham pochta amaldorlari viloyatlardagi mansabdorlarga bo'ysunmaganlar. Maxfiy kuzatuvni nafaqat pochta xizmatchilari, balki maxsus vakolatga ega savdogarlar ham amalga oshirgan. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, irrigatsiya qurilishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus mahkama ham faoliyat ko'rsatgan<sup>1</sup>.

Mahalliy boshqaruv sohasi ham ilgari holatida deyarli o'zgarishsiz qoldiriladi (masalan, sobiq Vizantiya va Eron viloyatlarining mahalliy ma'muriy moliya muassasalari). Quyi boshqaruv tizimida dehqonchilik va sug'orish ishlari umumiy tartib asosida boshqarilgan.

Xalifalik ma'muriy-hududiy jihatdan dastlab noibliklarga bo'lingan. Abbosiylar hukmronligi davriga kelib deyarli mustaqil boshqariluvchi viloyatlarga taqsimlangan. Noibliklar xalifa oldida hisobdor bo'lgan harbiy noib – amirlar tomonidan, viloyatlar o'z navbatida amirlar tomonidan boshqarilgan.

Movarounnahr ham ma'muriy-hududiy jihatdan arab xalifaligi tarkibiga qo'shib olingan. Uni boshqarish boshqa hududlar kabi xalifaning Xuroson va Movarounnahr bo'yicha noibiga topshirilgan. Movarounnahr dastlab arablar orqali to'g'ridan-to'g'ri boshqarilgan. Noyib-amirlar harbiy sohani boshqargan va hududdagi qurolli kuchlarni idora etgan. Maxsus yollanma otrad (mufriza)lar muxtasiblar tomonidan boshqarilib, politsiya xizmatini bajargan. Amirlarga o'z navbatida markaziy moliya boshqarmasining mahalliy apparati bo'ysungan.

Shaharlar va boshqa aholi istiqomat qiluvchi hududlar hokimlar tomonidan boshqarilgan. Ular lavozimiga noib tomonidan tayinlangan va lavozimidan ozod etilgan. Mahalliy hokimlarning bosh vazifalari soliq yig'ish va joylarda tartibni ushlab turishdan iborat bo'lgan. Katta shaharlarda arab harbiy qismlari joylashgan.

Odil sudlov faoliyatida ruhoniylarning imtiyozlari yuqori bo'lgan. Amirlar va ularning amaldorlari dunyoviy hokimiyat namoyandalari bo'lsalarda, rasman sud faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lmaganlar.

---

<sup>1</sup> Qarang: Семенов В.Ф. Ўрта асрлар тарихи. – Т., 1973. – Б. 143.



Davlat boshlig'i bo'lgan Xalifa oliy sud hisoblangan (Qozi ul-quzzot). U har qanday ishni ko'rib chiqish va hukm chiqarish vakolatiga ega bo'lgan. Ammo, amalda bu holat juda kam uchraydi. Taniqli ilohiyot namoyandalari hay'ati haqiqiy oliy sud hisoblanib, ayni paytda, huquqshunoslar sifatida tan olinganlar. Ular Xalif nomidan ish ko'rib, qozilarni va maxsus vakolatlarga ega bo'lgan mansabdorlarni tayinlaganlar. Maxsus vazifadorlar joylardagi qozilar faoliyatini nazorat qilganlar. Qayd etilgan har ikkala amaldorlar ham ruhoniylar namoyandalariidan tayinlangan.

Qozilarning vakolatlari nihoyatda keng bo'lib, ular barcha turdagi sud ishlarini muhokama qilganlar, sud hukmlarining ijrosini nazorat qilganlar, mahkum etilganlarning jazo o'tash joylari ustidan kuzatuv o'rnatganlar, vasiyatnomalarni tasdiqlaganlar va yerdan foydalanishning qonunga muvofiqligini tekshirganlar.

Sud qarorlari va qozining hukmlari asosan qat'iy bo'lib, shikoyatga o'rin qoldirmagan. Xalifaning o'zi yoki uning vakolati vakillarigina istisno ravishda qozining qarorini o'zgartira olganlar. G'ayrimusulmon aholi odatda o'zlarining ruhoniylari tomonidan muhokama qilinganlar.

Dastlabki davrlarda harbiy kuchlar musulmon jamoalari guruhlar va ularga qo'shilgan ko'ngilli qabilalar vakillaridan tashkil topgan. Shu davrdanoq yengil otliqlar qo'shinining asosiy turini tashkil etgan. Ular nihoyatda tezlik bilan uzoq masofalarni bosib o'tgan va qo'qqisdan zarbalar berishga qodir bo'lgan. Asta-sekin ko'ngillilar qo'shini o'rmini yollanma qo'shin egallagan. Yollanma qo'shindan ommaviy harakatlarni bostirishda foydalanilgan. Yurish vaqtida u qo'shinining o'zagini tashkil etgan. Janglarda qo'shin asosan ko'ngilli arablar va musulmonlar hisobiga to'ldirilgan.

## **2-§. Musulmon huquqiy tizimining xususiyatlari**

Arab xalifaligida O'rta asr Sharqining eng muhim huquqiy tizimlaridan biri hisoblangan musulmon huquqi (shariat) vujudga keldi va shakllandi. Shariatning ta'siri va faoliyat doirasi faqat Arabiston hududida cheklanib qolmasdan, balki undan tashqari mintaqalarda ham keng quloch yoydi. Islom dini bilan birga shariat normalari Old va O'rta Osiyoda, Shimoliy Kavkaz va Kavkazorti, Sharqiy va G'arbiy Afrika hamda Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning qator mamlakatlarida keng tarqaldi. Uning barcha tarmoqlari va muassasalari Arab xalifaligining barcha mintaqalaridagi singari amalga kiritildi va shariat asosiy huquqiy norma tusini oldi.

Islom huquqi o'zidan oldingi Sharq mamlakatlari huquqining ko'pgina unsur va jihatlarini, jumladan islomgacha bo'lgan Arabiston va bosib olingan hududlarda mavjud huquqiy odat va an'analarni o'zida mujassamlashtirdi. Arab xalifaligining dastlabki o'n yilligida, ya'ni shakllanish davrida shariat qabila va davlatning o'ziga xos jihatlarini, mazmun va mohiyat jihatidan qator odatlar va huquqiy normalarni o'zida aks ettirgan.

Shariat – to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik ma'nolarini anglatib, islom diniy huquq tizimidir. Unda sof huquqiy masalalardan tashqari, axloqiy normalar va amaliy diniy talablarga ham qonuniy ruh singdirilgan. Shariat bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish Qur'on asosida amalga oshirilgan.

VIII asrdan e'tiboran turli musulmon huquqiy maktablari shakllana boshlagan. XII asrga kelib musulmon huquqi nazariyasining to'la shakllanishi ushbu huquq tizimini tarkibiy qismlarga bo'lish, uning normalarini tasniflash masalalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Amaliyotda u yoki bu masalani hal qilishda asosiy manbalarda tegishli qoida bo'lmasa, masala hal qilinayotgan hududda hukmronlik qilayotgan musulmon huquqi maktabi ta'limotiga, yirik huquqshunos olimlarning asarlariga shu mintaqada keng tarqalgan tayanib hukm yoki qaror chiqarish qoidaga aylandi.

Musulmon huquqi tuzilishini tavsiflashda uning normalarini tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Musulmon huquqshunoslari musulmon huquqi normalariga shunday ta'rif beradilar, ya'ni musulmon huquqi normasi bu e'tiqod etuvchilar uchun bevosita Olloh tomonidan vahiy yuborish yo'li bilan, yoki Olloh irodasini yirik shariat peshvolari tomonidan sharhlash orqali chiqarilgan xulosadan iborat. Har qanday norma ko'rsatib o'tilgan manbalardan biriga asoslanishi lozim.

Musulmon huquqining boshqa huquqiy tizimlardan, jumladan roman-german huquqiy tizimidan muhim farqi shundaki, uni sohalarga bo'lish manbalarga bog'liq emas. Bitta manba musulmon huquqining bir necha sohasi uchun asos, zamin sifatida xizmat qilishi mumkin. Musulmon huquqining shakllanish davrida uni sohalarga bo'lish masalasi ko'tarilmagan. Dastlab huquq normalarini mazmuniga qarab guruhlashga harakat qilingan. Musulmon huquqi nazariyasining to'la shakllanishi davriga kelib uning normalarini sohalarga bo'lish boshlandi. Lekin musulmon huquqi normalarini alohida sohalarga taqsimlash borasida yakdillik bo'lmagan. Bu hol hozirgacha saqlanib qolmoqda. Bir qator tadqiqotchilar musulmon huquqi normalarini uchta katta guruhga

bo'ladilar, yoki musulmon huquq tizimi o'z ichiga musulmonlarning uch asosiy hayot tarzini tartibga soladigan norma va tamoyillarni qamrab oladi: 1) musulmonlar bilan Olloh o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar; 2) kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi normalar; 3) davlatlar yoki dinlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar.

Musulmon huquqining manbalarini Qur'oni karim, sunnat, ijmo' hamda qiyos tashkil etadi. Qur'ondagi 6200 ta oyatning aksariyati diniy-axloqiy masalalarga taalluqli, ma'lumotlarga ko'ra 300 dan ortiqrog'i huquqiy xarakterga ega. Musulmon faqihlari huquq sohasidagi bahslar yuzasidan kelishilgan fikr (oldin Qur'onga tavsir beriladi, so'ng esa ijmo')ni bera boshlaganlar. Qiyos yoki taqqoslash bo'yicha xulosa chiqarish usuli ma'lum me'yorni, agar taqqoslashning maqsadi va asosi mazkur me'yor maqsadi va asosiga mos tushsa, o'zi bevosita nazarda tutgan hodisaga nisbatan qo'llash imkonini beradi.

Musulmon huquqining Sunniylik mazhabi va uning maktablari quyidagicha: xanafiylar, molikiy, shofi'iyalar, xanbaliylar. Shia mazhabi va maktablari esa imomat, ismoiliylar va zaydiylardan iborat.

Musulmon huquqi maktablarining dastlabki soni besh yuzga yaqin bo'lib, ular huquqiy manbadan foydalanish darajasi, shart-sharoit va sharhlanishi hamda joylardagi urf-odatlarining hisobga olinishiga ko'ra bo'lingan.

Musulmon huquqi normalarini turlash, sohalarga bo'lish eng muammoli masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu masalalarga yondashish va hal qilish turli davrlarda har xil oqimga mansub olimlar tomonidan turlicha bo'lgan. Musulmon huquqshunoslari huquq normalarini manbalariga qarab ikkita katta guruhga bo'ladilar.

Birinchi guruh – Qur'oni Karim va hadislar normalari. Ushbu guruhga mansub normalar eng ishonchli, haqiqiy normalar sifatida qaraladi.

*Ikkinchi guruh* – ijmo' hamda qiyos normalaridir.

Musulmon huquqida normalarning mazmuni, ya'ni ifodalanish shakliga ko'ra insonning u yoki bu harakatini baholashga qaratilgan normalarni quyidagi beshta turga ajratish qabul qilingan: majburiy; tavsiya etuvchi; ruxsat beruvchi; tanbeh beruvchi; (biror hatti-harakatni qilishdan qaytaruvchi normalar); taqiqlovchi.

Arab xalifaligida aholi tabaqa mansubligiga qarab toifalarga ajratilmagan. Chunki shaxs huquqiy holati uning diniy e'tiqodiga qarab belgilangan. Shariat bo'yicha faqat musulmonlarga to'la fuqarolik

huquqiy maqomiga ega bo'lgan. Masixiy (xristian) yoki yaxudiy diniga e'tiqod qiluvchi shaxslar jamiyatda ancha past mavqega ega bo'lib, ular davlatga og'ir soliqlar to'lashga majbur bo'lganlar. Shariat normalari ularga nisbatan jinoyat sodir qilganda yoki musulmonlar bilan shartnoma (bitim) tuzgan hollardagina qo'llanilgan. Feodal munosabatlarning rivojlanishi qullar huquqiy maqomiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ular shariat bo'yicha huquq subyekti hisoblanmagan, ammo xo'jalarning roziligi bilan ular mulk orttirishi va savdo faoliyatini amalga oshirishi mumkin bo'lgan.

Musulmon huquqshunosligida fuqarolarning huquqiy layoqati, va rasmiy muomala huquqiga ega bo'lish va o'z xatti-harakati uchun qonun oldida javobgarlik masalasi mukammal ishlab chiqilgan. Balog'at yoshiga yetgan va aqliy sog'lom bo'lgan shaxslarga to'la ma'nodagi fuqarolik huquqi va muomala layoqati maqomi berilgan. Balog'atga yetganlik to'g'risidagi xulosa chiqarish va belgilash har biri alohida hollarda qozilar ixtiyoriga berilgan. Balog'at yoshiga yetmagan, aqlan zaif, mastlik holatida bo'lgan shaxslar uchun huquqiy layoqatning cheklab qo'yilishi tushunchasi ham aniq aks ettirilgan.

Shariatda ashyo va turli xildagi mulkiy munosabatlarga tegishli normalar ham muhim o'rin tutadi. Musulmonlar alohida turdagi ba'zi narsalarga mulkiy egalik qilish huquqidan mahrum etilgan. Bular: havo, dengiz, sahro, masjid va shunga o'xshashlar. Bundan tashqari, musulmonlar uchun harom hisoblangan may, cho'chqa go'shti, islom aqidalariga zid kelgan kitoblar va boshqalar ham taqiqlangan. Bunday harom narsalar zabt etish paytlarida tag tomiri bilan quritib yuborishga harakat qilingan.

Mulkchilikning yerga egalik qilishning munosabatlariga ham katta e'tibor berilgan. Davlat mulki alohida guruhlarga ajratilgan. Xususiy yerlar, tashlandiq yerlar, yaroqsiz maydonlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Shariatda mulkchilik huquqi va uning vujudga kelishi usullari mukammal tarzda aks ettirilgan. Ammo, ularning ba'zilari haqida alohida mazhablarda turli fikrlar mavjud bo'lgan. Zabt etilgan yerlar umumiy qoidaga muvofiq davlat mulki sifatida qaralib, xalifalar va amirlar ixtiyoriga o'tgan. Dushman qo'lidan kuch vositasida olib qo'yilgan mulklar bir necha turlarga bo'lingan. Birinchisi, qo'lga kiritgan shaxslar mulkiga aylangan, ikkinchisi, davlat ixtiyoriga topshirilgan, uchinchi turi, masjidlar va shu kabilar ixtiyoriga berilgan. Mulkka egalik qilishning yana quyidagi turlari ham keng tarqalgan: vorislik; shartnoma va tanib olingan ashyolar.

Arab xalifaligida tarkib topgan mulkchilik munosabatlari izchil rejalashtirilgan va shariat normalari yordamida himoya qilingan. Xususiy mulkchilik huquqi Olloh tomonidan berilgan inoyat hisoblangan, unga doimiy va cheklanmagan, mutloq va mustahkam deb qaralgan. Arab xalifaligida feodal munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari yerga egalik qilishning mulkchilik huquqini tartibga soluvchi shariat normalarida o'z aksini topgan. Ummaviylar (661–750-y.) sulolasi davrida yerning asosiy qismi davlat yoki boshqa jamoalar mulki xisoblangan. Shu bilan bir qatorda musulmon jamoalarining ilk hududlarini tashkil qiluvchi yerlar (Makka va unga tutash yerlar) – xijoz alohida huquqiy maqomga ega edi. Bu yerlarda faqat musulmonlar o'rnashishi mumkin edi. Abbosiylar hukmronligi davrida yerga egalik qilishning harbiy va iqta shakllari ham tarqalgan. Iqta yer egalari o'z qo'li ostidagi yerlarda yashovchi aholidan o'z hisobiga soliq undirgan. Vaqt o'tishi bilan iqta yerlari nasldan naslga o'ta boshladi. Natijada u o'z xususiyati bilan mohiyat jihatidan xususiy mulkchilik huquqi asosida belgilangan yerlarga yaqinlashib qolgan.

Mulkiy munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan shariatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri vaqfdir. Bunday mulklar mulkdor tomonidan o'z xohishi bilan biror diniy muassasaga yoki xayriyehson tarzida berilgan. Vaqf yerlari har qanday davlat soliqlaridan ozod etilgan.

Shariatda rim huquqidan farqli o'laroq majburiyatlar haqida umumiy ta'limot mavjud bo'lmagan. Lekin shartnoma huquqining asosiy masalalari har tomonlama ishlab chiqildi. Majburiyatlar muddatli va muddatsiz, jazoli va jazosiz, ikki tomonlama va bir tomonlamaga bo'lingan. Arab jamiyati uchun ayniqsa alohida xususiyatga ega bo'lgan o'ziga xos bir tomonlama majburiyatlar, nazr (ahd) keng tarqalgan. Shariat bo'yicha shartnoma ikki tarafning o'zaro roziligi natijasida vujudga keladigan aloqa hisoblanib, mulkchilikning tengsizlik sharoitlarida yaqqol rasmiy xususiyatga ega bo'lgan. Bitim shartlari rasmiy va og'zaki tarzda ifoda etilgan. Shartlar bajarilishi qat'iy belgilangan bo'lib, o'z navbatida muqaddas hisoblangan. Shariatda bitim va shartnomalarning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular: oldi-sotdi, ijara, qarz, tuhfa, yuk, hamkorlik, ittifoq va boshqalardan iborat bo'lgan. Bularning hammasiga alohida-alohida tarzda o'zaro yuridik munosabatlarning ko'rinishi sifatida qaralgan.

Shariat va islom dini uylanmaslik, bo'ydoqlikka salbiy holat sifatida qaraydi, nikoh esa diniy majburiyat hisoblanadi. Oila va nikoh masalasi nihoyatda mukammal ishlab chiqilgan. Majburiyatlar jiddiy va o'ta



mas'uliyat bilan izchil ifoda etilgan, uning juz'iy jihatlariga ham e'tibor bilan yondashilgan.

Shariatda nikohning bekor qilinishi sabablari va uning tartib-qoida hamda rasm-rusumlari mufassal ifoda etilgan. Shariatda o'z tartibi va huquqiy oqibatlari jihatidan taloqning bir necha turlari mavjud bo'lgan. Jumladan, uzil-kesil bo'lmagan taloq turi ham bo'lib, u o'ziga xos sinov muddatini o'tashi lozim bo'lgan. Nikoh va nikohning bekor qilinishi «Hidoya» va boshqa musulmon huquqi manbalarida batafsil bayon etilgan. Bu murakkab va mufassal jarayonlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda (2 bob, 237 oyat) erkak xotinini taloq qo'ygan holda shariat taqozosi bo'yicha unga muayyan mulk va ashyo ajratib berishi lozim bo'lgan. Ayol eridan ajrashishi uchun asosli dalillar ko'rsatishi va faqat qozi orqaligina bu ishni amalga oshirish mumkin bo'lgan. Ammo buning shartlari qat'iy belgilab qo'yilgan, masalan: er jismoniy nuqsonga molik bo'lsa, xotini bilan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, yoki uning hayot kechirishi uchun yetarli sharoit yaratib bera olmasa va hokazo.

Vorislik huquqi nihoyatda murakkab va muammoli bo'lib, alohida mazhablarda bir-biridan keskin farq qilgan. Vorislik asosan ikki yo'l, qonuniy va vasiyat qilish yo'llari bilan amalga oshirilgan.

Jinoyat va jazoga tegishli normalar musulmon huquqida eng sust ishlab chiqilgan holatlar hisoblanadi. Asosiy jinoyatlar va ularga mo'ljallangan jazolar bevosita shariatning asosiy manbalariga taalluqli. Eng avvalo, Muhammad payg'ambarimiz xatti-harakatlari va shakllaridan kelib chiqib jazo ko'lami belgilangan va jinoyatning og'ir-yengilligi aniqlangan.

Shariat qonunlarini mensimaslik davlat a'yonlari tomonidan o'ta xavfli jinoyatlar hisoblanib, xudoga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar deb tan olingan va bu turdagi jinoyatlar afv etilmagan. Islom dinidan qaytganlar o'lim jazosiga hukm qilingan va mol-mulki musodara etilgan. Davlat boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, qo'zg'olonlar va hokimiyatga qarshilik ko'rsatish harakatlari ham shafqatsiz jazolangan. Yana shunday jinoyatlar turkumiga, og'ir diniy gunoh deb hisoblangan talonchilik (talonchilik maqsadida qilingan qurolli tajovuz), o'g'irlik, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, fahsh ishlari bilan shug'ullanish ham kirgan.

Ayrim jinoyatlar turkumi uchun urug'-qabila tuzumi urf-odatlaridan kelib chiqqan holda gunohkorni bevosita jabrlanuvchi tomonidan jazolashga yo'l qo'yilgan. Bunda qonli qasos kelib chiqqan, qotil tovon to'lash evaziga qutulib qolish imkoniyati ham shariatda ko'zda tutilgan.

O'g'irlik paytida qo'lga tushgan o'g'rini o'ldirish jinoyat hisoblanmagan. Agar aybdor bexosdan tan jarohati yetkazgan bo'lsa, faqat tovon to'lash bilangina cheklanilgan.

Shariat bo'yicha qasos olish, qonga-qon, jonga-jon qonuni mustahkamlangan va unga yo'l berilgan. Narsa yoki pul bilan bunday jazodan qutulish choralari ham belgilangan. Ushbu usul agar jabrlanuvchining qarindosh urug'lari jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash maqsadida rozi bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilgan (tovon miqdori 100 ta tuya yoki 1000 dinordan iborat bo'lgan). Shariatda og'ir jinoyatlar uchun shafqatsiz jazo turlari ham belgilangan.

Keyingi davrlarda sinfiy munosabatlarning taraqqiy topishi va feodal jamoat tartibini mustahkamlash uchun yengil tan jarohati, beboshlik, poraxo'rlik, qimor o'yinlari va shu kabilar jinoiy xatti-harakatlar sifatida qaralib, sud muhokamasi vositasida jazoga mahkum etila boshladi.

Qator jinoyatlar uchun belgilanadigan o'lim jazosi osish yoki tanani nimalash yo'li bilan ommaviy ravishda, ya'ni omma ko'z oldida amalga oshirilib, so'ngra o'lik tana xalqning ommaviy g'azabiga havola qilingan. Suvda cho'ktirish yoki tiriklayin ko'mish jazo turlari ham mavjud bo'lgan. Tana va tana a'zolariga jarohat yetkazish bilan jazolash usuli ham keng tarqalgan. Qo'lni kesish, savalash, toshbo'ron qilish, ko'zga tortish va boshqalar shular jumlasidandir. Qamoqda saqlash Arab xalifaligida odatda sudgacha bo'lgan vaqtda amal qilgan. Asta-sekin jazo shakliga kirib borgan va undan umrbod qamoq jazosiga hukm qilishda foydalanilgan.

Musulmon huquqida sharmanda qilish usuli bilan jazolash turlari ham mavjud bo'lgan. Bularga: soqolini kesib qo'yish, salla o'rash huquqidan mahrum qilish, o'lkamiz hududida mavjud bo'lgan jazolash turlaridan biri eshakka teskari mindirish kabi boshqa tahqirlash tanbehlari ham mavjud bo'lgan. Jamiyat uchun unchalik xavfli bo'lmagan kichik jinoyatlar uchun badarg'a qilish jazosi ham qo'llangan.

Arab xalifaligi davlati va huquqini o'rganish asnosida uning keyingi davrlardagi holatiga to'xtalib o'tish lozim. Musulmon huquqi o'zining murakkabligi, serqirraligi, manbalari ko'pligi, turli yo'nalishdagi huquq maktablarining mavjudligi bilan boshqa huquqiy tizimlardan farq qiladi. Musulmon huquqining O'zbekiston hududida yoyilishi, mamlakat hayotida mustahkam o'rin egallashi xalifalikning mintaqada olib borgan siyosati, islom dinini yoyish borasidagi sa'y-harakati bilan uzviy bog'liq.

Movarounnahrdan yetishib chiqqan huquqshunos olimlar musulmon huquqi nazariyasi va amaliyoti rivojiga katta hissa qo'shganlar. Ularning samarali faoliyati tufayli musulmon huquqining turli soha va institutlariga oid asarlarning yaratilishi uning nazariy zaminini mustahkamladi.

O'zbekiston hududida Hanafiylar huquq maktabi ta'limotining keng yoyilishi, oqibat natijada barcha huquqiy muammolarni ushbu maktab namoyandalari fikr-mulohazalariga tayangan holda hal qilish bilan bir qatorda, mintaqada musulmon huquqidan tashqari odat huquqi va ijobiy huquq normalarining ham amal qilishiga imkoniyat yaratdi. O'tgan qariyb ming yillik davr mobaynida musulmon huquqi nazariyasi, amaliyoti, manbalari, soha va institutlarida keskin o'zgarish yuz bermadi.

---

## V BOB. IX–XIII ASRLARDA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ

### 1-§. IX–XIII asrlarda Movarounnahrda davlatchilikning rivojlanishi

VIII–IX asrlarda Arab xalifaligi o‘ndan ortiq mustaqil davlatlarga bo‘linib ketgan. Arab xalifaligining sharqiy noibligi bo‘lgan Xuroson IX asrning o‘rtalariga kelib qariyb mustaqil davlat sifatida boshqarilgan. O‘rta Osiyo xalqlarining arablar hukmronligiga qarshi kurashi kuchayishi natijasida o‘lkada mahalliy hukmdorlar hokimiyati o‘rnatildi.

Arablar xalifaligi davrlaridanoq ikki daryo oralig‘i Buxoro amirligi tomonidan boshqarila boshlagan. Bu yerda bir vaqtning o‘zida Xuroson noibi tomonidan tayinlangan amir va Buxoro podshosi faoliyat yuritgan.

Xuroson noibligi tarkibidagi Movarounnahrning barcha viloyatlari Bidun Buxorxudotning avlodlaridan mahalliy hukmdor sulolalar – Tohiriylar va Somoniylar<sup>1</sup> tomonidan boshqarilgan. Ular Xuroson noibiga bo‘ysunuvchi ikkinchi darajali hokim – noiblar hisoblangan. Viloyatlar ularga sodiqligi uchun in‘om qilingan mulk maqomida bo‘ladi. Hukmron sulola vakillari, ya‘ni noiblar joylarda chaqa pul (fulus) zarb qilish huquqiga ega edilar.

Movarounnahrda Somoniylar vakillarining mamlakatni birlashtirishga qaratilgan harakatlari 856-yildan boshlandi. Xuroson noibiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan buxoroliklarning taklifiga binoan Ismoil Somoniy (874–907-y.) Buxoroga noib etib tayinlandi. U kumush dirhamlarni zarb qildirib, 888-yilda Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylandi.

Somoniylar davlati va huquqi, uning ijtimoiy-siyosiy tuzumi O‘zbekiston tarixida muhim davrlardan birini tashkil qilib, ko‘plab o‘zgarishlar shu davlat nomi bilan bog‘lanadi. Chunonchi, Somoniylar davridan keyin hozirgi O‘zbekiston hududida davlat va huquq masalalari Qoraxoniylar, Saljuqiylar va undan so‘ng Xorazmshohlar davlati bilan bevosita bog‘liqdir.

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Somoniylar xonadoni asoschisi Shimoliy Afg‘onistonning Balx viloyatidan bo‘lgan yer egasi, dehqon Samonxudot. Bu sulola o‘zini Eronning qadimgi podsholari Sosoniylardan kelib chiqqanligini da‘vo qiladi. Qarang: *Босворт К.Э. Мусульманские династии.* – М., 1971. – С. 145.

Shu davrda arab xalifaligiga va Eronga mos bo'lgan markaziy boshqaruv organlar hisoblangan mahkamalar, davlat idoralarining devonlar tizimi, organlariga ham kirib kelgan. Keyingi davrlarda, ya'ni XX asrga qadar bugungi O'zbekiston hududida tashkil topgan davlatlarda mustahkam o'rin olgan.

Davlatchilik an'analari singari islom huquqi ham yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, islom huquqi mahalliy sharoitdan kelib chiqib takomillashtirib borildi. Ko'pgina munosabatlar aynan musulmon huquqi orqali tartibga solinib borilgan. Islom dini xalq tomonidan e'zozlanib kelgan.

**Somoniylar davlatining** markazi Buxoro shahri bo'lib, tarkibiga Movarounnahr, Xuroson va Eronning sharqiy hamda shimoliy hududlari kirgan. Mazkur davlat yuz yilga yaqin faoliyat yuritgan. Somoniylar davlatining eng rivojlangan davri Ismoil Somoniy hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Abdumalik davriga kelib turkiy lashkarboshilar mavqei kuchayadi. Somoniylar nomigagina hukmron hisoblanadi. Keyingi davrlarda ichki ziddiyatlar tufayli davlat zaiflashadi. Hukmron sulolaning cheklanmagan hokimiyatga intilishlari natijasida mahalliy zodagonlar va aholining norozilik kayfiyati uyg'onadi. Oqibatda Somoniylar davlati tarkibiga kirmagan va qo'shni bo'lib yashovchi turkiy qabilalardan qarluqlar va qoraxoniylarning kurashlari natijasida yemiriladi.

**Qoraxoniylar** X asrning ikkinchi yarmida Yettisuvda o'z davlatlarini tuzgan. X asrning oxirida Qoraxoniylarning Movarounnahrda yurishi boshlanadi. Sulola asoschisi turkiy yag'mo urug'idan bo'lgan Abulqosim Sotuq Bug'roxon (Qoraxon, qora – «qudratli» ma'nosida) Buxoroni egallab, Movarounnahrda o'z hokimiyatini mustahkamlaydi. Bu davlat o'z tarkibida Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Janubiy Tyanshan tog'lari hududi va Movarounnahrni birlashtiradi.

Ibrohim ibn Nasr (Bo'ri Tegin) davrida (1052–1068-y.) Movarounnahrning bosh kenti Samarqand bo'lgan. U Sharqiy Turkistonga bo'ysunmagan mustaqil davlatga aylangan. Bu katta hoqonlik maqomida bo'lib, poytaxt shaharlar turli davrlarda o'zgarib turgan. Ibrohim ibn Nasr Movarounnahr hukmdori Alp Teginning unvoniga baravar keladigan «Tamg'ach Bug'roxon» unvonini qabul qiladi.

XI asrning ikkinchi yarmida davlat Saljuqiylar tomonidan bosib olinadi. Sulton Sanjar davrida (1118–1157-y.) Qoraxoniylar ularning vassaliga aylanadi. Bu davrda Samarqanddagi qoraxoniylar oliy hokimiyati Saljuqiy sultonlar tomonidan belgilanadi. O'zaro ichki nizolar, urushlar natijasida zaiflashib qolgan bu davlat 1212-yilda o'sha davrning



qudratli davlatiga aylangan Xorazmshohlar davlati tomonidan bosib olinadi.

***Saljuqiylar davlatiga*** asos solgan turkiy tilli xalqlar – o‘g‘uzlar (turkmanlar) X asrlarda Sirdaryoning o‘rta va quyi qismida yashaganlar. Ular keyinchalik nufuzli boshliqlaridan biri Saljuq ibn Tug‘loq nomini olib, Saljuqiylar deb atala boshlaganlar. Boshqaruv Saljuqning avlodlari tomonidan turli guruhlar shaklida amalga oshiriladi.

XI asrning birinchi yarmida Saljuqiy Muhammad Tug‘rulbek (1038–1062-y.) G‘aznaviylar davlati tarkibidagi yerlarda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. 1038-yilda arab xalifasidan Sulton unvonini oladi. 1040-yilda G‘aznaviylar qo‘shinini yengib Saljuqiylar davlatiga asos soladi. Dastlabki davrda u Xuroson hukmdori hisoblanadi. Shu bilan Saljuqiylarning uyushgan, markazlashgan davlati vujudga keladi.

Davlat yuz yillar mobaynida O‘rta Osiyoning katta qismi, Yaqin Sharq mamlakatlarining siyosiy-ijtimoiy hayotida hal qiluvchi mavqeni egallaydi. Bu davlat eng rivojlangan davrida hozirgi Markaziy Osiyoning deyarli butun hududini, Eron, Afg‘onistonning bir qismi, Kavkaz orti, Old va Kichik Osiyoni o‘z tarkibida birlashtiradi. Hatto, 1056-yilda Arab xalifalari ustidan ham siyosiy nazorat o‘rnatadi. XI asr oxiri va XII asr boshlarida Movarounnahrda saljuqlar hukmronligi o‘rnatiladi.

Sulton Berkyorug davriga kelib (1092–1105-y.) taxt uchun kurash va o‘zaro nizolar boshlanib ketadi. Oqibatda imperiya inqirozga yuz tutadi. XI asr oxiri va XII asr boshlarida uning g‘arbiy mulklari bo‘lgan Kavkazorti, Eron, Iroq, Suriya va Kichik Osiyo mustaqil davlatlariga bo‘linib ketadi. Imperiya hududida Xuroson, Iroq, Rum va Shimoliy Xuroson sultonliklari vujudga keladi. Qisqa vaqt ichida Saljuqiylar mamlakatni birlashtirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradilar. Bu davrdan e‘tiboran Saljuqiylar davlati ilgari hududlarida o‘z hokimiyatini tiklaydi. 1120-yilda Saljuqiylar davlati rasman ikkiga – Iroq (G‘arbiy) va Xuroson (Sharqiy) sultonliklariga bo‘linadi. Hozirgi O‘zbekiston hududi Xuroson sultonligi tarkibida qoladi. Sharqiy Saljuqiylar davlatiga Movarounnahr va Xorazm vassal hisoblanib, o‘z hukmdorlari tomonidan idora etilgan. Boshqa hududlar sultonning qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. Mahalliy hukmdorlar amalda mustaqil ish yuritganlar. Shu jihatiga ko‘ra saljuqiylar davlati alohida bekliklarni birlashtiruvchi ittifoq (federatsiya)ni eslatadi.

XII asr o‘rtalariga kelib Qoraxitoylar va mahalliy o‘g‘uzlarning hujumi natijasida Xuroson sultonligi yemiriladi. 1150–1160-yillarda uning o‘rnida bir nechta yirik va kichik davlatlar tashkil topadi.

*Xorazm davlati* 712-yildan XI asr boshlarigacha arab xalifaligiga qaram bo'lgan. X asr boshlaridan mustaqil davlat sifatida Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan. 1017–1040-yillarda G'aznaviylar imperiyasi, 1040–1097-yillarda Saljuqiylar imperiyasi tarkibida edi. 1097-yildan 1231-yillargacha Xorazmshohlar Anushtaginiylar mustaqil davlati sifatida yirik va qudratli davlatga aylangan.

Xorazmshohlar davlati asoschisi turk o'g'izlarining Bekdili qabilasidan bo'lgan Anushtegin (1072–1092-y.) hisoblanadi. U saljuqiylar davrida oftobachi (toshtdor) mansabida faoliyat yuritgan bo'lib, ularga bo'lgan sodiqligi uchun shixna etib tayinlanadi. U Xorazmni o'z boshqaruviga olib, Anushteginlar sulolasiga asos soladi<sup>1</sup>. Uning o'g'li – iste'dodli askarboshi sifatida nom chiqargan Qutbiddin Muhammad «Xorazmshoh» unvonini olib Saljuqiylar sultoni Sanjarning (1097–1127-y.) vassaliga aylanadi. Bu davrda xorazmshoh Sulton Sanjarning farmoni asosida tayinlangan.

XII asr oxiri va XIII asr boshlarida Saljuqiylar, Arab xalifaligi, Qoraxoniylar davlatlari bosib olinadi. Bu davrda Xorazm Old va O'rta Osiyodagi qudratli davlatga aylanadi. Movarounnahr, Xuroson, Sharqiy Eron, Ozarbayjon va Dashti Qipchoqdan iborat ulkan hududni o'z ichiga oladi. O'z davrida yirik imperiyaga aylangan. Takashning o'g'li Muhammad Xorazmshoh (1206–1220-y.) hukmronligi davrida qipchoq aslzodalarining davlat hayotidagi ta'siri kuchayishi Xorazm davlatining parchalanib olib kelgan. Ko'p o'tmay davlat Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul-tatar qo'shinlari tomonidan bosib olinadi. Taxt vorisi Jaloliddin Manguberdi tomonidan turli qismlardan iborat davlat yana o'n yil faoliyat ko'rsatadi.

## **2-§. IX–XIII asrlarda O'zbekiston hududidagi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi**

*Somoniylar davlatining* ijtimoiy tuzumi feodallar (iqtodorlar), savdogarlar, ruhoniylar, dehqonlar, hunarmandlar va qullardan iborat bo'lgan.

Siyosiy tuzumiga e'tibor qilinadigan bo'lsa, davlatda markazlashgan hokimiyat organlari tizimi shakllantirilgan. Boshqarish shakliga ko'ra davlat monarxiya bo'lib, davlat boshlig'i amir deb atalgan. Amir butun hokimiyat egasi hisoblangan. U barcha oliy mansabdor shaxslarni

---

<sup>1</sup> Qarang: Буниятов З. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097–1231). – М., 1986. – С.24.

lavozimga tayinlagan va lavozimdan ozod qilgan. Barcha turdagi jinoyatlarni ko'rib chiqqan va jazo belgilagan. O'zining shaxsiy qo'riqchilariga ega bo'lgan. Eng katta yer egasi bo'lgan.

Davlat hokimiyati amir saroyi, ya'ni dargoh va devonlarga bo'lingan. Devonlar o'zining keng qamrovli tarmoqlariga ega edi. Dargohning asosiy vazifasi davlat boshlig'ining hukmlari ijrosini ta'minlash bo'lgan. Unga sohibi xaros (amiri xaros) boshchilik qilgan. Unga devonboshilar va boshqa mansabdor shaxslar bo'ysungan. Saroyda devonbegi, mirza-boshilar, mirzalar va boshqalar faoliyat ko'rsatgan. Saroy xo'jaligi vakil tomonidan boshqargan. Shayxulislom mamlakatdagi diniy ulamolarga rahnamolik qilgan va diniy ishlarni boshqargan.

Markaziy boshqaruv mahkamalari o'nta devondan iborat edi. Ularning viloyatlarda ham boshqaruv idoralari (arabcha «kasaba») ish olib borishgan. Ular ichida eng kattasi Vazir (Bosh Hojib, Hojib ul-hujjob, Hojib ul-buzruk) devoni sanalgan. Barcha devonlar unga bo'ysungan va uning farmoyishlarini bajargan. Vazirlik mansabi meros tariqasida o'tgan. Vazir qo'shinga rahbarlikni ham amalga oshirgan. Qo'shinda xizmat muddatiga qarab beriluvchi unvonlar joriy etilgan.

Undan keyin Mustafiy devoni turgan. U davlatning daromad va xarajatlarini yuritgan. Unda mustaufi (xazinador), hisobchilar faoliyat olib borgan.

Devoni rasoil (devoni insho, umid ul-mulk) boshqa davlatlar bilan tashqi aloqalar va davlat hujjatlarini yuritish kabi ishlarni borgan.

Devoni ariz (Soqchilar devoni, Devoni shurat) – qo'shin ta'minotini yuritgan. Ushbu devonga maxsus mansabdor shaxs – Ariz boshchilik qilgan. Uning joylardagi xodimlari mahalliy boshliqlarga emas, Devoni baridga bo'ysungan.

Devoni barid (aloqa devoni) pochta-aloqa xizmati bilan shug'ullangan. To'g'ridan-to'g'ri markazdan xat-xabarlar yetkazib turgan. Mahalliy hokimlar faoliyati ustidan kuzatuv olib borgan. Bu haqda amirga hisobot bergan va faqat amirga bo'ysungan.

Muhtasib devoni savdogarlarning tosh-tarozisini, hunarmandlar mahsulotining sifatini tekshirib turgan. Keyinchalik u shaharlarda din va axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilib turuvchi mansabga aylangan.

Mushrif devoni asosan xazinadagi daromad va xarajatlarni nazorat qilgan. Davlat mablag'larining sarflanishini kuzatib borgan.

Devoni az-ziyo esa davlatning yer mulklarini boshqaruvchi devon bo'lgan. Hukmdor sulola egalik qiluvchi yerlar o'z navbatida davlat yerlari hisoblangan.

Qozilar devoni shariat asosida sud ishlarini olib borgan. Vaqf devoni diniy muassasalar va ularga tegishli mulklarni boshqargan.

Viloyatlarda boshqaruvni hokimlar (eroncha «kadxudo», ya'ni yaxshi xo'jayin) amalga oshirgan. Hokimlar amir tomonidan tayinlangan bo'lib, lavozimi meros tariqasida o'tishi mumkin bo'lgan.

Alohida mabkera ega bo'lgan viloyatlar (Masalan, Xuroson) Nishopurda joylashgan Sipohsalarga bo'ysungan. Xuroson sipohsalari bevosita amirga va vazirga bo'ysungan. Shaharlar raislar tomonidan boshqarilib, ular hokimlar tomonidan tayinlangan.

Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy tuzumi shu davr davlatlaridagi singari chorvadorlar, dehqonlar, hunarmandlardan iborat edi. Mamlakatda iqtadorlik keng tarqalgan. Xususiy boshqaruvga olingan katta yer va chorva mollari – qo'riq<sup>1</sup> deb atalgan.

Qoraxoniylar davlat boshqaruvida Somoniylar boshqaruv tartibining ko'p qismini saqlab qolganlar (faqat udel boshqaruv tizimi keng tarqalgan). Qoraxoniylarning markaziy ma'muriy apparati, xuddi Somoniylardagidek dargoh ba devonga bo'lingan. Qoraxoniylar markazlashgan davlat idoralarini tuzganlar. Davlat ilk tashkil topgan vaqtlarda uning boshlig'i eng yuqori unvon bilan xon deb atalgan. Keyinchalik imperiya vujudga kelgach, davlat boshlig'i xoqon (tamg'achxon) deb atalgan. Rasmiy o'rnatilgan qoida bo'yicha butun imperiya, yerlar va barcha turdagi mulklar uning mulki hisoblangan. Taxt meros tariqasida otadan o'g'ilga qoldirilgan. Harbiy qo'mondonlar va viloyatlar hokimlarini lavozimga tayinlagan. O'z huzuridagi kengashni idora etgan.

Dargohda vazir, saroy boshqaruvchisi, xos hojib va boshqa amaldorlar faoliyat ko'rsatgan. Mamlakat boshqaruvida vazir mavqei kuchli bo'lgan xoqondan keyingi yuqori mansabdor shaxs hisoblangan.

Mamlakat bo'laklari sulola a'zolaridan iborat ilekxonlar tomonidan idora etilgan. Ko'chmanchi xalqlar el boshliqlari, ya'ni elchilar tomonidan boshqarilgan. Bu lavozimga odatda beklar tayinlangan. Ular xoqonga bo'ysungan. Bir necha beklar ustidan beklar begi (ulug' bek, buyuk bek) tayinlangan.

---

<sup>1</sup> *Izoh:* XIX asr oxirida qadimshunos olim M.S.Andreyev tomonidan Farg'ona vodiysida, Isfara soyining yuqorisidagi Vorux qishlog'idan topilgan qoyatoshdagi arabiy yozuvlarning birida Qoraxoniy sulolasiga mansub Isfara hukmdori Abul Fazl Abbos Arslon Teginning nomi va mansabi hamda shu hududdagi keng o'tloq va ovloq yerlar qo'riq joyga aylantirilganligi, ya'ni hukmdorga tegishli (boshqalarga man qilingan) mulk ekanligi yozilgan.

Beklar jamoat tartibini saqlash, sud hukmlarining ijrosini ta'minlash, urf-odat huquqlarining bajarilishini nazorat qilish, davlat chegaralarini qo'riqlash ishlarini bajarishgan.

Shaharlarda Somoniylar davrida mavjud bo'lgan lavozimlardan rais, muhtasib va boshqalar saqlangan. Qishloq va ovullarda-boshqaruvni oqsoqollar (koxgen-sanam) olib borgan. U o'z yordamchisiga ega bo'lgan.

Qoraxoniylar davlatining o'troq, ya'ni shahar va qishloq aholisi o'rtasida musulmon huquqi, ko'chmanchi aholi orasida odat huquqlari (tura) huquq manbai bo'lib xizmat qilgan.

**Saljuqiylar davlatining** ijtimoiy tuzumi asosan ruhoniylar, chorvadorlar, hunarmandlar, harbiy xizmatchilar, shuningdek dehqon (jamoachi, sulton mulkida ishlovchi – barzigor, ijarachi dehqon)lar, savdogarlar va davlat xizmatchilaridan iborat bo'lgan. Suvga egalik huquqi qattiq tartibga solingan bo'lib, o'tkazilishi taqiqlangan va faqatgina vorislik asosida o'tishi mumkin bo'lgan. Yerga egalikning muqto va iqta shakllari ham amal qilgan.

Saljuqiylar kuchli markazlashgan davlat tuzganlar. Oliy hokimiyat egasi sulton hisoblangan. Sulton mutlaq hokimiyatga ega bo'lib, lavozimni xalifaning yorlig'i asosida egallagan. U muhim davlat ishlarini hal etishda kengash chaqirgan. Fuqaroviy va harbiy mansabdorlarni tayinlagan. Farmon (tauke) chiqarish orqali viloyatlarni shartsiz asosda yirik harbiylar va amaldorlarga berish vakolatiga ega bo'lgan. Muayyan vaqtlarda shaxsan fuqarolarni qabul qilib, nizo va janjallarni hal etgan.

Mansabdor shaxslar ichida ulug'i vazir bo'lib, u butun ma'muriy idoraga rahbarlik qilgan. Vazirga Nizom al-mulk (davlatning tartibot-chisi), iliq (bayg'u, sag'un), ota xo'ja kabi faxriy unvonlar berilishi mumkin bo'lgan. Vazir huzurida markaziy hokimiyatning oliy organi – devoni a'lo mavjud bo'lgan. U o'z navbatida barcha devonlar ishiga bevosita rahbarlik qilgan. Xazina ustidan nazorat olib borgan. O'ziga bo'ysungan mahkamalarga mansabdorlarni tayinlash, ishdan bo'shatish, maosh berish, tashqi siyosatni olib borish bilan shug'ullangan. O'z noibiga ega bo'lib, u yo'qligida noibi sulton vaziri hisoblangan.

Saljuqiylarda otabek mansabi ham joriy etilgan bo'lib, u bosib olingan mamlakatlardagi vazirlik mansabiga deyarli to'g'ri keladi. Odatda, yosh sulola vakili ustidan umumiy boshqaruv yuzasidan otabek (vazir) tayinlangan. Keyingi davrlarda Saljuqiylar davlatining parchalanib ketgan bo'laklari otabeklik deb yuritilgan.



Markaziy hokimiyat organlari devonlar shaklida tuzilgan. Markaziy hokimiyatning oliy organi – devoni a’la bo’lib, vazir tomonidan boshqarilgan. U bo’lim va devonlardan iborat edi. Unga davlat mirzaxonasi devoni (insho, tug’ro), moliya devoni (divani istifayi), oliy nazorat va hisob organi (devoni ashraf), harbiy devon (divani arz al-jayni), davlat yerlari devoni (devoni amloki xos), vaqf devoni (devoni avqofi mamolik) va boshqa devonlar kirgan.

Davlat devonxonasi Saljuqiylar imperiyasidan oldin devoni rasoil, devoni insho deb yuritilgan. Saljuqiylar uni to’liq isloh qilib, devoni tug’ro deb ataydi. Tug’ro – Saljuqiy hukmdorining emblemasi bo’lib, u bilan hujjatlar tasdiqlangan. Uning asosiy vazifasi davlat hujjatlarini yuritishdan iborat bo’lgan.

Sulton devonxonasida bosh munshi lavozimi muhim o’rin tutgan. U «tug’roi» yoki «munshiyi mamalik» deb atalgan. Uning nomzodini vazir kiritgan, lekin hukmdor tomonidan tasdiqlangan. Bosh munshi bir vaqtda vazirning noibi hisoblangan. U bevosita hukmdorga bo’ysungan. Munshii mamalik ko’p hollarda diplomatik topshiriqlarni ham bajargan. Mamlakat ichki va tashqi holati, hamda qo’shni davlatlarning holatlari bilan tanish bo’lgan. Favqulodda hollarda devon boshlig’i maxsus vakolatlarga ega bo’lib, sulton nomidan ish yuritgan. Munshi (xirfat, sinoat) lavozimi ko’pchilik hollarda meros tariqasida qoldirilgan.

Devoni istifa (devoni istifayi mamluk) devoni a’la qoshidagi davlatning bosh moliya devoni edi. Mustaufi al-mamluk ushbu devonga rahbarlik qilgan. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, mustuafi vazirdan keyin ikkinchi o’rinda turadigan mansabdor shaxs hisoblangan. Unga davlatning moliya ishlari bo’yicha amaldorlari, shu jumladan ushbu idoraning moliyaviy faoliyati uchun javob beradigan devoni xos xizmatchilari ham bo’ysunganlar. Mustaufi boshqa yirik amaldorlar kabi o’ziga noib tayinlagan. Devonda kotiblar (muharriran), hisobchilar (muhtasiban) va boshqa xizmatchilar bo’lgan. Devoni mustaufining boshlig’i barcha shahar va viloyatlarga o’zining vakillari (nuvvablari) va xizmatchilarni yuborgan. Ular mahalliy xazinalarga rahbarlik qilganlar.

Saljuqiylar davlatida devoni ishraf bosh nazorat – kuzatuv organi vazifasini bajargan. Uning asosiy vazifasi davlat xazinasiga kelib tushgan mablag’lar ustidan nazorat olib borish hisoblangan. Ushbu devonning joylardagi vakillari soliq to’lovlarning aniq va o’z vaqtida mahalliy muassasalarga kelib tushishi ustidan nazorat olib borganlar.

Devoni arz qo’shinga umumiy rahbarlik qilgan, qo’shin hisobini yuritgan va uning to’ldirilishi ustidan nazorat olib borgan. Uning moddiy

ta'minoti uchun javob bergan. Devon boshlig'i sohibi divani arz deb yuritilgan. O'lkalarda uning vakillari ariz deb atalgan.

Mahalliy boshqaruv tizimida viloyatlarga voliyar tayinlangan. Vali lavozimi meros tariqasida ham qoldirilishi mumkin edi. Viloyatga valilari sifatida shahzodalar, turk amirlari va yirik harbiy qo'mondonlar tayinlangan. Taxt vorisi hisoblangan shahzoda esa eng yirik va muhim viloyatlarga vali qilib tayinlangan. Voliyar huzurida uning noiblari, soliq yig'uvchilari, jamoat tartibini qo'riqlovchi shihne va boshqa mansabdorlar mavjud bo'lgan.

Valilar viloyatlardagi barcha fuqaro va harbiylarni, qal'alarni boshqargan. Viloyat aholisining tinchligini ta'minlash bilan shug'ullangan, sud ishlarini olib borgan. Taxt vorisi bo'lgan vakilning qarorlari bosh hukmdorlarning qaroriga teng bo'lgan.

Markaziy hokimiyatning shahardagi vakili rais bo'lgan. U markaziy devon tomonidan tayinlangan va muayyan majburiyatlarni bajargan. Shahar raislari validan keyin muhim lavozim bo'lib, sultonga bo'ysungan. Rais o'z devonxonasi (divani riyosat)ga ega bo'lgan. Shahar boshqaruvi va tartibotini amalga oshirgan.

Saljuqiylar davrida shixne tartib va xavfsizlik qo'riqchilari hisoblangan. Ular sulton farmoni bilan shahar, o'lka va viloyatlarga tayinlangan. Shahne lavozimi meros tariqasida o'tishi mumkin bo'lgan. Ular qonunbuzarlarni jazolash vakolatiga ega bo'lgan. Shixne o'zining boshqarmasi va amaldorlariga ega bo'lgan. Uning ixtiyoriga harbiy qismlar ham berilgan. U ham o'troq aholi orasida ham ko'chmanchi aholi orasida tayinlangan.

Davlatda bosh dunyoviy qozi – oliy hukmdor hisoblangan. U vaqti bilan divani mazalimda kengash olib borgan yoki sud ishini olib borishni vazirga topshirgan. Qozilar faoliyati ustidan bosh qozi – qozi ul-quzzot rahbarlik qilgan. Viloyatlarda bosh qozi – voliyar hisoblangan. Joylarda jinoyat va fuqarolik ishlarini qozi ko'rib chiqqan. U shariat qoidalariga asoslanib ish yuritgan, qo'shimcha tarzda notarial vazifalarni ham bajargan. Harbiy qozi harbiylar orasida vujudga keladigan nizolarni hal etgan. Qozilar va ularning noiblari vaqf devoniga tegishli mulklarni nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan.

***Xorazmshohlar davlatining*** ijtimoiy tuzumi haqida ma'lumot beruvchi xatlar va yorliqlar tarixchilarning asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Ijtimoiy tuzumda ruhoniylar, harbiy va fuqarolik boshqaruvidagi amaldorlar, hunarmandlar va dehqonlarga alohida e'tibor berilgan. Hunarmandlar va dehqonlarning jamiyatdagi o'rniga yuksak baho berilgan.

Xorazmshohlar davlati siyosiy tuzumiga ko'ra, G'aznaviylar va Saljuqiylar davlatlarida bo'lgan mansablarning deyarli barchasi saqlangan, bo'lib ularning nomlari arab tilida yuritilgan. Davlat feodal davlat bo'lib, davlat boshlig'i shoh deb atalgan. Shoh hokimiyati cheklanmagan bo'lib, keyingi davrlarda kelib uning mavqei zaiflashadi. U o'zining shaxsiy qo'riqchilari – xarosga ega bo'lgan. Oliy hukmdorning shaxsiy gvardiyasi bo'lib, uning soni o'n mingdan ortiq edi. U birinchi bor Xorazmshoh Takash davrida tuzilgan. Asosan mamlyuklar (urush vaqtida asir tushgan harbiylar)dan iborat bo'lgan.

Mamlakat boshqaruvida markazlashgan davlat boshqaruv mansab va idoralari tizimi tashkil etilgan. Davlat boshqaruvi dargoh va devonlar tizimi orqali olib borilgan. Oliy boshqaruvda dargoh mahkamasi katta vakolatlarga ega bo'lib, sulton tomonidan idora etilgan. Markaziy davlat boshqaruvi (devonlar boshqaruvi) «Al – majlis ul oliy al fahri at – toji» deb nomlangan bo'lib, unga vazir raislik qilgan.

Vazirlik lavozimi Sulton Otsiz davrida ta'sis qilingan. U davlat boshlig'ining birinchi maslahatchisi hisoblangan. Vazir lavozimiga tayinlanuvchiga aniq mezonlar o'rnatilgan. Xorazmshohlarning vazirlari odatda fors va arab xizmatchi amaldorlaridan, arab va fors tillarini mukammal bilgan, bilimli, dono, tadbirkor shaxslardan tanlab qo'yilgan. Vazir hukmdorning yaqin kishilaridan bo'lib, bevosita unga bo'ysungan va uning topshiriqlarini so'zsiz bajargan. Qabul marosimlarida vazir Xorazmshohning o'ng tomonida o'tirgan. Vazir sadr, dastur, xo'jai buzrug kabi unvonlar bilan atalgan. Nizom al-mulk unvonini olgan vazir nihoyatda obro'li hisoblanib, shahzodalar oldida ham o'rnidan turmagan. U tashqi va ichki siyosatni, qo'shinni va yurishlarni boshqargan. U barcha mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan chetlatish, ular faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega edi. Davlatning barcha amaldorlari, mahalliy boshqaruv beklari va harbiy qo'mondonlar ham vazirga bo'ysungan. Amaldorlarga nafaqa va turli to'lovlar belgilagan, xazina ustidan nazorat olib borgan. Hukmdorni xalqaro aloqalar, rasmiy marosimlarda rasmiy ravishda tanishtirish, uning nomidan ish tutish, mahalliy vazirlar hisobotini olib turish; hukmdorga muntazam hamrohlik, zarur paytlarda qo'shin yuborish va unga boshchilik qilish kabi vazifalarni bajargan.

Bundan tashqari, xos jihatlardan biri shuki, viloyatlar, o'lkalar va shaharlarga vazirlar tayinlangan. Masalan, Sayfiddin al-Akra sultonning O'trordagi vaziri qilib tayinlangan. Sulton Jaloliddin davriga kelib, shaharlarni ham vazirlar boshqargan. Ular o'lkada adolat o'rnatish, soliq undirish ustidan nazorat etish kabilarni bajargan.

Mo'g'ullar bosqiniga yaqin vaqtda Muhammad Xorazmshoh vazir xizmatidan voz kechib, nazorat uchun mo'ljallangan masalalarni olti nafar vakildorga topshirgan. Ular kengashi biror masala bo'yicha bir qarorga kelsa va shoh buni ma'qullasa, u kuchga kirgan.

Davlatda muhim lavozimlardan biri hojiblik va ulug' hojib mansablari bo'lgan. Bosh (buyuk) hojib hukmdorning yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblanib, shohning muhim topshiriqlarini bajargan. Mamlakatlarning ishlari va hukmdorning o'ziga taalluqli ishlar bo'yicha ma'lumotlar yetkazib turgan. Unga saroyda o'tkaziladigan turli marosimlarni nazorat qilish, vazirlar faoliyatini taftish qilish, maxsus muzokaralar olib borish, viloyatlardan biriga noiblik qilish va hokazo vazifalar topshirilgan. Hojiblar odatda turkiy qavm vakillaridan tayinlangan. Alouddin Muhammad Xorazmshohning bir qancha hojiblari bo'lib, ular hukmdorning turli muhim topshiriqlarini bajarish bilan bir qatorda uni hamma joyda kuzatib yurganlar.

Ustozdor deb ataluvchi mansabdor shaxs saroy xo'jaligini boshqargan va saroy hujjatlarini yuritgan. Oshxonalar, novvoyxonalar, turli ichimliklar saqlanadigan omborxonalar, seysxonalar (otlar turadigan xona) uning ixtiyorida bo'lgan. Undan tashqari saroyda yashovchi shoh oilasi a'zolarini ta'minlash vazifasi ham ustozdor zimmasiga yuklatilgan. Xorazmshohlar xazinasiga tushadigan daromadlarning bir qismi ustozdor ixtiyoriga berilib, oshxona, novvoyxona, seysxona, saroyda yashovchi hukmdor va amaldorlar oila a'zolari xarajatlari uchun sarflangan. Tarqatilgan pul, qimmatbaho buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari uchun vazir va uning muovinklari tomonidan muhr bosilgan tilxat olingan.

Qissador saroy xizmatchisi bo'lib, sulton nomiga tushgan iltimosnoma va shikoyatlarni jamlab, ularni hukmdorga topshirgan va javobini mansabdor kishilarga yetkazgan.

Bundan tashqari, saroyda turli vakolatlarni amalga oshiruvchi lavozimlar ham joriy etilgan. Bular: Davatdor – sultonning shaxsiy kotibi; Amir axir-seys – ot boqar yoki seysxona boshlig'i; Alamdor (amir-alam) – hukmdorning bayroqdori; Amiri shikor – sulton shikorning boshlig'i, ovga chiqish ishlarini tashkil qiluvchi; Tashtdor – sulton va uning oila a'zolarini yuvintirish, cho'miltirish ishlarini tashkil qilish bilan shug'ullangan. Unga hukmdorning o'ta nozik ishlari ishonib topshirilgan. Ular hukmdorning hurmatida bo'lib, Malik unvoniga ham sazovor bo'lganlar. Undan tashqari sultonning shaxsiy elchisi vazifalarini ham bajarganlar. Ayrim tashtdorlar hatto o'n ming askarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarda ham qatnashganlar; Sharobdor – turli ichimliklar saqlanadigan omborxona boshlig'i; Jashnigir – sulton va uning oila

a'zolariga beriladigan taomlar va ichimliklarni tatib tekshirib ko'ruvchi. U taom va ichimliklarning zaharlanmaganligi va buzilmaganligiga ishonch hosil qilgandan keyin ularni iste'mol qilishga ruxsat bergan.

Markaziy boshqaruv tizimida quyidagi devonlar faoliyat yuritgan:

– Insho yoki tug'ro devoni. Bu devon rasmiy hujjatlar, yozishmalarni tuzish bilan shug'ullangan;

– Istifo devoni – moliya ishlari bilan yuritgan;

– Ishrof devoni – davlat nazorati ishlari bilan shug'ullangan;

– Al-ard (al-jaysh) devoni – harbiylar soni va ta'minotini ro'yxatga olish hamda nazorat etish, harbiy ko'riklarni o'tkazish, qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlash, harbiylarga ajratilgan yer-suv masalalarini nazorat qilish ishlari bilan shug'ullangan. Uning boshlig'i sohibi divani al ard deb atalgan.

Joylarda mirshablik va jazolash vazifalarini amalga oshiruvchi – *shixne* deb ataladigan mansabdor shaxslar faoliyat olib borgan. Ular hokimiyatga aralashuvchi barcha ishlarga aralashishi mumkin bo'lgan.

Davlatda sud ishlari qozilar tomonidan olib borilgan. Harbiy ishlarni esa qozi askar – harbiy qozilar ko'rib chiqqan.

Qo'shinning o'rtacha soni 400–600 minggacha bo'lib, shundan taxminan 300 mingga yaqini otliq askarlar bo'lgan. Turli harbiy unvonlar ham ta'sis qilinib, u harbiy boshliqlarga, amaldorlarga berilar edi. Shular jumlasidan yuqori unvon amir – Isfaksalar, Soib al – Jaysh, Amir al-umaro, Malik va hokazolar kirgan. Qo'shinlar qo'mondoni qoid (muqaddam) deb atalgan. Qo'shin amirlari ustidan amirlar amiri tayinlangan. Malik harbiy unvoni 10 kishilik otliq qo'shin boshlig'iga berilgan. Urushlarda jasorat ko'rsatgan maliklar xon unvonini olgan. Qo'shinda harbiy qismlarga xabar yetkazib turuvchi qismlar – chovush, dushman qo'shinlari holatini kuzatib ma'lumot beruvchi josuslar va boshqalar mavjud bo'lgan.

Davlat ma'muriy-hududiy jihatdan vassal davlatlar, qaram otabekliklar (Iroq, Ozarbayjon)ga bo'lingan. Viloyatlar noib hisoblanuvchi hokimlar va shahzoda (sulton)lar tomonidan idora etilgan.

Yuqorida keltirilganidek, Somoniylar davlati va huquqi, uning ijtimoiy-siyosiy tuzumi O'zbekiston tarixida muhim davrlardan birida amal qilgan. Saljuqiylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatlari harbiy demokratiyaga tayangan imperiya ko'rinishidagi musulmon davlatlari bo'lgan.

Mapzkur davrda musulmon diniy g'oyaviyligiga asoslangan shariat huquqning asosiy manbai bo'lib, davlat va qo'shin, qisman oila-nikoh masalalarida odat huquqiga tayanilgan.



---

## VI BOB. O'RTA ASRLARDA YEVROPA MAMLAKATLARI DAVLATI VA HUQUQI (FRANSIYA, GERMANIYA VA BUYUK BRITANIYA)

### 1-§. O'rta asr G'arbiy Yevropa davlatchiligiga umumiy tavsif

Yevropa davlatchiligining shakllanishini yerga egalik bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. G'arb mamlakatlarida yerning oliy egasi monarx (qirol, knaz, imperator) hisoblanib, boshqa feodallar undan xizmat evaziga yoki boshqa shartlar bilan yer olganlar. Ular esa bu yerni uchinchi bir shaxsga ma'lum shartlar evaziga berganlar. Yer bergan feodal «syuzeren», olgani esa «vassal» deb yuritilgan.

Feodal ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiy etishi bilan davlatchilik ham rivojlangan. Yevropada bu jarayon quyidagi to'rt bosqichda amalga oshgan:

- ilk feodal monarxiyasi;
- sen'orlik monarxiyasi (feodal tarqoqlik);
- tabaqa vakillik monarxiyasi;

– mutlaq monarxiya bosqichlari. Yevropa davlatlari bu bosqichlarni turlicha boshidan kechirdilar. Feodal jamiyati va uning siyosiy tashkilotlari tizimida mafkurani belgilovchi cherkov katta rol o'ynagan. Diniy, fuqaroviy, oilaviy-maishiy ishlar bo'yicha sud ishlarini ko'rib chiqqan va jazoni tayinlab, uning ijrosini amalga oshirgan.

X–XI asrlarga kelib shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlariga aylanib, mustaqillikni qo'lga kiritadi. Fuqarolarning erkinligi tan olinadi. Aholi, shuningdek hunarmandlar ittifoqlarga birlasha boshlaydi.

XVI asrga kelib antifeodal inqiloblarning yaqinlashishi bilan davlat va huquq tizimining yangi demokratik tamoyillarini asoslovchi siyosiy-huquqiy ta'limotlar rivojlandi.

Absolut monarxiya tuzumiga qarshi inqiloblar natijasida insoniyat Antik va uyg'onish davrlari oralig'idagi V–XVII asrlarni o'z ichiga oluvchi o'rta asrlardan chiqib, yangi davrga qadam qo'yadi.

**Franklar davlati** (V–IX asrning birinchi yarmi). Rim imperiyasining zaiflashuvi davriga kelib, yer tanqisligi sababli imperiyaning ittifoqchisi bo'lgan varvarlar, ya'ni german jamiyatini tashkil etuvchi tobora o'sib borayotgan ko'p sonli german qabilalari uning hududiga ko'chib o'tadi.

Bu ko'chish IV asr oxiri va V asrlarni o'z ichiga olib, «xalqlarning buyuk ko'chishi» davri deb ataladi.

Umuman olganda, bu davrda oldinroq Quyi, O'rta va Yuqori Reyn, Yutlandiya yarim oroli, Elba bo'ylari, Dunay va Qora Dengiz bo'yi hududlarida yashovchi katta-katta varvar qabilalaridan ingliz-sakslar, franklar, allemanlar, langobardlar, vandallar, burgundlar, vestgotlar va ostgotlar ittifoqlarga birlasha boshlagan. Bundan ham ilgariroq gotlar ittifoqlarining har biri Dunay va Qora Dengiz bo'yi hududida ko'p qabilalik davlat tashkil qilgan edi.

Ko'chib kelgan german qabilalari V asr oxiriga kelib Rim imperiyasi hududiga, ya'ni vandallar Shimoliy Afrika, vestgotlar (g'arbiy gotlar) Ispaniyaga, ostgotlar (sharqiy gotlar) Italiyaga, franklar Galliyaga, inglizlar bilan sakslar Britaniyaga joylashdilar. Ular shu joylarda o'z davlatlarini tuzdilar.

Rim imperiyasi hududida tuzilgan varvar qirolliklari orasida eng kattasi va kuchlisi Franklar qirolligi edi. Sali (dengiz) frank (erkin, jasur)lari ilgarigi davrda ham eng kuchli qabila hisoblangan. Franklar qirolligining asoschisi Merovinglar sulolasiga mansub qirol Xlodvig (481–511-y.) hisoblanadi. U frank qabilalarini birlashtirish va 486-yilda Galliya viloyatini (markazi Parij) egallashni amalga oshirgan<sup>1</sup>. Franklar VI asr davomida deyarli barcha german qabilalarini itoat ettirgan.

VII asr boshlarida Xlodvig sulolasining ichki urushlari natijasida zaiflasha boshlaydi. VII–VIII asrlarda Merovinglar qirollari qo'lida yerning ozgina qismi qoladi. Butun ma'muriy, sud va harbiy hokimiyat mahalliy magnatlar qo'lida to'planadi. Haqiqatda parchalanib ketgan franklar davlatining ayrim bo'laklaridagi eng yuqori ma'muriy mansab mayordamlar bo'lib qoladi. Mayordam nomi qirol saroyida eshikog'asi, ya'ni saroy boshlig'iga nisbatan aytilgan va barcha qaram davlatlar saroyida joriy qilingan.

Bu davrga kelib davlat boshqaruvida mayordamlar – saroy boshqaruvchilari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Avstraziya mayordamlari – Pipinidlar (Karl Martell, 715–741-y.) mamlakatni inqirozdan olib chiqish, siyosiy jihatdan birlashtirishda, qirol hokimiyatini mustahkamlash kabi islohotlarni amalga oshiradi. Karl Martellning taxt vorisi Pipin III Pakana (741–768-y.) hokimiyatdan mahrum bo'lgan Merovinglar sulolasini

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Frank – atamasi dastlab Reynning o'rta va quyi oqimlaridagi german qabilalarining umumiy nomi bo'lgan. Franklar qirolligi sali franklari tomonidan tashkil topadi.

taxtdan tushiradi. Bu o'zgarish Rim papasining yordami bilan amalga oshiriladi. 751-yilda Suasson shahrida frank zodagonlari yig'ilishida Pipin frank qiroli deb e'lon qilinadi. Shu vaqtdan boshlab Karolinglar sulolasiga asos solinadi. Uning o'g'li Buyuk Karl (768–814-y.) davrida Franklar davlati imperiyaga aylanib, 800-yilda u imperator unvonini oladi. Sulala nomi aynan uning nomidan olinadi. Uning vafotidan so'ng imperiya uzoq yashamaydi. Iqtisodiy asosning yo'qligi va omillar sababli imperiya parchalanib ketadi.

843-yilgi Verden (saroy) shartnomasiga ko'ra franklar davlati bo'linib ketadi. Galliya (Fransiya), Bovariya va boshqa yerlar imperiyadan ajralib chiqdi. Oqibatda bu yerlar Germaniya va nihoyat Italiya davlatlari tarkibiga kirdi. Ushbu shartnomaga muvofiq, Buyuk Karlning uch nafar nevarasi, ya'ni Lyudovik o'g'illari mustaqil qirollarga aylanadi. Imperatorlik unvoni turli davrlarda turli avlodlarga o'tib borib, X asr boshlariga kelib o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Lyudovikning katta o'g'li Lotarga Italiya, sharqda Reyn bilan g'arbda Mass, Shelda, Sena va Rona daryolari o'rtasidagi yerlar, Lyudovik Nemisga Reynning sharqidagi yerlar tegadi. Lotarga qarashli yerlarning g'arbidagi yerlar Karl Yaltiroqboshga o'tadi. Keyinroq, Lotar vafot etganidan so'ng yerlar qaytadan bo'linadi. Reyn bo'yidagi yerlarning barchasini Lyudovik bilan Karl o'zaro bo'lishib oladi. Lotarning avlodlari esa Italiyadagi yerlarnigina o'z qo'lida saqlab qoladi. Dastlab Lotarga qarashli bo'lgan Burgundiya mustaqil qirollik bo'lib ajralib chiqadi.

Shu tariqa Franklar davlati o'z umrini o'tab bo'ladi. Mazkur taqsimot Yevropada keyinchalik vujudga kelgan uchta katta davlat – Fransiya, Germaniya va Italiyaning tashkil topishini umumiy bir tarzda belgilab berdi.

Franklar davlati boshqarish shakli bo'yicha ilk feodal monarxiyasi edi. Ibtidoiy jamoa tuzumidan feodal jamiyatga o'tish yo'li bilan vujudga kelgan. Unda eski jamoa tashkilotlarining muhim qoldiqlari, qabilaviy demokratiya muassasalari saqlanib qolgan edi.

Merovinglardan so'ng Karolinglar sulolasi davriga to'g'ri keluvchi ikkinchi bosqichda frank jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan tiklanishi yuz beradi. Buning natijasida asta-sekin sen'orlik monarxiyasi shaklidagi feodal davlat shakllandi. Bu davrda feodal yer egaligi, feodallar va qaram dehqonlar sinfining tashkil topishi tugallanadi.

Franklar davlatida boshqaruv asosan saroy mansabdorlari va kengashi orqali amalga oshirilgan.

*Franklar davlatida huquqning asosiy belgilari.* G'arbiy Yevropa mamlakatlari davlatlarining rivojlanishi bilan birga ularning huquqiy tizimlari ham rivojlanib bordi.

Feodal tarqoqlik davrida huquq «partikulyarizmi», ya'ni butun mamlakat uchun yagona huquqning yo'qligi bartaraf etilishi, ayniqsa tabaqa-vakillik monarxiyasi davridan boshlab jadallashdi. G'arbiy Yevropaning qit'a qismi mamlakatlarida huquq shakllarining o'zaro yaqinlashuvi yuz beradi. Angliya feodal huquqi alohida rivojlanib boradi. Shu tariqa G'arbiy Yevropa huquqi ikki qismga, ya'ni ingliz-sakson huquqi va qit'a huquqiga ajraladi.

Huquq manbalari varvarlar haqiqatlaridan iborat bo'lib, ular odat huquqini o'zida mujassam etgan. Ayrimlari rim huquqi bilan aralashgan. Ular «sali», «ripuar», «alleman», «bavar», «sakson», «tyuring» haqiqatlariga bo'lingan. V asr va IX asr boshlarida vujudga kelgan.

Bundan tashqari, huquq manbalari qatoriga dastlabki qonun hujjatlari sifatida qaraluvchi qirollar edikti (qonunlar to'plami), farmonlari (bonni), farmoyish-qonunlari (kapitulyariy)ni kiritish lozim. Shuningdek, qirolning immunitet yorliqlari, qoida yorliqlari, odat huquqi va cherkov huquqini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Huquq manbalari u yoki bu masalani tartibga solish bo'yicha ajratilmagan bo'lib, unda ko'pgina masalalarga oid qoidalar o'z aksini topgan. Chunonchi, franklar qirolliklarida huquqiy tartibga solish o'zaro farq qiladi.

Huquqiy tartibga solishda mulkiy munosabatlar, majburiyatlar, nikoh va oila, meros hamda jinoyat va jazo sohalariga alohida yondashish uchraydi.

Jinoyat va jazo masalalarida jinoyatchi va jabrlanuvchining ijtimoiy ahvoli inobatga olingan. Og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lib, ordaliya instituti amal qilgan. Jarima jazo ham qo'llanilgan.

*Fransiya davlati* (IX asrning o'rtasi – XVIII asr oxiri). Verden shartnomasi asosida tashkil topgan davlatlar ichida eng yaxliti «g'arbiy franklar» davlati bo'lib, u keyinchalik tashkil topgan Fransiyaning asosi bo'ldi. G'arbiy franklar davlati aholisining asosiy ommasi endi tashkil topayotgan fransuz xalqidan iborat bo'lib, alohida shimoliy roman tilida ilk fransuz tilida gaplashgan. Poytaxti Parij shahri bo'lib, X–XI asrlarda davlat Fransiya deb atala boshlangan.

O'rta asrlar Fransiya davlati va huquqi tarixini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

- sen'orlik monarxiyasi davri – IX–XIII asrlar;
- tabaqa-vakillik monarxiyasi davri – XIV–XV asrlar;
- mutloq monarxiya davri – XVI–XVIII asrlar.

Ushbu har bir bosqichning ijtimoiy va siyosiy tuzumida o'ziga xos o'zgarishlarning uchrashi ularni alohida o'rganishni talab qiladi. So'nggi bosqichda feodal tuzumning inqirozi 1789-yilgi inqilobga olib keladi. Ushbu inqilob natijasida Fransiyada absolutizm va eski siyosiy tartib batamom barham topadi.

*Sen'orlik monarxiyasi (IX–XIII asrlar).* Davlatda Karolinglar X asrning oxirigacha hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab keladi. Dastlabki davrlarda birinchi fransuz qirol Karlning hokimiyati zodagonlar tomonidan cheklangan. Ilk davrlardayoq davlat xilma-xil mustaqil yerlar – sen'orliklardan iborat bo'lib, nomiga yagona davlat bo'lgan. Bu davrda hokimiyat qirol va feodallar o'rtasida taqsimlangan. Erkin dehqonlar yer egaligi tugatilgan. Bu davrda siyosiy tarqoqlik hukm surgan. Feodal titul va unvonlar meros tariqasida o'tgan.

IX–X asrlarda dunyoviy va diniy feodallarning yuqori qismi tomonidan saylangan. 987-yilda Gugo Kapetning saylanishi bilan Kapetinglar sulolasiga asos solinadi va XII asrdan taxt meros tariqasida o'tgan.

XII asrga kelib qirol ahamiyatining kuchayishi natijasida barcha vassallar qirol vassalliga aylantiriladi (immediatizatsiya). Qirolning yirik feodallarning katta kengashi roziligi bilan qonun hujjatlari (etablissement) chiqarish amaliyoti tiklanadi. XIII asrda qirol Lyudovik IX tomonidan o'tkazilgan islohotlar natijasida qirol barcha feodallarning syuzereniga aylanadi.

Markaziy boshqaruv organlari mamlakat tarqoqligi sababli aniq o'rnatilmagan. Qirol saroyi xizmatchilari (vazirlar) orqali davlat boshqaruvi ta'minlangan.

Saroyda senashel (qirol saroyining boshlig'i, armiya qo'mondoni, davlat xizmatlarini imzolovchi) eng katta ahamiyatga ega bo'lib, keyinchalik u tugatiladi. Seneshaldan keyin Konnetabl – qirol otliq askarlarining boshlig'i turgan. Uning yordamchisi marshal XIII asrdan boshlab qirollik admirali hisoblangan. Qirol xazinachisi xazina va davlat arxiviga boshchilik qilgan, uning vakolatlari XIII asrda qisqartiriladi. Unga kamerger yordam bergan.

Qirollik devonxonasiga kansler rahbarlik qilib, davlat ishlariga ta'siri katta bo'lgan. U qirol hujjatlarini tahrirdan o'tkazib, qirolga imzo uchun taqdim etgan va muhr qo'ygan.



Oliy boshqaruv organi sifatida qirol kuriyasi faoliyat ko'rsatgan. U dastlab qirol vassallaridan iborat bo'lib, maslahat xarakteriga ham ega bo'lgan. Unda siyosiy, moliyaviy, sud, harbiy va diniy ishlar muhokama qilingan. Uning majlislarida qudratli vassallar ishtirok etmagan.

Mahalliy boshqaruvda lavozimlar saroydan tayinlangan. Odatda, davlat amaldorlari joylarda turli xil ma'muriy, harbiy, sud va moliyaviy ishlarni boshqarishgan.

XI asrda prevotlik (maxsus okrug)ka boshchilik qiluvchi prevo, uning qishloqlardagi yordamchilari serjantlar, shaharlar mayorlar tomonidan idora etilgan. Prevo xazinaga soliq yig'ish, qo'shin tuzish, boshqaruv va sud ishlarini hal etish bilan shug'ullangan.

Filipp II Avgust davrida (1180–1223-y.) ko'p yerlar qo'shib olinishi natijasida ma'muriy islohot o'tkaziladi. Barcha mulklar balya tomonidan boshqariladigan yirik hududga ega va o'suvchi balyajlarga bo'lingan. Janubda va chegara hududlarga balyalar o'rniga senashallar tayinlangan. Prevo ustidan balya nazorat etgan. Prevo, balya va seneshallar sud, soliq, harbiy va ijroiya ishlariga boshchilik qilishgan, nazorat va kuzatuvni yuritishgan.

Sud ishlari har bir toifaga nisbatan alohida olib borilgan. U ma'muriyatdan ajratilmagan.

Lyudovik IX tomonidan harbiy, ma'muriy, sud va moliya islohotlari o'tkazilishi natijasida qator o'zgarishlar amalga oshirilgan. Jumladan, shahar militsiyasi va yollanma qo'shin tashkil etiladi. Qirollik kuriyasi (kengashi) markaziy muassasaga aylanib, bir qancha boshqarmalarga bo'linadi. Undan oliy mansabdor shaxslardan iborat va doimiy ish yurituvchi tor doiradagi kengash ajralib chiqadi. Sud ishlarini yurgizuvchi boshqa qism (parlament) hamda qirollik daromad va xarajatlari ustidan qaraydigan alohida hisoblash palatasi ham kuriyadan ajralib chiqadi. Ular orasida sud islohoti keyingi davr taraqqiyoti uchun ijobiy sharoit yaratadi. Bu davrda feodallardan olinadigan to'lov va cherkov in'omlari hisobiga qirollik budjeti juda o'sadi. Shuningdek, mamlakatning siyosiy jihatdan markazlashuvi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, XIII asrda Fransiya ijtimoiy va davlat tuzumida yuz bergan o'zgarishlar tabaqa vakillik monarxiyasining kelib chiqishi uchun zamin tayyorlaydi.

*Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIV–XV asrlar).* XIV asrning boshida feodal davlatning yangi tabaqa-vakillik monarxiyasi shakli o'rnatiladi. Qirol hokimiyatining kuchayishi natijasida butun aholi ruhoniylar,

dunyoviy zodagonlar (dvoryanlar) hamda ozod kishilardan iborat tabaqalarga ajratiladi.

Bu davrda davlat boshqaruvi qirol, har uchta tabaqa vakillaridan iborat general shtatlar va provinsiyalar shtatlari tomonidan amalga oshirilgan. Qirol o'z hokimiyatini amalga oshirishda general shtatlarga tayangan. General-shtatlarda har bir tabaqa alohida tartibda ham yig'ilgan. Uning deputatlari hududiylik belgisi bo'yicha saylangan. Provinsial shtatlar uchta tabaqa vakillarining muassasasi sifatida vujudga kelgan. Umuman olganda, tabaqa-vakillik monarxiyasi davrida siyosiy hokimiyat qirol qo'lida to'planadi.

Boshqaruvning markaziy organlari boshqadan jiddiy tashkil etilmagan. Qirol saroyida qirolidan keyin kansler turgan. Uning vakolatlari kengayib, sud mansablariga tayinlash va qirol yo'qligida qirol kengashiga boshchilik qilishni amalga oshirgan.

Saroyda katta va kichik (yashirin) kengash faoliyat ko'rsatgan. Katta kengashga oliy dunyoviy va diniy zodagonlar kirgan. Qirol hokimiyatining mustahkamlanishi bilan uning ahamiyati pasayib borgan. Hisob palatasining mavqei esa oshib, qirolga moliya masalalari bo'yicha maslahatlar bergan. Shuningdek, balyalardan keladigan daromadlarni tekshirgan. Negaki, bu davrlarga davlat barqarorligining tayanchi soliq bo'lgan. Qirol apparatida aniq funksiyaga ega bo'lmagan kotiblik kabi yangi kichik mansablar paydo bo'lgan.

Mahalliy boshqaruv tizimida balyalar tayinlaydigan leytenantlarga sud funksiyasi o'tkaziladi. Keyinchalik ular qirol tomonidan lavozim tayinlanadigan bo'lib, balyalar oraliqdagi lavozimlarga aylanadi. Mahalliy boshqaruvni markazlashtirish maqsadida gubernatorlik mansabi joriy etiladi. Ular balyajlarga tayinlanib, balyalarni almashtirganlar va keng vakolatlar, jumladan, yangi qal'alar qurishni taqiqlash, xususiy urushlarga yo'l qo'ymaslik singari huquqlarga ega bo'lib olganlar.

Shahzodalar va taniqli dvoryanlardan tayinlanuvchi general-leytendant mansablari ta'sis etiladi. Dastlab ularning vakolat doirasi va muddati qisqa bo'lib, keyinchalik ular bir necha mahalliy okrug (balyaj, XV asr oxiridan provinsiya)ni idora etganlar. Ularning asosiy funksiyasi avvalo soliq yig'ish va ma'muriy funksiyalar hisoblanadi.

Shaharlar boshqaruvida qirol hokimiyati ta'siri ostida o'zini o'zi boshqarish tizimi amal qilgan.

Harbiy sohada 1445-yil Karl VII tomonidan doimiy armiya tuzilib, qirollik hududi bo'yicha gornizonlarga joylashtiriladi.

Sud tizimida ishlarini yuritish tartibini bir xillashtirish siyosati o'tkazilgan. Sud faoliyati qirol ma'muriyati nazoratida bo'ladi. Sud ishlari qirol tomonidan tayinlanuvchi prevo, dastlab balya va so'ng leytenantlar tomonidan olib borilgan. Bu davrga kelib XIII asrda tashkil topgan Parij parlamenti feodal zodagonlarning ishlari bo'yicha oliy sud, barcha ishlar bo'yicha apelyatsion instansiya bo'lib qolgan. Bundan tashqari, parlament qirollik qonun hujjatlarini, quyi sudlar va boshqa shahar parlamentlari qarorlarini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini amalga oshiradi.

*Mutlaq monarxiya (XVI–XVIII asrlar).* XVI asr boshlariga kelib tabaqaviy tuzum mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti va kapitalizm rivojiga qarshi bo'lib qoladi. Bu vaqtda cherkov hokimiyati ustidan qirolning to'la hokimiyati o'rnatiladi. Dunyoviy va diniy zodagonlar o'rtasida mustahkam siyosiy aloqalar vujudga keladi<sup>1</sup>. Davlat boshqaruvi lavozimlariga ruhoniylar ham tayinlana boshlaydi. XVI–XVIII asrlarda aholining eng ko'p qismini uchinchi tabaqa tashkil etgan. 1 va 2-tabaqa vakillari 3-tabaqaning siyosiy siquvi o'sishi natijasida imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida markazlashgan davlatni vujudga keltirishdan manfaatdor edilar. Kapitalistik ukld rivojlanishining va feodalizm yemirilishi boshlanishining muqarrar natijasi absolutizmning qaror topishi bo'ldi.

Absolut monarxiya davrida oliy hokimiyat qirolga tegishli bo'lib, hech qanday davlat organi bilan taqsimlanmagan. Monarxiya ilohiy, qirol hokimiyati esa muqaddas, deb e'lon qilinadi.

Keyingi davrlarda to 1789-yilgacha general shtatlar chaqirilmaydi. Ba'zi vaqtlardagina qonunchilik va moliya masalalari bo'yicha qirol notabllar (feodal asilzodalar)ni yig'ib turgan. Parlament dastlabki davrlarda qirol hokimiyatiga qarshi turganligi bois, 1673-yilda qirol qonunlariga protest keltirish va rad etish huquqidan mahrum bo'ladi.

Markaziy boshqaruv organlari kengayishi ularning murakkablashishiga olib kelgan. Ular tez-tez o'zgartirilib turilgan.

XVI asrda davlat kotiblari nomli mansabdor shaxslar paydo bo'ladi. Ular qirolning sof, shaxsiy yordamchilari hisoblangan. Ulardan biri qirol voyaga yetmagan paytlarda birinchi vazir funksiyasini bajargan. Keyinchalik ularning roli oshib, boshqaruvning alohida sohalari (tashqi, harbiy, dengiz, ichki ishlar va mustamlakalar) topshiriladi. XVIII asrda

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Davlat yerlarining 1/5 qismi ruhoniylar, 4/5 qismi qirol boshliq zodagonlar ixtiyorida bo'lgan.

ularning o‘rinbosarlari lavozimi ta’sis etilib, huzurida katta mahkama tashkil qilinadi.

Kansler davlat boshqaruvida ilgarigi mavqeini saqlab, davlat boshqaruvida qirolidan keyingi ikkinchi shaxs bo‘lib olgan.

Markaziy boshqaruvda moliya superintendanti, so‘ngra bosh moliya nazoratchisi katta rol o‘ynaydi. U budjet va iqtisodiy siyosatga rahbarlik qilish, ma’muriyat faoliyatining nazorati, qonunlarni tuzish ishlarini tashkillashtirish kabi vazifalarni amalga oshirgan. Vaqt o‘tishi bilan uning huzurida turli xizmat va mahkamalardan iborat katta apparat paydo bo‘ladi.

Qirol huzuridagi maslahatchilik kengashlar tizimi isloh qilingan. Yuqori va maxsus mansabdor shaxslardan iborat Katta kengash eng muhim davlat masalalarini hal etgan. Tashqi siyosat masalalari bo‘yicha tor doirada Yuqori kengash chaqirilgan. Depesh kengashi ichki boshqaruv masalalarini muhokamadan o‘tkazib, ma’muriyat faoliyatiga oid qarorlar qabul qilgan. Moliya masalalari bo‘yicha kengash davlatning moliya siyosatini ishlab chiqib, xazinaga kelib tushuvchi yangi mablag‘larni izlagan.

Joylardagi boshqaruv o‘ta murakkabligi va chalkashligi bilan ajralib turadi. Ba’zi mansablar bu davrda saqlanib qolgan, lekin roli pasaygan. Joylarda ko‘p sonli ixtisoslashgan xizmatlar – sud boshqarmasi, moliya boshqarmasi, yo‘llarni nazorat qiluvchi boshqarma va hokazolar paydo bo‘ladi. Ularning hududiy chegaralari va funksiyalari aniq o‘rnatilmagan.

Mahalliy boshqaruv joylarda gubernatorlar tomonidan yuritilgan vaqtlarda ularning faoliyati qirol komissarlari tomonidan tekshirib turilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida ularga intendantlik unvoni beriladi. Shu vaqtdan e’tiboran ular mahalliy hokimiyat egalariga aylanadi. Keyinchalik ular o‘z hududida ijro, nazorat va sud hokimiyati boshqarganlar.

Shaharlar dastlab saylanuvchi merlar va munitsipal maslahatchilar tomonidan boshqarilgan. Keyinchalik ular o‘rniga qirol amaldorlari tayinlangan. Qishloq joylari dehqonlar jamoasi va jamoa kengashlari tomonidan amalga oshirilgan.

Qirollik sudlari tizimi juda chalkash bo‘lgan. Quyi sudlar tugatilib, balyajlardagi sudlar saqlanib qolgan. Parij parlamenti va boshqa shaharlardagi parlamentlar ilgarigidek muhim rol o‘ynagan.

Absolutizm davrida keng tarmoqli politsiya xizmati tashkil etiladi. Provinsiyalarda, shaharlarda, yirik yo‘llarda va boshqa joylarda politsiya organlari tuziladi. 1667-yilda politsiya general-leytenantlari lavozimi ta’sis

etilib, unga butun qirollik miqyosida tartibni saqlash majburiyati yuklangan. Uning ixtiyorida ixtisoslashgan politsiya bo'limlari, otliq politsiya gvardiyasi, dastlabki tergovni olib boradigan sud politsiyasi mavjud edi. U siyosiy politsiyaga ham boshchilik qilgan. Politsiya funksiyasiga tartibni saqlash, jinoyatchilarni qidirib topish va axloqni nazorat qilish (tadbirlar vaqtida, binolarda) kirgan. Siyosiy politsiya yashirin qidiruv va nazoratning keng tarmoqli tizimidan iborat edi.

**Germaniya davlati** (IX asrning o'rtasi – XVIII asr). Germaniya davlati Verden taqsimotiga muvofiq Lyudovik Nemisga o'tgan «Sharqiy Frank yerlari»da tashkil topgan. Bu vaqtlarda mamlakat bir necha qabilaviy knazliklar yerlaridan iborat bo'lgan. Yirik hududiy birliklar gersogliklar bo'lgan. Shuningdek, tez orada qator fransuz, italyan va slavyan yerlari ham Germaniyaga qo'shib olingan. Mazkur hududlarda shu tariqa yagona Germaniya qirolligi tashkil topgan.

Qirollik dastlabki davrlarda Sharqiy Franklar qirolligi, X asr o'rtalarida Tevtonlar davlati, XI asr o'rtalarida esa Germaniya deb yuritila boshlandi.

O'rta asrlarda Germaniya davlatining tashkil topishi va rivojlanishida quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ilk feodal monarxiyasi (X–XIII asrlar);
- kurfyuristlar oligarxiyasi hamda tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIV–XVII asrlar);
- german qirolliklari absolutizm (knazlik absolutizmi) davri (XVII–XVIII asrlar).

*Ilk feodal monarxiyasi.* «German millatining muqaddas Rim imperiyasi» (X–XIII asrlar). X asrlarda Germaniya bir necha mustaqil davlat (viloyat)lardan iborat bo'lib, qirol hokimiyati rasmiy jihatdan tan olingan. XII asrdan e'tiboran siyosiy tarqoqlik hukm surgan.

Dastlabki davrlarda qirol odat huquqi asosida saylangan. Otton I davriga kelib (936–973-y.) hokimiyat meros tariqasida o'tgan. U German imperatorlarining siyosiy markazi bo'lgan Italiya ustidan 951–962-yillarda o'z ta'sirini o'rnatadi. Natijada imperatorlik tojini olib, Rim imperatori deb e'lon qilinadi. Yangi imperiyaga «Muqaddas Rim imperiyasi» nomi beriladi. XII asrga kelib, «German millatining muqaddas Rim imperiyasi» deb ataladigan bo'ladi va bu nom 1806-yilgacha saqlanib qoladi. Davlat tepasida rasman imperator va papa turgan bo'lib, butun hokimiyat imperator qo'lida to'plangan.

Ijtimoiy tuzum diniy va dunyoviy zodagonlar, harbiy-ritsarlar, dehqonlar va shaharliklardan iborat edi.



Davlat tuzumida ilk markazlashtirish siyosati natijasida ilk feodal monarxiyasi tashkil topadi. Oliy davlat hokimiyati qirol saroyidan amalga oshirilgan. Markaziy hukumat apparatini saroydagi qirol oila a'zolari, ularning xizmatchilari, vazirlari va erkin xizmatchilari tashkil etgan.

Saroy amaldorlari orasida kansler asosiy mansabdor shaxs bo'lib, deyarli barcha boshqaruv ishlarini yuritgan. Saroybon (mayordam) saroy ishlarini yuritgan. Shuningdek, saroy dasturxonchisi, kamerariy, marshal, kapellan va boshqalar ham ajralib turgan.

Mamlakatda xizmatchilar tabaqasi vazirlardan iborat bo'lib, hukumat ishlarini yuritishgan. Asta-sekin ular saroy amaldorlarini ikkinchi o'ringa surib chiqarishgan.

Mamlakat boshqaruvida feodallar syezdlari juda katta rol o'ynagan. Unda ichki va tashqi siyosiy masalalar hal qilingan. U mustaqil organ sifatida qirol vakolatlarini belgilash, uni hokimiyatdan chetlatish, qonunlar chiqarish, oliy mansabdor shaxslarni tayinlash va boshqa faoliyatni amalga oshirgan. Unda asosiy hal qiluvchi kuch eng yirik feodallar-knazlar bo'lgan.

Qirol huzurida yirik zodagonlar vakilidan iborat qirollik kengashi – goftag tashkil etilgan. U bilan birgalikda ancha muhim davlat ishlari hal qilingan.

Mahalliy boshqaruv uzoq vaqtgacha qabilaviy gersogliklar bo'yicha amalga oshirilgan. Keyinchalik ular deyarli mustaqil hududiy knazliklarga bo'lingan.

Qo'shinning bosh qo'mondoni imperator bo'lib, feodallar qo'mondonligida turgan. Qo'shin imperiya armiyasi va knazliklar qo'shinlariga ajralgan. Ayrim hollarda xalq lashkari ham chaqirib turilgan.

Sud tizimi korolinglar monarxiyasidan meros qilib olingan. Imperator oliy sudya hisoblangan. Keyingi davrlarda dunyoviy va diniy knazlarning hududiy sud hokimiyati kengayib, sud tizimi murakkablashgan va ko'p bosqichli xarakter kasb etgan.

*Kurfyuristlar oligarxiyasi hamda tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIV–XVII asrlar).* XIII–XV asrlarda Germaniya siyosiy tuzumi tarqoq va imperator hokimiyati zaif bo'ladi. Imperatorning harbiy ta'minotchilari bo'lgan feodal knazliklar deyarli mustaqil bo'lib, bo'linib ketadi. XIII asr oxirlarida mamlakat knazlar (3 ruhoniylar va 4 ta dunyoviy) tomonidan idora qilinadi. Ular kurfyuristlar (saylovchilar) deb atalib, imperatorni saylash va taxtdan chetlatish huquqiga ega bo'lishgan. Kurfyuristlar syezdi har yili chaqirilgan. Ular umumimperiya sudi va daxlsizlik huquqiga ega edi. Shuningdek, dastlabki davrlardayoq imperator

saylashda unga maxsus shartlar (saylov kapitulatsiyasi)ni qo‘ya boshlaganlar.

Bu davrda oliy boshqaruv tizimida imperatordan tashqari yana ikkita imperiya muassasasi, ya‘ni reyxstag va reyxskamergirixt bo‘lgan. Biroq ular ham imperiya birligini ta‘minlay olmagan.

Ilgarigi davrdagi hududiy va asosan toifa vakillarining feodal syezdlari endi reyxstag deb atala boshlanadi. U XIV asrdan doimiy tuziladigan organga aylanib, imperiya saymi deb ham yuritilgan. Uning tarkibidagi uch toifaning kollegiyalari (kuriyalar) alohida va umumiy yig‘ilishlar o‘tkazib turgan. Reyxstag har olti oyda kurfyuristlar kuzatuv ostida imperator tomonidan chaqirilgan.

Reyxstag tashqi aloqalarni hamda ichki tinchlikni, harbiy sohani, soliq va hududiy tuzilish masalalarini ko‘rib, qaror chiqargan. Qirol farmonlarini tasdiqlagan.

Reyxskamergirixt umumimperiya sudi hisoblanib, 1495-yilda reyxstag qarori asosida tashkil etiladi.

Imperator hech qanday real hokimiyatga ega bo‘lmagan. U knazlar konfederatsiyasi boshlig‘i bo‘lib qolavergan. XVI asr o‘rtalarigacha imperatorlarning siyosiy hokimiyatni o‘rnatish, umumimperiya qo‘shini va soliqlarini joriy etish, ma‘muriy apparat tuzishga qaratilgan harakatlari samarasiz bo‘lib chiqqan.

Imperiya tarkibidagi davlatlarda tabaqa-vakillik organlari – landtaglar vujudga kelgan. Ular knazliklarda knazlarning hokimiyatini qisman cheklagan. Ular asosan 2 yoki 3 palatadan iborat bo‘lgan. Palatalarga ruho-niylar, dvoryanlar hamda erkin dehqonlarning saylangan vakillari kirgan.

Landtaglarning vakolat doirasi juda keng bo‘lgan. Jumladan, maxsus sudlar tuzilgunga qadar knazliklarning oliy sudlari hisoblangan. Keyin esa appelyatsion instansiya bo‘lib qolgan. Davlat boshqaruviga ham aralashganlar. Xususan, knazlik kengashlari tarkibini tuzish va yuqori amaldorlarni tayinlashga ta‘sir ko‘rsatgan.

Landtaglarning vakolatiga hukmron sulolalarda uzilish bo‘lib qolgan hollarda davlat boshlig‘ini saylash, tashqi siyosatda urush e‘lon qilish, moliya-soliq ishlarini yo‘lga qo‘yish hamda diniy, politsiya (pul sifati, o‘rmon qo‘riqlari) va harbiy ishlarni amalga oshirishlar ham kirgan.

Germaniyada tabaqa-vakillik monarxiyasi butun imperiya miqyosida emas, balki alohida knazliklar doirasida rivojlangan.

Mahalliy boshqaruvda shaharlar boshqaruvi alohida ahamiyat kasb etgan. Ularda asosan o‘zini o‘zi boshqarish tizimi shakllangan. Bu holatni o‘rta asrlar Yevropa davlatchiligining barcha davrlarida ko‘rish mumkin.

Sud tizimida feodal sudlar (feodalning o'z dehqoni va hududida), cherkov sudlari (ruhoniylar, ayrim dunyoviy kishilar va ma'lum darajadagi ishlarga – nikoh, diniy vasiyat va h.k.) mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, shahar sudlari ham faoliyat olib borgan. Ularning tarkibiy tuzilishi va shakllantirilishi turlicha bo'lgan. Knazliklarda oliy sud, okrug sudi (okrug boshqaruvchisi – amtmann) va quyi sudlar tashkil etilgan.

*German qirolik (knaz)lari absolutizmi davri (XVII–XVIII asrlar).* XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmi Germaniyaning iqtisodiy yuksalish davri bo'ldi. Biroq iqtisodiy taraqqiyot juda notekis kechgan. Bu vaqtda Fransiya va Angliyada savdo va sanoatning rivojlanishi mamlakatning markazlashuviga olib keldi. Germaniyada esa bu jarayon alohida knazliklar doirasida yuz berishi natijasida siyosiy tarqoqlik yanada mustahkamlandi. XVII asrda absolutizm har bir german davlatida o'rnatilgan edi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy va siyosiy tarqoqligini mustahkamladi. Fransiya va Angliyadagi absolutizm davlat birligini ta'minladi.

Germaniyada diniy shakldagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar oqibatida bir mazhabdagi shimol (protestant) va janub (katolik) qismlariga bo'linish yuz beradi. Ko'zlangan maqsadlar cherkov hokimiyatini cheklash, feodalizmni tugatish va mamlakatni birlashtirishga qaratilgan edi. Ushbu jarayonda knazlarning hokimiyati ancha kuchayadi. Negaki, yuqori tabaqalar quyi tabaqalardan himoyalaniş uchun uning madadiga muhtoj bo'ladi.

XVII asr o'rtalarida imperator va shimoliy knazliklar bilan tuzilgan Vestfaliya sulhi imzolaniş natijasida knazlarning oliy huquqlari tan olinadi. Ular ichki va tashqi mustaqillikka ega bo'ladilar.

XVII–XVIII asrlarda davlat tuzumi deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Imperator lavozimi, reyxstag va imperiya sudi o'z hokimiyatiga ega bo'lmaydi. Imperator faxriy unvon egasi bo'lib qoladi. Knazlar imperator oldidagi majburiyatlardan ozod bo'lib, knazliklar imperiya yurisdiksiyasidan chiqadi. Knazlar o'z yerlarida imperiyadan to'la mustaqil bo'lishdi. Dindorlar ham ular hokimiyati ostiga tushib qoladi. Lentaglar deyarli chaqirilmay qo'yilgan.

Shunday qilib, Germaniyada burjuaziya ustidan feodalizm tarafdorlari bo'lgan dvoryanlar knazlar boshchiligida g'alaba qozonishadi. Boshqa mamlakatlarda dvoryanlar va burjuaziyaning kuchlari barobar bo'lib turishi butun mamlakatda absolutizm o'rnatilishini ta'minlagan.

Ko'pdan ko'p german davlatlari orasida ulardan ikkita yirigi Prussiya va Avstriya XVII–XVIII asrlardayoq Yevropa tarixida katta rol o'ynagan.

Ular har ikkalasi Germaniya imperiyasi tarkibida bo'lib, har birining o'z rivojlanish tarixi bor. Jumladan, Prussiya qirolligi XVIII asrgacha Brandenburg markgrafligi edi. 1701-yilda Brandenburg kurfyuristi Fridrix III (1688–1713-y.) Italiya merosi borasidagi ishtiroki evaziga imperatordan Prussiya qiroli unvonini oladi. Brandenburg-Prussiya davlati slavyan yerlari va boshqa nemis knazliklari hisobiga o'sib boradi. Siyosiy sohadagi yutuqlari esa imperator hokimiyatining zaiflashuvi bilan bevosita bog'liq. U XVIII asrdan absolut monarxiya shaklidagi harbiy despotiyaga aylanadi. Shu davrdanoq kuchli boshqaruv apparati, ko'p sonli byurokratiya va armiya vujudga keltirilgan.

Davlat hokimiyati cho'qqisida qirol turgan. U imperiyaning kurfyuristlar kollegiyasi tarkibiga kirgan. Qirol huzurida Yashirin kengash mavjud bo'lib, u davlat boshqaruvining oliy organi edi. Prussiya armiyasi o'sha vaqtda Yevropadagi eng ko'p sonli va intizomli armiya hisoblangan.

Avstriya davlatiga qisqacha to'xtalsak, u dastlab qoloq knazlik bo'lgan. XVIII asrda mamlakatni siyosiy jihatdan kuchaytirish maqsadida dastlab qo'shinni yaxshilash va ko'paytirishga qaratilgan harbiy islohotlar amalga oshiriladi. So'ngra ichki ishlar va moliya sohasini tartibga soluvchi organlar ta'sis etiladi. 1760–1761-yillarda markaziy boshqaruv organlari qayta tashkil etiladi. Shu tariqa Avstriya markazlashgan kuchli davlatga aylangan.

**Angliya davlati** (V asr – XVII asrning o'rtasi). Britaniya hududida V asr boshlariga qadar Rim legionerlari tomonidan idora etilgan. V asr boshlaridan o'rtalariga qadar Britaniya bir qancha mustaqil mayda qirolliklarga bo'lingan holda yashaydi. V asr o'rtalariga kelib bu orolga shimoliy-g'arbiy german qabilalaridan inglizlar, sakslar, yutlar bostirib kira boshlaydi. Bu istilo qariyb bir asrga cho'ziladi. Natijada ilgari Britaniya hududida o'ndan ortiq mayda varvar qirolliklari vujudga keladi. VII asrga kelib ular xristianlikni qabul qilib, 7 ta yirik (sakslar 3, angllar 3, yutlar 1) qirollikni (geptarxiya) barpo etadilar. 827-ilda Uyesseks qiroli Ekbert (802–839-y.) bu qirollikni o'z hukmronligi ostida birlashtiradi. U asos solgan yagona ingliz-sakslar qirolligi X asrdan boshlab Angliya deb ataladi.

XI asr boshlarida inglizlar davlati daniyaliklar tomonidan bosib olinadi. Ularning hukmronligi ingliz-sakslar sulolasi Eduard Ispovednik (1042–1066-y.) tomonidan qayta tiklangunga qadar davom etadi. 1066-ilda Angliya Normandiya gersogi Vilgelm tomonidan bosib olinadi. Shu tariqa u fotix (istilochi) nomi bilan Angliya qiroli bo'lib oladi. U

Angliyani egallashda Rim papasining xayrixohligi va Fransuz qirolining yordamiga tayanadi. Normandlar boshqaruvi davrida markazlashgan davlatga asos solinadi.

O'rta asrlarda Angliya feodal davlatining rivojlanish bosqichlarini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

- ingliz-sakslarning ilk feodal monarxiyasi davri (IX–XI asrlar);
- markazlashgan sen'orlik monarxiyasi va qirol hokimiyatini cheklash uchun fuqarolar urushi (XII asr) davri;
- tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIII asrning ikkinchi yarmi – XV asr);
- absolut monarxiya davri (XV asrning oxiri – XVII asrning o'rtasi).

*Ingliz-sakslarning ilk feodal monarxiyasi davri (IX–XI asrlar).* Dastlabki davrlarda ijtimoiy tuzum ruhoniylar, urug'-qabila zodagonlari (erllar), erkin kishilar (kryollar, keyinroq genitlar), yarim erkin kishilar (letlar yoki uillar, keyinroq esa va geburlar deb yuritiladi) va qullardan iborat bo'lgan.

Ilk davrlarda ko'p sonli qirolliklarda qirollar saylab qo'yilgan. Yagona davlat ingliz-sakslar davlati tashkil topishi bilan sekin-asta qirol hokimiyati barobarida uning mavqei ham yuksala boradi. Qirol oliy sud, harbiy hokimiyat va oliy yer egasi hisoblangan.

Oliy davlat organi – vitanagemot (vitanlar – donishmandlar, donishmandlar kengashi) bo'lgan. Barcha muhim davlat ishlari uning maslahati va roziligi bilan hal etilgan. Uning asosiy funksiyalari qirollarni saylash va oliy sudni amalga oshirish edi.

Mamlakat boshqaruvi qirol saroyi tomonidan amalga oshirilgan. Qirol saroyining asosiy boshqaruvchilari ichida quyidagilar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kamerariy qirollik mol-mulki va moliyasi ahvoliga javob bergan. Marshal qirollik otliq askarlarining qo'mondoni hisoblangan. Qirollik kapelanlari davlatning devonxona ishlarini yuritganlar.

Ingliz-sakslarda asosiy ma'muriy-hududiy birlik graflik bo'lgan. Ular yuzliklarga, yuzliklar qishloq jamoalari (tunlar)ga, jamoa esa o'nta tomorqa (oila)ga bo'lingan.

Bir qancha grafliklar tepasida eldormenlar turgan. Ular qirol tomonidan kelishib, vitanlar tomonidan mahalliy feodallar orasidan tayinlangan. Grafliklarga qirolning shaxsiy vakillari – sheriflar tayinlangan. Yuzliklar yuzlik yig'inida saylanuvchi yuzboshilar tomonidan boshqarilgan. Qishloqning yuqori organi – jamoa yig'ini (galimot) bo'lib, jamoa tepasida oqsoqol turgan.



*Angliyada markazlashgan sen'orlik monarxiyasi (XI–XII asrlar).* Normandlar istilosidan so'ng kuchli qirol hokimiyatiga asoslangan markazlashgan davlat tashkil topadi. Bu vaqtda qirol oliy yer egasi, qonun chiqaruvchi hamda oliy sud va oliy harbiy hokimiyat egasi hisoblanadi.

Qirolga tegishli qonun chiqarish hokimiyati ko'pincha qirollik kuriyasi bilan birgalikda amalga oshirilgan. Kuriya oliy sud organi sifatida ham ish olib borgan. XII asrga kelib kuriya katta kengash va doimiy hukumat organi (kichik kuriya)ga ajralgan. Kichik kuriya oliy sud, ma'muriy va moliyaviy hokimiyatni amalga oshirardi.

Bu davrda davlatning quyidagi oliy mansabdor shaxslarini va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bosh yustitsiar qirol Angliyada yo'qligida amalda davlatni idora etib turuvchi ruhoniylar shaxs hisoblangan. Kansler uning yordamchisi bo'lgan. Kansler dastlab qirolning shaxsiy kotibi, keyinchalik qirol devonxonasi boshlig'i va davlat kotibi vazifasini bajargan. Marshal qo'shinlar qo'mondoni, kamerariy xazinabon, qirollik mol-mulki, xazinasi va yer egaliklarining boshqaruvchisi hamda hisob palatasi boshlig'i edi.

Mahalliy boshqaruv tizimi normandlar istilosidan keyin o'zgarmadi. Yuzliklarda grafliklardagi sheriflarning yordamchilari beyliflar qirollik ma'muriyati vakillari bo'lib qolganlar. Sherif graflik hududida ijro, harbiy, moliyaviy va politsiyachilik hokimiyatiga egalik qilgan.

*Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIII asrning ikkinchi yarmi – XV asr).* Bu davrda ijtimoiy tuzumda muhim voqealar yuz beradi. Jumladan, 1215-yil baronlar boshchiligida qirol hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon bo'lib o'tadi. Natijada Erkinliklarning buyuk xartiyasi qabul qilinadi. U rasman Angliyadagi birinchi konstitutsiyaviy qonun hisoblanadi. Shuningdek, 1258–1267-yillarda fuqarolar urushi bo'lib o'tadi. Oqibatda oliy hokimiyat qo'ldan qo'lga o'tib, qayta egallanadi va Angliyada parlament vujudga keladi.

Davlat boshqaruvida qirol hokimiyatining mavqei tushib, cherkov uning ustidan o'z ta'sirini o'rnatadi. Parlament dastlab tabaqa-vakillik organi shaklida bo'lib, unda uch toifa vakillari qatnashgan. So'ngra tez orada yirik feodallar tarkibida yig'iladigan bo'ldi. 1295-yilgacha boshlab yana barcha tabaqa vakillaridan iborat holda muntazam yig'iluvchi organga aylanadi. Parlament 1343-yildan boshlab yuqori – lordlar va umumpalataga bo'linadi. U keyinchalik quyidagi vakolatlarni qo'lga kiritadi: qonun chiqarishda ishtirok etish, qirol xazinasi foydasiga aholidan soliqlar olish haqidagi masalalarni hal etish, oliy mansabdor shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ba'zi hollarda maxsus

sud ishlarini yuritish. Parlament davlat boshqaruvini o'ziga bo'ysundirish yo'lida XIV asrning oxirida impeachment protsedurasini joriy etadi.

XIII asr davomida yangi ijroiya organi Qirollik kengashining rivojlanishi sodir bo'ladi. Ilgarigi qirolning eng yirik vassallari yig'ini bo'lgan Katta kengashning funksiyalari endi parlamentga o'tadi. Yangi kengash tor doiradagi oliy ijroiya va sud organi hisoblangan. Uning tarkibiga qirolning yaqin maslahatchilari, odatda kansler, xazinachi, sudyalari va vazirlar kirgan.

Mahalliy boshqaruv vakolatlari eski sudlar va graflik majlislari qo'lidan chiqib, yangi mansabdor shaxslarga va sayyor sudlarga o'tadi. Ularning vakolatlari tobora kengayib boradi. Joylarda konstebllar politsiyachilik funksiyalariga ega bo'lganlar.

XIII–XIV asrlarda sud tizimining ixtisoslashuvi jadallashgan. Biroq ko'pgina muassasalarning ma'muriy va sud hokimiyati ajratilmagan. Bu davrda Angliyada Qirol kursisi sudi, Umumiy tortishuvli sud va Xazina sudi oliy sudlar hisoblangan. Ulardan adolat yuzasidan ish ko'ruvchi Lord-kansler sudi ajralib chiqadi. XIV asrda umumiy sayyor sudlar o'rnini ancha ixtisoslashgan sayyor komissiyalar egallaydi. Bu davrda shuningdek, cherkov sudlari ham faoliyat yuritgan.

*Absolut monarxiya davri (XV asrning oxiri – XVII asrning o'rtasi).* Angliyada absolut monarxiya boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi feodalizm inqirozi va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining vujudga kelishi davrida o'rnatilgan.

Bu davrda hokimiyat va boshqaruvning oliy organlari qirol, yashirin kengash va parlament edi. Real hokimiyat qirol qo'lida to'plangan. U ko'p sonli va faqat o'ziga bo'ysunuvchi organlar orqali qonun chiqarish, ijro etish va oliy sud hokimiyatini amalga oshirgan.

Yashirin kengash oldin mavjud bo'lib, bu vaqtda batamom rasmiylashgan. U davlatning oliy mansabdor shaxslari bo'lgan lord-kansler, lord-xazinasi, qirolning shaxsiy muhrini saqlovchi lord va boshqalardan iborat edi. Kengash tarkibi doimiy bo'lmagan. Uning vakolatlarini qirol belgilagan bo'lib, maslahat organi edi. Ushbu kengash qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organi sifatidagi faoliyatini komissiyalari va komitetlari orqali bajargan. Uning farmon va ordo-nanslari parlament hujjatlari bilan tenglashtirilgan.

Parlamentning vakolatlari absolutizm davrida ham ilgarigidek saqlanib qoladi. U oldingi davrlardagidek, soliq va yig'imlar miqdorini o'rnatish imtiyoziga ega edi.

Cherkov ustidan ham bu davrda qirol hokimiyati o'rnatilib, islohotlar o'tkaziladi. Mamlakatda oliy cherkov organi – Yuqori komissiya tashkil etilgan. U diniy xarakterdagi ishlar yuzasidan tashkiliy va nazorat etish, diniy-targ'ibot vakolatiga ega bo'ladi.

Absolutizm o'rnatilishi bilan mahalliy organ tizimi, ularning markaziy boshqaruv organlari bilan munosabati belgilanadi. Asosiy o'zgarishlar tariqasida lord-leytenant mansabi joriy etiladi, cherkov prixodi (qavmi)ning quyi mahalliy birlik sifatida rasmiylashtiriladi. Lord-leytenant bevosita qirol tomonidan graflikka tayinlangan. U mahalliy ko'ngilli qo'shinlarga boshchilikni, murosaga keltiruvchi sudyalari va konstebllar faoliyatiga rahbarlikni yuritgan.

Angliya davlati XVI–XVII asrlarda Britaniya orolining egallanmagan hududlarini bosib olishga qaratilgan harakatini kuchaytiradi. Amalda bu bir necha davlatlar mustamlakaga aylantirilishi bilan tugaydi. Qo'shinni tashkil etishning asosiy tamoyillari uncha o'zgarmagan. Bu borada davlatning monopol huquqi o'rnatiladi.

## **2-§. O'rta asrlarda Yevropa davlatlari huquqiy tizimining xususiyatlari**

*Fransiyada huquqning asosiy belgilari.* Huquqning tipik belgilari shakllangan. Huquq manbalarining ko'pligi yagona milliy huquqiy tizimning tashkil etilishiga to'sqinlik qilgan. 1789-yilgi inqilobga qadar fransuz huquqi ko'p sonli huquqiy tizimlardan iborat bo'lgan. Ular muayyan doiradagi shaxslar yoki hududlarga tarqalgan.

Huquqning asosiy manbai odat hisoblangan. X asrga kelib haqiqatlarning o'rnini huquqiy odatlar (kutyumlar) egallaydi. Ularga rioya qilish nisbatan erkin bo'lgan. Odatning tan olinishi uchun unga 40-yil o'tishi talab etilgan.

Normandiyada katta kutyum 1255-yilda tuzilgan va sud amaliyotida keng foydalanilgan. Shu davrdan boshlab huquqning asosiy yozuvlari shakllana boshlanadi. Ular 1253-yilda yozilgan «do'stga maslahat» hamda mashhur, keng tarqalgan odat huquqi to'plami – 1283-yilgi «Bovezi kutyumlari va boshqalar edi. XVI asrda 60 ga yaqin katta va 200 ga yaqin kichik kutyumlar to'plamlari tuzilgan.

Mamlakatda rim huquqi va kanonik huquqi me'yorlari huquq manbai hisoblangan. Shahar xartiyalari asosida shakllangan shahar huquqi amal qilgan.

Qirollarning qonun hujjatlaridan nizomlar, ordonans (qirol hujjatlari), ediktlar, buyruqlar, deklaratsiyalar va boshqalar ham hokimiyat mustahkamlanib borishi bilan katta rol o'ynagan.

XVIII asrda kodifikatsiya ishlari yuksaladi. Qo'shimcha huquq manbai sifatida parlamentlarning maydonidan ham foydalaniladi.

Yer huquqi sohasida keyingi davrlarga kelib yerga egalik huquqi ancha erkinlashtiriladi. Majburiyat huquqi esa asosan shartnomalar asosida kelib chiqqan.

Oila-nikoh munosabatlari asosan kanonik (diniy) huquq bilan tartibga solinardi. XVI–XVII asrlarga kelib nikoh fuqarolik holati dalolatnomasi sifatida ham ko'рила boshlanadi. Oilada ota to'la hukmron bo'lib, otalar farzandlari ustidan hokimiyatga ega bo'lgan. Ota vasiyat qoldirishi mumkin bo'lib, meros katta o'g'ilga o'tgan.

Jinoyatlar uchun nazarda tutilgan jazolar ko'proq yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan. XI–XII asrlarga kelib jinoyat huquqining feodal belgilari to'liq namoyon bo'ladi. Feodal tartibni buzish jinoyat deb qaraladi. Davlat markazlashuvi bilan jinoyat huquqi tobora faqat jazo qo'llaniladigan xarakter kasb eta boshlaydi. Og'ir deb hisoblanuvchi jinoyatlar turi ko'payadi.

***Germaniyada huquqning asosiy belgilari.*** V asrdan XI asrgacha bo'lgan davrda sharqiy franklarning arxaik xalq huquqi qabilaviy xarakterga ega bo'lgan. Unda urf-odatlar muqaddas hisoblangan. Jamoaviy javobgarlik, qonli qasos, ardaliya va boshqa ramziy odatlar saqlanib qolgan.

Germaniyada huquqiy partikulyarizm mavjud bo'lgan. Turli hududiy birliklar va shaharlarning huquqi amal qilib, umumgerman huquqi yaratilmagan.

XII–XIII asrlarda imperiya markaziy organlarining qarorlari asosida umumimperiya qonunchiligi shakllanadi. An'anaviy tarzda umumimperiya huquqi jinoiy-huquqiy normalarni belgilagan.

Huquq tizimida XIII asrdan boshlab len huquqi (oliy feodal tabaqaga taalluqli huquq) alohida rivojlangan. Len huquqi, zemstvo (yer, hudud) huquqi, shahar huquqi va kanonik huquq ayni paytda bir xil munosabatlarni turlicha tartibga solgan.

German huquqining rivojlanishida odat huquqining mahalliy tizimlashtirilishi ham muhim rol o'ynagan. Bunda imperiya qonunlari va sud amaliyoti qoidalari ham hisobga olingan. Ularga misol tariqasida «Sakson zersalosi» (1220-y.), «Shvab zersalosi», «Frankon zersalosi» va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bu to'plamlarning normalari va

prinsiplari ko‘pincha o‘z huquqiy doirasidan ancha chetga chiqib, huquqning birxillashtirilishiga ko‘maklashgan.

Ularning tuzilishi alohida masalalarga oid normalardan iborat qismlardan tashkil topgan. Ularda, jumladan, fuqarolik, jinoyat, protsessual va qisman davlat huquqi normalari belgilangan.

XIV–XVI asrlarda Germaniyada huquqiy birlikning o‘rnatilishiga rim huquqining o‘zlashtirilishi ham ko‘maklashgan. Bu borada turli sohalarga taalluqli huquq to‘plamlar (qonunnomalar)i yaratilgan. Masalan, 1532-yilda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlari bo‘lgan «Karolina» nashr qilinadi.

Absolutizm o‘rnatilgandan so‘ng knazlar qonunchiligi rivojlanib, yangi qoidalarni o‘zida mujassam etgan umumdavlat qonunnomalari va sohaviy kodekslar qabul qilingan. Knazliklar umumdavlat huquqida fuqarolik, oila va boshqa «noommaviy» huquq sohalari rivojlangan.

**Angliyada huquqning asosiy belgilari.** Dastlabki davrlardagi Angliya feodal huquqi o‘zining murakkabligi, chalkashligi va ustamonlik bilan qilinganligi (kazeistikligi) bilan ajralib turgan. Bu holat uning alohida yo‘llar bilan rim huquqi ta’sirisiz shakllanganligiga bog‘liqdir.

XV asrda normandlar bosqiniga qadar Angliyada huquqning asosiy manbalari odatlar va qirollik qonunlari hisoblangan. Odat huquqining sudnoma va qonunnomalar deb yuritiluvchi ko‘plab to‘plamlari tuzilgan. Bularga misol tariqasida Etelbert sudnomasi, Ien qonunlari, Buyuk Alfred sudnomasi, Etelstan va Knut qonunlari sigari yetakchi rol o‘ynaganlarini ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari huquqning muhim manbalari qatoriga joriy qonunlarni ham kiritish mumkin. Jumladan, Xlotar (673–685-y.), Edrik (685–686-y.), Eduard (899–925-y.), Edmund (939–946-y.), Edgar (959–975-y.), Etelred II (979–1014-y.) va boshqa qonunlar.

Angliyaning XI asr boshlarida Daniya qiroli Knut tomonidan bosib olinishi natijasida Daniya (Knut) qonunlariga Angliya qonunlari bilan teng huquq berilgan. Angliya Normandiya tomonidan egallanishi oqibatida esa qirollar ingliz-sakslarning eski va asl odatlariga rioya etishga qaratilgan siyosat yuritadi.

XII asrda qirollik sayyor sudlarining doimiy faoliyat yuritishi natijasida mamlakatning umumiy huquqi tashkil topadi. Umumiy huquq qonunchilikdagi kamchilik natijasida normand va ingliz-sakslar odat huquqlari asosida vujudga keladi. Sayyor sudlar «sudya harakatdagi huquq normasini qo‘llaydi», degan prezumpsiyadan foydalangan. Ular tomonidan o‘rnatilgan tamoyil sud odatiga aylanib, barcha sudyalar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan. Faqat yuqori sud organlari tomonidagina



bekor qilinishi mumkin edi. Ulardan foydalanish uchun qulaylik yaratish, nazorat o'rnatish maqsadida sud ishlari materiallarining e'lon qilinishi bilan birga sud pretsedenti nazariyasi ham shakllandi. So'ngra ilgari qarorlarda mustahkamlangan rahbariy tamoyil kelajakda shunga o'xshash masalalarni ko'rishda asta-sekin namuna kuchiga ega bo'la boshladi.

XIV asrda tarixiy sharoitlar ta'sirida Angliyada adolat sudi paydo bo'la boshladi. Shu bilan birga, yana bir huquqiy tizim – adolat huquqi shakllanib boradi. U sudlarda himoyalanganlarni himoyaga olish barobarida yuzaga kelgan. XIV asr boshida lord-kansler huzurida adolat me'yorlariga tayanuvchi sud organi ish olib borgan.

XV asrdan olimlarning muhim va murakkab huquqiy masalalar bo'yicha traktatlari paydo bo'la boshladi. Ular amaldagi (statut) huquq normalari bo'yicha qo'llanma asarlar bo'lib, ingliz huquqining o'ziga xos manbai xarakteriga ega bo'lgan.

Qirollik qonunlari assizalar, xartiyalar, ammo ko'proq ordonanslar, statutlar deb atalgan. Ayrim qirollarning qonunlari ma'lum darajada umumiy huquqning shakli va mazmunini belgilagan. Uning asosiy qoidalari va tamoyillarini ishlab chiqqan.

Angliyaning o'rta asrlardagi huquq manbalari ichida savdo va kanonik huquqi me'yorlari alohida o'rin tutadi. Ularning huquqiy kuchi ko'pincha qirollik statutlari bilan mustahkamlangan.

---

## **VII BOB. MO'G'ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ**

### **1-§. Chig'atoy ulusining tashkil topishi va uning ijtimoiy-siyosiy tuzumi**

Chingizxon 1155/1161-yilda tug'ilgan bo'lib, otasining ismi Yesugay bahodir, onasining ismi esa O'lun bo'lgan. Asli ismi Temuchin bo'lgan. Manbalarda keltirilishicha, Temuchin o'ng qo'li yumilgan holda kaftida qon bilan tug'ilgan. Bu xabarni u yer yuzida hukmdor bo'lishi, butun dunyo podsholari uning oyoqlari ostida bo'lishini bashorat qilishgan. 1205/6-yilda poytaxt Qoraqurumda imperator deb saylanish arafasida u mo'g'ul-tatar xonlarining ulug' xoni – qooni, Chingizxon nomini oldi. Unga Chingizxon nomini, mo'g'ul dashtlarida yuradigan Tib Tangrisi bergan. Mazkur qurultoy paytida Temuchinni minglab xos soqchilari qo'riqlayotgan joyga qanday o'tib borganligini hech kim bilmaydi. U Temuchinni ko'rib, kecha menga Xudodan sado keldi. Biz yer yuziga yangi hukmdorni tanladik. Butun dunyo podsholarini unga bo'ysundirdik, unga Chingizxon deb nom qo'ydik, deydi. Bu nom Temuchinning o'ziga ham yoqadi, ayonlar esa uni «Chingizxon» deb tan oladi.

XII asrning oxirlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda quyi bosqichlarda turgan mo'g'ul qavm-qabilalarida qudratli mo'g'ul davlatini barpo qilish uchun o'zaro kurash olib borilgan. Hokimiyat uchun janglarda Temuchin g'alaba qozonadi va XII asr so'ngida ko'plab turkiy elatlardan iborat kuchli mo'g'ul davlatiga asos soladi. U ko'chmanchi mo'g'ullarning odatlarini asos qilib, kuchli va markazlashgan davlat tuzadi.

XIII asr boshlariga kelib qo'shni davlatlarni bosib olishga kirishiladi. Jumladan, bu davr oralig'ida Sibir, Sharqiy Turkiston va Xitoy yerlari egallanadi. 1218-yilga kelib Temuchin davlati hududiy tuzilishi bo'yicha 60 ta tumandan iborat bo'lgan. 1219-yil fevralda O'trorga mo'g'ullar qo'shinining kirib kelishi bilan O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilayotgan Xorazmshohlar davlatiga yurish boshlanadi. 1221-yilda butun O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi o'rnatiladi.

Davlat tizimining tepasida oliy hukmdor – xon turgan. U maxsus chaqiriladigan qurultoyda saylangan. Shu bilan birga oldin hokimiyatni boshqargan xonning vasiyati ham hisobga olingan. Taxt meros tariqasida

o'tishi mumkin bo'lgan. U urush va tinchlik masalalarini, oliy boshqaruv lavozimlariga tayinlash va chetlatish masalalarini hal qilgan. Davlat va harbiy boshqaruvda o'zini faol ko'rsatgan mansabdor shaxslarni taqdirlash ishlarini olib borgan. Xon Chingizxon davrida va undan keyin ham davlatning asosiy hududi egasi bo'lgan. U tarhon yorliqlarini chiqargan.

Davlat boshqaruvida markazlashgan davlat mahkamalari tashkil etilmagan. Oliy boshqaruv saroy tomonidan amalga oshirilgan. Mamlakat hududi u tashkil topgan davrlardanoq uluslarga taqsimlanganligi bois markaziy boshqaruv ta'sis etilmagan. Faqat ulus boshqaruvlari o'rnatilgan. Udel-ulus (o'lkalar) xon yaqinlari hamda shahzodalar tomonidan meros tariqasida olingan va ular xoqonning vassallari bo'lib hisoblangan. Markaz va ulus o'rtasidagi aloqalar saroy tomonidan olib borilgan.

Uluslar boshqaruvi borasida xon ulus hukmdori vafotidan so'ng uni marhumning o'g'illari, nabiralari, yaqin qarindoshlaridan kimga o'tishini tasdiqlagan. Masalan, Jo'jining o'limidan so'ng Botuxon uning ulusiga hukmdor qilib tayinlangan.

Shuni ta'kidlash joizki, Chingizxon barcha o'g'illarini davlatni hamjihatlikda boshqarishga chaqiradi. Jumladan, u shahzodalar oldida to'rtta kamon o'qini alohida sindirib ko'rsatadi. Keyin esa to'rtta o'qni birlashtirib, sindirish uchun berganda hech bir o'g'ili sindira olmaydi. Shunda aytadiki bu o'qlar ham sizlarga o'xshar, agar barchangiz birikib, biringizni podshoh qilib unga bo'ysunsangiz, sizlarni hech kim mahv eta olmaydi»<sup>1</sup>.

Davlatning oliy boshqaruv organi Qurultoy bo'lgan. Unda yuqori mavqega ega urug' zodagonlari, yirik harbiy qo'mondonlar ishtirok etgan. U juda muhim masalalarni hal qilishga vakolatli hisoblanadi. Uning yig'inida xon yakka holda zodagonlarni jazolashi mumkin bo'lgan.

Saroy boshqaruv tizimida saroy xo'jaligi boshqaruvchilari, tungi tanaqo'riqchilari, tana qo'riqchilari, qo'riqchilar, kamonchilar, kunduzgi xizmatchilar, tungi xizmatchilar va boshqalar faoliyat olib borgan.

Chingizxon o'zining eng ishonchli va fidoyi odamlarini saroyning asosiy muhim lavozimlariga qo'yadi. Masalan, o'zining to'rt o'g'lini har qaysisining qobiliyati va saviyasini hisobga olib, davlat lavozimlariga birlashtiradi. Jumladan, katta o'g'li Jo'jixon – saroydagi tantana va ovni tartib etishga, ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon – lashkar ishlariga, uchinchi

---

<sup>1</sup> *Абулғозий Баҳодирхон*. Шажарайи турк. –Т., 1992. – Б. 60.

o'g'li O'qtoyxon – mamlakat tadbirlariga, To'lixon – saroy va davlat amaldorlarning muhofazasiga qo'yilgan.

Chingizxon tomonidan amalga oshirilgan davlat boshqaruviga oid islohotlardan biri shuki, barcha mo'g'ullarni mingliklarga bo'lib, ularga mingboshilarni tayinlaydi. Natijada, 95 kishi bahodir, mingboshi lavozimiga tayinlanadi. Yer islohoti o'tkazilib, bir necha ming kishi tarxonlarga aylantiriladi. Saroy boshqaruvida o'nta lavozim ta'sis etiladi. Xon xavfsizligi bo'yicha 150 kishidan iborat shaxsiy gvardiya tuzadi. Qo'shin tarkibida 1000 ta dovyurak, ishonchli kuchlardan iborat shaxsiy drujina tashkil etadi va ularning soni 10 000 kishiga yetkaziladi. Bu drujina qo'shinlar sarasini tashkil etib, eng og'ir va hal qiluvchi paytda jangga kiritilgan.

Mo'g'ullar davlatida aholi ham xuddi mo'g'ul qabilalari singari o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingan. Shu tartibda 10000 qo'shinlik 10 000 o'tov yoki 40-50 mingga yaqin aholi hududidan iborat ma'muriy-hududiy birlik – «tumanlar» joriy qilingan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, aholi va qo'shin mutanosibligi jihatidan mo'g'ullar davlati boshqaruvi – ko'pgina manbalarda harbiy-ma'muriy boshqaruv tuzumi sifatida ham e'tirof etiladi.

Belgilangan tartibga ko'ra bir ovuldan boshqa ovulga o'tish taqiqlangan. Umuman olganda, mo'g'ul qabilalari o'nlik, yuzlik, minglik, tumanlarga bo'lingan. Ularga shu miqdor nomi bilan ataluvchi shaxslar boshchilik qilgan. Bu shunday birliklar guruhiki, ular zarur hollarda o'n, yuz, ming, o'n ming navkar tuza olishi kerak bo'ladi. Xalqni yuzlik va mingliklarga taqsimlash alohida qayd etib borilgan.

Yuzboshi, mingboshi, tumanboshi unvonlari meros tariqasida otadan o'g'ilga yoki yaqin qarindoshga qolishi mumkin. Bu unvonni olgan shaxslar – «no'yon» (nuyun)lar deb atalgan va ularga xon tomonidan yorliq berilgan.

No'yonlar o'z navbatida shahzodalar va xonning vassallari hisoblangan. Shu bilan birga doim yuzboshilar mingboshilarning, mingboshilar tumanboshilarning vassallari hisoblangan. Boshqacha aytganda, davlat boshqaruvi yuqoridan quyiga xoqon-shahzoda (ulus hukmdori)-tumanboshi-mingboshi-yuzboshi shaklida bo'lgan.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, mo'g'ullar davlatining dastlabki davrlarida, ya'ni XIII asrda Papa Innokentiy IV ning Chingizxonga yuborgan elchisi Plano Karpini (1246 y.) xristianlik diniga chaqirish va do'stlik maqsadida tashrif buyuradi. Elchi Plano Karpini mo'g'ullar davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi bilan yaqindan tanishadi.

Chingizxon hali hayotligi chog'idayoq, ya'ni 1224-yilda bosib olingan hududlarni o'z yaqinlari (harbiy sarkardalaridan – Subitoy, Xubiloy, Jebe) va farzandlari o'rtasida taqsimlab beradi. *To'ng'ich o'g'li Jo'jiga* Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo'yi, Shimoliy Xorazm (ayrim manbalarda keltirilishicha Xorazm to'laligicha Jo'ji ulusiga kiritilgan va qisqa vaqt ichida mahalliy so'fiylar sulolasi namoyandaligida ajralib chiqqan) va Darbandgacha bo'lgan yerlar tegadi. Jo'ji vafotidan so'ng bu yerlar uning o'g'li Botuxonga (1227–1255-y.) qoladi. U Sharqiy Yevropaning katta qismini bosib olib, Oltin O'rdaga asos soladi. Shuningdek, Movarounnahrning katta hududlari ham uning ixtiyoriga o'tadi. *Ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga* Sharqiy Turkiston, Yettisuv o'lkalari, Movarounnahr, Xorazmning janubiy (markazi Qiyot shahri) hududlari, ya'ni O'rta Osiyoning Olmaliqdan Amudaryogacha qadar hududi. Shuningdek, Balx, Badaxshon, Qobul, G'azna va Sind daryosigacha bo'lgan yerlar ham beriladi. *Uchinchi o'g'li O'qtoyg*a (1227–1241-y.) Chingizxon o'z vatani Mo'g'ulistonni va Xitoyni hadya qiladi. *Kenja o'g'li Tulu (To'lu)*ga esa Xuroson, Eron va Hindiston tegadi.

Chingizxon lashkarlarni ham farzandlari o'rtasida taqsimlab beradi. Shu tariqa mo'g'ullar zabt etilgan ulkan hududni uluslarga bo'lib boshqaradilar. Uluslar markaziy hokimiyatga – xonlar xoniga bo'ysunadi. Chingizxon vafotidan keyin xonlar xoni, ya'ni qoon O'qtoy bo'lgan. Ulug' xonning poytaxti – Qoraqurum shahri hisoblangan.

Ulus egalari o'z uluslarida xon unvoni ostida raiyatni boshqarganlar. Viloyat beklarini lavozimga tayinlagan va lavozimidan ozod etgan (Masalan, Movarounnahrda Kesh, Buxoro, Shosh, Badaxshon, Xo'jand bekliklari). Oliy sud hokimiyatini amalga oshirib, nizoli masalalarni hal qilganlar.

Odatda, mamlakatdagi uluslar salohiyati unda yashovchi o'troq aholi soni, ko'chmanchi ovullar miqdori, ko'chib yurish uchun zarur bo'lgan hudud va yig'ilishi mumkin bo'lgan askarlardan iborat holda belgilangan.

O'troq aholi yashovchi madaniy o'lkalar ulus tarkibiga kirsada, dastlabki davrlarda xoqon tomonidan boshqarilgan. Xon-imperator bu yerlarni alohida tayinlangan gubernatorlar orqali boshqargan. Shahzodalar bu yerlardan tushadigan soliqlar daromadidan foydalanishi mumkin. Lekin o'zlari mustaqil tarzda soliq yig'a olmagan.

Movarounnahr, Sharqiy Turkiston, Yettisuv o'lkalari va Xorazmning janubiy hududlari Chig'atoyxon (1227–1241-y.) ulusiga qarashli bo'lib, ulus poytaxti Beshbaliq shahri hisoblanadi. Bu suloladan 32 xon



hukmdorlik qilgan. Ular XIV asrning 40-yillariga qadar mavjud edi. XIV asr o'rtalariga kelib, Chig'atoy ulusi 15 ga yaqin yerlar mulklarga bo'linadi. Jaloyir va boshqa qabilalarning ko'chib ketishi, bosh kent Turkistonga ko'chirilishi, mo'g'ullarning islom dinini qabul qilishlari bilan Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketadi. Boshqacha aytganda, shimoliy-sharqiy qismda Yettisuv va Qoshg'ardagi mo'g'ullar o'z mustaqilligini e'lon qilishlari tufayli Yettisuv va Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'uliston davlati (hokimlik) paydo bo'ldi. Bu vaqtda Movarounnahr Amir Xusayn tomonidan idora etiladi.

Jo'ji ulusiga kirgan turkiy xalqlarning ko'pchiligi O'zbekxon davridan boshlab «o'zbeklar», Chig'atoy ulusi tarkibidagi turkiy xalqlar esa «chig'atoylar» deb atala boshlanadi.

Mo'g'ullar davlatining maslahat organi bo'lgan qurultoy qisqa muddat ichida alohida ulus bo'yicha ham chaqirilib turilgan. Jumladan, 1240–1241-yillarda Ug'adayxon Katta qurultoy chaqirgan. Unda akalari, o'g'illari, qarindoshlari ishtirok etib, Yaso qonunlari yana bir bor e'lon qiladi.

1269-yilda Qurultoy chaqirilib, unda Turkistonning og'ir iqtisodiy ahvoli muhokama etilib, Chingizxon vorislarining o'zboshimchaligi va o'zaro janjallariga qarshi qaror qabul qilgan. Xususan, har bir shahzoda shartnomaga ko'ra o'ziga tegishli minglik (hazora) bilan hamda Samarqand va Buxorodagi hunarmandchilik ustaxonalari bilan qanoatlarni lozimligi haqida qaror chiqarilib, qo'shnlarni shaharlarga va ekin yerlariga yaqin kelishlari taqiqlanadi.

Chig'atoy ulusida 1235, 1251-yillarda ikki marta aholi ro'yxati o'tkazilib, hatto hunarmandlar ham mo'g'ul feodallariga, oilalar hazora, ya'ni mingliklarga birlashtirilgan. Minglik deganda, daromad keltiruvchi soliq to'lovchi aholi tushunilgan.

Chig'atoy ulusida Ug'odoyxon davrida soliq islohoti o'tkazilgan. Unga ko'ra dehqonlardan hosilning 10 foizini (kalon, xiroj), chorvadorlardan 1 foiz (natura, qopchur), podadan 1 ta ikki yashar qo'y (shulen), 1000 ta otdan 1 ta biya yillik soliq sifatida olinishi belgilangan.

Keyinchalik Munkaxon soliqlarini pul bilan belgilaydi. Har kishidan 11 dinorgacha «tuz», «jon va kumush solig'i» soliq olishni joriy etgan. Bundan tashqari, qator natura to'lov va maxsus o'lponlar joriy etilgan. Xususan, hunarmand molning 1/30, savdogarlar 1/40 miqdorida soliq to'lagan.

Movarounnahr mo'g'ullar istilosidan keyin Chig'atoy ulusiga kirsada, Chingizxon vafoti (1227-y.)ga qadar barcha uluslar qatori dastlab

to'g'ridan-to'g'ri Ulug'xon tomonidan boshqarilgan. Keyinchalik, Chingizxon vafotidan so'ng Ug'adoyxon Chig'atoy ulusida hokimiyatni boshqaradi. Bu davrda (1227–1241-y.) Chingizxonning ilgarigi elchisi bo'lgan mahalliy savdogar Mahmud Yalavoch (keyin Pekin hokimi), so'ngra uning o'g'li Ma'sudbek (1238–1289-y.) mo'g'ul davlati nomidan Movarounnahr va Qoshg'arni noib-ijarador sifatida idora qilishadi.

Ular Movarounnahrdan olinadigan o'lpon va soliqlarni o'zlari to'lab boshqarganlar. Bu davrda davlatning markazi Xo'jand (Sirdaryo)ga ko'chirilgan. Ularga hoqon nomidan raiyatni boshqarish va soliqlarni yig'ish huquqi berilgan. Mo'g'ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko'p sonli jangchilar ham ular ixtiyoriga biriktirilgan. Shu asnda ular 70 yildan ortiq davrda Movarounnahrni mo'g'ullar nomidan boshqarganlar. Harbiy hokimiyat, aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari esa doruxachi va tamg'ach, deb ataluvchi mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'lgan.

Ma'sudbek (1238–1289-y.) 1271-yilda pul islohoti o'tkazadi. Unga ko'ra Movarounnahrning ko'pgina shaharlarida bir og'irlik sifatiga ega bo'lgan kumush tangalar zarb etiladi. Shuningdek, u mahalliy yurt vakili sifatida savdoni rivojlantiradi, mo'g'ullarning soliq va to'lovlariga oid o'zboshimchaligiga chek qo'yadi. Islom dini va musulmon ruhoniylarining mavqei oshadi hamda aholining o'troqlashishi kuchayadi.

Chig'atoy sulolasidan bo'lgan Duvaxon davrida bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, Farg'onada Andijon, Xorazmda Yangi shahar (Urganch) shaharlari quriladi. Chig'atoyxon avlodidan Duvaxonning o'g'li Kebekxon (1318–1326/1334-y.) esa poytaxtni ko'chirib, Qarshi shahriga asos soldi. Shuningdek, Kebekxon Chig'atoy ulusida pul va ma'muriy-hududiy islohotlarni ham o'tkazdi. Uning pul islohotiga ko'ra yangi tangalar – «kapaka» zarb etilib, katta va kichik kumush tanga – tilla dinor va dirhamlar joriy bo'ladi.

Kebekxonning ma'muriy islohoti asosida ulusni aholisi 40–50 ming kishidan iborat ma'muriy-hududiy birlik – tumanlarga bo'lish yotadi. Bundan maqsad davlatni markazlashtirish, bekliklarning o'zboshimchaligini tugatish edi. Shuning uchun ilgarigi bekliklar tugatilib, tumanlar tashkil qilingan (Samarqandda 7 ta, Farg'onada 9 ta). Endi tuman boshliqlari xonning amirlari bo'lib qoladi. Shahar hokimlari tuman boshliqlarining noiblari hisoblanadi. Tumanboshi bir vaqtning o'zida ham hokim va umumiy sud ishlarini ko'ruvchi bo'lgan.

Davlatda oliy sud – hoqon hisoblangan. U eng og'ir jinoyatlarni ko'rib chiqqan va hal etgan. Joylarda sudlov ishlarini yorg'uchilar olib borgan.

Qo'shin tizimli bo'linmalarga bo'lingan. O'n jangchiga bitta boshliq, ya'ni o'nboshi, o'nta o'nboshiga bitta yuzboshi, ...mingboshi va tumanboshilar ta'sis etilgan.

Qo'shin tarkibida bir qancha maxsus lavozimlar joriy etilgan. Jumladan, *yurtchi* – mansabdor shaxs bo'lib, uning asosiy vazifasi xon va qo'shinning yozgi va qishki ko'chish qarorgohini oldindan belgilash, xon, amaldorlar va harbiylar o'tovini maxsus qoida asosida joylashtirishdan iborat bo'lgan. Bu qonun-qoidalariga ko'ra xon o'tovining o'ng tomonida hokimlar, amirlar, qo'shin boshliqlarining o'tovlari joylashgan. Chap tarafida esa vazirlar, to'ralar, Qurultoy a'zolarining o'tovlari joylashgan. Devonxona kotiblari, qozilar va muhim diniy amaldorlar xon o'tovining qarshisiga joylashgan. Odatda o'tovlar aholi yashaydigan hudud va ekin maydonlaridan uzoqda joylashtiradi.

Qo'shinda joriy etilgan *bo'larg'uvchining* asosiy vazifasi o'rdadan qo'zg'algan paytda o'tovlarda odamlar, buyumlar, qoramol, qullar va anjomlar qolgan yoki qolmaganligini nazorat qilish, esdan chiqarilgan narsalarni egasiga qaytarish edi. *Tevachi*, ya'ni tuyakash bo'lgan. *Bakovul* qo'shinga maosh berish, qo'lga kiritilgan o'ljaga muhr qo'yish, o'ljani saqlash va taqsimlash bilan shug'ullangan. *Torg'uvchi* esa qo'shin muhrini saqlovchi hamda harbiy mansabdorlar orasida yuzaga keluvchi nizolarni hal qiluvchi qozi vazifasini bajargan. *Yasovullarning* vazifasi harbiy amaldorlarning marosim, ko'rik, ov va o'rdadan chiqish paytlarida egallashlari lozim bo'lgan joylarni ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

## **2-§. Chingizxon «Yasog'i» – asosiy huquq manbai**

O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi davrida huquqning asosiy manbalari qatorida Chingizxon yusunlari bilan birga o'troq aholi yashaydigan hududlarda shariat qonunlari, ko'chmanchi aholi hududida odat huquqi normalari amal qilgan.

Ulkan davlat tuzgan Chingizxon bu davlatning ichki mustahkamligini ta'minlab turishda qonunlarning ahamiyati katta ekanligini tushungan, bu holat uning bitiklarida o'z aksini topgan. 1206-yilda Yoso qonuni qabul qilindi. Bu huquqiy qoidalar to'plami shaxsan Chingizxon tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Chingizxonning aytishicha, uning davriga qadar o'g'rilik, vahshiylik, talonchiliklar, tartibsizliklar, xiyonat va jirkanch illatlar oddiy bir hol bo'lgan. Farzandlar ota-onalariga itoat etmas, yoshlar kattalarga quloq solmas, erlar xotinlariga ishonmas, xotinlar erlariga bo'ysunmas, qaynona kelinni va kelin qaynonani hurmat

qilmasdi, boylar kamabag'allarga yordam bermas edi. Chingizxon bu ishlardan nafratlanadi, o'zi bosh bo'lgan mamlakatda qattiq tartib intizom o'rnatishni maqsad qiladi. Shu boisdan ham «Yaso» qonunida bunday tartib intizomning huquqiy qoidalari ishlab chiqilgan.

Unda mulkiy tengsizlik ko'zga tashlanib, hukmron tabaqa tarhnlarga katta imtiyozlar berilgan.

Ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholi o'rtasida tuman va uluslarda ayniqsa, aholi o'z urf-odatlarini, qabila urug'chilik an'analariga qat'iy amal qilib kelganlar. Shu boisdan ham Chingizxon Yaso qonunlari xususiyatlarini o'zida singdirgan. Odat huquqi mazkur yerlarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, xususan harbiy hizmatni o'tash, sha'nu-sharaf, izzat-nafs, chorvani o'g'irlash, kelin o'g'irlash, qalin to'lash, qarindoshlarni o'ldirganlik uchun qasd olish kabi nizolarni muhokama qilish va hal etishda taomilga asoslangan holda qo'llanilgan.

Yasoni tuzishdan maqsad markazlashgan mo'g'ul davlatini tuzishdan iborat edi. Unda davlat huquqi, harbiy qurilish, davlat boshqaruvi, beklar, noyonlar va amaldorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatga oid qoidalar, jinoyat, fuqarolik, sud yuritish, jazo va uning turlariga, oila-nikoh va mulkka tegishli me'yorlar to'planib metall taxtalarga o'yilib yozilgan va har safar yangi xonni saylash vaqtida e'lon qilingan. Yasoning 33 parchasi hamda Chingizxonning davlat boshqaruvi, harbiy ishlar, jinoyat va jazoga oid 27 nutqi – biliklari, parchalar tarzida bizgacha yetib kelgan.

Har bir yangi saylangan xon birinchi navbatda o'zi «Yaso»ga qat'iy rioya qilish to'g'risida qasam ichishi lozim bo'lgan. Xalqqa «Yaso»ga xiyonat qilgan xonni taxtdan ag'darish va uni umrbod qamoq jazosiga solish huquqi beriladi.

Yusunlarda osmon va yerni yaratuvchi, hayot va o'lim, boylik yoki kambag'allik beruvchi, ibodatlarimizni qabul qiladigan yoki qilmaydigan yagona xudoni tan olish haqida qoida mavjud.

Unga ko'ra islom dini boshliqlari qalandarlar, qorilar, darveshlar, so'filar, yuvg'uvchilar, zohidlar, gadolar, qozilar, tabiblar soliq to'lash, og'ir ishlardan va jamoat ishlaridan ozod qilinadilar.

Urushlar davrida ayollarning gunohi afv etish lozimligi belgilandi. O'g'rilarga nisbatan qattiq jazo tartiblari joriy qilingan. Agar o'g'ri chorvani o'g'irlasa, u chorva haqqini to'qqiz barobar to'lashi lozim. To'lash imkoniyati bo'lmasa, o'g'rining farzandlari asoratga solinishi, farzandlari va mablag'lari bo'lmagan taqdirda esa u o'lim jazosiga mahkum etilardi.

«Yaso»da mo'g'ullar ongiga urush olib borishning yalpi qirg'in uslubini singdirish faxrli ish ekanligi alohida ta'kidlanadi. Umuman olganda, o'lim jazosi mo'g'ul harbiy-feodal davlati tuzumini mustahkamlashning birdan-bir samarali vositasi hisoblangan. Jumladan, fohishalar, poraxo'rlar, yolg'onchilar, suv va olovni haqoratlaganlar uchun hamda sutni yerga to'kkanlik uchun o'lim jazosi belgilangan.

Ayniqsa, qo'shinni mustahkamlash va unda tartib intizomni yo'lga qo'yish maqsadida o'lim jazosi keng qo'llanilgan. Xonning buyrug'ini bajarmaslik eng oliy gunoh hisoblangan. Xon buyruqlari uning ixtiyoridagi amaldorlar tomonidan bevosita tumanbegilarga va qabila boshliqlariga yetkazilgan. Boshliqlarga o'zga boshliqqa tobe jangchilarni qabul qilish qat'iyan taqiqlangan. Belgilangan joyga qo'yilgan har bir boshliq boshqalar yordamga muhtoj bo'lgan taqdirda ham ruxsatsiz o'z joyidan keta olmas, o'z navbatida boshqalar ham undan yordam kutishga haqlari yo'q edi. Bu qonunni buzish o'lim bilan jazolangan. Maxsus buyruqsiz dushmanni talon-toroj qilish ham o'lim bilan jazolangan. U yoki bu mamlakatga urush ochish va qo'shin tortib borish masalasini faqat qurultoy hal qilar edi.

Yaso ko'rsatmalarini bajarmaganlik uchun harbiylar tomonidan, ayniqsa, harbiy amaliyotlar davrida taqiqlangan 36 xil harakatdan 13 tasiga o'lim jazosi berish belgilangan. Jumladan, boshliqqa itoatsizlik, belgilangan joyga qo'yilgan boshliqning o'z o'rnini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, o'z boshlig'ining buyrug'ini bajarmaslik, jang vaqtida qochish, kelishmay turib chekinish, sotqinlik va xoinlik, qochoq qulni egasiga qaytarmaganlik hamda asirga olingan kishiga asirga oluvchining ijozatsiz yordam berish kabi jinoyatlarga bir jazo – o'lim jazosi berilgan.

Bulardan tashqari, ayg'oqchilar, soxta guvohlik beruvchilar, jodugarlar, axloqsizlar, tabiatni ifloslantiruvchilar, vazifasidan foydalanib pora oluvchilar, fohishalar va unga dalolatchilarga nisbatan ham o'lim jazosi tayinlangan<sup>1</sup>.

Mol-mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlardan mayda o'g'rilik uchun o'g'irlangan narsaning uch baravari (ba'zi hollarda 9 baravari) miqdorida jarima undirish, agar uni to'lay olmasa, 7–700 martagacha qamchi bilan urish, ko'p miqdordagi o'g'rilik uchun esa o'lim jazosi belgilangan.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи.* – Т., 2003. – Б. 139.



Mo'g'ullarning jinoiy jazo siyosatida amal qilgan din – buddaviylik huquqiy mafkurasining ta'siri sezilib turadi. Masalan, yolg'on ko'rsatma berganlik, suv va o't (yaylov)ni ifloslantirganlik hamda muqaddas ichimlik hisoblangan sutni yerga to'kkanlik uchun qatl etish jazosi tayinlangan.

Yaso qoidalariga ulug' xonlari, ayniqsa, Chig'atoyxon qattiq amal qilgan. Ba'zi hollarda ularning o'zlari ham bu qoidalarning benuqson bajarilishi uchun buyruqlar chiqarganlar.

Yaso qonunlar Mo'g'ullar hukmronligi tarkibida bo'lgan barcha hududlarda, jumladan Oltin Urda doirasida ham qo'llanilgan. Ammo o'zbekxon davrida mo'g'ullar yoppasiga islom dinini qabul qilib, o'zlari turklashib ketganlar. O'sha davrdagi o'zbek tili – turk-chig'atoy tili Oltin O'rda adabiy muhitda, shuningdek, davlat ishlarini yuritishda ham shakllana borgan. Binobarin, mazkur xonlikda Yaso qonunlaridan ko'ra shariat huquqi asosiy huquq manbaiga aylangan<sup>1</sup>.

Sud tizimi borasida shuni aytish mumkinki, Oltin O'rda yoki bu davrda Chig'atoy ulusining tarkibiga kirgan hozirgi O'zbekiston hududida sud ishlarining tashkil qilinishi masalalariga doir manbalar yoki maxsus bir asar hozirgi kunga qadar ma'lum emas. Dastlabki vaqtlarda, ya'ni jamiyatning yuqori tabaqasi musulmon dinini qabul qilmagan va mo'g'ullar hokimiyati musulmonlashmagan davrlarda mo'g'ullarga taalluqli ishlarda sud yuritish Yasoga asoslangan. XIV asrning 30-yillarida Oltin O'rdaning eng madaniy o'lkasi – Xorazmning poytaxti Urganchga borgan arab sayyohi Ibn Batutta o'z esdaliklarida Oltin O'rdaning Xorazmdagi noibi Qutlug' Temurxonning qabul marosimida bo'lib sud masalalari xususida quyidagilarni yozib qoldirgan: «Bu amirning adolatlaridan biri shuki, har kuni qozi uning qabulxonasiga keladi va o'ziga ajratilgan kursiga o'tiradi, uning bilan birga faqihlar va kotiblar keladilar. Qozining ro'parasiga amaldorlardan biri o'tiradi, uning qabulida org'uchi (yorg'uchi) deb ataladigan sakkizta amir va turk shayxlari ham ishtirok etadilar. Odamlar ularning huzuriga sudlashish uchun keladilar. Diniy ishlarga taalluqli janjallarni qozi hal qiladi, boshqa ishlarga shu amirlar yechim topadilar. Ularning qarorlari aniq va adolatlidir»<sup>2</sup>.

Professor Z. Muqimovning fikri mazkur shahodatlarni dalolatlaydi, ya'ni quyidagi xulosalarni ilgari suradi: sud ishlari markazda bevosita xon

---

<sup>1</sup> Qarang: *Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи.* – Т., 2003. – Б. 140.

<sup>2</sup> *Ибрагимов Н. Ибн Батутта и его путешествие по Средней Азии.* – М.: Наука, 1998. – С. 78.

noibining huzurida, uning nazorat ostida olib borilgan; diniy ishlar shariat huquqi asosida yorg'uvchilar (sudyalar) tomonidan hal etilgan; sudyalar – yorg'uvchilar nufuzli, e'tiborli zodagonlardan tayinlanganlar; sud funksiyasi kundalik ish bo'lgan.

XIV asrlarga kelib, Yaso asta-sekinlik bilan o'z o'rnini uzil-kesil shariat normalariga bo'shatib bera boshlagan<sup>1</sup>.

Shuni alohida qayd qilmoq lozimki, Chingizxon vafotidan keyin mo'g'ul davlati uluslar mulki tarzida yashadi. Keyinchalik o'zbek, qozoq, qirg'iz, boshqird, totar va boshqa xalqlar tarkibiga kirgan turk urug' va qabilalari bu davlatning tayanch kuchlariga aylandi. Zero, Yaso qonunlari O'zbekiston davlatchiligi va huquqi tarixida o'z ta'sirini qoldirdi. Zotan, o'zbek davlatchiligi va huquqining keyingi taraqqiyot bosqichlarida sezilarli iz qoldirdi, ayniqsa bu, odat huquqining ko'p jihatlarida namoyon bo'ldi va ko'chmanchi aholi o'rtasida keng tarqalib uzoq vaqt amal qilib keldi.

Mo'g'ullarning O'rta Osiyoni bosib olishi bilan bu yerda davlat va huquq, armiya bilan bog'liq masalalarda ham mo'g'ullar davri ma'lum darajada iz qoldirdi. Jumladan, bu hududdagi davlatlar hayotiga qurultoylar o'tkazish, mahalliy-ma'muriy bo'linish, soliq birliklarini aniqlash, tumanlarning joriy etilishi, hujjat evaziga ma'lum shahar, qishloq va tumanlarni suyurg'ol (hadya) qilib berish, ba'zi bir jinoyat (o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik) uchun Yaso qonunlariga binoan og'ir jazo tayinlash, armiya ta'minoti va tuzilishi, tartibi kabi davlat boshqaruvi unsurlari kirib kelib o'zbek xonliklari davrida ham ma'lum darajada amalda bo'ldi. Ularning ko'plari qadimgi turkiy xalqlardan olingan bo'lsa-da, Turkistonga bosqinchilar orqali joriy bo'lgan islohotlar sifatida baholanishi mumkin. Chig'atoy ulusining ikkinchi qismi Mo'g'ulistonga kelsak, uning aholisi turkiy va turkiylashgan mo'g'ul qabilalaridan iborat bo'lib, ular Tug'luq Temurxon davridan, xususan, u xonlikka ko'tarilgan davrdan (1347–1348-y.) e'tiboran islom dinini qabul qila boshladilar. Shu munosabat bilan Chingizxon yasosidan ko'ra shariat huquqi ular orasida keng yoyila boshladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Movarounnahrda mo'g'ullargina emas, balki Mo'g'uliston yoki «Jete»da ham mo'g'ullar turklashib, islom dinini qabul qildilar va shariat huquqini XV asrning birinchi yarmidayoq huquqning asosiy manbai sifatida tan oldilar.

---

<sup>1</sup> Qarang *Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи.* – Т., 2003. – Б. 141.

---

## VIII BOB. AMIR TEMUR DAVLATI VA HUQUQI

### 1-§. Movarounnahrda markazlashgan Amir Temur davlatining tashkil topishi va uning davlat boshqaruv apparati

Ma'lumki, Amir Temur butun jahonga mashhur va buyuk qudratli davlat barpo etgan. Uning tashkil etgan bu davlati o'zbek milliy davlatchiligi davomi bo'lib hisoblanadi. Bu fikrning tasdig'ini Amir Temurning quyidagi so'zlarida ham ko'rishimiz mumkin: «Biz kim, Mulki Turon Amiri Turkistonmiz. Biz kim, millatlarning eng qadimi va eng ulug'i Turkning bosh bo'g'inimiz». Amir Temur o'zbek davlatchiligini tashkil etish bilan Markaziy Osiyoda mo'g'ullar mustamlakachiligiga barham berdi. Islom dini, shariat qoidalarini qo'llab-quvvatladi.

Amir Temurning o'zbek davlatchiligi oldida qilgan xizmatlaridan biri shundaki, u 150 yillik uzoq bir davr o'tib, odatlar, an'analarda katta o'zgarishlar sodir bo'lganiga qaramay, qadimdan mavjud bo'lgan o'zbek davlatchiligi boshqaruv tizimining eng ilg'or namunalarini qaytadan tikladi. Davlat va jamiyatning o'zaro munosabatini belgiladi. Jumladan, jamiyat a'zolarini 12 tabaqaga ajratib, davlatchilik asoslarini mazmunan boyitdi.

Sohibqiron Amir Temur shaxsi va o'gitlari bugungi kundagi ahamiyati kattadir. Hozirgi kunda istiqlol sharofati tufayli Amir Temur shaxsi va faoliyati milliy davlatchilik tajribasi nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. Temur tuzuklari esa boy ilmiy-ma'naviy meros sifatida qadrlanib kelinmoqda.

Ushbu so'zlarimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz: «Bizning tariximizda Amir Temurday ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu-o'gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q»<sup>1</sup>. Mamlakatimiz rahbarining ushbu fikrida mavzuning dolzarbligini yana bir marotaba ko'rish mumkin.

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Амир Темур – фахримиз, ғуруримиз// Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. –Т., 1997. –Б.190–191.

Prezident Islom Karimovning yana quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: «Hamisha xalq g‘amini, yurt g‘amini o‘ylab yashagan Sohibqiron yovlar oyog‘i ostida toptalgan o‘lkani dunyoning eng qudratli saltanatiga aylantirgan edi. Kelinglar, aziz do‘stlar, barchamiz yakdil bo‘lib, halol mehnatimiz, aqlu zakovatimiz, Vatanga muhabbatimiz bilan O‘zbekistonni jahon havas qiladigan buyuk davlatga aylantiraylik. Bu yo‘lda bobokalonimizning: «Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin» degan dono o‘gitlari doimiy shiorimiz bo‘lsin»<sup>1</sup>.

Amir Temur hijriy 736-yil (milodiy 1336-yil 9-aprel)da Qashqadaryo vohasining Shahrisabz (Kesh) bekligiga qarashli Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida, barlos Tarag‘ay xonadonida tavallud topgan. Otalari – turkiy barlos urug‘ining biyi (oqsoqol) Muhammad Tarag‘ay, onalari Sadr ash-shari‘a уруғидан Бухоро қонунларини sharhlovchisining qizi Takina Muhibegimdir.

Amir Temur quyidagi unvonlarga ega bo‘lgan: Sohibqiron - Zuhro va Mushtariyning bir-biriga yaqinlashish holati «Qiron burji» deb ataladi. Amir Temur Zuhro (Venera) va Mushtariy (Юпитер) bir-biri bilan yaqinlashganda tug‘ilgan. E‘tiqodga ko‘ra bunday bola kelajakda toj-saltanat va baxtu-iqbol egasi bo‘ladi; Qutbiddin – zamona peshvosi, yo‘l ko‘rsatuvchisi, avliyo; Абулмансур – zafarmand, g‘alaba qozonuvchi.

Amir Temur 1405-yil 18-fevral kuni Xitoyga yurish chog‘ida O‘trorda vafot etadi. U umrining eng so‘nggi daqiqalarigacha faqat bir narsani – el-yurt osoyishtaligi va ravnaqini o‘yladi. Bu uning vasiyatlarida o‘z aksini topgan: Zo‘ravonlikka monelik qilish ishini kechiktirish mamlakatni xavfu xatar ostida qoldiradi, jumlayi xaloyiqning huzur halovatini buzadi, maslagu-tariqatning buzilishiga olib keladi. Qiyomat kuni bizdan so‘raydilar, surishtiradilar. Shu kundan e‘tiboran farzandimiz (nabiramiz) Pir Muhammad (ibn) Jahongirni o‘zimizga valiahd va toju taxt vorisi etib tayinladikkim, Samarqand taxti uning amri farmonida bo‘lg‘ay, tamkinlik va istiqlool bilan mulku millat, lashkar va rayyatning muhim yumushlari bilan mashg‘ul bo‘lsin. Sizlar esa unga tobelik va bo‘ysunish marosimini o‘rniga qo‘yinglar, birgalikda uni qo‘llab-quvvatlanglar, toki olam buzilmasin... . Mamlakat manfaati va xalqlar farovonligi bobida (kishilar tajribasida) nimaiki aytilgan bo‘lsa, yodda tutinglar. Rayyat va qo‘l ostingizdagilar ahvolidan bexabar qolmang. Qilich dastasini shijoat va mardlik qo‘li bilan mahkam

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Халқимиз бор экан, Амир Темур номи барҳаётдир// Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. –Т., 1997. – Б.166–167.

ushlanglar, shundagina men kabi podshohlik tizginini mustahkam tutgaysizlar. Shu yo‘l bilan men Turon va Eronni muxoliflar va mufsidlardan tozaladim, adolat va ehson orqali obod etdim. Agar mening vasiyatlarimga amal qilgudek bo‘lsangiz, adolat va himmatni o‘zingizga maqsad qilib olsangiz, davlat va mulk uzoq yillar davomida siz bilan qolgay. Agar oralaringda bir qadar qarama-qarshilik yuz bergudek bo‘lsa, bilingki, uning oqibati yaxshilik bilan tugamaydi. Chunki (bunday sharoitda) dushmanlar fikrini fisqu fasod qamrab oladi va (bu sizlar uchun ko‘plab kutilmagan) qiyinchiliklarni tug‘diradi.

Rivoyat qilishlaricha, Tarag‘ay Bahodir kunlarning birida g‘alati tush ko‘radi. Tushida bir nuroniy odam uning qo‘liga qilich tutqazadi. Islomga e‘tiqodi kuchli bo‘lgan Tarag‘ay ertasiga bomdod namozidan keyin piri-shayx Shamsuddindan ko‘rgan tushining ta‘birini so‘raydi. Shayx unga «sen o‘g‘il ko‘rasan, bu o‘g‘lon dunyoni zabt etadi», deydi. Chindan ham oilada o‘g‘il tug‘iladi.

Temurning shaxsiy qiyofasi, kuch-qudrati to‘g‘risida Ibn Arabshohning quyidagi iboralari g‘oyatda asoslidir: «Amir Temur jismu jasadi kelishgan, qaddi-qomati tik, uzun bo‘yli, go‘yoki qadimgi pahlavonlar avlodlari misoli bo‘lib, boshi katta, g‘oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo‘lalik, oqish yuzini och qizil rang jonlantirgani bilan hech bir dog‘siz, bug‘doyrang emas. Qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo‘g‘on, pochalari go‘shli, bo‘yi basti kamoliga yetgan, sersoqol, ikki ko‘zi bamisoli ikki shamdek bo‘lsa-da shodligi bilinmas, yo‘g‘on ovozli edi, u o‘limdan qo‘rqmas, yoshi saksonga yetgan bo‘lsa-da iztirobsiz, vazmin, badani to‘la va pishiq bo‘lib, go‘yo zich tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, o‘yin-kulgi-yu ko‘ngil xushlikka maylsiz, garchi unda o‘ziga ozor yetadigan biron so‘z bo‘lsa ham haqiqat (to‘g‘ri so‘zlik) unga yoqar edi. U bo‘lib o‘tgan ishga aziyat chekmas va qo‘lga kiritiladigan yutuqlardan shodlanmas edi»<sup>1</sup>.

Manbalarda Amir Temurning quyidagi shaxsiy fazilatlari keltiriladi: ma‘rifatparvarlik, insonparvarlik, donishmandlik, raiyatparvarlik, adolatparvarlik, kechirimlilik, rahmdillik, olijanoblik, mardlik, bahodirlik, qattiqqo‘llik, irodalilik, jasoratlilik, sobitlik, vazminlik, chidamlilik, sabr-bardoshlik, insoflilik, mehribonlik, muruvvatpeshalik.

Amir Temur tarixan o‘ta murakkab vaziyatda XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqadi. Bu davrda mo‘g‘ul hukmdorlari o‘rtasida toju taxt, davlat va mol-dunyo uchun bo‘lgan kurashlar

---

<sup>1</sup> *Ибн Арабишох. Амир Темур тарихи. 2-китоб. – Т., 1992. – Б. 62.*



kuchayib, Chig'atoy ulusida feodal tarqoqlik avj oladi. Movarounnahr hududida o'ntacha mustaqil bekliklar vujudga keladi. Shahrisabzda Hoji Barlos, Xo'jandda Boyazid Jaloyir, Balxda Amir Husayn, Shibirg'onda Muhammad Aperdi Nayman, Ko'histonda Amir Sotilmish, Arhang Saroyda O'ljoy Aperdi va boshqalar o'zlarini hokimi mutlaq deb hisoblashardi. Shu boisdan ham feodal tarqoqlikka barham berish, markazlashgan kuchli davlat hokimiyati barpo etish, mo'g'ullarning istibdodidan ozod bo'lishga intilish g'oyasi kuchayib borar edi. Xalqning ana shu istak va orzusini birinchilar qatorida tushungan mahalliy amirlardan biri Amir Temur edi.

Amir Temur dastlab Shahrisabz bekligida hokimiyatni egallagan tog'asi Hoji Barlos yonida yelkadosh sifatida yuradi. So'ngra 1361-yilda Mo'g'uliston (Jete) xoni Tug'luq Temur Movarounnahrdaligi paytida uning xizmatiga kirib, o'z maslahatlarini beradi. 1365-yilda Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja Movarounnahrda yurish qilishi va bunda mahalliy aholi mudofaasi – sarbadorlar harakati ustun kelishi tufayli Amir Husayn bilan birga Amir Temur Samarqandga keladi. Hukmron Amir Husayn o'zi Balxga, ya'ni Xurosonga ketib, o'rniga Amir Temurni qoldiradi. 1370-yilda Balx (Amir Husayn hokimligi)ni egallab, poytaxti Samarqandda bo'lgan Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi.

1370–1371-yillarda Farg'ona, O'tror, Yassi, Toshkent, Hisor, Badaxshon, Qunduz bo'ysundiriladi. 1381-yilda Hirot, Seiston, Mozondaron, Saraxs, Sabzavor egallanadi. 1371–1389-yillarda jami 7 marta yurish qilib Mo'g'uliston hukmdori Amir Qamariddin qo'li ostidagi Movarounnahrning Sharqiy va Shimoliy hududlari (Farg'ona, Shibirg'on viloyati, Qashg'ar, Issiqko'l va Yettisuv) bosib olinadi. 1371, 1373, 1375, 1379, 1388-yillarda Xorazmdagi so'fiylar sulolasini yengib, Xorazm qo'shib olinadi. 1386–1388, 1392–1396, 1398–1404-yillarda Eron, Kavkaz orti hududlari, Shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq yerlari, Kichik Osiyoning ko'pgina qismi bosib olinadi. Shu tariqa 1361–1404-yillarda Amir Temur davlati hududiy jihatdan kengayib boradi. Sohibqironning ta'biri bilan aytganda, saltanat 27 o'lka (jumladan, Turon, Oltin O'rda va h.k.)dan tashkil topadi.

Amir Temur davlati o'z davrida dunyoning ko'p qismiga ega saltanat sifatida dunyoning qudratli davlatlari tomonidan tan olinadi. Yevropaning Fransiya, Angliya, Ispaniya davlatlari bilan iqtisodiy, diplomatik aloqalar olib boriladi.

Temur juda ko'p jangu jadal, tadbirkorlik bilan kuchli davlat barpo eta oldi. Temur davlatining siyosiy tizimi o'sha davr ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy holatiga mos kelardi.

Temur davrida markazda va joylarda xon boshchiligida муъён davlat boshqaruv apparati tuzildi. Boshqaruv tizimi ikkiga: dargoh va devonlarga (vazirliklar) bo'lingan.

Dargoh – eng oliy davlat idorasi. Uning boshlig'i o'zida vaqtning o'zida davlatning oliy hukmdori hisoblanadi. Amir Temur davlat tepasiga kelgandan so'ng chingiziylardan bo'lmish Suyurg'atmishni xon, ya'ni oliy hukmdor deb e'lon qilgan. Suyurg'atmish «soxta xon» mavqeida bo'lib, amaldagi hokimiyat Amir unvonidagi Sohibqiron ixtiyorida bo'lgan.

Mamlakat va davlat ahamiyatidagi masalalar uning hukmi va ko'rsatmasi asosida hal etilgan. Shu bilan birga, muhim davlat masalalari kengashda hal etilib, dargohda vaqti-vaqti bilan kengaytirilgan va qisqartirilgan tartibda majlislar o'tkazilib turilgan. Katta kengashda mamlakat hayotiga molik umumiy masalalar haqida kelishib olingan. Kichik kengashda davlat va idorasi faoliyati, yurtda sodir bo'layotgan o'zgarishlar muhokamasi, muhim mansab va vazifalarga tayinlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. U g'oyatda tor doirada o'tkazilib, davlat ahamiyatiga molik masalalarning chetga ayon bo'lishidan nihoyatda saqlanilgan.

Kengashlarda amirning qarindoshlari, oliy din vakillari, bosh amir, beklar-begi, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, oliy mansabdor shaxslar, vazirlar, devonbegi va boshqalar ishtirok etgan. Majlis bayoni maxsus kotib tomonidan daftarga tushirib borilgan. Aftidan, keyingi majlislarda ana shu bayon asosida ilgari qabul qilingan qarorlar, turli choralar natijalari tekshirilgan.

Dargoh, vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini *Oliy devon* nazorat qilgan. Dargoh tizimidagi bu devonga *devonbegi* boshchilik qilgan. Devonbegi davlat moliyasini boshqargan va vazirliklar faoliyatini, xazinadan maqsadga muvofiq foydalanishlarini nazorat qilib turgan.

Oliy devonning ahamiyati shu qadar baland bo'lganki, manbalarda ba'zan uni dargoh bilan bir ma'noda ta'riflash hollari ham kuzatiladi. Oliy devonda har kuni to'rt vazir: ya'ni, ijroiya idoralari nomidan *Bosh vazir*, *harbiy vazir*, *mulkchilik* va *soliq ishlari vaziri* hamda *moliya vaziri* hozir bo'lib, hisobot berib borgan. Sarhad va boshqa tobe mamlakatlar boshqaruvi bilan bog'liq yana *uch vazirlik* - *xolisa* ham devonbegiga hisobot berganlar.

Dargohdagi muhim lavozimlardan biri – *arzbegidir*. U dargohga arz-dod, shikoyat bilan kelganlar hamda mamlakatda sodir bo'layotgan

voqealarga o'z munosabatini bildiruvchilarni qabul qilishni uyushtirish, tushgan ariza, shikoyat va takliflarni oliy hukmdorga yetkazib turishga mas'ul bo'lgan.

Dargohda *adolat amiri* lavozimi mavjud bo'lib, u turli o'lka va shaharlarda «sipoh va orasida urf-odatlariga oid janjalli ishlar haqida» boxabar bo'lib, oliy hukmdorga hisobot va ma'lumot yetkazib turgan. Ma'lumot olingach, maxsus vakillar – *aminlar* (ya'ni ishonchli vakillar) joylarga borib voqeani o'rganib, taftish qilgan. Adolatni tiklab, tegishli choralar ko'rgan va yozma hisobot bergan. Tobe yerlar to'lovini yig'ib kelish ham ularning vazifasi hisoblangan.

Oliy farmonga ko'ra joylarga borib harbiy yurish uchun lashkar to'plash bilan *tavochi* shug'ullangan. Bu vazifa nihoyatda muhim bo'lgani uchun u oliy hukmdordan keyingi yuqori darajadagi davlat mansabi deb qaralgan. Ma'lumki, tobe o'lkalar, hukmron sulola vakillari, nufuzli amirlarga taqsimlab berilgan yurtlar oliy ko'rsatma bo'lganda tegishli harbiy kuch bilan doim shay turishlari ko'zda tutilgan. Tavochilar esa xuddi mana shu avval boshdan belgilangan lashkar sonining taxt bo'lishi, tayyorgarlik darajasi, ta'minoti ko'ngildagidek talabga javob berishi, ko'rsatilgan muayyan yo'l bilan o'z vaqtida yetib borishi kabi g'oyatda mas'uliyatli tadbirlarga javob berganlar. Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, tavochilar *bosh tavochi*, *piyoda askar tavochisi* kabilarga taqsimlangan. Bosh tavochilar tumanot (o'n minglik), hazorajot (minglik), sadajot (yuzlik) yetakchilaridan, viloyat kattalaridan qo'shinni o'z vaqtida, belgilangan son va sifat bilan yetkazib berish to'g'risida tilxat olganlar. Shu bilan birga tavochi harbiy yurish chog'ida qo'shnlarning joylashuvi, berilgan buyruqlarning ijro etilishi hamda tinchlik paytlarida katta qurilishlarda ish taqsimlash kabilar ham shug'ullangan. Chunonchi, Baylaqon kanalini qazishda 60–70 km masofani har bir harbiy qismga taqsimlab berishga tavochilar bosh bo'lgan.

Dargohda shuningdek, Devonbegi (saroy vaziri)ga bo'ysunuvchi bir qancha lavozimlar ta'sis etilgan. Ular *bosh hojib* va *hojiblar* (rasmiy tadbirlar tashkilotchilari va boshqaruvchilari), *xazinador* (xazinachi), *nosolar* (dargohda va oliy farmon bilan boshqa yerlarda, masalan, yurishlarda o'tkaziladigan to'y, bazmlar, katta ziyofatlarda stol tuzatishga bosh-qosh bo'luvchi), *jibachi* (qurol-aslaha saqlovchi), *qushchi* (podshohona ovlar uyushtirilganda maxsus o'rgatilgan ov qushlarini olib yuruvchi, parvarish qiluvchi) va shu xizmatni boshqaruvchi *qushbegi*, *bakovulboshi* (saroy oshpazlarining boshlig'i) va *bakovullar*, *kotiblar*

(bitikchilar), *choparlar*, *tabiblar*, *sozandalar*, *g'azalxonlar*, *farroshlar*, *tablxona* (nog'oraxona), *dorixonachi* kabilardan iborat bo'lgan.

Ijroiya tizimi vazirliklardan tashkil topgan. Ularning ayrimlari faqat dargohda turib faoliyat ko'rsatgan. Quyidagi vazirliklar joriy etilgan:

- *mamlakat va raiyat vazirligi*, unga Bosh vazir rahbarlik qilgan. Bu vazirlik mamlakatning muhim ishlari, kundalik muammolar, xalqning ahvoli, aholi farovonligi, dehqonchilik holatini yaxshilash, viloyatlardan olinadigan soliqlar va ularni taqsimlash, kirim-chiqimlar va xazinaning ahvoli, obodonchilik ishlari va boshqa xo'jalik ishlariga javobgar bo'lgan;

- *sipohiylar ishi bo'yicha vazirlik*, unga harbiy vazir boshchilik qilgan. U harbiylarning maoshi, alohida xizmatlari uchun harbiylarga tuhfa qilingan yer-suvlar boshqaruvining nazorati va qayd etib borilishi, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy ko'riklarni tayyorlash, janglarda yarador bo'lib xizmatga yaroqsiz bo'lganlarga nafaqa tayinlash, iste'foga chiqqan harbiylar to'g'risida qayg'urish kabi masalalar bilan shug'ullangan;

- *omonat ishlari bo'yicha yoki mulkchilik va soliq ishlari vazirligi*. U vafot etgan, halok bo'lgan, yo'qolganlar va davlatdan yashirilib yurganlarning mol-mulkini qo'riqlash, savdogarlardan zakot va boj olish, mamlakat chorvalari, yaylovlarni boshqarish hamda yer soliqlari, chorva mollaridan olinadigan soliq, zakot olish hamda ularning o'z vaqtida xazinaga kelib tushishi ustidan nazorat olib borish bilan shug'ullangan;

- *butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar hisobini olib boruvchi vazirlik*, unga moliya vaziri boshchilik qilgan;

- *davlat korxonalari bo'yicha vazirlik*;

- *adliya vazirligi* (devoni mazolim – doruladolat). Adliya vazirligi to'g'ridan-to'g'ri fuqaroviy yoki dunyoviy ishlar bilan shug'ullangan. Ushbu devon bevosita A.T. nazorati va rahbarligi ostida bo'lgan. U asosan davlat tuzumiga, boshqaruv tartibiga qarshi va mansabdorlik jinoyatlarini ko'rgan. Muhokama o'tkazib, jazo tayinlashi yoki avf etishi mumkin bo'lgan. Masalan, qonun oldida javobgarlik barchaga barobarligi bois amir Temurning nabirasi Pir Muhammad ibn Umarshayx (1379–1410) o'z qilmishi uchun Devoni mazolimda qattiq so'roq qilinib, aybi aniqlangach, shunga yarasha jazo berilgani va bu haqda shaxsan Amir Temurning o'zi farmon bergani tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

- *vaqf ishlari vazirligi*, unga Sadr us-sudur boshchilik qilgan.

- *harbiy sud* – qozi askar. U sud tizimida alohida faoliyat ko'rsatgan;

- *xabar va aloqa vazirligi* (devoni rasoil, devoni insha). Uning faoliyati asosan butun mamlakat hududiga taalluqli xabarlarni davlat



boshlig'iga yetkazish, davlat ish yuritish hujjatlarini tegishli manzillarga yetkazish, tashqi aloqalarni amalga oshirishda iborat.

Xabar va pochta xizmati bo'yicha butun saltanat uzra bir kunlik yo'l oralig'idagi har bir maskanda to'xtash joylari bino etilgan bo'lib, ularda 10 tadan 200 tagacha ot-ulov saqlangan, maxsus xizmatchilar faoliyat ko'rsatgan.

Tashqi aloqalar shug'ullanuvchi xizmat alohida ijroiya organlari tizimida emas, dargoh tarkibida faoliyat ko'rsatgan. U chegara ishlari, chet mamlakat elchilarini qabul qilish va kuzatish, davlatlar bilan savdo va boshqa madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish bilan shug'ullangan.

Bulardan tashqari dargohda *xolisa* deb ataluvchi mansab ham ta'sis etilgan va u muhimligi jihatidan vazirlar qatorida turgan. U asosan askarlar maoshi va oziq-ovqat ta'minoti bilan shug'ullangan. Shu bilan birga, u sarhad vazirligi deb ham yuritilgan.

Shuningdek, *xolisa* o'z vakolati doirasida tortiq, ya'ni suyg'ol qilingan viloyat yoki mamlakatga (masalan, Amir Temur Andxud viloyati boshqaruviga o'z piri Sayyid Barakani tayinlaydi) tayinlangan hamda shu o'lka va mamlakatga oid moliyaviy muomalalar va keladigan daromadlarni boshqaradigan ikkita vazir (ayrim manbalarga ko'ra uchta) faoliyati ustidan nazorat yuritib, ular bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatgan. Bulardan birinchisi, yig'iladigan soliqlarni qayd etib, aholi ahvolidan boxabar bo'lib turish, ikkinchisi, yig'iladigan daromadlar qay tarzda xarj qilinayotganini hisobga olish, shu yerda mavjud harbiy qismlarga beriladigan maosh taqsimoti bilan shug'ullangan.

Xoh dargoh, xoh devonlar tizimi bo'lsin davlat xizmatlari puxta va aniq ishlagan. Yuqori mansabdor shaxslar o'z bitikchisi va qayd daftariga ega bo'lgan. Yorliqlarga tegishli belgi (raqam) qo'yganlar. Hujjatlar muhr bosilgandan keyin rasmiy kuchga ega bo'lgan.

Davlatda sudlov ishlari ixtisoslashtirilgan tarzda tashkil etilgan. O'troq aholi hududlarida fuqarolarga oid ishlar Qozi kalon (doruladolat)ga bo'ysunuvchi qozilar tomonidan shariat asosida amalga oshirilgan. Ko'chmanchi aholi hududlarida esa Qoziyi ahdos tomonidan odat huquqiga asosan yuritilgan. Harbiylar va ruhoniylarga taalluqli ishlar yuqorida ta'kidlanganidek, alohida tarzda ko'rib chiqilgan. Asilzodalar ishlari Ixdom sudi tomonidan olib borilgan. Agarda tomonlar qaror yoki hukmdan norozi bo'lishsa, davlat boshlig'iga shikoyat qilishga haqli bo'lgan.

Diniy hokimiyat tizimining boshqaruvi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: shayxulislom – A'lam – Qozikalon – Sadri a'zam – Muhtasib – Qoziyi ahdos – Qozi askar – Mudarris – Mutavalli.



Saltanat odatda hukmron sulola vakillari va shu xonadon tayanchi bo'lmish harbiy-siyosiy kuchlar yordamida idora etilgan. Tabiiy ravishda Amir Temur saltanatni boshqarishda, avvalo, o'z o'g'illari va avlodlariga suyandi. Chunonchi, u saltanatni bir qancha uluslarga taqsimlab, mamlakat yaxlitligini saqlagan holda boshqardi. Har bir ulusning ham o'z dargohi va keng tarmoqli bo'lmagan vazirlari bo'lgan.

Viloyatlarda hokimiyatni voliy (vali)lar, bekliklarda beklar, shaharlarni hokimlar boshqargan (hokim saroyi – dorulamorat). Shahar, tuman miqyosidagi boshliqlar dorug'a, qal'a boshlig'i qutvol, deb yuritilgan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlarda hokimiyat tuman va ulus boshliqlari qo'lida bo'lgan. Qishloqlarda hokimiyat arboblardan tomonidan amalga oshirilgan. Ular lavozimga mahalliy zodagonlardan tomonidan tavsiya etilgan va voliylar tomonidan tasdiqlangan hamda vazifasidan ozod etilgan.

Mahalliy hukmdorlar zimmasiga asosan soliqlarning o'z vaqtida yig'ilishi va davlat xazinasiga jo'natilishi vazifasi yuklatilgan. Shu bilan birga, ular xiroj va zakotlarning vaqtida to'lab turilishi, yuqori turuvchi organlar va mansabdor shaxslardan tomonidan belgilangan majburiyatlarning o'z vaqtida va aniq bajarilishiga, qal'alar, ko'priklar, yo'llar, suv yo'llari va boshqalarning hamisha shay holatda turishi uch ham mas'ul bo'lganlar.

Mamlakatda asosiy e'tibor jinoyatchilikka qarshi kurashga emas, balki jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan. Jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Asaslar – fuqarolar tinchiligini ta'minlash va jinoyatlarni ochishda muhim o'rin tutuvchi kecha qorovullari, ya'ni posbonlarning boshlig'i; Yasag'lar – mirshablarning mansabdor shaxslari bo'lib, jamoat tinchligi va osoyishtaligini saqlashgan; Shihnalardan – harbiy ma'murlar bo'lib, shahar tinchligini saqlashga mas'ul bo'lganlar.

Mamlakatda mirshablik alohida o'rin tutgan. Ularga qo'rboshilar boshchilik qilgan. Ular shahar tartiboti, karvon yo'llarida osoyishtalikni qo'riqlash faoliyatini amalga oshirganlar. Ular o'z tarkibiy tuzilmalariga ega bo'lib, ularning rahbarlarini mahalliy hokimlar tayinlagan.

Davlatda maxsus jinoyat qidiruv mirshabligi tashkil etilgan. U savdo karvonlari harakati xavfsizligini ta'minlash, bosqinchilar va o'g'rilar to'dalarini topish va qo'lga olish, shariat qoidalarini buzganlar, darbadarlar va tilamchilarga qarshi chora ko'rish bilan shug'ullangan.

Barcha o'lkalarda mavqei katta bo'lgan qorachi (josus) va voqeanavis lavozimlari ta'sis etilgan. Voqeanavislar har bir mamlakat, viloyat, shahar

va qishloqlarda bo'lib, u yerda sodir bo'layotgan voqealar haqida davlat boshlig'ini xabardor qilib turishgan.

Amir Temur kuchli va markazlashgan qo'shin tuzishga ham muvaffaq bo'lgan. Qo'shin bevosita Amir Temur, ya'ni davlat boshlig'iga bo'ysungan. Harbiy ishlar bo'yicha amirning birinchi o'rinbosari amirlar amiri – Amir ul-umaro hisoblangan. Amirlar amiriga qo'shin amirlari bo'ysungan. Qo'shin amirlari lavozimiga qarab qo'l ostida 1000–12000 nafargacha askarlar bo'lgan. 1-darajali amir ming kishiga qo'mondonlik qilgan bo'lsa, 12-darajali amir o'n ikki ming qo'shinga qo'mondonlik qilgan.

Qo'shin o'nlik tizimi asosida tashkil etilgan. Ular o'nlik, yuzlik, minglik va tumanga bo'lingan. Har biriga o'z nomi bilan ataladigan – o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va amir (tumanboshi) rahbarlik qilgan.

Yurish paytida qo'shin yetti qismga bo'lingan holda harakatlangan: xirovul (ilg'or, avangard), chopovul (hujumchi), g'o'l (qo'l, markaz), shig'ovul (zahira), chindovul (ichki ta'minot qismi), barong'ir (o'ng qanot), jarong'ir (chap qanot).

Armiya ichida xabarchilar qo'yilgan bo'lib, ular qo'shin ichidagi holatdan amirni xabardor qilib turgan.

Xulosa sifatida aytish joizki, yirik saltanatni boshqarish uchun kuchli markazlashgan davlat mahkamasi tashkil qilingan. Har bir mansabdor shaxsning huquq va burchlari qat'iy va aniq belgilangan. Fuqarolarning huquqlari kafolatlangan. Natijada esa qattiq tartib intizom o'rnatilib, mamlakatda tinchlik-osoyishtalik qaror topishiga, iqtisodiyot va madaniyat, shuningdek savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon yaratilgan.

Temur vafotidan keyin (1405-yil 18-fevral) vorislar o'rtasidagi taxt uchun o'zaro kurashlar saltanatning parchalanishiga sabab bo'ladi. Ayrim o'lka va davlatlar mustaqil bo'lib ajralib chiqadi. Uzoq kurashdan so'ng Temurning o'g'li Shohruh hokimiyatni egallaydi (1409–1447-y.) va bosh rahnamo sifatida tan olinadi. Biroq, temuriylar kuchli, yaxlit davlat tashkil etishga muvaffaq bo'la olmaydilar. Mamlakatda tarqoqlik, zulmning kuchayishi va iqtisodiy tanazzul yuzaga keladi.

Keyingi davrlarda Movarounnahr va Xuroson temuriylar tomonidan alohida boshqariladi. 1414-yilda Mirzo Ulug'bek (1394-yilda tug'ilgan, 15 yoshida taxtga o'tiradi va 1409–1449-yillarda hokimiyatni boshqaradi) tomonidan Sharqiy Turkiston o'z hududiga qo'shib olinadi. 1425-yilda mamlakatning Sharqiy chegaralari mustahkamlanadi. 1428-yilda pul islohoti o'tkaziladi. Shuningdek, Xurosonning gullab-yashnashi ham aynan temuriylar davriga to'g'ri keladi.

## **2-§. «Temur tuzuklari» – muhim tarixiy-huquqiy manba**

Mashhur «Temur tuzuklari» Amir Temur tomonidan yaratilgan bo'lib, XVII asrda Hindistonda Bobur avlodlari uni turkiy tildan fors tiliga tarjima qilganlar. 1783-yilda fors tilidan ingliz tiliga, so'ngra fransuz tiliga va 1894-yilda I. Ostroumov tomonidan «Temur tuzuklari» nomi bilan rus tiliga o'girilgan. Tuzuklarning asl nusxasi hanuzgacha topilmagan.

Temur tuzuklari XIV asrning ikkinchi yarmi, ya'ni 1342–1405-yillarga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni bayon etadi. Amir Temur saltanati, davlat tuzumi, boshqaruvi, sud tizimi va uning boshqaruviga oid muhim qoidalar va ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi tarixiy hujjatdir. Qisqacha aytganda, o'zining mazmun-mohiyati va xususiyatiga ko'ra o'z davrining harbiy-ma'muriy huquq kodeksi hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Temur va temuriylar davrining huquq manbalari qatoriga Temur tuzuklari bilan birga o'troq aholi hududlarida shariat qonunlari va odat huquqini ham kiritish, ularning ham amal qilganligini eslash o'rinlidir. Temur tuzuklarini mazmuni va tarkibiy tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

«Temur tuzuklari»ning birinchi qismi – harbiy yurishlar haqidagi tarixiy, geografik-avtobiografik qaydlardan iborat. Shuningdek, unda Amir Temurning o'z davlatini barpo etish, mustahkamlash, mukammal qurollangan qudratli qo'shin tuzish bobidagi rejalari va tatbiq etgan tuzuklari hamda maxsus jadvallar asosida qo'shinning jangovar saflanish tartibi ham ko'rsatib berilgan. Jumladan, qo'shin qo'mondonlari, qabila va uluslar boshliqlari, vazirlar, oliy ruhoniy namoyandalar bilan markazlashgan davlat tuzish borasidagi o'tkazilgan kengash va tadbirlar bayon etiladi.

Binobarin, Amir Temur qo'shinni – davlatning yaxlitligi va qudratini belgilovchi tayanchi va kafolati, deb bilganligi bois, uni tashkil etish va mustahkamlashga asosiy e'tiborni qaratgan.

«Temur tuzuklari»ning ikkinchi qismi – o'ziga xos harbiy nizomdan iborat. U kuchli davlatni qurish, qo'shinni tashkil etish, dushman qo'shinini yengish hamda tinchlik davrida va harbiy yurish paytidagi boshqaruv masalalari yuzasidan amalga oshirilgan va keyingi avlodga o'git tariqasida aytilgan tuzuklardan tashkil topadi.

Chunonchi, mazkur davrda feodal tarqoqlik va o'zaro janjallarga barham berish, mustahkam hokimiyat o'rnatish hamda mahalliy hokimlarning o'zboshimchaliklariga chek qo'yish, aholidan olinadigan

solliqlar va majburiyatlarning aniq miqdorini belgilab qo'yish talab etilgan.

Natijada, davlat boshqaruvini tashkil etish va odil sudlovni amalga oshirishga jiddiy ahamiyat berilgan. Unda quyidagi masalalar, jumladan: davlat daxlsizligini muhofaza qilish; hukmdor hokimiyatining cheklanmaganligi va mustaqilligi; vazirlarning majburiyati va vazifalari; ulus amirlari va tuman hokimlarining vazifalari; davlat kengashi; davlat xavfsizligi, jamoat tartibi va mamlakat osoyishtaligini saqlash; aholidan olinadigan soliq (xiroj va zakot)larning miqdorini belgilash; qo'shin qo'mondonlarini tayinlash, lavozimini oshirish, rag'batlantirish va ularga maosh belgilash; vazirlar, amirlar va sipohiy (harbiy askar)larning shaharlar, viloyatlar va mamlakatlarni zabt etishda ko'rsatgan jonbozliklarini rag'batlantirish; qo'shinning harbiy yurish va janglarda joylashuvi va uning ajratib turuvchi alohida belgilar kabi masalalar bayon etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlari nihoyatda buyuk va qimmatlidir. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni birlashtira oldi hamda markazlashgan yirik va kuchli davlatga asos soldi. Ikkinchidan, Amir Temur qay maqsadda bo'lmasin, qator mamlakatlar va xalqlarni mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishga yordam berdi. O'sha davrning qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Yildirimni (1389–1402-y.) tor-mor etib (1402-yil) Usmonli Turkklar istibdodiga tushib qolgan Bolqon yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarga ozodlik bag'ishladi. Oltin O'rda xoni To'xtamishxonni (1376–1395-y.) ikki marta (1391 va 1395-yil) tor-mor keltirib, Rossiyaning mo'g'ullar hukmronligidan qutilishini qariyb 300 yilga tezlashtirib yubordi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Амир Темур ўғитлари. – Т., 1992. – Б. 5–6.

---

## **IX BOB. SHAYBONIYLAR DAVLATI VA HUQUQI. O‘ZBEK XONLIKLARINING DAVLAT TUZUMI VA HUQUQI**

### **1-§. Shayboniylar davlati tuzumi**

Temuriylar va Oltin O‘rda davlatida feodal tarqoqlik, o‘zaro nizo va janglar oqibatida XV asrning 20-yillarida Dashti Qipchoqning sharqiy hududlarida, ya’ni Oltin O‘rdaning Oq O‘rda qismida Volga bo‘ylaridan to Sirdaryo shimoligacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati tashkil topadi.

XV asr o‘rtalariga kelib o‘zbeklar davlati hozirgi Qozog‘iston va janubiy-g‘arbiy Sibirning juda katta hududlarini o‘z ichiga olgan. Xususan, ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatining chegaralari shimoldan Turkiyagacha, janubdan Xorazmning g‘arbiy qismi bilan Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimigacha yetib borgan. Sharqiy chegara esa Sabron (Savron)dan o‘tgan. G‘arbdan Topol va Yoyiq (Urol) daryolari chegara bo‘lgan. Bu davlat Qozog‘iston, G‘arbiy Sibirning ko‘p qismi va Xorazmning janubiy-g‘arbiy hududlarini o‘z ichiga olgan. Unga Volga daryosining o‘ng qirg‘og‘idan (Buyuk Bulg‘ordan) to Darbandgacha bo‘lgan yerlar ham bo‘ysungan.

Ushbu davlatning asoschisi temuriylar saltanatiga barham bergan Muhammad Shayboniynonning (1450–1510-y.) bobosi Abulxayrxon (1428/29–1468/69-y.) hisoblanadi. Mazkur davlat 40 yildan ziyodroq vaqt hukm surgan. Temuriy shahzodalarning o‘zaro taxt talashishi davrida Abulxayrxon tez orada Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotida hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Chunonchi, Shayboniylar sulolasi vakillari Oltin O‘rda namoyandalari sifatida Movarounnahrni sobiq Chig‘atoy ulusining tarkibi deya, unga o‘z da‘volarini haqli hisoblaydilar. Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shayboniynon tomonidan 1499–1510-yillar oralig‘ida Temuriylar mulki to‘la egallanadi.

Yangi davlatning poytaxti dastlab Samarqand deb topildi. XVI asrning 60-yillarida Buxoro ma’muriy-siyosiy markaz mavqeini oladi. XVI asrda Rossiyada «Buxariya», «Velikaya Buxariya», Sharqiy Turkiston esa «Kichik Buxoro» nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati tashkil topishi bilan bu hudud huquqiy tizimida yangi o‘zgarishlar joriy qilinishiga ehtiyoj tug‘ildi. Chingizxon va Temur davrida qo‘shinda joriy qilingan harbiy tartib-qoidalar saqlanib qoldi.



Shayboniyxon hokimiyatni mustahkamlab olgach, bir qator islohotlar o'tkazdi. Bular yer-suv va pul islohotlaridir. Shayboniyxon 1505-yilda yirik qonunshunoslarning kengashini chaqirib unda bundan avvalgi o'n yil ichida soliqlarning og'irligidan, amaldorlar zulmidan qochib yer-suvlarini tashlab ketganlar mulklarining taqdiri muhokama qilindi. Kengash egasiz yer-suv, mulklar podsho tasarrufiga o'tkazilishi, egalari qaytib kelgach davlat xazinasidan ularning mol-mulklari qaytarib berishi va ushbu mol-mulkdan foydalanganlik uchun tegishli haq to'lash to'g'risida qaror qabul qildi. 1507-yilda pul islohoti o'tkazilib, mamlakatning barcha yirik shaharlarida vazni bir xil bo'lgan kumush tangalar, mis chaqalar zarb etilib, muomalaga kiritildi.

Abdullaxon I ning qisqa vaqt hukmdorligidan (1539–1540-y.) so'ng mamlakatda qo'sh hokimiyatchilik yuzaga keldi. Buxoroda Ubaydulloxon o'g'li Abdulaziz (1540–1550-y.), Samarqandda esa Ko'chkunjixon o'g'li Abdulatif (1540–1551-y.) hokimiyatni boshqaradi. Abdullaxon II (1583–1598-y.) davriga kelib mamlakat yana markazlashtiriladi. Mamlakat poytaxti Buxoroga ko'chiriladi va shu davrdan boshlab Buxoro xonligi deb atala boshlandi. Pul islohotini o'tkazilib, bir xildagi oltin va kumush tanga hamda mis chaqa muomalaga kiritiladi. Ichki va tashqi savdo rivojlanadi.

O'zbek davlatchiligining Rossiya bosqinidan oldingi bosqichi XVI asrdan, ya'ni hokimiyat shayboniylar qo'liga o'tishi bilan boshlanadi. Aynan mazkur asrdan boshlab davlat boshqaruvida shu davrgacha shakllanib kelgan an'analardan chekinish holati ko'zga tashlanadi. Xususan, dargoh va undagi turli lavozimlar mavqei kuchayib, ijroiya hokimiyati markaziy mansabdor shaxslar qo'lida mujassamlashadi. Natijada devonlar tizimi chegaralangan. Buning sababi shayboniylar o'zlari bilan davlat boshqaruvining ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilarga xos shaklini olib kirganligidadir.

Shu davrga xos yana bir holat sifatida mansabdor shaxsning o'z doimiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha vazifalarga ham jalb etilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, dargohda faoliyat yurituvchi ko'pgina amaldorlar qo'shimcha ravishda harbiy ishlar yoki elchilik vazifalari bilan ham shug'ullanib kelganligini ko'rsatish mumkin.

Oliy davlat idorasi – *dargoh* (saroy) hisoblangan. Markaziy boshqaruv faoliyati yuqorida ta'kidlanganidek, saroy devoni va dargoh amaldorlari tomonidan amalga oshirilgan.

Oliy hokimiyat egasi *xon* bo'lgan. Dastlabki davrlarda oliy hokimiyat hukmron sulolaning eng ulug' yoshdagi namoyandasiga o'tgan. XVI

asrning 40-yillaridan boshlab sulola ichidagi oilaviy an'ana ustun chiqa boshlaydi.

Dargohdagi xondan keyingi muhim mansabdor shaxs *naqib* hisoblangan. Tarjimada «sardor», «boshliq», «yetakchi» ma'nosini beruvchi naqiblik mansabi amalda ancha keng vakolatga ega bo'lgan. U ichki va tashqi siyosat hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi hisoblangan. Uning maslahati bilan qaror qabul qilingan. Harbiy yurishlarni uyushtirish, davom ettirish, dushman harbiy imkoniyatlarini o'rganish va elchilik vazifalari ham naqibga yuklangan. Odatda, ushbu lavozimga asosan Muhammad S.A.V. payg'ambarimiz avlodlari hisoblanadigan sayyidlar xonadoniga mansub kishilar tayinlangan. Rasmiy qabul marosimlarida uning oliy hukmdordan chap tarafi tomonidan birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohda tutgan yuksak maqomidan dalolatdir (masalan, 1570-yili Buxoroda Abdullaxon II yana o'z hokimiyatini tiklarkan, buxoroliklar tomonidan o'rta solingan mashhur Qosim shayx Azizxon (vafoti 1578-yil) bilan muzokaraga o'z naqibini yuboradi).

Yuqori mansabdor shaxs hisoblangan devonbegi saroy devoniga boshchilik qilgan. U devon faoliyati haqida xonga kunlik hisobot berib borgan. Saroy devonining asosiy vazifasi mamlakatning muhim ishlaridavlat ya'ni davlat mulki, moliya, soliq, yer-suv boshqaruvi, joylardagi amaldorlarga ish taqsimlash, mansablarga tayinlash ishlarini yuritish bo'lgan.

Dargohdagi *ko'kaldosh* ilgarigi davrlardagi Devoni mushrifning faoliyatini amalga oshirgan. U umumiy davlat nazoratini olib borgan. U oliy hukmdor va rasmiy sulolaga eng yaqin kishilardan tayinlangan. Odatda, ko'kaldoshning ijtimoiy mohiyati sulolaning biror bir vakili bilan bir onani emganlik bilan tushuntiriladi. Demak, ko'kaldosh dargohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, unga topshiriladigan vazifalar vazifalar nozik qadar nozik va mas'uliyatli bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, mazkur maqom vazifasi mamlakatda oliy hukmdor olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga kishilarning munosabatlari bilan bog'liq yumushlardan iborat edi. Masalan, Abdullaxon II va Abdulmo'min o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishda Abdulmo'min harakatlari va maqsadlarini oldindan oldindan, xonga to'g'ri ma'lumot berishda asosiy o'rinni *Qulbobo ko'kaldosh* tutgani ma'lum.

*Devoni sarkori xossa* hukmron sulolaga tegishli yer-suv va mol-mulk boshqaruvi, nazorati hamda soliq ishlariga mas'ul hisoblangan. Boshqa devonlar nomlari esa manbalarda uchramaydi.

Dargohda katta mavqega ega bo'lgan lavozimlardan biri *Shayx ul-islom* bo'lib, u davlat va jamiyatdagi mafkuraviy hayotda asosiy o'rinda turgan. U shariat qoidalarining to'g'ri tatbiq etilishi va ularga rioya etilishining umumiy nazoratini yuritgan va doimo xabardor bo'lib turgan.

Joylarda axloqiy normalarga rioya qilinishi, amaldorlar va ruhoniylarning bu masalaga munosabatini bilib borish bilan *muxtasib* shug'ullangan. Joylarga muxtasibga bo'ysunuvchi raislar tayinlangan.

*Bosh sadr* diniy muassasalar ta'minoti uchun ajratilgan vaqf mulklarini boshqargan. Joylarda esa unga bo'ysunuvchi *sadrlar* faoliyat ko'rsatgan.

*Qozi kalon (bosh qozi, katta qozi)* mamlakatda shariat sud ishlariga yetakchilik qilgan. Harbiylar hayotida yuz beradigan huquqiy masalalarni qozi askar hal qilgan. Unga qozi askar va mahalliy qozilar bo'ysungan. Qozi kalonga viloyat qozilari ustidan shikoyat qilish mumkin bo'lgan. Agar qozi fisq yo'lga kirsam, masalan pora olsa, zino qilsa yoki xamr ichsa ishdan chetlatilgan.

Davlat ahamiyatiga molik mansablardan yana biri *otaliqdir*. «O'taliq qilmoq», «otasining o'rnini bosmoq» mazmunini beruvchi mazkur amaldor markaziy hokimiyatning joylardagi vakili bo'lgan. Oliy hukmdor viloyatlar boshqaruviga shahzodalarni tayinlash barobarida ularga o'taliq, ya'ni o'z nazoratchisini, ishongan shaxsini biriktirgan. Ayniqsa, balog'at yoshiga yetmagan shahzodalar viloyatlarga tayinlangan hollarda, ular to'ulg'ayib mustaqil faoliyat ko'rsatish darajasiga yetguniga qadar davlat ishlarini boshqarish shu o'taliqlar zimmasiga yuklatilgan. Bunday hollarda o'taliqlar amalda viloyat boshqaruvini, markaz bilan munosabatlar holatini hal etib kelgan. Bundan kelib chiqadiki, o'taliqlarning asosiy vazifasi joylar – viloyatlar bilan bog'liq bo'lgan.

*Yasovullar* oliy hukmdor va shahzodalar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish ishlarini olib borgan. Shahzodalarni xon tomonidan qabul qilish, ularning arzi va iltimoslarini yetkazish kabi tadbirlar shular jumlasidandir.

Oliy hukmdor chiqargan hukmlar, yorliqlar va boshqa rasmiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish ishlariga *parvonachi* javobgar bo'lgan. Urush paytlarida esa ular harbiy yetakchilik vazifalari bilan ham shug'ullangan.

Dargohga tushgan arzlarni qabul qilish, javobini berish hamda mamlakatdagi ijtimoiy adolat tartiblariga rioya qilishning nazorati kabi yumushlarga *dodhoh* mutasaddi edi.

Dargohdagi xavfsizlik, tartib-intizom, kirish-chiqishdan xabardorlik kabi tadbirlar *eshikog'aboshi* boshchiligidan olib borilgan. Uning

bo'ysunuvida *chap eshikog'asi*, *o'ng eshikog'asi*, *eshikog'asi* bo'lgan. Ular urush paytlarida oliy hukmdorning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarib borgan.

Bundan tashqari, yana dargohda quyidagi lavozimlar ta'sis etilgan: *Mirzaboshi* (uning bo'ysunuvida mirzalar bo'lgan); *shig'ovul* (elchilarni qabul qiluvchi); *qo'rchiboshi* (qurol-aslaha xizmati boshlig'i, uning amaldori jibochi); *chuhriboshi* (maxsus qullardan iborat harbiy qism boshlig'i); *miroxur* (oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov, ularning ta'minotiga mas'ul); *qushbegi* (podshohona ov todbirlarini uyushtiruvchi); *qorovulbegi*; *tug'begi*; *kitobdor*; *munshiy*; *muhrdor*; *xazinachi*; *tavochi*; *bakovulboshi*; *dasturxonchi*; *jarchi* va boshqalar.

*Mahalliy boshqaruv*. Ma'muriy jihatdan Shayboniylar davlati, yoinki XVI asrning ikkinchi yarmidan Buxoro xonligi deb ataluvchi bu davlat ilk davrlardayoq viloyat va tumanlarga taqsimlangan. Viloyatlarni hokimlar boshqargan, ular bevosita xon tomonidan tayinlangan. Dastlabki davrlarda viloyatlar asosan hukmdor sulola namoyandalari orasida mulk o'rnida taqsimlab berilgan.

Shuningdek, viloyatlarga yirik amaldorlarni tayinlashning alohida tartibi bo'lib, joylarda dargohlar faoliyat ko'rsatgan. Yuqorida keltirilgan lavozimlar mahalliy boshqaruv tizimida joriy etilgan. Shayboniylar zamonida qal'a boshlig'i qutvol deyilgan bo'lsa-da, shu bilan birga u shahar hokimi maqomiga ega bo'lgan.

Mamlakatda eng yirik yer egasi *xon* hisoblangan. U davlat yerlarining oliy mulkdori bo'lgan. Umumdavlat yerlari ijaraga berilgan, lekin ularni sotish, tuhfa qilish va vasiyat qilib qoldirish mumkin bo'lmagan. Xonning mulk yerlari ham mavjud bo'lib, u boshqa mulk egalari singari sotib olish va sotish huquqiga ega bo'lgan.

Mamlakatda yerga bo'lgan xususiy mulkchilik munosabatlari keng tarqalgan. Yerlarni tortiq etish bo'yicha alohida «tanho» instituti mavjud bo'lib, bunday yerlar XVI asrda yuqori tabaqa vakillari va ruhoniylarga davlat oldidagi xizmatlari uchun tuhfa etilgan. Tarxon, suyurg'ol institutlari ham amal qilgan. Tarxonlik huquqiga nafaqat harbiylar, savdogarlar va boshqa aholi qatlamlari ham ega bo'lgan. U suyurg'ol singari davlat oldidagi alohida xizmatlar uchun in'om etilgan. Yersiz ziroatchilar mulkdorlar yerida ishlab, odatda, hosilning 1G'3 yoki 1G'5 qismiga egalik qilgan.

Eng ko'p tarqalgan soliq turlaridan zakot (ko'psur), xiroj, ushrni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, mavjud yig'implarning tanobona, zobitona, madadi-lashkar, peshkash va boshqa turlarini ko'rsatish mumkin.



**Ashtarxoniylar davlati.** Shayboniy Abdulmo‘minxondan so‘ng taxtga chiqqan Pir Muhammad (1598–1601-y.) hukmronligi ko‘p davom etmaydi. Samarqand hokimi Boqi Muhammad Buxoro taxtini qo‘lga kiritib, xon deb e‘lon qilinadi. Shu tariqa shayboniylarning bir asrlik hukmronligi tugaydi. Mamlakat boshqaruvi yangi sulola ashtarxoniylar qo‘liga o‘tadi.

Ashtarxoniylar sulolasi XV asr 30-yillarida Volga bo‘yida Oltin O‘rda (Jo‘ji ulusi)dan ajralib chiqqan Ashtarxon (Hoji tarxon, Astraxan) xonligini boshqargan mang‘it sulolasi vakillari bo‘lgan. Ular 1556-yilda Rus davlati tomonidan xonlik tugatilishi natijasida Movarounnahrga kelgan. Movarounnahrdagi ashtarxoniylar namoyandasi Yor Muhammadxon bilan shayboniylar o‘rtasida dastlab do‘stlik, so‘ngra quda-qarindoshlik munosabati o‘rnatilgan. Xususan, Boqi Muhammad ota tomondan ashtarxoniylarga, ona tomondan shayboniylarga mansubdir. Bora-bora ashtarxoniylarning mavqei oshgan. Mamlakatda e‘tiborli viloyatlardan Samarqandni boshqarishga erishgan Boqi Muhammadxon oliy taxtni shayboniylardan tortib oladi. Shu bilan mamlakatda ashtarxoniylar sulolasining bir yarim asrlik faoliyati boshlanadi.

Oliy va mahalliy boshqaruvda ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari boshliqlari bo‘lgan amirlarning ta’siri kuchli bo‘lgan. Viloyat hokimligiga asosan u yerda o‘rnashgan qabila amirlari hokim etib tayinlangan. Bu esa keyingi davrlarda davlatning parchalanib ketishiga olib kelgan. Hattoki, Buxoroda amirlar hukmronligiga asos solingan.

Ashtarxoniylar davlati 1740–1747-yillarda Eron shohi Nodirshoh ta’siri ostida bo‘ladi. Shu davrdan boshlab ashtarxoniylar xonlarining mavqei rasmiy jihatdangina tan olinadi. Amalda hokimiyat boshqa bir mahalliy sulola mang‘itlar namoyandasi Muhammad Hakimbiy otaliq ixtiyoriga o‘tadi. 1753-yilda uning o‘g‘li Muhammad Rahim otaliq o‘zini Buxoro amiri deb e‘lon qiladi. Shu tariqa Ashtarxoniylar xonligi tugatiladi.

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruvida jiddiy o‘zgarish kuzatilmaydi. Oliy, markaziy va mahalliy hokimiyat dargohda mujassamlangan. Aniq ravishdagi dargoh va ijroiya (devonlar) taqsimotini bu davrda ham ko‘rmaymiz. Shuningdek, biror lavozimdagi amaldorga ijtimoiy mavqei va xon bilan munosabatiga qarab boshqa vakolatlar ham yuklatilgan.

Davlat boshlig‘i *xon* sulola vakillari – sultonlar tomonidan saylangan. *Otaliq* bu vaqtga kelib xondan keyingi birinchi o‘rinda turgan. U birinchi vazir vazifasini bajargan. Otaliqdan keyingi mansab *devonbegi* lavozimi



bo'lgan. U soliqlar ro'yxatini tuzish va to'plash, boshqa davlatlar elchilarining yorliqlarini qabul qilish va uni xonga topshirish bilan shug'ullangan.

XVIII asr boshlariga kelib *qushbegiboshining* mavqei kuchaygan. Unga amaldorlarni mansabga tayinlash va unvon berish, xon yorlig'isiz shaxsan yozma ko'rsatmalar tarqatish, oliy qabullarda o'z xohishiga ko'ra ishtirok etish kabi vakolatlar berilgan.

Markaziy boshqaruv apparatida *parvonachi* in'om olganlarga yorliqlarini berish bilan shug'ullangan. *Dodxo* xon nomiga kelgan arizalarni qabul qilish va qarorni arizachiga yetkazish ishini yuritgan. *Katta inoq* o'zbek qabilalarining boshqaruvini olib borgan. *Ko'kaldosh* siyosiy mirshablikni boshqargan. *Yasovullar* alohida topshiriqlarni bajargan. Bundan tashqari *bosh qozi*, *harbiy qozi*, *shayxulislom* kabi lavozimlar mavjud bo'lgan.

*Saroy qutvoli* lavozimi alohida ahamiyatga ega bo'lib, davlat xazinasi hisobidan amalga oshirilgan qurilish, obodonchilik ishlariga javobgar bo'lgan.

Viloyat va shaharlar xonning harbiy vassallari tomonidan idora etilgan. Buxoro shahri *maxsus hokim – dorug'a* tomonidan boshqarilgan. Poytaxtda *mirshablik* lavozimlari joriy etilgan.

## **2-§. Mustaqil o'zbek xonliklarining vujudga kelishi va ularning davlat tuzumi**

XVIII–XIX asrlar o'zbek davlatchiligi tarixidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu vaqtga kelib, 2400 yillik ulkan tarixiy taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligida tarqoqlik holati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir vaqtning o'zida Buxoro, Xiva va Qo'qonda alohida davlatlar faoliyat ko'rsatadi. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyoda boshlangan yangi davr xonliklarning iqtisodiy rivojlanish davri bo'lib hisoblanadi. Bu davrda Xivada qo'ng'irotlar, Buxoroda mang'itlar va Qo'qonda minglar hokimiyatni egallaydi. XIX asrning ikkinchi yarmidan esa ular Rus davlati tomonidan mustamlakaga aylantiriladi.

***Buxoro amirligi*** XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab oliy hokimiyat vakillari – ashtarxoniy xonlari o'rnini amirlar egallashi bilan tashkil topadi. Jumladan, Nodirshoh davrida amaldagi hokimiyat egasi Muhammad Hakim amiri kabir buyuk amir unvonini oladi. Uning o'g'li Muhammad Rahim otaliq (1747–1758-y.) 1748-yil Eron taxt vorisi

Abdulfayzning o'g'li Abdulmo'min (chingiziylardan bo'lgan 9 yoshli bola)ni o'ldiradi va 1753-yil zodagonlar hamda ruhoniylar roziligi bilan Buxoro taxtiga amir unvoni bilan o'tiradi. Shu tariqa Buxoro xonligi negizida tashkil topgan bu davlat oliy hukmdor unvonidan kelib chiqib amirlik nomi bilan yuritila boshladi. Hokimiyat tepasiga mang'itlar sulolasi keladi va bu sulola 1920-yili inqilob natijasida hokimiyatdan chetlashtiriladi.

Buxoro amirligida dastlabki davrda Muhammad Rahim tomonidan mamlakatni markazlashtirishga qaratilgan ma'muriy-siyosiy islohotlar amalga oshiriladi. Shoh Murod (1785–1800-y.) soxta xonlik an'anasiga chek qo'yilib, amir unvoni bilan rasman taxtga o'tiradi. U mamlakatda qattiq tartib intizom o'rnatadi. Soliq islohotini amalga oshirib, ayrim soliqlarni bekor qiladi.

Oliy hokimiyat egasi *amir* hisoblangan. Uning huzurida yirik yer egalari, ruhoniylar va davlat xizmatchilaridan iborat *maslahat kengashi* mavjud bo'lgan.

Davlat boshqaruvida ko'chmanchi aholi qabila boshliqlari, ya'ni *inoqlar* (katta inoq, kichik inoq) ham faol ishtirok etishgan. Ular ko'proq qo'shimcha topshiriqlarni ijro etishgan. Xususan, *kichik inoqda* oliy hukmdor muhri saqlangan.

Buxoro amirligida markaziy boshqaruv dargohda mujassamlangan. *Qushbegi* amirdan keyingi oliy mansabdor shaxsga aylangan. U mamlakat boshqaruvi, xazina va poytaxtdagi ahvolni nazorat qilgan. Shuningdek, unga barcha viloyatlar bo'ysungan. *Devonbegi* oliy mansabdor shaxslardan hisoblangan. U xazina kirim-chiqimi, saroy xo'jaligi va zakot yig'ish ishlarini boshqargan. Odatda, u quyi qushbegi deb atalgan. *Otaliq* asosan Samarqand va Buxoro, ya'ni amirlikning markaziy hududlarining suv taqsimotiga bosh bo'lgan.

Saroyda *shig'ovul* amirning shaxsiy yordamchisi bo'lgan. U elchilar qabulini ham uyushtirgan. *Udaychilar* amirga joylardagi ahvol to'g'risida axborot berib turuvchilar bo'lgan. *Mirza (munshiy)* amirning shaxsiy kotibi va amir qabulxonasi boshlig'i hisoblangan. *Pavronachi* oliy hukmdor yorliqlarini tegishli kishilarga yetkazish va arablar aholisi bilan shug'ullanishni amalga oshirgan. *Dodxoh* amir nomiga kelgan arzlarini amirga va uning javobini manfaatdorlarga yetkazishga mas'ul bo'lgan. *To'qsabo* dastlab hukmdor oldiga taom tortish ishini bajargan. XIX asrga kelib esa harbiy mansabdor shaxs darajasiga ko'tarilgan. *Ko'kaldosh* mamlakat miqyosida xavfsizlik xizmatini boshqargan. Yuqorida ko'rsatilgan mansabdorlardan tashqari qo'shimcha lavozimlar ham joriy

etilgan. Ular zimmasiga ayrim hollarda boshqaruvga oid ishlar ham yuklatilgan.

Qo'shinga to'pchilar qismining qo'mondoni va Buxoro harbiy qarorgohi boshlig'i rahbarlik qilgan. *Qo'rchiboshi* qurol-aslahaga mas'ul hisoblangan. *Udaychi* urush paytida harbiylarni taqsimlovchi amaldor bo'lgan.

*Shayxulislom* mafkuraviy munosabatlar va din ishlarini boshqargan. Unga muxtasib, raislar, sadr (vaqf mulklari hisobi va nazorati bilan shug'ullanuvchi)lar bo'ysungan. *Qozi Kalon* umumiy sudlov va fuqarolik ishlarini yuritishga boshchilik qilgan. Unga qozi askar, joylardagi qozilar va muftiy (rivoyat va fatvo bilan ta'minlovchi)lar bo'ysungan. Amir Shoh Murod davrida sud tizimi islohotlari natijasida amir huzurida 40 nafar faqihdan iborat *oliy mahkama* ta'sis etiladi. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib alohida ishlar va 2000 so'mdan ortiq nizoli ishlar *Qozi Kalon* tomonidan ko'rib chiqilgan.

**Xiva xonligi.** Xorazm dastlab temuriy Sulton Husaynga, XVI asr boshlarida Muhammad Shayboniyxon hukmronligi ostida bo'lib, Samarqand siyosiy doirasida edi. So'ngra qisqa muddat Eron shohi Ismoil safaviy noiblari tomonidan boshqarilgan. 1511–1514-yillarda Xorazmda mahalliy namoyandalar harakati bilan Dashti qipchoqlik ko'chmanchi o'zbeklar vakili Elbarsxon hokimiyatni egallaydi. Shu tariqa 1505–1770-yillarda Xorazmni asosan shayboniylar sulolasi namoyandalari boshqargan. 1770-yili esa Xorazmda hokimiyat amalda qo'ng'irot sulolasidan Muhammad Amin inoq qo'lida mujassamlashadi. Shu tariqa mazkur hududda yangi sulola – qo'ng'irotlar faoliyati boshlangan. 1763–1806-yillarda ular umumtan olinguncha rasmiy davlat boshlig'i sifatida tan olingan chingiziy xonlarni taxtga o'tqazib kelganlar. Bu sulolaning vakillari Xorazmda 1920-yilgacha hukmronlik qilganlar.

Dastlab siyosiy markaziy Urganch hisoblangan. Arabxon (1602–1621) davrida poytaxt Xivaga ko'chirilgan. Shunga ko'ra xonlikni Xiva xonligi deyish odat tusiga kirgan. Mamlakat 1873-yildan boshlab Rossiya imperiyasiga yarim qaram holatida bo'lib kelgan.

Xiva xonligining boshqaruvi Buxoro amirligi boshqaruvidan ko'p farq qilmagan. Bu davlatda ham boshqa xonliklarda ko'rganimizdek, saroy lavozimlari va mansablar mavjud. Davlat hokimiyatining o'ziga xos tizimi mavjud bo'lgan. Siyosiy boshqaruvda xonlik tashkil topgan ilk davrlardan boshlab yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonida yangi lavozimlar joriy etilib, ba'zi lavozimlarning mavqei va vakolat doirasi

nisbatan o'zgarib borgan bo'lsa-da, siyosiy tuzumda jiddiy o'zgarishlar ro'y bermagan.

Xiva xonligi uncha kuchli bo'lmagan tarqoq davlat bo'lgan. XVI asrda xonlik hududi xon xonadoniga mansub bo'lgan sultonlar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, ular o'zlariga tegishli yerlarni mustaqil boshqarganlar. Shunga ko'ra xon mamlakatda mutlaq hokimiyatga ega bo'lmagan. Xon hokimiyati uning yoshlikdagi otalig'i tomonidan bamaslahat holda kelishib olib borilgan. Oila a'zolari maslahati bilan xon majburan taxtdan chetlashtirilishi mumkin bo'lgan. Umumiy boshqaruvni kelishuv asosida amalga oshirgan.

Mamlakat boshqaruvida ko'chmanchi o'zbek qabilalarining boshliqlari inoqlar katta ta'sirga ega bo'lishgan. Ular xon saylash tadbirida ishtirok etishgan. O'z qabilasi va uning hududini boshqarishgan. Bir vaqtning o'zida xonning maslahatchilar hisoblanishgan.

Oliy hokimiyat deyarli barcha davrlarda vasiyat asosida sulolaning yoshi katta vakiliga meros tariqasida o'tgan. Odatda, taxt otadan o'g'ilga meros qolgan. Yangi xonning taxtga o'tirishi munosabati bilan xonni ko'tarish, ya'ni saylash tadbiri o'tkazilgan.

Oliy hokimiyat xon qo'lida bo'lib, u davlat, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati boshlig'i hisoblangan. Xonlikdagi eng oliy mansabdor shaxs va oliy hokimiyat egasi bo'lib, o'z navbatida oliy qo'mondon sifatida harbiy sohaga boshchilik qilgan. Shuningdek, ko'chmanchi aholi vakillarining yer, suv, soliq va harbiy munosabatlarini hal etgan. Ayrim hollarda aholi murojaatiga ko'ra ichki munosabatlarga xon tomonidan aniqlik kiritilgan.

Xon davlat boshlig'i sifatida mamlakat ichki va tashqi siyosatda uzil-kesil qaror qabul qilish, xalq safarbarligini e'lon etish, bosh qo'mondon sifatida qo'shinga rahbarlikni qo'lga olish vakolatiga ega bo'lgan. Xon sudi saroy markaziy harbiy sudi hamda siyosiy, o'ta og'ir va mansabdor shaxslarga oid jinoyatlarni ko'ruvchi oliy suddan tashkil topgan. Xonlar o'z vakolati doirasida islom qonunchiligi usuli va yassa aqidalariga tayangan holda nishon, yorliq, farmon va hukmlar chiqargan.

Xonlar odatda, aholining mansabdor shaxslar ustidan shikoyati bor paytda saroyda arz so'raganlar. Saroyda arz so'rashning ma'lum kunlari tayin etilgan. Zaruriy suratlarda xon mamlakatdan uzoqda payti arzni Kengash a'zolari tinglashgan. Bundan tashqari, xonlar muayyan vaqtlarda xalq oldiga chiqib turgan. Davlat boshlig'i uchun ham farz ham qarz hisoblangan bu an'ana «ko'rinush» deb atalgan.

Rus podsholigi mustamlakachiligi davrida xon vakolatlari bir muncha o'zgaradi. Mamlakat ichki boshqaruvida vakolatlar deyarli bekor qilinmaydi. Balki, rus davlati manfaati nuqtai nazaridan majburiyatlar yuklanib, tashqi faoliyat bilan bog'liq vakolatlari qisqaradi.

Saroyda *oliy maslahat kengashi* mavjud edi. U yuqori qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud hokimiyatini amalga oshirgan. Uning yig'ilishlari «mashvarat», «majlis» deya nomlangan. Tarkibi turli davrlarda mahalliy miqyosiga ko'ra turlicha bo'lgan. Unda asosan siyosiy, moliyaviy va harbiy ishlar muhokama qilingan.

Xonlik aholisining muqim yashashiga ko'ra, davlat hududi ikki qismga, ya'ni ko'chmanchi aholi istiqomat qiladigan shimoliy hudud va o'troq aholi yashaydigan janubiy hududga bo'lingan holda boshqarilgan.

Har bir oliy va markaziy mansabdor shaxslar xon tomonidan lavozimga tayinlangan va lavozimdan ozod etilgan. Odatda, lavozimlar xon tasdig'idan so'ng meros tariqasida o'tgan. Ularning huzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi mahkamalar joriy etilgan.

XIX asrning birinchi yarmida xondan keyin oliy lavozim *qushbegi* mansabi hisoblangan. U vaziri a'zam maqomida bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib vaziri a'zamlik mehtarga o'tadi. Keyinchalik esa *devonbegining* mavqei kuchayadi. U asosan boshqaruv, saroy kotibiyati va davlat devonini boshqarish, soliq, moliya ishlari, balki harbiy yurishlarga bosh bo'lish, qo'shin ta'minoti va dushman bilan muzokara ishlarini ham olib borgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ta'sis etilgan *vaziri jumlat ul-muluk*, bosh vazir xondan keyingi ikkinchi o'ringa chiqqan. XX asr boshida esa devonbegining ayrim vakolatlari ham unga o'tgan.

Ular bevosita xonga bo'ysunishgan va bir vaqtning o'zida xon maslahatchisi ham hisoblanishgan. Ular xon ruxsati bilan xonlik nomidan ish ko'rish, xususan qo'shni xalqlar va davlatlar bilan sulh tuzish huquqiga ega bo'lgan. Ba'zi hollarda oliy mansabdor shaxslardan iborat tor tarkibli majlis ishlagan. Unda ularning hisobotlari, taklif va e'tirozlari eshitilgan. Qushbegi mamlakatning janubiy qismini, mehtar esa shimoliy qismini idora qilgan.

Xonlikdagi diniy ishlar nazorati *shayxulislom* zimmasida bo'lgan. U diniy sohaga oid barcha huquqiy, fatvo chiqarish, axloqiy-tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy ishlar va amaldorlar ustidan nazoratni amalga oshirgan. Ular turli siyosiy-diniy marosimlardan tashqari, harbiy yurishlarda ham fatvo beruvchi muftilar boshlig'i, harbiy sharoitda shariat me'yorlarini bajarish yuzasidan mas'ul va qo'shin shaxsiy tarkibini



ma'naviy-ruhiy rag'batlantiruvchi ruhoniylar, qozi askar nazoratchisi va gohida biror harbiy bo'linma boshlig'i sifatida qatnashgan. Joylardagi shariat bo'yicha axloqiy normalar bajarilishini *raislar* bajargan. Ular qozilar bilan sheriklikda ish olib borishgan.

*Bosh mutavalliy* xonlikdagi katta lavozim sanalgan. Mutavalli vaqf bo'yicha masjid, madrasalar faoliyatini boshqargan va nazorat qilgan. *A'lam* muftilar boshlig'i, *tabiblar boshlig'i* (sarvari atibbo, tabiblar sarvari) ham markaziy boshqaruv amaldorlari hisoblanadi.

*Amir ul-umaroga* xonlikning chegara viloyatlarida qo'shinni qurollantirish va saflash, o'q-dori va qurol-yarog' bilan ta'minlash vazifalari yuklatiladi. Asosan u harbiy ta'minotni amalga oshiruvchi amaldor bo'lgan. Ushbu lavozim 1763–1770, 1855–1873-yillardagina mavjud edi.

Davlatdagi shariatga asoslangan sud-jazo normalarini tartibga solish, ijrosini nazorat etish ishlarini *qozikalon* boshqargan. U qozilar ishlari nazorati, ular chiqargan ayrim hukmlarni bekor qilish ishlarini bajargan. Qozilarni mansabga tayinlash ishlarini xon tasdig'idan o'tkazib olgan. Yer-mulk, qarz tilxati kabilarga muhr bosgan. Aytish lozimki, joylardagi qozilar qozikalon tavsiyasi, ammo, xon hukmi bilan mansabga tayinlanib, ozod qilinganlar. *Qozi askar* yoki *qozi urdu* harbiy sud ishlarini amalga oshirgan. Harbiy safarlarda xon bilan birga ishtirok etishi shart bo'lgan. Tasodifiy yoki baxtsiz hodisalar to'g'risida hukm chiqarish uning zimmasida bo'lgan.

Suv xo'jaligi sohasi *mirobboshi* tomonidan boshqarilgan. *Naqib* ruhoniylar va ta'lim-tarbiya sohasidagi mutasaddilar boshlig'i, saroydagi diniy-siyosiy, xarajat ishlarni nazorat etuvchi va urush oldidan harbiy ishlarning moliyaviy tomonlarini tartibga solish bilan shug'ullangan.

*Yasovulboshi* shaxsan xon muhofazasi, saroy qo'riqchiligi, maxfiy mahkama va harbiy ishlarda rahbarlik faoliyatini amalga oshirgan. Unga yasovullar, mirshablar, mahallalardagi militsiya xizmatini o'tovchi dorug'alar, urug'lar ichidagi bahodurlar, shotirlar, saroydagi eshikog'alari bo'ysungan. XX asr boshlarida saroyda yasovulboshi lavozimining mavqei oshadi.

Saroyda doimiy majburiyat yuklatilmagan, lekin davlat ishlarida muhim rol o'ynovchi, xususan xon topshiriqlari ijrosini amalga oshiruvchi, xon tomonidan berilgan vaqtinchalik vakolatlardan foydalanuvchi va meros tariqasida o'tuvchi yordamchi mansabdor shaxs lavozimlari toifasi va saroy xo'jalik mansablari (xon chuhralari) joriy etilgan. Jumladan, saroyda *mahrambegi* va *mahramlar* (xonning bevosita

xizmatchisi yoki shaxsiy yordamchisi), *mirzaboshi* (kotiblar boshlig'i), *mirza*(lar), maxfiy kotib (maxfiy hujjatlarni tayyorlovchi), *xazinachi*, *xudaychi* (davlat boshqaruviga oid barcha hujjatlarni saqlovchi), *muftilar*, *mushriflar*, *eshikog'asi*, *ikki eshikog'asi*, *munodargon* (xon farmonlarini xalqqa yetkazuvchi), *devon* (she'riy devon tartib qiluvchi), *poshshob* (jallod) va boshqa shaxslar faoliyat ko'rsatgan.

*Qo'shin boshqaruvida* naqib bosh qo'mondon hisoblangan. Yasovulboshidan keyin *mingboshi* mansabi turgan. Mingboshi shamxolchi, ya'ni, mergan o'qchilar dastasiga boshchilik qilgan. *Yuzboshi* ham o'qchilar boshlig'i hisoblanadi. Yuzboshilar qo'l ostidagi sipohi (qurollangan harbiy)lar, sarhanglar (harbiy istehkom quruvchilar) va qutvollar qazuv va grajdanlik qurilish ishlariga ham jalb etib turilganlar.

Mamlakatda huquq-tartibot ishlari yasovullik, mirshablik, poshshoblik, dorug'alik, kalontarlik, tunqotarlik xizmatlari va qozixonalar zimmasida bo'lib, eshikog'alari, oqsoqollar, miroblar, o'nboshi va yuzboshi, navkarlar, dorug'alar, kadxudo, kalontarlar tomonidan amalga oshirilgan.

Butun xonlik miqyosida joylarda asosan shaharlarda mirshablar xavfsizlik, jamoat tartibi va intizomni saqlash faoliyat bilan shug'ullangan. Shuningdek, shariat normalarining buzilishini oldini olish, qamoq joyi, ya'ni zindonda hukm qilinganlarni saqlash va qo'riqlash ishlarini ham amalga oshirganlar. Ular yuzboshi va yasovulboshiga bo'ysungan.

Xonlik ma'muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga taqsimlangan va hokimlar tomonidan boshqarilgan. Quyi boshqaruv oqsoqollar tomonidan yuritilgan. Ko'chmanchi o'zbek qabilalari boshliqlari, ya'ni oliy mansabdor shaxslari «inoq» (jami 4 ta ) deb atalgan. Qoraqalpoq aholisi va turkman xalqlarida oliy mansabdor shaxslar «biy» deb yuritilgan.

***Qo'qon xonligi.*** Ashtarxoniylar hukmronligi yillarining so'nggi bosqichida markaziy hokimiyati zaiflashib, viloyatlardagi mahalliy namoyandalarning mavqei kuchaygan. XVIII asr boshlarida mahalliy ruhoniylarning ta'siri hamda o'zbeklarning minglar urug'i vakili Shohruxbiy sa'y-harakati samarasida Farg'onada mustaqil hokimiyatga asos solinadi. Ho'qand qishlog'i o'rnida Shohruxbiy bino qilgan Qo'qand shahri yangi davlat poytaxti bo'lgan. O'zini Chingiziylar avlodidan deb hisoblagan Shohruxbiy asos solgan sulola XIX asrning birinchi yarmida deyarli butun Sirdaryo havzasini va Yettisuvning bir qismini o'z qo'liga oldi. Ushbu davlat 1709–1876-yillarda Qo'qon xonligi nomi bilan yashaydi.

Davlatda oliy hokimiyat xon qo'lida to'plangan. Hokimiyat meros tariqasida o'tgan bo'lsa-da, odatga ko'ra xon saylangan (ko'tarilgan). Uning vakolati asosan poytaxt va uning atrofi doirasidagina amal qilgan. Mahalliy hududlarda xon hokimiyatining ta'siri kuchli bo'lmagan.

Xon o'zining shaxsiy qo'riqchilariga ega bo'lgan. U urush vaqtlarida farmoyish berish orqali viloyat va shaharlardan qo'shin to'plagan hamda unga qo'mondonlik qilgan. Keyingi davrlarda doimiy qo'shin tashkil etilib, uning ta'minotini shaxsan xon yuritgan.

Qo'qon xonligi boshqaruvi tizimi ko'p jihatdan Buxoro va Xiva boshqaruviga o'xshash bo'lsa-da, o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lgan. Harbiy lavozim egasi mingboshining mavqei ayrim davrlarda juda yuqori bo'lgan. Qushbegi va parvonachiga mingboshi harbiy unvoni berilishi ham shuni ko'rsatadi.

Mamlakatda oliy va markaziy boshqaruvi saroy tomonidan amalga oshirilgan. Saroyda faoliyat ko'rsatuvchi *mingboshi unvoniga ega qushbegi* bosh vazir hisoblangan. U xon maslahatchisi bo'lib, biror shaharning hokimligini amalga oshirgan. *Otabek* harbiy qo'shin qo'mondonligini bajargan. *Shig'ovul* shariat va odil sudlovga tegishli mansablarga tayinlash va ular faoliyatini nazorat etish bilan shug'ullangan. Shuningdek, *parvonachi*, *lashkar amiri* yuqori mansablardan sanalgan.

Saroyda shu bilan qatorda hudaychi xon yordamchisi bo'lib, xon nomiga kelgan arizalarni qabul qilgan. *Tunqator* xon yostig'i posboni va tunda xon topshiriqlarini bajaruvchi hisoblanadi. *Noyib* sarbozlar boshlig'i bo'lgan. Kotiblarga ularning boshlig'i *risolachi* rahbarlik qilgan. Davlat xazinasini *dasturxonchi* tomonidan boshqarilgan. Bundan tashqari, boshqa xonliklardagi singari *otaliq*, *dodxoh*, *mehtarboshi*, *mahramboshi*, *eshikog'aboshi*, *miroxo'rboshi*, *bakovulboshi*, *yuzboshi* va boshqa mansablar joriy etilgan.

Sud hokimiyati tepasida joylardagi qozilar bo'ysunuvchi *qozikalon* turgan. U quyi qozi sudlar ustidan apellatsiya instansiyasi tartibida ish ko'rgan. *Shayx ul-islom* musulmonlar jamoasi diniy ishlarining oliy boshlig'i bo'lgan. *Shayxulmashoyix* muqaddas joylarning mutasaddisi bo'lgan.

Mamlakat ma'muriy-hududiy jihatdan viloyat (beklik) va shaharlarga bo'lingan. Mahalliy hokimiyat xon tomonidan tayinlanadigan hokimlar tomonidan deyarli mustaqil amalga oshirilgan. Hokimlar bek, beklar begi va qushbegi unvonlariga ega bo'lishgan. Ko'chmanchi aholi hududlari biylar tomonidan boshqarilgan.

Jumladan, siyosiy tizimda Toshkent shahri boshqaruvi alohida ahamiyat kasb etib, u erkin shahar hisoblangan. Uning hokimiyati tepasidagi shaharning boylari va zodagonlari (xojarlar) xonga katta ta'sir ko'rsata olgan. Ichki boshqaruv va sud ishlari mustaqil olib borilgan. Tashqi shahar tevarak hududlari bilan to'rt dahaga (Beshyog'och, Ko'kcha, Shayxontohur, Sebzor), dahalar esa mahallalarga taqsimlangan.

XV asrning 80-yillarida ko'chmanchi o'zbeklarning bir qismi hozirgi Qozog'iston yerlarida qolgach, turk-mo'g'ul qabila va urug'lari bilan birlashib, qozoq xonligiga asos soldi. Boshqa bir qismi XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Shayboniyxon rahbarligida Movarounnahr, Xorazmga bostirib keldi va temuriylar hukmronligiga barham berdi.

Shayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar qisqa muddat (1501–1506-y.) ichida Movarounnahr va Xorazm ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Ammo Shayboniyxon o'ldirilgandan keyin ko'p vaqt o'tmay mamlakatda o'zaro kurashlar, nizolar avj oldi, natijada Xuroson safaviylar qo'liga o'tdi, Movarounnahr esa Shayboniylarning mayda mulklariga bo'linib ketdi. Abdullaxon II (1583–1598-y.) uzoq davom etgan va ko'p qon to'kilgan kurashlardan so'ng mamlakatni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi, ammo uning vafotidan so'ng mamlakat yana bo'linib ketdi. Keyinchalik xonlikda kuchli mang'it qabilasi boshliqlari hokimiyat tepasiga keldi. Mang'itlar hukmronligi ostida Buxoro va qo'ng'irotlar rahbarligidagi Xiva xonligi vujudga keldi. XVIII asr boshlarida (1709-y.) Farg'onada, markazi Qo'qon hisoblangan uchinchi xonlik tashkil topdi. Bu xonlik tepasida ming qabilasi boshliqlari turgan.

Xulosa qilib aytganda, ko'chmanchi o'zbeklar XVI–XVIII asrlarda O'rta Osiyoning siyosiy hayotida ham muhim o'rin tutganlar.

Buxoro, Xiva va Qo'qon davlatlarining ijtimoiy-siyosiy tuzumi haqida ko'plab qo'lyozma asarlarda ma'lumot beriladi. Shulardan eng muhimlari hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

---

## **X BOB. YANGI DAVR BUYUK BRITANIYA DAVLATI VA HUQUQI**

### **1-§. Yangi davr Angliya davlat hokimiyatining oliy, markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tizimi**

Oʻrta asrlar Gʻarbiy Yevropa davlatchiligi oʻz taraqqiyotida ilk feodal monarxiyasidan mutlaq monarxiya kabi bosqichlarni bosib oʻtgan. XVI asrga kelib antifeodal inqiloblarning kuchayishi bilan davlat va huquq tizimining yangi demokratik tamoyillarini asoslovchi siyosiy-huquqiy taʼlimotlar rivojlangan. Mutlaq monarxiya tuzumiga qarshi inqiloblar natijasida, insoniyat antik va uygʻonish davrlari oraligʻidagi V–XVII asrlarni oʻz ichiga oluvchi oʻrta asrlardan chiqib, yangi davrga qadam qoʻydi.

XVII asrdagi ingliz burjua inqilobi oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, asosiy bosqichlarga ajratiladi. Angliyada burjua davlati va huquqi XVII asrda «Buyuk isyon» va «Shonli revolutsiya» deb nom olgan ikkita ingliz inqilobi natijasida vujudga kelgan.

Dastlabki ingliz burjua inqilobida ijtimoiy-siyosiy kuchlar feodal monarxiya, feodal dvoryanlar, oʻrta asrlardagi hukmron cherkov va unga qarshi xalqdan iborat boʻladi. Burjuaziyaning yangi dvoryanlar bilan ittifoq tuzishi inqilobning oxiriga yetmay qolishiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yutuqlarining cheklanishiga olib kelgan. Xususan, siyosiy sohada burjuaziya hokimiyatni yangi yer aristokratiya bilan boʻlib olishiga toʻgʻri keldi.

Ingliz burjua inqilobi natijasida Angliyada burjua tuzumiga asoslangan konstitutsiyaviy monarxiya paydo boʻladi. Davlat boshqaruvida vakillik organi bilan bir qatorda feodal muassasalar, jumladan kuchli qirol hokimiyati, lordlar palatasi, Yashirin kengash saqlanib qoladi.

Keyinchalik, XVIII va XIX asrlardagi agrar sanoat toʻntarishlari oqibatda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining hukmronlik mavqeini va sanoat burjuaziyasining siyosiy hokimiyatni amalga oshirishdagi rahbarligini taʼminlagan. Bu vaqt mobaynida Britaniyaning yarim feodal, aristokratik siyosiy tizimi asta-sekin burjua-demokratik tizimga aylanib borgan.

Inqilob arafasida siyosiy-diniy konsepsiyalari (qarashlar tizimi) va ijtimoiy manfaatlari qarama-qarshi ikki sinf shakllanadi. Ulardan



birinchisi, absolutizm tayanchi bo'lgan eski feodal dvoryanlar va ruhoniylardan iborat bo'lsa, ikkinchi oqim «puritan» deb atalib, yangi dvoryanlar va burjuaziyani birlashtirgan. Ularning har ikkalasi umuman olganda diniy ko'rinishda bo'lgan.

Inqilob davomida puritanlar lageri ijtimoiy jihatdan va diniy e'tiqod nuqtai nazaridan uchta asosiy oqimga: presviterianlar, independentlar va lavellerlarga bo'linib ketgan.

Presviterianlar oqimi kuchli konstitutsiyaviy monarxiya tarafdorlari bo'ladi. Ular hokimiyatni egallab, 1640–1648 -yillarda o'z qo'lida ushlab turadi.

Independentlar oqimi demokratik tamoyillarni ilgari surgan konstitutsiyaviy monarxiya tarafdorlari bo'ladi. Bu oqim o'z tarkibi bo'yicha juda zich va xilma-xil bo'lgan. Uning asosiy rahnamosi, siyosiy yo'l boshchisi O. Kromvel bo'lgan. Independentlar davri inqilobning radikal bosqichi (1649–1660-y.) hisoblanadi. Bu davrda dastlab monarxiya tugatilgan va respublika o'rnatilgan (1649–1653-y.). So'ngra u harbiy diktaturaga o'sib chiqqan (1653–1659-y.) va o'z navbatida monarxiyaning qayta tiklanishiga olib kelgan.

Lavellerlar inqilob davrida independentlardan ajralib chiqqan oqimdir. Ularning g'oyalari kelajakda feodal tuzum bilan g'oyaviy-siyosiy kurash olib borishda muhim o'rin tutgan. Lavellerlarning ancha radikal qismini dehqonlar va proletarlar manfaatlarini ifodalovchi diggerlar tashkil etgan.

Angliya inqilobi qirol va parlamentning an'anaviy o'zaro bir-biriga qarama-qarshiligida rivojlangan. 1628-yilgi *Huquq to'g'risidagi petitsiya* orqali parlament oppozitsiyasi Erkinliklarning buyuk xartiyasiga tayangan holda qirolning fuqarolar hayoti va mulkiga nisbatan huquqlarini cheklaydi. Natijada 1629–1640-yillarda mamlakat parlamentsiz idora qilinadi.

1640-yil 13-apreldan 5-maygacha qirol Karl I tomonidan xazina masalasida chaqirilgan va tarixda Qisqa parlament nomini olgan parlament faoliyat yuritadi.

1640-yil 3-noyabrdan 1653-yil aprelgacha ichki ahvol tangligi natijasida Uzoq parlament ish olib boradi. Bu davrda parlamentsiz boshqaruvga qaytish imkoniyati yuridik hujjatlar asosida cheklanadi. Muhim islohotlar amalga oshirilgan.

1648-yilda siyosiy hokimiyat parlament tarkibidagi independentlar qo'liga o'tadi. 1649-yil 4-yanvarda umumpalata o'zini Angliyada oliy hokimiyat egasi deb e'lon qildi. 1649-yil 19-mayda parlament hujjati

asosida Angliyada respublika boshqaruv shakli o'rnatiladi. Unda «Parlamentdagi xalq vakillari» (1 ta palata, oldingi quyi palata) davlatning oliy hokimiyati ekanligi e'lon qilindi. Oliy ijroiya hokimiyat organi Davlat kengashi bo'lib qoldi va u parlament oldida javob beradigan bo'ldi.

Uzoq parlamentning harbiy islohotlari ijrochilaridan biri intizomli va jangovor armiya tuzgan – independentlar vakili O. Kromvel bo'lgan. Bu davrga kelib, oliy ijroiya hokimiyati Kromvel boshchiligidagi harbiy kengash qo'lida to'plangan.

Kromvelning hokimiyati tobora shaxsiy diktatura xarakteriga ega bo'lib borgan. U va uning ofitserlar kengashi 1653-yilda uzoq parlamentni tarqatib yuboradi. So'ngra Angliyaning «Boshqarish quroli» deb nom olgan yangi konstitutsiyani ishlab chiqadi. Bu hujjatda Kromvel protektorati nomli diktatura mustahkamlanadi. Unga binoan Kromvel lord-protektor (himoyachi, homiy) unvonini olib, Respublikaning umrbod rahbari bo'lib oladi.

Konstitutsiya bo'yicha oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat lord-protektor va parlament qo'lida to'plangan. Parlament bir palatali bo'lib, tez orada chaqirilmay qo'yilgan. Katoliklar va qirol tarafdorlari saylov huquqidan mahrum etilgan. Ancha yuqori mulk senzi ham o'rnatilgan. O'z mohiyatiga ko'ra protektorat parlamenti xalqning vakillik organi emas edi. 1657-yilga kelib yuqori palata – lordlar palatasi qayta tiklangan, respublikachilar esa quvib yuborilgan.

«Boshqarish quroli»ga ko'ra, oliy ijroiya hokimiyati lord-protektor va Davlat kengashi a'zolariga (13 tadan 21 tagacha) tegishli bo'lgan. Protektorning ichki va tashqi siyosatdagi vakolatlari juda keng bo'lib, nazoratsiz yakka hokimlikka o'xshagan edi.

Mahalliy boshqaruv Kromvel armiyasining generallari qo'lida to'plangan. Butun armiya 11 ta okrugga bo'lingan bo'lib, ularning tepasiga general-gubernatorlar (general-mayorlar) qo'yilgan edi. Ular cheklanmagan politsiya vakolatlariga ega bo'lishgan. Muholifat ayovsiz bostirilgan.

O'z mohiyati jihatidan bu diktatura burjuaziya va yangi dvoryanlarning diktaturasi edi. Kromvel 1658-yilning 4 fevralida parlamentni tugatish maqsadida tarqatib yuborgan. U 1658-yilning 3 sentabrda vafot etgan.

Kromvel vafotidan so'ng bir necha oy o'tgach burjuaziya va dvoryanlarning qayta tiklash tendensiyasi «Styuartlarning an'anaviy monarxiyasi»ni tiklash bilan tugallanadi. Buning sababi protektorat tomonidan yangi jiddiy xalq harakatlarini bostirilmaganligi, deb qaraladi.

1659-yilda Uzoq parlamentning qoldig'i o'zini ta'sis etuvchi hokimiyat deb e'lon qiladi. Parlament 1660-yilgi Bred deklaratsiyasi deb atalgan hujjat qabul qiladi. Shu tariqa Karl II taxtni egallaydi va ilgari ag'darilgan siyosiy tuzumning qayta tiklanishi sodir bo'ladi. Natijada davlat cherkovi, Yashirin kengash va inqilobdan oldingi boshqa davlat organlari (Yulduzlar palatasi va Yuqori komissiyadan tashqari) va ularni shakllantirishning eski tartibi qayta tiklandi.

Bu davrda 2 ta siyosiy partiya vujudga keladi. Ular torilar – qirol va uning hokimiyatini kuchaytirish tarafdorlari hamda vigilar – burjuaziya va o'rta dvoryanlar manfaatlarini ifodalovchilardir. Biroq, ular hali yetarlicha shakllanmagan edi. Shunga qaramay, ularning o'zaro siyosiy kurashlari mamlakatning yanada rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Shu tariqa mamlakatning ikki partiyaviylik tizimiga asos solingan.

1679-yilda vigilar parlamentda ko'pchilik o'ringa ega bo'lishga erishadilar. Parlamentda 1679-yil 26-mayda konstitutsiyaviy kurash tarixida mashhur bo'lgan Habeas korpus akt (Habeas Corpus act), ya'ni shaxs huquqlari kafolatlari haqidagi akt qabul qilingan.

Habeas korpus aktning qabul qilinishi so'zsiz progressiv ahamiyatga ega bo'lgan. U qirol hokimiyati tomonidan qilinadigan ta'qiblardan saqlab, daxlsizlik kafolatlarini o'rnatgan. Keyinchalik, Angliyadagi eng muhim konstitutsiyaviy hujjatlardan biri bo'lib qolgan.

Habeas korpus aktning qirol Karl II tomonidan tasdiqlanishi uning taxt vorisi (ukasi) Yakov II ning taxtni egallashiga vigilarning qarshilik ko'rsatmasligi sharti bilan amalga oshgan. Bu inqilobdan keyingi birinchi o'zaro kelishuv bo'lib, Angliya tarixi kelajakda ana shunday o'zaro kelishuvlar ta'siri ostida rivojlangan.

Yakov II (1633–1701-y.) Angliya taxtiga 1685-yilda o'tiradi va ochiqdan-ochiq burjuaziyaga qarshi siyosat yurgizadi. Katolitsizmni tiklashni ko'zlaydi. Natijada parlamentda ko'pchilik o'rinni egallagan torilar bilan birga vigilar umumiy til topishadi. 1689-yil yanvarda «konvent» deb atalgan va favqulodda vakolatlarni olgan parlament Yakov II ni «taxtdan voz kechgan» deb e'lon qildi. Yakov II Londondan qochib ketganligi sababli qirol hokimiyatini uning kuyovi Gollandiya shtatgalteri Vilgelm Oranskiyga (1689–1702-y.) topshirdi. Shu vaqtdan boshlab Angliyada konstitutsiya monarxiya batamom o'rnatildi. Inqilob juda ustalik bilan xalqning ishtirokisiz, qon to'kilmay qilinganligi sababli «shonli inqilob» deb atalgan.

Parlament tarkibidagi torilar va vigilar partiyalari vakillarining qirol bilan yangi o'zaro kelishuvlari o'rnatiladi. Uning mazmuni siyosiy

hokimiyat markazda ham, joylarda ham burjuaziya manfaatlariga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga olgan yer egalari qo'lida qolganligidir.

«Huquqlar to'g'risidagi Bill» yangi qirol Vilgelm III ning 1689-yilgi «Huquqlar to'g'risidagi deklaratsiya»si bo'lib hisoblanadi. Amalda u qirol hokimiyatini cheklagan va parlamentning qonun chiqarish sohasidagi ustunligini o'rnatgan. Shuningdek, unga binoan parlamentning vakolat muddati dastlab 3 yil, 1716-yildan 7 yil etib belgilandi.

Shunday qilib, «Huquqlar to'g'risidagi Bill»ga binoan ijroiya va qonun chiqarish sohalari o'rtasida chegara qo'yildi. Qirol parlament bilan birgalikda qonun chiqarish faoliyatida ishtirok etib, unga mutlaq veto huquqi tegishli edi. Bundan tashqari, qirolida ko'pgina ijroiya va sud hokimiyati saqlanib qolgan.

1701-yilgi «Taxt vorisligi to'g'risidagi akt» taxtning keyingi davrlarda aynan kimga va qaysi sulolaga o'tishi mustahkamlangan. «Huquqlar to'g'risidagi Bill» kiritilgan yangi qoidalar qirolning umumpalata qoralagan siyosiy jinoyatchilarga nisbatan afv kuchiga ega emasligini e'lon qilgan. Parlament qonunlarining imzolanishi qirol ministrilariga yuklangan. Sudyalarning almashtirilmasligi tamoyili bo'yicha ular mansabidan parlament qarori bilan chetlashtirilishi mumkin bo'lgan.

Shu tariqa hokimiyatning dualizmi saqlanishda davom etdi. XVII–XVIII asrlardagi Angliya davlat tuzumini dualistik monarxiya sifatida belgilanishi tasodifiy emas. Qirol va uning hukumati ham parlament oldida hech qanday javobgar bo'lmagan.

XVIII asr Angliya konstitutsiyaviy rivojlanishida ikkita asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: parlamentning yuksalishi va ministrilar kabinetining tashkil topishidir.

Angliya parlamenti ilgorigidek, ikki palatali edi. Yuqori palata (lordlar palatasi) a'zolari o'z o'rinlarini yo meros bo'yicha yoki mansab bo'yicha yoxud qirolning tayinlashi bo'yicha egallagan.

Quyi palata (umumpalata, jami 513 ta deputat ) saylov huquqi asosida tashkil qilingan. Torilar va vigilarning siyosiy partiyalari saylovchilar doirasini qisqartirish uchun mulk va yer senzlarini o'rnatganlar (7 mln. 250 ming aholidan 150 ming saylovchi). Saylanuvchilarga nisbatan ham senz amal qilgan va bu parlamentda aristokratiyaning hukmronligini keltirib chiqargan. Aristokratlar o'z vakillarini parlament deputatligi nomzodiga tavsiya etib, saylovda qatnashtirganlar.

1707-yildan qirol hokimiyatining veto huquqidan umuman foydalanmay qo'yishi butun qonun chiqarish hokimiyatini parlamentga

o'tkazgan. Butun XVIII asr mobaynida parlament majlislari yashirin ravishda o'tkazilgan. Bayonnomalar rasmiy ravishda bosib chiqarilmagan.

XVIII asr davomida britan monarxiyasida «hukumat javobgarligi» kabi yangi tamoyil ham o'rnatilgan. Odatda, davlat boshqaruvidagi Yashirin kengashning a'zolari qirol tomonidan tanlab olingan. Vaqti-vaqti bilan u yoki bu a'zoga ma'lum tarmoqqa rahbarlik qilish topshirilgan. Ana shunday tartibdagi ministrnlarning yig'indisi kabinetni tashkil etgan. Shu tariqa Yashirin kengashdan ministrlar kabineti ajralib chiqqan. Ammo, bu kabinet qonun bilan ham, nazariya bilan ham tan olinmagan. Lekin, amalda u nafaqat harakat qilgan, balki mustahkamlanib borgan. Uning majlislari maxfiy tarzda o'tkazilgan. «Yashirin kengashning ba'zi a'zolari o'rtasidagi tasodifiy kengash» deb hisoblangan. XIX asrning oxirigacha u o'zining maxsus binosiga ega bo'lgan emas.

XVIII asr boshlaridanoq qirol veto huquqidan foydalanmay qo'yadi. Kabinet majlislarida ham qatnashmaydi. Natijada ministrlar kabineti qirol nomidan amalda mustaqil harakat qila boshlaydi. Davlat boshqaruvini o'z qo'lida to'playdi.

1711-yilda «Qirol nohaq bo'lishi mumkin emas» degan tamoyilning o'rnatilishi kontrassignatura (qirolning hokimiyatdan mahrum bo'lishi) qoidasining mantiqiy davomi bo'lgan. Qirol o'z imtiyozlarining birortasini ham mustaqil amalga oshira olmagan. Shu tariqa «qirol podsholik qiladi, lekin idora qilmaydi» degan qoida vujudga keladi.

Parlament yordamida ministrlar kabineti tezda qirolni ikkinchi o'ringa surib qo'yadi. Ministrlar kabinetiga birinchi ministr (premyer-ministr) – kabinet boshlig'i boshchilik qilgan. Aslida, u parlamentda hukmron rol o'ynovchi siyosiy partiyaning rahbari bo'lgan.

Javobgarlikning kabinet a'zolari zimmasiga o'tkazilishi ular faoliyati ustidan parlament nazorati o'rnatilishiga olib kelgan. Kabinet a'zolarining parlament oldidagi individual javobgarligi XVIII asrning birinchi yarmida, birgalikdagi javobgarligi XVIII asrning oxirlarida shakllangan. Bu shunda namoyon bo'lganki, kabinet a'zolarining siyosati umumpalata tomonidan ma'qullanmasa, ular iste'foga chiqishlari lozim edi.

Qirolning oliy mansabdor shaxslarni tayinlash va bo'shatish huquqi parlament tomonidan cheklanadi. Bu esa uning ta'sirini yana kuchsizlantiradi. Qirol kabinet lavozimlariga faqat parlamentning ko'pchiligi va liderlari tomonidan qo'llab-quvvatlanidigan shaxslardan tayinlagan.

XVIII asrning birinchi yarmida kabinet umumpalataning ko'pchilik a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlansa faoliyat yuritishi mumkinligi



tamoyili o'rnatiladi. Budgetni tasdiqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega umumpalata kabinet siyosatiga qarshi bo'lsa, mamlakatni boshqarib bo'lmasligi tarixda bir necha bor o'z aksini topadi. Faqat parlamentda ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan partiyalarning liderlaridan tuzilgan kabinetgina parlament bilan hamkorlik qilishi mumkin edi. Shu tariqa yana bir yangilik – kabinetning partiyaviy asosda tashkil etish tartibi joriy qilingan.

Shunday qilib, XVIII asr mobaynida Buyuk Britaniyaning ministrlar kabineti qiroldan ajralib turgan. U umumpalata oldida javobgar hisoblangan asosiy mansabdor shaxslardan iborat tarkibdagi oliy boshqaruv organi bo'lib qolgan. Bunday hukumat javobgar hukumat nomini olgan.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumida tub o'zgarishlar yuz bergan. Buning asosiy sababi sanoat to'ntarishi va agrar inqilobi bo'lib hisoblanadi. Agrar to'ntarish natijasida sanoat taraqqiy etadi.

XIX asrning boshiga kelib ancha rivojlangan siyosiy tizim qaror topadi. Jamiyatning sinfiy tuzilishidagi o'zgarishlar siyosiy partiyalar – torilar va vigilarining ijtimoiy bazasida ham o'z aksini topadi. Torilar pomeshchiklar va moliya burjuaziyasining konvervativ partiyasi, vigilar sanoat burjuaziyasining partiyasi bo'lgan. XVII asr oxirlaridan XVIII asrning o'rtalarigacha vigilar, XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning o'rtalariga qadar torilar hokimiyat tepasida turishgan.

XIX asrga kelib ingliz siyosiy tizimining eng muhim elementi parlament bo'lib qoladi. Uning umumpalatasi alohida rol o'ynagan. Burjuaziya va aristokratiyaning feodal vakillik organi bo'lgan. Saylovlarning eski, inqilobdan oldingi tizimi qayta tiklanib, amal qilib kelayotganligi sababli saylov huquqi islohotlari uchun kurash yuzaga keladi. Butun XIX asr Buyuk Britaniyada shu kurash belgisi ostida o'tgan.

XIX asr boshida, aynan Napoleon urushidan so'ng Angliyada iqtisodiy va ijtimoiy hayot vaqtincha turg'unlikka uchraydi. Parlament tomonidan biror bir jiddiy chora ko'rilmaydi. Natijada xalq ommasi, sanoat burjuaziyasi, mayda burjuaziya va ishchilar siyosiy tuzumning demokratlashtirilishini va umumiy saylov huquqi joriy etilishini talab qilgan.

1830-yil iyulda parlamentga yangi saylov o'tkazildi. Unda islohot tarafdorlari bo'lgan vigilar ko'p o'rin oldi. Noyabr oyida vigilardan iborat yangi kabinet tuzildi.

1831-yilda hukumatning parlamentni isloh qilish haqida kiritgan qonun loyihasi 1832-yilga kelib har ikkala palatada tasdiqlandi. Parlament islohoti haqidagi qonunga binoan qishloqlar, shaharlar, Shotlandiya, Irlandiya va boshqa hududlarga ajratilgan mandatlar qayta taqsimlangan. Natijada saylovda mulk va o'troqlik senzi o'rnatiladi. Ochiq ovoz berish tartibi saqlanib qolgan. Umum palata burjuaziya parlamentiga aylangan va feodal vakillik tugatilgan.

Umum palatadagi o'zgarishlar kabinetning qirolidan to'la mustaqil bo'lishi uchun imkon tug'dirgan. Qirol tayanchi bo'lgan aristokratiyaning parlament orqali kabinetga ta'siri cheklangan. Bu vaqtda qirollik imtiyozlari kabinet ixtiyoriga o'tkazildi. Ministrlar hokimiyati parlamentda ko'pchilik o'rin olgan partiya qo'liga o'tdi. Kabinet parlament oppozitsiyasida rahbarlik mavqei egalladi. Toj-taxt ahvolini belgilovchi, ya'ni «qirol podsholik qiladi, lekin boshqarmaydi» degan qarash qaror topdi. Bu shartli yozilmagan qoida ingliz parlamentarizmining eng muhim asosiy qoidasi edi.

1832-yilgi islohot natijasida siyosiy partiyalar qayta tug'ildi. Torilar – konservatorlar, vigilar – liberallar partiyasi deb qayta nomlandi. Vaqt o'tishi bilan liberalizm va konservatizm qudratli siyosiy oqimga aylanib, burjua jamiyati va davlati rivojining butun bir yo'lini ko'rsatib bergan.

1832-yilgi islohot markaziy davlat apparatining qayta tashkil etilishiga turtki berdi. Markaziy boshqaruv faoliyati kengaygan va jonlangan. Moliya ministrligidagi o'rta asrlar mansablari tugatildi. Harbiy-dengiz ministrligi ancha soddalashtirildi. Ichki ishlar ministrligi va savdo ministrligi roli kuchaytirilgan.

Shaharlarda o'zini o'zi boshqarish islohoti o'tkazildi. Shahar kengashlari boshqaruv, xavfsizlik va tartibot funksiyalarini amalga oshirgan.

1830–1840-yillarda ijrochilar siyosiy harakati – chartistlar (cherter – xartiya) harakati tomonidan Xalq xartiyasi e'lon qilingan. Unda 6 banddan iborat demokratik islohotlar dasturi ilgari surilgan. Biroq, Xalq xartiyasi haqidagi petitsiya parlamentda 1839, 1842 va 1848-yillarda uch marotaba rad etiladi. Chartizm ingliz burjuaziyasi va lendlordlarni faqat keyingi o'n yilliklarda siyosiy islohotlarni amalga oshirishga majbur qilgan.

XIX asrning 50–60-yillarida sanoat burjuaziyasining klassik burjua parlamentarizmi shaklida siyosiy hukmronligi o'rnatilgan. Umum palata XIX asrga kelib lordlar palatasini ikkinchi o'ringa surib qo'ygan va qirol hokimiyatining nufuzini tushirib yuborgan. Ular asosan o'rta asr qonun va odatlari amal qilishidan manfaatdor bo'lishgan.

Ushbu davrda yangi islohotlar o'tkazish, saylov huquqini yanada kengaytirish uchun turli kuchlar birlasha boshlaydi. Oxir-oqibatda yozuvchi va siyosatchi, xazina kansleri va konservativ hukumat boshlig'i Benjamin Dizraeli (1804–1881-y.) tomonidan parlamentga islohotlar dasturi taklif etiladi. Yangi parlament islohoti haqidagi ushbu Bill loyihasi Parlamentda qabul qilinib, 1867-yil avgustda qirolicha tomonidan imzolanadi. 1867-yilgi islohot deputatlik o'rinlarini qayta taqsimlanishini nazarda tutgan. Unda hududiylik belgisi ko'proq amal qilgan. Natijada, saylovchilar soni mayda burjuaziya, hunarmandlar va ishchilar hisobiga kengaygan. Biroq, saylov okruglarining noteng taqsimlanishi va mulk senzi saqlanib qolgan edi.

Islohot natijasida sanoat kapitalining real siyosiy hokimiyati o'sishiga yakun yasaladi. 1867-yilda qonun qabul qilinib, sud oldida fuqarolarning ijtimoiy holatidan qat'i nazar tengligi o'rnatilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Angliya siyosiy tuzumida kechgan o'zgarishlar asosan liberallar va konservatorlar yirik partiyalari faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ular dasturlaridagi g'oyalar zamon bilan hamohang tarzda o'zgarib kelgan. Hokimiyat parlamentda ko'pchilik o'rinni egallagan partiya va uning liderlaridan iborat kabinet qo'lida to'plangan.

1872, 1883, 1884, 1885-yillarda saylov jarayoni, tartibi, saylovchilar va saylanuvchilarga oid qator islohotlar amalga oshirildi. 1906-yilda Buyuk Britaniyada leyboristlar (ishchilar) partiyasi tashkil topadi. Oqibatda ular liberallar va konservatorlar partiyalari bilan raqobat qila oladigan mustaqil fraksiya tashkil qildilar.

1885-yilda mahalliy boshqaruv islohotlari amalga oshirilgan. Unga ko'ra grafliklarda mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi joriy etilgan. Hokimiyat organi sifatida saylanadigan kengashlar ta'sis etilgan. Saylanuvchi kengashlar aholisi 300 kishidan ortiq bo'lgan aholi maskanlari (prixod) ham tashkil etilgan. Murosaga keltiruvchi sudyalarda faqat sud funksiyalari saqlanib qolgan. Islohot natijasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish aristokratiyadan burjuaziyaga o'tdi.

Sud islohotlari natijasida feodalizm davridagi sud tizimi soddalashtirilgan. Angliyaning barcha yuqori sudlari yagona Oliy sudga birlashtirilgan. Oliy sud Yuqori sud va Fuqarolik ishlari bo'yicha Apellatsiya sudidan iborat tarkibda tashkil etildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida turli holatlar ta'sirida parlament yordamida oliy ijroiya boshqaruv organi bo'lib olgan Ministrlar kabineti parlamentning o'zidan ham ustunlik qila boshlaydi.

Parlamentning ustunligi esa uning ijtimoiy bazasi (tarkibi) juda tor bo'lgan vaqtda o'rnatilgan edi. Ijtimoiy va iqtisodiy hayot talablarining oshishi, davlat boshqaruvi vazifalarining kengayib va ko'payib borishiga javoban parlament qarorlar qabul qila olmagan. Parlament tizimida muzokaralarning yopiq o'tkazilishi, umumpalatada spiker boshchiligidagi ta'minlanishi uning ichki imkoniyatlari cheklanishiga olib kelgan. XIX asrning 80-yillarida umumpalata majlislarining 9/10 tasi hukumat chiqaradigan qonunlarni muhokama qilishga ajratilgan. Parlament tarkibidagi muxolifat va deputatlar ministrlar kabinetining faoliyatini muhokama qilish imkoniyatidan cheklab qo'yilgan.

Kabinet o'z navbatida, hukmron partiyalarning yuqori qismi, uning markazi sifatida rol o'ynagan. Kabinetga partiyaning har bir a'zosi bo'ysunishi lozim edi. Ministrlar kabinetining boshqaruv apparatiga rahbarlikni amalga oshirishi barobarida qonun chiqaruvchilik roli mustahkamlanib borgan. Natijada ingliz parlamentarizmining kabinet javobgarligi qoidasi o'z ahamiyatini yo'qotgan. Parlament siyosiy tizimdagi o'zining yetakchi rolini Ministrlar kabinetiga bo'shatib bergan.

Lordlar palatasi ijtimoiy tarkibi bo'yicha aristokratiya tayanchi va konservatorlar tarafdori hisoblangan. U quyi palataga nisbatan tiyib turish funksiyasiga ega bo'lgan. Xususan, ko'proq konservatorlar partiyasi muhim masala bo'yicha mag'lubiyatga uchraganda ularni himoya qilib chiqqan. XX asr boshiga kelib uning ijtimoiy tarkibiga o'zgarib, urug'chilik aristokratiya bilan burjuazianing qo'shilishi yuz bergan.

Liberallar tomonidan lordlar palatasini qayta qurishga qaratilgan harakat natijasida 1911-yilda parlament haqidagi akt vujudga keladi. Shu yilning may oyida umumpalata parlamentni isloh qilish to'g'risidagi billni qabul qiladi. Yangi qonun lordlar palatasining quyidagi huquqlarini cheklab qo'ydi: 1) umumpalatasida qabul qilingan bill 2 yil davomida shu palataning uchta sessiyasida qabul qilingan va har safar lordlar palatasi tomonidan ma'qullanmagan bo'lsa to'g'ridan-to'g'ri qirol tasdig'iga jo'natilgan; 2) moliyaviy qonunlarni o'tkazishda lordlar palatasining roziligi umuman so'ralmagan va chetlashtirib qo'yilgan. Shu bilan birga, parlamentning vakolat muddati 7 yildan 5 yilga qisqartirilgan.

Ingliz burjua inqilobi va Kromvel protektorati davri ingliz mustamlakachilik imperiyasining paydo bo'lish davri bo'ladi. U XVIII asrda va undan keyin ham kengayib boradi. Shu tariqa Britan mustamlakachiligi umuman XVII–XVIII asrlarda tashkil topa boshlagan. Angliya davlati Ispaniya, Gollandiya va Fransiya bilan kurashda savdo va dengiz gegemonligini qo'lga kiritdi. Natijada mamlakatda savdo, moliya va sanoat tez suratlarda o'sadi.

XVIII asrda Angliya tomonidan Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrika, Hindistonda juda katta hududlar bosib olingan. XIX asrning o'rtalarida Angliyaning Osiyo va Lotin Amerikasida, shuningdek Avstraliya va Yangi Zelandiyada juda katta mustamlakalari mavjud edi. Yer shari aholisining 20 foizi Angliyaga qaram bo'lib, u juda qudratli mustamlakachi davlat va savdo-sanoat mamlakatiga aylangandi.

1854-yilda mustamlakalarni boshqarish uchun maxsus mustamlaka ministrliги tashkil etiladi. Unga mustamlakalar va ular o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish, ulardagi mansabdor shaxslarni tayinlash va bo'shatish, harbiy ministrlik bilan birgalikda mustamlakalarni qo'riqlash ishlari yuklatilgan. XIX asr oxiriga kelib mustamlakalardagi milliy-ozodlik kurashi natijasida ularni boshqarish shakli va usuli ancha o'zgartirilgan.

## **2-§. Angliya huquqi manbalari**

Angliya huquqiy tizimi, jumladan huquq manbalari davlatchilik taraqqiyoti bilan o'ta uzviy bog'liqlikda shakllangan. Angliyada qabul qilingan konstitutsiyaviy qonunlar asosiy huquq manbalarini tashkil etgan. Jumladan, Lavellerlar tomonidan 1647 -yilda «Xalq bitimi» e'lon qilingan, bo'lib, unda demokratik tamoyillar keng tarzda belgilangan, «umumiy huquq» tizimining isloh qilinishi talab etilgan.

1628-yilgi *Huquq to'g'risidagi petitsiyada* parlament oppozitsiyasi Erkinliklarning buyuk xartiyasiga tayangan holda qirolning fuqarolar hayoti va mulkiga nisbatan huquqlari cheklangan. 1640-yil 3-noyabrdan 1653-yil aprelgacha, ya'ni «uzoq parlament» ish olib borgan davrda ikki palatadan iborat parlament vakolati doirasida qator qonun va ordonanslar chiqarilgan. 1649-yil 4-yanvarda umumpalata o'zini Angliyada oliy hokimiyat egasi, uning qarorlari qirol va lordlar palatasining rozilgisiz qonun kuchiga ega, deb e'lon qildi.

1653-yilda uzoq parlament tarqatilgandan so'ng Angliyaning «Boshqarish quroli» deb nom olgan yangi konstitutsiyasi ishlab chiqildi. U Kromvel protektorati nomli diktaturani mustahkamladi. 1660-yilda parlament «Bred deklaratsiyasi»ni qabul qilishi natijasida ilgari amal qilgan siyosiy tuzum qayta tiklandi.

Parlament tomonidan 1679-yil 26-mayda qabul qilingan Habeas korpus akt (Habeas Corpus act), ya'ni shaxs huquqlari kafolatlari haqidagi akt – qonunga ko'ra, har qanday qamoqqa olingan mahbus shaxsan o'zi yoki qarindoshlari va tanishlari orqali yuqori sudlardan



biriga Habeas corpus haqida buyruq berishini talab qilishi mumkin edi. Bunday sudyalarning tomonidan berilgan yozma buyruqqa asosan mahbusning ishini yurituvchi shaxs 24 soat ichida qamoqqa olish sabablarini ko'rsatgan holda uni sudga olib kelishi lozim edi. Aks holda ish yurituvchiga nisbatan birinchi marta jarima, ikkinchi marta mansabidan bo'shatish jazosi belgilangan. Sud qamoqqa olish asoslarini ko'rib chiqib, mahbusni sudgacha garovga qo'yib yuborish yoki qamoqda ushlab turish yoki butunlay ozod qilish haqida qaror qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasida ayni bugungi kunda mazkur «Habeas corpus» institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi muhim qadam bo'ldi<sup>1</sup>.

1673-yilda Qirol qasamyodi to'g'risidagi akt qabul qilinib, uni qo'llashga 1689-yildan boshlab alohida e'tibor berilgan. 1689-yilda konstitutsiyaviy monarxiyaning o'rnatilganligi parlamentda shu yil qabul qilingan «Huquqlar to'g'risidagi Bill», 1701-yilgi «Taxt vorisligi haqidagi akt»da mustahkamlangan.

«Huquqlar to'g'risidagi Bill» davlatning shakli, oliy boshqaruv organlari va ularning vakolatlari, fuqaro huquqlari va erkinliklari, soliq va qo'shin masalalarini ham tartibga solgan.

1701-yilda «Huquqlar to'g'risidagi Bill» qirol hokimiyatini cheklovchi bir qancha qoidalar bilan to'ldirilgan. Ushbu qoidalar ingliz konstitutsiyasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, sud hokimiyatining ijroiya hokimiyatidan ajratilganligi e'lon qilingan. Sudyalarning almashtirilmasligi tamoyili bo'yicha ular mansablaridan parlament qarori bilan chetlashtirilishi mumkin bo'lgan.

1701-yilgi «Taxt vorisligi to'g'risidagi akt» yana bir juda muhim konstitutsiyaviy qonundir. U orqali taxtning keyingi davrlarda aynan kimga va qaysi sulolaga o'tishi mustahkamlangan. Ingliz konstitutsiyasi izchillik bilan tuzilmagan bo'lsa-da, unda hokimiyatning taqsimlanishi g'oyasi mujassamlangan. Shu tariqa davlat hokimiyatining juda muhim institutlari rasmiylashtirilgan.

Shunday qilib, XVIII asr boshiga kelib Angliyada quyidagi uchta muhim konstitutsiyaviy qonun: Habeas corpus akti; Huquqlar to'g'risidagi

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – Т., 2010. – Б. 22.

Bill; Taxt vorisligi haqidagi akt qabul qilingan. Ular ingliz konstitutsiyasining yozilgan qismini tashkil etgan.

Ingliz konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyati shunda ediki, u yagona qonun hujjati bo'lmagan. Uning muhim qismini amaliyotda o'rnatilgan va yozilmagan shartli qoidalar tashkil etadi. Ana shunday qoidalar, ya'ni konstitutsiyaviy pretsedent (konstitutsiyaviy odatlar)ning o'rnatilishi XVIII asrda ingliz konstitutsiyasining rivojlanishini belgilagan. Ulardan asosiylari qirolning ministrlar kabineti majlislarida qatnashmasligi, hukumatning saylovlarda g'olib chiqqan partiya a'zolaridan tuzilishi, ministrlar kabinetining jamoa javobgarligi, qirolning veto huquqidan voz kechishi hisoblanadi.

1707-yildan boshlab qirolning veto huquqidan umuman foydalanmay qo'yishi butun qonun chiqarish hokimiyatini parlamentga o'tkazgan. Keyingi davrlardagi huquqiy islohotlar aynan parlament qonun ijodkorligi natijasida kechadi. Jumladan, 1832, 1867 va 1911-yillarda parlamentni isloh qilishga qaratilgan qonunlar qabul qilinadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga qadar jamiyat siyosiy tizimi bir qancha demokratik qonun chiqarish orqali yaxshilanib boradi. Konservator partiyasi tomonidan matbuot, ishlab chiqarish, mehnat shartnomalari, ish vaqti, bolalarning mehnatini muhofaza qilish, jamoat sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan.

XIX asr oxirida saylov huquqini demokratlashtirishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi. 1865-yilda Angliya parlamenti «Mustamlakalar qonunlarining haqiqiyliги haqidagi akt»ni qabul qiladi. Unga binoan mustamlaka parlamentlarga Angliya qonunlariga xilof bo'lmagan qonun chiqarish va sud organlarini tuzishga oid huquqlar beriladi.

---

## **XI BOB. YANGI DAVR FRANSIYA DAVLATI VA HUQUQI**

### **1-§. Yangi davr Fransiya davlat tuzumi**

XVIII–XIX asrlardagi buyuk o'zgarishlar Fransiya davlat tuzumini butunlay o'zgartirib yubordi. XVIII asrning oxiriga kelib fransuz qiroli bo'shab qolgan davlat xazinasini to'ldirish uchun 175 yildan buyon chaqirilmagan General shtatlarga murojaat qildi. General shtatlar o'z majlisini 1789-yilning 5-mayida boshladi. Ma'lumki, general shtatlar turli xil tabaqa vakillaridan iborat edi. 17-iyun kuni uchinchi tabaqa vakillari General shtatlarni Milliy majlisga aylantirdilar. Ularga birinchi va ikkinchi tabaqaning ko'pchilik deputatlari qo'shilgan. Agar General shtatlar delegatlari o'z okrugi bo'yicha so'zga chiqadigan bo'lsa, Milliy majlis deputatlari xalqning vakili bo'lib hisoblanar edi.

Qirolning buyruqlarini tan olmay, uning roziligisiz Milliy majlis 1789-yilning 9-iyulida o'zlarini Ta'sis majlisi deb e'lon qildi. Shunday qilib, Ta'sis majlisi yangi davlat organlari tuzish, yangi siyosiy va davlat-huquqiy institutlarni yaratish uchun Konstitutsiyani ishlab chiqib, uni tasdiqlashni o'z zimmasiga oldi. Ta'sis majlisi 5-avgustda dekret chiqarib, dehqonlarni cherkovga va pomehiklarga qaramligini bekor qildi.

1789-yil 26-avgustda Ta'sis majlisi birinchi konstitutsiyaviy akt bo'lgan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari Deklaratsiyasini qabul qildi. Deklaratsiya kishilarning qonun oldida tengligini, millat suvereniteti, xalqning qonunlar ishlab chiqishda ishtirokini, mansabdor shaxslarning xalq oldida hisob berishi va ularning mas'ulligini, hokimiyatning taqsimlanish prinsipi, xalqning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda soliqlarning olinishini tantanali ravishda e'lon qildi. Deklaratsiyada shaxs huquqlarining kafolatlari va qonuniylik prinsipi o'z tasdig'ini topdi. Xususiy mulkning muqaddasligi va daxlsizligi mustahkamlab qo'yildi. Saylov qonuniga ko'ra, fuqarolar mulk senzi asosida faol va passiv guruhlarga bo'linadi.

Fransiyada 1790-yilga kelib bir qancha muhim dekretlar qabul qilinadi. Unga ko'ra cherkov mulki musodara qilinib, ular milliy mulkka aylantiriladi. Cherkovlarning nikoh, tug'ilish va o'limni qayd qilish huquqi ham bekor qilinadi. Shunday qilib, cherkov davlat nazorati ostiga olindi.

Fransiyada yangi ma'muriy-hududiy birlik joriy qilindi. Konstitutsiyaga ko'ra, Fransiya 83 ta departamentdan iborat bo'lib, ularga o'z navbatida distriktlar, kantonlar va komunnalar kirar edi. Davlatda yagona soliq tizimi joriy etildi. O'tkazilgan islohotlar absolutizmga qattiq zarba berib, fransuz millatining birligini mustahkamladi.

1791-yilning 13-sentabrida Konstitutsiya qabul qilinib, uning preambulasiga inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari Deklaratsiyasi asos qilib olindi. Konstitutsiyaning ikkinchi qismi hokimiyatning oliy organlari va ularning tuzilishiga bag'ishlandi.

Konstitutsiyada qirol o'zining muhim huquqlarini saqlab qolshi mustahkamlab qo'yildi. Shuning uchun boshqaruv shakliga ko'ra fransuz davlati konstitutsiyaviy monarxiya shakliga ega bo'ldi. Oliy qonun chiqaruvchi organ bo'lib, bir palatali qonun chiqaruvchi korpus hisoblandi. Ijro hokimiyati qirol va uning vazirlari qo'lida qoldi. Qirol armiya va flot qo'mondoni bo'lib hisoblanardi. Shu bilan birga, jamoat tartibotiga ham mas'ul edi. Sud hokimiyati mustaqil bo'lib, bir umrga saylangan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan.

Fransuz xalqi inqilob natijalaridan norozi bo'lib, 1792-yilning 10-avgustida isyon ko'taradi. Hokimiyat bir qancha vaqt Parij Kommunasi qo'lga o'tadi. Monarxiya yo'q qilinadi. Qonun chiqaruvchi organ qirolning kamoqqa olinishiga rozi bo'ladi. Ta'sis majlisi tarqatib yuborilganligi sababli, qonun chiqaruvchi organ milliy konventni chaqirish to'g'risida dekret chiqaradi. Milliy konvent deputatlarini saylashda fuqarolarni faol va passiv guruhlariga bo'lish bekor qilinadi.

Umumiy saylov huquqi asosida saylangan Milliy konvent 21-sentabrda monarxiyani tarqatib yuborishni e'lon qildi. Fransiya respublika deb e'lon qilindi. Ammo yakobinchilar va jirondistlar o'rtasida kurash to'xtamadi. Monarxiya tarafdorlari (jirondistlar) qirol ustidan sud o'tkazilishiga qarshi chiqadilar. Ammo yakobinchilar o'limga hukm qilish uchun ovoz berdilar va 1793-yilning 21-yanvarida qirol gilyotinada qatl qilindi.

31-may va 2-iyunda Parijda qo'zg'olon bo'lib, qo'zg'olon ishtirokchilari jirondist deputatlarni qamoqqa olishni talab qildilar. Ularning talabi bajarildi. Konventning ko'pchiligini endi yakobinchilar tashkil etadigan bo'ldi.

1793-yilning 24-iyunida yakobinchilar, jirondistlarning hokimiyatni zo'rlik bilan o'z qo'llariga olgan, degan ayblovlarga javoban

Fransiyaning demokratik Konstitutsiyasi loyihasini tayyorlaydilar. Konvent tantanali ravishda Konstitutsiya loyihasini ma'qullaydi va uni umumxalq muhokamasiga taqdim etadi. Fransuz millati ham ushbu loyihani ma'qullaydi.

Konstitutsiyaga ko'ra, Fransiya respublika boshqaruv shaklini oldi. Konstitutsiya barcha fransuzlar uchun yagona bo'lgan saylov huquqini joriy etdi. Fuqarolar 21 yoshdan saylov huquqiga ega bo'ldi. Deputatlarni saylash bevosita teng huquqlilik asosida amalga oshiriladigan bo'ldi. Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat fransuz millatiga tegishli bo'ldi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi bir palatalik qonun chiqaruvchi korpus ta'sis etildi. Deputatlarning mandati bir yil qilib belgilandi. Qonun chiqaruvchi korpus faqat dekret chiqarishi, qonunni esa taklif qilish mumkin edi. Agar qoida loyihasini departamentlarning 1/10 qismi 40 kun ichida ma'qullasa, u kuchga kirar edi. Dekret esa chiqarilgan paytdan darhol kuchga kirar edi.

Davlat boshqaruv funksiyasi 24 kishidan iborat bo'lgan Ijroiya kengashiga yuklandi. Ijroiya kengashi faqat dekret va qonunlar asosida faoliyat ko'rsatib, qonun chiqaruvchi korpusga o'z faoliyati yuzasidan hisob berishi majbur edi.

1793-yilning yoziga kelib mamlakatda yakobinchilar diktaturasi o'rnatildi. Diktaturaning oliy organi bo'lib Konvent hisoblandi. Konvent o'z qo'liga qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, nazorat etuvchi va sud hokimiyatini to'pladi. Yakobinchilar diktaturasi o'rnatilishining sababi, 1793-yilgi Konstitutsiyani amalga kiritish uchun yangi qonun chiqaruvchi korpusni yig'ish, bu korpusga Konvent deputatlaridan birortasi kirishi mumkin emasligi edi. Bunga esa o'sha paytdagi Fransiyaning ichki va tashqi ahvoli yo'l bermas edi.

Respublikani qutqarish uchun xalqning inqilobiy diktaturasini o'rnatish, yagona hokimiyat va qattiq intizom kerak edi. Hokimiyat umumiy qutqaruv Komitetiga topshirildi. Komitet harbiy, diplomatik, oziq-ovqat sohasiga rahbarlik qilib, boshqa barcha organlar unga bo'ysunishi kerak edi. Komitet esa har hafta Konventga hisob berishi kerak edi. Komitetning Fransiya davlati oldidagi tarixiy xizmati shundan iborat bo'ldiki, u kuchli armiya yaratib, mamlakatni chet el intervensiyasidan saqlab qoldi.

Yakobinchilar diktaturasi davrida mahalliy boshqaruv markazlashgan tarzda ish olib bordi. Yakobinchilar asosan Parij Kommunasi va ularning joylardagi seksion komitetlariga tayanib ish olib bordilar.



1794-yilning yoziga kelib, Fransiya interventlardan tozalanib, asosiy isyonlar bostirildi. Shundan so'ng yakobinchilar diktaturasiga hojat qolmadi. 1794-yilning 27-iyulida Konventning navbatdagi majlisida yakobinchilar bilan ularga qarshi kuchlar o'rtasida olishuv bo'lib, yakobinchilar rahbari Robespyer va uning safdoshlari qamoqqa olinadi hamda sudsiz ularni gilyotinada qatl ettiradi. 1793-yilgi Konstitutsiya bekor qilindi. Shunday qilib, to'qqiz termidorlarning hokimiyatga kelishi yakobinchilar diktaturasiga barham berdi.

1795-yili yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiyaga ko'ra, Oliy qonun chiqaruvchi korpus ikki palata – oqsoqollar kengashi va beshyuzlar kengashidan tashkil topdi. Ularni saylash uchun ikki darajali saylovlar tashkil etilib, saylovchilar uchun qonun chiqaruvchi korpusning besh a'zosiga berildi. Bu davrdagi Fransiya davlati hokimiyati Direktoriya nomini oldi.

1799-yil 9-noyabrda inqilob davrida generallikka erishgan Napoleon Beshyuzlar kengashi raisi va Direktoriyaning ikki a'zosi bilan kelishib, Direktoriyani tarqatib yuboradi. «Napoleonning o'n sakkiz bryumeri» nomini olgan bu davlat to'ntarishi Fransiyada harbiy diktaturaning o'rnatilishiga olib keldi.

1799-yilda Fransiyada navbatdagi Konstitutsiya qabul qilinadi. Konstitutsiyaga ko'ra Fransiya davlat boshqaruv shakli respublika edi. Qonun chiqarish hokimiyati Davlat kengashi, Tribunat, qonun chiqaruvchi korpus va birinchi konsul vakolatiga kirar edi. Ijroiya hokimiyati uchta konsul qo'lida to'plangan edi.

1799-yilgi Konstitutsiya umumiy saylov huquqini saqlab qoldi. 1802-yili plebissit Napoleonni umrbod konsul etib tayinlanishini ma'qullaydi. Bu amalda uning imperator bo'lishi uchun birinchi qo'yilgan qadam edi. 1804-yili Napoleon Bonapart imperator deb e'lon qilinadi va respublika tarqatib yuboriladi.

Armiya, byurokratik apparat, ko'p sonli politsiya imperiyaning mexanizmini tashkil etdi. Imperiyaning ma'muriy apparati armiyani ta'minlash bilan shug'ullanardi. Imperiyaning boshqarish qattiq markazlashgan holda olib borildi. Departamentlar yirik ma'muriy-hududiy birlik hisoblanib, ular okrug va kommunalarga bo'lingan. Departamentlarda ma'muriy va politsiya funksiyalarini bajarish prefektlar tomonidan olib borilgan. Okrug boshliqlari suprefektlar, shahar rahbarlari mer bo'lib hisoblangan. Mahalliy amaldorlar markaziy hokimiyatga to'liq bo'ysungan.

1814-yili Napoleon mag'lubiyatga uchragandan so'ng Fransiya monarxiya tuzumi qayta tiklanadi. 1814-yil 4-iyunda qirol Xartiya e'lon qiladi. Xartiyaga ko'ra, Fransiya konstitutsiyaviy dualistik monarxiya edi. Qirol keng vakolatlarga ega edi. U davlat boshlig'i va armiyaning bosh qo'mondoni hisoblanadi. Qirol oldida barcha vazirlar mas'uliyatli edi. Barcha amaldorlar qirol tomonidan tayinlanar va ozod qilinardi. Qirolning imzosi bo'lmasa ham bir qonun kuchga kirmagan.

Parlament perlar va deputatlar palatasidan iborat bo'ldi. Perlar palatasi ikki bosqichli saylovlar bo'yicha saylangan. Saylanadigan shaxslarning yoshi katta bo'lishi va katta mulkka ega bo'lishi kerak edi. Burbonlar dinastiyasining mutlaq monarxiyani qayta tiklashi qarshilikka uchradi va 1830-yilga inqilob natijasida qirol almashdi hamda u o'z xartiyasini e'lon qildi. 1830-yilgi Xartiyaga ko'ra, parlamentning qonun chiqaruvchi vakolati oshdi. Saylovchilarning mulkiy senzi kamaytirildi. Qirol parlament ishtirokisiz qonun chiqara olmas edi. Perlarning merosiy unvoni bekor qilinib, cherkov huquqlari ham cheklangan. Umuman olganda, davlat mexanizmi o'zgarmasdan, siyosiy rejimda o'zgarish sodir bo'ldi. 1830-yilgi inqilobdan keyin Fransiya davlat boshqaruv shakli parlamentar boshqaruv shaklini oldi.

1848-yil fevralda Fransiya navbatdagi inqilob bo'lib o'tadi. Buning natijasida Fransiya ikkinchi respublika o'rnatiladi. Qirol taxtdan voz kechadi va chet elga qochib ketadi. 1848-yilning 4-noyabrida Ta'sis majlisi Fransiyaning yangi Konstitutsiyasini qabul qiladi. Konstitutsiya Fransiya davlat boshqaruv shaklini respublika deb e'lon qildi. Hokimiyatning taqsimlanish prinsipi hukumatning mavjud bo'linishini birinchi zaruriy sharti qilib qo'yildi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolati bir palatali Milliy majlisga berildi. Yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy saylov e'lon qilindi. Erkaklar uchun saylov yoshi 21 yosh qilib belgilandi. Saylov huquqi ham ikki turdan faol va passiv saylov huquqidan iborat edi. Milliy majlisga saylanuvchilar passiv saylov huquqiga ega bo'ldilar. Ularning saylov yoshi 25 yosh qilib belgilandi.

1870-yilning sentabrida Parijda milliy gvardiya batalyoni tashkil etiladi. Milliy gvardiyaning Markaziy komiteti yangi tashkil etilayotgan xalq hokimiyatining bir bo'g'ini bo'lib hisoblandi. Markaziy hokimiyat boshchiligidagi milliy gvardiya 1871-yilning 18-martida Parijda hokimiyatni qo'lga oladi va Parij kommunasi davlatini e'lon qildi. Bu davlat 72 kun yashaydi.

Kommunani e'lon qilish 28 marta tantanali ravishda amalga oshirildi. Kommuna Kengashi quyidagi o'nta komissiyadan iborat edi: harbiy komissiya, ichki ishlar komissiyasi, umumiy xavfsizlik kengashi, tashqi ishlar komissiyasi, sud komissiyasi, moliya komissiyasi, mehnat komissiyasi, oziq-ovqat komissiyasi, ta'lim komissiyasi, umumiy harakat komissiyasi. Kommunaning oliy organi bo'lib Ijroiya komissiyasi hisoblandi. 1-mayda bu komissiya asosida ijtimoiy qutqaruv Komiteti tuziladi.

Parij shahri 20 ta okrugga bo'linib, har bir okrug munitsipal mer tomonidan boshqarilgan. Ular Kommunaga bo'ysungan. Hamma muhim uchastkalarda komissarlar ish olib borar edi. Komissiyalar siyosiy klub va kasaba uyushmalar bilan hamkorlikda ish olib borar edilar. 1871-yil 29-martda Kommuna dekret chiqarib, eski armiyani tarqatib yuboradi va ishchilar armiyasini tuzadi. Prefekturadan politsiya tizimi ham tugatilib, xalqning o'zi jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni o'z zimmasiga oldi. Ma'lumotlarga qaraganda, Parij kommunasi mavjud bo'lgan davrda, bironta ham jinoyat sodir etilmagan.

Parij Kommunasida amaldorlarning ham saylanishi va almashtirib turilishi joriy qilindi. Amaldorlar va ishchilarning oylik maoshi bir xil qilib belgilandi.

Kommuna sud islohotlarini ham amalga oshirdi. Sud maslahatchilari yosh senzi kamaytirildi. Milliy gvardiyada xizmat qilgan har bir kishi sud maslahatchilari bo'lishi mumkin edi. Sudyalar Kommuna dekretlari asosida qaror chiqarish huquqiga ega edi. Mayda huquqbu-zarliklar sulhparvar sudyalar tomonidan ko'rib chiqilgan. Sulhparvar sudyalar aholi tomonidan saylangan. Mulkiy va oilaviy munosabat kabi murakkab ishlarni ko'rib chiqish uchun fuqarolik sudi palatasi tuzilgan.

Kommuna tomonidan yana bir muhim qo'yilgan qadam – barcha eski qonunlarni bekor qilish edi. Dekret bilan cherkov davlatdan ajratildi. 16-aprelda dekret chiqarilib ishlab chiqarish ustidan ishchi nazorati o'rnatildi.

19-aprelda Kommuna Fransuz xalqi Deklaratsiyasini qabul qiladi. Deklaratsiya har bir kommunaga keng avtonomiya huquqini berdi. Kommuna davlat tuzilishi shakliga ko'ra federativ davlatni eslatar edi.

1871-yilning 28-mayida Versalga yashiringan eski hukumat Parijni egallaydi va 22 tribunal tuzib kommunarlardan o'ch oladilar. Vaqtinchalik prezident Fransiya davlati boshqaruv shaklini qanday

bo'lish kerakligi haqidagi masalani o'rtaga tashlaydi. Milliy Majlis a'zolari turli deputatlardan tashkil topganligi bois bir xil deputatlar respublika boshqaruv shakli tarafdorlari, boshqalari monarxiya tarafdorlari, uchinchilari imperiyani tiklashni yoqlab chiqdilar. Fransiya davlati boshqaruv shakli bo'yicha bahs 1875-yilning yanvargacha cho'zildi. 1875-yilning 30-yanvarida Milliy Majlis universiteti o'qituvchilari Vallon taklifi bilan Fransiyaning respublika deb e'lon qildi.

1875-yilda Uchinchi Fransiya Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinadi. Konstitutsiya bir-biri bilan bog'liq uchta qonundan iborat edi. Birinchi qonun davlat hokimiyatini tashkil etish to'g'risida bo'lib, 25-fevralda kuchga kirgan. Unga ko'ra, qonun chiqaruvchi hokimiyat deputatlar palatasi va senatdan iborat bo'ldi. Quyi palata umumiy saylov huquqi asosida shakllanishi kerak edi. Ammo hamma deputatlar ham saylovda ishtirok eta olmasdi. Ayollar ovoz berish huquqiga ega emas edilar.

Ovoz berishning majoritar tizimi joriy etildi: birinchi turda mutlaq ko'pchilik, ikkinchi turda nisbiy ko'pchilik ovozi bilan deputatlar saylangan.

Deputatlar palatasining vakolatiga qonunlarni qabul qilish va budjetni tasdiqlash kirar edi. Hukumat milliy majlis oldida mas'ul bo'lgan. Hukumatga ishonchsizlik bildirilganda, ular iste'foga chiqishi belgilab qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining muntazam almashib turishi Uchinchi Respublika uchun xarakterli bo'lgan. Chunki Fransiya parlamentida ko'pdan-ko'p partiya fraksiyalari mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan murosaga kelmagan.

Senat 300 deputatdan iborat bo'lib, uning 75 tasi deputatlar palatasi tomonidan umrbod muddatga, qolgan 225 deputatlar departamentlar tomonidan saylangan. Senatni tashkil etish to'g'risidagi qonun 1875-yilning 24-fevralida qabul qilingan. Senat prezident, vazirlar ustidan nazoratni amalga oshirgan hamda davlat xavfsizlik masalalarini ko'rib chiquvchi Oliy sud funksiyasini bajargan. Senat qonun chiqarish tashabbusiga ega bo'lgan. Oradan to'qqiz yil o'tgach senatorlar faqat saylov asosida saylanadigan bo'ldi.

Deputatlar palatasi va senat Fransiya davlati parlamentini tashkil etgan. Parlament vakolatiga qonunlarni qabul qilish, prezidentni saylash, hukumat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish kirgan. Qonunlarni qabul qilishda ikki palata tomonidan qonun matnining bir xil bo'lishiga erishish talab qilingan.

1875-yil 16-iyuldagi davlat hokimiyatiga munosabat to'g'risidagi qonun prezident vakolatlarini to'la yoritib bergan. Prezident ikkala palataning yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylangan. Qayta ikkinchi muddatga ham saylanishi mumkin bo'lgan. Prezidentning vakolatiga quyidagilar kirgan: qonunchilik tashabbusi, armiyaga qo'mondonlik qilish, mansabdor shaxslarni tayinlash va mansabdan ozod qilish, davlat boshlig'i funksiyasini bajarish. Prezident senatning roziligi bilan deputatlar palatasini tarqatib yuborish yoki uning majlisini keyinga qoldirishi mumkin edi. Prezident yashirin xalqaro shartnomalar tuzish vakolatiga ega bo'lgan. Ammo urush e'lon qilish uchun palataning roziligini olish zarur edi. Oliy sud prezidentni faqat davlatga xiyonat qilishda ayblagandagina sud qilish mumkin bo'lgan.

Shunday qilib, 1875-yilgi konstitutsiyaviy qonunlar respublika boshqaruv tizimini joriy qildi. Bu Konstitutsiyaviy qonunlar bir necha o'zgartirishlar bilan ikkinchi jahon urushi davrigacha amalda bo'lgan.

1876-yili parlamentga bo'lgan saylovlarda respublikachilar ko'pchilik ovoz oladilar. Prezidentning deputatlar palatasini tarqatib, monarxiyani tiklash uchun amalga oshirgan davlat to'ntarishi muvaffaqiyatsiz chiqdi. Bo'lib o'tgan saylovlarda respublika tarafdorlari g'olib chiqqan.

1884-yilda qabul qilingan konstitutsiyaviy qonunga tuzatishlar respublika boshqaruv shaklini qayta ko'rib chiqishni qat'iy taqiqlab qo'ydi. Shunday qilib, monarxiyani tiklash to'g'risidagi har qanday bahslar o'z ma'nosini yo'qotdi. Qirol sulolasidan Prezident saylash ham mumkin emas edi.

1888-yili Fransiyaning harbiy vaziri davlat to'ntarilishini amalga oshirishga urindi, ammo bu urinishni hech kim qo'llab-quvvatlamadi. Qirol sulolasi vakillari armiyadan haydab chiqarildi, monarxistlar xorijga ketishga majbur bo'ldilar. Alohida qonunlar chiqarilib so'z erkinligi, yig'ilishlar o'tkazish, matbuot erkinligi qayta tiklandi. Kasaba uyushmalarini tashkil etishga ruxsat berildi.

1880–1890-yillar ichida respublikachilar prezidentning ba'zi bir muhim vakolatlarini vazirlar kengashiga o'tkazishga erishdilar. Natijada asosiy hokimiyat vazirlar qo'lga o'tdi. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan saylovlarda saylangan barcha Prezidentlar vazirlar qo'lida o'yinchoq bo'lib qoldi. Haqiqiy siyosiy hokimiyat Vazirlar Mahkamasi qo'lida to'plandi.



Yangi davrda Fransiya huquqni muhofaza qiluvchi organlari davlat mexanizmidan muhim o'rinni egallagan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, 1789-yilgi inqilob natijasida Fransiya politsiya tizimida qisman islohotlar amalga oshirildi. Imperator Napoleon davrida Fransiya politsiya xizmatining funksiyalari va tuzilishi belgilab chiqilgan bo'lib, ular birinchi jahon urushigacha o'zgarishsiz qoldi. Ko'rib chiqilayotgan davrda Fransiya politsiyasi markazlashtirilgan va byurokratlashtirilgan bo'lib ikki bo'g'indan iborat edi: umumdavlat politsiyasi va munitsipal politsiya.

Napoleon hukmronlik davrida jinoiy politsiyadan tashqari Napoleonning shaxsiy politsiyalari ham mavjud edi. Ulardan biri jinoiy politsiya rahbarining xatti-harakatlarini kuzatib borgan.

Munitsipal politsiyaning asosiy vazifasi joylarda jamoat xavfsizligini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Munitsipal politsiya ikki qismdan, ya'ni sud politsiyasi va ma'muriy politsiyadan iborat bo'lgan. Departament, okrug va shahar boshliqlari o'z vaqtida politsiya vazifasini ham bajarib (prefekt, subprefekt, mer)ning vakolatlari-ga ega edi. Ular munitsipal politsiyani ham nazorat ostiga olib, o'z faoliyati uchun faqat ichki ishlar vaziri oldida mas'ul bo'lgan. Shu bilan birga, harbiy politsiya va jandarmeriya bo'limlari bo'lib, miting va namoyishchilarni tarqatib yuborishda keng qo'llanilgan.

Politsiya apparat tizimida politsiya komissari lavozimi muhim o'rinni egallagan. Jinoyatchilarni qidirib topish, ushlab, dastlabki tergovni o'tkazish va tergovni olib borish politsiya komissarining funksiyasiga hisoblangan. Parij prefekti ichki ishlar vazirining o'rinbosari lavozimiga ega bo'lib, politsiya xizmatida muhim o'rinni egallagan.

Fransiya adliya tizimi uch bo'g'inli tizim asosida shakllangan: sulhparvar sudyalari, axloq tuzatish politsiyasi sudlari, o'z maslahatchilariga ega bo'lgan assiz sudlari. Sulhparvar sudyalari huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni, axloq tuzatish politsiyasining sudlari qilmish bo'yicha ishlarni ko'rib hal qilgan. Fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha oliy instansiya sudi kassatsiya sudlari edi. Sudyalari umrbodga tayinlangan bo'lib, hukumat nazorati ostida bo'lgan.

Mayda va siyosiy huquqbuzarliklar soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilardi. Bunday ishlarda asosiy isbot-dalil, politsiya tomonidan chiqarilgan protokol, mansabdor shaxs va uning agentlarining ko'rsatmasi bo'lib hisoblangan. Shundan so'ng hukm chiqarilgan.

## **2-§. Yangi davr Fransiya huquqiy tizimining xususiyatlari**

Ko'rib chiqilayotgan davrda Fransiya huquqi tubdan isloh qilindi. 1789-yilning may oyida yig'ilgan General shtatlar deputatlari hudud bo'yicha tubdan islohot o'tkazib, Fransiyaning yagona huquqiy tizimini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydilar.

Ta'sis majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, aynan yangi jamiyatni qurish uchun yaratilgan qonunlar edi. 1789-yilning 29-avgusti va 18-sentabrida Ta'sis majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar erkin savdo prinsipini joriy qilishga olib keldi. Oktabr oyida zayomlar bo'yicha foiz olishni taqiqlovchi qonunlar bekor qilingandan so'ng, kredit operatsiyalarini o'tkazishga keng yo'l ochildi. 1790-yilning 29-sentabrida o'rta asr huquqi uchun xos bo'lgan umrbod ijara huquqi bekor qilinib, mulkiy ijara muddati uchun yuqori muddat, ya'ni 99 yil qilib belgilandi.

1791-yilning fevralida Ta'sis majlisi o'rta asr sexlarini tarqatib yubordi. 1791-yilning 2–17-maylarida bir qator qonunlar chiqarilib, o'rta asrlarga taalluqli bo'lgan savdo va hunarmandchilikka oid cheklashlar bekor qilindi va tadbirkorlik erkinligini e'lon qilindi. Ta'sis majlisining bu sohadagi faoliyatini qonunchilik majlisi va Milliy konvent davom ettirdi. 1790-yili qonun yo'li bilan mayorat instituti tugatildi. 1791-yilning aprelida qabul qilingan meros huquqiga o'zgartirishlar kiritilib, bolalarning merosga teng huquqi belgilandi.

1792-yili fuqarolik holatlarini belgilab beruvchi aktlarni o'zgartiruvchi qonunlar qabul qilinadi. Endilikda davlat tomonidan nikohdan o'tilishi majburiy qilib belgilandi. Nikohni bekor qilishda keng erkinliklar berildi. Qonuniy va nikohsiz tug'ilgan bolalarning huquqlari tenglashtirildi.

Ta'sis majlisi 1790-yilning 21-avgustida dekret chiqarib, fuqarolik, jinoiy va protsessual kodeks yaratish zarurligini e'lon qiladi. Ammo Ta'sis majlisi faqat jinoyat kodeksini ishlab chiqishga ulgurdi.

Fransiya jinoyat kodeksi 1791-yilda qabul qilinib, u sodda va aniq tuzilishga ega edi. Uning «jazolar to'g'risida»gi birinchi qismida tan jazolari berish to'g'risida o'rta asrlarga xos bandlar olib tashlandi. Jinoyat kodeksining ikkinchi qismi «jinoyatlar va jazolar to'g'risida» deb nomlanib, unda qanday qilmishlar jinoyatlar turkumiga kirishi to'la yoritib berildi.

Jinoyat kodeksining o'ziga xos xususiyati shunda ediki, unda har bir qilmish uchun aniq mo'ljallangan mutlaq-aniiq sanksiyalar ko'zda tutilgandi. Barcha jinoyatlar ikki guruhga bo'linib, birinchi guruh, davlat manfaatiga qarshi qaratilgan jinoyatlardan, ikkinchi guruh esa, xususiy shaxs manfaatlariga qarshi jinoyatlardan iborat. Xususiy shaxsga qarshi jinoyatlar o'z navbatida shaxsga va mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar guruhiga bo'lingan.

Qo'llaniladigan jazo choralari 35 ta moddada o'z aksini topgan. Kishilarning qadr-qimmatiga ta'sir etuvchi jazo choralaridan, oshkora tarzda shaxsning g'ururini toptash, ustunga bog'lab qo'yish kabi jazolar saqlanib qolingani. Undan tashqari, katorga ishlari va yakka tartibda qamoqda saqlash kabi jazo choralari mavjud bo'lgan.

XIX asrning boshlarida (1804–1810-y.) o'sha davrdagi barcha huquq sohalarini qamrab olgan beshta kodeks qabul qilindi. Bu tarixga Napoleon kodekslari nomi bilan kirdi. Ulardan 1804-yilgi Fuqarolik kodeksi tahsinga sazovordir. Fuqarolik kodeksi kirish, uchta kitobdan iborat bo'lib, 2281 moddadan tashkil topgan. U rim huquqi singari tuzilishga ega bo'lib, shaxs, buyum, meros va majburiyat huquqlaridan iborat tarzda edi.

Birinchi kitob «shaxslar to'g'risida» deb nomlanib, fuqarolarning huquqlari to'g'risida to'liq ma'lumot beradi. Kodeksda belgilab qo'yilgan fuqarolarning huquqlari chet el fuqarolariga nisbatan tegishli bo'lmagan. Kodeksda yuridik shaxs tushunchasi berilmagan.

Birinchi kitobda oila huquqining asosiy prinsiplari ham mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolik kodeksining alohida moddalari er va xotinning teng huquqligini ko'rsatib o'tgan bo'lsa-da, umuman olganda, oilada otaning roli hukmron mavqega ega edi. Kodeksga ko'ra, oila uchun turar joyni er belgilab berishi, xotin esa uning orqasidan borishi kerak edi. Kodeksda xotin erga xiyonat qilganda, er ajralish uchun uni sudga berishga haqli edi. Ammo er xotiniga xiyonat qilganda, xotin ajralishi uchun er u bilan bir uyda yashagan bo'lishi kerak edi. Bu qoida 1884-yili bekor qilingan. Er va xotin huquqining notengligi oiladagi mulk munosabatlarida ham aniq ko'zga tashlangan, ya'ni oila mulki bilan shug'ullanish urning tasarrufida bo'lib, buning uchun xotinning roziligini olish shart emas edi.

Kodeksda er va xotinning bolalarga bo'lgan munosabatlarida teng huquqlilik bo'lmagan. Ota 16 yoshga yetmagan bolalarni bir oygacha muhlatga ozodlikdan mahrum qilishga haqli edi. 25 yoshga yetmagan o'g'il va 21 yoshga yetmagan qiz bolalar uchun uylanish va turmush

qurish uchun ota-onaning roziligi kerak bo'lgan. Agar ota-ona fikrida farq bo'lsa, otaning fikri inobatga olingan.

Ikkinchi kitob mulk va xususiy mulkning turli ko'rinishlarini tartibga solgan. Bu ham rim huquqidagi uzufrukt, xususiy mulk kabi institutlardan tashkil topgan edi. Kitobda markaziy o'rinni xususiy mulk instituti egallaydi. Kitobda yerga xususiy mulk to'g'risida so'z borib, yerning osti va usti ham yer egasiga tegishli ekanligi mustahkamlangan. Yer egasi yer osti va usti boyliklariga ham egalik qilishi mumkin bo'lgan. Faqat 1810-yilga kelib, kodeksga maxsus o'zgartirish kiritilib, konlar faqat davlat tasarrufida bo'lishi qayd etib qo'yilgan.

Uchinchi kitob «xususiy mulkka egalik qilishning turli usullari to'g'risida» bo'lib, unda xususiy mulkka egalik qilish meros huquqi orqali, vasiyat bo'yicha hamda majburiyat huquqi bo'yicha egalik qilish mustahkamlangan. Meros huquqi bo'yicha o'lgan shaxsning merosxo'rlari bo'lib, bolalari va boshqa 12-darajagacha bo'lgan qarindosh-urug'lari hisoblangan. Noqonuniy tug'ilgan bolalar faqat ota-onaning merosiga haqli bo'lib, boshqa qarindoshlarning merosiga haqli bo'lmaganlar. Uchinchi kitobda asosan majburiyat huquqi, shartnoma munosabatlari o'z ifodasini topgan. Ularning hammasi rim huquqidan o'zlashtirib olingan.

1807-yili fuqarolik kodeksiga qo'shimcha ravishda maxsus savdo kodeksi qabul qilingan. Bu kodeks Fransiya huquqiy tizimiga yangilik kiritdi, ya'ni Fransiya xususiy mulk huquqini ikkiga bo'linishi, fuqarolik va savdo huquqiga bo'linishini mustahkamlab berdi.

Savdo kodeksi to'rtta kitobdan iborat bo'lib, birinchi kitobda umumiy qoidalar berilgan. Unda tijoratchilar, savdo birjalari, kompaniyalar va hokazolarning haq-huquqlari belgilab qo'yilgan.

Ikkinchi kitob xalqaro va dengiz savdosi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, dengiz kemalarining huquqiy maqomini, dengizda yuklarni tashish, ularning sug'urtasi kabi masalalarga bag'ishlangan. Uchinchi kitob bankrotlik masalalarini, to'rtinchi kitob savdo yurisdiksiyasini tartibga solgan.

Umuman olganda, Fransiya savdo kodeksi fuqarolik kodeksiga qaraganda uncha mukammal bo'lmagan darajada tuzilgan edi. Unda, masalan, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha faqat bitta modda bor edi. Shuning uchun tijoratchilar o'rtasida bahs vujudga kelganda, ular Fuqarolik kodeksi moddalari bilan hal etilgan.

Fransiya jinoyat kodeksi 1791-yilgi inqilobdan keyin qabul qilingan kodeks qisqa vaqt amalda bo'ldi. 1810-yili imperator Napoleon rahbarligida Fransiyaning yangi Jinoyat kodeksi ishlab chiqildi. Bu kodeks o'z zamonasi uchun progressiv xarakterga ega edi. Kodeks kirish, to'rtta kitobdan iborat edi. Kirishda umumiy qoidalar, birinchi kitobda jazo choralarining umumiy masalalari, ikkinchi kitobda jazo turlari va jinoiy javobgarlik masalalari mustahkamlangan edi. Shunday qilib, birinchi va ikkinchi kitoblar Jinoyat kodeksining umumiy qismini tashkil etib, jinoyat huquqining asosiy tushunchasi va prinsiplarini o'zida mujassamlagan. Kodeksning uchinchi va to'rtinchi kitobi maxsus qismni tashkil etib, jinoiy qilmishning turlari va ular uchun belgilangan jazo choralari ifodalangan.

Qonun bilan taqiqlangan barcha qilmishlar jinoyat deb hisoblangan. Unda qonunlarning orqaga qaytish kuchi yo'qligi e'lon qilingan. Shuningdek, kodeksda jinoyat ishtirokchilarining javobgarligi hamda qattiq ruhiy holatda va majburlov yo'li bilan jinoyat sodir etganlarni javobgarlikka tortmaslik masalasi belgilab qo'yilgan.

Jinoyat kodeksida jinoiy harakatlarni tasniflashda, jazolarni og'ir-yengilligiga qarab uch guruhga bo'lingan. Jumladan, *birinchi guruhga* eng og'ir jinoiy qilmishlar kiritilgan. Ularga nisbatan ko'zda tutilgan jazolar azobli va sharmandali bo'lgan; *ikkinchi guruhga* axloq-tuzatish choralari belgilangan jinoyatlar kiritilgan; *uchinchi guruh* huquqbuzarliklar politsiya tomonidan jazo beriladigan qilmishlar hisoblangan.

Kodeksda davlatga qarshi jinoyatlar eng og'ir jinoyatlar sirasiga kiritilgan. Ularga davlatning tashqi xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, shpionaj, imperator va uning oila-a'zolariga suiqasd qilish, davlat boshqaruv shaklini to'ntarish yoki o'zgartirishga urinishlar kirgan.

1808-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksi bilan aralash protsess joriy etilgan. Tergov sudyasi aybdorning tergovga kelishi to'g'risida buyruq chiqarishi, kelmagan taqdirda majburiy ravishda olib kelish yoki qamash to'g'risida buyruq chiqarishi mumkin bo'lgan. U aybdorni, guvohlarni so'roq qilish, jinoyat sodir etilgan joyni borib ko'rish va boshqa tergov harakatlari amalga oshirgan.

Jinoyat ishlarini sudda ko'rib chiqish oshkora og'zaki va majlis tarzida olib borilar edi. Jinoyat protsessual kodeksi sudda maslahatchilarni ham ishtirok etishini belgilab bergan. Ular aybdorning aybdorligi yoki aybsizligi haqida o'z fikrlarini bildirganlar.



Shunday qilib, Fransiya Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari XIX asrlarda hukumat tomonidan jamoat tartibini tutib turish uchun faol ravishda qo'llanilgan. Ammo o'ta og'ir siyosiy vaziyatlarda hukumat tomonidan nafaqat sudda, balki suddan tashqarida ham ishlar ko'rib chiqilgan.

1881-yili matbuot to'g'risidagi maxsus qonun chiqarilib, unda matbuot orqali sodir etiladigan jinoyatlar uchun jinoiy jazo choralari belgilangan. 1884-yili Prezident Karnoga suiqasd qilib o'ldirilganligi munosabati bilan ham, maxsus qonun chiqarilib anarxistik propaganda uchun jazo choralari ko'zda tutilgan. Ammo Fransiyada demokratiya-ning mustahkamlanib borishi, alohida olingan jinoiy-huquqiy institutlarning liberallashtiruviga olib keldi. Masalan, 1832-yili qulga tamg'a bosish va uni kesib tashlash kabi jazo chorasi, 1848-yilda siyosiy jinoyatlar uchun o'lim jazosi bekor qilingan.

1885-yili maxsus qonun qabul qilinib, yarmidan ko'p jazosini o'tagan shaxslarni shartli ravishda ozod qilingan. Retsidiv jinoyatchilar uchun bu muddat 2/3 qism qilib belgilangan. Shartli ravishda ozod qilish umrbod qamoq jazosiga hukm qilinganlarga hamda mustamlakalarga jo'natilganlarga qarshi qo'llanilmagan.

Shunday qilib, XVIII asrning oxirida Fransiyada burjua inqilobi g'alaba qozondi, bu borada eski iqtisodiy ijtimoiy munosabatlar jamiyatning keyingi rivojlanishi uchun to'siq bo'lib qoldi. Milliy davlatning tashkil topishida muhim ahamiyatga molik bo'lgan mutlaq monarxiya tuzumi, yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy munosabatlarning taraqqiy topishiga monelik qilgan. Inqilob natijasida davlat tuzumi, ijtimoiy-siyosiy tizimda yirik o'zgarishlar ro'y bergan.

---

## XII BOB. YANGI DAVR GERMANIYA DAVLATI VA HUQUQI

### 1-§. Germaniya davlatchilik taraqqiyotining asosiy bosqichlari

Yangi davr Germaniya davlati va huquqi rivojlanishida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Germaniya davlatchilik va huquqiy taraqqiyoti XIX asrda davom etgan.

*Napoleon bosqini va «German millati muqaddas Rim imperiyasi»ning qulashi.* «German millatining muqaddas Rim imperiyasi» faqat rasman yagona davlat bo'lib, XVIII asrda uning tarkibiga suveren davlatlar hisoblangan imperatorning 7 ta kurfyuristligidan tashqari 300 ga yaqin katta-kichik davlatlar kirgan. Bu davlatlar rasman imperatorga qaram bo'lib, amalda knazlar, yepiskoplar, shaharlar kengashlari va boshqa ko'p sonli feodal egaliklar tomonidan idora etilardi. Ularning ko'pchiligi yeri va aholisi juda kam bo'lgan davlatlar edi.

German knazliklari orasida Saksoniya, Bavariya, Vyurtemberg va hududi kengligi jihatidan Avstriya, imperiya siyosiy hayotiga ko'proq ta'sir o'tkazishi bilan Prussiya (poytaxti Berlin) ajralib turgan. Bu yerlarda asosan slavyanlar – polyaklar, xorvatlar, slovenlar, chexlar, vengerlar yashardilar.

Prussiya XVIII asrning ikkinchi yarmida qudratli monarxiya davlatiga aylanib ulguradi. Bunda prus qiroli Fridrix II (1740–1786-y.)ning «ma'rifatli absolutizm» siyosati muhim rol o'ynaydi. U boshqaruv sohasida moliya, sud, bojxona, iqtisodiyot va agrar sohalarda islohotlar o'tkazadi.

Prussiya barcha german davlatlari orasida birinchi bo'lib 1781- yilda umumiy boshlang'ich ta'limni joriy qilgan. Mamlakat huquqini birxillashtirgan. 1781-yilda birinchi Fuqarolik protsessual kodeksi, 1793-yilda Sud ustavi, 1794-yilda esa Umumdavlat qonunnomasi (Prussiya landrexti) amalga kiritilgan.

Bu islohotlar natijasida mamlakatda burjua munosabatlari rivojlanishi yuz beradi. Kapitalistik tadbirkorlik rivojlanishi rag'batlantiriladi. Kattaligi bo'yicha Yevropada 4 o'rinda turadigan yirik qurolli kuchlar tashkil etilib, unga yillik budjetning 85 % sarflangan.

«German millatining muqaddas Rim imperiyasi» Napoleonning bosqinchilik urushi davomida siyosiy-iqtisodiy qoloqligi va tarqoqligi sababli osonlik bilan tugatiladi. Natijada fransiya manfaatlariga muvofiq

egallangan hududlarda qayta ma'muriy-hududiy taqsimot amalga oshirilib, yirik davlatlar, Berg gersogligi va Vestfaliya qirolligi tashkil qilinadi.

German davlatlarining Reyn ittifoqi 1806-yilda tashkil topib, tarkibiga dastlab 16 ta, keyin 21 ta german davlati kirgan. U rasman davlat suverenitetidan mahrum etilmagan monarxiyalar ittifoqi sifatida vujudga keladi. Lekin, Napoleon bilan syuzerenitet-vassalitet munosabati amal qiladi. Ittifoq a'zolari «Muqaddas Rim imperiyasi» tarkibidan chiqqanliklarini e'lon qiladi.

Bu davlatlarda yer, moliya, ma'muriy sud islohotlari amalga oshiriladi. Ba'zi joylarda Napoleonning 1804-yilgi «Fuqarolik kodeksi» joriy qilinadi. Nemis qishloqlarida krepostnoy qaramlik bekor qilinib, dehqonlarni mulkdorlarga aylantirishga qaratilgan birinchi qadam tashlangan.

Reyn ittifoqi tarkibiga Prussiya kirmagan edi. 1807-yilda Prussiya Fransiya bilan bo'lgan urushda mag'lubiyatga uchraganidan so'ng dvoryanlar burjua xarakterida islohotlar o'tkazishga qaror qiladilar. Amalda feodal tuzumni chegaralovchi, kapitalizm taraqqiyotiga yo'l ochib beruvchi muhim farmonlar qabul qilinadi. Natijada qisman dvoryanlarga ham tatbiq etiladigan yangi soliqlar joriy qilinadi. Cherkov yerlarini davlat yeriga aylantirish (sekulyarizatsiya qilish) amalga oshirilib, kichik cherkovlar bekor qilingan.

Boshqaruv sohasida iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq holda o'zgarishlar amalga oshirilgan. Jumladan, beshta ministrlilik – harbiy, ichki ishlar, tashqi ishlar, adliya, moliya ministrligi ta'sis etilgan. Har bir viloyatga hukumat tomonidan tayinlanadigan ober-prezident boshliq qilib qo'yilgan. 1808-yilgi qonun bilan shaharlarda mahalliy o'zini o'zi boshqaradigan mahkamalar joriy etilgan. Barcha muhim ishlar – moliya, politsiya, ta'lim, ijtimoiy ta'minot ularning vakolatiga topshirilgan.

Saylov huquqi mulk senzi (150–200 taler)ga asoslangan. Armiyada ham islohotlar o'tkazilib, tan jazolari bekor qilingan. 1814-yilda umumiy harbiy majburiyat joriy qilingan. Ofitserlar yetkazib beruvchi (kelib chiqishi dvoryan bo'lmaganlarga ham) harbiy akademiyaga asos solingan.

*Vena kongressi va German ittifoqining tashkil topishi.* Fransiyaning mag'lubiyatidan so'ng 1814-yilda chaqirilgan Vena kongressi Germaniyaning parchalanib ketishini oldini olib, German ittifoqini tuzish borasida bir qator qarorlar qabul qiladi.

Yangi tuzilgan German ittifoqi (Muqaddas ittifoq) a'ziligiga nemis davlatlari va Avstriya imperiyasiga qarashli yerlarning bir qismi kiradi.

Ittifoq 34 ta monarxiya va 4 ta erkin shahar (Gamburg, Berman, Lyubek va Frankfurt-Mayn) dan tashkil topgan. Biroq, kongress barcha nemis davlatchiligini qaytadan tiklay olmaydi. G'arbiy German o'lkalarida fransuz burjua tartiblarining ta'siri va Napoleon kodeksi saqlanib qolgan.

Ittifoqda mustahkam o'zaro aloqa, yagona tartib bo'lmagan. Uning oliy organi «Ittifoq seymi» (Bundestag) deb atalgan. U hamma ittifoq a'zolarini birlashtirgan holda nemis podsholari vakillarining kengashi hisoblangan. Seym qarorlari suveren podsholar tan olgan taqdirdagina majburiy hisoblanadi.

Ittifoq kuchsiz konfederatsiyani eslatgan. Uni hududiy jihatdan kichik davlatlardan iborat shimoliy va yirik davlatlardan iborat janubiy Germaniyaga ajratish mumkin. Ittifoqda Avstriya hukumati yuqori mavqega ega bo'lgan. Uning vakili ittifoqning doimiy vakili, elchixonasi binosi majlislar joyi bo'lgan.

O'z ahamiyati bo'yicha Prussiya qirolligi ikkinchi o'rinda turgan. U hududi, ichki tuzilishi, e'tiqodi, xo'jaligi bo'yicha ko'p sonli sharqiy va g'arbiy provinsiyalarga bo'lingan bo'lib, mustahkam bo'lmagan. Prussiya qiroli Fridrix-Vilgelm III provinsiyalar boshqaruvi bo'yicha maslahat xarakteridagi toifa landtaglarini ta'sis etgan.

Sharqiy provinsiyalarda votchina yurisdiksiyasi yunkerlar qo'lida edi. Bosib olingan polyak yerlari (Poznan va Sileziya) nemislashtirilib, zemstvo huquqi joriy etiladi. G'arbiy yerlar, ya'ni uzoq vaqt fransuzlar tomonidan idora qilingan yangi provinsiyalar Reyn va Vestfaliyada krepostnoy qaramlikdan tugatilgan. Fransuz burjua tartiblari, demokratik qoidalar amal qilgan. Bu yerda g'arbda amal qiluvchi pomeschik yurisdiksiyasi allaqachon tugab ketgan.

Ittifoq shimoliy Germaniyasidagi mayda davlatlarning ko'pchiligida (Meklenburg, Oldenburg, Braunshveyg, Gessen-Kassel) 1815 yildan keyin feodal tuzum mustahkamlangan. Tyuringiya gersogliklari (Saksen-Veymar va Saksen-Meyningen)da yangi konstitutsiyaviy tartiblar joriy qilingan.

Janubiy Germaniyadagi 4 ta davlat (Bavariya, Vyurtemberg, Baden, Gessen-Darmshtadt)da Fransiya ta'sirida mahalliy burjuaziyaning talablariga muvofiq konservativ xarakterdagi konstitutsiyalar qabul qilinadi.

*German davlatlarining birinchi konstitutsiyalari.* 1815-yilda German ittifoqi tomonidan Muqaddas ittifoq akti qarorlari qabul qilgan. Ularga amal qilib 1816-yildan 1847-yilgacha ko'p german davlatlari o'zlarining birinchi konstitutsiyalarini qabul qilganlar.

Ular asosan monarxlar tomonidan in'om qilingan (ya'ni, monarx tomonidan ishlab chiqilib e'lon qilingan) Xartiya, boshqacha aytganda konstitutsiyaviy hujjatlar shaklida bo'lgan. Ularda jiddiy farqlar bo'lmagan. Deyarli, barcha konstitutsiyalarda boshqaruv shakli – davlat boshlig'i monarx, tabaqa-vakillik muassasalari monarx tomonidan nazorat qilinadigan landtag (tabaqa-vakillik muassasalari shunday atalgan) va monarx oldida javobgar hukumatdan iborat qilib belgilangan. Masalan, Buyuk Baden gersogligining 1818-yilgi konstitutsiyasiga ko'ra, Landtag ikki palatali bo'lib, yuqori palata monarx tomonidan, quyi palata mulk senzi asoslangan saylovlar orqali shakllantirilgan. Davlat boshlig'i mutlaq veto huquqiga ega bo'lib, qonunlarning bajarilishi uchun farmoyishlar, reglamentlar va umumiy farmonlar chiqarish vakolatiga ega bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, monarx hokimiyati qonun chiqaruvchi – landtag palatalari tomonidan nisbatan cheklangan. Hukumat faoliyati yuzasidan gersogga va xarajatlar yuzasidan landtagga hisobot berib borgan.

Barcha German konstitutsiyalarida demokratik huquq va erkinliklarning ancha cheklangan doirasi belgilangan. Biroq mavjud huquq va erkinliklarni amalga oshirish kafolatlari yaratilmagan. Xususan, Baden gersogligining konstitutsiyasida vijdon, matbuot, ko'chib yurish erkinliklari, kasb tanlash huquqlari, xususiy mulk va turar-joy daxlsizligi, sudyalarning daxlsizligi va badenliklarning jinoiy ishlarini oddiy sudlarda ko'rilishini talab qilish huquqi, o'zboshimchalik bilan qamoqqa olishlarning taqiqlanganligi e'lon qilingan.

*1848-yilgi inqilob va uning german konstitutsiyashunosligi rivojlanishi.* 1848-yil boshlariga kelib Germaniyada tashqi va ichki omillar ta'sirida ishchilar va dehqonlar harakati ko'rinishidagi inqilobiy vaziyat yuzaga keladi. Inqilob hukumatlar oldiga demokratik islohotlar o'tkazishni talab qiladi. Fransiyaga chegaradosh g'arbiy va janubiy-g'arbiy yerlarda liberal (liberal – keyinchalik davlat va ijtimoiy tuzumni o'zgarmasdan qolishini istaydi) burjuaziya g'alaba qiladi. Burjua demokratik harakat ko'p german davlatlarini qamrab oladi va bir qancha demokratik tadbirlar amalga oshiriladi.

Qirol va knazlar Frankfurt-Maynda umumgerman Ta'sis majlisini chaqirishga rozilik bildiradilar. 1848-yil bahorda umumgerman parlamenti (Frankfurt parlamenti, Frankfurt majlisi)ga saylov o'tkazilgan. Unda liberal burjua ko'p o'rin olgan. Barcha German davlatlaridan tashkil topgan mazkur ta'sis majlisi yagona Germaniyaning yangi, hech bo'lmaganda federal konstitutsiyasini qabul qilishi lozim edi.



Parlament tomonidan Avstriya ersgersogi Iogan muvaqqat imperiya noibi lavozimiga saylanadi. Unga yordam berish uchun Muvaqqat markaziy hukumat tashkil etiladi. Biroq davlatlarda hokimiyat monarxlar qo'lida qoladi. Biroq parlament o'z faoliyatining boshidanoq reaksiya siyosat yurgizadi. Ko'pchilik a'zolari shovinizm yo'liga kirib, mustamlaka slavyan yerlarini qo'lda saqlashga harakat qilinadi. Dehqonlar masalasida feodal tuzumga qarshi hech bir ish qilinmaydi. 1848-yil kuzda aksilinqilobning kuchayishi natijasida ishlab chiqilgan konstitutsiya loyihasi qog'ozda qolib ketadi. Burjuaziya va ishchilar, dehqonlar va feodallar o'rtasida to'qnashuvlar yuzaga keladi. Frankfurt majlisi majburiy tarqatib yuboriladi.

Natijada Parlament yagona ilgari talablarni ro'yobga chiqarish maqsadida *Germaniya imperiyasining 1849-yilgi Frankfurt konstitutsiyasini* qabul qilishga kirishadi. 1849-yil 28-martda parlament imperiya konstitutsiyasini qabul qiladi.

Burjuaziya siyosiy ustunlikka erishgan. Germaniyaning barcha 36 ta yerlarida o'z boshqaruv apparatiga ega monarxiya mavjud bo'lgan. German monarxialari federatsiyasi o'rnatilib, unga imperator boshchilik qilgan. Umumgerman markaziy hukumati tuziladi. Imperator va amaldorlar «imperiyaning va nemis huquqlarini qo'riqlash, imperiya konstitutsiyasiga og'ishmay va vijdonan amal qilish» haqida qasamyod qilishi kerak bo'lgan.

Konstitutsiyada barcha masalalar aniqlik bilan belgilangan. Federatsiya subyektlari o'z konstitutsiyasi va boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Federatsiya manfaatlarini ko'zlagan holda imperiya hokimiyatini amalga oshiruvchi federal organlar tashkil etilgan. Lekin, ularning tizimi batafsil sanab ko'rsatilmagan. Tashqi siyosatni amalga oshirish, harbiy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy soha, bojxona, pochta-telegraf ishlarini yo'lga qo'yish, boshqarish va nazorat qilish imperiya vakolatiga kiritilgan. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalar ustidan imperiyaning oliy nazorati o'rnatilgan. Subyektlarning imperiya a'zolaridan boshqa davlatlar bilan tuzgan shartnomalari imperiya tasdig'idan o'tishi lozim bo'lgan.

Har qanday federativ birligi shakliga xos bo'lgan Konstitutsiyaviy prinsip – imperiya qonunlari alohida davlatlarning qonunlaridan yuqori turadi (agar ularning bo'ysunish ahamiyati aniq ko'rsatilmagan bo'lsa) degan prinsip o'rnatiladi. Mabodo «majburiy emas» deb belgilanmagan bo'lsa, o'z-o'zidan majburiydir.

Konstitutsiya bo'yicha parlament (reyxstag) quyidagi ikki palatadan iborat bo'lgan: yuqori palata - Davlatlar palatasi ko'pchilik gersog va knazliklardan bittadan, Prussiyadan 40 ta, Avstriyadan 38 ta, Bavariyadan 18 ta, Saksoniyadan 10 ta, Gamburgdan ikkitadan deputatlar 6 yil muddatga saylangan; quyi palata – Xalq palatasi imperiya xalqi orasidan 3 yil muddatga saylangan.

Qonunlar har ikki palatada qabul qilinishi, hukumat tomonidan tasdiqlanishi lozim bo'lgan. Agar hukumat qonun loyihasini tasdiqlamasa, Reyxstag ketma-ket 3 ta sessiyasida hech qanday o'zgarishsiz qabul qilish yo'li bilan amalga kiritishi mumkin edi.

Konstitutsiyada German xalqining asosiy huquqlari va ularni amalga oshirish kafolatlari ham belgilab berilgan. Unga binoan tabaqaviy imtiyozlar tugatilgan.

Konstitutsiya garchi qog'ozda qolib ketgan bo'lsa-da, ma'lum darajada progressiv ahamiyat kasb etgan. Unga ko'ra, federal Germaniyani Prussiya yoki Avstriya qiroli boshqarishi kerak edi. Biroq, Prussiya qirolining Germaniyada tan olinishi boshqa davlatlarning qarshiligini keltirib chiqardi.

Tez orada Frankfurt milliy мажлиси хайдаб yuboriladi. May oyi oxiriga kelib Parlament o'z majlislarini Vyurtemberg poytaxti Shtutgradga ko'chiradi va oxirgi kunlarini shu yerda o'tkazib, Vyurtemberg hukumati tomonidan haydab yuboriladi. Shu bilan german inqilobi tarixi ham tugaydi.

Keyinchalik Prussiya boshchiligida Shimoliy german davlatlarining dastlab 3 ta, keyinchalik 27 tasi qo'shilgan ittifoq tashkil etiladi. Biroq, u Avstriyaning qarshiligiga uchrab tarqatib yuboriladi. Bu davrga kelib 1) mahalliy separatizm (ajralib chiqishga intilish); 2) Yevropadagi yirik davlatlarning qarshiligi; 3) Avstriya va Prussiyaning gegemonlik uchun raqobatini bartaraf etish yo'li bilan yagona Germaniya davlatini tashkil etishga urinishi kuchaygan.

*Prussiyaning 1850-yilgi Konstitutsiyaviy xartiyasi.* Prussiya qiroli dastlab inqilob davrida 1848-yilda Konstitutsiya taqdim etadi. Bir yildan keyin, ya'ni 1850-yil 31-yanvarda qirol yangi Konstitutsiyaviy xartiya chiqaradi. U oldingisiga nisbatan ancha demokratik xarakterda bo'lgan. U shaxsiy, siyosiy va fuqaroviy huquqlar, sud tizimi, armiya, ta'lim sohasi, hokimiyat organlarining tizimi, ularning vakolatlari va o'zaro munosabatlari kabi masalalarni belgilab bergan. Konstitutsiyaviy xartiya ba'zi tuzatishlar bilan 1919-yilgacha harakatda bo'lgan.

Oliy hokimiyat organlari qirol, ministrlar (ministr-prezident), ikki palatali parlament va oliy suddan iborat bo'lgan. Landtagning yuqori palatasi – Janoblar palatasi, quyi palatasi – Deputatlar palatasi deb atalgan. Mamlakatda qirol hokimiyati kuchli bo'lib, landtag maslahat organi bo'lgan va hukumat unga hisob bermagan. Sudyalar qirol nomidan ish ko'rgan, u tomonidan tayinlangan.

*1867-yilgi Avstriya-Vengriya ittifoqi.* XIX asrning o'rtalarida Avstriya ichki, ya'ni inqilobchi kuchlar, mustamlaka aholining chiqishlari va tashqi ta'sirlar, ya'ni Prussiyaning zarbasi natijasida siyosiy inqirozga uchraydi. German davlatlari orasida obro'sizlanadi. Monarxiyani kuchaytirish maqsadida 1867-yilda Avstriya parlamenti – Reyxsrat Avstriya-Vengriya monarxiyasini tashkil etish haqidagi bitimni tasdiqlaydi. Bitim Vengriya parlamenti (Seym) tomonidan ham tasdiqlanadi. Seym bir palatali bo'lib, unda asosan dvoryan va yirik burjuaziya vakillari yig'ilgan.

Avstriya-Vengriya Leyta daryosi bilan ajralib turuvchi ikki qism – Sisleytaniya va Transleytaniyadan iborat bo'ldi. Uning tepasida Avstriya imperatori turgan, u bir vaqtning o'zida Vengriya qiroli unvonini ham olgan. Vengriya o'z parlamenti va hukumatiga ega бўлиш ҳуқуқини oladi. Uchta umumiy ministrlarlik – tashqi ishlar, harbiy va dengiz hamda moliya ministrliklari ta'sis etilgan.

Ittifoqning vujudga kelishi bilan Avstriyada liberal islohotlar o'tkaziladi. Ittifoq boshqaruvida parlamentga nisbatan hukumatning roli katta bo'lgan. Imperator favqulodda farmonlar chiqarish vakolatiga ega bo'lib, ijroiya hokimiyati tepasida turgan va davlat boshlig'i hisoblangan. Avstriya-Vengriya monarxiyasi ba'zi o'zgarishlari bilan Birinchi jahon urushining oxirigacha saqlanib qolgan.

*Prussiyaning gegemonlik uchun kurashi va Shimoliy Germaniya ittifoqi.* Prussiya Germaniyada ustunlik qilish uchun kurashni nemis davlatlarining yagona iqtisodiy makonini tashkil qilishda o'z liderligi o'rnatish bilan ancha ilgari boshlagan edi. Prussiya o'z qirolligi miqyosida 1818-yilgi qonuni bilan dastlab bojxona chegaralarini bekor qilib barcha provinsiyalar bo'yicha ko'chib yurish erkinligini e'lon qiladi. Pruss tovarlariga homiylik qiladigan umumiy bojxona ta'rifi o'rnatiladi.

1819-yilda ushbu islohotlarni butun ittifoqqa tatbiq etish tashabbusi bilan chiqadi. Avstriya hukumati va uning izdoshlari esa inkor qiladi. 1834-yilda Prussiya boshchiligidagi german davlatlarining bojxona ittifoqi tashkil etiladi. Unga 22 ta a'zo kirib, aholisi 23 mln. kishidan ortiq bo'ladi.

Ittifoq iqtisodiy sohada rivojlanib, savdo va veksel huquqlari birxillashtiriladi. 1847-yilda Konferensiyada Umumgerman veksel ustavi qabul qilindi. Prussiyaning huquqiy sohadagi mavqei mustahkamlanib, qonunchilik sohasida faollashib boradi. U tomoni kodifikatsiya ishlari jadal olib boriladi.

1860-yilda Umumgerman savdo qonunomasining qabul qilinishi mislsiz voqea bo'ldi. U mahalliy separatistik kayfiyatlarga zarba berib, Germaniyaning yagona iqtisodiy va huquqiy makonini yaratishda Prussiyaning yetakchi rolini batamom mustahkamlaydi.

XIX asrning 60-yillarida Prussiya oshkora harbiy yo'l bilan Germaniyaning birlashtirishga kirishadi. 1866-yilda Avstriya-Prussiya, Avstriya-Italiya urushlari bo'lib o'tadi. Napoleon III vositachiligida Avstriya-Prussiya o'rtasida va u taklif etgan bitim (Praga, Nikolsburg yarash imzolanadi) imzolanadi. Natijada Prussiya kansleri Bismark bir qancha nemis davlatlari va erkin shahar Frankfurt-Maynni tugatib, o'z hududiga qo'shib oladi. Bir nechta kuchli nemis davlatlari bilan 5 yillik harbiy konvensiya tuziladi.

Janubiy nemis davlatlari hududiy da'vogar Napoleon III ga qarshi va Bismarkka moyil bo'lsa-da, betaraf qoladi. Shunday bo'lsa-da, ular (Bavariya, Vyurtemberg, Baden, Gessen-Darmshtadtning bir qismi) ham Prussiya bilan harbiy va iqtisodiy jihatdan yaqindan bog'langan.

Natijada qattiq kurashlar davomida oldingi German ittifoqi buziladi. Avstriya umumgerman ishlarida ishtirok etishdan abadiy chetlashtiriladi. Bismark Prussiya boshchiligidagi yangi German ittifoqini tuzishga kirishdi.

1866-yil 4-avgustda Bismark Prussiya nomidan shimoliy nemis davlatlariga murojaat etib, nemis davlatlari ittifoqini tuzishni taklif etadi. 18 davlat va 3 ta erkin shahar (Gamburg, Bremen, Lyubek) ittifoq shartnomasini imzolaydi. Prussiyaning ilgari surgan loyihasi va Berlindagi muhokamadan so'ng 1867-yilning boshida Konstitutsiya qabul qilinadi. Unga binoan Shimoliy German ittifoqi tuziladi. Unda prussiya hukmron mavqeni egallaydi.

Ittifoqning aholisi 30 mln. ga yaqin bo'lib, ittifoqqa kirmagan janubiy german davlatlarida 8 mln. ga yaqin aholi yashagan.

*Konstitutsiyaga ko'ra* Ittifoq Prezidenti lavozimi Prussiya qiroliga topshiriladi, qirol ittifoq kanslerini tayinlash va harbiy qo'mondonlikni bajarish huquqiga ega bo'ldi. U reyxshtag va Ittifoq kengashini chaqirish va tarqatib yuborish uchun favqulodda huquqqa ega bo'ldi. Qonunlarni tasdiqlash ham uning vakolatiga kirgan.

Ittifoq parlamenti – reyxstag bo‘lib, u vakillik organi sifatida saylangan. Barcha davlatlarning vakillaridan iborat Ittifoq kengashi joriy etilgan. Yagona ittifoq ministri faqat ittifoq kansleri hisoblanadi. Kansler reyxstag oldida emas, Ittifoq Prezidenti oldida javobgar edi. Qolgan boshqarma (ministrlik)lar stat-sekretarlar tomonidan boshqarilgan.

Germaniyaning birlashtirilishi natijasida yagona ichki tartib qoidalar joriy etilgan. Bismark Germaniya nomi ostida Prussiya hukmronligini kuchaytirishga, nemis yerlarini prusslashtirishga harakat qilishi natijasida janubiy german davlatlarini qarshiligi yuzaga kelgan. Shu bilan birga, Fransiya ham German davlatlari tarqoqligini saqlash tarafdori bo‘lganligi sababli, Bismark undan o‘ch olishga harakat qiladi. Oqibatda 1871-yilda Fransiya-Prussiya urushi vujudga keladi va Fransiya yengilgan.

Xuddi shu davr oralig‘ida janubiy german davlatlari (Badan, Bavariya, Vyurtenburg, Gessen-Darmshtadt) bilan Shimoliy German ittifoqi o‘rtasida «*mudofaa shartnomalari*» tuziladi. Ushbu shartnomalarning tuzilishining oqibati ularning yangi ittifoqqa – *1871-yil qayta tuzilgan Germaniya imperiyasiga* kirishlariga huquqiy asos bo‘lib qoladi. Shu tariqa urush davrida Germaniyaning birlashtirish oxiriga yetkazilgan.

1871-yil 18-yanvarda Prussiya qiroli Versal saroyida Vilgelm I nomi bilan «German imperatori» deb e‘lon qilinadi. Germaniya Prussiya gegemonligi ostida birlashtiriladi. Bundan keyingi davrda Germaniya siyosiy tuzumi tuzumida yangi normativ-huquqiy hujjatlar asosida muayyan o‘zgarishlar amalga oshirilgan.

## **2-§. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Germaniyada siyosiy tuzumning o‘zgarishi**

*Germaniya imperiyasining 1871-yilgi Konstitutsiyasi.* 1871-yil 16-aprelda Ta‘sis reyxstagi umumgerman Konstitutsiyasini qabul qildi. Unda oldingi davrlarda qabul qilingan barcha huquqiy hujjatlar inobatga olingan.

Imperiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ittifoqchilar davlati hisoblangan. Uning tarkibiga qiroli va knyaz sulolalari boshqaruvidagi 22 ta monarxiya va 3 ta erkin shahar kirgan. Germaniyaga qo‘shib olingan Elzas-Lotaringiya hududi imperiyaga hokim (shtatgelter) tomonidan idora etiladigan maxsus imperiya provinsiyasi bo‘lib kiritilgan.

A‘zolarining ayrimlari o‘z Konstitutsiyasi, landtag – vakillik muassasalarini saqlab qoladi. Davlat funksiyalarining ma‘lum bir qismi,



ya'ni cherkov ishlari, maorif, soliq va ichki biror muhim soha boshqaruvi ular hukumatlarning ixtiyorida qoldiriladi. Joylarda xalq vakolatlari tor bo'lib, tabaqa imtiyozlari davom etgan.

Mayda nemis davlatlarining Prussiya harbiy va iqtisodiy qudratiga qaramligi Prussiyaning hukmronligini ta'minlagan. Imperiya boshqaruvida «armiya va qal'alar» bo'yicha qirol tomonidan tayinlanadigan komitet, tor doiradagi davlatlar vakillaridan iborat «tashqi ishlar» komiteti tashkil etilgan.

Ittifoq miqyosida qonun chiqarish huquqi umumimperiya hokimiyati imperatori va imperiya kansleri qo'lida to'plangan. Konstitutsiyaga binoan federal kengash ikki palatadan, yuqori palata – *bundesrat*, ya'ni ittifoq kengashi hamda quyi palata – *reyxstagdan* tuzilgani holda qonunchilik vakolatlari unga berilgan. Aynan shu ikki palata oliy vakolatli muassasalar hisoblangan.

Germaniyaga faqat Prussiya qiroligina imperator bo'lishi mumkin bo'lgan. Imperator ijroiya hokimiyatni boshqargan va shakllantirgan. Uning vakolatlari keng bo'lib, reyxstag va ittifoq kengashi sessiyalarini chaqirish va tarqatish vakolatiga ega bo'ladi. Imperiya nomidan ish ko'radi. Shuningdek, imperiya qonunlarini ishlab chiqish va e'lon qilish ham uning vakolatiga kirgan. Imperatorning mutlaq hokimiyati faqat kanslarning kontrassignatura (ma'lum hujjatning kuchga kirishi uchun kanslarning imzosi shartligi) huquqi bilan tiyib turilgan. O'z navbatida qatori vakolatlarini, xususan, urush va tinchlik e'lon qilish, shartnomalar tuzish, ittifoqda o'z majburiyatlarini bajarmagan davlatlarga nisbatan jazo berish huquqlarini Ittifoq kengashining roziligi bilan amalga oshirgan.

Ittifoq ministrliги tashkil etilmagan. Ittifoqning yakka ministri imperiya kansleri edi. U reyxstag oldida javobgar bo'lmagan. Imperator tomonidan lavozimga tayinlangan va bo'shatilgan, uning oldida javobgar bo'lgan. Imperiyaning ayrim markaziy idoralariga stats-sekretarlar rahbarlik qilgan, ular kanslarning yordamchilari hisoblangan.

Imperiya kansleri bir vaqtning o'zida imperiya hukumati bo'lib, qonunlarda uning irodasi mujassamlangan. Imperiya kansleri lavozimida Prussiya ministr-prezidenti faoliyat ko'rsatgan. U bir vaqtning o'zida Prussiya ministrlar kabinetining boshlig'i ham hisoblangan. XIX asrda Germaniyaning eng yirik siyosiy arboblardan biri *Otto fon Bismark* bu mansabni 1862-yildan 1890-yilgacha egallab turgan.

Kansler bundesratning raisi ham hisoblangan. Yuqori palatada ovozlar teng bo'lib qolganda uning ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Bundesratda harbiy masalalar bo'yicha kelishuvga erishilmay

qolganda kanslarning ovozi asosiy hisoblangan. Bundan tashqari, u budjetni to'ldirish uchun to'lovlar tayinlash huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, u har yili ittifoq kengashi va reyxstagga xarajatlar haqida hisobot taqdim qilishi lozim bo'lgan.

Imperator va kansler o'z faoliyatida bundesratning muhim Konstitutsiyaviy vakolatlariga tayangan. 1871-yilgi Konstitutsiyada hatto rasman bo'lsa ham «xalq suvereniteti» prinsipi e'lon qilinmaydi. Konstitutsiya hukmron doiralarning monarxning davlat hokimiyati haqidagi konservativ tasavvurlari bilan to'la qarama-qarshiliklarni mujassam etgan. Unga binoan imperator nomidan ham ijroiya hokimiyati, ham qonun chiqarish hokimiyati amalga oshirilgan. Davlat muassasalari va mansabdor shaxslarning vakolatlari ham imperator nomidan belgilangan.

*Reyxstag – quyi palata* umumiy saylov huquqi asosida va yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylangan. Lekin, amalda quyi darajadagi harbiy xizmatchilar, mulksiz kambag'allar va ayollardan tashqari 25 yoshga to'lgan erkaklarga saylov huquqiga ega bo'lgan. Reyxstag a'zolari o'z mehnatlari uchun hech qanday maosh yoki haq olmaganlar (V bo'lim, 32-modda).

Qonun chiqarish tashabbusi reyxstag qo'lida bo'lib, ittifoq kengashi va imperator uning qarorlarini tasdiqlamaslik huquqiga ega bo'lgan. U imperator nazorati ostida bo'lgan. U qabul qilgan birorta ham qonun bundesratning tasdig'isiz amalga kiritilmagan.

*Ittifoq kengashi – bundesrat*, yuqorida aytilganidek yuqori palata bo'lib, saylanmasdan balki hamma german monarxiyalari va erkin shaharlarning vakillaridan iborat holda tuzilardi va ularning imperiyadagi salmog'i, o'rnini o'zida aks ettirgan. Unda jami 58 ta o'rin bo'lib, shuning 17 tasi Prussiyaga tegishli edi. Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarish uchun faqat 14 ta qarshi ovoz berilsa ham, kengashning kiritgan taklifi qabul qilinmagan.

Bundesratga imperiya qonunlarini hayotga tatbiq etish uchun zarur bo'lgan ma'muriy buyruqlar va instruksiyalar chiqarish, imperator roziligi bilan reyxstagni tarqatib yuborish, o'lkalar o'rtasidagi nizolarni majburlash choralari, jazolarni qo'llash yo'li bilan hal etish vakolatlariga ega edi.

Armiyadan politsiya maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan. Umumiy harbiy majburiyat har bir nemisga 7 yil, ya'ni 20 yoshdan 28 yoshgacha qilib belgilangan. Imperiyaga harbiy holat e'lon qilish huquqi berilgan.

Keyingi yillarda davlat tizimi va Prussiya harbiy kuchlari yordamida hukmron doiralar prusslashtirish siyosatini olib boradilar. Germaniyada militarizm ruhi hukmronlik qila boshlaydi. Byurokratik-amaldorlik hokimiyati zulmi va markazlashgan politsiya nazorati butun mamlakatda hukm suradi. Germaniya imperiyasi politsiyachi-byurokratik yarim mustabid davlatga aylangan.

*Kayzer (imperator) Germaniyasining siyosiy rejimi.* XIX asrda birlashgan Germaniyaning qarama-qarshiliklarga to'la tarixiy rivojlanishi yo'lida sodir bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar uning siyosiy rejimida ham tez-tez o'zgarishlar bo'lishiga bevosita ta'sir qiladi. Bu jarayonlarda Germaniyaning kansleri (ilgarigi Prussiya ministr-perzidenti) Otto fon Bismark alohida rol o'ynaydi. Tarixiy adabiyotlarda qator qarama-qarshi tushunchalar, jumladan «yuqoridan o'tkazilgan inqilob», «davlat sotsializmi», «reaksion militarizm», «bonapartizm» va boshqa nomlar bilan belgilangan siyosatni amalga oshirish aynan Bismark nomi bilan bog'liq.

Darhaqiqat, XIX asrda Germaniyaning burjua inqilobi ta'sirida birlashtirilishi uning iqtisodiyotning, kapitalistik tadbirkorlikning, aksionerlik kompaniyalari, banklar va yangi sanoatning rivojlanishiga sharoit yaratadi.

XIX asrning oxirgi 1/3 qismi «*gryunderlik*» (grunder – asos solmoq, ta'sis qilmoq) davri deb ataladi. Aynan shu davrda xo'jalikning deyarli hamma sohalarida, ko'proq iqtisod-moliya tarmoqlarida ta'sis etish ishlari kuchayib ketgan.

Umumimperiya bank biletlari, yagona o'lchov va og'irlik birliklari, bojxona tariflari, patent qonunchiligi joriy qilindi. Mamlakat ikki–uch o'n yilliklar davomida Yevropa va dunyodagi eng ilg'or, sanoati rivojlangan davlatlardan biriga aylangan.

Dastlabki davrlarda tadbirkorlik va savdoning rivojlanishi yo'lidagi ko'pdan-ko'p to'siqlar olib tashlanadi. Umumimperiya partiyaviy tizimi tashkil qilingan, ishchi tashkilotlari va partiya nashrlari oshgan.

Bu vaqtda Germaniya siyosiy tuzumida *siyosiy partiyalar* muhim o'rin tutadi. Ilk partiya sifatida *konservatorlar* partiyasini ko'rsatish mumkin. U Sharqiy Prussiya yirik yunker (yirik feodal, pomeshchik)larining, Saksoniya, Brandenburg yer egalarining manfaatini ifoda etgan. Bu partiya 1866-yilda ittifoq tashkil topishi vaqtida qo'rqish natijasida ajralishga uchraydi. Bir qismi ajralib chiqib, o'zining eski nomini saqlab qoladi. Bu yarim mutlaq monarxiya tarafdori bo'lgan. U o'z vaqtining hukmron partiyasi hisoblanib, davlat boshqaruvidagi muhim

vazifalarda ishlab kelganlar. Ularning ta'siri Prussiyada kuchliroq bo'lib, Prussiya landtagi ularning tayanchi edi.

Konservatorlarning bo'linib ketgan bir qismi o'zlarining *imperiya partiyasi* yoki *erkin konservatorlar* partiyasini tuzadi. Unga kapitalistik rivojlanish yo'lida borayotgan yirik yer egalari va ba'zi yirik sanoat magnatlari (Krupp, fon Kardorf, fon Shturm va boshq.) kirgan. Ular Bismark va imperiya so'zini qo'llab-quvvatlaganlar. U Bismarkning tayanchi sifatida rol o'ynagan.

Bismarkning yana bir tayanchi *milliy-liberal* partiya bo'lib, bu partiya 1867-yildayoq progressiv partiyadan ajralib chiqqan. U mamlakat sanoatini rivojlantirish va faol imperialistik mustamlaka siyosatini olib borish tarafdori bo'lgan. Bu partiya hukumatning militarizm va qurollarni yanada ko'paytirish siyosatini qo'lla-quvvatlagan. Milliy-liberallar 1870-yillarda konservatorlar bilan yangi islohotlarga qarshi turish yo'lida hamkorlikka kirishadilar.

*Progresschilarning* barcha qolganlari 1884-yilda *erkin fikr qiluvchilar* degan nom olib o'z partiyalarini tuzganlar. Ular o'zlarini reyxstagda burjua-liberal oppozitsiyasi vakillari qilib ko'rsatishga harakat qilgan. O'rta va mayda shahar burjuaziyasi, shuningdek ziyolilarning ba'zi qatlamlari manfaatlarini ifoda qilgan.

1870–1871-yillarda *katoliklar partiyasi* tuziladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach bu partiyaning reyxstagdagi fraksiyasi markaziy o'rinni egallaganligi sababli u *katoliklar markaziy partiyasi* degan nom oladi. Uning ta'siri prusslarga qarshi va aholisining ko'pchiligi rim-katolik diniga e'tiqod qiluvchi janubiy va janubiy-g'arbiy Germaniyada kuchli bo'lgan. Partiya Germaniyani prusslashtirish siyosatidan norozi bo'lgan turli ijtimoiy qatlamlarni birlashtirgan. U cherkovning madadi bilan kuchayib borgan. Katoliklar partiyasi nemis davlatlarining mustaqilligini tiklash, katolik cherkovining davlat nazoratidan erkin va mustaqil bo'lishini, katolik maktabini rivojlantirish va mustahkamlashni talab qilib chiqqan.

Imperiya hukumati mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvolini mustahkamlash yuzasidan 1871–1873-yillarda yagona pul birligini joriy qilgan. Oltin marka asosiy pul birligi sifatida qabul qilingan.

1874-yili reyxstag tomonidan 7 yillik, ya'ni 1875–1881-yillar uchun harbiy budget tasdiqlanadi. 1874-yili xazinani boyitish va davlat apparatini mustahkamlash maqsadida pochta-telegraf ishlari markazlash-tiriladi. 1876-yilda butun imperiyada yagona sud ishlari tizimini belgilovchi qonunlar qabul qilingan va uch yil ichida tatbiq etilgan. Unga ko'ra, oliy instansiya – imperiya sudi tashkil topgan.

1872–1876-yillarda imperiya va Prussiyada diniy sohada islohotlar (burjua ta’biri bilan aytganda «kulturkampf» – madaniyat uchun kurash) o’tkazilib, cherkov ishlari davlat vakolatiga kiritiladi.

Huquqiy sohada 1871 yili umumimperiya Jinoyat kodeksi, 1877-yilda Jinoyat-protsessual kodeksi, 1900-yilda besh kitobdan iborat Germaniya tuzuklari qabul qilingan. Tuzuklar umumiy masalalarga, shuningdek, fuqaroviy-huquqiy institutlar, shaxs huquqlari, majburiyatlar, bitimlar, mulk, oila-nikoh va vorislik huquqiga bag’ishlangan.

Monarx Vilgelm I ga suiqasd uyushtirilishi natijasida reyxstag tarqatib yuboriladi va qayta saylov o’tkazilishi natijasida ko’pchilik o’rinni konservatorlar egallagan.

Bu davrda Bismarkning qattiqqo’llik siyosati hatto, uning ilgarigi tarafdorlarida ham norozilik tug’dirib, siyosiy tuzumni o’zgartirish g’oyasi yuzaga keladi. Natijada, ichki va tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklarga uchragan.

1888-yilda Vilgelm I vafot qildi. Bu davrda Bismark imperiyaning to’la huquqli subyekti edi. Fridrix III ning 100 kunlik podsholidan keyin podsholik Vilgelm I ning 28 yashar nabirasi Vilgelm II ga o’tadi (1888–1918-y.). Vilgelm II nisbatan yon berib boshqarish tarafdori bo’lib, Bismark bilan munosabatlari keskinlashib turgan.

1890-yilda reyxstagga navbatda saylov bo’ladi. Bunda ishchilar faollik ko’rsatib, sotsial demokratiyaning reyxstagdagi deputatlari soni 35 kishiga yetadi (sal kam 1,5 kishi, umumiy saylovchilarning 20 % ularni yoqlab ovoz beradi). 1890-yil martda Bismark iste’fo berishga majbur bo’ladi. Ishchilarning qudratli harakati (1890-yilda 266 marta ish tashlash bo’lib, ularda 28536 kishi qatnashadi) qattiqqo’l kanslerni lavozimidan chetlashtiradi.

Kansler qilib Pruss generali Kaprivi (1890–1894-y.) tayinlandi. U Germaniyaning tashqi siyosatiga juda muhim o’zgarishlar kiritdi. Sanoat egalarining siquvi ostida Avstriya, Vengriya, Rossiya bilan shartnomalar tuzadi. 1893-yilda pomeshchik va kulaklar tomonidan tuzilgan «Qishloq xo’jayinlari ittifoqi» syezdida yunkerlar u yuritayotgan siyosatga norozilik bildirishgan. 1894-yilda Kaprivi iste’fo bergan.

Bu davrda yunker-burjua bloki tuzilib, ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qo’llab quvvatlaganlar. German imperializmi XIX ning 90-yillarida dunyoni o’z foydasiga tubdan qayta bo’lish haqidagi masalani o’z oldiga qo’yadi. Pangerman ittifoqi deb ataladigan maxsus tashkiloti tuzilgan. U agressiv shovinizmni targ’ib qilgan.



1900-yilda keksayib qolgan kansler Gogenloe (1894–1890-y.) o‘rnini Byulov (1900–1909-y.) egallagan. U mustamlaka xalqlarni germanlash-tirish siyosatini yurgizadi. U kansler bo‘lib turgan vaqtda Germaniyaning ekspansiyachilikdan iborat tashqi siyosati avjiga chiqib ketgan.

Birinchi jahon urushi arafasida Vilgelm II ning agressiv harbiy-lashgan siyosatining faollashuvi mamlakat siyosiy rejimining o‘zgari-shiga, repressiv qonunlarning joriy etilishiga olib kelgan. Imperator manfaatlarini ifoda etuvchi qonunlar amalga kiritilgan. Rossiya va Fransiyaga qarshi urush e‘lon qilingan. Harbiy diktatura o‘rnatilib, armiyani kuchaytirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilgan.

1918-yillarga kelib esa tashqi urushda yengilish va ichki xavflar ta’sirida inqilobning oldini olish maqsadida hokimiyatni parlament-lashtirish, reyxstag huquqlarini kengaytirish, bosh shtab ustidan reyxstag nazoratini o‘rnatish va boshqa shu kabi tadbirlardan iborat siyosat o‘tkazila boshlangan. Shu maqsadda 1918-yil oktabr oyining oxirida ikkita konstitutsiyaviy qonun qabul qilingan. Biroq siyosiy rejimni yangidan liberallashtirish hukmron rejimni keyingi davrda saqlab qola olmasdi. Mamlakatda inqilob boshlanib, Vilgelm II taxtdan voz kechishga majbur bo‘lgan. Germaniya ham insoniyat tarixidagi eng yangi davrga qadam qo‘ygan.

---

## **XII BOB. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI DAVLATI VA HUQUQI**

### **1-§. AQSHning vujudga kelishi va uning mustaqillik Deklaratsiyasi**

AQSHning hozirgi hududida qadim vaqtlardan buyon indeyetslar va eskimoslar yashagan. Aynan Amerikaning qadimiy tub aholisi indeyetslar bo'lgan. Ko'pgina tarixchilarning fikricha, ularning ajdodlari bundan 20–25 ming yil oldin Yaponiyaning Bering bo'g'ozi orqali Osiyodan ko'chib borganlar. XI–XIV asrlarda Shimoliy Amerikaga asosan Grelنديyalik islandlar ahyon-ahyonda safar qilib turganlar. 1492-yilda Kolumb tomonidan Amerika kashf qilingach, oradan ko'p o'tmay, aniqrog'i, XV asrdan bu qit'ani Ispaniya, Fransiya, Angliya, Gollandiya davlatlari o'zlarining mustamlakasiga aylantira boshladilar.

Shimoliy Amerika yerlariga XVI asr oxirlarida kelgan inglizlar uzoq tura olmaydilar. Ular tomonidan doimiy mustamlakaga aylantirish 1607-yildan, ya'ni Virginiya (qirolicha Yelizaveta ismidan) deb nomlangan mustamlaka barpo qilinganidan so'ng boshlandi. Angliya XVIII asr o'rtalarida o'lkadagi asosiy raqiblarini surib chiqarib, qit'ada o'zining 13 ta mustamlakasini yaratadi. Bu mustamlakalarning har biri o'z nomiga ega bo'lsa-da, «Yangi Angliya» mustamlakalari, deb ham atalgan. Ingliz inqilobi boshlanishi natijasida u bilan mustamlakalar o'rtasida aloqa zaiflashadi. Mustamlakalar ichki boshqarish ishlarida to'la mustaqillikni saqlaganlari holda «Yangi Angliyaning birlashgan mustamlakalari» degan nom ostida ittifoq tuzadilar. Natijada ular tizimida ko'payish, qo'shib va ajralishlar kuzatiladi.

Bu mustamlakalar geografik joylashishi va qishloq xo'jaligi rivojlanishi nuqtai nazaridan *shimoliy*, *markaziy* va *janubiy* mustamlakalarga bo'linadi. Qishloq xo'jaligida shimolda mayda va o'rta hol fermerlar hukmronlik qilgan. Markaziy mustamlakalarda yer mayda va o'rta hol fermerlar bilan birga yirik yer egalari qo'lida bo'lgan. Janubda esa faqat yirik yer egalari hukmronlik qilgan. Qit'ada Angliya mustamlakasidan tashqari boshqa mamlakatlarning mustamlakasi ham mavjud bo'lgan.

Xo'jalik ishlarida negr qullar va shaxsan ozod oq tanli yollanma ishchilar mehnatidan foydalanilgan. Jumladan, mustaqillik arafasida

Shimoliy Amerikaning 2,5 mln. aholisidan 500 mingga yaqini negrlar bo'lib, ularning 90 % ga yaqini qullar edi. Qullarga «jonli inventar» deb qaralib, ular har qanday ijtimoiy va siyosiy huquqlardan mahrum etilgan. Qul egalari ularni o'ldirishi, sotishi va qarzga berishi mumkin edi.

Shimoliy Amerika mustamlakalarida feodalizm, quldorlik va majburiy mehnat elementlari qo'shilib ketgan. Shuningdek, u o'z vaqtida markaziy va janubiy mustamlakalarga nisbatan bir muncha taraqqiy etgan.

Kichik ma'muriy hududiy birliklar – grafliklar ta'sis etilgan. Yerdan foydalanish «yirik yer egalari – mayda fermerlar – kichik yer egalari ko'rinishida kechgan.

Mustamlaka hududlarga oid umumiy ishlar Angliya parlamenti tomonidan qonun qabul qilish, qirol tomonidan Proklamatsiya (1763-yil, ko'chish haqida) va hukumat tomonidan farmoyishlar chiqarish orqali tartibga solinib kelingan.

Mustamlakalar sekinlik bilan bo'lsa-da, iqtisodiy rivojlana bordi. To'qimachilik ustaxonalari, tegirmonlar, temir va g'isht zavodlari, kemasozlik korxonalari va boshqa korxonalar paydo bo'ldi. XVIII asrda manfaktura ancha keng tarqaldi, sanoatda mashinalar qo'llanila boshlandi. O'z navbatida metropoliyalar bundan cho'chigan va doimo qarshi turganlar.

Britaniya mustamlakachilik boshqaruv tizimi XVII asrning oxirida shakllanadi. 13 ta mustamlakaning har biri o'zining alohida tuzumiga ega va idora qilish shakliga ega edi. Ular o'z huquqiy holati bo'yicha uch guruhga bo'lingan. Jumladan, 1) o'zini o'zi boshqaruvchi xartiyalariga ega, amalda o'ziga xos respublikalar bo'lib, ularning hududidagi barcha boshqarish organlari saylovlar yo'li bilan tashkil qilingan; 2) xususiy egalikdagi mustamlakalar; 3) ko'p sonli (8 ta) qirollik mustamlakalari. Qirollik mustamlakalari qirol tayinlaydigan gubernatorlar orqali boshqarilgan, shu bilan birga, ikki palatali qonun chiqarish majlislari ham tashkil qilingan.

Umumiy boshqaruv masalasida ikki pog'onalik boshqaruv – mustamlaka va metropoliya tizimi amal qilgan.

Mustamlakalar umuman olganda ingliz qonunlariga muvofiq qirollik xartiyalarini chiqarish orqali boshqarilgan. Bu xartiyalarda metropoliyalar amal qiluvchi barcha demokratik huquq va erkinliklar belgilangan. Umuman olganda, mustamlakalardagi siyosiy-huquqiy muassasalar va qarashlar Angliya ta'siri ostida rivojlanadi.

Mustamlakalarda konstitutsiyashunoslikning tug'ilishining eng boshidanoq dastlab, ikki bir-biriga qarama-qarshi tendensiya – demokratiyaga qarshi reaksiya va demokratik yo'nalish yuzaga keladi. Shunga koloniyalarda demokratik va nodemokratik siyosiy tuzum amal qiladi.

Ingliz inqilobi mustamlakalarda ozodlik uchun kurashning boshlanishiga katta ta'sir etadi. Inqilob joylarda monarxiyani qo'llab-quvvatlovchi va unga qarshi harakatlarda ko'rinadi.

Keng xalq ommasining mustamlakachi ma'murlarga qarshi yer va siyosiy huquqlar uchun kurashi mustamlakalar yaratilgan vaqtdanoq boshlangan bo'lib, tobora keskinlashib boradi.

Angliya parlamenti tomonidan Angliya respublika deb e'lon qilinishi mustamlakalarni ham respublika deb e'lon qilinishiga va yana ayrim imtiyozlar bilan bo'ysundirilishiga olib keldi. Bu 1650–1652-yillarda yuz beradi.

Plantatorlar zulmiga qarshi 1676-yil Virginiyada, 1689 va 1766-yil Nyu-Yorkda, 1688–1689-yillar Bostonda, 1763-yil Pensilvaniya va Shimoliy va Janubiy Korolinada xalq harakatlari bo'lib o'tadi. Ularda fermerlar va hunarmandlar, ishchilar va oq tanli qullar katta rol o'ynaydi. Biroq, bu qo'zg'olonlar to'la muvaffaqiyatga erishmaydi.

Bu davrda mustamlakalar boshqaruvi bo'yicha ingliz manfaatini ko'zlovchi Londonda loyiha ishlab chiqiladi. 1754-yilda chaqirilgan mustamlakalar vakillarining syezdida B. Franklin tomonidan taqdim etilgan loyiha asosida demokratik xarakterdagi yana bir loyiha ishlab chiqiladi. Angliya loyihasida gubernator vakolatini kuchaytirish, mustamlakalar loyihasida Angliya qiroli tomonidan tayinlanadigan Prezident lavozimini ta'sis etish g'oyasi ilgari suriladi.

Bu vaqtda obyektiv iqtisodiy sharoitlar tufayli yangi millat tarkib topmoqda edi. Buning omillari sifatida bir yarim asr davomida bir hududda yashash, milliy bozor va birlashish g'oyalarining vujudga kelishi, deb qarash mumkin.

Ishlab chiqarishning o'sishi va mustamlakalarning rivojlanishi, qulchilik, majburiy mehnat, feodalizm va yer uchun, iqtisodiy mustaqillik va siyosiy birlik uchun kurashning to'qnash kelishi inqilobni muqarrar qilib qo'yadi.

1763-yilgi farmonga binoan kolonistlar (zamindorlar)ga o'zlariga qarashli deb hisoblashgan va Fransiyadan tortib olingan Allegan bilan Missisipi o'rtasidagi yerlarni egallash va ishlash qiroli tomonidan man etiladi. Natijada xartiya olgan kolonistlar va qiroli hukumati o'rtasida yuzaga kelgan kurash mustaqillik uchun kurashning boshlanib ketishiga

olib keladi. Xuddi shu davrda 7 yillik urush hukm suradi. Bir soʻz bilan aytganda, mustaqillik tarafdorlari va mustamlakachilar oʻrtasida keskin siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarda yaqqol koʻzga tashlanuvchi kurash kechadi.

Mustamlakalarda yashirin va oshkora tashkilotlar, kulblar va uyushmalar vujudga keladi. Burjuaziya va intelligensiyaning bir qismi orasidan kurashning inqilobiy usulini yoqlab chiqqan Tomas Jefferson, Semyuel Adams va boshqalar koʻzga tashlanib turgan. Inqilob qatnashchilari inqilobiy tarafdorlari boʻlgan soʻllar va qirol siyosatining tarafdori boʻlgan oʻnglar – loyalistlarga ajralib ketgan.

Angliya tomonidan 1765-yilgi «Qoʻshinlarni joylashtirish», 1767-yilgi «Bojxona poshlinasi», 1774-yilgi «Qoʻshinlarni joylashtirish» va shu yilgi 26 iyundagi «Kvebek qonuni» (yerni tortib olishga qaratilgan) kabi qatʼiy tartibni oʻrnatishga qaratilgan qonunlarning qabul qilinishi inqilobiy kayfiyatni kuchaytirib yuboradi va xalqni mustaqillik uchun urushga chorlaydi.

1774-yil 5-sentabrda mustamlakalar aholisi Angliyaga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish uchun oʻz vakillarini birinchi qitʼa Kongressiga yuboradi. Kongress Angliya qirolidan mustamlakalar manfaatini buzadigan qonunlarning bekor qilinishini talab qildi va ingliz tovarlariga «boyqot» eʼlon qildi.

1775-yil 19-aprelda Boston shahri yaqinida qurol-yarogʻ omborlarini bosib olishga harakat qilgan Angliya askarlari kolonistlar tomonidan tor-mor keltiriladi. Bu kun mustaqillik uchun urushning boshlanishi boʻldi.

Bu davrga qadar inqilobiy omma kongressni – oliy hokimiyat, deb bilgan. Biroq kongress uzoq vaqtgacha taʼsis majlisi rolini bajarishdan oʻzini tortib kelardi. Bu vaqtga kelib esa, Kongress – qoʻzgʻolon koʻtargan mustamlakachilarning hukumati, markaziy inqilobiy organi boʻlib qoladi.

Kongress tomonidan doimiy armiya tuzish haqida qaror qabul qilinib, Jorj Vashington oliy bosh qoʻmondon etib saylanadi. Shuningdek, Angliya qiroliga petitsiya yuboradi. Unda qirolga sadoqat, barcha masalalarni tinch yoʻl bilan hal etish va ingliz xalqiga murojaat oʻz aksini topadi. Angliya hukumati petitsiyani rad etadi va qarshi holat eʼlon qiladi.

Natijada, mustamlaka hududlar taʼsis organi sifatida «Konvent» tuzadigan va u tomonidan Virginiya huquqlari deklaratsiyasi maʼqullanadi. Bu deklaratsiya amerika konstitutsiyashunosligi tarixidagi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. U inson huquqlari haqidagi birinchi deklaratsiya edi. Deklaratsiyaning 3-moddasida hukumat agar xalqning



manfaatlariga javob bermasa, xalq uni o'zgartirish, ag'darib tashlash huquqi mustahkamlangan edi.

III qit'a kongressi 1776-yil 4-iyulda demokrat Tomas Jefferson tomonidan yozilgan Shimoliy Amerika mustamlakalarining mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiyani tasdiqladi.

Mustaqillik deklaratsiyasida yangi davlat – Amerika Qo'shma Shtatlari tuzilganligi e'lon qilindi. Unda Angliyadan to'la ajralib chiqilganligi asoslab berilgan.

Deklaratsiya yangi, mustaqil, progressiv davlat tashkil topganligini rasmiylashtirdi. Shu bilan birga, deklaratsiya loyihasidan plantator-quldorlarning tayziqi ostida qullikni va qul savdosini qoralovchi modda olib tashlanadi va indeyetslar va qullar huquqlari haqida hech narsa deyilmaydi.

I qit'a kongressi qarori bilan 1772-yilda ingliz tovarlariga qo'yilgan taqiqni kuzatib borish uchun korrespondent komitetlari tuzilib, ularga bo'ysunuvchi maxsus komitetlar tashkil etiladi. Ular dastlab nazorat, so'ngra xavfsizlik komitetlari deb ataladi.

1774-yilda Nyu-York, Pensilvaniya va Jorjiyadan tashqari barcha mustamlakalarda viloyat kongresslari tashkil etiladi. Ular chaqirilish tartibida ish yuritgan. Ular qonun chiqaruvchi inqilobiy organ bo'lib qoladi. Ijroiya hokimiyat esa xavfsizlik komitetlari qo'lida qoladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1774-yilning sentabrida Shimoliy Amerika-dagi Angliya mustamlakalarining hukmron doiralari vakillaridan iborat I qit'a kongressi, 1775-yil 10-mayda 2-qit'a kongressi chaqiriladi. Shunday qilib, mustaqillik e'lon qilinishiga qadar qonuniylashtirilmagan mahalliy va qit'a organlari tizimi shakllanadi. Bu yangi davlat apparatida savdogarlar, yirik yer egalari va sanoatchilar siyosiy hukmronlikni o'z qo'llariga olgan edilar.

1774-yil Massachusetsda militsiya, 1775-yil Virginiyada mudofaa komitetlari tuzilib, bu ishlar boshqa mustamlakalarda ham amalga oshiriladi. 1775-yilda umumqit'a milliy armiyasi tuziladi. U dastlab ko'ngillilardan iborat holda tashkil etilib, keyin doimiy armiyaga aylantirilgan edi.

Mustaqillik e'lon qilinganidan keyin har bir mustamlaka alohida mustaqil davlat (shtat) bo'lib qoldi. 1776–1780-yillar davomida ularning ko'pchiligi o'z konstitutsiyalarini qabul qilgan. Barcha konstitutsiyalar Huquqlar deklaratsiyasi yoki Huquqlar to'g'risidagi bill bilan boshlanadi.

Shtatlarda xalq suvereniteti e'lon qilingan bo'lsa ham, katta mulk senzi, o'troqlik senzi va boshqa cheklashlar belgilangan.

Konstitutsiyalarning hammasi hokimiyatlarning taqsimlanishi prinsipidan kelib chiqqan. Deyarli barcha shtatlarda (2 ta shtatdan tashqari) parlamentning roli kuchaytirilib, ijroiya hokimiyatning mavqei pasaytirilgan. Sudyalar qonun chiqaruvchi majlislar tomonidan tayinlangan va mustaqil deb e'lon qilingan.

Shtatlarda boshqaruvning respublika shakli o'rnatilib, qonun chiqarish organlari asosan ikki palatali parlamentlardan iborat bo'lgan. Quyi palatalar umumiy saylov asosida tashkil qilinardi. Yuqori palatalar esa (senatorlar) esa katta mulk egalari vakillaridan tayinlangan. Faqat Pensilvaniya shtatida bir palatali qonun chiqarish organi tuzilgan edi.

Ijroiya hokimiyati (hukumat) shtatlarda tayinlanadigan gubernatorlar tomonidan amalga oshirilar, Pensilvaniyada Prezident boshchiligidagi kengashga tegishli edi.

AQSHning 1781-yilgi «konfederatsiya moddalari» aslida AQSHning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi. U mustaqillik deklaratsiyasini tuzish davrida «birlashgan mustamlakalar» konstitutsiyasi loyihasini tuzuvchi komissiya tomonidan ishlab chiqilgan. Bu komissiya 1776-yil 12-iyulda qit'a kongressiga ushbu loyihani taqdim etadi. Kongress uni 1777-yilda tasdiqlaydi. Bu Konstitutsiya loyihasi barcha shtatlarning qonun chiqarish organlari tomonidan tasdiqlangandan keyin 1781-yil 1-martda kuchga kiradi. Unga muvofiq qo'shma shtatlar ittifoqdosh davlat emas, davlatlar (shtatlar) ittifoqi (konfederatsiya) deb ataldi. U shtatlar o'rtasidagi abadiy ittifoq tuzilganligini yuridik rasmiylashtiradi.

Konstitutsiyaning 2-moddasiga ko'ra, ayrim shtatlar o'z suverenitetini va mustaqil hokimiyatini saqlab qoladi. 6-moddasida aytilishicha, har bir shtat 1) o'z armiyasi va flotiga ega bo'ladi; 2) tashqi hujum bo'lgan taqdirda urush boshlashi mumkin; 3) umumkonfederatsiya oliy organi roziligi bilan elchilar yuborish va qabul qilish, o'zaro shartnoma va ittifoq tuzish huquqiga egadir.

Umumkonfederatsiya ishlariga rahbarlik qilish uchun kongress tashkil qilinadi. Kongress bir palatali bo'lib, ayrim shtatlarning qonun chiqarish organlari tomonidan tayinlanadi. Unda shtatlarning vakillari bittadan ovozga ega bo'ladi. Kongress sessiyalari o'rtasidagi oraliq davrda har bir shtatning (konfederatsiya a'zosining) bittadan vakili (delegati) tarkibida «shtatlar komiteti» tuziladi.

Konfederatsiya kongressi urush va tinchlik masalalarini hal qilish, tashqi ishlar va ichki umumiy holatlarni belgilash, umumiy boshqaruvni olib borish, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib turish, muzokaralar olib borish vakolatlariga ega bo'ladi. Biroq u o'ta muhim

vakolatlarni amalga oshirishi uchun kamida 9 ta konfederatsiya a'zosining roziligi talab qilingan. Kongressga soliqlarni belgilash va yig'ish, a'zolarining ichki ishlariga aralashish huquqi berilmagan. Uning qarorlari shtatlarning 2/3 qismi tomonidan ma'qullansa kuchga kirgan. Bu qarorlar ayrim shtatlarning ijroiya organlari tomonidan amalga oshirilishi kerak edi. Binobarin, Kongress o'z mablag'iga ham ega bo'lmagan.

## **2-§. AQSH Konstitutsiyasi**

Konfederatsiya shaklidagi shtatlar ittifoqi zaif, iqtisodiy va siyosiy jihatdan tarqoq bo'lgan. Umumiy manfaatlarni himoya qiluvchi markazlashgan davlat apparati va yuksalish uchun yagona tartib bo'lmagan. 1783-yilgi sulh tuzilishigacha Angliya bilan kechgan urushda ijtimoiy hayot og'irlashgan. Natijada xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketadi. Hukmron doiralar esa bu vaziyatdan chiqish yo'lini axtaradi. Shunday qilib, yagona davlat barpo qilinishini iqtisodiy va siyosiy sabablar taqozo qilgan edi.

Hukmron doiralarning fikricha, markazlashgan davlatning tashkil etilishi Shimoliy Amerika davlatlarining xalqaro obro'sini ko'tarishi lozim edi. Mana shunday sharoitda «konfederatsiya moddalari»ni qayta ko'rib chiqish uchun Filadelfiyada Konvent chaqiriladi. U 1787-yil 25-maydan 17-sentabrigacha davom etadi va xalqdan yashirincha AQSHning yangi Konstitutsiyasi loyhasini ishlab chiqadi. U 4 oy davomida muhokama qilinadi va so'nggi loyiha ishlab chiqiladi. Muhokama qiluvchilar konstitutsion monarxiya, aristokratik monarxiya, burjuaziya va respublikani yoqlovchi rahnamolar ko'rinishida fikr beradi.

1787-yil 17-sentabrda Konvent konstitutsiya loyhasini ma'qullaydi. 1789-yil 4-martdan kuchga kiradi. Konstitutsiya AQSH tarixida katta rol o'ynadi. U yirik burjuaziya va quldorlar o'rtasida murosasozlik rolini bajaradi.

Konstitutsiyaga ko'ra, AQSH davlatlar ittifoqidan (konfederatsiyadan) ittifoq davlatga – federatsiyaga aylandi. AQSH Konstitutsiyasi tuzilishiga ko'ra preambula, 7 moddadan iborat bo'lib, ulardan faqat 4 tasi bo'limlarga ajratilgan. Unga ko'ra, qonun chiqarish hokimiyati – kongressga, ijro etish hokimiyati Prezidentga, sud hokimiyati Oliy sud va kongress tomonidan tashkil etiladigan quyi federal sudlarga tegishli bo'ladi.

Kongress ikki palata – Senat va Vakillar palatasi asosida tashkil qilinadi. Senat har bir shtatning qonun chiqaruvchi majlisi tomonidan

nafardan 6 yil muddatga saylanadigan senatorlardan iborat. Senatning 1/3 qismi har 2 yilda yangilanib turishi kerak. Vakillar palatasi proporsional saylov tizimi asosida – aholi soniga qarab xalq, ya'ni saylov korpusi tomonidan 2 yil muddatga saylanadi. Hamma saylovlar juft sonli yillarda o'tkaziladi. Qonun avval vakillar palatasida qabul qilinadi va so'ng senat tomonidan tasdiqlanadi. Senatning roziligisiz birorta ham qonun qabul qilinishi mumkin emas. Qabul qilingan qonun Prezident tomonidan imzo qo'yilgandan keyin kuchga kiradi.

Kongress federal mansabdor shaxslarni, jumladan, prezidentni ham impichment (parlament tomonidan davlat xizmatida turgan mansabdor shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'zg'ash) tartibida sud qilish huquqiga ega. Bunda tergov ishlarini vakillar palatasi olib boradi, senat esa sud qiladi.

Federal kongress boj va soliqlarni belgilash, pul tamg'alash va uning qiymatini belgilash, chet mamlakatlarga va ayrim shtatlarga qarz berish, tosh-tarozi, og'irlik o'lchov birliklarini o'rnatish, ichki va tashqi savdoni tartibga solish, sudlarni tashkil etish, qo'shma shtatlarning mudofaasini ta'minlash, urush e'lon qilish, armiya va flot tuzish va ta'minlash, federal qonunlarni ijro etish va qo'zg'olonlarni bostirish uchun politsiyadan foydalanish kabi huquqlarga ega bo'lgan. Amalda Kongress «qonunlar paketi», ya'ni bir vaqtda qabul qilinuvchi bir qancha qonunlarni chiqarishi mumkin bo'lgan.

Shuningdek, Konstitutsiyada kelajakda kongressning huquqlari kengaytirilishi mumkinligi nazarda tutildi. Konstitutsiyaga binoan federal kongressning tergovsiz sud qilish haqida, dvoryanlik imtiyozlarini joriy qilish haqida va boshqa shu kabi qonunlarni qabul qilishi qat'iyon taqiqlandi. Federal organlar xalqaro munosabatlarda AQSH nomidan harakat qilish va shartnomalar tuzish huquqiga ega.

Konstitutsiyada ayrim shtatlarning huquqlari to'la belgilanmadi. Lekin, shtatlar federal kongressga tegishli birorta ham masalani hal qilish huquqiga ega emas. Konstitutsiyaga ko'ra shtatlar federatsiya ixtiyorida bo'lmagan fuqarolik, jinoyat, mehnat, protsessual huquqlar sohasida qonunlar qabul qilish, Respublika tuzumini saqlab qolish sharti bilan o'z Konstitutsiyalarini qabul qilish huquqiga egadirlar.

AQSH Prezidenti ijroiya hokimiyat boshlig'i bo'lib, u ikki pog'onali saylov tizimi asosida, ya'ni saylangan saylovchi vakillar tomonidan 4 yil muddatga saylanadi. Prezident davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i hamda qurolli kuchlarning oliy bosh qo'mondoni hisoblanadi. Prezident va u tomonidan tayinlanadigan ministrlar (sekretarlar) Kongressga o'z

faoliyatlari yuzasidan hisobot bermaydilar. Faqat xoinlikda, poraxo'rlikda aybdor deb hisoblangandagina Prezident va ministrlar mansablaridan olinishlari mumkin. Konstitutsiyaga binoan Prezident senatning roziligi bilan xalqaro shartnomalarni imzolash, elchilar, konsullar, Oliy sud a'zolari va yuqori federal mansabdor shaxslarni tayinlash vakolatlariga ega. Shuningdek, Kongress qonunlariga veto qo'yish huquqidan foydalanadi. Prezident vetosi Kongress palatalari deputatlarining 2/3 qismidan ko'prog'ining qarshiligi bilan bekor qilinishi mumkin. U vaqti-vaqti bilan qo'shma shtatlarning ahvoli haqida Kongressga axborot berib turadi. Kongressning favqulodda sessiyalarini chaqirishi mumkin.

Sud hokimiyati Oliy sud va Kongress tomonidan tashkil qilinadigan quyi federal sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Barcha sudyalari (oliy sud a'zolari ham) senatning roziligi va Prezident tomonidan tayinlanadi. Oliy sud barcha qonunlar va shartnomalarni ularning Konstitutsiyaga muvofiqligi nuqtai nazaridan sharhlash va ularni Konstitutsiya ruhiga munosib emas, deb bekor qilish huquqiga ega.

Konstitutsiyani o'zgartirish yoki unga qo'shimcha kiritish uchun juda murakkab tartib o'rnatilgan. Konstitutsiyaga qo'shimcha faqat Kongressning har ikki palatasining yoki maxsus chaqirilgan Konvent a'zolarining 2/3 qismi ijobiy ovoz bersa va bu qo'shimchalar shtatlarning 3/4 qismini qonun chiqarish majlislari tomonidan ma'qullangandagina qabul qilingan, deb hisoblangan.

Saylov huquqi turli shtatlarda ularning Konstitutsiyalari bo'yicha turlicha edi. Xotin-qizlar, negrlar va mahalliy indeyetslar saylov huquqlaridan mahrum etilgan. Unda yuqori mulk, o'troqlik, ma'lumot senzi va boshqa cheklashlar mavjud edi.

Konstitutsiyada mulk huquqi qattiq himoya qilingan. Unda qul savdosi va qochoq qullarni qaytarish haqida alohida modda bor edi. Demokratik huquq va erkinliklar, shtatlarning suveren huquqlari haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun Konstitutsiya ayrim shtatlar tomonidan tasdiqlanishi davrida bu kamchiliklar ko'rsatiladi. Konstitutsiya ko'pchilik shtatlar tomonidan tasdiqlangan bo'lsa ham 1789-yilda federal Kongress unga «Huquqlar to'g'risidagi bill» (qonun) deb ataluvchi birinchi 10 ta tuzatish kiritli va bu tuzatishlar faqat 1791-yilda barcha shtatlar tomonidan tasdiqlangach kuchga kirdi.

Konstitutsiyada demokratik xarakterdagi qoidalar aks ettirilmaganligi sababli 1789-yil sentabrda D. Medison tomonidan Konstitutsiyaga kiritiluvchi 10 ta tuzatish qabul qilinadi. Bu tuzatishlar 1791-yil dekabrda shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilinadi va kuchga kiradi. Mazkur



qo'shimchalar «Huquqlar to'g'risidagi bill» deb nom oladi va konstitutsiyaning progressiv tomonini kuchaytiradi. Ularning yettitasi fuqarolarning siyosiy hamda shaxsiy huquq va erkinliklariga bag'ishlanadi. Sakkizinchi tuzatishda harbiy holat, to'qqizinchi fuqarolarning Konstitutsiyada ko'rsatilmagan huquqlarining cheklanmasligi, o'ninchi tuzatishda esa Konstitutsiya bilan Qo'shma shtatlarga berilmagan vakolatlar tegishlicha shtatlar va xalq ixtiyorida qoldirilishi ko'rsatilgan.

Davlat apparatida dastlab faqat 672 ofitser va soldat ish olib borgan. Tashqi va ichki ahvol esa jiddiy holatda bo'lgan.

1789-yil 30-apreldan boshlab AQSHning birinchi Prezidenti Jorj Vashington o'z lavozimini amalga oshirishga kirishadi. So'ng dastlabki departamentlar – davlat, harbiy va moliya departamentlarini tuzish haqida qonunlar qabul qilinadi. Bosh attorney (Adliya vaziri) lavozimi ta'sis etilib, 1789-yilgi qonun asosida adliya xizmatiga asos solinadi. 1790-yilda Oliy sud o'zining birinchi majlisiga yig'iladi.

Sud tizimining huquqiy asosi 1789-yil Kongress tomonidan qabul qilingan «Sud tuzilishi haqida»gi qonun bo'lib qoladi. Ushbu qonunga binoan Oliy sud – bosh sudya va beshta assotsiatsiyalangan sudyalardan iborat tartibda tashkil qilindi (keyinchalik ularning soni bir necha marta o'zgaradi va 1869-yildan e'tiboran 9 ta sudyadan iborat tartibda o'zgaras qilib o'rnatildi). AQSH 13 ta sud rayonlariga bo'linib, Men va Kentukidan tashqari uchta sud okrugiga birlashtirildi. Shunday qilib, uch pog'onali federal sud tizimi ta'sis etilgan.

XIX asr boshida «Konstitutsiyaga zid keladigan har qanday qonun ahamiyatsiz» degan prinsip shakllanadi va u konstitutsionalizm uchun asos qilib olinadi.

Dastlabki 30 yil ichida federatsiyaning statut huquqi asoslari yaratiladi. Dastlabki 20 yil ichida Konstitutsiyaga XI va XII tuzatishlar kiritiladi. 1795-yilda kiritilgan XI tuzatish shtatlarning boshqa shtat fuqarolari yoki chet elliklar tomonidan sud qilinishidan daxlsizlik huquqini o'rnatadi. 1804-yildagi XII tuzatish prezident va vitse-prezident nomzodlari uchun alohida-alohida ovoz berishni joriy qilib, prezidentni saylash protsedurasini yangi qoida bilan to'ldirdi.

Siyosiy partiyalarning shakllanishi va rasmiylashtirilishi masalasida AQSH konstitutsiyasi partiyalar mavjudligini to'la inkor qiladi. Dastlab fraksiya deb atalgan partiyalarga nisbatan ham juda sovuq fikrlar mavjud bo'lgan. Partiyalar shakllanishi oliy ma'muriyat vakillarining ajralishi va nisbatan qarama-qarshi bo'lgan o'z tarafdorlarini yuzaga kelishiga borib taqaladi.

Dastavval ikki partiya – konstitutsion monarxiyani yoqlovchi federalistlar va antifederalistlar, ya'ni respublikachilar partiyalari shakllanadi. Federalistlar burjuaziya – savdogarlar, manufakturachilar, kema va bank egalari, yer olib-sotarlar, katta plantatorlar partiyasi edi. Respublikachilar esa maydaroq plantatorlar, fermerlar, mayda burjuaziya va hunarmandlar partiyasi bo'lgan.

Partiyalar o'zlarining «kokus», ya'ni nomzodlarni ilgari surish vakolatiga ega organ, boshqacha aytganda partiyaviy fraksiyaning yig'ilishini tuzadilar. Kokuslar o'rniga keyinchalik konvent (syezd)lar keladi.

Daslabki ikki Prezident Jorj Vashington va Jon adams federalistlardan, Tomas Jefferson (1800), Jems Medison (1809–1817-y.), Jems Monro va Jon Adams (1825–1829-y.) respublikachilar partiyasiga mansub bo'lgan. Avraam Linkoln (1862–1865-y.), Jonson (1865–1869-y.).

1820-yillarda respublikachilar partiyasidan ajralib chiqqan milliy respublikachilar partiyasi (1834-yildan boshlab ular o'zlarini «viglar» deb ataydi), 1828-yilda respublikachilardan yana demokratlar partiyasi tashkil topadi. 1820–1830-yillarda mahalliy doiralarda faoliyat yurituvchi ishchilar partiyalari shakllanadi.

Partiyalar ta'sirida partiyaviy mansubligi bo'yicha Prezidentning saylanishi federal apparatning partiyaviy belgi bo'yicha almashinuviga olib kelgan.

1840–1850-yillarda siyosiy partiyalarning qaytadan guruhlariga bo'linishi sodir bo'ladi. Bunga sabab, 1848-yilgi sulhga ko'ra Meksika hududining 2/5 qismi AQSHga o'tganligi va u yerlarda qulchilikni yoyish siyosatining kuchayishi bo'lib hisoblanadi.

1840-yilda abolitsionistlarning «Ozodlik partiyasi» tashkil topadi. U qulchilikning taqiqlanishini himoya qilib chiqadi. 1848-yilda undan «ozod yer» (frisoylerlar) partiyasi ajralib chiqadi. Frisoylerlar partiyasining asosiy ommasini fermerlar tashkil etgan. Ularni sanoat ishchilari qo'llab-quvvatlagan va ularning «Milliy islohotlar assotsiatsiyasi» nomli ommaviy tashkiloti partiyaga qo'shiladi. Shuningdek, viglar partiyasi tarqalib ketadi. 1854-yilda quldorchilik tizimini tanqid qilish bilan chiqqan Respublikachilar partiyasi tuziladi. Unga turli partiyalarning qismlari birlashadilar.

Odatda, Amerikada ikki partiyaviylik – Respublikachilar va demokratlar partiyalari amal qilib, o'zaro oppozitsiyada bo'lib kelganlar. Umuman olganda, har ikkalasi ham burjua partiyalaridir. Ularning keng tashviqotlari boshqa uch partiyaning vujudga kelishiga to'siq bo'lib

keladi. Ular o'z davrida AQSH siyosiy tizimida asosiy rol o'ynab kelganlar. Keyingi davrlarda ularchalik ahamiyat kasb etgan faol partiyalar faoliyati ko'zga tashlanmaydi.

Keyinchalik I internatsional ta'sirida 1876-yilda ishchilar partiyasi (1877-yildan «Sotsialistik ishchi partiyasi» deb ataladi), 1892-yil populistlar (xalq) partiyasi tuziladi va Prezident saylov kompaniyalarida qatnashadi. Ularning tarkibiga tarafdorlar va tashkilotlar kirganlar. 1892-yilgi Prezident va kongress saylovi kompaniyasida populistlar yetakchi rol o'ynaydi. 1901-yilda sotsialistik partiya tuziladi. Uning rahbarlari sotsializm tarafdorlari edi.

AQSH Angliyaga qarshi mustaqillik uchun urushda ajralib chiqqan bo'lsa, Yevropa urushlari hisobiga o'z chegaralarini ancha kengaytiradi. XIX asrning boshlarida AQSH Atlantika okeani sohili bo'ylab cho'zilgan ulkan hududga ega edi (jami maydoni 892 000 kv. milya – 1 mln. 427,2 ming kv. km).

Konstitutsiya qabul qilingandan to 1861-yil (fuqarolar urushi)gacha AQSHning hududi sotib olish va agressiya, ya'ni oshkora urushlar natijasida ancha kengayadi. Masalan, 1803-yilda T. Jefferson Napoleondan Luizianani – Missisipi daryosining g'arbida qoyali tog'largacha cho'zilgan juda katta hududni 15 mln. dollarga sotib oladi. Natijada noqonuniy holda Prezident tomonidan sotib olingan Luiziana hisobiga mamlakatning avvalgi hududi ikki baravarga ko'payadi (2 mln. 752 ming kv. km.).

1818-yilda Ispaniya mustamlakasi hisoblangan va indeyetslar yashovchi Floridani bosib oladi. 1846–1848-yillarda Meksikaga qarshi bosqinchilik urushi uyushtirib, Texas, Kaliforniya, Arizona, Nyu-Meksika, Nevada, Yutani va Koloradoning bir qismini tortib oldi. O'sha vaqtdagi hududni qo'shib hisoblaganda, AQSH hududi yirik mustamlakachi davlatlar hisoblangan Germaniya va Fransiyaning hududidan kattaroq edi. 1850-yillarga kelib, AQSH hududi 3 mln. kv. milyaga – 4 mln. 800 ming kv.km.ga yetgan edi. Bu hududni O'rta Osiyo bilan qiyoslaydigan bo'lsak, u jami 1 mln. 984 ming kv. km.ni tashkil etadi. AQSH hududi esa undan O'rta Osiyo hududidan deyarli 2,5 baravar katta.

Shtatlarning soni yarim asr mobaynida 16 tadan 30 taga, aholisi esa 1800-yildagi 5 mln. 300 ming kishidan 1850-yilga kelib 23 mln. 200 ming kishidan ortib ketadi. Aholi har 10-yilda 1/3 hissa ko'payib borgan. Aholining tez o'sishi Yevropadagi notinch vaziyat, Irlandiyada ochlik yuz berishi, Kaliforniyada oltin konlari topilishi natijasida immigrantlarning oqib kelishi hisobiga sodir bo'ladi. Bu jihatidan AQSH o'ziga xos tarixga ega.

Keyingi o'n yilliklarda ham AQSH o'z hududiy ekspansiyasini eskicha usullar bilan amalga oshirishda davom etdi. 1867-yilda Rossiya

podshosi Aleksandr II AQSHga ulkan Alyaskani (uning maydoni Fransiyaning maydonidan deyarli 3 baravar katta edi) juda arzimagan 7,2 mln. dollarga sotadi. 1898-yilgi ispan-amerika urushi natijasida AQSH Puerto-Riko, Gdem oroli va Filippinni egallab oldi. Rasman mustaqil deb e'lon qilingan Kubani okkupatsiya qildi.

Yangi davrda AQSHda avvalo quldorlar va qullar, quldorlar va qulchilik tuzumiga qarshi fuqarolar o'rtasida kurash davom etadi. Boshqacha aytganda, AQSHning fuqarolik urushi – bu qulchilikka qarshi adolatli xalq urushi, deya e'tirof etiladi. XIX asr o'rtalarida iqtisodiy inqiroz natijasida inqilobiy vaziyat yuzaga keladi.

1860-yilda quldorlik tuzumi amal qiluvchi Janubiy 11 ta shtat Shimoliy shtatlardan, ya'ni AQSHdan ajralib chiqqanligini e'lon qiladi. Ular o'z konventida quldorlik davlati – Amerika shtatlari konfederatsiya tuzilganligini e'lon qiladi va o'z Prezidentini saylaydi. Shu bilan birga, o'z Konstitutsiyasini ham qabul qiladilar. Shimoliy va Janubiy Amerika o'rtasidagi bo'linish Avraam Linkoln davrida 4 yil davom etadi va 1865-yil 26-mayda tugaydi.

Fuqarolik urushi oqibatida Avraam Linkoln davrida prezidentlik hokimiyati ancha kuchayadi. Bu AQSH tarixining keyingi davrlarida ham kuchli prezidentlik hokimiyatining o'rnatilishiga muhim ta'sir ko'rsatgan. Keyingi davrlardagi fuqarolar harakati ko'proq ishchi sinflar tomonidan amalga oshirildi. Ular ommaviy harakatga rahbarlikni olib boradilar. Bu borada ishchilar turli partiya, federatsiya, ittifoq va harakatlarga birlashadilar.

Janubiy shtatlar ittifoqqa 12 yildan so'ng batamom birlashtiriladi. Keyingi davrlarda AQSHning ikkala mintaqasidagi ijtimoiy va iqtisodiy ahvol tobora birxillashib boradi.

AQSH fuqarolar urushidan so'ng jadal sur'atlarda rivojlanib, agrar respublikadan industrial davlatga aylanadi. AQSH tarkibiga 12 ta yangi shtat qabul qilinadi.

Ijtimoiy tuzumda quldorlik tuzumi amal qilgan. 1860-yilda Senat qulchilikni AQSHning hamma hududida qonuniy deb e'lon qiladi. Janubiy shtatlarda negrlar huquqiy holatini o'rnatuvchi «qoralar kodeksi» joriy qilinadi. Unda negrlarning oq tanlilar bilan nikohda bo'lishi kabi qator huquqlari taqiqlangan. «Faqat o'lgan indeyetsgina yaxshi» shiori ostida hukumat tomonidan indeyetslarga qarshi urush olib borilib, ularni maxsus rezervatsiya (chekka hudud)larga haydab, muhtojlikka chiday olmay qirilib ketishiga olib kelingan.

Avraam Linkoln (1862–1865-y.) prezidentlik davrida qulchilikni tugatishga qaratilgan islohotlar o'tkaziladi. 1865-yil fevralda Kongress



mamlakatda qulchilikni taqiqlash to'g'risida Konstitutsiyaga XII tuzatishni qabul qiladi. 1868-yilda hamma aholining fuqarolik tengligi haqida Konstitutsiyaning XIV tuzatishi kuchga kiradi. Bu tuzatish bir asrga qadar amalda o'z ifodasini topmaydi.

AQSHning imperiyaga aylanishi asosan markaziy hokimiyat organlari funksiyasini kengaytirishga qaratilgan o'zgarishlar orqali amalga oshiriladi. U yuridik xarakterga ega bo'lsa-da, huquq tizimida mustahkamlanmaydi va «jonli konstitutsiya» deb yuritiladi. Bu davrda AQSH Konstitutsiyasiga 1913-yilda ratifikatsiya qilingan XVI va XVII tuzatishlar kiritiladi. XVI tuzatish Kongressning soliq sohasidagi vakolatlarini kengaytirishga, daromad soliqlari miqdorini belgilashga qaratilib, eng ko'p daromad solig'i 6 foizdan oshmasligi o'rnatiladi. Mazkur XVI tuzatish Prezident Vilson tomonidan o'tkazilgan bojxona islohoti bilan bog'liq bo'lib, natijada 1913-yilda banklarning federal tizimi takomillashtiriladi. XVII tuzatish senatorlarning tayinlanishiga oid eski tartibni bekor qiladi va to'g'ridan-to'g'ri saylovlar joriy qildi. Ilgari ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi majlislari tomonidan saylanadigan senatorlar endi xalqning ovoz berishi bilan saylanadigan bo'ldi. Bu senatning shakllantirilish tartibini nafaqat demokratlashtiradi, balki uning nufuzi va davlat boshqaruvidagi rolini ham oshiradi.

1910-yilgi «parlament inqilobi» kongress uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlarining samaradorligini oshishiga olib keldi. Bu vaqtda quyi palata spikeri 1) doimiy komitetlar a'zolarini tayinlash va 2) ishlarni ko'rib chiqish tartibini belgilovchi komitetga a'zolik huquqidan mahrum etiladi.

XX asr boshlariga kelib turli partiyalar tashkil topadi va ular Prezident saylovi kompaniyalarida bir-biridan farq qiluvchi dasturlarga ega nomzodlarni ko'rsatishadi.

Bu davrda xalq demokratik xarakterdagi islohotlarni o'tkazishni, ijtimoiy hayotni yaxshilash borasidagi talablarni ilgari suradi.

Xulosa qilib aytganda, XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib yuqorida zikr etilgan koloniyalar Angliyaning qattiq tazyiqi ostida bo'lganligiga qaramay, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va uning asosida sanoatni yuksalishi Amereka inqilobining asosiy shart-sharoiti hisoblandi hamda AQSHning tashkil topishiga olib keldi.

Eng muhim hujjat hisoblangan AQSHning mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Bu deklaratsiya tiranik (zulmkor) hukumatni ag'darishga qaratilgan o'z davrining ijobiy hujjati sifatida qaraladi.

Konstitutsiyaviy o'zgarishlar borasida aytish mumkinki, 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasiga XX asrning boshlariga qadar bo'lgan davridayoq asosiy o'zgartishlar kiritilgan.



---

## **XIV BOB. ROSSIYA PODSHOLIGI MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ**

### **1-§. O‘rta Osiyoning Rossiya podsholigi tomonidan bosib olinishi va Turkiston o‘lkasining siyosiy tuzumi**

XVI asrning 50-yillarida markazlashgan rus davlatining tashkil topishi jarayoni dastlab o‘z atrofidagi unga doimo tahdid qilib kelgan davlatlarga zarba berish va ularni bosib olish yo‘nalishida bo‘lsa, keyinchalik qo‘shni mamlakatlarning yerlarini ochiqdan-ochiq turli sabablar bilan bosib olish siyosatiga aylanadi.

Rossiya imperiyasining qo‘shni davlatlarni, xususan, o‘zbek xonliklarining yerlarini bosib olishga, ularning ichki ishlariga aralashishga qaratilgan siyosati o‘zining chuqur va uzoqni ko‘zlovchi maqsadlariga ega.

Mustamlaka sharoitida Qo‘qon xonligi hududida tashkil etilgan Turkiston o‘lkasi, ya’ni Turkiston general-gubernatorligi Rossiyaning chekka o‘lkalaridan biri bo‘lib qoladi. Unda harbiy-xalq boshqaruvi tuzumi joriy etiladi. O‘lkaning huquqiy manbalari o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘lgan.

Buxoro ustidan Rossiyaning homiyligi (protektorati) o‘rnatilib, mustamlaka davlatga aylantiriladi. Bu davrda davlat markazlashgan davlatga aylantiriladi.

Xiva xonligi ham Buxoro amirligi singari vassal davlatga aylantiriladi. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlar Rossiya tarkibiga kiritilib, xon faoliyati shu yerdagi boshliq orqali nazorat etib borilgan. Shunday bo‘lsa-da, uning Buxorodan farqi oliy hokimiyat xon qo‘lida qolib, faqat tashqi to‘laligicha, ichki siyosat esa qisman chegaralanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bu davrda Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududiy-siyosiy nuqtai nazardan Rossiya, Angliya va Afg‘oniston, Eron manfaatlari to‘qnashgan nuqtaga aylanadi<sup>1</sup>. Agarda, ushbu davlatlar hududi ruslar qo‘liga o‘tsa, ular uchun Hindiston sari yo‘l ochilib, Angliya manfaatlari Afg‘oniston va Hindistonda xavf ostida

---

<sup>1</sup> Qarang: *Тухтаметов Т.* Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. – М.: Наука, 1969. – С.14–18; *Мухаммад Алихон Фафур.* Хоразм сафари кундалиги. – Т., 2005. – Б. 34.

qolishi mumkin edi. Shu jihatdan, aynan Xiva xonligiga yurishdan oldin Peterburgda Rossiya va Angliya o'rtasida tuzilgan bitim talablariga muvofiq, har ikkala davlat o'z an'anaviy davlat va huquq tizimini saqlab qoladi<sup>1</sup>.

O'zbek davlatchiligining so'ngi bosqichlaridan biri, yangi davr – bu aynan rus podsholigi mustamlakachiligi davri bo'lib hisoblanadi. Chor Rossiyasi XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo yerlarini bosib olishni maqsad qilib qo'yadi. Shu maqsadni amalga oshirish, o'lkadagi foydali qazilmalarning miqdori va joyini aniqlash maqsadida mintaqaga ketma-ket ekspeditsiyalar uyushtiriladi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishga kirishadi. Mahalliy davlatlar o'rtasidagi siyosiy tarqoqlik Rossiya hukumatiga qo'l keladi. Xonlar orasida yakdillikning yo'qligi, qurollangan doimiy qo'shinlarning joriy etilmaganligi ularning mag'lubiyatiga sabab bo'ldi. Oqibatda 30–40-yil davomida olib borilgan yurishlar tufayli O'rta Osiyoda rus podsholigining hukmronligi o'rnatiladi.

1868-yilga kelib Rossiya Qo'qon xonligi hududining yarmini egallab ulguradi. Shu yil 29-yanvar 13-fevral kunlari oralig'ida Qo'qon xonligi bilan Rus davlati o'rtasida savdo bitimi imzolanadi. Bu bitim Qo'qon xonligining siyosiy jihatdan Rossiyaga qaramligini ta'minlaydi. Bu vaqtda xonlik hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat edi. Aholisi 300 000 kishini tashkil etgan.

Shuningdek, 1868-yilda olib borilgan yurishlar tufayli shu yil 23-iyulda Buxoro amirligi bilan sulh shartnomasi imzolanadi. Unga ko'ra Buxoro amirligi quyidagi shartlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi: 1) Rossiya vassalligini tan olish, 2) unga 500 ming rus rubli hisobida urush to'voni to'lash, 3) Samarqand va Kattaqo'rg'on viloyatlarini Rossiyaga berish, 4) boshqa davlatlar bilan mustaqil siyosiy aloqa o'rnatish huquqidan voz kechish va h.k. Biroq shunday bo'lsa-da, Rus davlati Buxoro amirligining bo'ysunmagan ayrim bекliklarini bo'ysundirish maqsadida yana bosqinchilik urushlarini davom ettiradi.

Rossiya hukumati 1872–1873-yillarda Xiva xonligiga to'rt tomondan yurish uyushtiradi. 1873-yil 12 (25)-avgustda Xiva va Rossiya o'rtasida 18 moddadan iborat sulh shartnomasi tuziladi. U shaxsan Turkiston general-gubernatori tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga binoan Xiva

---

<sup>1</sup> Qarang: *Мадиримов Х.Р. Хива хонлигининг давлат тузуми ва ҳуқуқ манбалари. Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2012. – Б. 19.*

xonligi quyidagi shartlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi: 1) Rossiya vassalligini tan olish; 2) urush xarajatlarini qoplash uchun unga 2 mln. 200 ming rus rubli miqdorida tovon to'lash; 3) Amudaryoning o'ng qirg'og'ini Rossiyaga berish; 4) boshqa davlatlar bilan mustaqil siyosiy aloqalar o'rnatish huquqidan voz kechish va boshqa siyosiy-huquqiy talablarni ijro etish.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, rus qo'shinining so'nggi harakatlari aynan 1880–1892-yillarda Xiva xonligi hududida yashovchi turkmanlarni bo'ysundirish bilan bog'liqdir.

1875-yilga kelib Qo'qon xonligida Xudoyorxonga va Rus davlatiga nisbatan norozilik kuchayib, qarshi harakatlar boshlab yuboriladi. Natijada rus davlati O'rta Osiyodagi o'z hokimiyatini ushlab qolish, real xavfni bartaraf etish va bevosita boshqaruvdagi hududini yanada kengaytirishga kirishadi. Shu yil 22-sentabrda Qo'qon xonligi bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, 600 ming tanga tovon solinib, xonlikdagi Sirdaryoning o'ng qirg'og'i Rossiya tarkibiga kiritiladi. Nasriddinxonning asosli talabi bilan ushbu tovon bekor qilinadi. 1876-yil fevralda Qo'qon xonligi tugatilib, o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etiladi. Marg'ilon bekligiga 125 000 tilla – 500 000 rubl tovon solinadi.

O'rta Osiyo hududida Rossiya hukumati o'ziga xos bo'lgan siyosiy-harbiy boshqaruvni tashkil etdi. Siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar mustamlakachilik maqsadlariga qaratilgan katta o'zgarishlarga uchradi. Masalan, Turkiston general gubernatorligi rus mollari kiritiladigan bozor va xom ashyo (paxta, bug'doy, teri...) manbai sifatida xizmat qildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq, ularning mustaqilligi va nomi saqlanib qolgan bo'lsa-da, amalda dunyo siyosiy-iqtisodiy maydonida Rossiya tarkibidagi o'lka sifatida namoyon bo'ldi. Rossiyaning Turkiston general-gubernatorligi tomonidan joriy etilgan qaror, yo'riqnoma va shartnoma kabi normativ-hujjatlari Buxoro va Xiva davlatlariga ham daxldor edi.

Shunday qilib, Turkiston o'lkasida tom ma'nodagi mustamlakachilik tartiblari joriy etildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida yarim mustamlakachilik tartiblari o'rnatildi. Mazkur jihatlarga ko'ra rus podsholigi davrida Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi hamda Xiva xonligi davlat va huquq masalalarining o'ziga xos xususiyatlarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

*Turkiston o'lkasining siyosiy tuzumi.* Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy boshqaruvi rus davlati nuqtai nazaridan shakllantirildi. O'lkaning turli mintaqalarida hokimiyatni amalga oshirish turli huquqiy

hujjatlar asosida amalga oshirilganligi bois 1886-yilgacha yagona tartib bo'lmagan. Oliy va markaziy boshqaruv lavozimlariga rus harbiylari, ijrochi sifatida quyi lavozimlarga esa mahalliy aholi vakillari tayinlangan.

Qisqa davr ichida bosib olingan hududlarning umumiy boshqaruvi bo'yicha 1867-yilda poytaxti Toshkent shahri qilib belgilangan Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi (podsholik hududida bir nechta harbiy okruglar joriy etilgan) tashkil etiladi.

Ilk egallangan hudud – bu Qo'qon xonligiga qarashli Oqmachit (hozirgi Qizil O'rda) bo'lib, bosib olingan dastlabki hududlarda 1865-yilda Turkiston viloyati tashkil etilgan. Uning o'rnida yangi hududlar hisobiga 1867-yilda ta'sis etilgan general-gubernatorlik tarkibiga kiruvchi Sirdaryo (Toshkent) va Yettisuv (Olma ota) viloyatlari tuziladi. Aynan shu ikkita viloyat Turkiston general-gubernatorligining ikki qismini tashkil etgan.

Bundan tashqari, 1868-yil 23-iyunda Buxoro xonligining sobiq hududida Zarafshon okrugi tashkil etiladi. 1873-yilga kelib Amudaryo bo'limi ham bevosita general-gubernatorlik tarkibiga kiritiladi.

Bosqinchilik yurishlari natijasida general-gubernatorlik tarkibiga yangi joriy etilgan viloyatlar – Farg'ona (Marg'ilon), Samarqand (Samarqand shahri) va Kaspiyorti (Ashxobod) ham kiritiladi.

Turkistonda mustamlaka va boshqaruv idoralari va huquq tizimining shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Dastlab tashkil etilgan Turkiston viloyatining boshqaruv mahkamasi unchalik mustahkam bo'lmagan. U «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi Muvaqqat nizomga» binoan boshqarib kelingan. «Muvaqqat Nizom»ga muvofiq, viloyatda harbiy-xalq boshqaruvi harbiy gubernatorga berilgan. U o'z yordamchilari va devoniga ega bo'lgan. Viloyat tarkibi uyezdlarga bo'lingan bo'lib, ular viloyat boshqarmasiga bo'ysunuvchi uyezd boshliqlari tomonidan boshqarilgan. Viloyat gubernatorining asosiy vazifasi rus qo'shinini ta'minlash mahalliy mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilish hisoblangan. Uyezd boshliqlari xavfsizlik, yer-suv, soliq, sud ishlarini nazorat qilish, aholi shikoyatlarini yuqori mansabdor shaxslarga yetkazish vakolatlariga ega edi.

1867-yilga kelib «Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi Nizom» qabul qilinadi va u 1886-yilgacha amal qiladi. Mazkur Nizom asosida barcha sohalar boshqarilib kelingan. Unga muvofiq, Turkiston viloyati va boshqa hududlar o'rnida shu ikkita viloyat tashkil etiladi. O'lka boshqaruvi uchun Turkiston general-gubernatorligi ta'sis etiladi. Turkiston general-gubernatori – o'lka boshlig'i Rossiya imperiya-

sining Harbiy va Tashqi ishlar vaziriga bo'ysungan. Uning vakolatlari quyidagilardan iborat bo'lgan: tashqi aloqalarni amalga oshirish, soliqlar miqdorini va boshqaruvga oid xarajatlar miqdorini belgilash, sudlarning chiqargan hukmlarini va fuqaroviy shartnomalarni tasdiqlash, chegara-dosh davlatlar bilan urushlar va muzokaralar olib borish. 1886-yilga kelib hukmronlikni yanada mustahkamlash maqsadida rus imperatori tomonidan general-gubernatorning siyosiy-moliyaviy va boshqa vakolatlari yanada kengaytiriladi. Boshqacha aytganda, u «yarim podsho», deya ta'rif etilish darajasiga yetkaziladi.

Turkiston general-gubernatorligining dastlabki boshqaruv idorasi general-gubernator kanselariyasidan iborat bo'lib, vaqt o'tishi bilan uning tarkibiy tuzilishi kengayib boradi. 1886-yilga kelib, general-gubernator huzurida uning yordamchisi boshchilik qiladigan kengash tashkil etilib, unga Turkistondagi barcha rus mansabdor shaxslari doimiy va vaqtinchalik a'zo sifatida kiritiladi. Kengashga qonunchilik, moliya, xazina, soliq, yer, sud va lozim topilgan masalalar yuzasidan muhokama o'tkazish tartibida hal etish vakolati berilgan.

Harbiy gubernatorlar huzurida viloyat boshqarmasi saqlab qolinib, ularning yordamchilari tomonidan boshqarilgan. Boshqarmada farmoyish berish, xo'jalik ishlari va sud bo'limlari bo'lib, ayrim masalalar yuzasidan muhokama majlisi o'tkazilgan va qaror chiqarilgan.

1886-yilga kelib gubernatorlarning huquqiy maqomi imperiya gubernyalari boshliqlari maqomiga tenglashtiriladi. Ularga o'z tashabbusi bilan 1 oygacha qamoqni qo'llash va bo'lis boshliqlarini almashtirish kabi vakolatlar beriladi.

Viloyat boshqarmasi mirovoy sudlar vakolatiga kirmaydigan qiymati 2000 so'mdan ortiq ishlarni, tijorat ishlarini, mansabdorlik jinoyatlarini ko'rib hukm chiqargan, mirovoy sudlar qurultoyi sifatida jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilgan.

Viloyatlar ma'muriy-hududiy jihatdan uyezd (tuman)larga bo'lingan bo'lib, ular ma'muriy va politsiya hokimiyatini amalga oshiruvchi uyezd boshlig'i tomonidan boshqarilardi. Unga uyezd boshqaruvni, tartib-intizomni, huquq-tartibotni, ijtimoiy shart-sharoitlarni ta'minlash vazifalari yuklatilgan. 1886 va 1898-yillarda uning vakolatlari yanada kengaytiriladi. Bunda ular dastlab 7 kun, so'ng 1 oygacha qamoq yoki jarima jazosini qo'llash huquqiga, o'z hududida soliqlar miqdorini belgilash vakolatiga ega bo'ladi.

Uyezd boshliqlari o'z boshqarmasiga ega bo'lib, unda o'rtacha hisobda 8 nafar ofitser xizmat qilgan. Ular shuningdek, o'z yordamchilari va hudud pristavlariga ham ega bo'lgan.



Joylarda o'troq va ko'chmanchi aholi hududlarida alohida boshqaruv idoralari tashkil etilgan. Ko'chmanchi aholi ovullar va bo'lis (volost)larga taqsimlandi. Ovullar 100–200 o'tovdan iborat holda tashkil etildi. Yaqin joylashgan 1000–2000 o'tovdan iborat bir necha ovullar bo'lislarga birlashtirildi. Bo'lislar boshqaruvi o'tovlar vakillari tomonidan saylanadigan oqsoqollarga yuklatildi.

Dastlabki davrlarda o'troq aholi hududlarida ham aholi bo'lisga tenglashtirilgan oqsoqolliklarga bo'linadi. Ularni boshqarish xalq yig'inlarida saylanadigan oqsoqollarga yuklatildi. Ovul, bo'lis boshliqlari va oqsoqollarga o'z hududida ma'muriy va politsiya funksiyasini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi.

O'troq aholi hududlarining shahar va qishloqlarida xo'jalik ishlari bo'yicha boshqarmalar tuzilgan. Uning a'zolari xalq tomonidan saylangan bo'lib, xo'jalik boshqaruvini amalga oshirgan va soliqlarni belgilagan. Ko'chmanchi aholi hududlarida bu ishlar saylanadigan bo'lis vakillari tomonidan olib borilgan.

1877-yilga kelib, xo'jalik ishlari bo'yicha boshqarmalar tugatiladi va o'troq aholi hududlarida ko'chmanchi aholi hududlari singari boshqaruv ta'sis etilib, bo'lislar tuzilib ularning tarkibiga oqsoqolliklar kiritiladi.

Shaharlar va kattaroq aholi yashaydigan hududlar dahalarga bo'lingan. Ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan.

Toshkent shahri ruslar oqib kelishi natijasida yangi va eski shahar qismlariga bo'linadi. Toshkent shahri boshqaruvi 1877-yil avgustdan boshlab Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanadigan va unga bevosita bo'ysunuvchi shahar boshlig'i ixtiyoriga beriladi. Uning huzurida shahar hokimi hamda uning yordamchilari lavozimlari ta'sis etiladi.

Ko'chmanchi, o'troq va rus aholisi uchun alohida tartibda sud organlari tashkil qilinadi. Ko'chmanchi aholi hududlarida sud ishlarini olib boruvchi biylar 25 yoshga to'lgan fuqarolar orasidan saylangan. Bu turdagi sudlar vakolat doirasiga ko'ra uchga ajratilgan, ya'ni: 1) 100 so'mgacha bo'lgan ishlarni ko'rishga vakolatli bo'lgan biylar; 2) bo'lis biylari qurultoyi, u 1000 so'mgacha ishlarni ko'rgan, vaqti-vaqti bilan chaqirilgan; 3) bo'lis yoki bo'lislararo ishlarni uyezd boshlig'i ishtirokida ko'rib hal qiluvchi biylar qurultoyi.

O'troq aholiga qozilarni saylash huquqi berilgan. Hudud qozilari yakka holda qiymati 100 so'mgacha bo'lgan ishlarni ko'rib hal etgan.

Rus fuqarolariga taalluqli, ruslar bilan mahalliy aholi vakillari o'rtasidagi, agar manfaatdor rus sudiga murojaat qilsa ko'chmanchi va

o'troq aholi o'rtasidagi ishlarni imperiya qonunlariga muvofiq rus sudlari ko'rib, hal etgan. Ular o'zaro bo'ysunuvchi quyidagi uch turga bo'lingan: 1) uyezd sudlari; 2) harbiy-sud komissiyalari; 3) viloyat boshqarmalari. Viloyat boshqarmalari yuqori instansiya sudi vazifasini ham amalga oshirgan. Rus sudlari general-gubernator tomonidan lavozimga tayinlangan. Keyingi davrlarga kelib, rus fuqarolari ishlarini ko'ruvchi sudyalari soni ko'paytiriladi. Ularga shuningdek, notariuslik vazifasi ham topshiriladi.

1886-yilga kelib, Turkistondagi viloyatlar hududi sud uchastkalariga bo'linib, mirovoy sudyalari tayinlanadi. Viloyat (okrug) sudi tergovchilari lavozimi ta'sis etiladi. Bu vaqtga kelib, mahalliy aholi vakillariga nisbatan ham og'ir va o'ta og'ir hisoblangan jinoyatlar uchun rus sudlari tomonidan rus qonunlari qo'llanilishi mumkinligi belgilanadi.

1888-yilda Toshkent shahriga o'z-o'zini boshqarish huquqi beriladi. Mulk senzi asosida Toshkent shahar Dumasiga saylovlar o'tkaziladi. Dumaning 72 nafar a'zosi orasidan shahar boshqaruvining 6 kishidan iborat tarkibi saylangan. Ular general-gubernator nazorati ostida qaror chiqarish tartibida ish yuritishgan. Jamoatchilik tashabbusi bilan 1917-yilga kelib Olmaota, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda Dumalar tashkil qilinadi, biroq amalda hokimiyat rus ma'murlari qo'lida qoladi.

1898-yilda Toshkent, Yangi Marg'ilon, Samarqandda shahar boshlig'iga bo'ysunuvchi politsiya boshqarmalari, qolgan shaharlarda esa maxsus politsiya pristavlari lavozimlari tashkil etiladi. Ularga ma'muriy jazo choralarini qo'llash huquqi beriladi.

1906-yilga kelib uyezd boshliqlariga bo'ysunuvchi politsiya boshqarmalari joriy etiladi. 1911-yilda barcha viloyatlarda maxsus politsiya qidiruv bo'limlari tashkil qilindi. Bundan maqsad inqilobiy harakatlar ishtirokchilarini qidirib topish va ularni ta'qib etishni kuchaytirishdan iborat bo'lgan.

Keyingi davrlarda boshqaruv sohasida jiddiy o'zgarish kuzatilmaydi.

Turkistonda huquq manbalari tom ma'noda mustamlakachilik tartiblarini mustahkamlash yo'nalishida shakllandi. Ular asosan ma'muriy boshqaruv to'g'risidagi ko'p sonli nizomlar, muvaqqat nizomlar, muvaqqat qoidalar va yo'riqnomalardan iborat. Jumladan, quyida eng muhim hujjatlarni keltiramiz:

– Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom (1865-yil 9-avgust);

– «Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi Nizom» loyihasi (1867-yil, tasdiqlanmagan bo'lsa-da, unga tayanilgan);

- Zarafshon okrugini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom (1868-yil);
- «Fargʻona viloyatini boshqarish haqidagi Nizom» loyihasi (1873-yil);
- Amudaryo boʻlimini boshqarish haqidagi muvaqqat qoidalar (1874-yil);
- Turkiston oʻlkasini boshqarish haqidagi Nizom (1886-yil 12-iyun, kam sonli qoʻshimchalar bilan 1917-yil oʻrtalarigacha amal qilgan);
- Turkiston oʻlkasining qishloq mansabdor shaxslarining huquqlari, burchlari va vakolat doiralari haqidagi yoʻriqnoma (17-sentabr 1888-yil);
- Turkiston oʻlkasidagi sugʻorish ishlarini boshqaruvchi mansabdorlar, uyezd boshliqlari, ariq oqsoqollari va miroblarning huquq va burchlari haqidagi yoʻriqnoma (2-avgust 1888-yil);
- Jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir qilganlarni qidirib topish boʻyicha Turkiston general-gubernatorligining politsiya xizmatlariga yoʻriqnoma (1892-yil);
- Xalq sudyalariga yoʻriqnoma.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosan Turkiston general-gubernatorligi tomonidan ishlab chiqilib, ahamiyatiga koʻra rus imperatori hamda Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlangan. Ular orqali siyosiy, hududiy tuzilish, harbiy, sud, soliq va boshqa sohalar tartibga solib kelingan.

Oʻlkada boshqaruvga bevosita aloqador boʻlmagan mahalliy aholi oʻrtasidagi mulkdan foydalanish, unga egalik qilish, uni tasarruf qilish, savdo, ijaraga berish, hadya etish, meros, oila-nikoh, vasiylik va homiylik bilan bogʻliq munosabatlarni shariat va odat huquqiga koʻra tartibga solib kelingan.

## **2-§. Rossiya podsholigi protektorati sifatida Buxoro amirligi va Xiva xonligining siyosiy tuzumi**

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi oʻrtasida imzolangan 1868-yil 23-iyuldagi «sulh» va 1873-yil 28-sentabrdagi «Doʻstlik» shartnomasiga binoan Buxoro amirligining davlat mustaqilligi cheklandi. Rossiyaning vassaliga aylandi, chet mamlakatlar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri siyosiy aloqa oʻrnatish huquqidan mahrum boʻldi. Ikka davlat chegaralari, ular oʻrtasidagi munosabatni va savdo, jinoyatchilik sohasidagi hamkorligini belgilaydi. Qulchilik tugatiladi.

Rossiya imperiyasining hukmronligi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Buxoro amirligining davlat tizimi oʻzgarishsiz saqlanib qoladi. Qoʻshimcha organlar taʼsis etilmaydi. Rus hukumati tegishli taʼsir koʻrsatuvchi

vositalar orqali mamlakatni boshqarish va o'z manfaatiga xizmat qildirishni yo'lga qo'yadi. Peterburgda Buxoro elchixonasi ochiladi.

Dastlabki davrlarda davlat boshqaruvida Turkiston general-gubernatori shaxsi rol o'ynadi. 1886-yilda Buxoroda Rossiya imperiyasi-ning siyosiy mahkamasi ta'sis etiladi. Uning asosiy vazifalari amir va uning hukumati faoliyati ustidan bevosita nazoratni amalga oshirish, shartnoma bandlariga amal qilinishini kuzatib borish, soliq va pul sohalari bo'yicha amir hukumatini zarur choralar ko'rishga majbur etish, rus fuqarolariga oid ishlarni ko'rib chiqib hal qilish va boshqalar kirgan.

Amir davlat boshlig'i sifatida siyosiy mahkama tomonidan berilgan ko'rsatmalarni o'z amaldorlari orqali amalga oshirgan. Bu mansabdor shaxslar ilgari davrlardagi singari saroy ma'muriy boshqaruv va yordamchi lavozimlar egalaridir.

Rossiya siyosiy agenti va mahalliy amaldorlar bilan yozishmalar olib borish bilan shug'ullanuvchi maxsus devonni birinchi vazir Qushbegi boshqargan.

Qozikalonga Turkiston o'lkasi va mahalliy aholi o'rtasidagi merosni taqsimlash, da'voni qondirish bilan bog'liq ishlarni ko'rib hal etish vakolati berilgan.

Buxoro amirligining mahalliy boshqaruvi o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Rossiya protektorati o'rnatilgunga qadar joylarni amir hokimiyatidan qariyb mustaqil bo'lgan beklar boshqargan bo'lsa, Rossiya mustamlakachilik hokimiyati o'rnatilgandan so'ng bu holatga barham berildi. Natijada mahalliy hokimiyat bevosita amir tomonidan tayinlanadigan va lavozimdan olinadigan mansabdor shaxslar bilan almashtirildi.

Buxoro amirligi vassalga aylanganidan so'ng uning huquq tizimida keskin o'zgarishlar yuz bermagan. Avvalgi davrlardagi singari o'troq aholi hududlarida shariat qonunlari, ko'chmanchi aholi hududlarida va chekka hududlarda odat huquqi qoidalari o'zgarishsiz saqlanib qoldi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, amirlikning vassal davlatga aylanishi bilan vujudga kelgan yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar tarzida qator quyidagi huquqiy hujjatlar ham qabul qilingan. Bular Buxoro xonligida Vino ishlab chiqarish haqidagi qoidalar (1893-yil 15-dekabr), oltin qazib olish va uni qayta ishlab bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi «Buxoro xonligida oltin sanoati haqida qaror» (1896-yil 24-fevral), spirtli ichimliklar bilan savdo-sotiq qilish tartibini belgilovchi «Buxoro xonligida kuchli quvvatli ichimliklarni sotish qoidalari» (1889-yil 25-iyun), «Buxoro xonligida kuchli quvvatli

ichimliklarni sotish joylarini, ularning turlari va soni hamda yangi savdo joylarini tashkil qilish tartibini belgilash haqidagi qoidalar» va boshqalar.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar amirlikda chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini qonuniy jihatdan mustahkamlashga, mamlakatga rus kapitalining kirib kelishiga keng yo'l ochishga, rus fuqarolarining, birinchi navbatda, sarmoyadorlarning huquqlari, manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi.

Xiva xonligi ustidan rus podsholigi hukmronligining o'rnatilganligi 1873-yil 12 (25)-avgustda tuzilgan ikki tomonlama Do'stlik shartnomasi bilan mustahkamlangan. Ushbu sulhga ko'ra Xiva mustaqil tashqi siyosiy aloqalar o'rnatish huquqidan mahrum etilib, deyarli butun ijtimoiy sohalarga oid cheklashlar o'rnatiladi. Xiva xonligining davlat mustaqilligiga barham berildi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yer va mahalliy xalq boshqaruvi uchun Amudaryo okrugi (Petro-Aleksandrovskiy qo'rg'oni, hozirgi To'rtko'l tumani hududi) tashkil etiladi va u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritiladi.

Amudaryo okrugining huquqiy maqomi va faoliyati «Amudaryo bo'limini boshqarish haqidagi muvaqqat qoidalar» bilan mustahkamlangan. Unga imperator tamonidan tayinlanadigan va unga bo'ysuvchi harbiy ma'mur boshchilik qiladi. Amudaryo okrugi boshlig'iga Rossiya va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, xon hukumati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatlari berilgan. U general-gubernatorlik va Xiva o'rtasidagi munosabatlarda vositachi hisoblangan hamda harbiy gubernator maqomiga ega bo'lgan. Mahalliy rus qo'shini boshlig'i ham hisoblangan. Uning qoshida devonxona ta'sis etilgan bo'lib, unda kam sonli xodimlar faoliyat ko'rsatgan va devonxona boshqaruvchisi tomonidan boshqarilgan. 1886-yilda qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom»ga binoan Amudaryo okrugi bo'lim qilib belgilanib, Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritiladi va uning boshlig'i Sirdaryo harbiy gubernatoriga bo'ysunishi belgilanadi.

Mustamlaka davrida Xiva xonligining siyosiy tuzumida tub o'zgarish yuz bermagan. Davlat boshlig'i xon hisoblanib, uning hokimiyati meros tariqasida imperator roziligi bilan qoldirilishi mumkin bo'ladi.

1873–1874-yillarda, ya'ni Amudaryo bo'limi tashkil etilguncha xon huzuridagi an'anaviy Oliy kengash tarkibi o'zgartirilgan holatda faoliyat yuritiladi, so'ngra tugatiladi. Bu vaqtdagi Maxsus kengash (ayrim manbalarda Devon deb ham yuritilgan) imperiya va xonlik o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish hamda xon hukumati faoliyatini nazorat



qilish uchun 7 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi. Kengash a'zolarining 4 nafari chor hukumati vakillaridan va nafari xivaliklardan (xon, mextar va devonbegi) iborat bo'ldi. Uning raisi rasman xon hisoblanib, qabul qilgan qarorlari Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlangan.

Xon o'z hokimiyatini amalga oshirish uchun ilgarigi davrlardan beri faoliyat ko'rsatib kelayotgan o'zi tashkil etuvchi davlat apparatiga tayangan. Xonlikdagi oliy organlar faoliyati va vakolati XIX asr 70-yillarigacha to'la ilgari asos va yo'sinlar bo'yicha amalga oshdi. Xiva xonligi yarim mustamlakaga aylangan 1873-yildan boshlab esa chorizmning Rossiya ichki va tashqi siyosatini ifodalovchi oliy organlari vakolatining Xivada ham ustun mavqega egaligi va davlat tuzumining o'zgarishi xonlar vakolatini chegaralab qo'ydi. Xonlikda vaqtincha bo'lsa-da, Rossiya va Xiva Qo'shma kengashi (Devon)ning faoliyat ko'rsatishi, bojxona ittifoqiga qo'shilish, Rossiya talablari bo'yicha Manifestlar chiqarish (garchi ular hayotga to'liq tatbiq qilinmasa ham), Amudaryo bo'limi nazorati, Turkiston general-gubernatorligiga qarashli mirovoy sudlarning Xorazm hududida sodir etilgan jinoyatlarni ham tekshirish huquqiga egaligi yoki xonlikdagi Rossiya fuqarolarining (bunday fuqarolikni ko'plab xorazmliklar ham ola boshlagandi) ishlari fuqarolik sudlarida ko'rilishi kabilar ana shunday cheklanishlar hisoblanadi. Biroq xonlikdagi oliy organlar xonlik tashqi siyosiy kuch – 1920-yil fevralida Rossiya bolshevik hukumati harbiy tazyiqi tomonidan tugatilgunicha mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, diniy-ma'muriy va madaniy hayotini o'z qaror va faoliyatlari bilan idora etib turdi. Muhammad Rahimxon II, Isfandiyorxon va Sayyid Abdulloxon tomonidan chiqarilib, bizgacha yetib kelgan bu sohaga oid farmon, qaror va manifest kabi ko'plab tarixiy hujjatlar bunga guvohlik beradi.

Davlat boshqaruvida XX asr boshlariga kelib Vaziri a'zam va Yasovulboshining mavqei kuchayishi yuz beradi. Bu davrda xonlik harbiy jihatdan zaiflashib, hattoki ichki barqarorlikni ta'minlash uchun rus hukumatiga murojaat etish darajasiga tushiriladi.

XIX asr oxirlarida Xiva xonligi qo'shinlarida xizmat qiluvchi shomxolchilar hujjat va tarixiy manbalarda tilga olinadi. Shomxolchilar o't ochar qurol (to'fang)li sarbozlar bo'lib, ular oz miqdordagi doimiy qo'shin tarkibida yuzboshilar qo'li ostida xizmat qilib, davlatdan maosh olganlar.

Vassallik davrida Buxoro amirligidagi singari o'troq aholi hududlarida shariat qonunlari, ko'chmanchi aholi hududlarida odat qoidalari amal qilgan.

Sulh shartnomasiga muvofiq, xonlik hududida yashovchi rus fuqarolari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, ular o'rtasida yuzaga kelgan nizolar, mahalliy aholining rus fuqarolariga nisbatan shikoyatlari imperiya qonunlari asosida rus sudlari tomonidan Amudaryo bo'limida ko'rib chiqilgan.

Qozilar uchun asosiy qo'llanma 1178-yili buyuk islom olimi faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy ar-Rishdoniy al-Marg'inoniy (1123–1197-y.) tomonidan yaratilgan islom huquqshunosligining eng asosiy qo'llanmalaridan biri «Hidoya» asari bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida hozirgi O'zbekiston doirasidagi mavjud siyosiy tarqoqlikdan foydalangan Rossiya podsholigi o'zining mustamlakachilik manfaatlaridan kelib chiqib, butun Turkistonni bosib oldi. Bu yerda Angliya mustamlakachilik tuzumidan farq qilmagan, ba'zan esa undan ham ziyodroq yarim harbiy, xalqlarni asoratda tutish tizimi o'rnatildi. Shu davrda imperiya huquqi, mahalliy xalqlar huquqlarini cheklashga qaratilgan mustamlaka huquqi, mahalliy xalqlar uchun shariat huquqi, qisman odat huquqlari amalda bo'ldi. Imperiya qonunchiligi bilan birga o'lkada Yevropa huquqining bank-kommersiya, veksel, kredit, tog'-konchilik huquqi, xususiy sohibkorlik huquqi kabi institutlari yoyiladi.

---

## **XV BOB. OKTABR TO‘NTARISHIDAN SO‘NG O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ**

### **1-§. XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududida davlat va huquq**

Chor Rossiyasida 1917-yilda yuz bergan fevral inqilobi va oktabr davlat to‘ntarishlari yangi hokimiyatni vujudga keltirdi. Oktabr oyida sotsialistik to‘ntarishning amalga oshirilishi va sovetlar hokimiyatining o‘rnatilishi chekka o‘lkalardagi norozilik harakatlarining yanada kuchayishiga sabab bo‘ldi. Inqilobdan so‘ng Turkistonda hokimiyatga da‘vogarlik qilganlarni uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) Rossiya muvaqqat hukumatining Turkistondagi siyosiy vakili; 2) inqilobdan so‘ng tashkil etilgan milliy-siyosiy kuchlar («Sho‘roi-islomiya» va boshq.); 3) o‘lka Sovetiga birlashgan barqaror bo‘lmagan boshqa kuchlar.

Bu vaziyatda, bir tomondan, milliy tashkilotlarning mavqei kuchli bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular hali bolsheviklar kabi yo‘lboshchilik darajasiga ko‘tarila olmagan edi. Shunga qaramasdan, ular hokimiyat tizimida o‘zlarining ma‘lum o‘rinlari bo‘lishiga da‘vogarlik qilardi. Lekin, butun hokimiyatni qo‘lga olishga botina olmaganlar. Shuni ta‘kidlash lozimki, Muvaqqat hukumat va uning Turkistondagi qo‘mitasi aholi o‘rtasida muayyan obro‘ orttirishga erishdi.

«Markaziy Sho‘roi Islomiya» tashabbusi bilan 1917-yilning 26-noyabrida Turkiston o‘lkasi musulmonlarining IV qurultoyi Qo‘qon shahrida o‘z ishini boshladi. Unda Turkiston o‘lkasining barcha mintaqalaridan va turli tashkilotlardan jamiyatning alohida tabaqalari manfaatlarini, irodasini aks ettiruvchi turli millatlar vakillari qatnashdilar. Sho‘roi islomiya, Sho‘roi ulamo, Musulmon harbiylari kengashi, O‘lka yahudiylari, Buxoro yahudiylar jamiyati va boshqalar shular jumlasidandir. Delegatlar kelishib bo‘lajak davlatni «Turkiston muxtoriyati» deb atashga qaror qildilar. Butun o‘lka Ta‘sis majlisida uzil-kesil davlat tashkil etilishi ta‘kidlanib, Muvaqqat kengash tuzildi.

Qurultoy tomonidan ishlab chiqilgan rezolyutsiyada Turkiston o‘lkasida yashovchi barcha millatlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqi belgilanib, Turkiston – Rossiya federativ-demokratik respublikasi tarkibidagi hududiy-muxtor Respublika deb e‘lon qilindi. Turkiston Ta‘sis majlisiga Turkiston muxtoriyati shaklini belgilash huquqi berildi. O‘lkani boshqarish va uning tuzilishi bo‘yicha quyidagilar taklif etildi: 1)

Muxtoriyatning Oliy organi – Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi; 2) Ta'sis majlisiga saylovning o'ziga xos (proporsional) alohida tizimini yo'lga qo'yish; 3) Muxtoriyatning oliy organlariga Rossiya vakillari va aksincha, Rossiya oliy organlariga muxtoriyat vakillaridan kiritish hamda Turkiston Muxtoriyati qonunlari Rossiya Federatsiyasi qonunlari hamda shariat normalari asosida qabul qilinishi taklif etilgan; 4) Turkiston Muxtoriyati o'zining qurolli kuchlari, militsiyasi, prokuraturasiga ega bo'lishi, qarshi tashqi tajovuz sodir bo'lgan taqdirda o'z o'zidan Rossiya harbiy qo'mondonligi ixtiyoriga o'tish va boshq.

Xalq komissarlari sovetining butun hokimiyatini Turkiston muvaqqat hukumati qo'lga to'laligicha topshirish talabi o'lkada yakka hokimiyat o'rnatmoqchi bo'lgan bolsheviklarni jiddiy sarosimaga solib qo'ydi. Shu boisdan ular Turkiston muxtoriyatini yo'q qilish maqsadida harbiy tajovuzni ishga solishga qaror qildi.

O'zbek xalqining mustaqillik uchun kurash tarixida 1918-yildan 1930-yillarning boshlarigacha davom etgan milliy ozodlik harakati alohida o'rin tutadi. Mazkur harakat jarayonida qator hujjatlar qabul qilingan bo'lib, bular orasida 1922-yilning 15–20 aprelida milliy-ozodlik harakati vakillari ishtirokida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining II qurultoyi tomonidan tasdiqlangan 36 moddadan iborat bo'lajak mustaqil Turkiston Respublikasining vaqtinchalik Konstitutsiyasi – Nizomnoma katta e'tiborga molikdir.

Undagi bosh masala – bu o'lkada bolsheviklar hukmronligiga barham berilganidan so'ng mustaqil Turk Islom Respublikasini tashkil qilish bo'lgan. Nizomnomaning umumiy mazmunidan kelib chiqib shuni qayd etish joizki, bu davlat boshqaruv shakliga ko'ra prezidentlik, davlat tuzilish shakli bo'yicha unitar, siyosiy rejim nuqtai nazaridan demokratik respublika bo'lishi kerak edi. Mafkura sohasida esa bu respublikada islom dini hukmronlik mavqeini egallashi ko'zda tutilgan (shu davrdagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra Turkiston aholisining 95 foizini musulmonlar tashkil qilgan). Diniy tolerantlik aks ettirilgan.

Nizomnomada Turkistonda yashovchi barcha xalqlarning nufuzi, dini va mazhabidan qat'i nazar ularning milliy va diniy urf-odatleri, marosimlari, an'analarini amalga oshirish va ularga rioya qilish, milliy madaniyatini rivojlantirish, o'z ona tilida bilim olishi uchun sharoit yaratilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, unda 15 kishidan iborat Muvaqqat hukumat – Vazirlar Mahkamasini tashkil qilishga e'tibor berilgan. Hukumatga qurultoy tomonidan saylanadigan prezident boshchilik qilishi belgilangan. Qurultoy tomonidan prezident, vitse-prezident va davlat

kotibidan iborat tarkibda ijroiya qo'mitasi tashkil qilinishi ham mustahkamlangan.

Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon va O'sh okruglarining harbiy komissarlarini, mudofaa, ichki ishlar, tashqi ishlar, pochta va telegraf, adliya, madaniyat, moliya, transport vazirlarining tayinlanishi ko'rsatilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan ushbu davlat organlari va mansabdor shaxslar o'z faoliyatini Turkistonda bolsheviklar hukmronligiga barham berilgandan so'ng chaqiriladigan navbatdagi qurultoygacha amalga oshirishlari ko'zda tutiladi.

Nizomnomada qayd qilinishicha, navbatdagi qurultoy vakillari 18 yoshga to'lgan fuqarolar tomonidan demokratik saylovlar asosida saylanadi. Vakillarning umumiy soni 5000 ta bo'lib, Turkistonda istiqomat qiluvchi barcha xalqlarning vakillari ularning soniga mutanosib holda saylanishi kerak. Qurultoy muvaqqat hukumat tomonidan chiqarilgan hujjatlarni, hukumat a'zolarini va boshqa mansabdor shaxslarni uzil-kesil tasdiqlaydi, yerdan foydalanish va boshqa respublika hayoti bilan bog'liq muhim masalalarni muhokama qiladi va hal etadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan shu narsa ayon bo'ladiki, ushbu Nizomnoma o'lkadagi milliy-ozodlik kurashi tarixida qabul qilingan muhim hujjatlardan biri bo'lib, unda kelajakda tashkil etilishi lozim bo'lgan Mustaqil Turkiston Respublikasining siyosiy, madaniy, iqtisodiy va huquqiy hayotining asosiy qoidalari o'z aksini topgan. Jamiyatni demokratik asosda qayta qurishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Kun tartibidagi vazifalar o'lka xalqlari ko'pchiligining o'sha davrdagi xohish-istagiga, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga mos kelgan.

*TASSRning tashkil topishi va uning siyosiy tuzumi.* 1917-yil martda Toshkent temir yo'l ishchilari, Toshkent garnizoni soldatlari va musulmon ishchi deputatlari sovetlari va dehqon deputatlari sovetlari tashkil etildi.

1917-yil 31 martda Toshkent ishchi va soldat deputatlari soveti general-gubernator Kuropatkin va uning yordamchisini lavozimdan chetlatadi. General gubernatorlik esa muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti deb o'zgartiriladi. 1917-yil 7-apreldan boshlab komitet o'z majburiyatlarini bajarishga kirishadi.

1917-yil 7–15-aprelda Turkiston ishchi, soldat deputatlari sovetlari-ning I o'lka syezdi bo'lib o'tadi. Syezd muvaqqat hukumatni tuzishni yoqlab chiqadi hamda soldat va ishchi deputatlarining O'lka soveti saylanadi. Viloyat va uyezdlarda harbiy gubernator va uyezd boshliqlari



muvaqqat hukumatning ijroiya komitetlari bilan almashtiriladi. Samarqand va Fargʻonada bu komitetlar «Jamoat xavfsizligini saqlash komiteti» deb atalgan.

1917-yil 28-oktabrda oʻlkani boshqarish maqsadida 9 kishidan iborat Turkiston ijro qoʻmitasi tuziladi. Uning qoshida 22 kishidan iborat doimiy kengash mavjud boʻlib, uning funksiyalari aniq belgilanmagan.

1917-yil 2-noyabrda Turkiston oʻlka kengashi oʻz yigʻilishini oʻtkazadi va unda 9 ta tashkilotdan 30 vakil ishtirok etadi.

Ishchi va soldat deputatlarining III oʻlka syezdi 1917-yil 15 noyabrda ochildi va u tomonidan rezolyutsiya qabul qilindi. Rezolyutsiyaga koʻra oʻlkada oliy hokimiyat organi 15 ta aʼzodan iborat Xalq komissarlari soveti deb ataluvchi ishchi, soldat va dehqonlar deputatlarining oʻlka kengashi hisoblangan. Kengash ishchi, soldat va dehqon deputatlarining syezdi va musulmon ishchi-mehnatkash tashkilotlari oldida javobgar boʻlgan. Xalq komissarlari sovetining prezidiumi mavjud boʻlib, u rais, oʻrinbosarlar va kotibdan iborat boʻlgan. 1917-yil 8-dekabrda Xalq komissarlari soveti devonxonasi tashkil etilgan.

Oʻz vakolati boʻyicha Xalq komissarlari soveti tarkibidagi Xalq komissarlari xalq xoʻjaligining yoʻl, pochta va telegraf, adliya, xalq maorifi, oziq-ovqat, suvdan foydalanish, fuqaro-maʼmuriy qism, moliya, tashqi ishlar, harbiy ishlar, savdo va sanoat ishlari boʻyicha, mehnat, xalq sogʻligʻini saqlash va dehqonchilik sohalarini boshqargan. Xalq komissarlari oʻz faoliyati davomida Xalq komissarlari soveti oldida javobgar hisoblangan.

1917-yil 12-dekabrda XKS buyruq chiqarib, unda Rossiya sudlar toʻgʻrisidagi dekreti matni eʼlon qilindi. Eski sudlar bekor qilindi va oʻrniga yangi sovet sudlari tashkil etildi. Kontrevolutsiya, sabotaj, spekulyatsiya jinoyatlarini koʻruvchi tribunallar ham joriy etildi. Ishchi militsiyalari toʻgʻrisida NKVD qaror chiqardi. Ularning vazifasi tartibni himoya qilish, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini taʼminlashdan iborat deb belgilandi. 1918-yil mart oyidan Favqulodda komissiya (CHK) tashkil etildi.

1918-yil 20-aprelda V oʻlka syezdi tomonidan Rossiya federatsiyasi-ning «Turkiston Sovet respublikasi toʻgʻrisida Nizomnoma (Konstitutsiya)» qabul qilindi. Unga koʻra oliy qonunchilik organi boʻlib Turkiston ishchi, soldat, dehqon va musulmon-dehqonlari deputatlari syezdi, syezdlar oraligʻidagi davrda esa Markaziy ijroiya qoʻmitasi oliy hokimiyat organi hisoblangan. Markaziy ijroiya qoʻmitasi tarkibi 36 nafar

a'zodan iborat bo'ldi. Xalq komissarlari soveti – davlat boshqaruv organi qilib o'zgartirildi.

O'lkaga Rossiya Federatsiyasining Muxtor respublikasi maqomi berildi. Konstitutsiya orqali yangi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzumni mustahkamlash zarur edi. Turkiston ASSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan maxsus Konstitutsion romissiya tomonidan tuzilib, Turkiston sovetlarining VI syezdida muhokama etildi. Mazkur syezd 1918-yilning 15 oktabrida TASSRning konstitutsiyasini tasdiqladi.

Lekin, ushbu Konstitutsiya markaz tomonidan tasdiqlanmadi. Rossiya kommunistik bolsheviklar partiyasining fikricha, Turkiston o'lkasi Rossiya federatsiyasi doirasida muxtor respublika bo'lib qolishi kerak edi.

Rossiya kommunistik (bolsheviklar) partiyasi Markaziy Komitetining siyosiy byurosi tomonidan qabul qilingan Turkiston Respublikasi to'g'risidagi barcha konstitutsiyaviy hujjatlarda uni Rossiya tarkibida avtonom respublika shaklida saqlash g'oyasi yoqlab chiqilgan. Turkiston o'lkasi mustamlakachilikning yangi «sovet» ko'rinishi bilan chirmab olingan.

Konstitutsiya olti bo'lim va 60 paragrafdan iborat edi. Asosiy Qonunning dastlabki ikkita bo'limi (1-bo'limi «Mehnatkash va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi», 2-bo'limi «RSFSR Konstitutsiyasining asosiy holatlari») rahbar moddalar sifatida RSFSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasidan to'liq ko'chirib olingandi.

Turkiston xalqi o'z Sovetlarining V syezdi orqali o'zlari egallab turgan viloyatlarni Rossiya Federatsiyasining Turkiston Muxtor Respublikasi deb e'lon qildi. 1920-yilgi konstitutsiya qabul qilinguncha TASSR tarkibida Sirdaryo, Yettisuv, Farg'ona, Kaspiy orti, Samarqand viloyatlari bo'lgan. Konstitutsiya Turkiston o'lkasining markazdan uzoqligi, hududining kengligi, etnografik, topografik va turmush sharoitlarini hisobga olib Turkiston respublikasining qator mustaqil huquqlarini o'rnatgan.

Konstitutsiyaga ko'ra butun hokimiyat ishchi, soldat va dehqon Sovetlarning Turkiston syezdiga tegishli edi. Unda 25 ming aholidan deputatlar 1 deputat miqdorida saylangan. Umumturkiston syezdi yilda ikki martadan kam bo'lmagan miqdorda chaqirilishi kerak edi. Markaziy ijroiya qo'mitasi syezdlar orasida ish olib borgan. Markaziy ijroiya qo'mitasi 75 nafar a'zodan iborat bo'lgan. Uning tashkil etilgan Prezidiumi o'rnida keyinchalik katta va kichik Prezidiumlar tashkil etilgan.

TASSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi quyidagi Xalq komissarliklarini oʻrnatgan: 1) tashqi ishlar; 2) harbiy ishlar; 3) ichki ishlar; 4) adliya; 5) mehnat va ijtimoiy taʼminot; 6) maorif; 7) pochta va telegraf; 8) moliya; 9) temir yoʻl; 10) dehqonchilik; 11) oziq-ovqat; 12) davlat nazorati; 13) millatlar ishlari; 14) sogʻliqni saqlash; 15) Xalq xoʻjaligi markaziy kengashi.

Respublikada mahalliy davlat hokimiyati organlari boʻlib, ishchi, soldat va dehqon deputatlarning Sovetlari hisoblangan. Viloyatlar uyezd, volost, shahar, qishloq va ovullarga boʻlingan. Viloyat sovetlari 25 kishidan iborat boʻlgan ijro qoʻmitalarini saylaganlar. Volost syezdlari 10000 aholidan 1 deputatni, shahar sovetlari va fabrika-zavod posyolkalari 2000 aholidan 1 deputatni delegat qilib joʻnatishgan. Syezdlar orasida viloyat ijro qoʻmitasi davlat hokimiyat organi boʻlgan. Doimiy ishlash uchun viloyat ijro qoʻmitasining Prezidiumi 3–5 kishidan iborat tuzilgan. Tuman va shahar ijro qoʻmitalari ham tuzilgan boʻlib, ular nazorat va reviziya qilish, kengashlarni tarqatib yuborish vakolatiga ega boʻlgan.

Uyezd syezdlariga shahar va qishloq syezdlari tomonidan deputatlar 2000 aholidan 1 deputat, volost syezdlariga qishloq sovetlari tomonidan 10 sovet aʼzosidan 1 deputat miqdorida saylangan. 1920-yilgi Konstitutsiyaga koʻra, uyezd syezdlariga 1000 aholidan 1 deputat miqdorida, ishchi posyolkalari esa 200 aholidan 1 deputat miqdorida saylangan. Uyezd, shahar sovetlari oʻzlarining ijro qoʻmitalari va boʻlimlariga ega boʻlib, qishloq va ovul ijro qoʻmitalari boʻlimlariga ega boʻlmagan.

1922-yilda Markaziy ijroiya qoʻmitasi «Turk respublikasining musulmon xalq sudlari toʻgʻrisida Nizom» qabul qiladi. Unga binoan musulmon sudlari yana qaytadan tiklandi. Ular tarkibiga saylanadigan xalq sudlari kirib, aholi tomonidan 1 yil muddatga saylangan. Sudlar shariat qonunlariga asoslanib ish koʻrishgan. Agarda hukmlar sovet qonunlariga zid boʻlsa, u bekor qilingan.

Turkiston ASSRning yangi konstitutsiyasi 1920-yilning 24-sentabrida TASSR Sovetlarining IX syezdida qabul qilindi. U 1920-yilning 14-sentabrida RSFSR BMIQ tomonidan tasdiqlangan «RSFSRning avtonom qismi sifatida Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi toʻgʻrisida»gi qaroriga mos holda yaratilgan. Konstitutsiyaning tuzilishi 6 boʻlim, 20 bob, 109 moddadan iborat boʻlib, 1918-yilgi Konstitutsiyadan deyarli farq qilmagan.

TASSR va RSFSRning oʻzaro munosabatlari Konstitutsiyaning 3-boʻlimida oʻz aksini topgandi. Bu boʻlimda ham 1920-yilning 14-sentabrida RSFSR BMIQ tomonidan tasdiqlangan «RSFSRning avtonom

qismi sifatida Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi to'g'risida»gi qarori matn bo'yicha aks ettirilgan. Umuman olganda, Mazkur 1920-yilgi Konstitutsiya Rossiya kommunistik partiyasi rahbarlarining maqsadiga mos kelgan va Moskva tomonidan tasdiqlangan. Shu tariqa Turkiston o'lkasi o'zining ko'zga ko'rinmas suveren huquqlaridan mahrum etiladi.

***Ichki ishlar organlari.*** Bolsheviklar Turkiston o'lkasida hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga kiritgandan keyin, mamlakatda yangi tuzumni muhofaza etish uchun ichki ishlar organlari tuzishni maqsad qilib qo'ydi. Turkiston Xalq komissarlari soveti RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1917-yil 28-oktabrdagi «Ishchi militsiyasi to'g'risida»gi qaroriga asosan, 1918-yil 29-yanvarda «Zahira kadrlari yaratish va militsiya tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'ini e'lon qilgan.

Yangi militsiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlash ishiga rahbarlik qilish uchun 1918-yil 30-yanvarda «Turkiston o'lkasi shahar va tumanlari militsiya inspektorlari boshqarmasi» tashkil etilgan. Boshqarmaning ish yuritish bo'limini (kanselariya) tashkil etish va qisqa muddatlarda militsiyaning oddiy xodimlari va komandirlarini tayyorlaydigan kurslar yaratish ham unga topshirildi. Inspektor o'lka hududi doirasida militsiyaga umumiy rahbarlikni amalga oshirgan. Militsiya muassasalarini tekshirgan va taftish qilgan. Militsiya xodimlarining bir viloyatdan ikkinchisiga o'tishlarini hal qilgan.

1918-yilning fevral oyida barcha tuman, shahar hamda bo'lislarda militsiya idoralarini tashkil etish boshlangan. Turkiston o'lkasida militsiya kadrlarini tashkil etishga ma'lum tayyorgarlik ishlari ko'rilgan. 1918-yil 28-yanvarda Turkiston o'lkasi militsiyasini kadrlar bilan to'ldirish yuzasidan kengash bo'lib o'tadi. Kengashda «Turkiston o'lkasi shahar va tumanlari uchun militsiya kadrlarini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom loyihasi muhokama qilingan.

1918-yil 4-martda «Turkiston o'lkasi militsiya kadri Ustavi» tasdiqlandi. Ustavda «militsiya kadri»ga militsiyaga yordam kerak bo'lib qolgan taqdirda chaqiriladigan zahira, deb ta'rif berildi. Ustavga ko'ra, militsiya kadriga 21 yoshga to'lgan va 45 yoshdan katta bo'lmagan, savodli fuqarolar qabul qilingan. Ustavda ishga qabul qilinuvchilarning axloqiy-ma'naviy xislatlariga e'tibor berish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, ular ikki oylik nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib boriluvchi tayyorlov kurslarida ham o'qishlari lozim bo'lgan.

«Militsiya kadri» kundalik jamoat tartibini saqlashda, shuningdek favqulodda holatlar yuz bergan hollarda jamoat tartibini saqlashda ishtirok etgan.



1918-yilda «Sovet ishchi-dehqon militsiyasi xizmatchilari uchun intizom Ustavi» qabul qilinadi. Unga ko‘ra militsiya xodimi faqat sud hukmiga ko‘ra yoki ustavda belgilangan tartibga binoan jazolanishi mumkin bo‘lgan. Ularga nisbatan ogohlantirish, hayfsan e‘lon qilish, egallab turgan lavozimidan bir pog‘ona pasaytirish, ishdan bo‘shatish kabi intizomiy va ma‘muriy jazo choralari nazarda tutilgan.

Turkiston avtonom SSR Xalq komissarlari soveti 1918-yil 2-noyabrda 355-sonli buyruq chiqarib, uchastka militsiyalari rahbarlari lavozimlariga saylovni bekor qildi. Shu paytdan boshlab ular saylanmaydigan, balki tayinlanadigan bo‘lgan.

Joylarda militsiya faoliyatini tashkil etishdagi mavjud muammolar maxsus tayyorgarlik ko‘rgan rahbar xodimlarni hamda respublika militsiyasi ma‘muriyatining mavqei hamda vakolatlarini mustahkamlashni talab qilgan. Ichki ishlar komissarligi qoshida 1918-yil 26 noyabrda bo‘lib o‘tgan kengash militsiya instruktorlarining ikki bo‘limdan iborat maktabini yaratish to‘g‘risidagi taklifni ma‘qullaydi. Ularning birida oddiy militsiya instruktorlari, ikkinchisida jinoyat qidiruv militsiyasi instruktorlari tayyorlangan. Shu yilning 2-dekabrida ushbu kurslar to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

Ichki ishlar komissarligi militsiya boshliqlari hamda ijroqo‘mlarining bo‘lim mudirlaridan poraxo‘rlik, mushtumzo‘rlik va boshqa qonunbuzarliklarda fosh qilingan yoki shubhalanilgan shaxslarni, ilgari politsiyada ishlagan barcha kimsalarni militsiyadan darhol bo‘shatib yuborishlarini talab qildi. Davlat to‘ntarishidan ilgarigi vaqtda politsiyada xizmat qilgan mahalliy millat vakillari hamda jinoiy qidiruv bo‘limining ayg‘oqchilari (operativ xodimlari), agar sovet militsiyasi safida vijdonan ishlayotgan bo‘lsa, ular bundan mustasno qilingan. Buni faqat militsiya Bosh boshqarmasining boshlig‘i ijroqo‘mlar (revqo‘mlar) tavsiyanomalariga ko‘ra hal etishi mumkin edi. Bu esa jinoyat qidiruv bo‘limining o‘ziga xos ish uslubi hamda mahalliy millat vakillari orasida tayyorgarlik ko‘rgan kadrlar yo‘qligi bilan izohlanadi.

Kengash viloyat va tuman militsiya boshqarmalari qoshida shaxsiy tarkibni attestatsiyadan o‘tkazuvchi maxsus komissiyalarni tuzish, militsiya boshliqlarining siyosiy, ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlarini ta‘sis etish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Turkiston Respublikasi Sovetlarining IX syezdi qarorida respublikani boshqarishga mahalliy millat vakillarini jalb etish muhimligi ta‘kidlab o‘tildi. Ushbu qarorga amal qilib, Turkiston Respublikasi militsiyasi Bosh boshqarmasi boshlig‘i 1921-yil 6-martda kasaba uyushmalari kengashiga



murojaat qilib militsiya boshqarmasi ixtiyoriga mahalliy millat vakillari bo'lgan 1000 nafar kasaba uyushmalari a'zolarini yuborishni so'raydi.

1922-yil 26-yanvarda Turkiston Respublikasi militsiyasi bo'yicha buyruq e'lon qilindi. Unda militsiya organlariga qabul qilishning yangi qoidalari ko'rsatildi. Militsiyani shakllantirishga ixtiyoriylik asos qilib olingan. Militsiyaga 21 yoshdan kichik bo'lmagan, savodli, saylash huquqiga ega, sog'lom va militsiya xizmatiga yaroqli, haqiqiy harbiy xizmatni bajarmayotgan fuqarolar qabul qilina boshlangan. Ishga qabul qilish qoidalarida militsiya xodimlari uchun majburiy harbiy ta'lim ko'zda tutilgan. Tayyorgarlik davrida militsiya xodimlari vzvodlar, rotalar va yarim eskadronlarga taqsimlangan. Zarur hollarda kazarma holatida yashaydigan va rota hamda eskadronni katta bo'lmagan harbiy bo'linmalarga birlashtirgan militsiya rezervini yaratishga ruxsat berilgan.

Turkistonda ishchi-dehqon militsiyasining yangi organlarini yaratish 1918-yil fevralda Turkiston Xalq komissarlari sovetining «Militsiyaning zaxira kadrini tashkil etish va militsiyani qayta qurish to'g'risida»gi buyrug'i e'lon qilingandan so'ng rejali tus olib, 1918-yilning birinchi yarmida deyarli tugallangan.

1918-yilning yozida Turkiston Sovet Rossiyasidan ajratib qo'yildi. Ammo ko'p millatli Turkiston Sovet Avtonom Respublikasi taraqqiy etishda davom etadi va shu yilning oktabr oyida uning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinadi.

1918-yil dekabrda «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasi militsiyasi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqilib, Turkiston ASSR MIQ tomonidan tasdiqlandi.

Ichki va tashqi ishlar xalq komissari hamda uning qoshidagi hay'at respublika militsiyasiga umumiy rahbarlikni amalga oshirgan. Respublika militsiyasining Bosh instruktori militsiya ishlari bilan bevosita shug'ullangan. U o'z mahkamasi bilan Ichki va tashqi ishlar xalq komissarligi tarkibiga kiritilgan.

Joylarda militsiyaga shahar va tuman muhofazasi boshliqlari rahbarlik qilgan. Ular va ularning yordamchilarini Sovetlar ichki va tashqi ishlar xalq komissarining roziligi bilan tayinlagan. Shahar va tuman rayon militsiyalarini tuzishgan. Rayon militsiyasining tarkibini Sovetning roziligi bilan shahar yoki tuman muhofazasi bo'limi boshlig'i tayinlagan.

Turkiston ASSR militsiyasini tashkil etishda Rossiya militsiyasining tashkiliy jihatlari asos qilib olingan. 1919-yil aprelda Turkiston ASSR ichki ishlar xalq komissarligi tarkibida respublika militsiyasi ishiga rahbarlik qiladigan Bosh boshqarma ta'sis etilgan. 1919-yil 26-iyunda

Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligi «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasidagi sovet ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risida Nizom» qabul qildi. Nizom shahar, tuman, qidiruv va temir yo'l militsiyasini militsiya Bosh boshqarmasiga bo'ysundirib, ularning vakolatlari va rolini belgiladi.

1919-yilning iyul oyida «Turkiston Avtonom SSRda jinoiy qidiruvni tashkil etish to'g'risida Nizom» qabul qilindi. Unda Respublika militsiyasi Bosh boshqarmasi qoshida jinoiy qidiruv markaziy boshqarmasi, joylarda jinoiy qidiruv bo'linmalari tashkil qilinishi belgilandi. Militsiyaning Sovetlar bilan aloqasi yanada mustahkamlandi. Shahar va tumanlar muhofazasi boshliqlari endi militsiya boshliqlari deb ataladigan bo'ldi. Ularning hammasi Ichki ishlar xalq komissarligi tasdig'i bilan Sovetlarning ijroqo'mlari tomonidan lavozimga tayinlangan va ishdan bo'shatilgan. Militsiyani kadrlar bilan to'ldirish sinfiy negizda, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi va AXK tomonidan 1918-yil 12-oktabrda qabul qilingan «Sovet ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish to'g'risida»gi ko'rsatmalar asosida amalga oshirilgan.

RSFSR Xalq komissarlari sovetining 1919-yil 3-apreldagi dekretiga muvofiq 1919-yilning oktabrida Turkiston militsiyasi Qizil Armiya holatiga o'tkazildi.

Turkiston ASSR Xalq komissarlari soveti 1920-yilning aprelida «Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risida Nizom» qabul qildi. Respublika militsiyasi tarkibi IIXK qoshidagi Bosh boshqarma, viloyat revqo'mlari va ijroqo'mlari boshqaruv bo'limlari qoshidagi viloyat boshqarmalari, tuman va shahar revqo'mlari hamda ijroqo'mlari boshqaruv bo'limlari qoshidagi tuman va shahar boshqarmalaridan tashkil topgan. 1920-yilning oxiriga kelib Turkiston ASSR hududida 34 ta shahar, 26 ta tuman va 92 ta rayon militsiya bo'limlari mavjud bo'lgan.

1922-yil 12-fevralda Turkiston respublikasi Xalq Komissarlari Soveti qaror qabul qildi. U ko'ngilli militsiya o'tradlari tuzish huquqini mahalliy ijroqo'mlarga berdi hamda «bosqinchilik bilan muvaffaqiyatli kurashish va jamoat tartibini o'rnatish uchun» shiori ostida ushbu o'tradlardagi kadrlar miqdorini har bir rayon uchun zarur bo'lgan songacha yetkazishga ruxsat berdi. Ko'ngilli militsiyaga bosqinchilik va uning ko'rinishlariga qarshi kurash vazifasi yuklatilib, u umumfuqaroviy militsiya vazifalaridan ozod qilindi.

Ko'ngilli militsiya mahalliy ijroqo'mlarga bo'ysungan. 1922-yil 25-martda respublika Ichki ishlar xalq komissari Xalq komissarlari sovetiga «Zarur bo'lgan rayonlarda aholining o'zi o'z hisobiga militsiyaning

ko'ngilli otradlarini tuzayotganligi va buning uchun mas'uliyat to'la-to'kis viloyat va tuman ijroqo'mlariga yuklatilganligini» ma'lum qilgan.

Kichik XKS shu kunning o'zidayoq Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining ko'ngilli militsiya tashkil etilishi to'g'risidagi 12 fevral qarorini tasdiqladi. Unda shunday deb yozilgan edi: «Bosqinchilikka qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida aholi orasidan ko'ngilli otradlar tuzishga ruxsat berilsin va ko'ngilli militsiya otradlarini tuzishning tartibi va shartlari to'g'risida Ichki ishlar xalq komissarligi loyihasi tasdiqlanib e'lon qilinsin». 4 aprelda Turkiston respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining qarori qabul qilindi. Unda ko'ngilli militsiya otradlari tuzishga mas'ul bo'lgan idoralar belgilandi. Otradlarning kimga bo'ysunishi hamda vazifalari ko'rsatilgan, otradlar tuzish uchun ijroqo'mlar beradigan buyurtmalarni taqdim etish tartibi aniqlangan edi. Ko'ngilli militsiyani tuzish tuman ijroiya qo'mitalari va tuman-shahar militsiyasi boshliqlari rahbarligida firqa va kasaba uyushmalari tashkilotlari ishtirokida o'tkazildi.

Ko'ngilli militsiya otradlari shahar militsiyasi boshlig'iga bo'ysunib, undan faqat bosqinchilikka qarshi kurashda foydalanilgan. Ichki xizmatni bajarishga jalb etilmagan. Ko'ngilli militsiyani uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, maosh, ot-abzal bilan ta'minlash mahalliy ijroiya qo'mitasi belgilagan tartibda va rayon aholisi hisobiga amalga oshirilgan.

Ko'ngilli militsiya otradlari ehtiyojlari uchun qurol-yarog' va o'q-dori viloyat ijroiya qo'mitalarining talabiga ko'ra harbiy idoralar tomonidan yetarli miqdorda berilardi, ayrim militsiya xodimlariga esa moddiy javobgarlik ostida qurol topshirilgan.

Ko'ngilli militsiyaning shaxsiy tarkibi ma'muriy tomondan tegishli militsiya boshlig'iga, operativ tomondan o'z qo'mondonligiga bo'ysungan. Siyosiy va madaniy-ma'rifiy ishlarga, harbiy tayyorgarlikka rahbarlik qilish, intizomni mustahkamlash, ta'minot haqida g'amxo'rlik qilish, kadrlar bilan to'ldirish militsiya boshliqlari zimmasiga yuklatilgan edi. Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining komissiyasi Turkman viloyatida vaziyat murakkablashganini hisobga olib 1923-yil 2-martda maxsus qaror qabul qildi.

Turkman viloyati ijroiya qo'mitasi «Sayyor otrad to'g'risida»gi Nizomni ishlab chiqadi va ma'qullaydi. Sayyor otrad o'z tarkibi, ichki tartibi, shaxsiy tarkibning huquq hamda vazifalariga ko'ra Qizil Armiya otliq eskadroni huquqiga ega bo'lgan alohida qismdan iborat edi. U viloyat ijroiya qo'mitasiga bo'ysunardi. Ijroqo'm sayyor otradiga yuboradigan buyruqlarini harbiy qo'mondonlik bilan kelishishi lozim

bo'lgan. Harbiy qo'mondonlik esa o'tradga ko'riladigan tadbirlarning joyi va tartibi to'g'risida umumiy ko'rsatmalar bergan.

Sayyor o'trad o'z operativ ishlarini tuman ijroiya qo'mitasi, davlat va jamoat xavfsizligini muhofaza qiladigan boshqa organlar bilan kelishgan holda o'tkazgan. O'trad komandiriga ko'ngilli militsiyaning barcha o'tradlari hamda mazkur rayon davlat militsiyasining otliq rezervi bo'ysungan. Unga 21 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan kishilar qabul qilinardi. Qabul qilinayotganlardan shaxsiy hujjat, tuman yoki bo'lis ijroiya qo'mitalaridan tavsiyanoma talab etilgan.

O'tradga kirayotgan har bir kishi unda kamida olti oy xizmat qilishga tantanali qasamyod qilardi. O'tradga o'z oti bilan kelganlarga maoshdan tashqari alohida pul berilgan. Agar ot xizmat paytida halok bo'lsa, uning uchun tovon to'langan. Sayyor o'trad o'zining gerbli muhri va bayrog'iga (tug'iga) ega bo'lgan.

1924-yil 19-mayda Xalq Komissarlari Kichik sovetining 1 oktabrgacha butun respublikada ko'ngilli militsiya bo'linmalarini tugatish haqidagi qarori qabul qilindi.

1921-yil 24-mayda Xalq Komissarlari Soveti qarori bilan militsiyaga harbiy kooperatsiya huquqi berildi. Shu munosabat bilan barcha guberniya va respublikalarda militsiya kooperativlari tashkil etildi.

Turkiston ishchi-dehqon militsiyasi o'z faoliyati davomida davlat mulki, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini, inqilobiy huquq-tartibotga rioya qilinishini ta'minladi. Markaziy va mahalliy Sovet hokimiyati organlarining dekretlari, qarorlari, farmoyishlarini hayotga faol tatbiq etdi. Shuningdek, Sovet davlati oldida turgan turli muammolarni hal etishda qatnashdi. Sovet hokimiyatining dastlabki-yillarida militsiya bajargan vazifalar naqadar xilma-xil bo'lganligini bir necha misollar orqali baholash mumkin. Jumladan, bo'lis va qishloq ijroqo'mlari uchun Qo'qon inqilob qo'mitasi tasdiqlagan ko'rsatmada, shunday deyilgan edi:

«Rayon hududidagi militsiya shu rayon ijroiya qo'mitasiga bo'ysunadi. Ijroiya qo'mitasi hokimiyatning barcha buyruq va farmoyishlarini militsiya orqali e'lon qiladi va militsiya orqali tamaki, gugurt, sovun, shoyi, charm, metallar, gazmol, paxta singari monopolashtirilgan mollar bilan savdo qilinmasligini nazorat etadi. Bu mollar Oziq-ovqat o'tradlari qoshidagi Xalq xo'jaligi soveti hisobiga kelib tushadi va aholi orasida faqat kooperativlar orqali taqsimlanadi. Agar harbiy hokimiyat safarbarlik e'lon qilsa, ijroiya qo'mitalar militsiya yordamida ushbu buyruqning aholi tomonidan bajarilishini kuzatib

boradi. Ijroiya qo'mitalari militsiya yordamida yaramas mashg'ulotlar: uzumdan musallas tayyorlash, ichkilikbozlik qilish, qimor o'ynash, pora olish bilan shug'ullanishga yo'l qo'ymaslik uchun zarur chora-tadbirlar ko'rishi va aybdorlarni tuman, shahar favqulodda komissiyasiga, o'g'irlik va zo'ravonlik qilganlarni esa tegishli bayonnoma bilan xalq sudiga yuborishlari kerak. Ijroiya qo'mitalar va militsiya yo'llar, ko'priklar, xalq maktablari va hammomlar bekami-ko'st ishlashini, jamoat va davlat binolari va mulki but saqlanishini nazorat qilishlari darkor». Demak, militsiya amalda har bir masalalarni hal qilishda ishtirok etardi.

Turkiston respublikasi Markaziy ijroiya qo'mitasi 1918-yil 30-dekabrda ocharchilikka qarshi kurash, och qolganlarni oziq-ovqat ulashiladigan joylarga olib borishda mahalliy komissiyalarga har tomonlama yordam ko'rsatishni militsiyaga topshirdi.

Davlatga qarashli polizlar, bog'lar va boshqa ekinzorlarni chorva mollari tomonidan nobud qilinishiga qarshi kurash olib borish, odamlarning mollarni u yerdan bu yerga olib o'tishlarini nazorat qilish ham militsiya zimmasiga yuklatilgan edi.

Turkiston respublikasi Ichki ishlar xalq komissarligining farmoyishiga binoan militsiya arxiv hujjatlarini qo'riqlashda arxiv idoralariga yordam bergan.

Savdogarlar va sanoatchilarda patentlar bor-yo'qligini nazorat qilish va kasbi-kor solig'ini yig'ishda moliya idoralariga ko'maklashish ham militsiyaga topshirilgan.

1923-yil 13-yanvarda Turkiston respublikasi militsiyasining boshlig'i militsiya idoralariga aholini qaytadan ro'yxatga olishda harbiy komissarliklarga yordam ko'rsatish haqida farmoyish berdi. Militsiya zimmasiga xalq sudlarining ijro varaqalariga binoan jarimalar olish, o'rmonlar haqidagi qonunlarni buzganlik uchun chora ko'rish va boshqa ko'plab vazifalar ham yuklatilgan.

1921-yildan boshlab militsiya zimmasiga oziq-ovqat va boshqa mollar saqlanadigan omborlar, suv va temir yo'llarda tashiladigan oziq-ovqat va boshqa qimmatbaho yuklarni qo'riqlash kabi garnizon xizmatining bir qismi yuklatilgan. Militsiya xodimlarining alohida komandalari oziq-ovqat olib o'tiladigan yo'llar va shunday mahsulotlar yuklangan temiryo'l vagonlarini qo'riqlash bilan shug'ullangan.

1923-yilda Qizil Armiyaning tarkibiy miqdori va unda xizmat qilish muddatlari qisqartirildi, armiyaga chaqirish va chaqiriluvchilarga harbiy ta'lim berishning muntazam muddatlari belgilandi. Aholining chaqiruv yoshiga yetgan qismini harbiy tayyorgarlikdan o'tkazish ishlari umumiy



harbiy ta'lim tizimida olib borilgan. Militsiya harbiy xizmatga chaqirilishdan oldingi tayyorgarlikni tashkil etishda amaliy yordam bergan.

Militsiya organlarining faoliyati ko'p sonli vazifalarni bajarishning o'zi bilangina cheklanmasdi. Militsiya Favqulodda komissiya bilan birga chayqovchilar, kafando'zlar, ishbuzarmonlar va mansabdorlik jinoyatlariga qarshi kurash ham olib borgan.

1918-yil 23-noyabrda Turkiston MIQ buyrug'i bilan O'lka Favqulodda Taftish komissiyasi tashkil etilganligi e'lon qilindi. Ichki ishlar xalq komissarligining 1919-yil 17-yanvarda e'lon qilgan buyrug'ida shunday deyilgan edi: «Turkiston Sovetlari Markaziy ijroiya qo'mitalari qoshida kontrrevolutsiya, chayqovchilik va kafando'zlikka qarshi kurash bo'yicha O'lka favqulodda taftish komissiyasi tuzildi. Respublika militsiyasining mahalliy bo'limlari mudirlari, xodimlariga mazkur komissiyaning farmoyishlarini so'zsiz bajarishni taklif qilaman».

Sovet Turkistoni militsiyasining asosiy vazifalaridan biri jinoyatchilikka qarshi kurash edi. Inqilobga qadar jinoyatchilikka (kriminal deb ataluvchi) qarshi kurash Asxabad, Vernyy (hozirgi Olmaota) Toshkent, Skobelsv (hozirgi Farg'ona) va Samarqanddagi beshta surishtiruv bo'linmalari tomonidan olib borilar edi.

Turkiston o'lkasida Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin boshqa zulm o'tkazish idoralari bilan birga surishtiruv organlari ham bekor qilindi. Jinoyatchilikka qarshi kurash vazifasi jinoiy qidiruv deb nom olgan yangi idora zimmasiga yuklandi. RSFSR hududida jinoiy qidiruv organlari yangi davlat hokimiyatining yagona va to'la huquqli namoyondasi bo'lgan mahalliy Sovetlar ixtiyoriga ko'ra 1918-yildan boshlab shahar militsiya boshqarmalari (jinoiy qidiruv qismi) qoshida tashkil etildi. Turkiston respublikasida jinoiy qidiruv idoralarini tashkil etish birmuncha kechroq yuz berdi.

1918-yil 5 oktabrda RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi hay'ati «Jinoiy qidiruv bo'limini tashkil etish to'g'risida» Nizom qabul qilib, jinoiy qidiruv organlarining tarkibi va vazifalarini belgilagan.

1919-yil 7-iyunda Turkiston ASSR Xalq komissarlari soveti Ichki ishlar xalq komissarining ma'ruzasini tinglab qaror qabul qildi. Bu qarorga ko'ra, Ichki ishlar xalq komissari zarurat tug'ilganda respublika hududida qidiruv punktlarini ochishi mumkin edi. Jinoyat qidiruvni tashkil qilish to'g'risidagi Nizom Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi tomonidan 1919-yil 16-iyulda tasdiqlandi. Unda mavjud jinoyat qidiruv muassasalarini qaytadan tashkil etish ko'zda tutilgan. Militsiya Bosh

boshqarmasi qoshida jinoyat qidiruv Markaziy bo'linmasi bunyod etildi. Viloyat, tuman va shaharlarda jinoyat qidiruv bo'linmalari mahalliy Sovetlarning boshqaruv bo'limlari tasarrufiga berildi. Ularning operativ faoliyatiga rahbarlik qilish esa jinoyat qidiruv Markaziy bo'linmasi ixtiyorida qoldi.

1919-yil avgust oyida jinoyat qidiruv bo'linmalari Toshkent, Krasnovodsk, Qizilarvat, Asxabad, Marv, Yangi Buxoro (hozirgi Kogon), Samarqand, Qo'qon, Namangan, Skobelev (hozirgi Farg'ona), Andijon, O'sh, Perovsk, Kazalinsk, Aralsk, Chernyayevka, Avliyoota, Pishpak, Verniy (hozirgi Olmaota) va boshqa shaharlarda ish olib borgan.

Bu borada ularning o'zaro aloqalari xususida Turkiston respublikasi militsiyasi Bosh boshqarmasi boshlig'ining 1919-yil 25-oktabrdagi buyrug'ida shunday deyilgan: «Jinoyat qidiruv bo'limlari, militsiya idoralari bir-birlariga bo'ysunmagan holda o'zaro juda yaqin aloqada bo'lishlari kerak».

Jinoyat qidiruv bo'limlari dastlab Turkiston respublikasining yirik shaharlarida tashkil etilgan. Jinoyat qidiruv bilan militsiya organlarini birlashtirish haqida qaror qabul qilindi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda tashqi xizmat militsiyasining vazifalarini belgilar ekan, Turkiston respublikasi militsiyasining Bosh boshqarmasi 1920-yil 12-iyunda uning zimmasiga «jinoyat sodir etilgan joyga kelganda jinoyat izlari sud tergov yoki jinoiy qidiruv xodimlari yetib kelmaguncha jinoyat izlari yo'qolib ketmasligi uchun hamma choralarni ko'rish va yuz bergan hodisa haqida yuqoridagi organlarni darhol xabardor qilish» vazifalarini ham yuklaydi. Jinoyat qidiruv bo'limi (bo'linmasi) yo'q bo'lgan taqdirda, militsiya boshlig'iga dastlabki surishtiruv ishlarini bajarish topshirildi.

Turkiston respublikasi Ichki ishlar xalq komissarligi hay'ati tomonidan 1920-yil 20-avgustda tasdiqlangan «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston respublikasi jinoiya qidiruvi to'g'risida Nizom» jinoiy qidiruv idorasi tarkibi hamda ish yo'nalishini belgilab bergan. Unda jinoiy qidiruv organlari tarkibi, mansabdor shaxslarni tayinlash va tasdiqlash tartibi, jinoiy qidiruv organlarining boshqaruvi hamda markaz va viloyatlardagi vazifalari mustahkamlangan.

Jinoiy qidiruv bo'limi jinoyatchilikka qarshi kurashishga da'vat etilgan militsiyaning tarkibiy qismi bo'lib, tegishli militsiya organlarining bevosita nazorati hamda umumiy rahbarligi ostida ish olib borgan.

Jinoiy qidiruv organlari xodimlarining huquqiy holati Turkiston respublikasi Ichki ishlar xalq komissarligi hay'ati tomonidan 1920-yil 20-avgustda tasdiqlangan qo'llanmada belgilangan. Mazkur qo'llanmada

jinoiy qidiruv xodimlarining huquqlari va vazifalari, gumondorlarni qo'lga olish tartibi, qidiruv, taftish, ashyoviy dalillarni olib qo'yish, surishtirish ishlari olib borish hamda bayonnomalarni tuzish usullari ko'rsatilgan. Qo'llanmada tashqi xizmat militsiyasi xodimlari zimmasiga jinoiy qidiruv xodimlariga yordam berish, jinoyatlarni ochishda ularning ishini yengillashtirish, jinoyatlar va jinoyatchilar haqidagi ma'lumotlarni yetkazish, jinoyat sodir bo'lgan joylarni qo'riqlash, jinoiy qidiruv xodimlarining topshirig'iga ko'ra taftish o'tkazish va hibsga olish singari vazifalar yuklagan.

Shuningdek, qo'llanmada jinoyat sodir etilayotgan chog'da yoki endigina sodir etilgan taqdirda va tergovchi yetib kelishiga qadar jinoyat izlari yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan hollardagina jinoiy qidiruv xodimi tergovchining o'rnini bosishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bunday hollarda jinoiy qidiruv xodimi jinoyat ro'y bergan joyni tekshirishi, guvohlarni to'plashi, taftish o'tkazishi lozim bo'lgan. Guvohlar yoki aybdorlarni faqat kechiktirib bo'lmas hollardagina so'roq qilishga ruxsat berilgan.

Jinoyat qidiruv idoralarini faoliyatini mustahkamlashga qaratilgan keyingi chora-tadbirlardan biri 1924-yil 24-aprelda qabul qilingan «Turkiston Respublikasi jinoyat qidiruv bo'linmalari to'g'risida Nizom»ning qabul qilinishi bo'lgan. Unga ko'ra, jinoyat qidiruv idoralari ishini tashkil etish bo'yicha yo'l-yo'riq beruvchi hujjatlarni tayyorlash va chiqarish, uning quyi idoralarini nazorat qilish va yo'l-yo'riq ko'rsatish, operativ ma'lumotlarni o'rganish, tartibga solish va ishlab chiqish, jinoyatchilarni hisobga olish, surishtiruv ishi texnikasini o'rgatish va joriy etish, sudlanganlik haqida ma'lumotnomalar berish va boshqa masalalar respublika Markaziy jinoyat qidiruv boshqarmasi ixtiyoriga berilgan.

1924-yilga kelib jinoyat qidiruv idoralarining tarmoqlari bir muncha kengaytirilgan. Bu vaqtda Turkiston Respublikasi Ichki ishlar xalq komissarligi tizimida 6 ta viloyat, 2 ta shahar (eski va yangi Toshkent shaharlarida), 8 ta tuman (Oqmachit, Avliyoota, Chimkent, Toshkent, Andijon, Pishpak, Marv, Krasnovodsk tumanlarida) jinoyat qidiruv bo'linmalari faoliyat olib borgan.

***Xorazm Xalq Sovet Respublikasining siyosiy tuzumi.*** 1920-yilning fevral oyida Xiva xonligi, sentabr oyida Buxoroda xoni va amir hokimiyati ag'darib tashlangan. U o'rniga yangi davlat tuzumi Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalari e'lon qilingan.

Xiva va Buxoroda ham «xalq inqilobi» deb atalgan inqilob tashqaridan kiritilgan. Xonlik va amirlikdagi davlat to'ntarishlari yosh xivaliklar, yosh buxoroliklar va buxoro komunistlari ishtirokida Qizil

armiya kuchi bilan amalga oshirilgan. Buxoro va Xivada davlat to'ntarishlari Butunrossiya MIQ komissiyasi va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi tomonidan tuzilgan reja orqali qilingan.

1920-yil 13-sentabrda RSFSR va XXSR o'rtasida 24 ta moddadan iborat ittifoq shartnomasi va 15 ta moddadan iborat harbiy-siyosiy bitim tuziladi. Ittifoq shartnomasiga binoan XXSRning mustaqil va daxlsiz suveren davlat ekanligi tan olinadi. Biroq amalda boshqaruv RSFSRning Xivadagi muxtor vakillari qo'lida bo'lib, o'lkani mustamlaka holatda qoldirishga harakat qilingan.

Yangi vujudga kelgan davlatlar o'z Asosiy qonunlarini qabul qila boshlaydilar. Birinchi Umumxorazm qurultoyi 1920-yilning 26-aprelida yig'ildi. 30 aprelda I ta'sis qurultoyida birinchi konstitutsiya qabul qilindi.

Konstitutsiyada Xiva xalqi tashqi tutqinlikdan ozod bo'lib, mustaqillikka erishganligi, bundan buyon ozod hayot kechirishga intilishi, Xivada sanoat taraqqiy etmaganligi uchun xalq orasida sinfiy kurash ham rivojlanmaganligi, yangi davlat kambag'al ko'pchilikning, hamda musulmon va nomusulmon aholiniing manfaatini himoya qilishi ko'rsatilgan.

Davlat oliy hokimiyati va boshqaruv organlari, mahalliy organlarni tashkil qilish tartibi, ularning tuzilishi va vakolatlari belgilangan.

Oliy hokimiyat organi Umumxorazm xalq vakillari qurultoyi etib belgilanadi. Respublikani boshqarishni qurultoy tomonidan saylab qo'yiladigan va uning oldida javob beradigan 15 nafar a'zodan iborat Xalq Nozirlar Kengashi amalga oshirishi ko'zda tutilgan. Xalq nozirlar kengashi rais va uning o'rinbosari, ikki kotib hamda harbiy ishlar, adliya, iqtisodiy ishlar, nazorat, dehqonchilik, moliya, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, maorif va tashqi ishlar nozirlari tuzilishi ko'zda tutilgan.

Mahalliy boshqaruv aholi tomonidan saylab qo'yiladigan rayon sovetlari (sho'ro)ga tegishli bo'lgan.

Konstitutsiyada Xorazm respublikasining mudofaasini tashkil qilish, vaqf ishlari, xorijiy fuqarolarning huquqiy holati, aktiv va passiv saylov huquqlari, saylov huquqidan mahrum qilingan shaxslar, saylov tartibi, iqtisodiy siyosat to'g'risidagi, xon va xon avlodlarining mulki to'g'risidagi, respublikaning bayrog'i va gerbi masalalari mustahkamlangan.

II Umumxorazm xalq vakillari qurultoyi 1921-yilning may oyida Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritdi. Saylov tartibi konkretlashtirilib, Umumxorazm qurultoyiga vakillar saylashda, 400 mahalliy aholidan bir deputat va 100 nafar qizil askarlardan bir deputat hisobida belgilandi.



Yangi konstitutsiyada qurultoylar orasidagi davrda Xorazm MIQ oliy hokimiyat organi deb e'lon qilindi. Xorazm MIQning doimiy ish organi, rais boshqaradigan va yetti kishidan iborat bo'lgan Rayosat hisoblangan. MIQ raisi o'z navbatida Respublika Prezidenti deb atalgan. Oliy ijroiya-farmoyish beruvchi idora qilib XXSR Nozirlar kengashi belgilangan.

Umumxorazm (Butunxorazm sovetlari) III qurultoyi 1922-yilning iyul oyida konstitutsiyaga to'ldirishlar va o'zgarishlar kiritdi. Unda inson huquq va erkinliklariga oid qoidalar aniqlashtirildi. Oldingi Xorazm konstitutsiyalaridan farqli ravishda bunda qurultoy va Xorazm MIQning vakolatlari mustahkamlangan.

Umumxorazm qurultoyi va MIQ vakolatlariga barcha ichki va tashqi masalalar kirishi belgilab qo'yilgan. Umumxorazm qurultoyining mutloq vakolatiga Xorazm konstitutsiyasini qabul qilish, unga to'ldirish va o'zgartirish kiritish, tinchlik shartnomalarini ratifikatsiya qilish masalalari kiritilgan.

1923-yilning 20-oktabrida Butunxorazm Sovetlarining IV qurultoyi yangi konstitutsiya qabul qildi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi nomini o'zgartirib, Xorazm Xalq Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qildi. Yangi Konstitutsiyada fuqarolar huquq va erkinliklari kengaytirilgan, xususiy mulk huquqi bekor qilingan. Mulkdorlar, ruhoniylar va aksinqilobiy kuchlar saylov huquqidan mahrum etilgan. Davlat organlari tizimiga hech qanday o'zgartirishlar kiritilmay, ularning vakolatlari kengaytirilgan va aniqlashtirilgan.

Shunday qilib, Xorazm XSR Konstitutsiyalarida Rossiya hukumatining qarshiliklariga qaramay, bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan mamlakat mustaqilligini saqlash, xalqning haq-huquqlarini himoya qilish, tinch-totuv yashash, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan normalar mustahkamlangan.

***Buxoro Xalq Sovet Respublikasining siyosiy tuzumi.*** 1918-yilning sentabr oyida Rossiya K(b)P dasturini tan olgan Buxoro kommunistik partiyasi vujudga keldi. Bu partiya o'z oldiga amir hokimiyatini inqilobiy yo'l bilan ag'darib tashlash va Buxoro Xalq Sovet Respublikasini tuzishni maqsad qilib qo'ygan. Buxoro amirlik hukumati Turkfront qo'shini va qo'zg'algan xalq hamkorligida 1920-yil sentabr oyida amalga oshirilgan «inqilob» orqali ag'darib tashlandi. Uning o'rniga yangi shakldagi davlat – Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilindi.

BXSR Konstitutsiyasi 1921-yilning 23-sentabrida Umumbuxoro Sovetlarining II qurultoyida qabul qilindi. U kirish, 5 bo'lim, 16 bob, 79 moddadan iborat bo'lgan. Unda davlat tuzilishi, fuqarolar huquq va



erkinliklari, saylov huquqi (20 yosh) va boshqa barcha holatlar o'z aksini topgan. Konstitutsiyada mustahkamlangan va Sovet Rossiyasi tomonidan e'lon qilingan ko'plab dekretlarda ko'rsatilgan prinsiplar bajarilmagan. 1921-yilning 3-noyabridan Turkiya missiyasi Buxoroda o'z faoliyatini boshlagan. Shu munosabat bilan Sovet Rossiyasining tazyiqi orqali BXSR Konstitutsiyasi harakatdan to'xtatildi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining oliy davlat hokimiyat organi 350 nafar xalq vakilidan iborat Butunbuxoro sovetlari qurultoyi hisoblangan. U Umumbuxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan bir yilda bir marta chaqirilgan. Qurultoylar orasidagi davrda respublikada oliy qonunchilik, farmoyish va nazorat qiluvchi organ bo'lib, Umumbuxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi hisoblangan. U sessiyalar tariqasida ish ko'rib, ikki oyda bir marta chaqirilgan. Xalq Nozirlar Kengashi faoliyati ustidan nazoratni ham amalga oshirgan. MIQ ning sessiyalari orasidagi davrda respublika oliy hokimiyati organi MIQ Rayosati hisoblangan. Rayosat respublika hukumati – Xalq Nozirlar Kengashining barcha qarorlarini tasdiqlagan va bekor qilgan.

Respublika hukumati – XNK Umumbuxoro MIQ tomonidan XNK raisi, uning ikkita o'rinbosari va turli tarmoq xalq nozirlari tarkibida tuzilgan. XNK davlat boshqaruvining oliy organi bo'lib, ijro-farmoyish sohasida keng vakolatga ega bo'lgan. Nozirlar o'z faoliyatlarini yakka tartibda amalga oshirganlar.

Joylardagi hokimiyat organlari viloyat, tuman, kent xalq deputatlarining kengashlari, ularning ijroiya qo'mitalari, qo'mitasi raisi va rayosatlari hokimiyatni amalga oshirgan.

BXSRda odil sudlov xalq qozi sudlari, oliy kassatsiya instansiyasi sifatida xalq sudlari kengashi tomonidan amalga oshirilgan. Ular mahalliy inqilobiy qo'mitalar tomonidan saylash yo'li bilan tashkil qilingan. 1924-yilda qabul qilingan «BXSR sud tuzilishi to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra sud tizimi o'zgartirildi. Unga ko'ra sud tizimi shahar, tuman va kentlardagi xalq va qozi sudlari, okrug sudlari (ikkinchi instansiya) hamda oliy sud (oliy nazorat) organidan iborat tartibda tashkil etildi.

Shu bilar bir qatorda harbiy jinoyatlarni ko'rib chiquvchi harbiy tribunallar va davlat organlari o'rtasida vujudga keluvchi mulkiy nizolarni ko'rib chiquvchi davlat arbitraj qo'mitasi mavjud bo'lgan. Oliy sud plenumi barcha sud organlariga ko'rsatmalar bergan, qonunlarni sharhlagan, sud amaliyotini umumlashtirish bilan shug'ullangan. Ushbu sudlar bilan bir qatorda maxsus tashkil qilingan, oliy harbiy inqilobiy tribunal mavjud bo'lib, u «inqilobga» qarshi jinoyatlarni ko'rib chiqqan.

1924-yil 5-yanvarda «BXSR sud tizimi to'g'risida Nizom» qabul qilingan. Bu nizomga muvofiq amaldagi sud tizimini qayta tashkil etiladi. Xalq va qozilik sudlarida esa xalq maslahatchilarining ishtirok etishi joriy etiladi.

***BXSR va XXSRlari ichki ishlar organlari.*** Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalarida militsiya organlarining yaratilish va rivojlanish tarixi o'ziga xos xususiyatga ega. Xorazm va Buxoro xalq respublikalari mavjud bo'lgan dastlabki kunlaridanoq tartibni muhofaza qilish idoralari yaratila boshlandi. Bu idoralarga rahbarlik qilish uchun Buxoro Xalq Sovet respublikasida Ichki ishlar xalq nozirligi (komissarligi) tashkil etilgan. U markaziy va mahalliy hokimiyatlarning barcha qarorlari va farmoyishlari bajarilishini nazorat qilgan. Markaziy va mahalliy ma'muriy boshqarish organlari faoliyatini, militsiya tuzilishini, qamoqxonalarni boshqargan.

Buxoro respublikasi Ichki ishlar xalq nozirligi tarkibida qo'riqlash bo'limi ta'sis etilgan. Uning zimmasiga fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va respublikada o'rnatilgan davlat tuzumiga qarshi ayrim shaxslar yoki uyushmalar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan suiqasdlarning oldini olish uchun militsiya mahkamalari yaratish vazifasi yuklangan. Bo'limda uchta: siyosiy qidiruv (aksilinqilobchilarga qarshi kurash), jinoiy qidiruv (jinoatchilikka qarshi kurash) va militsiya (fuqarolarning shaxsi va huquqlarini himoya qilish) bo'linmalari bor edi.

Xorazm Respublikasining ishchi-dehqon hokimiyati 1920-yil 9-aprelda «Mamlakatda militsiya boshqarmasini ta'sis etish va Xiva shahrini himoya qilish to'g'risida» qaror qabul qildi. Bu qarorga ko'ra Adliya nozirligi qoshida Militsiya boshqarmasi ta'sis etildi.

Militsiyada kadrlarning yetishmasligi natijada Buxoro Respublikasi hukumati aholi orasida militsiya ishi majburiyatini o'tashni joriy etishga undaydi. Aholi yashaydigan joylardagi har bir mavzeda oqsoqollarning kuzatuvi ostida bir yoki ikki kishi tanlab olinib, tartibni saqlash ular zimmasiga yuklangan. Mavzelardan saylab qo'yilgan kishilarning faoliyati militsiya organlari yordami va nazorati ostida olib borilgan.

Shunday qilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida hokimiyat va davlat boshqaruv organlarining tizimi Rossiya va Turkiston ASSRning davlat organlari asosida tuzilgan. Yangi tashkil qilingan hokimiyat sinfiyligi bilan xarakterlanib, o'z oldiga faqat ishchi va kambag'al dehqonlar manfaatini himoya qilib ish yuritgan.

Ushbu davrda Buxoroda o'ziga xos huquq tizimi shakllangan. Mamlakatda yangi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan

Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan bir qatorda ularga zid bo'lmagan shariat normalari ham amalda bo'lgan. RSFSR jinoyat va jinoyat protsessual majmualari 1924-yilning 24-fevralidan boshlab Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hududida ham amal qila boshlagan.

Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarining asosiy huquq manbai sifatida ularning konstitutsiyalari, Sovetlar markaziy inqilobiy (ijroiya) qo'mitalarning dekret (qonun va farmoyish)lari, Xalq nozirlari kengashlarining qarorlari va buyruqlari, nozirliklarning buyruqlari va yo'riqnomalari, mahalliy sharoitdan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan RSFSR va Turkiston ASSR qonunlari amal qilgan. Meros, nikoh va oila masalalarida boshqa huquq manbalariga zid kelmagan shariat va odat normalariga ham tayanilgan.

## **2-§. O'zbekiston SSRning tashkil topishi va uning siyosiy-huquqiy tizimi**

O'zbekiston SSRning davlati va huquqi tarixini yuz bergan siyosiy-huquqiy o'zgarishlarga ko'ra uch davrga, ya'ni 1924–1936, 1937–1977 va 1978–1991-yillarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

1924-yilga kelib Rossiya bolsheviklar kommunistik partiyasining Markaziy Qo'mitasi va Sovet Hukumati bolshevistik mustamlaka tizimini yanada mustahkamlash uchun yangi usulni qo'llaganlar. 1920-yili V.I. Leninning Turkiston o'lkasini milliy respublikalarga ajratib yuborish g'oyasi amalga oshiriladi. Milliy hududiy chegaralanish tufayli mavjud davlatlar o'rniga yangi respublikalar tashkil etildi. O'rta Osiyo hududi yangi usulda yana Rossiya rahbarligida birlashtirildi. Natijada O'rta Osiyoda O'zbekiston SSR va uning tarkibida Tojikiston ASSR, Turkmaniston SSR, RSFSR tarkibiga kiruvchi Qora-qirg'iz (Qirg'iziston) avtonom viloyati, Qozog'iston SSR va uning tarkibida Qoraqalpog'iston avtonom viloyati tashkil etilgan.

O'zbekistonni tashkil qilish yuzasidan tuzilgan Muvaqqat qo'mita 1924-yilning 5-dekabrida O'zbekistonning tashkil etilganligini xalqqa e'lon qildi. TASSR, BXSr va XXSR Markaziy Ijroiya Qo'mita sessiyalari 1924-yilning 18-noyabrida o'z hokimiyatlarini tugatish va vakolatlarini O'zbekiston inqilobiy hokimiyatiga topshirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

1925-yilning may oyida SSSR sovetlarining III Qurultoyida O'zbekiston SSR va Turkmaniston SSR «ixtiyoriy-majburiy» tarzda SSSR tarkibiga kiritilgan. Muvaqqat ishchi-dehqon hukumati – oliy qonunchilik, ijro va farmoyish beruvchi organ sifatida tashkil etilgan.

1925-yilda Sovetlarning I Ta'sis syezdi Tojik ASSRni O'zbekiston SSRga qo'shish to'g'risida deklaratsiya qabul qildi. Tojik ASSR ma'muriy hududiy bo'yicha 5 ta viloyatga ega bo'lib, o'zining oliy va mahalliy boshqaruv organlariga ega edi. 1924-yil 26-noyabrda O'zSSR revkomi Tojikiston ASSR muvaqqat hukumati – revkomini tuzish to'g'risida qaror chiqardi.

1926-yilning 16-iyunida O'zbekiston Sovetlarining Markaziy Ijroiya Qo'mitaning IV sessiyasi respublikada ma'muriy-hududiy rayonlashtirish o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. 1926-yilning oktabrida O'zbekiston Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining V sessiyasi ushbu loyihani tasdiqladi. Bunga ko'ra, respublikada tugatilgan 7 ta viloyat o'rniga 10 ta – Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Toshkent, Andijon, Qo'qon, Xo'jand, Buxoro, O'rta Zarafshon, Samarqand (poytaxt) okruglari tashkil etildi. Bundan tashqari oldingi chegaralari doirasida O'zbekiston Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga bo'ysunadigan Konimex tumani saqlanib qolindi.

O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun 26 kishidan iborat komissiya tuzilgan. Uning tarkibiga Tojikiston Muxtor respublikasi vakillari ham kiritildi. Komissiya o'z ishida O'zbekistonning tashkil etilgan vaqtdan buyon qabul qilingan konstitutsion aktlardan foydalandi. «O'zbekiston SSRni tashkil etish to'g'risida»gi, «O'zbekistonni SSSR tarkibiga qabul qilish to'g'risida»gi deklaratsiyalar, Markaziy Ijroiya Qo'mita tomonidan 1925-yilning 22-iyulida qabul qilingan va O'zbekistonning gerbi va bayrog'ini belgilab beruvchi qarorlari O'zbekistonning 1927-yilgi Konstitutsiyasiga asos qilib olindi. Konstitutsion komissiya Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqdi va uni 1926-yilning iyun oyida Markaziy Ijroiya Qo'mita IV sessiyaning dastlabki muhokamasiga kiritdi. IV sessiya loyihani tasdiqladi va Sovetlar 2 syezdining tasdig'iga kiritishga qaror qildi.

1927-yilning 30–31-martida O'zbekiston SSR sovetlarining qurultoyi O'zbekistonning birinchi konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston SSRning birinchi konstitutsiyasi 8 bo'lim, 17 bob va 114 moddadan iborat bo'lgan. Birinchi bo'lim umumiy holatlarga bag'ishlangan. Unda Konstitutsiyaning huquqiy asoslari, O'zbekistonda tashkil etilgan davlatning mohiyati, oliy hokimiyat organlarining tizimi, O'zbekistonning sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirishi hamda ular vakolatlarining o'zaro belgilanganligi mustahkamlangan.



Konstitutsiyaga ko'ra O'zbekiston tarkibiga Tojikiston Muxtor Respublika shaklida kirgan. Konstitutsiya bo'yicha O'zbekiston SSR davlat hokimiyatining Oliy idorasi O'zbekiston Sovetlar qurultoyi, uning qurultoylari o'rtasidagi davrda Sovetlar Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va uning sessiyalari orasida Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi etib belgilangan. Oliy boshqaruv organi Respublika Xalq Komissarlari Soveti hisoblanadi. Mahalliy hokimiyat idoralari okrug va tumanlarda Sovetlar qurultoyi, qurultoylar o'rtasidagi davrda Sovetlarning Ijroiya qo'mitalari etib belgilangan. Shahar va qo'rg'onlarda Sovetlar, sessiyalar o'rtasidagi davrda ularning ijroiya qo'mitalari va qishloqlarda qishloq Sovetlaridan iborat holda aks ettirilgan.

Konstitutsiya demokratik qoidalarni, siyosiy, fuqaroviy, shaxsiy huquq va erkinliklarni belgilagan. Jumladan, kishilarning teng huquqliligi, millati, irqidan qat'iy nazar cheklashlarga yo'l qo'yilmasligi, siyosiy boshpana berish, kichik millatlarning haq-huquqlari himoya qilinishi, ularga o'z ona tillarida o'qish, sudda chiqish, davlat boshqaruvida ishtirok etishi kabilar kafolatlangan. Shu bilan bir qatorda unda fuqarolarning majburiyatlari – mehnat qilish majburiyati, qo'lda qurol bilan vatanni himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligi ham ta'kidlab o'tilgan.

Konstitutsiyaga muvofiq, O'zbekiston o'z suverenitetiga ega Sovet Ittifoqining teng huquqli a'zosi ekanligi, o'z davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirishi, O'zbekiston Ittifoq tarkibidan erkin chiqishi, O'zbekistonning hududi uning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emasligi mustahkamlangan. Uning mustaqilligi Sovet Ittifoqi konstitutsiyasi bilan belgilangan doirada bo'lishi ham ko'zda tutilgan.

Lekin O'zbekistonning suveren huquqlari to'g'risidagi ushbu normalar faqat qog'ozdagini mavjud bo'lib, markaz ushbu huquqlarni erkin amalga oshirishga hech qachon yo'l qo'ymagan. Bu huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan har qanday harakatlar «millatchilik» va «xalq dushmani» tamg'asi bilan bosilgan.

Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi O'zbekistonning markaziy hokimiyatini tashkil qilish masalasiga bag'ishlangan. Unga ko'ra O'zbekiston markaziy hokimiyat tizimi Butuno'zbek sovetlarining qurultoyi, O'zbekiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi, Markaziy Ijroiya Qo'mita Rayosati, Xalq Nozirlar Kengashidan iborat bo'lgan. Konstitutsiyada ushbu hokimiyat organlarini tashkil qilish tartibi, tuzilishi, ularning vakolatlari mustahkamlanadi.



Butuno'zbek sovetlari qurultoyining mutlaq vakolatlari jumlasiga O'zbekiston konstitutsiyasini qabul qilish, to'ldirish va o'zgartirish; Tojikiston Muxtor Respublikasining Konstitutsiyasini tasdiqlash kirgan.

Konstitutsiyaning to'rtinchi bo'limi Tojikiston Muxtor Respublikasining vakolatlari, oliy davlat hokimiyat organlari tizimi, uning O'zbekiston oliy hokimiyat organlari ishida ishtiroki, O'zbekiston qonunlarining Tojikiston hududida amal qilishi masalalariga bag'ishlanadi.

Mahalliy hokimiyat organlarining tizimi, ularning tuzilishi, tashkil etish tartibi, vakolatlari masalasi Konstitutsiyaning beshinchi bo'limida o'z aksini topgan. Joylarda hokimiyat okrug va rayon Sovetlarining syezdlari va ularning ijroiya qo'mitalariga tegishli bo'lgan.

Ularning vakolatlariga yuqori turuvchi organlarning qarorlarini amalga oshirish; o'ziga birlashtirilgan hududning madaniy va xo'jalik holatini ko'tarish; mahalliy ahamiyatdagi barcha masalalarni ko'rib chiqish va hal etish; mahalliy budjetni tuzish va tasdiqlash; hududda qonuniylikni ta'minlash, davlat tartibi va ijtimoiy xavfsizlikni himoya qilish; umumdavlat ahamiyatiga molik masalalarni o'z tashabbusi yoki yuqori turuvchi organ topshirig'i bilan muhokama qilish kirgan.

Konstitutsiyaning oltinchi bo'limi sovetlarga saylovlar masalasiga bag'ishlangan. Uning alohida moddalarida aktiv va passiv saylov huquqi, saylovlarni o'tkazish, saylov natijalarini tekshirish va bekor qilish, deputatlarni chaqirib olish masalalari o'z aksini topgan.

1925-yildan boshlab O'zbekiston SSRda yer-suv islohoti o'tkazilgan. Qabul qilingan qator hujjatlarga muvofiq barcha fuqarolar yer bilan (Farg'ona viloyati uchun 7 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatlari uchun 10 desyatina) ta'minlanishi lozim bo'lib, yer-suv davlat fondini tashkil etgan. Majburiy kollektivlashtirish oqibatida kommunistik partiyaning ko'rsatmalari bilan yer komissiyalari orqali ming-minglab o'ziga to'q va o'rta hol dehqonlar uch yil muddatgacha ozodlikdan mahrum etilib, ortiqcha yer va xo'jalik mehnat vositalari musodara etilgan. Umuman islohotlar natijasida 4801 boy xo'jalik tugatilgan, 23036 xo'jalikdan ortiqcha yerlar tortib olingan, yer fondiga 474393 desyatina yer tushgan. Bularning o'rnida 864 ta jamoa xo'jaligi tashkil etilgan.

O'zbekistonda bu vaqtga kelib mamlakatni industrilashtirish, elektrlashtirish sanoatini rivojlantirish ishlari olib borilgan. Sovet davlati sanoat, savdo, qishloq xo'jaligidan tobora xususiy ishlab chiqarishni siqib chiqara boshladi. 1928-yilga kelib sanoat va savdo sohasida davlat to'liq o'z monopoliyasini o'rnatdi.

O'zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi asosida huquqning turli sohalari bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston SSRning Grajdanklik Kodeksi (1927-yil), Grajdanklik-protsessual kodeksi (1927-yil), Nikoh, oila, vasiylik va grajdanklik holatlarini qayd qilish haqidagi kodeks (1928-yil), Yer-suv kodeksi (1929-yil), Jinoyat-protsessual kodeksi (1929-yil) va boshqalar.

Butuno'zbek Sovetlarining IV qurultoyi 1931-yilning 28-fevralida O'zbekiston SSR Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qildi. U Tojikiston Muxtor Respublikasining O'zbekiston hududidan chiqishini va poytaxt Samarqanddan Toshkentga ko'chirilganligini huquqiy mustahkamladi.

***Ichki ishlar organlari.*** O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilib, O'zbekiston SSR tashkil etilgandan so'ng, 1925-yil 17-fevralda Sovetlarning I syezdi qarori bilan respublika hukumati tashkil etildi. Qarorda hukumat tarkibida ichki ishlar xalq komissariati tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

1925-yilning 1-noyabrida O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasining Rayosati «O'zbekiston SSR Xalq komissarlari soveti to'g'risida»gi Nizomni tasdiqladi. Nizomning 4-bandiga muvofiq, hukumat tarkibiga Xalq komissarlari soveti raisi, uning o'rinbosarlari, Xalq komissarlari sovetining a'zolari – butunittifoq xalq xo'jaligi soveti raisi, respublikaning barcha xalq komissarlari, jumladan ichki ishlar xalq komissari ham kirishi belgilangan.

Ichki ishlar xalq komissari to'liq ravishda respublika hukumatiga bo'ysungan. Ichki ishlar xalq komissari O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq komissarlari soveti qarorlari hamda ularning faoliyatiga tegishli SSSR Markaziy ijroiya qo'mitasi, Xalq komissarlari soveti qarorlari, Ichki ishlar xalq komissarligining farmoyishlari asosida faoliyat ko'rsatgan. O'z vakolati doirasida farmoyish, yo'riqnoma, sirkular va buyruqlar chiqargan.

Butuno'zbek sovetlarining II qurultoyi 1927-yil 22–30-martda bo'lib o'tib, unda davlat apparatini ratsionallashtirish va soddalashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Qurultoyning mazkur qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasining 1927-yil 16-maydagi qarori bilan O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi bekor qilinib, uning o'rniga Xalq komissarlari kengashi qoshida Markaziy ma'muriy boshqarma tashkil etildi. Qarorda Markaziy ma'muriy boshqarmaning vazifalari sifatida qo'yidagilar belgilangan: 1) O'zbekiston SSR hukumatining ma'muriy xarakterdagi qarorlari va

farmoyishlarini hayotga tatbiq etish; 2) ma'muriy masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlarini loyihasini tayyorlash; 3) jamoat tartibi va xavfsizligini qo'riqlash masalalari bilan shug'ullanish; 4) fuqarolik holatini qayd etish organlarini boshqarish; 5) qamoqda saqlash joylarini boshqarish; 6) respublika ichki ishlar organlari rahbar xodimlarini tasdiqlash va boshqalar.

O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasining qarori bilan Ichki ishlar xalq komissarligi vazifalari quyidagi organlarga taqsimlandi: ma'muriy masalalar Xalq komissarlari kengashi qoshidagi Markaziy ma'muriy boshqarmaga, yo'l qurilishi masalalari Xalq komissarlari kengashi qoshidagi Bosh texnik qurilish qo'mitasiga, mahalliy xo'jalik ishlari respublika Davlat planining mahalliy xo'jalik seksiyasiga, kommunal va turar-joy maxsus fondlarini hisobga olish masalalari Moliya xalq komissarligining mahalliy moliya boshqarmasiga, bolalar mehnat koloniyalari masalasi Maorif xalq komissarligiga, axloq tuzatish-mehnat uylari va qamoqxonalarni boshqarish vazifalari okrug sovetlari ijroiya qo'mitalariga berildi.

O'zbekiston SSR Markaziy ma'muriy boshqarmasi qoshida militsiya va jinoyat qidiruv bo'limi tashkil etilgan. Unga 7 ta viloyat (Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm) bo'linmalari, bitta tuman va shahar (Toshkentning eski shahrida) bo'linmasi, 13 ta tuman bo'linmalari va Samarqand viloyatining vokzal oldi bo'linmasi bo'ysungan.

Ichki ishlar xalq komissarligi vazifalarini alohida idoralar o'rtasida taqsimlash ma'muriy-boshqaruv apparati xodimlari sonining oshishiga olib kelgan. Shu sababli, O'zbekiston SSRning 1928-yil 20-oktabridagi qarori bilan Markaziy ma'muriy boshqarma bekor qilinib, Ichki ishlar xalq komissarligi oldingi holatida qayta tiklandi.

O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining jinoyat qidiruv bo'limlari SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Markaziy jinoyat qidiruv boshqarmasi bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan.

Militsiyaning tashkiliy rivojlanishi, tarkibi, ish faoliyati shakl va usullari sobiq SSSR Markaziy ijroiya qo'mitasining 1934-yil 10-iyuldagi qaroriga asosan Umumittifoq Ichki ishlar xalq komissarligi tuzilishi bilan bog'liq ravishda o'zgargan. Unga davlat xavfsizlik organlari va militsiya bo'ysundirilgan. Ichki ishlar xalq komissarligi zimmasiga «inqilobiy» tartib va davlat xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy mulkni muhofaza qilish, fuqarolik holati hujjatlarini yozish, chegaralarni qo'riqlash, axloq-mehnat tuzatish muassasalarini ta'minlash va qo'riqlash vazifalari yuklatilgan.

Respublikalarda Ichki ishlar xalq komissarliklari, avtonom respublikalar, o'lkalar va viloyatlarda esa ichki ishlar xalq komissarliklari boshqarmalari tashkil etilgan. Umumittifoq Ichki ishlar xalq komissarligi tuzilishi bilan ichki ishlar idoralari markaz tomonidan boshqariladigan bo'lgan.

1935-yilning noyabr-dekabr oylarida militsiyaning butun rahbarlar tarkibi attestatsiyadan o'tkazilishi, xodimlar uchun maxsus unvonlar va nishonlar ta'sis etilishi, rahbarlar tarkibining huquq hamda vazifalari aniq belgilanishi, xodimlarni ishga tayinlash va bo'shatish tartibi o'rnatilgan.

IIXK operativ organlarida rahbarlar tarkibiga unvonlar ularning maxsus tayyorgarligi va xizmat attestatsiyasidagi malakasi hamda ish stajiga qarab berilgan. Xizmatni o'tash uchun quyidagi maxsus unvonlar belgilangan: militsiya serjanti, militsiya kichik leytenanti, militsiya leytenanti, militsiya katta leytenanti, militsiya mayori, militsiya katta mayori, militsiya inspektori, militsiya direktori va militsiya bosh direktori.

Bu maxsus unvonlar va ularni berish tartibi SSSR Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq komissarlari soveti tomonidan 1936-yil 3-iyulda tasdiqlangan Ishchi-dehqon militsiyasi rahbarlar tarkibining xizmatni o'tash to'g'risidagi Nizomida rasman mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur nizomda militsiyaning rahbar lavozimlariga tayinlash tartibi ham belgilangan. Unga ko'ra rayon militsiyasi boshliqlari hamda ularga tenglashtirilgan lavozimlar va undan yuqori mansablarga xodimlar SSSR ichki ishlar komissari tomonidan, boshqa lavozimlarga respublika, o'lka hamda viloyat militsiya boshlig'ining buyrug'iga binoan tayinlangan. Maxsus unvonga ega bo'lgan (lavozimidan qat'i nazar) rahbarlar tarkibi xodimlarini bir respublika, o'lka va viloyat boshqarmasidan boshqasiga o'tkazish faqat SSSR Ichki ishlar xalq komissarining buyrug'i bilan amalga oshirilgan.

1937-yil 14-fevralda O'zbekiston Sovetlarining Favqulodda IV Qurultoyi O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyada oliy davlat hokimiyat organi etib O'zbekiston SSR Oliy Soveti belgilangan va qonun chiqaruvchi idora vakolati berildi. Oliy Sovet sessiyalari oralig'idagi davrda uning vakolatlarini amalga oshiruvchi Oliy Sovet Prezidiumi tashkil qilindi.

Mazkur Konstitutsiyada O'zbekiston SSRning Oliy davlat boshqaruv idorasi bo'lib Xalq komissarlari soveti (1946-yildan Ministrlar soveti) belgilangan. Davlat hokimiyatining mahalliy idoralari tuman, shahar, qo'rg'on va qishloq mehnatkashlari deputatlari Sovetlari, mahalliy davlat boshqaruv idoralari qilib Sovetlarning Ijroiya qo'mitalari bo'lgan.



Konstitutsiyada sud va prokuratura idoralari tizimi, ularning faoliyat yo'nalishlari va vakolatlari, fuqarolarning huquqlari va burchlari, shuningdek davlat ahamiyatiga molik boshqa masalalar ham o'z aksini topgan.

***Ichki ishlar organlari.*** 1946-yil 4-aprelda SSSR ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan shahar uchastka militsionerlari lavozimini tugatadigan ko'rsatma e'lon qilindi. Unda bunday deyiladi: «Militsiyaning jamoat tartibini, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash hamda o'z vaqtida jinoyatlarning oldini olish ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun shahar militsiya bo'limining hududi uchastkalarga bo'linadi, bu uchastkalarga xizmat qilish uchastka vakillari zimmasiga yuklatiladi...» Uchastka vakillari tartibni saqlash, jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va xotima berish yuzasidan muntazam ish olib borishlari, uchastkada sodir bo'lgan har bir hodisani bilishlari, jamoatchilik bilan aloqa qilib turishlari, fuqarolarni qabul qilishlari va ularning arizalarini ko'rib chiqishlari, pasport rejimiga rioya etilishini tekshirishlari, bezorilik, bolalar qarovsizligi hollariga va boshqa salbiy hodisalarga yo'l qo'ymasliklari kerak edi.

Shunday qilib, uchastka vakillarining vazifasi tashqi xizmat doirasidan chiqib, ma'lum darajada militsiya faoliyatining hamma turlarini o'z ichiga olishi lozim edi.

Uchastka vakillari jinoyatlarning oldini olishga va ularga chek qo'yishga, jinoyatchilarni aniqlashga asosiy e'tibor berdilar. Ular o'z uchastkasidagi aholi bilan muntazam aloqa qilib borishi, jinoyatchilikka qarshi kurashga jamoatchilikni safarbar etishi lozim edi.

Militsiyaning tashkiliy tuzilishi va uning me'yoriy negizi takomillashib, rivojlanib bordi. 1948-yilda militsiya postlari va patrul xizmatining yangi Nizomi kuchga kirdi. Bu Nizomda bir qancha yangi qoidalar ko'zda tutilgan bo'lib, ilgari kamdan-kam amalga oshiriladigan militsiya patrul xizmati endilikda tashqi xizmatning zarur qismiga aylandi.

1952-yilda to'plangan tajribaga va Nizomning yangi shartlariga asosan postlar va patrul xizmati yangilandi. Postda turuvchi va soqchining vazifalari hamda huquqlari belgilab qo'yildi. Bunda jamoat tartibini, mulkni, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini qo'riqlash, transport va piyodalar harakatini nazorat qilish masalalarida militsiya idoralariga qo'yilgan yangi talablar hisobga olindi.

Transport va piyodalar harakatini tashkil etish ham militsiya idoralarining vazifasiga kirgan. Bu vazifa davlat avtomobil inspeksiyasi va yo'l harakatini boshqarish bo'limlariga (shu bo'limlar mavjud



joylarda) topshirilgan. Transport hodisalarining sonini kamaytirish, yo'llarda transportlarni harakatlanish imkoniyatini oshirish, shuningdek, piyodalar va transport vositalarining oqimini boshqarish ularning asosiy vazifalari hisoblangan.

1948-yilning fevralida O'zbekiston SSR militsiya idoralarida tergov bo'limlari va bo'linmalari tuzilgan bo'lib, ularning vazifalari militsiya operativ xodimlari tomonidan qo'zg'atilgan jinoiy ishlarni tergov qilishdan hisoblangan.

1953-yil 27-martda SSSR Vazirlar kengashi «Jamoat tartibini saqlashni va jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish choralari to'g'risida» qaror qabul qildi. Shu yil 20-iyulda esa, O'zbekiston SSR Vazirlar kengashi bilan O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasi «O'zbekiston SSRda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish va jamoat tartibini saqlash choralari to'g'risida» qaror qabul qilgan. Ushbu qarorlarda jinoiy ishlarga doir tergovni olib borish sifatini yaxshilash, tashqi xizmat va jinoyat qidiruv apparatini mustahkamlashga e'tibor qaratilgan. Operativ bo'limlar jinoiy ishlar bo'yicha tergov olib borishdan ozod qilingan.

1960-yil yanvarda SSSR Ministrlar Soveti SSSR Ichki ishlar vazirligini tugatib, uning vazifalarini ittifoqdosh respublikalar ichki ishlar vazirliklariga topshirish to'g'risida qaror qabul qilgan. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining Rayosati 1962-yil 7-sentabrda O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida farmon chiqargan.

1966-yil 26-iyulda SSSR Oliy Kengashi Rayosatining farmoni bilan jamoat tartibini saqlash idoralarining faoliyatiga yagona operativ rahbarlikni ta'minlash maqsadida jamoat tartibini saqlash ittifoq-respublika vazirligi tuzildi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining Prezidiumi 1966-yil 29-iyuldagi farmoni bilan O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligini O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash ittifoq-respublika vazirligiga aylantirdi.

SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, qonuniylikni yanada mustahkamlash hamda jinoiy sudlovning demokratik asoslarini kengaytirish maqsadida 1963-yil 6-apreldagi farmoni bilan jamoat tartibini saqlash idoralariga dastlabki tergov yuritish huquqini berdi. Ana shu farmonga muvofiq ravishda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining Prezidiumi 1963-yil 27-aprelda «O'zbekiston SSR jinoyat — protsessual kodeksiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida» farmon chiqardi. Unda jamoat tartibini saqlash idoralarining tergovchilari dastlabki tergov ishlarini olib boradigan jinoyat turlari belgilab qo'yildi.

Tergov ishlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi tarkibida tergov boshqarmasi, jamoat tartibini saqlash viloyat boshqarmalarida, Qoraqalpog'iston Avtonom SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi, Toshkent shahar ijroiya komiteti militsiya boshqarmasi va yo'l militsiya bo'limida esa tergov bo'limlari tashkil etildi. Shaharlarda, rayonlarda, temir yo'l uchastkalarida tergov bo'linmalari va tergovchilar guruhlarini tuzildi. Militsiya idoralaridagi dastlabki tergovni olib borish bilan shug'ullanadigan maxsus tuzilma tugatildi. Dastlabki tergovni olib borish militsiya idoralari operativ boshliqlar tarkibiga, shu jumladan uchastka vakillariga topshirildi.

O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi idoralarida tergov apparatini tashkil etish va uning faoliyati to'g'risidagi nizomga muvofiq oliy huquqiy ma'lumotga ega bo'lgan kishilargina tergovchi etib tayinlanishi mumkin edi. O'rta huquqiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar istisno tariqasida tergov ishiga jalb qilingan. Shunda ham ular jinoiy ishlarni tergov qilish borasida katta tajriba orttirgan bo'lishi shart edi. Bu borada aytish lozimki, 1963-yilga qadar jinoiy ishlarga doir dastlabki tergovni prokuratura idoralari olib borgan. 1963-yildan boshlab ichki ishlar idoralari huzurida tergov apparati tuzilgan.

1966-yil 23-iyunda qabul qilingan «Jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish choralari to'g'risida»gi birgalikda qaror qabul qilingan. Militsiya xodimlari davlat va jamoat manfaatlarini, fuqarolarning shaxsi va huquqlarini jinoiy xurujlardan himoya qilish chog'ida o'z burchini bajarib, so'nggi chora sifatida qurol ishlatishi mumkin bo'lgan.

O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi tomonidan 1963-yil oktabrdagi buyruq bilan «Militsiya soqchilik-postlar xizmati Nizomi» tasdiqlandi. U xizmatni o'tashning tashkiliy shakllarini va taktik usullarini, tashqi xizmat kuchlarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxslarning vazifalarini, shuningdek militsiya soqchilik va postlar naryadlarining vazifalari va huquqlarini belgilab bergan.

Ushbu nizom ko'chalarda, jamoat to'planadigan joylarda, temir yo'l transportida, ommaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida, tabiiy ofat yuz berganda, fuqarolar mudofaasi sharoitida militsiyaning jamoat tartibini saqlash xizmatini tashkil etish tartibini mustahkamlagan. Barcha militsiya xodimlari soqchilik va postda xizmatni o'tash chog'ida, shuningdek xizmatdan tashqari vaqtda ham, jinoyatlar va jamoat tartibini buzishning oldini olish bo'yicha o'z burchini bajarishda unga amal qilishi shart

bo'lgan. Mazkur nizom faqat tashqi xizmat xodimlarining emas, shu bilan birga jinoyat qidiruv, BXSS, Davlat avtomobil nazorati, pasport apparati hamda boshqa bo'linmalar xodimlarining vazifalarini ham tartibga solgan.

Jamoat tartibini saqlash yuzasidan katta shaharlarda militsiyaning motorlashtirilgan maxsus qismlari tuzilgan. Bezorilikka qarshi kurashda, fuqarolarning salomatligiga xavf soladigan va ularning qadr-qimmatini haqoratlaydigan jinoiy harakatlarga chek qo'yishda militsiya xodimlarining huquqlari kengaytirilgan.

SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining «Jamoat tartibini saqlash idoralariga dastlabki tergovni olib borish huquqini berish to'g'risida»gi 1963-yil 6-aprelda chiqargan farmoni ichki ishlar idoralarida tergov apparatini tuzishga asos bo'lgan. Farmonga muvofiq ittifoqdosh respublikalarning jinoyat-protsessual kodekslariga tegishli o'zgartishlar kiritildi va tergov idoralari 1963-yil 1-iyuldan rasmiy ravishda o'z vazifalarini bajarishga kirishgan.

Tergov bo'linmalari o'sha vaqtda militsiya tekshirish bo'linmalari tarkibida tashkil etilgan. Lekin ular tekshirish bo'limlaridan va prokuraturaning tergov apparatidan ham farq qilgan. Xususan, militsiya tergovchilariga protsessual mustaqillik, jinoiy ishlar yuzasidan prokuror ruxsati va tasdig'i talab qilinadigan hollardan tashqari barcha hollarda o'zi qaror qabul qilish huquqi berilgan. Militsiya tergovchisi prokuratura tergovchisidan farqli ravishda ichki ishlar idoralarida olib borilayotgan jinoiy ishlarni tergov qilishda hamkorlikni tezroq tashkil qilgan va xizmat imkoniyatlaridan to'laroq foydalana olgan.

1970-yilga qadar faqat respublika ichki ishlar vazirligi, viloyat va shahar boshqarmalari tarkibida tergov apparati tashkil etilgan. Tergovchilar shahar va rayon ichki ishlar bo'limlari huzurida tergov ishlarini olib borishgan. 1970-yildan boshlab shahar va rayon bo'limlari tarkibida ham tergov bo'limlari va guruhlar tashkil etilgan. 1972-yilda transport ichki ishlar boshqarmasida ham tergov apparati tuzilgan.

Mazkur davrda O'zbekiston SSRning huquqiy tizimida ham katta o'zgarishlar ro'y bergan. Turli sohalarga oid huquq manbalari, kodekslar ishlab chiqilgan. Jumladan, Jinoyat kodeksi (1959-y.), Jinoyat-protsessual kodeksi (1959-y.), Grajdanlik kodeksi (1963-y.), Grajdanlik-protsessual kodeksi (1963-y.), Nikoh va oila kodeksi (1969-y.), Yer kodeksi (1970-y.), Mehnat qonunlari kodeksi (1971-y.), Suv kodeksi (1972-y.) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

1977-yil 7-oktabrda SSSRning yangi Konstitutsiyasi, uning asosida esa ittifoqdosh va avtonom respublikalarning Konstitutsiyalari ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasi 1978-yil 19-aprelda respublika Oliy Sovetining navbatdan tashqari to'qqizinchi chaqiriq VI sessiyasida qabul qilindi. Konstitutsiyada davlat hokimiyati, boshqaruv, sud va prokuratura idoralari tizimi saqlanib qolgani holda, ularning vakolatlari va faoliyatlarining asosiy yo'nalishlarida ba'zi o'zgarishlar qilingan. Fuqarolarning huquq va erkinliklari ma'lum darajada kengaytirilgan.

Konstitutsiya mazmunidan kelib chiqib, uning asosida «O'zbekiston SSR Oliy Sovetiga saylovlar haqida» (1978-y.), «O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti haqida» (1978-y.), «O'zbekiston SSR Xalq deputatlari mahalliy Sovetlariga saylovlar haqida» (1979-y.), «O'zbekiston SSR Xalq deputatlari oblast Soveti haqida» (1980-y.), «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va foydalanish haqida» qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Sovet hokimiyati davri haqida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston SSR boshqa ittifoqdosh respublikalar kabi mustaqil deb e'lon qilingan bo'lib, amalda tom ma'nodagi mustaqil davlat bo'lmagan. Uning konstitutsiyasi, qonunlari, davlat organlari tizimi, fuqarolarning huquq va burchlari va boshqalar holatlar SSSRda amalda bo'lgan siyosiy-huquqiy qurilmalarga albatta mos bo'lishi kerak edi. O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatish vakolatiga ega bo'lmasdan, uning taqdiri markazning qo'lida bo'lgan.

1985-yilda boshlangan qayta qurish, demokratiya va oshkoralik uchun harakatlar SSSRning tarqab ketishiga va ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka erishishiga olib keldi.

---

## XVI BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI

### 1-§. O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati organlari tizimi

XX asr oxirlariga kelib jahon xaritasida yana bir mustaqil, suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. O‘zbekiston tinch yo‘l bilan o‘zining mustaqil davlatchiligiga ega bo‘ldi. Mustaqillik o‘zbek xalqiga o‘z tarixini va milliy-ma’naviy hamda huquqiy qadriyatlarini qayta tiklash imkonini berdi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta’kidlaganidek: «Mustaqillik biz uchun muqaddas ma’naviy qadriyatlar va milliy an’analarga tayangan holda va tarzda yashash, ana shu bebaho merosni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yanada boyitgan holda yetkazish demakdir»<sup>1</sup>.

Mustaqillik bois ijtimoiy-siyosiy jabhada tub burilish sodir bo‘ldi. O‘zbekiston xalqi o‘z davlatini tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mustaqillikning qadri, xalqimiz uchun ahamiyati va uni asrash mas’uliyati xususida gapirib, yurtboshimiz «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» nomli asarida quyidagi fikrlarni bayon etdi: «Mustaqillik bizga nima berishini bilardik. O‘z taqdirimiz, farzandlarimiz kelajagini o‘zimiz hal etish imkoniyatiga ega bo‘ldik. O‘z yerimiz, boyliklarimizga sohiblik qila boshladik... Mustaqillik tufayli dunyoga, jahonga chiqdik... Dunyo xaritasida endi katta harflar bilan «O‘ZBEKISTON» deb yozib qo‘yiladigan bo‘ldi»<sup>2</sup>.

Mustaqillik sharofati bilan ma’naviy hayotimizda uyg‘onish yuz berdi. Tariximizni tikladik. Ona tilimizni angladik... Udumlarimiz, qadriyatlarimizga qaytdik. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zligimizni angladik... Siyosiy yo‘lda burilish bo‘ldi. Mustaqillikni e’lon qilib, uni qonun bilan rasmiylashtirdik<sup>3</sup>. O‘zbekiston Respublikasi uchun mustaqillik yillari qad rostlash, o‘zlikni anglash, istiqbol rejalarini belgilash hamda ulug‘vor maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan islohotlar davri bo‘ldi.

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б. 19.

<sup>2</sup> Qarang: *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б. 426.

<sup>3</sup> Qarang: O‘sha asar.– Б. 425–426.



Boshqa mamlakatlar va davlatlar singari O'zbekiston ham o'zining bir necha ming yillik qadimiy hamda mustaqillik bilan bog'liq zamonaviy tarixiga ega. Har bir davlatning o'z tarixi bo'lgani singari O'zbekistonning ham o'z tarixi, qaror topish ibtidosi hamda shakllanish bosqichlari bor. Respublikamizning mustaqillik davridan boshlanuvchi tarixini o'rganishga oid ikki xil yondashuv mavjud. Birinchi holda uni 1989-yildan boshlab o'rganish kerakligi ta'kidlansa, ikkinchi yondashuvda – 1991-yil sentabrdan boshlab o'rganish lozimligi to'g'risidagi fikr ilgari suriladi. Har ikki yondashuv ham o'sha davrdagi istiqloлга intilish va erishish bilan bog'liq islohotlar, qabul qilingan siyosiy va konstitutsiyaviy qarorlar mohiyatiga tayanadi. Ayni vaqtda, har ikki holda ham O'zbekiston davlati va huquqi bir-biriga uzviy bog'liq tarzda bir tarixiy sharoitda hamda davrda shakllanishi e'tirof etiladi.

Mustaqil taraqqiyot yillarida – tarixan qisqa bir davrda – O'zbekiston yangi demokratik davlatchilikni barpo etish va insonparvar huquqiy tizimni qaror toptirish borasida ulkan marralarni qo'lga kiritdi. Buning natijasida mamlakatimiz qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksalib bormoqda... Erishilgan bunday marralar – barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lning bir qismidir<sup>1</sup>.

O'zbekiston tarixini o'rganishning yuqorida ta'kidlangan birinchi yondashuviga ko'ra, uni 1989-yildan boshlash lozim degan fikrda ma'lum ma'no bor. Darhaqiqat, 1980-yillarning oxirlaridan boshlab respublikada iqtisodiy va siyosiy suverenitetni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'rildi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Oliy Sovetining XI chaqiriq oxirgi sessiyasida «O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti... amalga oshirilayotgan siyosiy sistema islohotini, ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishni

---

<sup>1</sup> Qarang: *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 5–6.

<sup>2</sup> Qarang: *Мустақил Ўзбекистон тарихи // Тузувчилар: Н. Жўраев, Т. Файзуллаев.* – Т., 2000. – Б. 27.

hisobga olgan holda respublikaning iqtisodiy suverenitetini kengaytirishning asosiy yo'llarini belgilasin», degan qaror qabul qilindi<sup>1</sup>.

1990-yil 23-martida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi bo'lib o'tdi. O'zbekistonning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarini tahlil etish va tegishli konsepsiya ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, mazkur anjumanda respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi, unda Islom Karimov real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan barcha darajadagi xalq deputatlari kengashlariga, ya'ni davlat hokimiyati idoralariga berilishi lozimligini ta'kidlab, shunday dedi: «... Bugun yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etmoqda». «Binobarin, eng muhimi shundan iboratki, Prezident institutining joriy etilishi – respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildiradi. Chunki bu shunchaki emas, balki haqiqiy davlatchilik hokimiyatining bunday tuzilmasini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega»<sup>2</sup>.

Mazkur holatdan kelib chiqib, 1990-yil 24-martida XII chaqiriq O'zbekiston Oliy Sovetining birinchi sessiyasi mamlakatimiz tarixida ilk marotaba Prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston SSR Prezidenti etib sayladi. O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan dastlabki qadam edi.

Demokratik davlat barpo etish jarayonida prezidentlik institutining joriy etilishining ahamiyati xususida fikr yuritib, I.A. Karimov quyidagi mulohazalarni bildirdi: Prezident zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: «1. O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish... 2. Prezident boshqaruvining muhim vazifalaridan biri respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga va o'zini o'zi pul bilan ta'minlashga erishish... 3. Mehnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab-ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish – Respublikaning davlat hokimiyati va boshqaruv organlaridan, O'zbekis-

---

<sup>1</sup> Qarang: Ўзбекистон ССР Олий Кенгашининг мажлислари. Сентябрь хисоботи. 1989 й.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б. 147.

ton SSR Prezidentidan doimiy e'tibor talab qiladigan vazifadir»<sup>1</sup>. Shu bilan birga inson, uning huquq va ehtiyojlari, xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va jismoniy takomilga erishtirish Prezident faoliyatining markazida turadi.

O'zbekistonda ilg'or demokratik tamoyillar asosida qaror toptiriladigan davlatchilikning tamal toshi qo'yilishidagi tarixiy muhim qadam «Mustaqillik Deklaratsiyasi» bo'ldi. 1990-yil 20-iyun kuni XII chaqiriq Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi mazkur parlament majlisi arafasida 40 dan ziyod deputat, doimiy komissiyalarning raislari, huquqshunoslar tayyorlagan deklaratsiya matnini ko'rib, uni moddama-modda muhokama qilib, bir ovozdan O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildi. Muhim tarixiy ahamiyatga molik mazkur hujjatning kirish qismida quyidagi olijanob so'zlar yozilgan:

«O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

Shuningdek, uning birinchi moddasida: «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir», – deb belgilab qo'yildi.

Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi O'zbekistonning tamomila yangi konstitutsiyasini tayyorlashga turtki bo'ldi. Aynan Oliy Sovetning ushbu ikkinchi sessiyasida mustaqillik g'oyalari va tamoyillariga tayangan holda davlatimizning yangi konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya Prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Biroq O'zbekistonda konstitutsiyaviy ahamiyatga molik islohotlar Konstitutsiyaviy komissiya tuzilishidan ancha avvalroq boshlangan edi. Ma'lumki, 1990-yil 24-martida O'zbekiston Prezidenti lavozimi ta'sis etilishi ana shunday islohotlarning dastlabkisi edi. Prezidentlik boshqaruvining ta'sis etilishi «sovetlar» hukmron bo'lgan davlat boshqaruv shakliga barham berib, amalda

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўша асар. – Б. 150–156.

davlatimizning prezidentlik respublikasi shakliga o'tishini anglatardi. Prezidentlik institutining kiritilishi davlat hokimiyati vakolatlarining yangicha taqsimlanishini taqozo etar edi. Shu munosabat bilan ijroiya-boshqaruv hokimiyatining tizimi takomillashtirildi. Jumladan, 1990-yil 1-noyabrda «O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq, Prezidentlik hokimiyati bilan Respublika Ministrlar Soveti birlashtirilib, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. Ijroiya hokimiyat Prezident qo'lida mujassamlashdi. U ham hukumat rahbari, ham davlat boshlig'i bo'lib qoldi. Navbatdagi konstitutsiyaviy islohot qadami viloyatlar, shaharlar va tumanlarda davlat hokimiyatining vakillik hamda ijroiya idoralariga rahbarlik qiluvchi *hokimlar* lavozimini ta'sis etishdan iborat bo'ldi.

Ayni vaqtda, 90-yillarning boshlarida Sobiq Markazni saqlab qolish, uning mavqeini kuchaytirish yo'lidagi harakatlar davom ettirildi. Totalitar tuzum tarafdorlari jon-jahdlari bilan talvasali urinishlar qildilar. Xususan, 1991-yil 19–21-avgustda Moskvada davlat to'ntarishini amalga oshirishga harakat qilib ko'rildi. To'ntarishni uyushtirgan shaxslar mamlakatda boshboshdoqlik va parokandalik avjiga chiqqan paytdan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi. Ular markazda hokimiyatni qo'lga olib, Favqulodda holat davlat qo'mitasi (GKCHP)ni tashkil etdilar. O'sha davrdagi SSSR hududida g'ayrikonstitutsiyaviy siyosat yurita boshladilar.

O'zbekiston rahbariyati bunday g'alamislik niyatlariga yon bermadi. 20 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

Yuzaga kelgan vaziyatni aniq baholab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1991-yil 25-avgustda «Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komitetini O'zbekiston SSR yurisdiksiyasiga olish to'g'risida»gi va 1991-yil 29-avgustdagi «KPSSning O'zbekiston SSR hududidagi mulki to'g'risida»gi farmonlarni chiqardi. Shunday sharoitda, ya'ni markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaq, har bir jumhuriyat o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston



Respublikasi Prezidenti I. Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston mustaqilligi haqida qonun qabul qilishni talab qildi. Chunki har bir jumhuriyatning chinakam teng huquqliligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Buning uchun haqiqiy mustaqillik yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlanishi, har bir jumhuriyat so'zda emas, balki amalda tenglar orasida teng bo'lishi lozim edi.

Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, respublika Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etganini alohida ta'kidlash lozim. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi hamda «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yildi.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti» e'lon qilindi. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror va «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Bayonot orqali Oliy Kengash O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini e'lon qildi. Davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi deb O'zbekiston Respublikasining ozod mustaqil xalqi tan olindi. Davlat hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshirishi mustahkamlandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun g'oyat katta siyosiy va tarixiy ahamiyatga ega. Mazkur qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. U 17 ta moddadan iborat bo'lib, davlat suverenitetining asosiy belgilari mustahkamlandi. Jumladan, qonunning dastlabki moddasida O'zbekiston Respublikasi mustaqil demokratik respublika deb e'lon qilindi. Xalq suveren va davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi, O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega ekanligi, o'z milliy davlat va ma'muriy hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini mustaqil belgilashi, mustaqil tashqi siyosat olib borishi, respublika fuqaroligi joriy tashkil etilishi, o'z davlat ramzlariga ega bo'lishi, o'z moddiy va tabiiy boyliklarini o'zi erkin tasarruf etishi, mustaqil pul-kredit tizimiga ega



bo'lishi kabilar qonunlashtirildi. 1991-yil 30-sentabrda parlament qarori bilan ushbu qonunga «Konstitutsiyaviy qonun» maqomi berildi.

Mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki davrlaridan boshlab davlat boshqaruv organlari tizimi shakllantirildi, shu maqsadda mustaqil davlat organlarini vujudga keltiruvchi farmonlar qabul qilindi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida»gi farmon o'ta muhim qadam bo'ldi. 1991-yil 26-sentabrda Prezident farmoni asosida O'zbekiston SSR Davlat xavfsizligi ittifoq-respublika komiteti tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati tuzildi. Bundan tashqari, «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankini tashkil etish to'g'risida», Oltin, olmos va boshqa nodir metallarni chetga chiqarilmasdan respublikaning o'zida qoldirish va ularning zaxiralarini tashkil etish to'g'risida, shuningdek, «O'zbekiston Respublikasining Bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi (1991-yil 25-oktabr) farmonlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmon bilan bu vazirlikning ittifoq-respublika maqomi tugatilib, mustaqil davlatimizning alohida Adliya vazirligiga aylantirildi. Unga mamlakatda huquqiy siyosatni shakllantirish va uni o'tkazishda davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi. «O'zbekiston Milliy aviakompaniyasini tashkil qilish to'g'risida» (1992-yil 28-yanvar), «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari to'g'risida»gi farmon bilan Prokuratura ham faqat respublikaga bo'ysunuvchi mustaqil idoraga aylantirildi. 1992-yil 28-fevral farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan chegara qo'shinlarining bo'linmalar, harbiy qismlar hamda harbiy o'quv yurtlari, havo hujumidan mudofaa harbiy qismlari, kimyoviy qo'shinlarning harbiy qismlari tegishli farmonlar bilan O'zbekiston yurisdiksiyasiga o'tkazildi. Ular mamlakatimizning davlat suverenitetini himoya qilish, davlat chegaralarini qo'riqlash va mudofaani ta'minlash ishlariga safarbar etildilar. «O'zbekiston paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotini sotish davlat aksionerlik assotsiatsiyasini tashkil etish to'g'risida»gi (1992-yil 7-noyabr) va boshqa farmonlar fikrimizning yorqin dalilidir<sup>1</sup>.

**Parlament.** O'zbekiston Respublikasi hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi asosida davlat hokimiyatida xalq vakilligini ta'minlovchi va

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Х.Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.* – Т., 1995. – Б. 49–50.

qonunlar chiqarish bilan shug'ullanuvchi organ sifatida mamlakat parlamenti, ya'ni Oliy Majlisni ta'sis etdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xalq tomonidan bevosita saylov asosida shakllantiriladigan organ bo'lib, uning asosiy faoliyat vazifasini qonun ijod etish tashkil qiladi.

Parlamentning ma'no-mohiyati va ta'rifi Konstitutsiyaning 76-moddasida belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy qoidani hayotga bevosita joriy etish maqsadida 1994-yil 22-sentabrda «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilingan edi. Qonunda talqin etilishicha: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy vakillik organidir» (1-modda). Davlatning qonun chiqarish faoliyati uning jamiyatni boshqarish, unga siyosiy-huquqiy rahbarlik qilish borasidagi muhim funksiyasidir.

O'zbekistonda 1995-yildan 2005-yilgacha bir palatali Oliy Majlis faoliyat ko'rsatdi. U hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida saylanadigan 250 deputatdan iborat bo'ldi. Konstitutsiyaning 77-moddasiga muvofiq, parlament 5 yil muddatga saylanadi. Vakolat muddati tugagach, Oliy Majlis yangi chaqiriq Oliy Majlisi ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida (2000-yil 25-may) Prezident tomonidan taklif kiritilib, qonun chiqaruvchi idorani doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tkazish masalasi o'rta qo'yildi. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendumda xalqimiz mamlakatda ikki palatali parlament tuzish g'oyasini qo'llab-quvvatladi.

2002-yil 4-aprelda Oliy Majlis umumxalq ovoz berishda bildirilgan mulohaza va kayfiyatni umumlashtirib, «Referendum yakunlari va davlat hokimiyatini tashkil qilishning asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qildi. Bu qonunda ikki palatali parlamentni shakllantirish borasidagi parlament islohotlarini – davlat hokimiyati organlarini isloh qilishning asosiy vazifasi sifatida belgilandi. Shuningdek, qonun ustuvorligini, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni, ulardan har birining mustaqilligini ta'minlash prinsipi mustahkamlandi.

Ikki palatali parlamentga o'tilishi hokimiyatning uch tarmog'i o'rtasidagi vakolatlarning qayta taqsimlanishi hisobiga davlat hokimiyati mexanizmining ma'lum darajada o'zgarishiga olib keldi. Ammo, bunda hokimiyatlar o'rtasida mutanosiblikka zarar yetmasligi kerak. Bu islohotlarga 2002-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi va 2003-yil 24-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunlar hamda «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur qonunlarda ikki palatali parlamentning huquqiy holati va tuzilishiga doir asosiy qoidalar mustahkamlandi<sup>1</sup>.

2004-yil dekabr va 2005-yil yanvar oylarida parlament saylovlari bo‘lib, mamlakatimizning ikki palatali parlamenti shakllantirildi. Yangi parlamentning birinchi yalpi majlisida Prezident I.A. Karimov shunday dedi: «Ikki palatali parlamentni shakllantirishdan maqsad: *birinchi* – parlament o‘z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish. *Ikkinchi* – Qonunchilik palatasi o‘z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish. *Uchinchi* – Senat, asosan, Mahalliy kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo‘lishini hamda vakillik vazifasini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish. *To‘rtinchi* – aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko‘lamini yanada kengaytirish. Aynan shu maqsadlar yuqori palata – Senatning viloyat, shahar va tuman vakillik organlari deputatlaridan saylanishi zamirida ham mujassam»<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi-ning saylov kuniga qadar 25 yoshga to‘lgan hamda kamida 5 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan fuqarosi Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek Oliy Majlis Senati a’zosi bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi hisoblanmish hududiy vakillik palatasi – Senat deb nomlanadi. Mohiyatan u hududlardan saylangan vakillardan iborat tarkibda shakllantiriladi. Senatorlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan saylanadi. Yuqori palataning 16 nafar

---

<sup>1</sup> Qarang: Одилқориев Х., Тультеев И. Икки палатали парламент. – Т., 2005. – Б. 23.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилиш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир // Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 180.

a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarda katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan farmon bilan tayinlanadi.

Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylanganidan keyin bir oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyat, tuman, shahar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining saylov kuni 25 yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan deputati Senat a'zoliciga saylanish uchun nomzod bo'lishi mumkin. Davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisi, agar unda deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisini chaqirish, Senat a'zolarini saylash tartibi to'g'risidagi Nizom Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 78-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uning o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish; ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish; O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash; O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning mamlakat tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash; boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish; O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish; tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish; davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini



tuzish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash; O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash; xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish, shuningdek konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi.

**Prezident.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti mamlakat fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

Prezidentga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi nufuziga mos ko'plab vakolatlar berilgan. U Oliy Majlisga har yili ichki va xalqaro ahvol xususida ma'lumotnoma taqdim etadi. Prezident vakolatlarini shartli ravishda 25 tadan ortiq deyish mumkin. Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

Prezident hukumatni shakllantirib, bu masalani Oliy Majlisning tasdig'iga kiritadi. Sud tizimida nomzodlarni taqdim etadi va ular Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi. Viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, bu masalalarni tegishli Xalq deputatlari kengashining tasdig'iga kiritadi. O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi. Faqat Prezidentgina butun respublika hududida favqulodda holat joriy etishga haqli. U qabul qilgan



qarorini uch kun mobaynida Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi. U respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi. Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi.

Davlat boshlig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga fuqarolik, siyosiy boshpana berish, davlat mukofotlari bilan taqdirlash, afv etish to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish kabi masalalarni hal qilish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

**Vazirlar Mahkamasi.** Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining ijro hokimiyati oliy organi – Hukumati hisoblanadi. 1993-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonun qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan, Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Qonunlar va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi barcha sohalarida markaziy boshqaruvni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasining vakolati mamlakatning butun hududi doirasida ta'sir etadi. Uning faoliyati va vakolatlari respublika hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Vazirlar Mahkamasi davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi organidir. Ya'ni, u shunday organki, davlat funksiyalarining to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishini, mamlakatda ma'muriy-siyosiy, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishni ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasining bu xususiyati uning davlat boshqaruvi organlari tizimi yuqorisida turishini belgilab beradi.

Ijro etuvchi hokimiyat organi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat

qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari rahbarlari kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Hukumat boshlig'i o'z lavozimi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tuzilish tartibi Konstitutsiya va qonunda belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 98-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu holat qonunning 4-moddasida quyidagicha ifodalangan: «Bosh vazir va uning o'rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladilar va keyinchalik bu masala Oliy Majlis tasdig'iga kiritiladi».

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish maqsadida maxsus apparat tashkil etiladi. Qonunning 21-moddasiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining apparati Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarini tayyorlash, tegishli qarorlar loyihalarini, tashkiliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borilishini tashkil etadi. Vazirlar Mahkamasining apparati va uning bo'limlari to'g'risidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini ta'minlash maqsadida, uning doimiy tuzilmasi sifatida, Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibda Vazirlar Mahkamasi Rayosati tashkil etiladi.

Vazirlar Mahkamasining apparati asosiy tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari Bosh vazir tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladi.

Vazirlar Mahkamasi a'zolari korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda pul to'lanadigan boshqa lavozimni egallash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emaslar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, avvalo, Konstitutsiya bilan belgilangan. Shuningdek, «Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunning 4-bobi Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlariga bag'ishlangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari ham Vazirlar Mahkamasining vakolatlari doirasini belgilab beradi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlarini shartli ravishda quyidagi uchta katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) xo'jalik qurilishi sohasidagi vakolatlari;
- 2) ma'muriy-siyosiy sohadagi vakolatlari;

### 3) ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ma'muriy-siyosiy boshqaruv sohada juda keng vakolatlarga ega. Aynan Vazirlar Mahkamasi:

- respublika boshqaruv tuzilmasini takomillashtirib boradi;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi,
- vazirlar, davlat qo'mitalari raislarining o'rinbosarlari va bosh boshqarmalar hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;
- O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini va mudofaa qudratini oshirish, davlat chegaralarini qo'riqlashni ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlari va erkinligini ta'minlash va himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi;
- davlat boshqaruv organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi va ularni bajarish choralari ko'radi.

Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy sohadagi asosiy vakolatlari doirasida:

- iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi: mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotiga o'tish va erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- xo'jalik yuritishning yangi shakllari – konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa ana shunday tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga ko'maklashadi, xalq xo'jaligi va aholi talablarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;
- O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx

siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini va ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

– respublika budjetini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbollarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni va ularning ijrosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy-madaniy sohalarda ham keng vakolatlar doirasiga ega. Xalq ta'limiga rahbarlik, ilmiy, madaniyat-ma'rifat ishlari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, mehnatni tashkil etish va kadrlar tayyorlashni tashkil etish ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlari sirasiga kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi; fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, ularning mehnat qilish huquqini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi; sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlarini amalga oshirish, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari va Prezidentning farmon, qaror va farmoyishlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan umummajburiy qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

***O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi.*** Qoraqalpog'iston suveren demokratik respublikasi parlamentar boshqaruv shakliga ega bo'lib, davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslangan<sup>1</sup>.

Respublikada umumiy rahbarlikni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi – Qoraqalpog'iston Respublikasi parlamenti Raisi amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi Respublikaning eng yuqori lavozimli shaxsi hisoblanadi. Jo'qorg'i Kenges Raisi Jo'qorg'i Kenges tomonidan uning deputatlari orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatni oliy vakillik organi bo'lgan Jo'qorg'i Kenges amalga oshiradi. Jo'qorg'i Kenges hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan deputatlardan iborat. Uning faoliyatini tashkil qilish va boshqa vakolatlarini amalga oshirish uchun Prezidiumi tuziladi.

---

<sup>1</sup> Қорақалпоғистон Республикасининг Конституцияси. – Нукус, 2006. – 11-м.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi – hukumati, Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Vazirlar Kengashi Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan tuziladi va uning oldida hisobot beradi. Vazirlar Kengashi tarkibiga Kengash Raisi, Raisning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari, yirik konsern va birlashmalar rahbarlari kiradi. Vazirlar Kengashining Raisi, o‘z vazifasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi.

***Mahalliy hokimiyat organlari.*** O‘zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risidagi (1992-yil 4-yanvar) qonuni mamlakatimizda mahalliy hokimiyatining ikki mustaqil organi, ya’ni vakillik va ijro organlari tizimini hamda joylarda yakka boshchilik asosida ish olib boruvchi hokim lavozimining joriy qilinishini belgilab berdi. Vakolat muddati 5 yil bo‘lgan hokimlik instituti joriy qilindi. Hokim bir vaqtning o‘zida ham ijro etuvchi, ham vakillik organining boshlig‘i hisoblanadi.

Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda tegishli viloyat, Xalq deputatlari kengashlari, Toshkent shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlar va shaharlarning hokimlari tegishli tuman va shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat hokimlari viloyat Kengashlari oldida hisobdordir. Viloyat, tuman va shahar hokimlari tegishli Xalq deputatlari kengashlari deputatlari ichidan tayinlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonun hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan tartibga solinadi. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy boshqaruv tuman va shaharlarda Xalq deputatlari kengashlari va ular tomonidan saylanuvchi hokimlar tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari vazifalari mustahkamlangan. Mahalliy hokimiyat organlari quyidagilarni amalga oshiradi: 1) qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash; 2) hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlantirish; 3) mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish; 4) mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish; 5) atrof-muhitni muhofaza qilish; 6) fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlash; 7) normativ hujjatlarni qabul



qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Hokimlar o'z hududini iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishning asosiy yo'nalish dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun tegishli Xalq deputatlari kengashiga kiritadi. Mahalliy hududni rivojlantirish borasidagi ishlarga rahbarlik qiladi.

Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari o'z hududida sanoat, qurilish, aloqa vositalari, qishloq xo'jaligi sohalari, ijtimoiy va madaniy sohalarga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi. Shu idoralarning rahbarlarini lavozimga tayinlash, lavozimidan ozod qilish, ularning faoliyatini nazorat qilish, tegishli rahbarlarning hisobotlarini eshitish kabi vakolatlarga ega.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohani rivojlantirishga rahbarlik qilish bo'yicha aniq vazifalari va vakolatlari joriy qonunlarda va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan. Ular mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'inlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish vazifasi hududning iqtisodiy rivojlanishida, fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilashda, davlat organlarini saqlab turishda zarur moddiy bazani vujudga keltiradilar.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z hududida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli masalalarni davlat va aholi manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qiladi. O'z vakolati doirasida Konstitutsiyaga zid bo'lmagan qaror va farmoyishlar qabul qiladi. Mahalliy kengashlar o'z qarorlarini kollegial asosda qabul qilsa, hokimlar yakkaboshchilik asosida qabul qiladi hamda ushbu qarorlar ularning hududida bajarilishi majburiydir.

Mamlakatimiz hayotida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga muvofiq, «Shaharcha, qishloq va овулларда, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari бўлиб, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi».

1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida tub burilish yasadi, ya'ni qonunning 7-moddasiga asosan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tarkibiga kirmaydi deb to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatini hududiy prinsip bo'yicha amalga oshiradi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi mamlakatning butun hududida amalga oshiriladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy vazifasi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga bog'liq masalalarni mustaqil ravishda hal qilishini ta'minlashdir. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 7-moddasi bilan ushbu organlar tizimi ko'rsatib o'tilgan: 1) fuqarolar yig'ini; 2) fuqarolar yig'inining kengashi; 3) fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar; 4) fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi hamda ma'muriy komissiyalardan iborat bo'lib, ularning huquqiy holati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlangan.

Fuqarolar yig'inida mahalliy hududda yashovchi o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar qatnashish huquqiga ega. Fuqarolar yig'inida qatnashish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning uchdan ikki qismi hozir bo'lganda yig'in vakolatli hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'ini raisi, yig'in kengashi tomonidan zaruratga qarab, lekin yilning har choragida kamida bir marta chaqiriladi. Shu bilan birga, fuqarolar yig'ini xalq deputatlari tuman, shahar kengashining, tuman, shahar hokimining yoki o'n sakkiz yoshga to'lgan va mazkur hududda doimiy yashovchi fuqarolarning kamida uchdan bir qismining tashabbusi bilan ham chaqirilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini muvofiqlashtirish respublika Oqsoqollar kengashi tomonidan amalga oshiriladi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkin. Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi fuqarolar yig'inining raisi tomonidan zaruratga qarab, lekin bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi hamda kengash a'zolarining uchdan ikki qismi mavjud bo'lganida qabul qilingan qarori vakolatli hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini kengashi o'z devoniga ega bo'lishi mumkin, uning xodimlari soni fuqarolar yig'ini tomonidan belgilanadi.

Shaharga, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hamda shahardagi mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlariga qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi ko'rib chiqish uchun olish va hal qilish huquqiga egaligi belgilangan hamda ular vakolat doirasida boshqaruvga oid qator ishlarni amalga oshiradi (Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 10-moddasi).

**Sud hokimiyati.** Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida mustaqil tarmoqlaridan biri bo'lib, jamiyat hayotida odil sudlovni amalga oshirishga safarbar etilgandir. Odil sudlov o'z mohiyatiga ko'ra, davlat faoliyati hisoblanadi, bunda vakolatli sud muassasasi huquq normalari talablarini buzish oqibatida kelib chiquvchi nizoli holatlarni muhokama etib, huquqiy jihatdan hal qiladi. Demokratik huquqiy davlatda huquq (qonun) davlat idoralari, fuqarolarning turli-tuman uyushmalari va alohida shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning mezonidir. Mazkur munosabatlarning huquq (qonun) doirasida kechishini va hal etilishini ta'minlash sud hokimiyati zimmasiga yuklatilgan. Odil sudlovning oliy maqsadi – kuch va zo'ravonlik g'oyasini huquq va adolat g'oyalari bilan almashtirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda sud hokimiyatining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, tuzilishi va faoliyat yuritishining qonuniy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Sudlar to'g'risida» (yangi tahrirda)gi qonun (2000-yil 14-dekabr) bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 106-modda).

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab sud-huquq tizimini isloh etish, demokratlashtirish va liberallashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borildi. Sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sud tizimi ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarildi. Shuningdek, sudlar faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish yo'lida tashkiliy jihatdan ta'minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalalari yaxshilandi. Yuqorida keltirilgan qonunga muvofiq, umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi. Kassatsiya instansiyasi isloh qilinib, sudda ishlarni qayta ko'rishning apellatsiya tartibi joriy etildi.

**Prokuratura.** Prokuratura mamlakatda amalda bo'lgan barcha qonunlarning mamlakat hududida bir xilda va aniq ijro etilishini O'zbekiston Respublikasi nomidan nazorat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasida belgilab qo'yilganidek, «O'zbekiston

Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi».

2001-yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi qonunga muvofiq prokuraturaning inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'uliyati oshirildi. Shuningdek, sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqi bekor qilindi.

**Qurolli Kuchlar.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 125-moddasida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasini mudofaa qilish Qurolli Kuchlarning, iqtisodiyotning, aholining, hududning O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasiga muvofiq tajovuzni daf etishga doim tayyorligiga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini Qurolli Kuchlar tuzilishida mudofaalanish kifoya qilarli darajada bo'lishi qoidasiga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari: 1) quruqlikdagi qo'shinlar; 2) harbiy-havo kuchlari; 3) havo hujumiga qarshi mudofaa qo'shinlari; 4) maxsus qo'shinlar; 5) harbiy qurilish-muhandislik qo'shinlari; 6) milliy gvardiyadan tarkib topadi. Ularga kundalik rahbarlik qilish va boshqaruv Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Qurolli Kuchlarni kadrlar bilan to'ldirish O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuniga binoan amalga oshiriladi. Qo'shinlarning kundalik hayoti va ichki tartib-intizomi Qurolli Kuchlar Nizomlari asosida tartibga solinadi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda (1991-yil 31-avgust) yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, Milliy gvardiyani tashkil etish va Mudofaa ishlari vazirligini ta'sis etish zarurligi ta'kidlangan edi. Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tuzish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi. Respublika Hukumatining 1991-yil 25-oktabrdagi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining huquqiy

maqomi, tashkiliy tizimi va tuzilishi hamda Nizomi tasdiqlandi. Ushbu Vazirlik mahalliy harbiy boshqaruv organlari, fuqaro mudofaasi shtabi va armiya safidan tashqari xizmat maxsus boshqarmasi negizida tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari vujudga kelishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi qarori alohida ahamiyat kasb etdi. Unga ko'ra, sobiq Ittifoq Qurolli Kuchlarining respublikamiz hududida joylashgan barcha qismlari, harbiy o'quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari hamda boshqa harbiy tuzilmalari O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga olindi. Shu tarzda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida zamonaviy ma'rifiy davlatlarga xos demokratik, adolatli norma mustahkamlandi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan «Mudofaa to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi (1992-yil 3-iyul) yuqoridagi konstitutsiyaviy normani konkretlashtirishda, Qurolli Kuchlarni shakllantirilishi, mustahkamlanishi va boshqaruvini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, 1992-yil iyulda «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi hamda «Muqobil xizmat to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Qurolli Kuchlarni mamlakat miqyosida joylashtirish Respublika Oliy Bosh Qo'mondoni (ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti) rahbarligida Mudofaa vazirligi, uning Bosh shtabi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududini, chegaralarini, havo chegaralarini ishonchli himoya qilinishini nazarda tutuvchi strategik reja, harbiy doktrina talablari, strategik va operativ rejalar asosida, shuningdek qo'shinlarni jang oldidan safarbar etib joylashtirish rejalarini asosida amalga oshiriladi.

Qurolli Kuchlarni tuzish «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Qurolli Kuchlarni tuzish harbiy xizmatga shu hududdan va hudud tashqarisidan chaqirishni uyg'unlashtirgan holda olib boriladi.

Armiani saqlab turish, moliyaviy, moddiy-texnikaviy ta'minlash davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi. Mudofaaga ajratiladigan mablag'lar miqdori har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq Qurolli Kuchlar tizimi xodimlari daromad solig'iga tortilmaydilar. Shuningdek, mudofaa ehtiyojlari uchun davlat buyumlarini bajarish soliqni kamaytirish yoki



undan ozod qilish, kredit berish va boshqa imtiyozlar bilan rag'batlantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini boshqarish respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 16-bandiga muvofiq, Prezident Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi.

Mamlakat mudofaasiga oid ishlarni tashkil etish, Qurolli Kuchlarning harbiy tayyorgarlik va moddiy-texnikaviy sohasidagi ehtiyojlarini ta'minlash masalalarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ham muayyan vakolatlarga ega.

O'zbekistonning xavfsizligi va ishonchli mudofaasini ta'minlashda 1997-yil 29-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qonun muhim qadam bo'ldi. Konsepsiyada diniy ekstremizm, millatlararo va etnik ziddiyatlarning kuchayishi, qurollarning, jumladan yadro qurolining tarqalishi, xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilikning avj olishi, narkotik moddalarning tarqalishi hamda ekologik tanazzul ko'rinishidagi mintaqaviy va yalpi tahdid mavjudligi ta'kidlangan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishi bilan davr ruhiga mos bo'lgan demokratik davlat va huquqiy tizim shakllandi. Diyorimizda davlat va huquqning shakllanish hamda rivojlanish tarixini xolisona va har tomonlama ilmiy tahlil qilish, uning natijasi o'laroq obyektiv xulosalar chiqarish va chuqur o'rganish orqali yosh avlodni Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalash, siyosiy-huquqiy tariximiz yutuqlaridan mustaqil o'zbek davlatchiligi va uning huquq tizimini takomillashtirishda foydalanish tarixda uchragan kamchiliklarning takrorlanmaslik choralari ko'rish, qolaversa, boy va betakror tariximizni jahon jamoatchiligi nigohida namoyish qilish bugungi kundagi alohida ahamiyatga molik ishdir.

## **2-§. O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimining shakllanishi**

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, mohiyati va mazmuni jihatidan tamomila yangi milliy huquqiy tizim shakllantirildi. Huquqiy tizim mamlakatimizda suveren davlatning qaror topishi va bosqichma-bosqich rivojlanib borishi barobarida unga muvoziy tarzda shakllandi.

Huquqiy tizim jamiyatda amal qiluvchi normativ tizimlar ichidagi eng murakkab hodisadir. Mamlakat huquqiy tizimi jamiyatdagi barcha huquqiy institutlar, normalar, prinsiplar, jarayonlarning o‘zaro aloqador bir butun yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, milliy huquqiy tizim muayyan davlatning ichki huquqi (barcha normativ-huquqiy hujjatlar yig‘indisi), tarixi, iqtisodiy va siyosiy tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquq tizimi<sup>1</sup>, huquqiy mafkura, huquqiy madaniyat, huquqiy munosabatlar, huquqiy siyosat, huquqiy amaliyot kabilarni qamrab oluvchi doimiy harakatdagi rivojlanishdagi ijtimoiy-huquqiy voqelikdir.

O‘zbekistonda huquq tizimini tashkil etuvchi an‘anaviy va bir qator yangi huquq sohalari (tarmoqlari) qaror topdi va rivojlandi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, yer huquqi, suv huquqi, ekologiya huquqi, moliya huquqi, ma‘muriy huquq, jinoyat huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi, jinoyat-protsessual huquqi, fuqarolik-protsessual huquqi, xo‘jalik-protsessual huquqi kabi an‘anaviy tarmoqlar, shuningdek, tadbirkorlik huquqi, bojxona huquqi, bank huquqi, soliq huquqi, xalqaro huquq kabi yangi huquq tarmoqlari.

Milliy huquqiy tizimning normativ asosini Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Mustaqil taraqqiyotimizning yigirma yili mobaynida 750 dan ziyod qonunlar, shu jumladan 6 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 4400 dan ortiq Prezident farmonlari, 9600 ta Hukumat qarorlari va 2320 dan ortiq vazirliklar va davlat qo‘mitalarining normativ aktlari qabul qilingan.

Yaratilgan qonunchilik hujjatlari jamiyatimizning siyosiy tizimi, shu jumladan davlat idoralari faoliyatini, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayoti sohasidagi muhim munosabatlarni tartibga solishga yo‘naltirilgan. Huquqiy tizimning o‘zagini 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil etdi.

Konstitutsiya qabul qilingach, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni ta’kidladi: «...oldin tasdiqlangan qonunlarimizni ham yangi Konstitutsiya ko‘zi-nazari bilan qarab, boshqatdan ko‘rib chiqishimiz zarur, ularni tub islohotlar manfaatlariga moslashtirish lozim»<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> «Хуқуқ тизими» ва «Хуқуқий тизим» ибораларининг нисбати хусусида қаранг: Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. – Т., 2009. – Б.329.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон – келажаги буюк давлат. – Т., 1992. – Б.44.

O'zbekiston Respublikasining milliy huquqiy tizimi shakllanishining tarixiy xronologiyasi va dinamikasini yaqqol tasavvur qilish uchun qonunchiligimizning bosqichma-bosqich yaratilishi va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Avvalo, respublikamizda mavjud barcha normativ-huquqiy aktlar Konstitutsiya asosida qayta ko'rib chiqilib, isloh qilina boshlandi. Shu bilan birga, huquqiy tizimning barcha sohalari bo'yicha yangi qonunlarni yaratish avj oldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashi mustaqillik yillari mobaynida o'n bitta sessiya o'tkazdi. Parlament 1991-yilning avgust-dekabr oylarida – 13 ta qonun, 1992-yil davomida – 52 ta qonun, 1993-yilda – 53 ta qonun va 1994-yilda – 22 ta qonun qabul qildi. Shu chaqiriqda yaratilgan jami qonunlar soni 145 tani tashkil etib, ulardan 98 tasi yangi qabul qilingan qonunlar, 47 tasi esa amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kirituvchi hujjatlar edi. Yangi saylangan birinchi chaqiriq Oliy Majlis 1995–1999-yillar mobaynida o'n beshta sessiya o'tkazib, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 138 ta qonun, 468 ta qaror qabul qildi. Bu davrda 216 holatda amaldagi qonunchilikka qo'shimcha, to'ldirish va o'zgartirishlar kiritildi<sup>1</sup>.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlis, jumladan quyidagi muhim qonunlarni qabul qildi: O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi to'g'risida, Konsessiyalar to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995–1996-y.), O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (1995-y.), Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida, Davlat mukofotlari to'g'risida, Markaziy bank to'g'risida, Banklar va bank faoliyati to'g'risida, Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida, Erkin iqtisodiy zonalar, Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, Deputatlarni chaqirib olish, Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, Fuqarolar sog'lig'ini saqlash, Mualliflik va turdosh huquqlar, Noshirlik faoliyati, Buxgalteriya hisobi, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari, Siyosiy partiyalar, Notariat, Advokatura,

---

<sup>1</sup> Qarang: Олий Мажлиснинг 1999 йил 19 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва уни раҳбариятининг 1995–1999 йиллардаги фаолияти юзасидан ҳисоботи тўғрисида» 806–1 сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси. – 1999. – № 9. – 203-м.

Davlat uy-joy siyosatining asoslari, Atmosfera havosini muhofaza qilish, Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Tabiiy monopoliyalar, Axborot olish kafolatlari va erkinligi, Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish, Shahar yo'lovchilar transporti, Ta'lim, Davlat bojxona xizmati, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini tayyorlash, Ommaviy axborot vositalari, Fermer va dehqon xo'jaligi, Chet el investitsiyalari, Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari, Davlat yer kadastri, Avtomobil transporti, Qimmatli qog'ozlar bozorida depozitariylar faoliyati, Reklama, Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari, Lizing, Nodavlat notijorat tashkilotlar, O'rmon to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, Xo'jalik-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Yer kodeksi, Oila kodeksi, Uy-joy kodeksi va boshqa qonunlar.

O'zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisi 1999-yil 5-dekabrda saylandi hamda 2000-yil yanvaridan e'tiboran o'z faoliyatini boshladi va mamlakatimiz qonunchiligini rivojlanishida o'ziga xos muhim bosqichni tashkil etdi. U ikki yil mobaynida o'nta sessiya o'tkazib, 60 dan ziyod qonunlar qabul qildi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis 2000–2004-yillarda qabul qilgan muhim qonunlardan ayrimlarini sanab o'tamiz: «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi; «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi; «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi; «Pochta aloqasi to'g'risida»gi; «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi; «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi; «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi (yangi tahrirda); «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahrirda); «Qonun loyihalarining umum-xalq muhokamasi to'g'risida»gi; «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi; «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi; «Yuridik shaxslarning qurilish sohasidagi huquqbuzarliklari uchun javobgarligi to'g'risida»gi; «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahrirda); «Mudofaa to'g'risida»gi; «Alohida yuklar va harbiy kontingentlarning tranziti to'g'risida»gi; «Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi; «O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida»gi (yangi tahrirda); «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqish joylari to'g'risida»gi; «Madaniy meros obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilish to'g'risida»gi; «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi; «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi; «Kredit

ittifoqlari to'g'risida»gi; «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi; «Fuqarolar-ning bankdagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi; «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun; «Davlat statistikasi to'g'risida»gi; «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi (yangi tahrirda); «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi; «Xalqaro shartnoma va bitimlarni ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi va boshq.

Qonunchilikning muayyan tarmog'ida kodeksning qabul qilinishi tegishli sohada alohida huquq tarmog'i shakllanganligini anglatadi. Mamlakatimizda 1994–2008-yillar oralig'ida 15 ta kodeks qabul qilinganligi tegishli huquq tarmoqlari qaror topib, ular o'zining asosiy o'zak qonuniga ega bo'lganligini ifoda etadi. Masalan, **fuqarolik huquqi** tarmog'ining bosh qonuni – Fuqarolik kodeksidir. U fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holati, intellektual faoliyati natijalari, ularning mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga soladi. Eng muhimi, ahamiyatlisi mazkur kodeks bozor iqtisodiyoti munosabatlariga poydevor vazifasini o'tadi. Avvalo, Fuqarolik kodeksida xususiy mulk huquqi va uni muhofazalash mexanizmlari mustahkamlandi. Shuningdek, unda quyidagi fuqarolik-huquqiy institutlar qonuniy jihatdan rasmiylashtirildi: shaxs (jismoniy va yuridik shaxs)lar; bitimlar; vakillik va ishonchnoma; da'volar va ularning muddati; majburiyatlar; shartnomalar; meros va vorislik; ma'naviy zararni qoplash institutlari. E'tiborlisi shundaki, fuqarolik huquqi sohasida qator yangi mavzular, ya'ni ko'chmas mulkni sotish instituti, renta va mulk ijarasi instituti, lizing (moliya ijarasi), qarz va kredit, bank omonati, tadbirkorlikni litsenziyalash, sug'urta, xo'jalik shirkatlari va firmalar tuzish, intellektual mulk va uni muhofazalash kabi yangi institutlar qaror topdi.

**Mehnat huquqi** sohasi ham davr ruhiga mos tarzda shakllanib, unda liberallashtirish yo'lidan borilayotgani namoyon bo'ladi. Uning o'zak qonuni – Mehnat kodeksi bu sohadagi qator an'anaviy va yangi institutlarni mustahkamladi. Jumladan, mehnat shartnomasi, ishsizlikni e'tirof etish va ishsizlik nafaqasi, ish beruvchi va xodimning huquqiy maqomi, mehnatga haq to'lash, mehnat intizomi, mehnatni rag'batlantirish, xodimga yetkazilgan zarur uchun moddiy javobgarlik, mehnatni muhofaza qilish, ayollar mehnatining kafolatlari, ayollarga oilaviy vazifalarni bajarish bo'yicha qo'shimcha kafolatlar, yoshlar mehnatining kafolatlari, mehnat nizolarini ko'rish, davlat ijtimoiy sug'urtasi, pensiya ta'minoti, xodimning mehnat huquqlarini sud tartibida muhofazalash kabi



institutlarni e'tirof qilish mumkin. Eng muhimi, mehnat munosabatlarining zamonaviy huquqiy bazasi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq xususiyatlarni o'zida aks ettirdi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yilda qabul qilingan Oila kodeksi mamlakatimizda yangi, mustaqil **oila huquqi** tarmog'i shakllanganligini yuridik jihatdan rasmiylashtirdi. Ushbu huquq sohasi oilaning mohiyatini, uning ijtimoiy vazifasini ifodalab jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini sifatidagi ahamiyati, oilaviy munosabatlarda fuqarolarning tengli, erkin va ixtiyoriy faoliyat yuritishi masalalarini tartibga solishga qaratilgan. Unda nikoh tuzish, er-xotinning huquq va majburiyatlari, oilada bola tarbiyasi, oilada mulkiy munosabatlar va ularning kafolatlari, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik masalalari, fuqarolik (oilaviy holat) holati dalolatnomalarini qayd etish institutlari, shuningdek xalqimizning milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi yangi institutlar: nikoh shartnomasi, nikoh tuzuvchi taraflarning tibbiy ko'rikdan o'tishi, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohni taqiqlash hamda qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash kabilar mustahkamlab qo'yildi.

**Jinoyat huquqi** tarmog'i huquqning an'anaviy sohasidir. U o'zining qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994-y.) timsolida topgan. Unda shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlar, tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, iqtisodiy sohadagi jinoyatlar, ekologiya sohasidagi jinoyatlar, boshqaruv tartibiga va odil sudlovga qarshi jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar va boshqa institutlar mavjud.

2001-yil 29-avgustda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan jinoyat uchun jazo tayinlash siyosatini liberallashtirish masalasi o'rtaga qo'yildi. Shu asosda parlament «Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Bu umuman huquqiy tizim demokratlashuvi hamda insonparvarlashuvi tendensiyasining yaqqol ifodasidir. Jinoiy jazo tizimini erkinlashtirishga doir chora-tadbirlar ayniqsa ulkan ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi. Buning natijasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi. Jinoyat kodeksidagi jinoyat sodir etgan shaxs yetkazilgan moddiy zararni to'liq qoplagan taqdirda, sud tomonidan unga nisbatan ozodlikdan mahrum etish tariqasida jazo tayinlanishiga yo'l qo'ymaydigan normalar ancha

kengaytirildi. Mazkur o'zgarishlar qabul qilinganidan so'ng sudlarning ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni tayinlanishi 2010-yilda 2000-yilga nisbatan qariyb 26 foizga kamaydi. Shuningdek, *yarashuv instituti* joriy etilgani ham bu borada muhim qadam bo'ldi. Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'alariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'lmoqda. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida o'tgan davr mobaynida 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi<sup>1</sup>.

Mamlakat Prezidenti 2005-yilning 1 va 8-avgustida O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilish va qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida ikkita farmon qabul qildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday deb ta'kidladi: «O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 1-yanvaridan mamlakatda o'lim jazosini bekor qilish, shuningdek, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudlarga o'tkazish to'g'risida qabul qilingan qonunlari xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy kutib olindi va butun dunyoda katta aks sado berdi»<sup>2</sup>. Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran sudlar vakolatiga o'tkazilishi va uni amalga oshirishning aniq protsessual-huquqiy mexanizmini yaratish jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichida jinoiy ta'qib qilinadigan fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim kafolatiga aylanadi.

Mamlakatimizda bu borada «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008–2010-yillarda sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700

---

<sup>1</sup> Qarang: *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – Т., 2010. – Б.22–23.

<sup>2</sup> *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т., 2007. – Б. 34–35.

dan ortiq holatda mazkur ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi»<sup>1</sup>.

Protsessual huquq tarmoqlaridan biri bo'lgan **Fuqarolik-protsessual huquqi** fuqarolik-protsessual munosabatlar va ularning subyektlari, fuqarolik-protsessual muddatlar, fuqarolik ishlarida sudlovga taalluqlilik, sud xarajatlari va jarimalari, da'vo ishini yuritish, shikoyat va arizalarni sudda ko'rish jarayonlarini tartibga soladi. Mazkur huquq sohasi har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mohiyati jihatdan fuqarolik protsessual huquqi fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishni, sud qarorlarining ijro etilish tartibini belgilovchi huquq tarmog'idir. U fuqarolik, mehnat, oila, moliya huquqi sohalari bilan uzviy aloqadorlikda. Fuqarolik-protsessual huquqining asosiy manbasi – Fuqarolik-protsessual kodeksi 5 bo'lim, 40 bob, 391 moddadan iborat.

**Xo'jalik-protsessual huquqi** iqtisodiyot sohasida korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini xo'jalik sudlarida ko'rib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu huquq tarmog'ining asosiy manbai bo'lgan Xo'jalik-protsessual kodeksi 5 bo'lim, 24 ta bob va 226 moddadan iborat bo'lib, 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan va 1998-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

**Jinoyat-protsessual huquqi** sohasi respublika hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibini, jinoyat protsessi ishtirokchilarining maqomi, vakolatlari, huquqlari hamda protsessual majburiyatlarini o'rnatadi. Jinoyat-protsessual huquqi tarmog'i qonuniylik, oshkoralik, odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, aybsizlik prezumpsiyasi, protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi kabi prinsiplarga asoslanadi. Jinoyat-protsessual huquqining asosiy normativ-huquqiy hujjati bo'lgan Jinoyat-protsessual kodeksi 1994-yil 22-sentabrda qabul

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – Т., 2010. – Б. 22.

qilingan va 1995-yilning 1- aprelidan kuchga kirgan. Jinoyat-protsessual kodeksi 2 qism, 13 bo‘lim, 65 bob va 609 moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament tizimiga o‘tilishi qonun ijodkorligi va qonunchilikni rivojlantirishda, umuman milliy-huquqiy tizimni takomillashtirishda sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Ikki palatali parlament faoliyat boshlagandan buyon 312 ta qonun, shundan 110 tasi yangi qonun, 202 tasi harakatdagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘shimcha kirituvchi qonunlar qabul qilingan. Bular ichida quyidagi e‘tiborga molik qonunlarni e‘tirof etib o‘tish maqsadga muvofiq: «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi; «Elektron to‘lovlar to‘g‘risida»gi; «Kredit uyushmalari to‘g‘risida»gi; «Avtomatlashtirilgan bank tizimi axborotini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi; «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to‘g‘risida»gi; «Iste‘mol krediti to‘g‘risida»gi; «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi; «Mikromoliyalashtirish to‘g‘risida»gi; «Firma nomlari to‘g‘risida»gi; «Ipoteka to‘g‘risida»gi; «Hakamlik sudlari to‘g‘risida»gi; «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi; «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi; «Homiylilik to‘g‘risida»gi; «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi; «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlar.

Ikki palatali parlament 2010–2012-yillardagi chaqiriq davrida «Sud ekspertizasi», «Arxiv ishi», «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi», «Rieltorlik faoliyati», «Axborot-kutubxona faoliyati», «Raqobat» to‘g‘risida va boshqa qator qonunlarni qabul qildi.

Keltirilgan ro‘yxatdan ko‘rinib turibdiki, qonunlar jamiyat hayotining barcha sohalari hamda masalalariga oiddir. Barcha qonunlarni O‘zbekiston Respublikasi oldida turgan muhim vazifalar, huquqiy islohot konsepsiyasi mazmuniga ko‘ra hamda mamlakat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy, mafkuraviy va boshqa jabhalariga ko‘ra tasniflash mumkin:

1) siyosiy sohaga oid, shu jumladan, davlat mustaqilligining huquqiy asoslarini yaratish va rivojlantirish borasidagi qonunlar bo‘lib, ularga «Mustaqillik deklaratsiyasi» (1990-yil 20-iyun), «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi (1991-yil 31-avgust) qonun va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kiradi. Bulardan tashqari siyosiy tizimni, davlat organlari tuzilmasini takomillashtirish, respublika va mahalliy hokimiyat organlari maqomini belgilovchi qonunlar qabul qilindi. Bular: «Prezidentlik saylovi to‘g‘risida»gi (1991-y.);



«Oliy Kengash va mahalliy kengashlarga saylovlar haqida»gi (1993 va 1994-y.); «Oliy Majlis to'g'risida»gi (1994-y.); «Vazirlar Mahkamasi» to'g'risidagi (1993-y.); Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi (1993 va 1995-y.); «Sudlar to'g'risida»gi (1993 va 2000-y.); «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (1993 va 1999-y.) va boshqa bir qator qonunlardir;

2) mamlakatda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini joriy etishga, yangi iqtisodiy tuzum infrastrukturasini shakllantirishga qaratilgan qonunlar. Ular jumlasiga mulkchilik munosabatlariga oid, tadbirkorlik, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy sarmoyalar va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi, shuningdek mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, birjalar va birja faoliyati, xo'jalik shirkatlari, qimmatli qog'ozlar bozori, monopolistik faoliyatni cheklash, sug'urta faoliyati, sertifikatlashtirish, bankrotlik to'g'risidagi va boshqa qonunlar kiradi;

3) O'zbekistonning davlat suverenitetini mustahkamlash, davlat hokimiyati organlarining tarkibiy tuzilishi hamda faoliyatini takomillashtirishga oid qonunlar. Mazkur qonunlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi to'g'risidagi, mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi, mudofaa va harbiy xizmat, fuqarolik, hokimiyatning konstitutsiyaviy idoralarini qo'riqlash to'g'risidagi, Konstitutsiyaviy sud, Sudlar va Prokuratura to'g'risidagi qonunlar va hokazolar kiradi;

4) moliya, kredit va yangi soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan qonunlar. Bularga yuridik shaxslar va fuqarolardan olinadigan soliqlar, ya'ni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan ularni ro'yxatga olganlik uchun undiriladigan yig'imlar va bunday shaxslarni ro'yxatga olish tartibi, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi va boshqa qonunlar kiradi;

5) jamiyat hayotining ijtimoiy masalalarini tartibga soluvchi, shuningdek, madaniy-tarbiyaviy sohaga oid qonunchilik aktlari toifasiga tubandagilarni kiritish mumkin: yoshlarga oid davlat siyosati asoslari, nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, aholini ish bilan ta'minlash, ta'lim, davlat sanitariya nazorati, sug'urta, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish, aloqa to'g'risidagi qonunlar va boshq.;

6) O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishga, demokratik tashkiliy institutlar hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini



kafolatlovchi qonunlar. Bunday qonunlar guruhi quyidagicha talqin etilishi mumkin: jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, jurnalistik faoliyatining kafolatlari, Respublikaning referendumi, kasaba uyushmalari va ularning huquqlari, jamiyatni axborotlashtirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risidagi qonunlar, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi va hokazolar;

7) tabiatni huquqiy muhofaza etish davlatning muhim funksiyalaridan biri bo'lib, sog'lom ekologik muhit va musaffo tabiiy sharoit jamiyat hayoti, uning manfaatlariga bevosita daxldor sohadir. Shu bois davlatning mazkur masalalar bo'yicha qabul qiladigan qonunlari maxsus toifa sifatida turkumlanishi lozim. Ushbu toifa qonunlar quyidagilardan iborat: alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, tabiatni muhofaza etish, suv va suvdan foydalanish, qimmatli va yo'qolib borayotgan o'simlik hamda hayvonlar turlarini muhofaza etishni kuchaytirish hamda ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risidagi, yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunlar, Yer kodeksi va boshqalar;

8) mamlakatda mo'tadil huquq-tartibotni va mustahkam qonuniylik muhitni ta'minlash borasidagi qonunlarga quyidagilar kiradi: transport vositalarini olib qochganlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish to'g'risidagi, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risidagi qonunlar, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Xo'jalik-protsessual kodeksi va boshqalar;

9) mafkura va ma'naviy hayot sohasiga taalluqli qonunlar: Davlat mukofotlarini va faxriy unvonlarni ta'sis etish to'g'risidagi, bayram kunlari to'g'risidagi qonunlar. Albatta, yoshlar, ta'lim, madaniy meroslarni saqlash to'g'risidagi va shu kabi boshqa qonunlarni ham ushbu toifaga kiritish mumkin. Zero, ularning ma'naviyatimizga, g'oyaviy tarbiya hamda mafkuraga, ya'ni dunyoqarashni shakllantirishga bevosita aloqasi bor;

10) tashqi siyosat va chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy aloqalarni amalga oshirish borasidagi qonunlar: davlat boji, O'zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarini boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risidagi qonunlar. Bulardan tashqari, parlament O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan tuzgan shartnomalarini tasdiqlash, shuningdek davlatimizning turli xalqaro tashkilotlariga a'zo

bo'lish, Ahdlashuvlar va Konferensiyalarga qo'shilishi to'g'risidagi qarorlarni ratifikatsiya qiluvchi qonun hujjatlarini ham nazarda tutish o'rinli bo'lar edi.

Qonunchiligimiz rivojlanishidagi muhim tendensiya shundaki, ularning mazmuni va ruhi tobora insonparvarlashib bormoqda, o'zida milliy xususiyatlarni, xalqning qonuniylik, odil sudlov va adolat to'g'risidagi tasavvurlarini ifoda etmoqda. Qonunlar xalqimizning boy tarixi, milliy-madaniy va ma'naviy qadriyatlariga asoslanmoqda.

O'zbekiston xalqaro davlatlar hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va prinsiplarining ustunligini tan olgan. Shundan kelib chiqib, respublika qonunchiligining mazmuni xalqaro huquq talablari, prinsiplari va me'yorlariga muvofiqlashmoqda.

Qonunchiligimizning mazmuni yangi mafkura – milliy istiqlol mafkurasiga va milliy axloqiy qoidalarga qat'iy tayanmoqda.

Komil ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatda huquqiy davlatchilik sari borilayotgan, ko'ppartiyaviylik asosida parlament demokratiyasi qaror topib borayotgan sharoitda qonun chiqarish faoliyati ham, qonunchiligimiz ham ilg'or demokratik yo'nalishda boyib, rivojlanib va takomillashib boraveradi.

Qonunchiligimiz qaysi ustuvor yo'nalishda va qay tarzda rivojlantirilishi lozim, degan savolga eng umumiy tarzda quyidagicha javob berish mumkin. Fikrimizcha, *birinchidan*, ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga, iqtisodiyotning ustuvor jabhalariga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni yaratishga e'tiborni qaratish;

*ikkinchidan*, siyosiy, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy sohaning o'ta muhim va dolzarb masalalari bo'yicha qonunlarni qabul qilish, ularni muntazam yangilab, takomillashtirib borish;

*uchinchidan*, davlat idoralari huquqiy maqomini, siyosiy tizimning boshqa tarkibiy qismlari maqomini demokratiya va huquqiy davlatchilik prinsiplari asosida takomillashtirishga qaratilgan qonunlar chiqarish;

*to'rtinchidan*, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, ularga qat'iy rioya etish, ularni muhofaza etishga qaratilgan qonunlar yaratish va shu orqali jamiyatda mustahkam qonuniylik muhitini, chinakam demokratik huquqiy davlatni vujudga keltirishga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasining qonun chiqarish amaliyoti puxta ilmiy zaminga asoslanishi shart. Qonunchilik faoliyatining barcha jihatlarini huquqshunoslik nazariyasi tomonidan qayta mushohada etilishi, mustaqil

davlat *qonunchiligining ilmiy konsepsiyasi* vujudga keltirilishi lozim. Huquqshunoslik fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri qonunchilik mexanizmining hamma tarkibiy bo'g'inlarini chuqur tahlil etish va shunga doir ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Qonunlarning ilmiy «saviyasini» oshirish, sifatini yaxshilash jamiyatga huquq vositasida rahbarlik qilishning, uni boshqarishning ilmiy darajasini yuksaltirish imkonini beradi. Qonunchilikni takomillashtirish manfaatlari qonun yaratish faoliyatini huquqiy, ijtimoiy, ruhiy va tashkiliy tomonlarini hamda protsessual tartiblarini nazariy o'rganishni talab etmoqda. Shu bois O'zbekistonning yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish va qonunchilik jarayonini nazariy tadqiq etish o'ta muhim siyosiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini konstitutsiyaviy zamin asosida takomillashtirib borish, tub *huquqiy islohotlarning yagona milliy konsepsiyasini* yaratish lozim. Unda huquqiy islohotlarning maqsadi, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari o'z aksini topishi maqsadga muvofiq. Ushbu islohotning asosiy mazmuni, *birinchidan*, O'zbekiston davlat mustaqilligining huquqiy (qonunchilik) bazasini vujudga keltirish hamda takomillashtirish lozimligidan, *ikkinchidan*, mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini qaror toptirishning huquqiy asoslarini yaratish zaruriyatidan, *uchinchidan*, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini real ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqadi.

Yuqoridagi maqsad va vazifalar asosida qonunchilikni rivojlantirishning quyidagi *asosiy yo'nalishlarini* ko'rsatish mumkin:

siyosiy islohotlarni huquqiy ta'minlash – qonunchilik bazasini yaratish va takomillashtirish;

iqtisodiy islohotlar, ya'ni bozor munosabatlari infrastrukturasi shakllantirishning qonunchilik asoslarini mustahkamlash;

sud-huquq islohotlarining qonunchilik negizini vujudga keltirish va yanada rivojlantirish.

Ko'rsatilgan har bir yo'nalish bo'yicha talaygina qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Biroq qonunchilikni takomillashtirish uzluksiz jarayondir. Hayot qonunchilik oldiga o'zining yangi-yangi talablarini qo'yaveradi va qonunlar jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos ravishda yaratilib, muttasil rivojlanib boraveradi.

Huquqiy tizimning shakllanishi va takomillashuvi uning tarkibiga kiruvchi boshqa elementlarning rivojlanishini nazarda tutadi. Mustaqillik yillarida jamiyatning ijtimoiy-huquqiy ongi, fuqarolarning huquqiy

madaniyati ham o'sib, islohotlar davri bilan hamohang tarzda yuksalib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir<sup>1</sup>.

Shuningdek, milliy huquqiy tizimning boshqa bo'g'inlari, ya'ni huquq ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar tizimi, yuridik fan, yuridik muassasalar, yuridik amaliyot, huquqiy munosabatlar tizimi va boshqalar ham izchil rivojlanib bormoqda.

Shunday qilib, mamlakatimiz huquqiy tizimi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishdek strategik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlab, istiqlol davri talablariga mos tarzda bosqichma-bosqich shakllanib, jamiyat yuksalishi barobarida takomillashib, mazmunan boyib va muntazam mukammallashib borayotgan serqirra ijtimoiy organizmdir.

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза (2010 йил 12 ноябрь). – Т., 2010. – Б. 27.

---

## **XVII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI**

### **1-§. Huquqiy davlat nazariyasining tarixiy manbalari**

Kishilik jamiyati turmushida siyosiy, davlat-huquqiy munosabatlar paydo bo‘lgan qadim davrlardan boshlab adolatli davlat tuzumi, qat’iy tartibot, qonunlarga muvofiq yashash haqidagi o‘y-fikrlar, qarashlar va g‘oyalar ham shakllangan. O‘nlab asrlar o‘tdi, turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlar zohir bo‘ldi, insonlarning necha-necha avlodlari tarix sahnasiga kelib ketdi. Har bir avlod o‘zidan avval o‘tgan avlod yaratgan ijtimoiy fikr, g‘oya va ta’limotlarni o‘ziga singdirib, ularni shaxsiy tajribasi bilan boyitib, keyingi avlodlarga meros etib qoldirdi. Ana shunday uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib sayqal topgan o‘lmas g‘oyalardan biri huquqiy davlat nazariyasidir.

Shak-shubhasiz, huquqiy davlat to‘g‘risidagi ta’limotni insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fikr xazinasida durdonalari qatoriga kiritish lozim. Binobarin, tarixiy tajriba ham, hozirgi zamon ilg‘or taraqqiy etgan davlatlarining voqeligi ham bu nazariyaning hayotiyligini va ijtimoiy qadr-qimmatga ega ekanligini tasdiqlamoqda.

Navqiron mustaqil respublikamizda demokratik huquqiy davlatchilikni barpo etish vazifasi va uning nazariy dasturini ishlab chiqib hayotga joriy etish zaruriyati ijtimoiy fan va amaliyot oldiga qator mas’uliyatli vazifalarni qo‘ydi. Bu masala xususida turli tasavvurga ega bo‘lish uchun huquqiy davlat haqidagi ta’limotning tarixini chuqur tahlil etish, uning ma’nosini, asosiy prinsiplari va o‘zga xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy hokimiyatni tashkil etish va faoliyatiga xos shakl hamda usullarni bilish lozim. Muhimi, bizning huquqiy davlatchilikka qarab harakatlanish yo‘limizning mantig‘i, mazmuni va istiqbollari oydinlashtirib olishdir.

Huquqiy davlat – muayyan nazariy ta’limot va tegishli amaliyot sifatida uzoq va ibratli tarixga ega.

«Huquqiy davlat» iborasi ilk bor XIX asrning birinchi choragida nemis huquqiy adabiyotida o‘z ifodasini topdi va mustahkamlandi (masalan, K.T. Velker, Rudolf fon Mol va boshqalarning asarlarida). Ingliz adabiyotida bu ibora ishlatilmaydi, ma’lum ma’noda shu iboraga ekvivalent hisoblangan «huquq hukmronligi» (rule of law) iborasi qo‘llaniladi.



Biroq huquqiy davlatchilik g'oyasini, ma'nosi va tushunchasini ifodalovchi nazariy falsafiy konsepsiyalar ancha qadim zamonlardanoq shakllana boshlagan. Ilg'or burjua siyosiy va huquqiy fikri maydonga kelayotgan chog'da yangi falsafiy dunyoqarash antifeodal, dunyoviy, antiteologik va antiklerikal qarashlarga qarshi, feodal istibdodi va qonunsizlikka, absolutizm va mustabid rejimlarga qarshi huquqiy davlat haqida g'oyalar jadal targ'ib qilina boshlandi. Bunda insonparvarlik, barcha kishilarning erkinligi va tengligi, inson huquqlarining ajralmasligi, ijtimoiy-siyosiy hokimiyatni uzurpatsiya qilinishiga qarshi hokimiyatlar taqsimlanishi, konstitutsionalizm va boshqa prinsiplar ilgari surildi.

Ilg'or mutafakkirlar G. Grotsiy, B. Spinoza, D. Lokk, SH.L. Monteskye, T. Jefferson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy davlatchilik g'oyasi va konsepsiyalari o'zining yangiligi bilan har qancha ta'riflanmasin, ular baribir o'tmish tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va huquqiy ta'limotlarga va amaliy tajribaga, sinalgan umuminsoniy qadriyatlar va gumanistik an'analarga tayangandir. Huquqiy davlatchilik haqidagi nazariy tasavvurlar va amaliy tajribaning shakllanishiga ko'p jihatdan qadimgi Xitoy, Sharq, Yunoniston va Rim falsafiy, siyosiy-huquqiy qarashlari, g'oyalari, ta'limotlari, shuningdek antik demokratiya, respublikachilik va huquqiy tartibot institutlari katta ta'sir ko'rsatgan.

Qadim zamonlardanoq huquq bilan hokimiyatning o'zaro bog'liqligi, o'zaro munosabati va mutanosibliigi, ularning harakat yunalishlarini bir-biriga muvofiqligini ta'minlashning shakllari, usullari va prinsiplari izlana boshlangan. Davlat va huquq to'g'risidagi tasavvurlar chuqurlashib borishi jarayonida o'sha davrlardayoq ijtimoiy turmushning, oqilona va adolatli siyosiy shakllari haqidagi g'oyalar shakllangan. Bunda huquq ijtimoiy hokimiyatga tayangan holda umummajburiy qonunga aylanishi, o'z navbatida, huquqni tan oluvchi ijtimoiy hokimiyat esa unga muvofiq o'zini chegaralab adolatli davlat hokimiyati sifatida maydonga chiqishi nazarda tutilgan.

I. Huquqiy davlat to'g'risidagi tasavvurlarni rivojlantirishda antik davr allomalari ham salmoqli hissa qo'shganlar. Ular ichida, masalan, Solon, Arastu va boshqalar «kuch bilan huquqning qo'shilishidan qonun hukmronligi to'g'risidagi qoidalar»ni; Suqrot, Aflotun, Arastu, Polibiy, Sitseron «boshqaruvning to'g'ri va noto'g'ri shakllarini farqlash to'g'risidagi mulohazalar»ni; Demokrit, safizm vakillari «tabiiy va irodaviy o'rnatilgan huquqning nisbati haqidagi fikrlar»ni; ayrim sofistlar, stoiklar, rim yuristlari «tabiiy huquqqa muvofiq insonlarning tengligi

to'g'risidagi qarashlar»ni; Arastu «huquqning adolat va siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yor ekanligi to'g'risidagi g'oyalar»ni; Sitseron «davlat – xalq ishi» ekanligi, «davlat – huquqiy muloqot va umumiy huquqiy tartibot ekanligi haqidagi qarashlar»ni va boshqalarni ilgari surdilar<sup>1</sup>.

II. Feodal absolutizmga qarshi adolatparvarlik va huquqiy voqeliklarni burjuaziya manfaati nuqtai nazaridan talqin etgan XVII asrda yashagan klassik ingliz olimi J. Lokkdir. Uning talqinida huquqning hukmronligi g'oyasi shunday davlatni anglatadiki, unda tabiiy huquqqa mos keluvchi va insonlarning ajralmas tabiiy huquqini hamda shaxs erkinligini ifodalovchi va hokimiyatlar taqsimlanishiga asoslanuvchi qonunning ustuvorligi amal qiladi. Lokk huquq hukmronlik qiluvchi davlatni despotizmga qarama-qarshi qo'yadi.

Xalq suvereniteti va ijtimoiy shartnoma davlatchilikning huquqiy asosi va manbaini tashkil etadi, degan g'oyaga tayanib Lokk «hokimiyatning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlariga nisbatan qarshilikning qonuniyligi ta'limoti»ni isbotlab chiqdi<sup>2</sup>. Huquqiy davlat sharoitida shaxsning huquq va erkinligi haqidagi klassik liberal ta'limotning ko'pgina qoidalari ham Lokka tegishlidir. «Odamlarning erkinligi shu jamiyatlardagi qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rnatgan doimiy qoida bilan belgilanadi; bu – qonun bilan taqiqlanmagan hamma hollarda o'z shaxsiy istagiga rioya etishdir<sup>3</sup>. Bu prinsip keyinchalik mustahkamlangan «qonun bilan taqiqlanmagan hamma narsaga ruxsat etiladi», degan qoidadan faqat so'z ifodasi jihatidan farq qiladi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi to'g'risidagi yangi tasavvurlarni XVIII asrda yashab ijod etgan SH.L. Monteskye izchil tizimga keltirgan. U har qanday davlatda uchta hokimiyatni – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini farqlaydi. Hokimiyat tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan zo'ravonliklar va suiiste'molliklarni bartaraf etish uchun shunday tartib o'rnatilishi kerakki, bunda turli hokimiyatlar bir-birini o'zaro tiyib turishi lozim. Hokimiyatlarning taqsimlanishi va o'zaro bir-birini tiyib turishi, Monteskyening fikricha, davlat tuzilishiga nisbatan siyosiy erkinlikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Erkinlik – qonun bilan ijozat etilgan har qanday ishni qilish huquqidir<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: *Нерсисянц В.С.* Право и закон. – М., 1983. – С. 7–48.

<sup>2</sup> *Локк Д.* Избранные философские произведения. Т.2. – М., 1960. – С. 116.

<sup>3</sup> О'sha joyda. – Б. 16–17.

<sup>4</sup> *Монтескье Ш.Л.* Избранные произведения. – М., 1955. – С. 289.

Huquqiy davlat nazariyasining falsafiy isboti va talqini I. Kant qalamiga mansubdir. Uning davlat va huquq haqidagi qarashlari «Fe'l-atvor metafizikasining asoslari to'g'risida» (1785), «Amaliy aql tanqidi» (1788), «Huquq to'g'risidagi ta'limotning metafizik asoslari» (1797), «Boqiy dunyoga» (1793) asarlarida bayon etilgan.

Kant falsafasining mohiyati, uning o'z ta'biri bilan aytganda, transsendental idealizmdan iborat bo'lib, obyektiv olamni uni o'rganuvchi subyektning ongidan tashqari anglash mumkin emasligidadir<sup>1</sup>.

I. Kant davlatga ham idealistik pozitsiyadan yondashadi. «Davlat, – deydi u, – bu huquqiy qonunlarga itoat etuvchi kishilar jamoasining birligidir». Kant fikriga ko'ra: davlatning farovonligi davlat tuzilishining huquqiy prinsiplar bilan oliy darajada muvofiqlashganligiga bog'liqdir; bunday muvofiqlikka bizni qat'iy imperativ orqali aql majbur qiladi. Kant falsafasida davlatchilik sohasida qat'iy imperativ talablarini amalga oshirish davlatning hokimiyatlar taqsimlanishi bilan birga huquqiy tashkil etilishidir. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi mavjudligi yoki yo'qligi munosabati bilan u boshqaruvning ikki shaklini: respublika (mohiyatan bu huquqiy davlatdir) va despotiyani bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi.

I. Kantning xalq suvereniteti g'oyasidan kelib chiquvchi nazariyasida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarni chegaralash hal qiluvchi kasb etadi. «Respublikanizm, – deb yozadi u, – ijroiya hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratishning davlat prinsipidir; despotizm – davlat qonunlarini o'zboshimchalik bilan ijro etish prinsipidir; bunda ijtimoiy iroda hokimning xususiy irodasi sifatida maydonga chiqadi»<sup>2</sup>. Qonun chiqaruvchi hokimiyatga nisbatan I. Kant quyidagi cheklovchi prinsipni ifodalaydi: xalq o'ziga nisbatan hal eta olmagan (ya'ni o'ziga ravo ko'rmagan – M.M.) narsani qonun chiqaruvchi xalqqa nisbatan hal eta olmaydi.

Agar I. Kant ta'limotida huquqiy qonunlar va huquqiy davlat mavjud bo'lishi kerak bo'lgan narsalar bo'lsa, Gegelda ular real voqelikdir, ya'ni insonlar voqeligining, shaxsning, oilaning va jamiyatning huquqlarini muayyan shaklda aqlni amaliy realizatsiya qilinganligidir.

Davlat, – Gegelning fikricha, – u ham huquqdir, ya'ni – konkret huquq, dialektik talqinga ko'ra, eng rivojlangan va mazmunan boy huquqdir, barcha abstrakt huquqlarni – o'ziga qamrab oluvchi butun huquq sistemasidir. Davlat huquqiy ehrom cho'qqisiga qo'yiladi. Davlat

---

<sup>1</sup> История политических учений. – М., 1960. – С. 381–383.

<sup>2</sup> Кант И. Соч. Т.6. – С. 269.

indivud va jamiyat ustidan qo'yilib, go'yo «xudoning bu dunyodagi sayl-yurishi» sifatida ko'klarga ko'tarib maqtaladi<sup>1</sup>. Gegel huquqiy etatist. U huquqiy davlatni olqishlaydi va ilohiylashtiradi<sup>2</sup>.

Gegelnng fikricha, inson erkinligi hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipiga asoslangan (podshoh, hukumat va qonun chiqaruvchi hokimiyat) konstitutsion monarxiya sharoitida ta'minlanadi. Davlatda hokimiyatlarning oqilona taqsimlanishi «ijtimoiy erkinlikning kafolatidir»<sup>3</sup>. Umuman huquqiy davlatning gegelcha konstruksiyasi to'g'ridan-to'g'ri va qat'iy tarzda zo'ravonlikka, huquqsizlikka va xususiy shaxslar, siyosiy birlashmalar va davlat hokimiyati tomonidan kuch ishlatishning har qanday g'ayrihuquqiy shakllariga qarshi qaratilgan.

Qadimgi Sharq, shu jumladan Markaziy Osiyo hududida o'tmishda yashab ijod etgan alloma bobokalonlarimiz ham huquqiy davlat, adolatli ijtimoiy tuzum haqida o'z ilg'or qarashlariga ega bo'lganlar. Insonlarning ozod, erkin va tenglik asosida munosabatda bo'lishlari, jamiyatda adolat va haqiqat tantana qilishi, shohlar ma'rifatparvar va odil bo'lishlari haqidagi qarashlar Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Hamadoniy, Najmiddin Kubro, Xo'ja Axmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Forobiy, Bedil va boshqalarning falsafiy ta'limotlarida ilgari surilgan.

Xususan, Xo'ja Samandar Termiziy o'zining «Dastur al-muluk» asarida «Jonivor kuyiga tushib beaql o'jarlik va nobop xatarli intilish qilayotgan kimsalarni qamchin bilan jazolangki, toki ular o'zgalarga zarar yetkazmasinlar, aks holda boshqaruvda qat'iy hokimiyatni ta'minlovchi tartibga putur yetadi. Kimki zo'rlik boltasi bilan adolatsizlik payini qirqmas ekan, u zamon bog'ida yosh umid daraxtini o'stira olmaydi... Magar mamlakatni boshqaruvchi qonunlar zavol topsa, Dunyoning asosi barbod bo'ladi»<sup>4</sup>.

Jaloliddin Davoniy fikriga ko'ra: «Har qanday davlat tashkiloti o'zining mo'tadilligi bilan ajralib turadi, qonunlar esa o'z tartibi bilan ijro etiladi. Bu qonundan chetga ketiladigan bo'lsa, har bir qoida qarama-qarshilik manbaiga aylanadi hamda u do'stlik munosabatlarning buzilishiga, yomonlik va parokandalikka sabab bo'ladi. Zero, har qanday

---

<sup>1</sup> Qarang: Гегель. Философия права. – М., 1934. – С. 268.

<sup>2</sup> Qarang: Нерсесянц В.С. Гегелевская философия права. – М., 1974. – С. 97–110.

<sup>3</sup> Qarang: Гегель. Философия права. – М., 1934. – С. 293.

<sup>4</sup> Ходжа Самандар Термизи. Назидание государям. – М., 1971. – С. 27–28.

davlatning asosini a'zolari qonun oldida teng bo'lgan jamiyatning ittifoqi va fikri tashkil etadi»<sup>1</sup>.

Hazrati Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy, adabiy va falsafiy qarashlari uni butun dunyoga buyuk gumanist, ma'rifatparvar inson, erkinlik va adolat kuychisi sifatida tanitdi. Navoiy «odil podshoh» siymosini chizdi. Xalq farovonligi va madaniyatining ravnaqi bobida jon kuydirib, hukmdorlarni adolat va insofga chorladi: «Podshoh o'z fuqarolari to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, umumxalq farog'ati yo'lida posbon bo'lishi; u – xudoning noibi sifatida olloh singari saxovatli, rahmdil bo'lishi kerak; Podshoh – rahm-shafqat va jazo berish manbai»<sup>2</sup>.

Navoiy o'zining «Mahbub ul-qulub» asarida quyidagilarni yozadi: «Qozi musulmonlik binosining tayanchidir va musulmonlarning yaxshi va yomon ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchidir... Qozining mahkamasi shariat ilmining xazinasi bo'lmog'i ... u hukm vaqtida oshnaga ham, begonaga ham bir saviyada qaramog'i... Qozi qonun yo'lidan bir qadam ham toymasligi – to'g'ri yo'ldan chiqmasligi lozim... Modomiki, hukm elning moli va joniga taalluqli ekan, qozining shiori to'g'rilik va adolat bo'lmog'i lozim...»<sup>3</sup>.

Navoiyning bu fikrlarida huquqiy davlat asosini tashkil etuvchi qonuniylik, adolatlilik, sudlov hokimiyatining halol va bukilmas bo'lishi kabi prinsiplar o'z ifodasini topgan.

Adolat tantanasiga chorlash, insonning erkin va ozod bo'lishi, uning dunyodagi eng oliy ne'mat ekanligini ta'kidlash Umar Hayyom falsafasining negizini tashkil etadi. Uning tarixiy va adabiy asarlarida inson qadri benihoya ulug'vorlik kasb etadi.

Yaqin o'tmishda yashab ijod etgan vatandoshimiz Abdurauf Fitrat ham ilg'or fikr namoyandasi bo'lib, huquqiy davlat g'oyasi va amaliyotini o'zbek davlatchiligi voqeligiga aylantirishga intilgan. Fitrat tomonidan tuzilgan va Yosh buxoroliklar qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan «Islahotlar loyihasi»da ikki maqsad ko'zlangan edi: Buxoroda huquqiy davlatchilikni joriy etish; Buxoroni xalqning farovonligi va madaniyligi zaminida iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan mustahkamlash<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Джалаладдин Давани. Ахлоки жалоли. Рукопись. ИВ. АН РУз. инв. 7703.

<sup>2</sup> История политических учений. – М., 1960. – С. 151.

<sup>3</sup> Аlisher Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Т., 1983. – Б. 23–24.

<sup>4</sup> Qarang: Файзулла Ходжаев. Избранные труды. Т.1. – С. 124.



## 2-§. «Huquqiy davlat» tushunchasi va mohiyati

Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish istiqloлга erishgan xalqimizning asosiy strategik maqsadlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqloл va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida ta’kidlaganidek, bizning pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdir»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat va davlat boshqaruvining xalqimiz tabiati va tarixiy an‘analariga mos mukammal institutlarini yaratishga imkoniyat tug‘ildi. Ushbu davrda yurtimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar tufayli jamiyat turli qatlamlarining manfaatlarini ifodalovchi hamda unga xizmat qiluvchi siyosiy tizim, davlat organlari tizimi, zamonaviy boshqaruv apparati shakllantirildi.

Huquqiy davlat, eng umumiy tarzda ta’riflanganda, bu huquq hukmronligi o‘rnatilgan davlatdir. Aniqroq va batafsilroq tasniflaydigan bo‘lsak, huquqiy davlat – bu ijtimoiy-siyosiy hokimiyat tashkil etilishi hamda faoliyatining va uni huquqiy sohibi bo‘lgan individlar bilan o‘zaro munosabatlarining huquqiy shaklidir.

Huquqiy davlatning mohiyati va mazmuni haqida chuqur bilimga ega bo‘lish uchun uning asosiy xususiyatlari, belgilari va qirralarini tashkil etuvchi tarkiblarini jamlab o‘rganish lozim. Bunday o‘ziga xos va muhim belgilar (xususiyatlar)ni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

- huquqiy qonunning oliyligi;
- shaxs huquq va erkinliklarining realligi;
- suveren davlat hokimiyatining hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi asosida tashkil etilganligi va faoliyat yuritishi.

Mazkur masalalarning har biriga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Huquqiy davlatning mohiyatini qonunning ustunligi (oliyligi) tashkil etadi. Bu o‘rinda shu narsa muhimki, har qanday qonunning ustunligini ta’minlash bu hali huquqiy davlatchilik vujudga keldi degani emas. Chunki, qonunlar o‘z mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, mustabid, totalitar, avtoritar, fashistik davlatlarda nohaqlik, zo‘ravonlik va johillikni ifodalovchi qonunlar amal qilishi mumkin. Bunday qonunlarning ustunligini ta’minlash huquqiy davlatchilik bilan

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т., – Б. 168.

hech qanday aloqasi yo‘q. Huquqiy davlatda tom ma’noda xalq irodasini ifodalovchi adolatli, demokratik, insonparvar qonunlarning ustuvorligi ta’minlanishi nazarda tutiladi. Xuddi shu ma’noda haqqoniy, huquqiy qonun haqida gapiriladi.

Qonun – davlat faoliyati o‘zboshimchaligining mahsuli emas, balki u umuminsoniy qadriyatlarga, tenglik va adolatning demokratik huquqiy prinsiplariga mos bo‘lishi kerak. Shaxs erkinligiga putur yetkazuvchi, uni davlat bilan munosabatlarda noteng subyektga aylantiruvchi qonunchilik qoidalarini huquqiy davlat g‘oyasiga qarama-qarshi keladi. Qonunda jamiyatda mavjud va shakllanayotgan ijtimoiy munosabatlar o‘zining bevosita va obyektiv ifodasini topishi lozim.

Davlat, uning barcha idoralari, mansabdor shaxslar va fuqarolar o‘z faoliyatida qonun bilan qat’iy bog‘liq bo‘lishi, qonunga zid, uning talablariga qarshi biron-bir xatti-harakatni qila olmasligi talab etiladi. Ayni vaqtda, qonunning hukmronligi prinsipi qonunning «mutlaq hukmronligi» degan ishonchni, har qanday masalani faqat qonun vositasi bilan hal qilish mumkin, degan «yuridik eyforiya»ni tug‘dirib chiqarmasligi kerak. Qonunning jamiyat hayotidagi roli katta, ammo u barcha muammo va «dard»larga yagona da’vo emas.

2. Huquqiy davlatda hokimiyatning diqqat markazida turadigan asosiy narsa – bu fuqarolarning, shaxsning huquq va erkinliklarining kafolatlanganligidir. Huquq, qonun erkinlik va adolat me’yori sifatida maydonga chiqadi. Qonun yordamida shaxs erkinliklarining ta’minlanishi – huquqiy davlatning muhim funksiyasidir.

Fuqaro hamisha o‘zini erkin his etishi uchun sharoit yaratilgan bo‘lishi, u davlatning homiyligiga tayana olishi, uning panohida va muhofazasida yashashi lozim. Unga tegishli siyosiy, ijtimoiy va shaxsiy huquqlar va erkinliklar kafolatlab berib qo‘yilishi kerak. Masalan, fuqaro o‘z fikrini erkin bildirish huquqiga, davlat idoralariga saylash va saylanish huquqiga, davlat idoralariga murojaat etish huquqiga, o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya etish uchun siyosiy va ijtimoiy uyushmalarga birlashish huquqiga, shaxsiy daxlsizlik huquqiga, mol-mulk daxlsizligiga, aybsizlik prezumpsiyasi va shu kabi huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi lozim.

Shaxs huquqi va erkinliklarining kafolatlarini mustahkamlashning muhim sharti – fuqarolar huquqlarini sud yo‘li bilan muhofaza etishni kengaytirishdir. Fuqarolar o‘zlarining har qanday huquqlari poymol etilgan taqdirda bu xususda shikoyat qila olishlari mumkin bo‘lishi kerak. O‘z navbatida, sud buzilgan huquqni adolat yuzasidan tiklashni o‘zining muqaddas burchi deb bilishi lozim.

3. Hokimiyatlar taqsimlanishi – demokratik huquqiy davlat tabiatiga xos prinsipdir. Hokimiyatlar taqsimlanishi, har bir davlat hokimiyati organlarining vakolat doirasini qat’iy chegaralab qo’yish orqali huquqiy davlat huquqiy tarzda tashkillashadi va faoliyat yuritadi.

Adolatli qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki bir-biriga tobe bo’lmagan uchta hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo’lishi shart. Ularning biron-bir organ yoki shaxs qo’lda mujassamlanishi jamiyatning umumiy manfaatlariga putur yetkazadi, suiiste’molchiliklarga olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan aslo sig’ishmaydi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo’lda birlashtirilishi qonunning ustun bo’lishiga zarar yetkazadi, bordi-yu, sudyalari faqat sudlov bilan mashg’ul bo’lmay, qonun yaratish ishi bilan shug’ullansalar, u holda insonlar hayoti nohaqlik qurboniga aylanishi mumkin<sup>1</sup>.

Hokimiyatlar taqsimlanishi ta’limotida diqqatga sazovor asosiy narsa shuki, bunda uchta hokimiyatning vakolatlari qonun (Konstitutsiya)da belgilangan bo’lib, ular o’zaro teng bo’lishi, bir-birlarining huquq va vakolatlariga daxl qilmasliklari lozim. Hokimiyatning uchchala bo’g’ini qonunga itoat etadi va qonun oldida teng mavqega ega bo’ladilar. Mazkur ta’limotdagi yana bir muhim jihat – bu hokimiyatlarning muvozanati, tengligini ta’minlash uchun ularning «o’zaro bir-birini tiyib turish va o’zaro qarama-qarshi ta’sir etish muruvvatlari tizimi» mavjud bo’lishidir. Hokimiyat idoralarining har biri o’zlari uchun qonunda belgilangan davlat funksiyalarini mustaqil o’tish bilan birgalikda, o’z huquqiy vositalari (vakolatlari) yordamida bir-birini muvozanatga chorlab turadilar, hokimiyat vakolatlarini bitta muassasa (shaxs) tomonidan qonunsiz ravishda tortib olinishi (uzurpatsiya qilinishi)ni bartaraf etadilar.

Hokimiyatlar taqsimlanishi – bu nafaqat yuridik va tashkiliy prinsip, balki inson qadri nuqtai nazaridan ijtimoiy hayotning hokimiyat va erkinlik, qonun va adolatli huquq, davlat va jamiyat kabi qarama-qarshi jihatlarini uyg’unlashtiruvchi ijtimoiy-siyosiy prinsip hamdir.

Hokimiyatlar taqsimlanishi siyosiy hayotning, davlat tuzumining demokratikligi o’lchovi, me’yoridir.

Huquqiy davlat huquq va qonunning ustunligi, qonun va sud oldida barchaning tengligi ta’minlanadigan, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, davlat hokimiyati vakolatlari demokratik taqsimlash

---

<sup>1</sup> Qarang: *Одилқориев Х. Ўзбекистоннинг янги Конституцияси ва ҳокимиятлар тақсимланиши принципи.* – Т., 1993. – Б.6.

asosida tashkil etiladigan adolatli davlat sifatida ta'riflanadi. Zamonaviy huquqiy davlat – avvalo, inson huquq va erkinliklari, hokimiyatni amalga oshirishda (bevosita yoki vakillar orqali) xalqning ishtiroki ta'minlanuvchi demokratik davlat. U yuksak huquqiy va siyosiy madaniyat, rivojlangan fuqarolik jamiyatini nazarda tutadi. Huquqiy davlatda fuqarolarga o'z qarashlari va e'tiqodlarini qonun doirasida himoya qilish imkoniyati ta'minlanadi. Bu, xususan, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining shakllanishi va faoliyat olib borishi, siyosiy plyuralizm, so'z va matbuot erkinligi hamda shu kabilarda o'z ifodasini topadi.

Huquqiy davlatning mohiyati – ijtimoiy va siyosiy hayotda huquqning ustunligi, suveren huquqiy hokimiyatning mavjudligida ifodalanadi. Hokimiyatning bo'linishi prinsipi yordamida davlat huquqiy usulda tashkil topadi va faoliyat ko'rsatadi, bu siyosiy hayotning demokratlashuvi mezonidir.

Huquqiy davlat huquq bilan bog'langan bo'ladi, qonunning ustunligidan kelib chiqadi, jamiyat tomonidan belgilangan mezonlar doirasida ish ko'radi, jamiyatga bo'ysunadi, fuqarolar oldida mas'ul bo'ladi, fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta'minlaydi.

Huquqiy davlat – fuqarolik jamiyatining siyosiy shakli bo'lib, jamiyat hayotida demokratik institutlarning rivoj topishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi mavjudligi bilan tavsiflanadigan, inson huquq va manfaatlarining ustuvorligini ta'minlaydigan davlatdir.

Insoniyat davlat paydo bo'lgan qadimgi davrdan buyon adolatli hokimiyat (adolatli hukmdor) haqida orzu qilib keladi. Mana shu istak huquqiy davlat haqidagi ta'limotning rivojlanishiga turtki bergan.

Huquqiy davlatning nazariy manbalari o'z ildizlari bilan o'tmishga borib taqalganligini ta'kidlash joiz. Qadim zamonlarda yashab o'tgan buyuk allomalar (Aflotun, Arastu) davlat huquqning ulkan ijobiy ahamiyatini hisobga olmagan holda mustahkam, barqaror va ishonchli bo'la olmasligi haqida fikr bildirganlar. Huquq davlat hukmdorlarining zo'ravonligiga qarshi posangi sifatida baholangan: ya'ni, qonun hech kimning hukmronligi ostida bo'lmasligi kerak, zero barcha organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning harakatlarini yo'naltirishga xizmat qiladi.

Dastlab tarqoq bo'lgan, ba'zida esa alohida farazlar sifatida namoyon bo'lgan g'oyalar zamirida keyinchalik huquqiy davlatning izchil va yaxlit konsepsiyasi vujudga keldi. Uning asoschilari Dj. Lokk, I. Kant, V. Gumbold, G. Yellinek, K. Shmidt hisoblanadi. Mazkur allomalarning qarashlarida ayrim tafovutlar bo'lsa-da, umuman olganda ular bir narsada

haqlar, u ham bo'lsa, davlatning o'zi huquqiy qonun-qoidalariga amal qilishi va buni ijtimoiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilaridan talab qilishi kerakligidan iborat. Huquqiy davlat nazariy konsepsiyasi qoidalarining bir qator davlatlarning amaliy faoliyatiga tatbiq etilishi konservativ kuchlarning qarshiligiga uchragan va uni yenggan holda davlat va jamiyat faoliyatining barcha jabhalarida chuqur o'zgarishlar bilan iz qoldirgan.

### **3-§. Huquqiy davlatning asosiy belgilari va xususiyatlari**

Huquqiy davlatning asosiy belgisi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidir<sup>1</sup>.

*Huquqiy davlat* – huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat.

Huquqiy davlatning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

1) *huquqning hukmronligi*. Davlat hududida bo'lgan barcha kishilar: ushbu davlat fuqarolari, xorijliklar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, yuridik shaxslar, mansabdor shaxslar, davlat hokimiyat idoralari barchasi huquqqa bo'ysunadilar;

2) *Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi*. Konstitutsiya va qonunlar huquqiy normalar tizimida oliy yuridik kuchga egadir. Turli xil davlat idoralari chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar qonunlarga zid bo'lmasligi kerak;

3) *inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash*. Inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan tegishli bo'lib, ular insondan ajralmasdir. Gap, eng avvalo, insonning yashash, erkinlikka, daxlsizlikka, xavfsizlikka ega bo'lish huquqlari hamda boshqa huquq va erkinliklari to'g'risida bormoqda. Barcha fuqarolar qonun va mustaqil sud oldida tengdirlar;

4) *davlat va fuqaroning o'zaro mas'uliyati*. Davlat qonunlarda shaxs erkinligining me'yorini belgilab qo'yar ekan, xuddi shu chegaralarda o'zini ham qaror qabul qilishda cheklab qo'yadi;

5) *jamiyatda hokimiyatning qonuniyligi (legitimligi)*. Hokimiyatni qonuniy e'tirof etish uchun quyidagi talablarga javob berilishi shart: hokimiyatning

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1966. – Б. 125.



demokratik saylovlar yo‘li bilan shakllantirilgan bo‘lishi; hokimiyat samarali faoliyat yuritib jamiyatda barqarorlik va qat’iy tartibni ta’minlash; u ham mamlakat ichkarisida, ham xalqaro miqyosda tan olingan bo‘lishi lozim;

6) *hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi*. Davlat hokimiyati bir qo‘lda to‘planib qolmasligi uchun hokimiyatning uchta tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini ajratib qo‘yish kerak. Ushbu hokimiyat tarmoqlarining har biri o‘z vakolati doirasida amal qiladi;

7) *sudning mustaqilligi*. Sud, davlat hokimiyatining boshqa ikki tarmog‘i kabi mustaqildir. Boshqacha aytganda, sud faoliyatiga hech kimning aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

8) *huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi*. Agar inson huquqlari va erkinliklari poymol etilsa yoki bunga tahdid mavjud bo‘lsa, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar unga yordam berishlari kerak. Ular bu huquq va erkinliklarni himoya qilishlari kerak;

9) *huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi*. Huquqiy madaniyatning eng muhim ko‘rsatkichi jamiyatdagi huquqiy ong darajasidadir. Huquqiy ong – huquqqa munosabat, qonun talablarini bajarish zarurligini anglash darajasini ifodalaydigan huquqiy qarashlar yig‘indisi. Huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarni bilishda, huquqni hurmat qilishda, huquqiy qoidalarga rioya etishda namoyon bo‘ladi;

10) *demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi*. Siyosiy huquqlar va erkinliklar kafolatlanishi, xalq davlat boshqaruvida doimo ishtirok etishi. rivojlangan fuqarolik jamiyati shakllanishi va ma’lum bir muxolafatning bo‘lishi zarur.

Huquqiy davlat etatik davlatdan prinsipial ravishda ajralib turadi. Mazkur tafovut davlat hokimiyatini tashkil qilish va amalga oshirishning barcha taraflari, shuningdek, oldida turgan vazifalarni hal etish shakl va usullari, jamiyat, millat va elatlar, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari kabi tarmoqlarni qamrab oladi. Ulardan eng muhimlariga to‘xtalamiz.

1. Huquqiy davlatda hokimiyatning butun mexanizmi – har bir organ, mansabdor shaxs o‘z faoliyati davomida huquqiy prinsiplar va qoidalarga tayanadi, ular bilan o‘z faoliyatini bog‘laydi. Huquqiy normalar nafaqat aholi, balki davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun ham majburiydir. Ularning huquq chegaralaridan chiqishga umuman yo‘l qo‘yilmaydi yoki bunga umuman imkon berilmaydi. Agar etatik davlatda rasmiy organlar va mansabdor shaxslar huquqni o‘zlari uchun ikkinchi darajali va majburiy emas, deb tushunsalar, aksincha huquqiy davlat

sharoitida bunday holat umuman nomaqbul va nojoiz hisoblanadi va shu sababdan u asta-sekin yengib o'tiladi.

2. Huquqiy davlatda etatik davlat uchun xos bo'lgan huquq va qonun o'rtasidagi masofaning uzayib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Undagi organlarining barcha normativ aktlari o'zining mazmun-mohiyati va yo'nalishi, qabul qilish va rasmiylashtirish muolajasi, qonuniy kuchga kiritish, qo'llash, amalga oshirish va buzilishlardan muhofaza qilish xususiyatlariga ko'ra huquqning yuqori talablariga javob beradi. Qonunchilik muntazam ravishda huquqiy prinsiplarga asoslanadi, ularni o'zida singdiradi, ulardan aslo chekinmaydi. Davlat organlarining nohuquqiy normativ aktlarini qabul qilish va amal qilishiga umuman yo'l qo'yilmaydi, aksincha etatik davlatlarda ko'pincha buning shohidi bo'lishimiz mumkin.

3. Huquqiy davlat qonunlarni qabul qilish va e'tirof etish bilan cheklanib qolmaydi. U mazkur qonunlar zaruriy ravishda hayotga tatbiq etilishi, barcha jismoniy va yuridik shaxslar, davlat va jamoat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyatini kerakli yo'nalishga solishga katta ahamiyat beradi. Davlatning huquqni amalga oshirish bo'yicha faoliyatiga ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu bois, unda «qog'ozda qolgan», amal qilmaydigan qonunlar umuman yo'q, aksincha etatik davlatda keraksiz qonunlarning «uyumlari»ni hech kim tozalashga urinmaydi ham. Huquqiy davlatda ijtimoiy munosabatlarning har bir subyekti davlat organlarining amaldagi normativ aktlarini albatta bajarish kerakligiga astoydil ishonadi (boshqacha bo'lishi mumkin emas), zero bu huquq tartibotining barqarorligi muhitini yaratadi va jamiyatda yuridik nigilizmning tarqalishi hamda odamlarning huquqqa mensimay munosabatda bo'lishini bartaraf etadi.

4. Huquqiy davlatda davlat normativ aktlarining amal qilishida subordinatsiyaga rioya qilinishiga katta ahamiyat beriladi. Unda huquq manbalari, ya'ni normativ aktlarning qat'iy bo'ysundirilgan tizimi shakllanadi, amal qiladi va rivojlanadi. Bu tizimda har bir aktning o'rnining yuridik kuchiga bog'liq bo'ladi. Mazkur tizim, ifodali qilib aytganda, huquqiy manbalar «ehromi» cho'qqisi – yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan konstitutsiyaga asoslanishi, uni aniqlashtirishi, to'ldirishi va mazmunini rivojlantirishi lozim. Shunga muvofiq ravishda konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar tuziladi, yuridik pillapoya (piramida)ning quyi «qavatlarini» davlat rahbarining aktlari, hukumat farmonlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralar buyruqlari va ko'rsatmalari, mahalliy vakolatli va ijro etuvchi organlar aktlari, huquqiy odatlar, sud va

ma'muriy pretsedentlar<sup>1</sup> yaratiladi. Kichik yuridik kuchga ega bo'lgan aktlarga kattaroq yuridik aktlarga nisbatan ustuvor davlatlarga xos bo'lib, huquqiy manbalar subordinatsiyasi va iyerarxiyasini buzadi va shu bois huquqiy davlat uchun zid hisoblanadi.

5. Shaxs va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining maqomi birinchidan, huquqiy davlatda huquq va erkinliklarning keng miqyosining qamrab olinganligi, normal hayot faoliyatini ta'minlash hamda oldida turgan vazifalarni hal etish uchun yetarliligi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, huquqlar bilan ajralmas birgalikda majburiyatlar tizimining mutanosib va muvofiq tizimini o'z ichiga oladi. Uchinchidan, huquqni albatta hayotga tatbiq etish real yuridik kafolatlar bilan mustahkamlangan. Bunda ijtimoiy munosabatlarning bir turdagi subyektlari orasida tenglikni mustahkamlash, sinfiy, milliy, urug'-aymoqchilik imtiyozlarini belgilash va bu orqali ulardan biriga imtiyoz berib, ikkinchisini imtiyozlardan mahrum etishga yo'l qo'ymaslikka intilish mavjuddir. Subyektlar orasida mazkur tenglikning yo'qligi etatik jamiyatning huquqiy amaliyoti uchun xosdir. Shu vaqtning o'zida huquqiy davlat, shaxs va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining maqomini qo'llab-quvvatlash, normativ mustahkamlash va takolmillash-tirish haqida g'amxo'rlik qiladi, o'zida yashiringan imkoniyatlarni huquqni tashuvchilar oldida namoyon qilishga intiladi.

6. Barcha davlat va ijtimoiy institutlar va tuzilmalarning legitimligi – huquqiy davlatning alohida belgilaridan biridir. Bu yerda yuridik bazaga ega bo'lmagan institutlar va tuzilmalarni kam uchratish mumkin. Basharti ular mavjud bo'lsa ham, uzoq muddatga yashash va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish istiqbollariga ega bo'lmaydilar, piravordida yengib bo'lmas qiyinchiliklarga uchrab tezda sahnadan tushib ketadilar. Davlat institutlari va tuzilmalarining ko'pchiligi qonun asosida, belgilangan tartib va muolajalarga rioya qilgan holda, ularning maqsadi, vazifasi, amal qilish shakl va usullari rasmiy ravishda reglamentatsiya qilingan holda yaratiladi. Xususan, bu qonuniylashtirishning ro'yxatga olish, ijozat berish va litsenziya berish usullari, shuningdek muvofiq davlat organlari tomonidan nazorat-taftish vakolatlarining qo'llanishi bilan ta'minlanadi. Huquqiy davlatdagi muhitning o'zi yuridik munosabatda shubhali institut va tuzilmalarning qisqarishi uchun kurashadi, aksincha qonuniyligi doim tasdiqlanadigan institutlar uchun esa keng imkoniyatlar yaratib beradi.

---

<sup>1</sup> *Izoh:* Pretsedent huquqi huquqning anglo-sakson tizimi amal qiladigan mamlakatlarda keng qo'llanadi va amal qiladi (bular: AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada v.b.). Endilikda boshqa qator mamlakatlarda qo'llanila boshladi.

7. Huquqiy davlatda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi e'tirof etiladi va amalga oshiriladi. Shunga muvofiq ravishda yagona davlat hokimiyati doirasida uning uchta mustaqil tarmoqqa bo'linishi ta'minlanadi. Bular qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bo'lib, ular o'zaro uzviy munosabatda bo'ladilar. Hokimiyatning bitta tarmog'i tomonidan boshqalarining «bukib olinishi» va bo'ysundirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rib chiqilayotgan prinsipning ahamiyati shundaki, u hokimiyatning faqat bitta organ yoki mansabdor shaxs qo'lida mujassamlanishining oldini oladi, natijada ichki davlat apparatida hokimiyatning teng taqsimlanishini ta'minlaydi hamda diktatorlik tartibining yuzaga kelishini oldini oladi.

8. Huquqiy davlatda ichki qonunlar hamda umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalari o'rtasida optimal muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Oxirgilari o'zida hozirgi zamon huquqiy sivilizatsiyasining yutuqlarini mujassamlashtiradi. Mazkur yutuqlarga u yoki bu darajada huquqiy davlatlar ham aralashadi, zero ularda odatda ichki qonunlar oldida xalqaro shartnomalar (ratifikatsiya qilinganlari)ning ustuvorligi belgilanadi va bu shartnomalar bevosita qo'llanishi aytib o'tiladi. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar yuridik tizimlarining tashqi dunyodan alohidaligi va cheklanganligi bartaraf etiladi, ya'ni jahon hamjamiyatining huquqiy tizimiga integratsiyalashadi, ko'pgina asosiy prinsip va normalariga rioya etib, ularni o'z normativ aktlari saviyasiga ko'taradilar.

9. Huquqiy tartibot buzilgan hollarda (ayniqsa fuqarolar huquq va erkinliklarining buzilishi) huquqiy ta'sir qilish va huquqiy himoya mexanizmi amal qiladi, unda sud birinchi darajali rol o'ynaydi. Mazkur mexanizm boshlangan jinoyatni oldini olish, buzilgan huquqni tiklash, yetkazilgan zararining qoplanishini ta'minlash, aybdorlarni jazolash, yangi huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar va ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlariga davlatning barcha farmonlari to'liq ravishda bajarilishi lozimligi haqida uqdirish bo'yicha vazifalarni kompleks ravishda hal qiladi. Agar huquq, tartibot, fuqarolar huquq va erkinliklarining har qanday buzilishi muvofiq davlat organlari va mansabdor shaxslarning e'tiboridan chetda qolmasa hamda tartib buzarl har gal haqli jazo olsalar, bunday yondoshuvning o'zi qonunni buzishning samarali umumiy preventiv, ya'ni oldini oluvchi omili bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, bu davlatda qonuniylikka rioya etish sharoitiga ta'sir etadi. Huquqiy davlatning yurisdiksiya, huquq, tartibotni muhofazalash, huquqni himoyalash va preventiv oldini olish faoliyati

huquqiy talablarga qat'iy rioya etishi zarurdir. Shu sababdan jamiyat hayotining huquqiy «kayfiyati» etatik davlatga qaraganda ancha yuqori bo'ladi.

10. Huquqiy jamiyat uchun fuqarolarning davlat oldida va davlatning fuqarolar oldida o'zaro mas'uliyatligi xosdir. Davlat har bir odamga tug'ilishidan boshlab tegishli ajralmas huquq va erkinliklarni nafaqat tan oladi, balki ularni hayotga real tatbiq etish va tajovuzlardan himoyalashni ham kafolatlaydi. O'z navbatida, fuqarolar o'z huquq va manfaatlaridan davlat, boshqa fuqarolar, ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlariga zarar yetkazmagan holda foydalanishlari mumkin, ya'ni ular o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni qat'iy bajarishlari lozim. Boshqacha qilib aytganda, davlatning fuqarolar bilan aloqasi murakkab va ko'p tarmoqli hisoblanib, ularning o'rtasida muayyan huquqlarning vujudga kelishi hamda muayyan majburiyatlarning bajarilishini taqozo etadi.

Yuqorida keltirilgan omillarning birgalikdagi faoliyati jamiyat va davlatda huquqning hukmronligi, umum e'tirof etilganligi va ustun mavqega ega bo'lishiga olib keladi. Bu ijobiy natija hisoblanadi, zero huquq – insoniyat taraqqiyotining buyuk ne'mati, huquqiy tartibga solish, boshqarish va ta'sir etishning to'plangan ijtimoiy tajribasining asosiy mohiyati, umuminsoniy qadriyatlar va adolatlilik, demokratiya va tartib-intizom yuksak g'oyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Huquqning jamiyat hayotida ulkan ahamiyati va vazifasini tushunib yetgan davlatni huquqiy davlatlar qatoriga qo'shishi mumkin.

Demak, huquqiy qadriyatlarning ustuvorligi, ularning ham aholi, ham davlat apparati xizmatchilari orasidagi nufuziga e'tibor beradigan, o'z faoliyati davomida huquq bilan bog'liq bo'lgan hamda qonun talablari doirasida amal qilgan holda inson huquq va erkinliklarining buzilishiga yo'l qo'ymaydigan davlatni chinakam huquqiy davlat deyish mumkin.

#### **4-§. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va mohiyati**

Insonparvar fuqarolik jamiyatini qaror toptirish – O'zbekiston xalqining ulug'vor maqsadlaridan biridir. Konstitutsiyaning mazmun va mohiyatidan shu narsa ko'rinadiki, mamlakatimizda shakllantirilayotgan jamiyat – demokratiya va adolat tamoyillariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyati bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov shunday degan edi: «Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni



o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir»<sup>1</sup>. Prezident yana quyidagilarga e‘tibor qaratgan edi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati-ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ya‘ni qonunga bo‘ysunish bir vaqtni o‘zida amal qiladi»<sup>2</sup>.

Xo‘sh fuqarolik jamiyatining mohiyatini nima tashkil qiladi, bu qanday jamiyat?

Mohiyat jihatidan «*fuqarolik jamiyati*» iborasi ilmiy adabiyotlarda o‘ziga xos alohida mazmun-ma‘no kasb etib, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma‘naviy jihatdan yuqori darajada kamol topganligini, mukammallikka erishganligini anglatadi. Mazkur kategoriya vositasida tarixiy rivojlanish tajribasi asosida orttirilgan mezonlarga javob beruvchi jamiyatning yetukligi, oqilona uyushganligi, adolatliligi va fozilligi izohlanadi.

Insoniyatning keyingi asrlardagi taraqqiyoti zamirida to‘plangan ilmiy nazariy talqinlar asosida fuqarolik jamiyati deganda, birinchi navbatda, davlatdan holi bo‘lgan mulkiy, bozor tartiblari, oilaviy, ahloqiy – ma‘naviy munosabatlar sohasi tushuniladigan bo‘ldi. Shu ma‘noda, ma‘rifiy, xususiy, g‘ayrirasmiy, nosiyosiy hayot sohasi majmui tarzida talqin etiladigan fuqarolik jamiyati tovar ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilarning davlat nazorat qilmaydigan manfaatlarini amalga oshirish olami sifatida ta‘riflanadi. Masalan, Gegelning ta‘biriga ko‘ra, fuqarolik jamiyati – bu eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan manfaat (ehtiyoj)lar tizimi. Shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta‘lim, qonunlar va subyekt (inson)larning ulardan kelib chiquvchi o‘zaro uzviy yuridik aloqalari majmuidir. Insonlar tabiiy, «nomadaniy» holatdan «fuqarolik jamiyatiga o‘tishlari lozim, zero aynan shu jamiyatda huquqiy munosabatlar asl voqelikka aylanadi»<sup>3</sup>. Gegel bu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan, shu bilan birga, uning quyidagi ikki asosiy prinsipini alohida ajratib ko‘rsatgan:

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболларининг асосий тамойиллари. – Т., 1995. – Б.14.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – Б.173.

<sup>3</sup> Гегель. Работи разных лет. Т.2. – М., 1973. – С. 50.

*birinchidan*, shaxslar o'z xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar;

*ikkinchidan*, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa kimsaga bog'liq bo'ladi, ular o'rtasida o'zaro hamkorlik mavjud bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil va undan holi munosabatlar hamda vositalar tizimi bo'lib, u shaxs va jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayot sohalaridagi *xususiy manfaat* va *ehtiyojlarini* amalga oshirishga sharoit yaratadi. Fuqarolik jamiyati insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi (shu sohadagi munosabatlar yig'indisi)dan iboratdir. Ma'lumki, fuqarolar huquq va erkinliklarining aksariyat qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro'yobga chiqariladi. Biroq buning zahirida turgan individualizm haddan (muayyan me'yordan) oshmaydi, shaxsning ijtimoiy hayotdan ajralib qolishiga, begonalashuviga olib kelmaydi. Chunki individlar o'z xususiy manfaatlarini ta'minlash uchun birlashib, turli uyushma va tashkilotlarni vujudga keltiradilar.

*Fuqarolik jamiyati* – shaxslarning oddiy yig'indisi emas, balki ular o'rtasidagi rang-barang aloqalar, hamkorlik, hamjihatlikning ifodasidir. Mazkur mushtaraklik va hamjihatlik tashkiliy-institutsiyaviy ko'rinishga ega bo'lib, u turli ijtimoiy kuchlar, nodavlat tashkilotlar, birlashmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Fuqarolik jamiyatidagi o'zini o'zi boshqarishning asosiy mexanizm (murvat)lari: erkin bozor munosabatlari (*iqtisodiy mexanizm*); siyosiy erkinlik va demokratiya (*siyosiy mexanizm*); ma'naviy-axloqiy soha (*ma'naviy-ruhiy mexanizm*); jamiyatdagi nizolarni odil sudlov vositasida hal etish (*sud-huquqiy mexanizm*)dan iborat bo'lib, ularda jamiyat a'zolarining rasman tengligi prinsipi namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati nihoyatda murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu bois uni uch asosiy jihat, uchta yo'nalish bo'yicha:

- 1) iqtisodiy jihat;
- 2) siyosiy jihat;
- 3) ma'naviy-axloqiy jihatdan ta'riflash mumkin.

*Birinchi jihati.* Fuqarolik jamiyati xususiy mulkchilikka keng yo'l beruvchi va unga asoslanuvchi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, erkin iqtisodiy faoliyat ta'minlangan shart-sharoitga tayanadi. Aynan xususiy mulkchilik muhiti va munosabatlari qaror topgan jamiyatda shaxsning mulkiy mustaqilligi, iqtisodiy faoliyat yuritishdagi erkinligi ta'minlanadi. Xuddi shu asnoda shaxs davlat hokimiyatiga nisbatan avtonom, mustaqil

mavqeni egallaydi. Davlat xususiy hayot sohasiga, shaxs va tashkilotlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashmasligi lozim. Prezident I. A. Karimov aytganidek: «Davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim». Bu talab, avvalo iqtisodiy ishlab chiqarish, xususiy tadbirkorlik sohasiga oiddir.

Xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy struktura bo'lmish fuqarolar jamiyati insonning ijodiy faolligini namoyon etishga yo'l ochuvchi munosabatlar shakllangan taqdirda zohir bo'ladi.

Buyuk Fransuz inqilobining manifesti – 1791-yilgi Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasida ham xususiy mulk muqaddas va daxlsiz deb e'lon qilgan. Feodalizmning ashaddiy dushmani bo'lgan yakobinchilar esa xususiy mulkni yangi jamiyatning, ya'ni fuqarolik jamiyatining birdan-bir asosi deb bilganlar. Tarix saboqlaridan ma'lumki, xususiy mulk nafaqat jamiyatni turli qatlamlarga ajratgan, balki ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan tashabbusni rag'batlantirgan, hokimiyatga nisbatan mustaqil (avtonom) tuzilmalarni vujudga keltirgan.

O'zbekistonda ham xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar qaror topmoqda, tadbirkorlikka, kichik va xususiy biznesga keng yo'l ochilib, tegishli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatini qaror topishini xususiy mulkning qat'iy mavqega ega bo'lishi bilan bog'laydi. Shu asosda hozirgi paytda jamiyatda keng ko'lamda xususiylashtirish (aksiyalashtirish) jarayonlari amalga oshirilmoqda.

«Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, – deydi Prezident I. A. Karimov, – davlat iqtisodiy erkinliklarning kafolati bo'ladi. Ayni shu tufayli davlat iqtisodiyotga o'zining tartibga soluvchi ta'sirini maqbul ravishda o'tkaza oladi»<sup>1</sup>.

*Ikkinchi jihati.* Siyosiy nuqtai nazardan baholaganda fuqarolik jamiyatidagi siyosiy tizim va siyosiy boshqaruvning mazmun-mohiyatini huquqiy davlatchilik ifoda etadi. Boshqacha aytganda, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy mohiyatini, siyosiy shaklini tashkil etadi. Bu ikki hodisaning o'zaro munosabati shakl va mazmun o'zaro aloqadorligini aks ettiradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, fuqarolik jamiyati to'la ma'noda mavjud bo'lishining shak-shubhasiz sharti huquqiy davlatning mavjudligidir. Va, aksincha, huquqiy davlat faqat fuqarolik jamiyatidek ijtimoiy makonda qaror topishi va faoliyat yuritishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998. – Б. 115.

Fuqarolik jamiyati bilan huquqiy davlatning o'zaro nisbatini iqtisod bilan siyosatning nisbati tarzida izohlash o'rinli bo'ladi. Buni O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Zero, iqtisodiy islohotlar tegishli demokratik siyosiy tuzilmalar, institutlar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Mamlakatimizda mulk shaklini o'zgartirish, xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat tuzilmalari vujudga keltirildi. Prezidentning 1992-yildagi farmoni bilan Davlat mulk qo'mitasi tashkil etilgan edi.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy tavsiflanishi faqat davlat tuzilmalarining rivojlantirilishidan iborat emas. Demokratiya ravnaq topishi uchun fuqarolik jamiyatida hur fikrlilik, siyosiy plyuralizm ham qaror topishi zarur. Buning uchun jamiyatda tom ma'nodagi ko'p partiyaviylik, jamoat va nodavlat tashkilotlarining keng ko'lamli tizimi, tadbirkorlarning ittifoqlari, uyushmalari, mehnatkashlar mustaqil birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi vujudga keltirilishi lozim, toki bu tuzilmalar davlat idoralari bilan teng huquqli munosabatlarga kirisha olsun.

Tahlil yuritilayotgan jabhada huquqiy davlatning asosiy vazifasi inson va fuqaroning yuksak huquqiy maqomini ta'minlab berishdan iborat. Konstitutsiyaning 2-moddasida davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar, deb yozilgan. Buning ma'nosi shuki, davlat, uning idoralari avvalo fuqarolarning huquqlarini hurmat qilishlari lozim. Qonunda belgilangan fuqaroviy huquq va erkinliklar davlat idoralari va mansabdor shaxslar uchun muqaddas bo'lmog'i lozim. Fuqarolar qonun oldida huquqning teng subyekti sifatida e'tirof etilishi lozim.

Fuqarolar va ularning uyushmalari davlat idoralari bilan muloqotda huquqning teng subyektlari sifatida munosabatga kirishadilar. Basharti, bu teng huquqiy munosabatlarda tomonlardan birining huquqiga, manfaatiga putur yetkazilsa, u sudga murojaat etishi va qonuniy asoslarda sud tartibida o'z huquqini tiklashga erishishi mumkin. Huquqiy davlatchilikning muhim tamoyillaridan biri ana shunday. Shunday qilib, huquqiy davlat nafaqat fuqarolik jamiyatini boshqaruv tizimi, balki o'zini o'zi boshqaruvchi fuqarolik jamiyatiga bog'liq, uning manfaat va ehtiyojlariga bo'ysunuvchi tizim sifatida maydonga chiqadi.

*Uchinchi jihati.* Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zamiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya darajada ulug'lanadi, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo'tabar va

muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr-qimmati, mehr-oqibat, axloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar odamlar o'rtasidagi munosabatlarning belgilovchi mezon sifatida maydonga chiqadi.

Demokratik islohotlar davrida ma'naviyatni yuksaltirishga asosiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, ma'naviyat – insoniyat ichki dunyosining ko'zgusi, tafakkuri, ongi va fikr yuritish tarzining mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi yuksak ijtimoiy qadriyatdir. Insoniyat hamisha ezgulikka, ma'naviy barkamollikka intilib yashaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning yaqin kelajakdagi istiqboli hamyurtlarimiz qanday mavqeni egallashiga, qanaqa madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni shior qilib olishiga bog'liq bo'ladi<sup>1</sup>.

Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi hamma fuqarolarning ijodiy salohiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. Fuqarolik jamiyati huquq va adolat mezonlari bilan o'lchanadi. Huquq jamiyatning o'ziga xos «gumanistik imperativi» (insonparvarlik talabi), ya'ni insoniy-axloqiy qoidasi, ma'naviy mayog'i bo'lib hisoblanadi. I. Kant fuqarolarning o'zaro huquqiy munosabatidagi mavqei quyidagi prinsiplar asosida belgilanadi:

1) jamiyatning har bir a'zosi inson sifatida erkin va ozod bo'lishi; 2) har bir fuqaroning boshqa fuqaro bilan bilan tengligi; 3) jamiyat har (bir) a'zosining fuqaro maqomidagi mustaqilligi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, madaniyatimiz sarchashmalariga, teran va ulkan ma'naviy merosimizga murojaat qilish, boqiy tarixiy o'tmishimizda mavjud bo'lgan barcha ezguliklarni yuzaga chiqarib, rivojlantirish borasida beqiyos imkoniyatlar ochildi. O'tmish ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy boyligi chuqur mushohada etilib, ijtimoiy ongimizga singdirilmoqda. Shu orqali biz barpo etayotgan yangi fuqarolik jamiyati manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, balki odil demokratik jamiyat barpo etmoqdamiz. Davlatchiligimiz adolat tamoyillariga tayanadi. «Adolatga intilish – xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998. – Б.397.



o‘z aksini topishi kerak»<sup>1</sup>. Ma’naviy-madaniy saviya past bo‘lgan jamiyatda adolat tantanasi haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy belgilari va xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin:

1)jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijodiy faoliyat va mehnatning roli alohida mazmunga ega bo‘lish;

2)jamiyat mazmunini, uning rivojlanish qonuniyatlari mohiyatini xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilashi;

3)xususiy mulk barcha mulk shakllari qatorida ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlatning, hokimiyatning alohida rol o‘ynashi;

4)fuqarolarning yuridik jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi. Jamiyatda adolatli sud tizimining qaror topishi va uni fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi;

5)shaxsning xususiy hayoti va iqtisodiy faoliyatiga davlat aralashuvining qonun doirasida cheklanishi. Huquqiy davlatchilikning mavjud bo‘lishi;

6)shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi;

7) davlat, davlat va fuqarolar huquqning teng subyekti sifatida munosabatga kirisha olishi, ular sudda teng taraflar sifatida maydonga chiqqa olishi. Fuqarolar huquqlarini kafolatlash va ustuvor ta’minlash mexanizmlarining yaratilganligi;

8)fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari, jumladan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimining mavjudligi;

9)jamiyatning yuksak ma’naviy-madaniy va axloqiy rivojlanganligi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat, iymon-insof doirasida, shaxs qadrini e’zozlash asosiga qurilganligi.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’minlanadigan, davlat hokimiyatini samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma’naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998. –Б. 399.

## **5-§. Fuqarolik jamiyatining tuzilishi va asosiy prinsiplari**

Fuqarolik jamiyati yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir. Bu jamiyat sharoitida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik hamda manfaatlarini aks ettiruvchi, muhofaza etuvchi turli-tuman uyushmalar, birlashmalar, nodavlat tashkilotlar va idoralar mavjud bo'ladi. Ular davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib, o'zini o'zi boshqarish tamoyili asosida aktiv faoliyat ko'rsatadi.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi inson hayotini saqlash, uning maqsadlarini, hayotiy orzularini, niyatlarini shu tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Bu tashkilotlar, institutlar va guruhlar alohida shaxsga uning hokimiyat manbai ekanligini, uning layoqati va harakati, obro'si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilotlar va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari:

- 1)ko'p partiyaviylik;
- 2)siyosiy hayotning va siyosiy institutlarning, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi;
- 3)o'zini o'zi boshqarish organlari mavqeining balandligi;
- 4)jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalari rolining kattaligi kiradi. Fuqarolik jamiyati ma'naviy hayot umumbashariy qadriyatlar asosida amalga oshirilganligi, insonning muqaddasligi, erkinligi, qonun oldida tengligi, ijtimoiy adolatning to'liq qaror topganligi bilan belgilanadi.

Demak, fuqarolik jamiyati – teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini amalga oshirishga ko'maklashadigan jamoat va nodavlat institutlarning tizimidir.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, fuqarolik jamiyati jamoat birlashmalarining yig'indisidangina iborat bo'lmay, balki ular faoliyatining natijasida paydo bo'ladigan munosabatlar tizimi hamdir. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini milliy va diniy an'analarsiz, odatlarsiz, odob-axloq normalarisiz va milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu jamiyat iqtisodiy, kasbiy, madaniy, diniy va boshqa manfaatlarni shakllantirishga va ularni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy aloqalar tizimini ham qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir insonning ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklarini amalga oshirishga qaratilgan. Konstitutsiya insonni eng katta boylik sifatida alohida ko'rsatgani holda fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona, huquqiy hal etilishini siyosiy jihatdan rasmiylashtiradi. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, ularning inson manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy munosabatlarni maqbul holga keltirishga yo'naltirilganligi fuqarolik jamiyati asoslarini qaror toptirishning asosiy omillaridir.

Fuqarolik jamiyatida qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini o'zi kamol toptirishiga yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, bu barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart ekanligini ham anglatadi.

Fuqarolik jamiyatidagi mavjud manfaatlarni qanoatlantirish, ro'yobga chiqarish uchun tegishli tashkiliy tuzilmalar va institutlar shakllanadi.

Fuqarolik jamiyatining ichki tizimini quyidagicha tasniflash mumkin:

*birinchidan*, iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar: a) xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; b) shirkat xo'jaliklari va ularning uyushmalari; v) ijara asosida ishlovchi jamoalar; g) hissadorlik jamiyatlari; d) moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar; ye) ishlab chiqarish korporatsiya, konsernlari va birlashmalari; j) tadbirkorlar uyushmalari (palatasi) va h.k.;

*ikkinchidan*, ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar: a) oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; b) ta'lim-tarbiya muassasalari (maktab, o'rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalari); d) jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; ye) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; f) mustaqil ommaviy axborot vositalari; g) diniy tashkilotlar; h) milliy-madaniy markazlar; i) ko'ngilli jamiyatlar; j) jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari; k) turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va hokazo;

*uchinchidan*, siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar: a) huquqiy davlatning mavjudligi; b) siyosiy partiyalar; d) ijtimoiy-siyosiy harakatlar; ye) siyosiy muxolafatning mavjudligi; f) inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va hokazo.

Yuqorida keltirilgan tasnif umumiy bo'lib, u eng asosiy tarkibiy tuzilmalarni ifodalaydi. Albatta, fuqarolik jamiyati o'zining rang-barangligi, turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Unda turfa ko'rinishdagi

ma'rifiy, madaniy va boshqa mazmundagi tashkilotlar faoliyat ko'rsatishi mumkin.

## **6-§. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi**

O'zbekiston mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid sovet tuzumidan voz kechib, mamlakatda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishga azmu qaror qildi. Yurtimizda adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish istiqbollari strategik maqsadga aylanganligi hamda siyosiy darajada ko'p bora bunga e'tibor qilib kelinayotganligi bejiz emas. Binobarin, fuqarolik jamiyati bo'lmasa, davlat huquqiy mazmun sifatlariga ega bo'lolmasligi ayon. Zero, bunday jamiyat huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy poydevori hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatining nazariy, konseptual asoslari davlat mustaqilligimizning dastlabki davrlaridanoq yaratila boshlangan edi. Mazkur sohadagi siyosiy-huquqiy ta'limot o'z mohiyat-e'tibori bilan tamomila milliy istiqlool g'oyasi bilan yaratilgan bo'lib, davlatimiz rahbarining dastlabki asarlari, nutq va ma'ruzalarida asoslab berildi. Xususan, Prezident I. A. Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li» nomli asarida «bizning pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir»<sup>1</sup>, – deb ta'kidlaydi.

Mazkur dasturiy asarda O'zbekiston jamiyati siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotining, ma'naviy poklanishining asosiy yo'llari va ustuvor yo'nalishlari yangicha mushohada asosida belgilab berildi. Unda «O'zbekiston – demokratiya va ijtimoiy adolat jamiyati» shiori ostida amalga oshiriladigan ichki va tashqi siyosat chinakam mustaqil O'zbekistonni barpo etish bilan belgilanadi. Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyat bunyod etish – bosh vazifadir, deydi Prezident.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy va davlat tuzilishi insonga barcha sohalarda turmush tarzini erkin tanlab olish imkoniyatini kafolatlashi kerak. Jumladan, *bu siyosiy sohada* quyidagilarni bildiradi: xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т., 1993. – Б.38.

ishtirok etishi lozimligini; hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish va milliy davlatchilikni barpo qilishni; jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralari tuzilmasini tubdan yangilashni; bir mafkura yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni; demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko'p partiyaviylikni shakllantirishni; fuqarolarning qonun oldida tenglik va qonun ustuvorligini bildiradi.

*Iqtisodiy sohada* esa – milliy boylikning o'sishi asosida farovonlikni ta'minlovchi ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etishni; ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni; mulk huquqi va mulkchilikning barcha shakllarini davlat himoyasida bo'lishini; davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash va iqtisodiy erkinlikni ta'minlashni anglatadi.

*Ijtimoiy va ma'naviy sohada* – insonparvarlik g'oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsi daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqi tan olinishini; milliy ma'naviyatni qayta tiklashni; hurfiylik, vijdon va e'tiqod erkinligini qaror toptirishni; ijtimoiy adolat, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash; intellektual mulkni himoyalash va insonlar iste'dodini ro'yobga chiqarish kabi ustuvor vazifalar belgilanadi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratik davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy tamoyil e'lon qilindi: 1) iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi; 2) o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi; 3) qonunlarga rioya etish ustuvorligi; 4) kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish; 5) bozor iqtisodiyotiga «inqilobiy larzalarsiz, evolyutsion tarzda bosqichma – bosqich o'tish.

Ushbu muhim qoidalar O'zbekistonning mustaqil taraqqiyotiga asos qilib olindi, fuqarolik jamiyati shakllanishi davrining negizi sifatida belgilandi. O'tgan davr mobaynida bu tamoyillar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minladi.

Mustaqillik yillari hokimiyatni tarmoqlarga ajratish asosida milliy davlatchilik poydevorini barpo etish amalga oshirildi. Davlat hokimiyati va boshqaruvining huquqiy asoslari yaratildi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishining asosiy tamoyillari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari mustahkamlandi.

Asosiy qonunda fuqarolik jamiyati tuzilmalari, institutlari qaror topishi uchun zamin vujudga keltirildi. Mamlakatimizda demokratiya umuminsoniy prinsiplariga tayanishi, inson huquqlari ustuvorligi,



demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoyalaniishi mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, ya'ni ko'p partiyaviylik qaror topishi e'tirof etildi.

Mamlakatda ko'p partiyaviylik shakllanishi va rivojlanishi nafaqat fuqarolik jamiyatini barpo etish, balki demokratiyaning zaruriy shartidir. Siyosiy demokratiya jamiyat hayotida siyosiy partiyalar mavqei hamda faolligi qay darajadiligiga bog'liq. Hozirgi kunda O'zbekistonda ko'p partiyali tizim faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy poydevor yaratilgan. Avvalo, Konstitutsiyamizda mustahkamlangan quyidagi norma: «O'zbekistonda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi» (12-modda), mamlakatda siyosiy plyuralizm, ko'p partiyaviylik tizimi qaror topishiga huquqiy asos yaratdi. Bu davrda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishiga ko'maklashuvchi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (1991-y.), «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi (1991-y.), «Kasaba uyushmalari va ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi (1992-y.) kabi qonunlar ham amal qila boshlagan edi. Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq, har kimga kasaba uyushmalariga, siyosiy partiya va jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish huquqi kafolatlanadi.

Yaratilgan mo'tadil huquqiy maydon tufayli mamlakatda ko'p partiyaviylik qaror topa bordi. Jumladan, 1991-yil 1-noyabrda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyda O'zbekiston xalq demokratik partiyasi tashkil topdi. U demokratik islohotlarni jadallashtirishga moyil so'l siyosiy kuch sifatida faoliyat ko'rsatib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismlari manfaatini ifoda etadi.

Istiqlol yillarida siyosiy kuch sifatida «Vatan taraqqiyoti» partiyasi tashkil topdi. U 1992-yil 24-mayda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzilgan. Partiya mamlakatdagi barcha millat va elatlar, ziyolilar, ishbilarmonlar hamda o'rta tabaqa mulkdorlar manfaatini ifoda etuvchi siyosiy tashkilot sifatida yuzaga keldi.

O'tgan asrning saksoninchi yillari oxirida sobiq Ittifoqda vujudga kelgan ijtimoiy vaziyat va demokratiya o'yinlari natijasida O'zbekistonda «Erk» demokratik partiyasi paydo bo'lgan edi. Uning rahbari 1991-yil 29-dekabrda muqobillik asosida bo'lib o'tgan saylovlarda ishtirok etib, atigi 10 % ga yaqin ovoz olgan. XDP nomzodi bo'lgan I.A. Karimov esa 86 % ovoz olib Prezident etib saylangan edi.

O'zbekiston «Adolat» sotsial demokratik partiyasi o'zining 1995-yil 18-fevralda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida rasmiylashdi. U demokratik jarayonlarni jadallashtirish, adolatli, ma'rifiy fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirok etish maqsadlarini ko'zlab maydonga keldi.

1995-yil 3-iyunda o'tgan qurultoyda O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tashkil topdi. Mazkur partiya asosan ziyolilarga tayanadi. U millatning ma'naviy birligi, milliy qadriyatlarni qayta tiklash g'oyasi ostida uyushdi.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 25-dekabri va 1995-yil 8 hamda 25-yanvardagi saylovlarida demokratik yo'l bilan shakllangan parlamenti – Oliy Majlis ilk bor ko'p partiyaviylik asosida saylandi. Uning tarkibida XDP dan – 69 deputat, «Adolat» SDP dan – 47 deputat, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan – 14 deputat bo'lib, har bir siyosiy partiya o'z fraksiyasini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning 1996-yil 29-avgustdagi sessiyasida so'zlagan «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari» nomli ma'ruzasi mamlakatdagi siyosiy jarayonlarga va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarga qo'shimcha demokratik ruh bag'ishladi. Islohotlarning shunday to'lqinida Oliy Majlis 1996-yil 26-dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunni umumxalq muhokamasidan so'ng qabul qildi. Siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2004-yil 30-aprelda «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonun ham qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida (1997-yil) fuqarolik jamiyati haqidagi ta'limotni quyidagi muhim qoidalar bilan boyitdi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini o'zi kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi». Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni, erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. –Т., 1997. – Б.173

Shuningdek, mazkur asarda davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqaro oldidagi mas'uliyatini yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. «Fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda, – deb yozadi I.A. Karimov, – O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishi lozim bo'lgan keng tarmoqli, ko'ppartiyali tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan olganda, davlatning roli siyosiy partiyalar va jamoatchilik harakatlarining vujudga kelishi, qaror topishi va rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadigan har qanday g'ov va to'siqlarni bartaraf etishdan iboratdir»<sup>1</sup>.

Davlatimiz rahbari 1999-yil 14-aprelida Oliy Majlis sessiyasida so'zlagan «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, demokratik islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Shu asosda 1999-yil aprelida «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish to'g'risida» yangi tahrirdagi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi va boshqa qator qonunlar qabul qilindi.

1998-yil 28-dekabrda I ta'sis qurultoyida Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi tashkil topdi. Uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. 1999-yil dekabrda saylangan Oliy Majlis tarkibida 34 nafar «Fidokorlar» partiyasi a'zolari bor edi. 2000-yil 14-aprelda «Vatan taraqqiyoti» partiyasi va «Fidokorlar» MDP qo'shma qurultoy o'tkazib, ular birlashdilar.

2008-yil 20-iyunda «Fidokorlar» partiyasi va «Milliy tiklanish» partiyasi birlashuvi asosida O'zbekiston «Milliy tiklanish» partiyasi qaror topdi.

Ammo bu bilan O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik shakllanishi nihoyasiga yetgani yo'q. 2003-yil 15-noyabrda O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi (O'z.Li.Dep) tashkil topdi. U tadbirkorlar, kichik biznes, o'rta mulkdorlar, fermerlar partiyasi sifatida siyosiy maydonga chiqdi.

Hozirgi kunda mamlakat parlamentida (2011-yil sentabr holatiga ko'ra) to'rtta siyosiy partiya – O'z XDP, «Adolat» SDP, «Milliy tiklanish» va O'z.Li.Dep. partiyalari fraksiyalari faoliyat olib bormoqda.

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – Б. 174.*

Ma'lumki, fuqarolik jamiyati yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir. Bu jamiyat sharoitida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik hamda manfaatlarini aks ettiruvchi, muhofaza etuvchi turli-tuman uyushmalar, birlashmalar, nodavlat tashkilotlar va idoralar mavjud bo'ladi. Ular davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib, o'zini o'zi boshqarish prinsipi asosida aktiv faoliyat yuritadi. Shu maqsadda inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmalar – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi (1996-y.) va Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti (1997-y.) tashkil topdi. 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunga ko'ra, 1995-yilda ta'sis etilgan Inson huquqlari bo'yicha parlament vakilining faoliyati qat'iy huquqiy asosga ega bo'ldi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalari salmoqli o'rin tutadi. Islohotlarning dastlabki davrida «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi (1991-y.). Respublikada ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va ularni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadigan ijtimoiy-siyosiy jamg'arma ta'sis etildi (1996-y.) va sermazmun hamda samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Bir tomondan davlat vakolatli organlari va, ikkinchi tomondan, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasining sa'y-harakatlari bilan qisqa muddat ichida «Jurnalistik faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi (1997-y.), «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi (1997-y.) va boshqa qonunlar qabul qilinib, hayotga samarali joriy etib kelinmoqda. Keyingi o'n yilning o'zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko'payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi<sup>1</sup>.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari qatorida aholining barcha qatlamlari o'z vakilligiga ega bo'lishi lozim. Shunga ko'ra mamlakatda jamoat

---

<sup>1</sup> Qarang: *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза . – Т., 2010. – Б.30.

birlashmalarining, nodavlat-notijorat tashkilotlarining keng ko‘lamli tarmog‘i vujudga keldi va rivoj topib bormoqda. Masalan, mustaqillikning dastlabki kunlarida O‘zbekistonda Kasaba uyushmalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Uning 53 mingga yaqin boshlang‘ich tashkiloti, federatsiya tarkibida 21 ta tarmoq uyushmalari, jami 7, 5 milliondan ziyod a‘zosi bor.

Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 1-martdagi qarori bilan O‘zbekiston Xotin qizlar qo‘mitasi tuzildi. Uning maqsadi ayollarni ko‘p bolali onalarni har tomonlama muhofaza etishni yanada kuchaytirish, ularning mehnat va ijod sohasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

1996-yil dekabrda Prezident farmoni bilan faxriylar Kengashi «Nuroni» jamg‘armasiga aylantirildi. 1996-yil 17-aprelda yosh ijodkorlarga, olimlar va ijodkorlarga ko‘maklashuvchi, umuman yoshlar muammolari bilan shug‘ullanuvchi «Kamolot» jamg‘armasi ta’sis etildi. 2001-yil 25-aprelda Ta’sis qurultoyida O‘zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati demokratik tashkilot sifatida tashkil topdi. U yoshlar manfaatini ifodalovchi institut tarzida fuqarolik jamiyati tizimida o‘z munosib o‘rniga ega bo‘ldi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo‘llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida farmon qabul qilindi<sup>1</sup>. Bu hujjat mazkur tashkilot keng ko‘lamda faoliyat olib borishi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston Prezidenti «Mahalla» xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi 1992-yil 12-sentabrdagi hamda «Mahalla» xayriya jamg‘armasiga mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi 1992-yil 8-oktabrdagi farmonlari katta ijtimoiy siyosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. 1994-yil oxirida Respublikada 10 mingdan ziyod mahalla faoliyat olib bordi. Bugunga kelib mamlakat qishloq va ovullarida fuqarolarning 1436, shaharlarda 17 ta, mahallalarda 5402, shuningdek qishloq mahallalarida o‘zini-o‘zi boshqarish organlari jamoatchilik tamoyillari asosida ish olib bormoqda. Mamlakatda 6 ming 955 ta yig‘in raisi va 60 mingdan ortiq maslahatchi saylandi.

Mamlakatdagi fuqarolik jamiyatining ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadigan voqea – 1994-yil 23-apreldagi «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risidagi Prezident farmoni bo‘ldi. Hozirda mazkur markaz xalqimizning boy ma’naviy, madaniy merosi milliy va umuminsoniy qadriyat asosida ilg‘or g‘oyalarni yuzaga chiqarish, aqliy-ijodiy salohiyatni vatan istiqboli sari yo‘naltirish,

---

<sup>1</sup> Qarang: Халқ сўзи. – 2006. – 11 окт.



aholining ma'rifiy, ma'naviy yuksalishini ta'minlash ishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning 2002-yil 29-avgustda bo'lib o'tgan to'qqizinchi sessiyasidagi mamlakat Prezidentining «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» deb nomlangan ma'ruzasi<sup>1</sup> siyosiy-ijtimoiy hayotda katta voqea bo'ldi. Mazkur dasturiy ma'ruzada, yurtimizda fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning yetti ustuvor yo'nalishini belgilab berildi. Bular, *birinchidan*, davlatimiz mustaqilligini asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash. Mustaqillikni, mamlakatimizni siyosiy jihatdan rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, jamiyatni ma'naviy yangilash» mezoni deb bilish; *ikkinchidan*, mamlakatda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlar daxlsizligini ta'minlash; *uchinchidan*, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish. Xususiyy biznes va tadbirkorlikni muntazam rivojlantirish; *to'rtinchidan*, inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek oshkoralikni, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni amaliy hayot mazmuniga singdirish; *beshtinchidan*, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti sifatida jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining mavqei va ahamiyatini keskin kuchaytirish. Nodavlat va jamoat tashkilotlarining faolligini oshirish fuqarolarning xususiyy hayoti sohasiga davlat aralashuvini kamaytirish, qonun vositasida cheklash bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishda jamoatchilik nazorati alohida o'rin tutadi. Qonunlar ijrosini ta'minlash, me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi; *oltinchidan*, sud-huquqiy tizimni isloh qilish. Bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini amalda ta'minlashdir. Sudlar tom ma'noda mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. Qayerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar. «Qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib, fuqarolik jamiyati haqida so'z

---

<sup>1</sup> Qarang: Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. –Б.23.

yuritishga hech qanday asos qolmaydi»<sup>1</sup>; *yettinchidan*, islohotlarni inson manfaatlariga bo'ysundirish. Ularga baho berishda asosiy omil va mezon inson ekanligini yodda tutish.

Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish konsepsiyasini yanada takomillashtirishda I.A. Karimovning 2005-yil 28-yanvarda parlament palatalarining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli ma'ruzasi alohida ahamiyat kasb etdi. Unda respublika Prezidenti shunday deydi: «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan izchil va qat'iyat bilan borishdir»<sup>2</sup>.

Mazkur ma'ruzada mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi haqida gapirar ekan, *birinchi muhim vazifa* – o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

*Ikkinchidan* – siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi roli va ta'sirini tubdan kuchaytirish, zarurligini ko'rsatdi.

Ushbu vazifalarni hal etishda 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Qonun aholining ijtimoiy, siyosiy faolligini kuchaytirishda, chinakam ko'p partiyaviylikni rivojlantirishda, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda g'oyat muhim rol o'ynadi. U parlamentdagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining huquqiy maqomini aniq belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari 2010-yil 12-noyabrda parlament palatalari qo'shma majlisida bayon etgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga ana bir karra urg'u berdi. Ushbu hujjatda davlatimiz Konstitutsiyasida partiyalar partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Т., 2003. – Б.31.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005. – Б.177

nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritishiga doir muhim prinsiplar mustahkamlanganligi va fuqarolik jamiyati barcha institutlarining jadal rivojlanishi tegishli tegishli huquqiy va tashkiliy shart–sharoitlar yartilganligi alohida ta’kidlandi.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat ishlarini boshqarish borsidagi davlat faoliyatini to’ldiradi, chunki ular o’z ko’lami, ommaviyligi va moslashuvchanligi tufayli ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan muammolarni aniqlashi hamda davlat idoralrining imkoniyatlri cheklangan o’rinlarda, ayniqsa mahalliy darajalarda keng harakat qilishi mumkin. Bu tashkilotlar, institutlar va guruhlar alohida shaxsga uning hokimiyat manbai ekanligini, uning layoqati va harakati, obro’si yuksak qadriyat ekanligini anglashga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilot va birlashmalar orqali o’zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini ruyobga chiqaradilar.

Fuqarolik jamiyatidagi mavjud manfatlarni qanoatlntirish, ruyobga chiqarish uchun tegishli tashkiliy tuzilmalar va institular shakllanadi, zurrur mexanizmlar vujudga keltiriladi.

Hozirgi kunda, – deb ta’kidlaydi davlatimiz rahbari IAA. Karimov, – yurtimizda aholi keng qatlamlari tomonidan faoliyat qo’llab-quvvatlanayotgan 5100 dan ziyod jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Bundan tashqari fuqarolar yig’inlari va o’zini o’zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqdir<sup>1</sup>. Hozirgi kunda O’zbekistonda siyosiy partiyalar – 4 ta, Milliy madaniy markazlar – 40 dan ziyod, Jamg’arma va xayriya tashkilotlari – 69 ta, Jamiyatlar – 77 ta, Uyushmalar – 22 ta, Assotsiatsiyalar –57 ta, Federatsiyalar – 53 ta, Tarmoq kasaba uyushmalari – 14 ta, Ijtimoiy harakatlar – 2 ta, Milliy qo’mitalar – 5 ta, Ayollar va bolalar tashkiloti – 48 ta, Xalqaro jamoat tashkilotlar – 62 ta, Vakolatxonalar va ularning filiallari – 70 ta, Diniy tashkilotlar – 2000 dan ziyod bo’lib, ularning barchasi jamoat va nodavlat tashkilotlari, ya’ni fuqarolik jamiyati institutlari sifatida faoliyat ko’rsatmoqda.

O’zbekistonda baynalmilal milliy madaniy markazlarning tashkil topib, ko’payib borayotganligi ham fuqarolik jamiyati shakllanishining namoyon bo’lishidir. 1992-yil yanvar oyida Vazirlar Mahkamasi qarori

---

<sup>1</sup> Qarang: *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – Т., 2010. – Б.42.

bilan O'zbekiston Baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi. Unga milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi. Milliy markazlar har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlarini va rasm rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy ehtiyojlarni qondirishga keng yo'l ochilmoqda.

Milliy madaniy markazlar – 1989-yilda – 12 ta, 1997-yilda – 90 ta, 2006-yilda – 130 tadan ortiq. Hozirgi kunda 140 dan ziyod milliy-madaniy markazlar respublika jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis palatalarining 2010-yil noyabrdagi noyabrdagi qo'shma majlisida bayon etgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da fuqarolik jamiyatiga erishish manfaatlari-dan kelib chiqib, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida demokratik o'zgarishlarni qator muhim yo'nalishlarda yanada chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari belgilandi. *Avvalo*, davlat fuqarolik jamiyati prinsiplariga mos tarzda tashkillashtirilishi, hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish, aniqrog'i, davlat idoralarining vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish nazarda tutilmoqda<sup>2</sup>.

*Ikkinchidan*, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlashtirish islohotlar keyingi bosqichining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etildi. Jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgan sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda<sup>3</sup>. Fuqarolik institutlarining yanada rivojlanishiga erishish va ularning nufuzini kuchaytirish maqsadida Prezident tomonidan jamiyat miqyosida davlat va nodavlat jamoat

---

<sup>1</sup> Qarang: Халқ сўзи. – 2012. – 21 янв.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – Т., 2010. – Б. 8.

<sup>3</sup> О'sha manba. – Б. 42–43.

tashkilotlarining ijtimoiy sherikligini yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratilganligi ayni muddao bo‘ldi. Shuningdek, davlatimiz rahbari fuqarolik jamiyatining muhim ko‘rsatkichi inson huquqlarini kafolatli ta‘minlanishi ekanligiga e‘tibor qaratib, quyidagilarni ta‘kidladi: «Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta‘minlash, jamiyatda inson huquqlari bo‘yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘zida mujassam etishi kerak»<sup>1</sup>.

Shunday qilib, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish xalqimiz tarixiy milliy qadriyatlari bilan jahon halqlari umuminsoniy tamoyillari hamda tajribasini inobatga olish asosida ishlab chiqilgan nazariy dasturulamalga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda adolatli va demokratik fuqarolik jamiyatiga xos yangi ijtimoiy munosabatlar hamda ularni ifodalovchi ijtimoiy institutlarni – jamoat va nodavlat tashkilotlarning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirildi. Ular jamiyatimizning nurli istiqbol sari qat’iyat bilan ilgarilab borishiga, jamiyat va inson manfaatlarini to‘la-to‘kis ifodalashga xizmat qilmoqda.

---

<sup>1</sup> O‘sha manba. – B.46.



---

## M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
-------------	---

### ***I BOB. DAVLAT VA HUQUQ TARIXI FANINING PREDMETI, METODI VA VAZIFALARI***

1-§. Davlat va huquq tarixi fanining predmeti, metodlari va vazifalari.....	5
2-§. Davlat va huquq tarixi fanining ijtimoiy va yuridik fanlar bilan aloqadorligi....	9

### ***II BOB. O‘ZBEKISTON HUDUDIDA QADIMGI DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI VA HUQUQIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI***

1-§. Eramizga qadar O‘zbekiston hududida davlat va huquq.....	12
2-§. Eramizning boshlaridan VII asrga qadar bo‘lgan davrda O‘zbekiston hududida davlat va huquq.....	23

### ***III BOB. QADIMGI SHARQ, YUNONISTON VA RIM DAVLATI VA HUQUQI***

1-§. Qadimgi Misr va Bobilning davlati va huquqi.....	31
2-§. Qadimgi Xitoy va Hindiston davlati va huquqi.....	46
3-§. Qadimgi Yunon va Rim siyosiy tuzumining shakllanishi.....	61
4-§. Qadimgi Yunoniston va Rim huquqining rivojlanish xususiyatlari.....	78

### ***IV BOB. ARAB XALIFALIGINING DAVLATI VA HUQUQI***

1-§. Arab xalifaligining oliy, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari.....	85
2-§. Musulmon huquqiy tizimining xususiyatlari.....	92

### ***V BOB. IX–XIII ASRLARDA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ***

1-§. IX–XIII asrlarda Movarounnahrda davlatchilikning rivojlanishi.....	100
2-§. IX–XIII asrlarda O‘zbekiston hududidagi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi.....	103

## **VI BOB. O‘RTA ASRLARDA YEVROPA MAMLAKATLARI DAVLATI VA HUQUQI (FRANSIYA, GERMANIYA VA BUYUK BRITANIYA)**

- 1-§. O‘rta asr G‘arbiy Yevropa davlatchiligiga umumiy tavsif.....112  
2-§. O‘rta asrlarda Yevropa davlatlari huquqiy tizimining xususiyatlari.....129

## **VII BOB. MO‘G‘ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ**

- 1-§. Chig‘atoy ulusining tashkil topishi va uning ijtimoiy-siyosiy tuzumi.....133  
2-§. Chingizxon «Yasog‘i» – asosiy huquq manbai .....139

## **VIII BOB. AMIR TEMUR DAVLATI VA HUQUQI**

- 1-§. Movarounnahrda markazlashgan Amir Temur davlatining tashkil topishi va uning davlat boshqaruv apparati.....144  
2-§. «Temur tuzuklari» – muhim tarixiy-huquqiy manba.....154

## **IX BOB. SHAYBONIYLAR DAVLATI VA HUQUQI. O‘ZBEK XONLIKLARINING DAVLAT TUZUMI VA HUQUQI**

- 1-§. Shayboniylar davlati tuzumi.....156  
2-§. Mustaqil o‘zbek xonliklarining vujudga kelishi va ularning davlat tuzumi....162

## **X BOB. YANGI DAVR BUYUK BRITANIYA DAVLATI VA HUQUQI**

- 1-§. Yangi davr Angliya davlat hokimiyatining oliy, markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tizimi.....171  
2-§. Angliya huquqi manbalari.....181

## **XI BOB. YANGI DAVR FRANSIYA DAVLATI VA HUQUQI**

- 1-§. Yangi davr Fransiya davlat tuzumi.....184  
2-§. Yangi davr Fransiya huquqiy tizimining xususiyatlari.....193

## **XII BOB. YANGI DAVR GERMANIYA DAVLATI VA HUQUQI**

- 1-§. Germaniya davlatchilik taraqqiyotining asosiy bosqichlari.....198  
2-§. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Germaniyada siyosiy tuzumning o‘zgarishi.....206

## **XIII BOB. AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI DAVLATI VA HUQUQI**

- 1-§. AQSHning vujudga kelishi va uning mustaqillik Deklaratsiyasi.....213  
2-§. AQSH Konstitutsiyasi.....219

#### **XIV BOB. ROSSIYA PODSHOLIGI MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ**

- 1-§. O‘rta Osiyoning Rossiya podsholigi tomonidan bosib  
olinishi va Turkiston o‘lkasining siyosiy tuzumi.....227
- 2-§. Rossiya podsholigi protektorati sifatida Buxoro amirligi  
va Xiva xonligining siyosiy tuzumi.....234

#### **XV BOB. OKTABR TO‘NTARISHIDAN SO‘NG O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ**

- 1-§. XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududida davlat va huquq.....239
- 2-§. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi va uning siyosiy-huquqiy tizimi.....259

#### **XVI BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI**

- 1-§. O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati organlari tizimi.....271
- 2-§. O‘zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimining shakllanishi.....292

#### **XVII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI**

- 1-§. Huquqiy davlat nazariyasining tarixiy manbalari.....306
- 2-§. «Huquqiy davlat» tushunchasi va mohiyati.....312
- 3-§. Huquqiy davlatning asosiy belgilari va xususiyatlari.....316
- 4-§. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va mohiyati.....321
- 5-§. Fuqarolik jamiyatining tuzilishi va asosiy prinsiplari.....328
- 6-§. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi.....330

**Hojimurod To‘xtamurodovich ODILQORIYEV,**  
*yuridik fanlar doktori, professor;*

**Nig‘mon Pardayevich AZIZOV,**  
*yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*

**Xasan Yusupovich MADIRIMOV**

# DAVLAT VA HUQUQ TARIXI

*Darslik*

*Muharrir* **B. Q. Ergashev**  
*Texnik muharrir* **D. X. Hamidullayev**

Bosishga 22.05.2012 y. ruxsat etildi. Nashriyot hisob tabag‘i 20,0.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma . Bahosi shartnoma asosida

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.